BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
1930

TARIX VA YURIDIK FAKULTETI

BUXORO TARIXI MASALALARI

(eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

2025-yil 5-dekabr



CamScanner yordamida skanerlangan

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ARXEOLOGIYA VA BUXORO TARIXI KAFEDRASI

BUXORO TARIXI MASALALARI
(eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

M A T E R I A L L A R I

2025-yil 5-dekabr

Buxoro – 2025

Ilmiy-amaliy anjuman Buxoro tarixi, manbashunosligi, tarixshunosligi, arxeologiyasi, etnografiyasi, numizmatikasi, shaharsozligi, madaniyat va san'ati sohalarida amalga oshirilayotgan eng yangi ilmiy natijalarni ilmiy jamoatchilikka yetkazish, fan va ta'limning uzviy bog'liqligini kuchaytirish maqsadida Buxoro davlat universitetida 2025-yil 5-dekabr kuni **"BUXORO TARIXI MASALALARI" (ENG QADIMGI ZAMONLARDAN HOZIRGACHA)** mavzusidagi Xalqaro miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya belgilangan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida o'tkazildi.

Ushbu ilmiy to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro tarixi bilan qiziquvchilar, tarixchilar, magistrantlar va talaba yoshlarga mo'ljallangan

Mas'ul muharrir:

K.J.Rahmonov, BuxDU dotsenti, pedagogika fanlari doktori

Tahrir hay'ati va a'zolari:

O.X.Xamidov - Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor
K.A.Samiyev - ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
B.B.Namozov - Tarix v yuridik fakulteti dekani, f.f.d., professor
J.Sh.Haitov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi mudiri, t.f.d. (DSc)
Sh.A.Xaitov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi professori, t.f.d.
H.H.To'rayev - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi professori, t.f.d.
A.T.Ochilov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi professori, t.f.d. (DSc)
F.U.Temirov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.d. (DSc)
A.H.Ahmadov - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc)
M.I.Niyazova - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.n.
M.B.Qurbonova - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.n.
A.H.Boltayev - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
B.B.Boltayev - Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
SH.O'.Nosirov – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o'qituvchisi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
Haitov J.Sh. – Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi mudiri
Nosirov Sh.O'– Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Konferensiya O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27 dekabrdagi 490-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq o'tkazilmoqda.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardir.

BUXORO: SHARQ SVILIZATSIYASINING BESHIGI VA TARIXIY MEROS MARKAZI

SO‘Z BOSHI O‘RNIDA

Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisod fanlari doktori, professor O.X.Xamidovning “Buxoro tarixi masalalari» (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) xalqaro ilmiy-amaliy anjumanidagi nutqi

Tarixiy xotira millatga kuch-qudrat bag‘ishlaydi, hayotning og‘ir sinovlarini munosib yengib o‘tishga, o‘zligini saqlab qolishda asosiy tamoyil hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘zga xalqlarni tobe etishga uringan bosqinchilar xalqni ana shu qudrat manbaidan ayirishga, shahar va tarixiy obidalari, madaniy yodgorliklari va ajdodlarning ma’naviy merosidan mahrum etish orqali tarixiy xotirasini zaiflashtirishga harakat qilganlar.

Mustaqillik yillarida, ya’ni XX asrning so‘nggi o‘n yilligi va XXI asrning dastlabki yillarida o‘nlab qadimiy shaharlarning, jumladan: Samarqand shahrining 2750 yillik, Shahrisabz va Qarshi shaharlari 2700 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlari 2500 yillik, Toshkent shahrining 2200 yillik, Marg‘ilon shahrining esa 2000 yillik yubileylari nishonlandi. Mustaqillik yillarida sayyohlik markazlari bo‘lgan hamda moddiy madaniyat namunalarining gultoji hisoblangan, ming yillik tarixga ega shaharlarning ham asl qiyofasini saqlab qolgan holda, ularning zamonaviylik uyg‘unligini ta’minlash borasida xayrli ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, ko‘hna va navqiron Buxoro tarixini mukammal o‘rganish muhim va dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu paytgacha Buxoro tarixiga oid yozma va moddiy manbalar tadqiq qilinib, quyidagicha xulosalarga kelindi:

Buxoro Markaziy Osiyoning eng qadimgi shaharlari qatoriga kirib, Zarafshon daryosi o‘zanining qurib qolgan, botqoqlik va to‘qayzorlariga aylangan hududida qad ko‘targan. Bu shahar boshqa qadimiy shaharlardan farqli o‘laroq necha bor vayron qilinsa-da, hech qachon o‘z joyidan siljimay azaliy o‘rnida qayta-qayta qad ko‘taravergan.

Tarixda biror-bir shahar Buxorodek ko‘pdan-ko‘p nomlar bilan yozma manbalarda tilga olinmagan. Buxoro xitoy, so‘g‘d, fors, sanskrit, arab yozma manbalarida o‘nlab nomlar bilan tilga olingan. Bu nomlarning lug‘aviy talqini turli xil ma’nolarni ifodalashi isbotlandi. A.R.Muhammadjonov Buxoroning nomlari xususida fikr bildirar ekan: “O‘rta asrlar yozma manbalaridan ma’lum bo‘lishicha, ulardan biri Buxoro yoki Fohira, ikkinchisi Navmichkat va Bumichkat, uchinchisi esa Faroviz yoki Farobdiz nomlari bilan yuritilgan”, deb yozgandi.

Muhammad Narshaxiy (899–959 yy.) “Buxoro tarixi” (943–944 yy.) nomli kitobida shahar Arki 7 ta tosh ustun ustida qurilganligi, shu sababli bu inshoot buzilmay, shu kungacha yetib kelganligi, bu qasrda hukmron bo‘lgan kishi biror marta ham raqibiga mag‘lub bo‘lmaganligi, unda biror-bir hukmdor vafot etmaganligi, ajali yetsa biror-bir sabab bilan chiqib ketib, ovda yoxud jangda halok bo‘lganligi haqida yozib qoldirgan.

Buxoro shahridagina emas, uning atrofida ham 500 dan ortiq tepalik, qo‘rg‘on, qal’a va shaharchalar mavjudligi, tarixiy-me’moriy obyektlar nafaqat markazda, qolaversa, shaharga tutash hududlar bo‘ylab joylashganligi bilan ahamiyatlidir.

Buxoro atrofidagi Vardonze, Poykand, Romitan, Varaxsha, Romush kabi qal’a va qo‘rg‘onlar arxeologik tadqiqot markazlari hisoblanishi, bu borada obyektlar bisyorligidan dalolat beradi.

Buxoro shahri o‘n yetti asr (er. avv. II – eramizning XV asrlari) Buyuk Ipak yo‘li oltin belbog‘ida markaziy o‘rin egallagan.

Buxoro shahrining arxeologik obyektlarini yangidan o‘rganish, shahar yoshini qadimiylashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy, konseptual loyiha doirasidagi tadqiqotlar oldiga qo‘yiladigan vazifalarni belgilash lozim.

Buxoro shahri hududida va uning atrofida joylashgan qadimiy obyektlar – Vardonze, Varaxsha, Poykend, Romush, Zandana, Narshax kabi qadimgi shahar va qishloqlar o‘rnidagi tepaliklarda maqsadga yo‘naltirilgan arxeologik qazishmalar olib boriladi. Arxeologik ekspeditsiyalar O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti (Samarqand shahrida joylashgan) olimlari, Tarix instituti ilmiy xodimlari, respublikamizdagi taniqli qadimshunoslar, mahalliy arxeologlar tomonidan o‘tkaziladi.

Buxoro tarixiga oid turli kitoblar nashr qilinadi:

a) manbashunoslik asarlari;

b) tarixiy tadqiqotlar;

v) turli mualliflarning hamkorlikda yaratgan asarlari. “Buxoro tarixi manbalarda” nomli xrestomatiya nashrga tayyorlanib, chop qilinadi.

Xorijda, respublika markaziy matbuoti, viloyat, shahar va tumanlar matbuotida Buxoro tarixiga oid ilmiy va ommabop maqolalar muntazam nashr etiladi.

“Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanning asosnomasi tayyorlangan, ushbu konferensiya har yili dekabr oyining birinchi o‘n kunligida tashkil etiladi, mazkur anjumanga respublika va bundan so‘ng xorijdan taniqli arxeolog olimlarning o‘z maqolalari bilan qatnashishlariga erishiladi.

Buxoro tarixidagi muhim voqealar va buxorolik mashhur allomalar, davlat va jamoat arboblari haqida asl manbalarga tayanilgan holda tadqiqotlar chop ettirib boriladi.

Buxoro viloyati, xususan, Buxoro shahridagi joy nomlari (guzar, mahalla, qishloq, mavze, bozor, tepalik, tuman, shahar va b.) izohi kiritilgan “Buxoro viloyati toponimlari (atamalari)ning izohli lug‘ati” kitobi nashrga tayyorlaniladi va chop qilinadi (taxminan 4000–5000 atamadan iborat).

Buxoro tarixiga bag‘ishlangan kitobni yaratish.

Birinchi jildda Buxoro shahrining eng qadimgi davrlardan boshlab to XIV asr o‘rtalarigacha bo‘lgan tarixi yoritiladi. Unda Buxoroning So‘g‘diyona, Buxoro So‘g‘di, Turk hoqonligi, Eftaliylar, Arab xalifaligi, Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar davlatlari va mo‘g‘ullar davridagi tarixi yoritiladi.

Ikkinchi jildda XIV asr o‘rtalaridan to XX asr boshlarigacha bo‘lgan Buxoro tarixi o‘z ifodasini topadi. Bu jildda Temuriylar davri, Buxoro xonligi va amirligi tarixi (shayboniylar, ashtarxoniylar, mang‘itlar sulolasi davri) yoritilib, kitob 1920-yilda qizil armiya tomonidan Buxoro amirligining tugatilishi bilan yakunlanadi.

Uchinchi jildda Buxoroning so‘nggi yuz yillik tarixi (1920-yildan to hozirgi kungacha) o‘z aksini topadi. Unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi, sovet hokimiyati yillari va mustaqillik davridagi Buxoro shahri hayoti tasvirlanadi.

“Buxoro ensiklopediyasi” tayyorlanadi. Ensiklopediyadan Buxoro tarixi, xususan, Buxoro shahri tarixiga oid atamalar o‘rin egallaydi.

Buxoro shahri va uning atrofidagi qadimiy arxeologik obyektlarning topografik xaritasi yaratiladi. Arxeologik qazish ishlari olib boriladigan muhim yodgorliklar aniqlanadi va ularni o‘rganish uchun arxeologik ekspeditsiyalar faoliyatining grafik jadvali tuziladi. “Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi” shakllantiriladi va faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Xullas, Buxoro shahrining arxeologik obyektlarini yangidan o‘rganish, shahar yoshini qadimiylashtirish loyihasiga oid tadqiqotlarni tayyorlash, ularni tahrir qilish va chop etish ancha muddatni talab qiladi. Ushbu vazifalarni bajarishga butun mamlakatimizda, xususan, Buxoro viloyati miqyosida davlat siyosati darajasida alohida e’tibor qaratilishi kerak. Buxoroda arxeologik tadqiqotlar olib borishni yanada jonlantirish uchun arxeologiya mutaxassisligiga bakalavr va magistrlar qabul qilishni yo‘lga qo‘yish zarur. Arxeologik ekspeditsiyalar tayyorlash va ularni amalga oshirish, manbashunoslik asarlarini tarjima qilib, ularni nashr qilishga, shuningdek, ilmiy tadqiqotchilar guruhini shakllantirish, olimlarni zarur ish joyi, asbob-uskunalar va moliyaviy ta’minlashga o‘n yillar davomida bir necha o‘n million so‘mdan tortib bir necha yuz million so‘mgacha katta miqdordagi mablag‘ talab qilinadi. Ushbu mablag‘davlat hisobidan (mahalliy va respublika byudjetidan) hamda buxorolik homiylar (“Buxoro tarixi” xayriya jamg‘armasi) tomonidan ajratiladi. Mazkur keng ko‘lamli va katta hajmdagi ishlar jamoatchilik tafakkurida va ijtimoiy hayotda Buxoroning haqqoniy yoshi haqidagi fikrlarni singdirish va shakllantirishga asos bo‘ladi. Natijada Buxoro shahrining haqiqiy yoshi bilan bog‘liq yubiley to‘yini YUNESKO ishtirokida xalqaro miqyosda nishonlash imkoni yaratiladi. Buxoro davlat universitetida YUNESKO kafedrasini ochish borasida amaliy ishlar yakuniy bosqichda ekanligi, kelajakda Buxoro tarixi va moddiy madaniyatini yanada chuqur ilmiy tadqiq qilishga imkon beradi.

1-SHO‘BA. BUXORO ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI VA TOPONIMIKASI

ЎЗБЕК МАДАНИЯТИДА ПАЛОВ БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНАЛАР

Манзила Қурбонова,
БухДУ Археология ва Бухоро тарихи кафедраси
профессори, тарих фанлари номзоди

Аннотация: Мақолада Бухоронинг анъанавий пазандачилигида палов тутган ўрни, воҳа ўзбек ва тожиклари орасида тайёрланадиган ош хиллари, уларнинг маросимий аҳамияти, семантикаси, таом билан боғлиқ эътиқод ва қадриятлар дала тадқиқотлар ва илмий манбалар асосида илмий таҳлил этилган.

Калит сўзлар: тўғрама палов, совчи палов, қобулий палов, оши хоссаги, софи палов, пайғамбар оши

Бухороликларнинг севимли таоми палов ҳисобланиб, хонадонга ташриф буюрган меҳмонларни улар бу тотли ва тўйимли таом билан сийлаганлар[1]. Халқ ошпазлигида паловнинг юздан ортиқ хили бўлган. Қори Раҳматилло Возеҳ ўз асарида паловнинг 109 хили ҳақида сўз юритади[2].

Биз палов турининг айримлари устида тўхталиб ўтмоқчимиз. Воҳада паловларнинг қуйидаги хиллари тайёрланган: оши қобулий –қобулий палов, оши софи – соф палов, оши бахш – тўғрама палов, совчи палов (ситора палов), оши токий – ток палов, бундан ташқари оши хоссагий ва бошқа шунга ўхшаш қадимий паловлар ҳам бўлган.

Ҳафтада бир марта одлий палов истеъмол қилган камбағал ўзбек ва тожик хонадонлари учун палов энг лаззатли таом бўлиши бирга, энг қийматли ҳамдир. Шунинг учун хонадонларда истеъмол қилинган палов масаллиғи деҳқон хўжалигида етиштирилган маҳсулотлардан тайёрлашга ҳаракат қилинган. Масалан, оддий уй паловига кўпинча қўй гўшти, қуйруқ ёғи, пўст думба, сабзавотлардан шолғом, саримсоқ, мевалардан беҳи ва зираворлар солиш одатга айланган. Бироқ ҳамма хилдаги паловларга зираворлар солинавермаган.

XIX аср охири XX аср бошларида воҳа ўзбек ва тожик хонадонларида кенг истеъмолдаги палов хили бу оши қобулий. Бухороликлар бу таомни кобулликлардан ўрганганликлари учун паловга шу ном берилган, деган фикр мавжуд[3]. Кобулий палов силласи қуриб, меъдаси сусайган кишилар учун шифобахш бўлиб, одам танаси ҳароратини бир хил сақлашда бош оғриғи ва юрак хасталигига фойдаси борлиги халқ тажрибасида синалган.

Совчи палов ёки ситора палов ҳам воҳа аҳолиси ўртасида кенг тарқалган. Уни тайёрлаш жуда осон, бунинг учун кобулий палов пиширилиб, тухум қайнатилиб, палов устига бутун ёки иккига бўлиб терилган. Палов юзидаги тухумлар юлдузга қиёсланиб, бундай паловни тожиклар ситора палов деб юритганлар.

Воҳа ҳудудидаги қишлоқларда аёл совчилар томонидан “ўғлимизнинг юлдузи қизингиз юлдузига мос тушибди, бахтли бўлишсин”, деган мақсадни билдириш учун бу хилдаги палов пишириб борилган. Воҳа марказидаги ўзбек ва тожикларда эса бу таом келин унаштирилгандан кейин албатта, келиннинг ризқи деб, куёв томонидан совчиликка борган аёллар пишириб элтганлар[4].

Ток палов ёки оши токи баҳор мавсумида ток барглари эндигина ёзилган ва ўрик довуччалар солган вақтда тайёрланган. Бу таомни тайёрлаш учун ток баргларига гўштдан тайёрланган қийма ва бир-икки дона довучча ўраб палов сабзисидан олдин қозонга

[1] Фридрих Н.А. Бухара – этнографический очерк. – Спб., 1910. – С.21.
[2] Неъматзода Т. “Кони лаззат ва хони неъмат”и Возех. Мажмуаи илми. Чилди XXVI Серияи Фанҳои филологи. Нашри 2. – Сталинобод., 1959. саҳ.55.
[3] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри. 1989 йил, март.
[4] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри. 1991 йил, январь.

терилган. Бу хилдаги палов тансиқ паловлардан саналган. Чунки йилнинг ҳамма фаслларида ҳам уни пиширишнинг имкони бўлмаган.

“Оши хоссаги”[1] Бухоро амирлигида олий даргоғда тайёрланган махсус палов бўлиб, бундай таом халқ истеъмолида бўлмаган. Бу паловнинг бир неча хилллари бўлган. Айрим ҳолларда бир қозонда қобулий палови, иккинчисида кабоб пиширилиб, аввал палов кейин эса устига кабоб сузилган. Иккинчиси эса зиҳир ёғида тайёрланиб, паловга отнинг сур қилинган қазиси, ҳамда кўпроқ сабзи ишлатилиб , палов устига қази босилган, зира, гармдори, ҳел[2] солинган. Оддий халқ бу таом учун сарфланадиган масаллиқларни сотиб олишга қурби етмаган. Бироқ, бу хилдаги паловни тайёрлаш усулини кўпчилик билган.

Халқ турмушида қадимдан палов остига товуқ, бедана, қирғовул, булдуруқ каби паррандалар гўштини бостириш одати мавжудлиги Абдулқодир Савдо шеърларида куйланган[3].

Ўзбек палови хусусида жуда кўп нақллар ва ривоятлар тўқилган. Машойихлар далолатича, палов шундай таомки, уни тайёрлаш кашф этилгандан буён неча марта палов пиширилган бўлса, ҳеч қачон аввалгисига ўхшаган эмас. Бунинг боиси масалиқ, об-ҳаво, сув, олов, ўчоқ, зиравор, таомга солинадиган туз миқдори ёки дамлаш жиҳатларида бўладиган ўзига хос ўт мураккаб кайфиятга боғлиқдир. Ошпаз маҳорати эса янада аҳамиятли бўлган.

Бу даврда воҳа маркази ва унга яқин бўлган туманларда ўтказилган тўй ва маросимларда доимо “софи палов” (тож.оши соф) пиширилган. Бухоро воҳасининг деярли ҳамма туманларида суннат тўйи ва қиз тўйлари[4] “оши софисиз” ўтказилмаган. Оши соф таомнинг тожикча атамаси бўлиб ўзбек тилида ҳам шу сўз қўлланилган. Таом фақат тўй маросимларида эмас кекса қариялар пайғамбар ёшига (63 ёш) етганда “Пайғамбар оши” ёки жуда кексайиб, муродига етиб вафот этганда, дафн этилган куни “оши сиёҳ” деб халққа берилган. Бироқ шуни қайд этиш лозимки таомнинг вазиятга қараб номи ўзгараверсада, тайёрлаш таркиби ўзгармаган. Таомни тайёрлаш учун маърака эгалари махсус ошпаз чақиртирганлар.

Ошпазга фақат эркаклар ёрдамлашган. Палов мис қозонда тайёрланган чунки мис қозон оғзи тор, ичи кенг бўлгани учун яхши етилган ва қозон таги олмаган. Шу билан бирга мис қозоннинг ҳамма хажмдаги хиллари мавжуд бўлиб бу ҳам ишни осонлаштиради. Мис қозон тоза жойда бўлиб, олд томони қиблага қаратилган махсус қазилган ер ўчоққа ўрнатилган. Таом лаззатли бўлиши учун унга сарфланадиган масаллиқ ҳам меъёрида бўлиши (масалан, 10 кг гуручга 6 кг гўшт, 6 кг сабзи, 1 кг майиз) лозим. Таомни тайёрлашда даставвал чўян қозонга гўшт солиб шўрва пиширилган, гуруч эса тузли илиқ сувда уч марта чайиб, мис қозондаги қайноқ, тузли сувга солинган. Гуруч пишганидан сўнг бўз ёки бўйра устига обгардон билан олинган ва худди шу жараёнда заъфар[5] сувга эритиб, гуруч юзига сепилади. Шундан сўнг чўян қозонда тайёр бўлган шўрва гўшти мис қозонга солиниб, унинг устидан эса тўғралган сабзи, зираворлар, майиз (тож. майизи оши) солинган. Буларнинг устидан қайнатилган гуруч ва шўрванинг суви (10 кг гуручга 4 литр сув миқдорида) солинган ва ўчоқда олов ёқилган. Қозон оғзи аввал бўйра сўнг устига лаган ағдариб беркитилган ва бироз қайнатилган (қозондан буғ чиқиб турса, демак гуруч қайнаяпти деб фараз қилинган). Кейин эса гуруч юзига керакли миқдорда ёғ қиздириб, сепилган ва таом бироз вақт (тахминан 3-5 мин) дам бериб, сўнгра сузилган. Воҳада бу жараённи “оша шикастан”, яъни дам еган ошни бузиш деб номланган. Паловни фақат ошпазнинг ўзи сузган.

[1] “Хоссаги” сўзининг луғавий маъноси ҳақида қаранг: Айни С. Куллиёт. Чилди 12, Душанбе. 1976. саҳ.440.

[2] Ҳел-хушбўй ширач ўсимлиги –eremureshнинг маҳаллий бухорча номи. Хел меваси териб олиб, янчилган ва оши соф ва қандчойга солинган. Қаранг; Никитин В.В.Иллюстрированный определитель растений окрестностей Ашхабада. – М.Л., 1965. – С.78-79.

[3] Қаранг: Абдулқодир Савдо. Мунтахабот (избранное). – Сталинобод., 1958. – С.76.

[4] Воҳада келин-куёв тўйини қиз тўйи деб ҳам номлаганлар. (тож. Тўйи духтар)

[5] Заъфарон ўсимлиги. Унинг гулидан сариқ рангли ингичка толалар териб олинган. Табобат хазинаси дурдоналаридан. – Тошкент., 1987. – Б.138.

Уни ҳаммага етказишда ўзини масъул сезган. Бунинг учун ошпаз дуои фотиҳа ўқиб, қозон оғзини очиб, аввал палов юзидаги гуручларни сузиб олган, чунки ёғ қиздириб сепиш натижасида пишган гуручлар қотиб қолган, ёки маҳаллий тилда уларни “какарак шудаги биринжо” бир-бирига бирикиб қолган гуручлар деб аталиб, кўпинча юраги хаста кишиларга даво деб едирилган. “Оши соф” кўпинча вақф[1] этилган маҳалла томонларга сузилган[2]. Ошпазлар бировга кўп бировга камроқ сузишни аввало инсоф одоб ахлоққа зид кейин у дунёда жавоби бор деб тушунганлар. Палов одатда маърака тўрида ўтирган кимсалар олдига қўйилган. Халқимизнинг қадимги одатларидан бири бўлган “ош каттадан” удумига яъни ошга аввал ёши улуғлар қўл чўзиш одатига амал қилганлар. Шуни қайд этиш зарурки тўйда пиширилган “оши соф” масаллиғи жуфт миқдорда, таъзияда тоқ ўлчовда сарфланган.

Бу таом пархез саналган, чунки биринчидан жуда хуштаъм, иккинчидан гуруч сувда қайнатилганда жуда етилади. Шунинг учун ҳам сифати бузилмайди. Қанча тўйиб тановвул қилинса ҳам киши вужудида зўрлик, оғирлик қилмайди, яъни қоринни шиширмайди ёки қиздириб босимни оширмайди. Шу сабабли ёши қарилар учун беғубор таом ҳисобланган. Бу паловни воҳа ўзбеклари “совуқлик”, тожиклари эса “хунуки” деб атаган. Воҳа яқини ва марказида бўлган жойларда таомни сузишдан олдин дастурхонга албатта қандчой тортилган. Қандчой эса ўзбекларда “иссиқлик” тожикларда “гарми” деб қабул қилинган. Чунки унинг таркиби қорачой, новвот, заъфар, долчин қўшилмасидан иборат бўлган. Қандчойдан кейин тановвул қилинган “оши соф” кишини жисмини мўътадиллаштирган.

Бу таом ҳақида К.Махмудов ҳам оши соф паловларнинг қадимий классик турларидан бири бўлиб, шу билан бирга “унутилаётган палов”[3] деган фикрни билдирган. Бироқ, бу фикрга қўшилиб бўлмайди, чунки бу турдаги палов Бухоро воҳасидаги маърака ва маросимларнинг кўрки сифатида муттасил дамланиб, ошпазлик тажрибаси бойиб борган. Бухоро эронийларида ҳам мотамнинг учинчи куни Хатми қуръон ўтказилиб, оши соф пиширилгани қайд этилган[4].

Мухтасар айтганда, маросим таомлари тайёрлаш аҳоли тўй маракалари билан боглиқ жараён бўлиб, унда ўзбек ва тожикларнинг асрлар давомида тўпланган бой тажрибасини намойиш этган.

БУХОРО ВОҲАСИНИНГ БРОНЗА ДАВРИ ИЖТИМОИЙ- ИҚТИСОДИЙ ТАРИХИНИ ЁРИТИШДА ЗАМОНБОБО МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ

Очилов Алишер Тўлис ўғли
Бухоро давлат
университети профессори, тарих фанлари доктори

Ўрта Осиёда бронза даври мил. авв. III минг йилликдан, мил. авв. I минг йилликнинг бошларигача бўлган даврни ўз ичига олади. Бронза даврида Ўрта Осиёнинг айрим ҳудудларида деҳқончилик қишлоқлари ўрнида шаклланган илк шаҳар марказлари ҳар томонлама ривожланиб, уларнинг савдо-иқтисодий, маданий-ғоявий ва маъмурий марказ сифатидаги аҳамияти ортиб боради.

Бронза даври кишилик жамиятини археологик даврлаштиришда неолит давридан кейинги давр ҳисобланади. Ижтимоий ҳаётда фойдаланиш бироз ноқулай бўлган юмшоқ миснинг ўрнини қаттиқ бронза егаллайди. Натижада металлга ишлов беришнинг янги босқичи вужудга келади ва металлургия соҳаси тараққий этади. Бу эса ҳунармандчилик ривожланишида муҳим ижобий ўзгаришларга олиб келди. Ишлаб чиқаришнинг ихтисослашуви чуқурлашиб, маданиятларнинг ўзаро ижтимоий-иқтисодий алоқаларини ривожланишига олиб келади.

[1] Вақф ҳақида қаранг: Фарҳанги забони точики. Чилди I, саҳ.231
[2] Дала ёзувлари. Бухоро шаҳри. 1989 йил, сентябр.
[3] Маҳмудов К. Пловы на любой вкус. – Ташкент., 1989. – С.120.
[4]Люшкевич Ф.Д. Этнографическая группа ирони / Занятия и быт народов Средней Азии. Среднеазиатский этнографический сборник III. – Ленинград, 1971. – С.58.

Ижтимоий-иқтисодий тараққиётнинг тезлашуви, хўжалик меҳнат қуролларини қаттиқ металлдан ясалиши, аҳоли ҳаётида ижобий ўзгаришлар ва туб бурилишлар содир бўлишига олиб келди. Бунинг ёрқин далилини Бухоро воҳаси бронза даври маданиятлари мисолида ҳам кўришимиз мумкин.

Бухоро воҳаси ҳудуди милоддан аввалги 3-мингйиллик ўрталарига келиб табиий-географик нуқтаи назардан деҳқончилик ва чорвачилик қилиш учун қулай ҳудуд ҳисобланган. Шунинг учун ҳам бронза даврида Зарафшон ва Қашқадарёларнинг қуйи оқимларида яхшигина ўзига хос антропоген ланшафт шаклланган эди.

Милоддан аввалги III минг йилликнинг охирларига келиб Зарафшон дарёсининг сувлари унинг қуйи қисмига бориб кескин камайиб[1], Бухоро воҳасида кам сувлик вужудга кела бошлайди. Натижада милоддан аввалги 3-мингйиллик ўрталарига келиб қурур ҳудудлар аҳолиси тўлиқ чорвачилик билан кун кечирган бўлса, дарё этакларида истиқомат қилувчи аҳоли лиман деҳқончилик билан кун кечиришади[2]. Овчилик ва балиқчилик Қуйи Зарафшонда истиқомат қилувчи аҳолига қўшимча, иккинчи даражали хўжаликка айланади[3].

Бухоро воҳасининг бронза даври маданиятлари асосан Зарафшон дарёсининг қуйи оқимларида яхши кечганлигини археологик тадқиқотлар ва уларнинг натижаларидан билиб олишимиз мумкин.

Архтефактларни маьлум қилишича бронза даври Бухоро воҳасида Калтаминор ва Андроново-Тозабоғёб маданиятларининг таьсири мавжуд ёдгорликлар кенг тарқаган. Масалан, Замонбобо, Қизилқир I, Қизилқир II, Гужайли, Катта Тузкон, Кичик Тузконлари, Мохонкўл ва бошқа жойлардан топилган бронза даврига мансуб қабрлар, манзиллардан чиққан жез ва металл бўлаклари, ташқарисига бошоқсимон ботирма нақшлар тортилган бутун сопол идишлар топилмалари фикримизни исботлайди[4]. Зарафшоннинг қуйи оқими етакларидан, Варахша атрофларидан топилган бронза даврига мансуб болта, пичоқ, камон ўқининг жез пайконлари[5] ва башқалар Бухоро воҳаси бронза даври аҳолисининг ижтимоий-маданий ҳаётидан далолат беради.

Бухоро воҳаси бронза даври ижтимоий-иқтисодий муносабатлар яхши қўринадиган манзил Зарафшоннинг қуйи оқимидаги Замонбобо маданияти ҳисобланади. Замонбобо Бухоро вилояти Қоракўл тумани марказидан 15 км шимоли-ғарбда Замонбобо кўли атрофида жойлашган қадимги маданият ҳисобланади. Замонбобо маданияти макон ва қабристон қисмларидан иборат.

Бу маданият милоддан аввалги III минг йилликнинг охири ва II минг йилликнинг бошларида Зарафшоннинг қуйи ҳавзасида, икки минтақа жамоаларининг ўзаро иқтисодий алоқаларининг натижаси сифатида, Бухоронинг туб маҳаллий аҳолининг этник асосида шаклланди[6]. Қуйи Зарафшон қабилаларининг жанубий жамоалар билан олиб борган ўзаро маданий ва хўжалик алоқалари охир оқибатда иқтисодий ҳаёти хонаки чорвачилик ва пасира деҳқончиликка асосланган Замонбобо маданиятининг шаклланишига олиб келди[7].

Замонбобо қабристони замонбоболикларни ижтимоий-иқтисодий ривожланишида бошқа халқларнинг ҳам ўрни беқиёс кечганлигини кўрсатиб берувчи фактларга бой. Бу ердан 46 та қабр топиб ўрганилган[8]. Қабрлар лахат шаклида бўлиб, майитларнинг оёқ

[1] Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро.-Тошкент,1991.-Б.22.
[2] Асқаров А.А. Бухоронинг ибтидоий тарихидан лавҳалар.-Тошкент: “Фан”,1973.-Б.17.
[3] Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро.-Тошкент,1991.-Б.23.
[4] Гулямов Я.Г., Исломов У., Асқаров А. Первобытня культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. –Тошкент,1966. С.187-207.
[5] Шишкин В.А. Варахша.-Масква,1963.-С.20.
[6] Гулямов Я.Г., Исломов У., Асқаров А. Первобытня культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. – Тошкент,1966.-Стр.166-170.; Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро.-Тошкент,1991.-Б.26-27.
[7] Гулямов Я.Г., Исломов У., Асқаров А. Первобытня культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зерафшана. –Тошкент,1966. -С.170.
[8] Джуракулова Д. М. “Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври қабилалари маданияти”.Т.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация.-Самарқанд,2009.-С.27.

қўллари букулиб яьни эмбрион шаклида, чап ва ўнг томонга ёнбошлатиб кўмилган. Бази манбаларда қайд этилишича еркаклар ўнг, аёллар чап томонга ётқизиб кўмилган[1]. Скелетларнинг боши шарққа, шимолий– шарққа, баъзан шимолий- ғарбга қаратилган. Қабрларга асосан бир киши кўмилган, икки кишилик, баъзан қайта кўмилган қабрлар ҳам учрайди. Ҳар бир қабрда, асосан скелетнинг бош томонига битта-иккитадан идишлар учрайди[2].

Мурдалар кузатув буюмлар билан кўмилганлиги замонбобликлар ўлимга ишонишмай, инсон абадий уйқуга кетди ва нариги дунёда ҳаёт бор деб тасаввур қилишганлигидан далолат беради. Эркак кишилар қабрларида кўпроқ қурол аслаҳалар учраса, аёллар қабрида турли хил рангдаги қимматбаҳо тошлардан, мунчоқлар, мис ойна, ярим ойсимон мис пичоқ ва бошқа шу каби буюмлар учрайди. Бундан билишимиз мумкинки, замонбоболиклар ижтимоий ҳаётида аёлларнинг (оналарнинг) роли юқори бўлган. Бунинг яна бир исботи сифатида Замонбобо қабристонининг 2 қабридан топилган узунлиги 15 см, белининг кенглиги 4 см, қизил бўёқ билан бўялган ягона она ҳайкалининг схематик рамзий нусхасини кўрсатиш мумкин[3]. Бундай теракоталар Намозгоҳ 5[4], Шаҳтепанинг охирги қатламларидан[5], Ҳисортепа 3[6] ва Аноу[7] ёдгорликларидан ҳам топилган. Бу еса ўша давр аҳолиси бошқа халқлар билан қизғин ижтимоий-иқтисодий алоқалар қилиганлигидан ҳамда онанинг жамиятдаги ўрни ҳалиям юқори эканлигидан далолат беради.

Бухоро воҳасининг бронза даври ижтимоий-иқтисодий тарихини ёритишда Замонбобо маданиятининг тутган ўрнини тадқиқ қилиш натижасида қуйидаги хулосаларга келинди:

Замонбобо маданиятининг шаклланишига қадар бу ҳудудларда неолит даврининг Калтаминор маданияти соҳиблари истиқомат қилганлигини, ҳамда маданиятининг ҳусусиятлари ва моддий маданиятидан унинг шаклланиш даври илк бронза даврларига тўғри келади дейишимиз мумкин;

Замонбобо маданиятининг шаклланишида деҳқон жамоаларининг ўрни қанчалик бўлмасин, маскур минтақанинг мавжуд табиий-географик ва экологик шароити ўз ишини қилди, яъни замонбоболикларнинг иқтисодий асосини хонаки чорвачилик ва пасира деҳқончилик ташкил қилди;

Замонбобо Бухоро воҳасининг бронза даври дашт қабилалар маданиятини очиб берувчи муҳум маданият эканлиги артефактларда ўз исботини топди;

Бу ердан топиб ўрганилган қабрлар, сопол идишлари, меҳнат қуроллари ва металл буюмлари Замонбобонинг Ўрта Осиё бронза даври ижтимоий-иқтисодий муносабатларида ўз ўрнига эга манзилгоҳ эканлигини яққол кўрсатиб берди;

Замонбобо маданияти ва унинг хусусиятларини чуқур ўрганиш Бухоро воҳасининг бронза даври ижтимоий-иқтисодий тарихини аниқ ва равшан ёритишга хизмат қилади.

Замонбобо маданиятининг археологлар томонидан топиб ўрганилиши Бухоронинг ибтидоий жамият тарихини ўрганишда туб бурилишлар ясай олди ва бошқа бир қанча археологик кашфиётларга туртки бўлди;

---

[1] Асқаров А.А. Ўзбек халқини келиб чиқиш тарихи. –Тошкент,2015.-Б.225.

[2] Гулямов Я.Г. Археологические работы к западу от Бухарского оазиса. Тр. Ин-та Истории и археологии АН Узбекистана. Вып. 8. Ташкент-1956; Кузьмина Э.Э. Могильник Заманбаба. СЭ №2, 1958; Латынин Б.А. О южных границах ойкумены степных культур эпохи бронзы. СА №3, 1958, -С.50-51.; Аскаров А. Культура Заманбаба в низовьях Зарафшана. ОНУ №11, Ташкент,1962; Аскаров А. Поселение Заманбаба. КСИА, вып. 93, 1963;

[3] Гулямов Я.Г., Исламов У., Аскаров А. Первобытная культура в низовьях Зарафшана.-Ташкент,1966. -Стр.129,158.

[4] Литвинский Б А. Намазга-депе(по данным раскопок 1949—1950 гг.),СЭ, 1952,№4. рис. 13, 11—12.

[5] Arne T.I. Excavations at Ahah-tepe, Iran ,Stockholm,1945. рис. 526.

[6] Schmidt E.E. Tepe Hissar. Excavationso of 1931. The Joint expedition to Persia of the University Museum and the Pennsylvania Museum of art, Philadelphia,1933.: Schmidt E. Excavations at Tepe-Hissar, Damghan, Philadelphia,1937.

[7] Pumpelley R. Explorations in Turkestan, Washington.1908. vol.I. табл. 46, рис. 15.

БУХОРО ВОҲАСИДА ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИ ШАКЛЛАНИШИДА ИРРИГАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ (ПОЙКЕНТ МИСОЛИДА)

Очилов Алишер Тўлис ўғли
Бухоро давлат
университети профессори, тарих фанлари доктори
Хамраев Искандар Муротжонович - Бухоро давлат
университети таянч докторанти

Дунё ҳам жамиятида илк цивилизациялар дарё ва сув ҳавзалари бўйида вужудга келади. Масалан Қадимги Мисрда Нил ҳавзаси бўйида, Месопатамияда Дажла ва Фрот дарёлари оралиғида, Ҳиндистонда Ҳинд ва Ганга дарёлари бўйида қадимги аҳоли манзилгоҳлари, шаҳар-давлатлар вужудга келган. Шу ўринда Бухоро воҳасининг шаклланиши, қадимги аҳоли манзилголари, қишлоқ ва шаҳарларнинг тараққий этишида Зарафшон дарёсининг ўрни беқиёс ҳисобланади. Шу сабали тарихчилар “Бухоро-Зарафшон дарёсининг туҳфаси” деб тақидлайди[1]. Сабаби, қадимдан Бухоро воҳасининг асосий сув манбаи Зарафшон дарёси ҳисобланган.

Зарафшон дарёси шимолдан Туркистон, жанубдан Ҳисор ҳамда Зарафшон тизмалари туташган ерда 3154 метр баландликда[2] жойлашган Зарафшон музлигидан бошланган. Музликнинг узунлиги 24,7 км, кенглиги 1,7 км бўлиб, қалинлиги 200 м ни ташкил қилади[3].

Зарафшон давёси ўз вақтида Амударёга қуйилган. Буни археологик ва геологик тадқиқотлар исботлаб берган. Шундан Зарафшоннинг делта қисми қадимдан одамлар яшаши учун қулай ҳудудларга айлана бошланади. Бу дарда Бухоро воҳаси ҳудудида яшил даштлар, кўплаб кўллар ва каналлар мавжуд бўлган. Зарафшон водийсида ҳали суғорма деҳқончилик вужудга келмаганида дарёнинг барча сувлари Бухоро воҳаси томон интилган. Бухоронинг жужа катта ҳудудлари аҳоли томонидан ўзлаштирилиши натижасида Зарафшон дарёсиниг суви Амударёгача бормай қолади. Зарафшондан сув олган Бухоронинг ғарбий қисмидаги Моҳондарё, Гурдуш, Гужайли, Замонбобо кўли, Чуқуркўл, Ўртакўл ва бошқа сув ҳавзалари қурийди. Зарафшон Бухоронинг Қоракўл ҳудудига бориб чўлга сингиб кетади. Манбаларда қайд этилишича Бухоро воҳаси ҳудудида Зарафшон даёсидан 35 та канал ва сув ҳавзалари бош олган. Шу каналлар воҳада юксак ривожланган шаҳарларни вужудга келтиради. Булар орасида ҳозирги кунда Бухоро шаҳридан олтмиш чақирим жанубий - ғарбда Қоракўл туманининг Шўрабод МФЙ ҳудудида жойлашган - Пойкент шаҳри диққатга сазовор.

Пойкент ҳақида жуда кўплаб ёзма манбаларда маьлумотлар учрайди. Масалан, хитой йилномаларида Пойкент Би номи билан, арабнависларнинг асарларида еса Мадинит ут-тужжор яьни “Савдогарлар шаҳри” номлари билан шуҳрат қозонган. Пойкент аҳолисининг асосий қисми савдогарчилик билан шуғулланган. Пойкент Карвонлар учун тохташ ва савдо қилиш жойи ҳисобланган. Шунинг учун ҳам Пойкент аҳолиси жуда бой ҳисобланган. Пойкентнинг ҳақиқий тарихини яратишда археологик тадқиқотлар жуда муҳум ҳисобланади.

Археологик маълумотларга кўра бу ҳудудда бронза давридан бошлаб инсоният яшай бошлаган. Пойкетнинг асосий сув манбаилари Қашқадарё ва Зарафшон дарёсининг ирмоқлари исобланган. Милоддан аввалги V - III асрларда инсонлар бу ҳудудда гавжумлаша бошлаган. Худди шу даврдан бошлаб шаҳар қад кўтара бошлаган. Бу вақтда шаҳар майдони 1 га ни ташкил этган. Пойкент нотўғри тўртбурчак шаклга эга бўлиб, энг қадимий қисми арк қисмидир. У милоддан аввалги IV - III асрларда барпо этилган. Милодий V - VI асрларда Шаҳристон I, VI -VII асрларда эса Шаҳристон II барпо қилинган. Пойкент

[1] Шишкин В.Аю Варахша. М.,1963. С.8.
[2] Шульц В.Л. Гидрография Средней Азии. –Ташкент,1958. С.59.
[3] Муҳаммаджонов А.Р. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. –Тошкент,1972. Б.22.

шаҳри V - VI асрларда ўз тараққиётининг юқорига босқичига кўтарилган, бу даврда Пойкент шаҳри работлар ҳисобига кенгайтирилган[1]. Наршахий ёзишича Пойкентда мингдан ортиқ работ бўлган[2]

Археологик тадқиқотлар натижасида Пойкентнинг Арк қисмидан антик ва илк ўрта асрларга таалуқли қувурлар, Шаҳристон II ҳудудидан эса ташнаулар топилганлиги Пойкентда камунал жараёнлар яхши йўлга қойилганлиги кўришимиз мумкин. XI аср ўрталарига келиб Бухоро воҳасининг ғарбий қисмларида сув танқислиги кузатилади. Натижада Пойкент ҳудудига сув бормай қолади, шу туфайли шаҳарда ҳаёт тўхтайди[3].
Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, Бухоро воҳасида хусусан Пойкент ҳудудида шаҳарнинг пайдо бўлиши, ривожланиши ва заволга юз тутишида ирригацион системанинг аҳамияти беқиёс исобланган. Пойкнтнинг фаолиятидан ҳам билишимиз мумкинки “Сув-ҳаёт манбаи” ҳисобланади.

“AVSTRALIYA O’ZBEKLAR JAMIYATI” TARIXIGA DOIR

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi
BuxDU maqsadli tayanch doktaranti,
Buxoro innovatsion ta’lim va tibbiyot universiteti assistenti
Tel: +998(91) 445-97-00

Annotatsiya. Mazkur maqolada Avstraliya qit’asiga o‘zbek millati vakillarining ko‘chib kelishi, ularning ijtimoiy tarkibi, “Avstraliya o‘zbeklar jamiyati”ning 1991-yilda tashkil topishi va uning faoliyati yoritilgan. Jamiyatning asosiy maqsadlari — o‘zbek tilini saqlab qolish, madaniy-ma’rifiy ishlarda faollik ko‘rsatish, O‘zbekiston bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat bo‘lgan. Shuningdek, jamiyatdan ajralib chiqqan “Avstraliya-Turkiston jamiyati”ning yuzaga kelish sabablari va jamiyat huzurida ochilgan o‘zbek maktabi faoliyati tahlil qilingan. Maqolada, jamiyatning O‘zHAMA bilan hamkorlikdagi madaniy aloqalari, nashriyot ishlari va iqtisodiy imkoniyatlari haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar. Avstraliya o‘zbeklari, o‘zbek diasporasi, Avstraliya o‘zbeklar jamiyati, milliy-madaniy faoliyat, o‘zbek maktabi, O‘zHAMA, O‘zbekiston bilan aloqalar, madaniy hamkorlik.

“Avstraliya o’zbeklar jamiyati” tashkilotining tuzulishi 1991-yil 24-aprel kuniga to’g’ri keladi, o’sha yilning iyul oyida tashkilot faoliyatga kirishgani rasman e’lon qilingan. Avstraliya qit’asiga o’zbek millati vakillari 1985-1986-yillarda Xitoy Xalq Respublikasining Shing-jon muxtor rayonidan ko’chib o’tdilar va mamlakatning Melburn, Sidney, Adelanda kabi shaharlarida, shuningdek keyinchalik, Janubiy Uels, Viktoriya, Kvinslend, Janubiy Avstraliya va Tasmaniya shtatlarida tarqaldilar. Ularning ijtimoiy tarkibi turlicha bo’lib, avstraliyalik o’zbeklar orasida kichik va o’rta biznes bilan shug’ullanuvchi tijoratchilar, olim va ziyolilar, mayda korxonalarning egalari, journalist, muhandislar, dehqonlar bo’lgan.

Ma’lumotlarda Avstraliya o’zbeklarining soni 23 ta oila, 30 ta oila, 250-300 nafar, 300 dan ortiq oila kabi turli raqamlarda qayd etilgan.[4] Tadqiqot davomida amin bo’lindiki, Avstraliya o’zbeklari Avstraliya bo’ylab tarqalganidan 5-6 yil o’tib ularning jamiyati (milliy uyushmasi) vujudga kelgan. Uyushma mamlakatda (materik-qit’a, materik-endemiya, mamlakat-materik)gi butun o’zbeklarni birlashtirmagan. “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” o’zbek xonadonlarini ma’naviy va moddiy jihatdan qo’llab-quvvatlash, o’zbek tili va milliy urf-odatlarni saqlab qolish,

[1] *Семенов Г.Л. Структура Согдийского города раннего средневековья.* –Тошкент,*1994. -Б. 166-167.;* Очилов А.Т. Пойкантда олиб борилган археологик тадқиқодлар тарихидан//Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача).Бухоро,2019. Бухоро. Б.129-134.
[2] *Наршахий. Бухоро тарихи.* –Тошкент,*1993.-Б.8.*
[3] Альмеев Р.В. Древний Пойкент резиденция правителей Бухары. –Тошкент,2002. –Б.8.
[4] Avstraliya o’zbeklari (Naibaxon Azizovaning Odiljon Zohidov bilan suhbati) // O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1993-y 11-iyun.

O’zbekiston bilan madaniy va qavm-qarindoshlik aloqalarini mustahkamlash kabi ezgu maqsadlarni ko’zlagan.[1]

“Avstraliya o’zbeklar jamiyati” tashkil topgan paytda uning birinchi raisi Ahmad Egamberdi kotibi sifatida Baxtiyor Hasanov faoliyat yuritishgan. Biroq jamiyat tarkibida o’zbeklar bilan birga O’rta Osiyo mamlakatlaridan qozoq, qirg’iz, turkman, Sharqiy Turkiston millati vakillaridan uyg’ur, dungan va saranchilar ham a’zo bo’lib kirganlar. Ayrim sabablarga ko’ra 1995-yilda jamiyat ikkiga bo’linib,

a) Ahmad Egamberdi boshqargan “Avstraliya-Turkiston jamiyati”
b) Baxtiyor Hasanov boshqaradigan “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” ya’ni ikkita uyushma ish yurita boshlagan.

“Avstraliya o’zbeklar jamiyati”ning ta’sischilari faol a’zolari Baxtiyor Hasanov[2] bilan birga Xursandali Darmon, Sanjar Darmon[3], Husanxo’ja Ahmad[4] kabilar bo’lishgan. “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” qoshida 1993-1994- o’quv yilidan boshlab o’zbek tilini o’rganish maktabi ochilgan. 1994-1995-o’quv yilida jamiyat huzuridagi maktabda 21 ta o’quvchi tahsil olib, maktab xarajati uchun har bir o’quvchiga uch oyda 36 Aqsh dollari miqdorida xarajat qilingan. Maktabda o’quvchilarning o’quv qurollari, darslik va qo’llanmalari tekin berilishi bilan birga, ular o’z ona tillarini qay darajada o’zlashtirganligini hukumatning maxsus vakillari kuzatib borgan.[5] Chunki “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” tashkil topganda Janubiy Avstraliya shtati gubernatori va Janubiy Avstraliya etnik jamiyatlar uyushmasi kabilar faoliyatidan rasman xabardor qilingan.

“Avstraliya o’zbeklar jamiyati” a’zolaridan Baxtiyor Hasanov, Husan Ahmadxo’ja, Sanjar Darmon kabilar O’zbekistonda bo’lib, mustaqillik bayramlarida ishtirok etishgan. Ayniqsa, jamiyat 1992-1998-yillarda O’zbekistonda faoliyat yuritgan “O’zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma’rifiy aloqalar milliy assotsatsiyasi” (O’zHAMA) hamkorlik aloqalarini mustahkamlash maqsadida o’zaro maktubiy almashinuv, bayramlar munosabati bilan tabriklar, gazeta va jurnallar olib turish ish uslubini yo’lga qo’ygandi. O’zbekistondan jamiyat manziliga “Oydin”, “Xalq so’zi”, “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetalari, “O’zbekiston kontakt”, “Sharq yulduzi”, “Guliston”, “Fan va turmush” kabi jurnallar O’zHAMA tomonidan doimiy yuborib turilgan.[6] “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” o’zining matbuot organini ham nashr etishni rejalashtirgan edi. “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” a’zolari Avstraliyada o’zlarining xususiy kichik korxonalari orqali junni qayta ishlash, elektrotexnika va kommunikatsiya tizimlarida kata tajriba to’plashgan. Ular bilan O’zbekiston iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash va yo’lga qo’yish muhim natijalar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Avstraliya o’zbeklari (Naibaxon Azizovaning Odiljon Zohidov bilan suhbati) // O’zbekiston adabiyoti va san’ati, 1993-y 11-iyun.
2. Xayitov Sh.A. Avstraliya ittifoqi o’zbeklari: tarix va haqiqat //. AnDU, Ilmiy xabarnoma (Andijon). -2012. №3. –B.44-45. O’MA; R-2822. 1-ro’yxat, 89-yig’ma

[1] Xayitov Sh.A. Avstraliya ittifoqi o’zbeklari: tarix va haqiqat //. AnDU, Ilmiy xabarnoma (Andijon). -2012. №3. –B.44-45. O’MA; R-2822. 1-ro’yxat, 89-yig’ma jild, 7,8-varaqlar, 105,106-varaqlar; M-2 fond, 1-ro’yxat, 115-yig’ma jild, 10-11-varoqlar.

[2]Baxtiyor Hasanov – 1960-yilda G’ulja (Sharqiy Turkiston)da tavallud topgan, otasi asli toshkentlik, onasi namanganlik bo’lgan. U Xitoyda boshlang’ich, o’rta va oliy ma’lumot olib, muhandis diplomiga ega bo’lgan. Biroq journalist sifatida tanilgan. 1986-yilda Avstraliyaga ko’chib, ushbu mamlakat fuqaroligini olgan. Baxtiyor Hasanov xalqaro nufuzli tashkilot BMTning 50 yillik yubleyi tantanalarida yer yuzi o’nlab davlatlaridan ishtirok etgan 1000 delegatlardan biri edi. (Qarang. O’MA; M-2-fond, 1-ro’yxat, 115-yig’ma jild, 10-11-varaq.)

[3] Xursandali Darmon va Sanjar Darmonlar ota-o’g’il, “Avstraliya o’zbeklar jamiyati”ning faol a’zolari, Sanjar Darmon 21 yoshda (1995-yil) “Avstraliya o’zbeklar jamiyati”ning “Yoshlar qanoti”ni boshqargan. Ular jamiyatning rasman tan olinganligi bilan bog’liq guvohnomasi mavjud. Sanjar Darmon 3oy Toshkentda oshpazlik kasbini va o’zbek tilini mukammal o’rgandi. “Avstraliya o’zbeklar jamiyati” qoshida o’zbek milliy taomlari oshxonasini ochdi (Qarang. O’MA; M-2-fond, 1-ro’yxat, 154-yig’ma jild, 3,4,5,6-varaqlar).

[4] Husanxo’ja Ahmad – matematik olim, kiyim-kechak ishlab chiqarish korxonasi egasi, jamiyat faoli, 1991-yil O’zbekistonda bo’lgan. U millatdoshlarimizni Avstraliyada o’zbek tili va milliy urf-odatlarni yo’qotmasligi uchun o’zbek tili maktabi ta’sischilaridan biri hisoblanadi. (Qarang. Husan Ahmad o’g’li, Siz mustaqilmisiz? //O’zbegim. T.: 1992.-B.165-167)

[5] O’MA, M-2-fond, 1-ro’yxat, 115-yig’ma jild, 9-10-varaqlar.

[6] O’zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma’rifiy aloqalar assotsatsiyasi joriy arxivi, 1993-yil, 2-yig’ma jild, -B.5-6.

jild, 7,8-varaqlar,105,106-varaqlar; M-2 fond, 1-ro'yxat, 115-yig'ma jild, 10-11-varoqlar
3. O'MA; M-2-fond, 1-ro'yxat, 115-yig'ma jild, 10-11-varaq
4. O'MA; M-2-fond, 1-ro'yxat, 154-yig'ma jild, 3,4,5,6-varaqlar
5. Husan Ahmad o'g'li, Siz mustaqilmisiz? //O'zbegim. T.: 1992.-B.165-167
6. O'MA, M-2-fond, 1-ro'yxat, 115-yig'ma jild, 9-10-varaqlar.
7. O'zbekiston Respublikasi xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalar assotsatsiyasi joriy arxivi, 1993-yil, 2-yig'ma jild, -B.5-6.

BUXORIYLARNING SURIYA VA ISROILDAGI UYUSHMALARI TARIXIDAN (XX ASRNING 40-50-YILLARI)

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi
BuxDU maqsadli tayanch doktaranti,
Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti assistenti
Tel: +998(91) 445-97-00

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 40–50-yillarida Suriya va Isroilda yashagan muhojir Buxoriy o'zbeklar tomonidan tashkil etilgan milliy uyushmalar tarixi yoritilgan. Jumladan, 1940-yilda Damashqda tuzilgan "Buxoroliklar yordamlashma jamiyati", undan ajralib chiqqan "O'zbeklar yordamlashma jamiyati" hamda 1946–1947-yillarda Isroilning Quddus shahrida tashkil etilgan "O'zbeklar milliy-madaniy markazi" faoliyati tahlil qilingan. Maqolada bu uyushmalar tomonidan o'zbek tili, diniy-ma'rifiy ta'lim, urf-odatlar, vatanparvarlik ruhini saqlab qolish yo'lidagi faoliyat, tashkilotlar o'rtasidagi tafovutlar, tashkiliy va moliyaviy asoslar, muhojirlar o'rtasida birdamlikni mustahkamlashdagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar. Buxoriylar, o'zbek muhojirlari, Damashq, Quddus, Suriya, Isroil, yordamlashma jamiyati, milliy-madaniy markaz, o'zbek tili, diniy-ma'rifiy ta'lim, muhojirlar birdamligi.

Buxoro va butun Turkiston mintaqasidan turli mamlakatlarga muhojirlikka borib qolgan yurtdoshlarimiz chet ellarda o'zlarini "Buxoriylar" deb ataganlar. Buxoriy atamasi ular uchun qayerdan bo'lishidan qat'iy nazar, "birlik" ma'nosini ifodalagan. Buxoroning sharif shahar maqomiga ekanligi, Sharqning eng qadimgi aholi markazlaridan biri bo'lib kelganligi, Imom Ismoil al-Buxoriy va Abu Hafs Kabir Buxoriylar haqqi-hurmati kabilar tufayli "Buxoro" tushunchasi XIX asr oxiriga qadar Turkiston mintaqasini ifodalagan. Major olimi va sayyohi Arlin (Herman) Vamberi (1832-1913) 1863-yil 13-30- iyul (18 kun) Buxoroi Sharifda bo'lib: "Buxoro – islom Rimi, Makka va Madina shunchaki uning oldida Quddusdir" – deb yozib qoldirgan. [1]

Sovet hokimiyati yillarida Buxoro (Zarafshon vohasi)dan muxojirlikka mahkum etilgan o'zbek va tojiklar ikkinchi vatan sifatida, avvalo, Sharq mamlakatlarini tan olganlar. Ular Afg'oniston, Yaqin va O'rta Sharqdagi arab mamlakatlari, Eron, Hindiston bo'ylab tarqalib ketganlar. Bu mamlakatlarga borib joylashish hududiy, diniy, asriy hamkorlik kabi ko'pdan ko'p omillar bilan bog'liq.

XX asr dastlabki o'n yillarida Suriya davlati ham o'zbek muhojirlari ko'p sonli bo'lib yashagan mamlakatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu mamlakatga ko'chib o'tgan millatdoshlarimizni umumiy nom bilan "Buxoriylar" atalgan. Suriya Birinchi jahon urushidan so'ng (1919-yilda) Fransiya davlatiga mandat qilib berilgan. Suriya Arab Respublikasi 1958-yilda tashkil topib millat mustaqillikka erishgan. 1920-1958-yillarda bu mamlakat hududida ming minglab o'zbek muxojirlari istiqomat qilgan. "Buxoriylar" zich yashagan hududlar asosan mamlakat poytaxti Damashq, Shom viloyati, Latakiya shahri kabilar bo'lgan.[2] Buxoroliklar Suriya fuqaroligiga qabul qilinmasada, ular bu mamlakat aholisi ro'yxatiga kiritilgan. Arablar orasida

[1] Nazarov I.Q. Vamberi Buxoroda //Buxoro mavjlari.2006.- № 4. – B. 44(-B. 44-45)
[2] O'zbekiston Milliy Arxivi (O'MA) R- 2661-fond, 1-ro'yxat, 385-yig'ma jild, 43, 46-varaqlar.

yashab, tirikchilik manbaini yaratish, milliy urf-odat va o'zlikni saqlab qolish, ayniqsa, o'zbek tilini yo'qotmaslik, xorijda dunyoga kelgan bolalarga o'z bek tilini o'rgatish, moddiy-ma'naviy, ruhiy jihatdan bir-birini qo'llab-quvvatlash, moddiy jihatdan og'ir ahvolga tushib qolganlarga yordam berish, vatandoshlik aloqalarini saqlab qolish kabi turli tuman sabablar tufayli milliy-madaniy markaz, uyushmalar tuizish harakati boshlangan. 1940-yilda Damashqda ilk bor "Buxoroliklar yordamlashma jamiyati" tashkil etilgan. Ushbu jamiyat ta'sischilari bir qadar sarmoyador tadbirkor va tijoratchilar, o'zini ta'minlay olgan ziyolilar, diniy ulamolar, savobtalab kishilar edi. "Buxoroliklar yordamlashma jamiyati" ta'sischilar va jamiyat a'zolarining mablag'lari hamda a'zolar tomonidan to'plangan moyana va badallar hisobiga faoliyat yuritgan.[1]

Jamiyat qoshida o'zbek tilini o'rgatish va savod chiqarish maxsus kursini boshlab, o'zbek ziyolilari orasidan muallimlar tayinlangan. Maktab va kursda o'qish tekin bo'lib, uning xarajatlari sarmoyador muxojirlarning xayr-ehsonlari va badallar hisobidan qoplangan.[2]

Ayrim ma'lumotlarga ko'ra uyushma qoshida diniy bilim beradigan maktabxona bo'lgan. Unda o'zbek bolalari "Haftiyak", "Poracha" (Qur'on qismlari), hadis ilmidan tahsil olishgan. Diniy maktabda XX asr 20-30-yillarida O'zbekistondan "xudosizlik uchun kurash yillarida quvg'in qilingan diniy ulamo va mullalar bilim berishgan. Saboq asosan tekin berilib, badavlatlarning farzandlaridan ma'lum miqdorda mablag' olingan. Maktab qoshida maschit bo'lib maschit ham muhojirlar tomonidan hashar yo'li bilan bunyod etilgan.[3]

Avvalda ushbu diniy maktab "Buxoroliklar yordamlashma jamiyati" tarkibida bo'lib, birlikda faoliyat olib borishgan. Biroq 100-150 dan ortiq uyushma a'zolari o'rtasida tashkilotni boshqarish, dastur nva nizomni qabul qilish, tuzulmalar hamda muhim vazifalarni belgilashda ixtiloflar kelib chiqqan. Natijada uyushma ikkiga bo'linib, Damashq shahri atrofidagi Jome' al-A'zam degan joyga diniy maktab bazasiga "O'zbeklar yordamlashma jamiyati" bilan mustaqil uyushma tuzilgan. Bu jamiyat o'zining asosiy maqsadi sifatida moddiy nochor o'zbeklarni qo'llash va milliy til hamda urf-odatlarni asrab qolishni belgilab olgan.[4]

Bu ikkala jamiyat 1958-yilgacha mavjud bo'lib turgan. 1958-yilda Suriya Arab Respublikasi (SAR) tashkil topib, mamlakat milliy mustaqillikka erishganidan so'ng ko'p o'tmay hukumat har qanday uyushmalarni taqiqlab qo'yish haqida maxsus qonun qabul qilgan. Oxir oqibatda Suriyada faoliyat yuritib turgan barcha jamiyat va uyushmalar tugatilgan. Shunga qaramay bu davlatdagi muxojir o'zbeklar moddiy-ma'naviy jihatdan bir-birlarini qo'llashda davom etganlar. Arxiv hujjatlarida va boshqa turdagi manbalarda biz yuqoridagi uyushmalarning yo'lboshchilari haqidagi ma'lumotlarni uchratmadik. Biroq 1940-1958-yillarda Suriyadagi o'zbek milliy uyushmalariga Buxoro va O'zbekistondan Buxoro tasviri tushirilgan suvener va siluetlar, ayrim kitob va darsliklar, gramplastinkalar videokassetalar, gazeta va jurnallar yuborilgan.[5]

Ma'lumki, Yaqin va O'rta Sharq mintaqasida BMT rezolyutsiyasi bilan 1946-yil noyabrdan poytaxti Tel-aviv bo'lgan Isroil yahudiy davlati tuzildi. Iyerussalim (Quddus) bir qator dinlar (islom, nasroniy, yahudiy va h,k) markazi bo'lib, muqaddas qadamjo, sharif shahar hisoblanadigan Quddusda 1946-1947-yillarda "Baytul-Maqdus" nomli musulmon masjidi mqoshida "O'zbeklar milliy-madaniy markazi" uyushmasi tashkil topgan. Bu tashkilot Isroildagi o'zbeklar jamoasini birlashtirib, o'zaro moddiy yordam ko'rsatishga qaratilgan. Arxiv hujjatida Iyerussalimdagi "O'zbeklar markazi" deb nomlangan ushbu jamiyatga diniy ulamolar rahbarlik qilib, mustaqillik yillarida bu uyushma faollaridan Shayx Abdul Aziz Buxoriy O'zbekistonga tashrif buyurdi. Ushbu inson O'zbekistondagi bir qator diniy muassasa, muqaddas qadamjolar ta'miriga moddiy yordam ko'rsatish taklifini bildirgandi.[6]

Xullas, muxojir o'zbeklarning uyushma va tashkilotlarining vujudga kelishi, faoliyat tarixi, millatdoshlarimiz birligi hamda hamjihatligining timsoli bo'lib o'z davrida vatan va millat tuyg'usini xorijda yashovchan bo'lib kelishiga munosib hissa qo'shgandi.

[1] O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 42-varaq.
[2] O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jild, 33-varaq.
[3] Xorijdagi o'zbeklar bilan aloqa bog'lash "Vatan" jamiyati joriy arxivi, 1982-yil, №2.- B.7
[4] O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 45-varaq.
[5] Yusupov A. Xorijdagi o'zbeklar// Yoshlik; 1989. -№6 –B.34.
[6] O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 48-varaq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov I.Q. Vamberi Buxoroda //Buxoro mavjlari.2006.- № 4. – B. 44(-B. 44-45)
2. O'zbekiston Milliy Arxivi (O'MA) R- 2661-fond, 1-ro'yxat, 385-yig'ma jild, 43, 46-varaqlar.
3. O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 42-varaq.
4. O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 89-yig'ma jild, 33-varaq.
5. Xorijdagi o'zbeklar bilan aloqa bog'lash "Vatan" jamiyati joriy arxivi, 1982-yil, №2.-B.7
6. O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 45-varaq.
7. Yusupov A. Xorijdagi o'zbeklar// Yoshlik; 1989. -№6 –B.34.
8. O'MA. R- 2822-fond, 1-ro'yxat, 88-yig'ma jild, 48-varaq

BUXORO VOHASINING ATROF-MUHIT MUAMMOLARI TARIXIY TALQINDA

Atoyeva Dilnoza Shofiddinovna
BuxDU 2-kurs tarix yo`nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur tezisda Buxoro vohasida yuzaga kelgan ekologik muammolar, ularning tarixiy ildizlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta`siri tahlil qilinadi.Shuningdek,sovet davridan to mustaqillik yillarigacha bo`lgan davrda atrof-muhit siyosatining o`zgarishi tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

Buxoro vohasi qadimdan O`rta Osiyoning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo`lib,uning rivojlanishi bevosita Zarafshon daryosi bilan bog`liq bo`lgan.Ushbu hududda sug`orma dehqonchilik tizimi shakllanishi tabiiy sharoitdan samarali foydalanish imkonini bergan bo`lsa-da,vaqt o`tishi bilan inson faoliyatining ortishi ekologik muammolarga sabab bo`lgan. Atrof-muhit muammolarni tarixiy talqinda o`rganish vohaning ekologik holatini chuqur tushunishga,shuningdek,kelgusida barqaror rivojlanish siyosatini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Arxeologik tadqiqotlar (Y.G`ulomov,S.P.Tolstov,M.E.Masson) natijalariga ko`ra, Buxoro vohasida qadimiy sug`orish tizimlari miloddan avvalgi IV-III asrlarda shakllangan.Bu davrda Zarafshon daryosining irmoqlari bo`yida ariqlar,kanallar va suv inshootlari bunyod etilgan.

S.P.Tolstov o`zining "Drevniy Khorezm"(1948) asarida voha dehqonchiligini qadimiy sug`orish madaniyati bilan bog`lab,O`rta Osiyo vohalarida suv bilan bog`liq ekologik muammolar miloddan avvalgi davrlardayoq boshlanganini ta`kidlaydi.

Tabiiy resurslarning cheklanganligi, iqlimning quruqligi hamda suvni boshqarishdagi notekislik tufayli ba`zi hududlarda tuproq sho`rlanishi va suv tanqisligi muammolari kuzatilgan.Tarixchi Yahyo G`ulomov "O`rta Osiyoda sug`orish tarixidan" asarida Buxoro va Zarafshon vodiysida suvni no`to`g`ri taqsimlash natijasida ayrim yerlarning hosildorligi pasaygani haqida yozadi. Shu bilan birga,Zarafshon suvining pastki oqimlarga yetib bormasligi ,qishloqlar o`rtasida suv talashish holatlarini keltirib chiqarganini qayd etadi.[1]

XVIII-XIX asrlarda Buxoro amirligida sug`orish tizimlarini kengaytirish siyosati olib borilgan.Amir Nasrullo va Muzaffar davrida yangi kanallar (Shohrud,Amu-Buxoro kanal loyihalari) qurilgan.Ammo suv ta`minoti siyosiy va ijtimoiy tengsizlik bilan bog`liq bo`lib,ko`plab dehqon jamoalari suvdan to`liq foydalana olmagan. Buxoro vohasining ekologik tarixini o'rganishda aholi va tabiiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir muhim omil hisoblanadi. Chunki vohaning iqtisodiy hayoti, ijtimoiy tuzilishi va madaniy rivoji to'g'ridan to'g'ri tabiat resurslaridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan.

Qadimiy davrlarda voha aholisi suv, yer va o'simlik dunyosini tabarruk deb bilgan. Zardushtiylik davrida "Avesto" ta'limotida suvni, yer va havoni pok saqlash muqaddas burch sanalgan. Keyinchalik islom davrida ham bu qarashlar o'z aksini topgan. Qur'on va hadis manbalarida suvni isrof qilmaslik, yerni iflos qilmaslik, daraxt ekish savob ish sanalgan.[2]

Masalan, Imom Buxoriyning “Al-Adab al-Mufrad” asarida keltirilgan hadisda: “Kim bir daraxt eksa yoki bir yerda o‘simlik o‘stirsa, undan inson, qush yoki hayvon foydalansa — bu sadaqa bo‘ladi”,— deyiladi. Bu kabi diniy ta’limotlar voha aholisi orasida ekologik madaniyatning shakllanishiga asos bo‘lgan. Buxoro vohasida suv — eng muhim resurs hisoblangan. Zarafshon daryosidan suv olish, ariqlarni tozalash, navbat bilan sug‘orish, suvni taqsimlash kabi jarayonlar qat’iy me’yor va qoidalarga asoslangan. Suv taqsimoti “mirob”lar tomonidan boshqarilgan. Miroblar suvni adolatli taqsimlash uchun mas’ul bo‘lib, ular odatda jamoa tomonidan saylangan. “Buxoro risolalari to‘plami” (O‘zbekiston FA, inv. №1465)da miroblik tizimi, suvdan foydalanish qoidalari, suv talashish holatlarining shariat asosida hal etilishi haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu esa suv masalasining ijtimoiy va huquqiy ahamiyatini ko‘rsatadi. XIX asrda Buxoro amirligi davrida qishloq jamoalarida “hashar” tizimi keng tarqalgan bo‘lib, aholining birgalikda ariqlarni tozalash, suv inshootlarini ta’mirlashda ishtiroki majburiy ijtimoiy burch sanalgan. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy ehtiyoj, balki jamoaviy birdamlik va tabiatga hurmat belgisi sifatida qaralgan. Har bir qishloqda “ariq oqsoqoli” yoki “suv boshlig‘i” lavozimlari mavjud bo‘lgan, ular suv xo‘jaligini boshqarish bilan birga ekologik tartibni ham nazorat qilganlar.[3] Tarixchi M.E. Masson o‘zining “O‘rta Osiyo dehqonchilik madaniyati tarixi” (1953) asarida bu tizimni “O‘rta Osiyoda xalq ekologik ongining amaliy ko‘rinishi” deb ataydi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, aholining o‘sishi, yangi ekin maydonlarining ochilishi va qishloq xo‘jaligining kengayishi natijasida tabiiy resurslarga bosim ortdi. Suv tanqisligi sababli yuqori oqimdagi jamoalar ko‘proq suvni o‘zlashtirgan, pastki oqimdagi hududlar esa suv yetishmovchiligidan aziyat chekkan. Bu holat ijtimoiy tengsizlik va ba’zan janjallarga olib kelgan. Rus tadqiqotchisi A.L. Kun o‘zining “Zapiski o Bukharskom khanstve” (1870) asarida Buxoro vohasida suv uchun kurash ko‘plab mahalliy mojarolarga sabab bo‘lganini yozadi. Shuningdek, yerlarning haddan tashqari sug‘orilishi natijasida sho‘rlanish, botqoqlanish va hosildorlikning pasayishi kuzatilgan. Bu esa aholining iqtisodiy ahvoli va ijtimoiy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. XIX asrning oxiri — XX asr boshlariga kelib, an’anaviy ekologik boshqaruv tizimlari zaiflashdi. Amirlikda siyosiy va iqtisodiy islohotlar yetarlicha bo‘lmagani sababli tabiat muhofazasi masalalari ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘ldi. Suvni adolatli taqsimlash tizimi buzildi, ariqlarni tozalash ishlari sustlashdi, o‘rmon va yaylovlardan ortiqcha foydalanish natijasida tabiiy muhitning degradatsiyasi kuchaydi. XX asrning birinchi yarmidan boshlab O‘rta Osiyo, xususan, Buxoro vohasi Sovet Ittifoqining agrar siyosatida strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Bu davrda davlat tomonidan iqtisodiyotning markazlashtirilgan boshqaruvi, yangi irrigatsiya tizimlari qurilishi va paxta yakkahokimligini kuchaytirish Buxoro vohasining tabiiy muvozanatini keskin o‘zgartirdi.

1920-yillardan boshlab Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, sobiq Rossiya imperiyasi davrida nisbatan mustaqil bo‘lgan voha tabiiy resurslari markaziy rejalashtirish siyosatiga bo‘ysundirildi. 1930-yillarda boshlangan kollektivlashtirish siyosati natijasida suvdan foydalanish, dehqonchilik, chorvachilik faoliyati davlat nazoratiga o‘tdi. Paxta yetishtirishni ko‘paytirish maqsadida Zarafshon daryosi havzasida yangi kanal va kollektorlar qurildi. Masalan, Amu–Buxoro kanali (1964-yilda ishga tushgan) Buxoro va Navoiy viloyatlarining cho‘l hududlarini o‘zlashtirishga xizmat qilgan, ammo bu jarayon ekologik muvozanatni izdan chiqargan.[4] Manbalar shuni ko‘rsatadiki, 1940–1980-yillarda Buxoro viloyatida sug‘oriladigan yerlar maydoni ikki baravarga ortgan, lekin suv resurslari miqdori deyarli o‘zgarmagan (A.A. Shreder, “Osvoenie pustyn Sredney Azii”, Moskva, 1981). Sovet davrida O‘zbekiston “ittifoqning paxta bazasi” sifatida ko‘rilgan. 1950–1980-yillarda Buxoro vohasida qishloq xo‘jaligi yerlarining qariyb 70 foizi paxta maydonlariga aylantirildi. Bu esa suv tanqisligini kuchaytirdi, tuproq sho‘rlanishi va yer degradatsiyasiga olib keldi. Aholining suvdan foydalanish tartibi markazlashgan tizimga o‘tganligi sababli mahalliy “miroblik” tizimi butunlay yo‘qoldi. Natijada suv isrof bo‘ldi, suv sifati yomonlashdi. Suv kollektorlaridan qaytgan drenaj suvlari ichimlik suv manbalariga aralashib, sog‘liq uchun xavf tug‘dirgan. Ekolog olim T. Salimov o‘zining “O‘zbekistonning ekologik muammolari” (Toshkent, 1989) asarida ta’kidlaganidek, Buxoro vohasida sho‘rlanish darajasi 1970-yillarda 40–45% gacha yetgan, ayrim tumanlarda (Jondor, Vobkent, G‘ijduvon) bu ko‘rsatkich yanada yuqori bo‘lgan. Sovet davrining ikkinchi yarmida

Buxoro vohasi industrial markazga aylantirildi. 1960–1980-yillarda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, kimyo kombinati, paxta tozalash va ipakchilik korxonalari qurildi. Bu sanoat tarmoqlari chiqindilarining aksariyati tozalovchi inshootlarsiz yoki yetarlicha nazorat qilinmagan holda atmosferaga va suv manbalariga chiqarilgan. Masalan, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi faoliyati natijasida chiqindilar (uglevodorodlar, oltingugurt birikmalari) Zarafshon daryosi va yer osti suvlari sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan (qarang: “Prirodopolzovanie v Uzbekistane”, Moskva, 1983). Natijada Buxoro atrofidagi tabiiy o‘simliklar qatlami kamaydi, cho‘l hududlarida eroziya jarayonlari tezlashdi. Sovet ekologik siyosati asosan iqtisodiy ko‘rsatkichlarni oshirishga qaratilgan bo‘lib, tabiat muhofazasi masalalari ikkinchi darajali ahamiyatga ega edi.

Buxoro vohasi Zarafshon daryosi havzasida joylashgan bo‘lsa-da, u Amudaryo va Orol dengizining umumiy ekologik tizimiga bog‘liq edi. XX asrning ikkinchi yarmida Amudaryodan suvni ortiqcha olish natijasida Orol dengizi qisqara boshladi.

Orolning qurishi vohaning iqlimiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatdi: yozda harorat 2–3°C ga ortdi, havoning namligi kamaydi, tuproqdagi namlik bug‘lanishi kuchaydi. Cho‘l shamollari orqali tuz va kimyoviy changlar Buxoro viloyatigacha yetib kelgani ilmiy kuzatuvlarda qayd etilgan (B. Glazovskiy, “Aral’skaya katastrofa”, Moskva, 1990). Atrof-muhitdagi o‘zgarishlar aholining sog‘lig‘iga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. 1970–1980-yillarda Buxoro viloyatida ichimlik suvining ifloslanishi bilan bog‘liq oshqozon-ichak kasalliklari, allergik holatlar va nafas yo‘li kasalliklari soni ortgani qayd etilgan.[5] Tibbiyot olimi N. Karimov o‘z tadqiqotida (Toshkent, 1991) vohaning ekologik holatini “inson organizmiga yashirin, ammo doimiy ta’sir etuvchi xavf” deb ta’riflaydi. Sovet davrining oxirlarida, 1980-yillarda ekologik harakatlar kuchaygan. “Orol–Buxoro–Zarafshon” ekologik ekspeditsiyalari o‘tkazilib, suv, havo va tuproq holati o‘rganilgan. Ammo markaziy hukumat ekologik muammolarning siyosiy oqibatlaridan qo‘rqqani sababli ularni ochiq muhokamaga chiqarishga ruxsat bermagan.[6] Shunga qaramay, bu davrda ekologik ongning shakllanishi mustaqillikdan keyingi islohotlar uchun poydevor bo‘ldi. Sovet davrida Buxoro vohasida olib borilgan iqtisodiy siyosat qisqa muddatda iqtisodiy o‘sishni ta’minlagan bo‘lsa-da, uzoq muddatli ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkazdi. Suv resurslarining haddan tashqari ekspluatatsiyasi, paxta yakkahokimligi, sanoat chiqindilari va Orol fojiasining bilvosita ta’siri vohada ekologik inqiroz sharoitini yaratdi. Bugungi kunda bu tarixiy jarayonlarni o‘rganish ekologik siyosatda xatolarni takrorlamaslik uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шредер А.А. Освоение пустынь Средней Азии. – Москва, 1981.
2. Салимов Т. Экологические проблемы Узбекистана. – Ташкент, 1989.
3. Природопользование в Узбекистане. – Москва, 1983.
4. Глазовский Б.Н. Аральская катастрофа. – Москва, 1990.
5. Каримов Н. Здоровье населения и экология Бухарской области. – Ташкент, 1991.
6. Jo‘raev N. O‘rta Osiyo ekologiyasi tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.

VARAXSHANING ARXEOLOGIK O‘RGANILISHI

Ochilova Marjona Botir qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti
Elova Dilnoza
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Bu tezisda Buxoro vohasida joylashgan qadimgi Varaxsha shahristonining arxeologik o‘rganilish jarayoni yoritiladi. Tadqiqot XIX asr oxiridagi dastlabki kuzatuvlardan boshlab, Sovet davri va mustaqillik yillarida olib borilgan keng ko‘lamli ekspeditsiyalar natijalarini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa 1930-1950- yillardagi qazishmalar davomida saroy majmuasidan topilgan mashhur devoriy rasmlar, mudofaa inshootlari, uy-joy qoldiqlari va minglab artefaktlarning ilmiy ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, Varaxsha, shahar, savdo-sotiq, voha, arxeologlar, O‘rta Osiyo, o‘simlik, saksovul, siyosiy.

Buxoro vohasida miloddan avvalgi 1 ming yillikning ikkinchi yarmida Varaxsha, Poykend, Vardonze kabi ilk o‘rta asr shaharlari shakllanganligi arxeologik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. Ushbu shaharlar nafaqat vohaning iqtisodiy va siyosiy markazlari, balki madaniy va savdo yo‘nalishlarining muhim hududlari bo‘lgan. Varaxsha – qadimgi shahar xarobalaridan biri bo‘lib, Buxoro vohasining madaniy va shaharsozlik merosi sifatida tarixiy shakllanishi O‘rta Osiyo tarixida muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro shahridan 40 km shimoli-g‘arbda, Jondor tumanida joylashgan shahar arxeologik topilmalar asosida qadimdan rivojlangan irrigatsion tizimlar, mustahkam mudofaa inshootlari va zodagonlar saroylari bilan ajralib turadi. Varaxsha shahrining vujudga kelishi Zarafshon daryosining quyi qismida irrigatsion tizimlarning shakllanishi bilan bog‘liq. Avesto va yunon tarixchilarining ma’lumotlariga ko‘ra , bu hudud aholi yashashi uchun qulay shahar bo‘lgan.

Tarixchi Narshaxiyning ma’lumotlariga ko‘ra, Varaxsha Buxoro shahridan ham qadimiyligini aytib o‘tgan. Ayrim manbalarda Varaxsha Rajfandun, Afraxsha, tarzida ham qayd etilgan. Arxeologlar fikricha, Varaxsha miloddan avvalgi II-I asrlarda taraqqiy etgan. Shaharning Buxoro va Xorazm orasidagi karvon yo‘lida joylashganligi hududda savdo-sotiq va hunarmandchilikning rivojlanishiga sababchi bo‘lgan. Varaxshada har o‘n besh kunda bir kun bozor bo‘lgan. Yilning oxirida yigirma kunlik bozor va yigirma birinchi kuni “Navro‘zi kishovarzon” – “Dehqonlar navro‘zi” degan bayram o‘tkazilgan[1]. Bu shahar o‘zining murakkab va uzoq tarixi orqali O‘rta Osiyoning shaharsozlik an’analarida alohida o‘rin egallaydi.

Varaxsha shahar xarobalarini o‘rganish 1938-1954 yillarda arxeologlar Y.G‘ulomov rahbarligida V.A. Shishkin, V.D.Jukov tomonidan olib borilgan. Bu shahar o‘zining murakkab va uzoq tarixi orqali O‘rta Osiyoning shaharsozlik an’analarida alohida o‘rin egallaydi.

Varaxshadagi arxeologik tadqiqotlarda V.A.Shishkin ko‘p qiyinchiliklarga duch keladi. Sababi Buxoro vohasi arxeologik jihatdan juda oz o‘rganilgan edi. Bundan tashqari, O‘rta Osiyoda ilk bor devoriy rasmlar topilgan edi, shuning uchun solishtirish uchun boshqa materiallar yoq edi. Masalan, Panjikentdagi devoriy rasmlar va Tuproqqal’a san’ati o‘sha paytda hali noma’lum edi. Shu sababli dastlabki maqolalarda ba’zi sanalar noto‘g‘ri aniqlangan edi. Ammo uzoq davom etgan qazishmalar natijasida Varaxsha shahrining madaniy qatlamlari aniqlandi. Varaxsha qazishmalarida katta jamoa ishtirok etgan. Issiq, sovuq, qum bo‘ronlari va boshqa og‘ir sharoitlarga qaramay, har yili quduqlar yaqinida arxeologlar jips jamoa bo‘lib ishlashgan. V.A.Shishkin o‘zining kitobida, ularning ko‘plariga, ayniqsa V.A. Nilsen, N.V.D’yakonova, V.D.Jukov, S.K.Kabanov kabi tajribalari xodimlargan minnatdorlik bildiradi. Varaxshada devoriy rasmlarni asl holatda ko‘chirish va bo‘yash ishlarini rassomlar Yu. Gremyachinskaya, V.Kedrin, I.Nikitin va V. Nilsen bajarishgan. Bu ishlar Davlat Ermitaji restavratori P.I.Kostrov rahbarligida, restavratorlar I.Bentov va Ye.Sheynina tomonidan amalga oshirilgan. Devoriy rasmlarni birinchi marta mustahkamlash ishlari esa 1939 yilda P.A.Smelov tomonidan o‘tkazilgan edi. Muallif shuningdek, 1938-1939 yillarda ishlagan, urushda halok bo‘lgan A.Dryushkin boshchiligidagi ter qazuvchilar brigadasining a’lo ishini ham yodga oladi.

Varaxshaning arxeologik hududi. Hududning qadimiy madaniy maydoni tekislikdan iborat bo‘lib janubi-g‘arbiy yo‘nalishda juda sekin egilgan. Katta qismi kulrang loy bilan qoplangan ba’zan tekis, ba’zan esa mayda tepaliklar bilan ajralgan. Bu yerda shimoliy shamollar hukmron bo‘lib, hududni meridional yo‘nalishda kesib o‘tadi. Eng qiziq bo‘lgan joy-Varaxshaning shimoliy-g‘arbida, taxminan 2,5 km masofada joylashgan, noto‘g‘ri shakldagi 1 gektarli qum tushgan chuqur maydon. Varaxsha va Kampir devorlari orasidagi hudud katta qismini mayda qum tepaliklari qoplaydi, ular o‘simliklar bilan kam qoplangan.

Varaxshaning tabiiy holati. So‘nggi yillarda qumni barqarorlashtirish va saksovul ekish ishlari natijasida Varaxsha atrofidagi o‘simlik qoplamasi sezilarli o‘zgarishga uchradi. Shahar atrofida saksovul daraxtlari o‘sib chiqqan, ular “Qizilqum” quyoshidan himoya qiladigan yetarli

[1] Hayotova N.Z “VARAXSHA SHAHAR MADANIYATI: TARIXIY RIVOJLANISH VA ME’MORIY XUSUSIYATLAR”. “ MA’MUN SCIENCE” TOSHKENT-2025.B.181-184

soya beradi. Tabiiy sharoitlar inson faoliyati natijasida qanday o‘zgarganini ko‘rsatadi. Varaxsha va uning atrofidagi o‘zgarishlar qadimda zich aholi yashagan oazisning qum cho‘liga aylanish jarayonini tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda, Buxoro shimolidagi saksovulzorlarni yo‘q qilinishi, yoqilg‘i uchun kesilishi oxirgi rol o‘ynagan. Daraxtlarsiz hududda bu jarayon juda tez sur’atda, ayniqsa IX-X asrlarda hunarmandchilik rivojlanish davrida, metallar, keramika, shisha va boshqa hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko‘p miqdorda yoqilg‘i va ko‘mir ishlatilgan paytda sodir bo‘lgan. Bundan tashqari, beparvo chorvachilik ham tuproq eroziyasini kuchaytirgan. Shu sababli o‘simliklarning yo‘qolishi va barqaror bo‘lmagan qum tepaliklarining paydo bo‘lishi inson faoliyati bilan bog‘liq[1].

Arxeologlar Varaxshada qazishma ishlarini olib borishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishgan bo‘lishsada, juda ko‘plab nodir buyumlarni topishdi va ma’lumotlarga ega bo‘lishdi.

Varaxsha saroyining arxitekturasi. Varaxsha qal’asi joylashgan hudud cheksiz, hayotsiz cho‘l tekisligidan iborat. U shamol uchun ko‘chib yuruvchi qum tepalari bilan kesib o‘tilgan. Ularning orasidan qadimgi qo‘rg‘on qoldiqlari ko‘rinib turadi. Bu joylarda qadimiy madaniy hayot izlari ko‘p uchraydi – sopol idish parchalari, mis va temir buyumlarning bo‘laklari shisha parchalar. Ba’zan tangalar ham topiladi. Varaxsha qal’asi 100 gektar maydonni egallagan. Qal’a atroflarida esa ba’zi joylarda xom g‘ishtdan va paxsadan qurilgan kuchli devor qoldiqlari uchraydi. Ular bir necha marta qayta ta’mirlangan bo‘lib, bu yerda qadimiy shahar uzoq vaqt davomida mavjud bo‘lganidan dalolat beradi. Qal’aning g‘arbida turar-joylarning janubiy chekkasida g‘isht devori izlari bo‘lgan bir nechta past tepaliklar ko‘tariladi. Bular 1937-1938-yillarda olib borilgan qazishma ishlari natijasida biz Narshaxiy tasvirlagan Buxorxudot saroyini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan katta bino xarobalaridir.

Saroy binosida arxeologik ishlar 3 yil davomida olib boriladi. Tepaliklarda birin -ketin qurilgan 3 ta binoni qoldiqlarini borligi aniqlandi. Turar-joy yuzasi kuchli ob-havoga duchor bo‘lganligi sababli, eng yangi binoning faqat kichik izlari qolgan. Ikkinchi va uchinchi binolar sun’iy ravishda muhrlangan. Ketma-ket bir-birining o‘rnini bosuvchi bu binolarda turli Buxorxudotlar tomonidan qurilgan saroylarni ko‘rishimiz mumkin. E’tiborni tortadigan jihat shuki, bino vayronalarining janubi-g‘arbiy qismidagi bir nechta xonalarga qaratamiz. U yerda shlyapa bezaklari qoldiqlari topilgan. Bundan tashqari, xonalar pollaridan ko‘plab hayvon va qush suyaklari, temir o‘q uchlari, sopol buyum parchalari topilgan[2].

Varaxshada shaharsozlikning eng ahamiyatli jihati uning o‘ziga xos arxitekturasidadir.

Xulosa. Varaxsha Buxoro tarixida eng qadimgi qishloqlardan biri bo‘lgan va hatto Buxoro shahridan ham qadimiyroqdir. Bu shaharning o‘ziga xos xususiyati uning arxitekturasida. Varaxsha haqida ko‘plab ma’lumotlar Narshaxiyning asarida uchraydi. U shunday deydi: “Varaxsha – Buxoro yaqinidagi eng qadimiy qishloqlardan biri bo‘lib, u Buxoro shahridan ham qadimiyroq. Varaxshadan ko‘p miqdorda keramika buyumlari topiladi. Ular miloddan avvalgi I ming yillik oxiriga oid bo‘lishi mumkin. Ushbu shahar boy tarixiy madaniyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayotova.N.Z “VARAXSHA SHAHAR MADANIYATI: TARIXIY RIVOJLANISH VA ME’MORIY XUSUSIYATLAR”. “MA’MUM SCIENCE” TOSHKENT-2025.B.181-184
2. В.А.ШИШКИН “ ВАРАХША” МОСКВА 1963.Б-4-38
3. В.А.ШИШКИН “ТРУДИ ОТДЕЛА ИСТОРИИ КУЛЬТУРИ И ИСКУССТВА ВОСТОКА” ЛЕНИНГРАД.1947 Б-226-232

[1] В.А.ШИШКИН “ВАРАХША” МОСКВА 1963.Б-4-38
[2] В.А.ШИШКИН “ ТРУДИ ОТДЕЛА ИСТОРИИ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА ВОСТОКА” ЛЕНИНГРАД.1947 Б-226-232

BUXORO SHAHRINING TARIXIY LANDSHAFTI VA UNDAGI AYRIM MUAMMOLAR

Atoyeva Oyshabonu
Buxoro davlat universiteti, 1-bosqich talabasi,
Nosirov Sh.O‘
Buxoro davlat universiteti,
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTASIYA: Maqolada Buxoro tarixiy shahrining shakllanish tarixi, uning tarixiy landshafti haqida to’xtalib o’tilgan. Buxoro tarixiy shahar hududidagi hovuzlarning tarixi, ularning shaharsozlikdagi o’rni va bugungi holati va ulardagi muammolar haqida to’xtalib o’tilgan. Eski shahar va undagi yashil oazislar ularning kelib chiqishi va shakllanishi haqida fikr keltirilgan.

KALIT SO’ZLAR: Zarafshon daryosi, hovuz, yashil zona, mahalla markazi, Shohrud kanali, karroziya, sho’rlanish, suv muammosi.

Buxoro – qadimiy shahar. Zarafshon daryosi atrofida bundan ming yillar oldin qulay iqlim sharoiti tufayli aholi yashash hududlari shakllangan. Daryoning o’rta oqimida Samarqand vohasi, quyi oqimida Buxoro vohasi hozirgi Buxoro shahri o’rnida bugungi kundan kamida ikki yarim ming yil muqaddam paydo bo’lgan. Bizga Narshaxiyning manbalaridan ma’lumki, hozirgi Buxoro viloyatining o’rnida qadimda botqoqlik bo’lib, aksariyat qismi qamish va daraxtlar bilan qoplangan. U yerda juda ko’p qushlar bo’lib yerda hech bir hayvon o’ta olmagan jarliklar uchragan. Bu esa Samarqandni o’rab turgan tog’lardan qorlar erib suv shu tomonga oqib kelishi hisobiga bo’lgan. Shunday qilib, Samarqandda sersuv daryo Masaf bo’lgan. Suv ko’p joylarni yuvib o’tib yerlar tuzilishiga ta’sir qilgan. Bu esa botqoq yerlarni gil tuproqqa ko’milishiga keltirgan. Suv oqimi shunchalik ko’p bo’lganki, Bitik va Farabgacha bo’lgan hududda juda ko’p yerlar ko’chgan natijada botqoqlikdagi suv qurib o’rnida gil tuproqqa to’yingan katta hudud hosil bo’lgan. Shu tariqa Sug’d daryosi hosil bo’lib, gil tuproqqa to’yingan hududda Buxoro vohasi hosil bo’lgan. Bu vohada ko’p suv bo’lib, hududda daraxtlar ko’p bo’lgan. Ov qilish imkoniyatlari, keng bo’lgan, bu esa Turkistondan ko’chib keladigan ko’chmanchilarga juda qulay kelgan. Odamlar dastlab chodir va o’tovlarda yashashgan, keyinchalik aholi ko’payishi bilan binolar bunyod etish boshlangan. Shu tariqa botqoqlik o’rnida aholi yashash hududi paydo bo’lgan. Shunday qilib, ming yillar ilgari Zarafshon daryosining quyi oqimida hosil bo’lgan tabiiy qulay iqlim sharoiti bu yerda shahar shakllanishiga asos bo’lgan.

Buxoro shahri siyosiy markaz sifatida quyidagi davrlarni bosib o’tgan: Varaxsha – eramizdan avval IV asrdan – eramizning VIII asrigacha (VIII asr – Buxorxudotlar hukmronligi) , Poykent eramizdan avval IV – II asrdan eramizning XII asrigacha , bu orada IX – X asrga kelib hozirgi Buxoro shahri somoniylar davlatining poytaxti, XI- XII asrlar Qoraxoniylar davrida poytaxt shahar, keyinchalik XIV asrda temuriylar davrida poytaxt Samarqandga ko’chirilgan va nihoyat shayboniylar va amirliklar davrida poytaxt maqomi Buxoroga qaytgan. XVI- XVIII asrlar Buxoro shahrining shahar sifatida shakllanishida muhim, hattoki asosiy davr bo’lib xizmat qilgan. Amirliklar davrida Buxoro shahri o’sha davr uchun to’la shakllangan shahar ko’rinishiga kelgan. Shaharning asosiy suv manbai Zarafshon daryosidan to’yinadigan Shohrud kanali bo’lgan. Asosiy ichimlik suvi manbai hovuzlarda bo’lgan. Shahar hududida 80 ga yaqin hovuzlar bo’lgan. Hovuzlarni suv bilan asosiy va katta kanal Shohrud ta’minlagan. Kanaldan hovuzlarga suv o’tadigan usti yopiq ariqlar (tazar) bo’lgan.

Shohrud kanali shaharga sharqdan – Mozori Sharif darvozasi oldidan kirib, shahar markazidan o’tib, Shirgaron darvozasini chetlab chiqib ketgan. Kanalning markazdan o’tishi uchun uni shaharning barcha hovuzlarini suv bilan ta’minlab o’tishiga qulay bo’lgan. Katta markaziy hovuzlar atrofi (masalan Devonbegi hovuzi) g’ishtin devor bilan o’ralgan. Suv meshkoblar yordamida miroblar tomonidan xalqqa yetkazilgan. Suv bilan ta’minlash ishlari puxta o’ylangan va yaxshi tashkillashtirilgan tizim asosida faoliyat ko’rsatgan.

Har bir mahalla markazida hovuz bo’lgan. Hovuz mahalla markazining markaziy elementi bo’lib, atrofdagi barcha obyektlarni birlashtiruvchi tugun bo’lgan. Hovuz bo’lgan joyda tabiiyki,

ko’kalamzorlashtirish imkoniyati bo’lgan. Suvning tanqisligini inobatga olsak, ko’chalar va maydonlarda ko’kalamlar bo’lmagan, faqatgina mahalla markazlarida hovuzlar atrofidagina yashil oazislar shakllangan. Bundan kichkina yashil tugunlar esa turar-joy uylarida bo’lgan. Har bir turar joyda uning katta kichkinaligidan qat’iy nazar hovli bo’lgan. Har bitta hovlida katta bo’lmagan yashil zona bo’lgan. Turar-joy hovlilarida odatda uzum ekilgan. Uzum tirmashuvchi daraxt bo’lganligi sababli hovlida o’rnatilgan havoza ustini to’liq egallab, hovli yuzasini soya- salqinlik bilan ta’minlagan. Bundan tashqari tut daraxti ham ekilgan. Lekin tut daraxti katta daraxtlar sirasiga kirishini inobatga olsak, ular odatda ko’chalarni burimlarida hosil bo’lgan maydonlarda ekilgan. Tut daraxti ekilishi Buxoroning tuprog’i tarkibidagi sho’rni shimilishiga yordam bo’lgan. Tut daraxti atrofidagi tuproq sho’rdan tozalanar ekan, uning atrofida binolarni poydevorini uzoq yil xizmat qilishiga olib kelgan. Turar- joy hovlilari va mahalla markazlarida asosan mevali daraxtlar ekilgan, gullardan esa rayhon, namozshomgullar ekilgan. Turar-joy hovlilarida mahalla markazlarida farqli yashil zonasining yuzasi katta bo“lmagan va bu maydonni sug’orish uchun xo’jalik yumushlaridan chiqqan suvlar ham yetarli bo’lgan.

Lekin bugunga kelib, Zarafshon daryosida suv hajmini pasayishi Shohrud kanalida suvni kamayishiga olib keldi. Bu esa o’z navbatida Buxoro shahridagi hovuzlarni qurishiga olib keldi. Yuqorida aytilgan 80 ga yaqin hovuzdan 10 ga yaqin hovuzlardagina suv saqlanib qolgan. XIX asrda o’z davrining markaziy va katta hovuzlaridan bo’lgan Xo’ja Zayniddin hovuzida mahalliy aholining guvohlik berishicha oxirgi 50 yil suv bo’lmagan. Bu holat shahardagi boshqa hovuzlarda ham kuzatilgan. Bu esa o’z navbatida atrofdagi binolar, asosan, turar-joy uylari poydevorlarida tuz yig’ilishiga olib kelgan. Bu holat bugungi kunda Buxoro eski shahar hududida mavjud muammolardan biridir. Yer osti suvlarining ko’tarilishi natijasida tarixiy obidalar poydevorlarining sho’rlanishi karroziya jarayonini tezlashishiga sabab bo’layapti.

Suv bilan bog’liq muammolar bugungi kunda dunyo miqyosida global muammolar darajasida ko’rib chiqilayapti. O’z navbatida Orol dengizida suv hajmining kamayishi dunyo hamjamiyatini befarq qoldirgan emas. Shunday ekan, biz ushbu vaziyatda muammolar va hozirgi holatdan kelib chiqib, vaziyatga moslashishimiz, mahalliy landshaftni jonlantirishimiz va shahar mikroiqlimini yaxshilashga qaratilgan loyiha takliflarni ishlab chiqishimiz zarur. Loyihalarda suvsizlikka chidamli daraxt va o’simliklar, gidraponik usulda ekiladigan gul va butalarni tarixiy muhitga uning o’ziga xos manzillari bilan uyg’unlashib ketuvchi landshaft dizayn elementlarini ishlab chiqib ularni hayotga tatbiq etish bo’yicha takliflar kiritishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Abu Bakr Narshaxiy. Buxoro tarixi. –T.:1993
2. https://oriens.uz/media/journalarticles/85_Muhammadova_Sabina_Yoldosh_qizi_542-546.pdf
3. https:// uzresearch1.uz
4. https://namdu.uz
5. https:// arxiv.uz

2-SHO‘BA. BUXORO VOHASIDA DAVLATCHILIK ASOSLARI, SHAHARSOZLIK, MODDIY VA MA’NAVIY MADANIYAT MASALALARI

QUYI ZARAFSHON VOHASINING XO`JALIK AN`ANALARI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI)

Jumaeva Nilufar Axmatovna –
BuxDU Arxeologiya Buxoro tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Buxoro vohasi sharoitada dehqonchilik xo`jaligi sun`iy sug`orishga asoslanadi. Yerlarning unumdorligi, ekinlarning hosildorligi sun’iy sug‘orish, ariqlarning uzayishi va kengayishi hisobiga yildan yilga ortib borgan. XIX asrning oxiri - XX asr boshlariga kelib sug‘orish tarmoqlariga e’tibor pasayganligi kuzatiladi. Daryo suvi kam bo‘lganligi tufayli ariqlar va shoxlar (ariqdan kichik, ayrim paykallarni, qishloqdagi yrlarni sug‘oradigan suv yo‘li)ni qum, loyqa va suv o‘tlari bosib ketgan. Natijada yildan-yilga sug‘oriladigan maydonlar miqdori qisqarib borgan. Bu esa bir qator sabab va omillar bilan bog`liq bo‘lgan. yerlarning kattagina qismi yirik yer egalarining qo‘liga o‘tib ketgach, sug‘orish ishlariga e’tiborsizlik bilan qarash kuchaygan. Erga bir mavsumda bug‘doy yoki arpa ekib olingach, paykallar o‘tloqqa aylantirilgan. Vaqt o‘tishi bilan bir qancha ariq - zovurlar ko‘milib o`z ahamiyatini yo`qotgan.

Buxoroliklar ishchi hayvonlarni yaxshi oziqlantirish bilan birga ularni salqin vaqtda, ko`proq tunda va erta saharda ishga solganlar. Bahorgi yumushlar qizigan pallada ishga solingan ho`kizlarga nisbattan “gava pushtash oftoba nabinad”-Ho’kizning tanasi quyosh ko’rmasin iborasi shundan shundan kelib chiqqan bo`lib, ho`kizlarni, umuman ishchi jonivorlarni quyosh tig`ida ishlatmasdan, ularni asrab – avaylash , ishni salqin vaqtda amalga oshirish lozimligi nazarda tutilgan.

Erta bahorda yerlarni ekishga tayyorlash, ekishni o`z vaqtida o`tkazish ham alohida tayyorgarlik va tajribalarni talab qilgan. Buxorolik Bobodehqonlar bahorning har bir lahzasidan unumli foydalanib ekish – tikish ishlarini o`z vaqtida amalga oshirishga harakat qilganlar. Bahorning har daqiqasini g`animat bilib, ekishni ertaroq amalga oshirishga intilganlar. Xalqda “sepilgan urug` ho`kizning tanasiga tegmasin” iborasiga bahorgi ekish paytida erga sepilgan urug` ishchi jonivorlarning tanasiga tegilib erga tushguncha vaqt boy beriladi, degan ma`no anglatgan. Buxoroning issiq va quruq havo sharoiti, suv tanqisligi davrida balandligi bir metrcha keladigan oq jo`xorining har bir tubiga alohida – alohida ishlov berilib, osti yumshatilib, yumshoq tuproqdan kunda ostiga tortilib, to`pcha qilingan. Buning natiasida nam uzoq saqlangan va butaning mustahkamligi, shamol va tabiiy ofatlarga bardoshligi oshgan. Oq joxori 2 - 2,5 metr balandlikkacha o`sib , har bir tubi 3 - 4 tagacha bosh bog`lagan yoki har bir tubdan kamida bir kilogacha hosil olingan. Qishloq joylarida yashovchi buxoroliklarning ayvonida uzun qator qilib osib qo`yilgan oq jo`xori boshlarini kech kuzgacha uchratish mumkin edi. Yozning issig`ida obdon qurigan oq jo`xori boshlari yanchilib, doni sovurilib olingan, yaxshilab tozalanib, alohida quruq joyda saqlangan.Kuz va qish mavsumlarida uning donidan go’ja taomi pushirilib iltemol qilingan

Buxoro an`anaviy dehqonchiligining yana bir usuli poliz mahsulotlaridan qovun va tarvuz etishtirishda qo`llangan “Varqoni” usulidir. Bu usul haqidagi ma`lumotlarni tarixiy yozma manbalarda uchratmadik. Axborotchilarning xotiralariga suyanib fikr yuritdik.

Buxoro vohasining o`ziga xos iqlimi va tuproq sharoitida poliz mahsulotlari yetishtirish alohida qunt va tajriba talab qilgan. Zarafshon daryosining serunum tuproqli adog`lari, katta kanallarning to`g`on atroflari suvga serob, sernam va yumshoq bo`lib, daryo va kanallar oqizib kelgan loyqadan to`yinib, unumdorligi oshgan joylar edi. Bunday joylarda poliz ekinlaridan qovun va tarvuz ekilsa yuqori hosil berar edi. Ekilgan qovun unib chiqib, palak otib gulga kirgach, suvga bostirib sug`orilgan yoki toshqin bo`lsa suv ostiga qolgan. Bu holda yer tobga kelgach ag`darma chopiq qilinib, har bir tup ostiga tuproq to`pcha qilingan. Bu usulni suv inshootining bosh qismi to`g`on nomi bilan yoki qadimgi so`g`diy tilida “varq” - “to`g`on nomi bilan “Varqoni” deyilgan

. Varqoni – to`g`on boshi dehqonchiligi bo`lib, etishtirilgan poliz mahsulotlari serob va nihoyatda mazali bo`lgan.

An`anaviy Buxoro dehqonchiligida poliz ekinlarini yagonalashda alohida e`tibor qaratilgan. Xalqda "bir palakdan ikki qovun, ikki palakdan bir qovun" iborasida qovun, tarvuz, qovoq va boshqa ekinlarni o`z vaqtida yagonalashning nihoyatda zarurligi ko`rsatilgan.

Haydalgan yerdagi kesaklarni ezish, yerni tekislash hamda urug‘ sepilgandan so‘ng ustidan tuproq tortish uchun mola ishlatilgan. Molaning ikki xil turi mavjud bo‘lgan: biri katta, uzunligi 3-3,5 m. ko‘p yillik tut yoki o‘rik yog‘ochidan yasalgan (yo‘g‘on tanali tut yoki uning tanasi poytesha bilan yo‘nilgan). Molaning eni 40-60 sm bo‘lgan. Molani xo‘kizlar tortgan. Ho‘kizlarni bir kishi etaklagan, mola ustida ham bir odam o‘tirgan. Mola aksariyat lalmikor erlarda, qatqaloq va xashakli erlarda ishlatilgan. Bahorgi ekinlar ekiladigan erlarda mola o‘rnida shox-shabbali kichik daraxt tanasi ishlatilgan. Mola yasashga imkoni bo‘lmagan kambag‘al xo‘jaliklar omochning shotisidan mola sifatida foydalanishgan. Molaning kichigi 2-2,5sm chamasi bo‘lgan. Buni qo‘sh ho‘kiz, ot yoki tuya tortgan.

Buxoro vohasida qadimdan ishlatilib kelayotgan yer yumshatgich vositasi belkurakdir. Bu asbob temirdan yasalgan bo‘lib, ishlatuvchining xohishiga qarab, maxsus quloq yasatilgan. Quloq belkurakning o‘ng yoki chap tomonida bo‘lgan. Ba’zi xonadonlarda ikki tepki quloq ishlangan belkurak bo‘lgan. Belkurak yerni kovlash, aravaga go‘ng yoki tuproq ortish, ariq qazish va paxsa devor qurishda qo‘llanilgan. Belkurakning uzunligi 25-27 sm, eni 20-23 sm atrofida bo‘lgan. Dastasining uzunligi 1,3-1,5 metrni tashkil etgan. Loy ishlarida belkurakdan farqliroq, loyni kesishga qulay va engil bo‘lgan kapcha ishlatilgan.

Qadimda dehqonchilikda keng ishlatiladigan mehnat quroli ketmon bo‘lib. Buxoro vohasi ziroatchilari uchun ham bu qurolning xizmati katta bo‘lgan. Bog‘dorchilik, polizchilik, sabzavotchilik va g‘allachilikda, umuman, er ishlarida ketmon ishlatilgan. Ketmonlar ham shakli va hajmiga qarab bir-biridan farqlangan. Eni 30-32 sm, uzunligi 25-27 sm bo‘lgan ketmonlar tuproq yuklarida, ayniqsa, jo‘yak olish, uvat ko‘tarish, egat olish vaer tekislashda ko‘proq ishlatilgan. Hajmi kichik ketmonlar esa o‘simliklarning tagini yumshatish va chopiq qilishda qo‘llanilgan. Ketmon dastasi asosan tol daraxtidan tayyorlangan. Voha dehqonlari erdan ko‘proq hosil olish uchun unga sifatli ishlov berishgan. Tadbirkor boylar kuzda erni bir-ikki marta ko‘sh bilan haydashgan. Mola bosish, dalalrga suv tarqatish va mahalliy o‘g`itlarni berish ishlari ham tajribali dehqonlar maslahati bilan amalga oshirilgan. Almashlab ekish ham dehqonchilikda asosiy o‘rinda turgan. O‘simliklarning mavsumiy xususiyatlaridan kelib chiqib, birining o‘rniga ikkinchisini ekishgan. Albatta, bu jarayonda ob – havoning qanday kelishi va tuproqning o`ziga xos xususiyatlari ham hisobga olingan.

O‘rta Osiyodagi barcha xalqlar singari Buxoro vohasi dehqonlari ham XX asrning boshlarida donli ekinlarni ko‘proq ekishgan. Kuzda haydalgan yerlarga bug‘doy, arpa ekilgan. Urug‘ qo‘l bilan sepilgan va ustidan mola tortilgan. Don ekilgan to‘qay erlar asosan. maysa unib chiqqach, boshoq olish oldidan va don xamirga aylanganidan so‘ng 2-3 marta sug‘orilgan.

Axborotchilarimizning ta’kidlashlaricha, obikor erlarga oq bug‘doy lalmikor erlarga «qizil bug‘doy», «qora qiltiq bug‘doy» ekilgan. Hosil yig‘ib olingandan keyin bo‘shagan erlarga mosh, kunjut, uch oylik oq jo‘xori. tariq ekilib. yaxshi hosil olingan. Ba’zi dehqonlar qayta ekishga sabzavot va poliz ekinlarini, xususan, sabzi, sholg‘om, tarvuz kabilarni ekishni ma’qul ko‘rishgan.[XX asrning boshida asosiy maydonlarga bug‘doy, arpa bilan birga no‘xat, zig‘ir, kunjut, makka, kungaboqar kabi donli va boshoqli ekinlar ham ekilgan. Hosidandan bo‘shagan paykallarning barchasida qayta ekish to‘liq amalga oshirilmagan. Chunki qayta ekish uchun dehqonlarning hamma vaqt ham imkoniyati bo‘lmagan. Paykallarning asosiy qismi o‘rimdan so‘ng sug‘orilgan, qo‘sh bilan 2-3 marta haydalgan. Noyabr oyining oxiri, dekabr oyi ichida yerga «yaxob» suvi berilgan.[10] Albatta, sug`origan erlar bahorgi ekish mavsumi boshlangunga qadar dam olib yotgan.

XIX asrning oxirlarida Turkiston o‘lkasida sug‘oriladigan barcha maydonning 70 foiziga g‘o‘za ekilgan, xolos. Paxta maydonlari Buxoro amirligida 62 foiz, birgina Qashqadaryo vohasida esa 2 ming gektarni tashkil etgan. XX asrning boshlarida Buxoro amirligi Angliyaga va boshqa

chet mamlakatlarga turli xil qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotgan. Mahsulotlar ichida paxta ko‘p bo‘lgan. Bu esa o‘z navbatida Buxoro vohasining Qorako`l, Olot, Romitan kabi tumanlarida paxtaning ko‘p ekilishiga sabab bo‘lgan. Vohada «Mavri g‘o‘za», «Malla paxta» navlari ekilgan. Chorikorlar etishtirgan paxta hosili katta er egalari tomonidan sotilgan. Boylar korxonalar (paxtani qayta ishlaydigan kichik korxona) qurib, paxtani chigitdan ajratishgan va olingan toladan ip yigirishgan. Iplardan shoyi matolar to‘qishgan. O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiqni rivojlantirish masalasini o‘rganish uchun yuborilgan polkovnik Strukovning yozishicha,«Osiyoliklar keltirayotgan turli xil to‘qima matolarni oddiy xalq juda xush ko‘rib ishlatadi, chunki ular yumshoq va chidamli bo‘lgani uchun davlatdagi armiya uchun juda zarur bo‘lgan kanop mato o‘rnini bosa oladi».Rus zobitining bu fikrlarini axborotchtarimizdan olingan ma’lumotlar ham tasdiqlaydi.

Yashash sharoiti qanchalik og‘ir bo‘lmasin, voha ziroatchilari hamisha bir-biriga yordam qo‘lini cho‘zib kelgan. Ariq ochish, tozalash ishlari kuzning oxiri va qish davri hamda erta bahorda hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan bo‘lsa, xirmondagi donni ajratish, g‘o‘zani chopiq qilish, ko‘sak chuvish, tok, anor, anjirlarni ko‘mish va ochish, daraxtlarga ishlov va shakl berish kabi ishlarni ham dehqonlar hamjihat bo‘lib bajarishgan.

Birinchi jahon urushi arafasida Rossiyaning Turkistonda olib borgan mustamlakachilik siyosati boshqa soha vakillari kabi dehqonlarning ham ahvolini og‘irlashtirgan. Soliqlarning haddan ortiq ko‘payganligi ekin maydonlarining qisqarishiga olib keladi. Xalq bir amallab tirikchilik o‘tkazish uchun ishchi ho`kiz o`rnida hattoki o‘zlarini omochga qo‘shib er haydaganliklari, ketmon bilan ertayu – kech yer chopganliklari haqidagi ma’lumotlar axborotchilarimiz xotiralarida saqlangan.

Almashlab ekish an’anasiga rioya etilmaganligi natijasida g‘o‘zaning yomon parvarish qilinishi dalalarning quvvatsizlanishiga, paxta hosilining pasayishi va majud navlarning buzilishiga, shuningdek, boshqa sifat ko‘rsatkichlarining yomonlashuviga olib keldi. 1916 yildagi ob-havo sharoiti (ko‘klamning kech va sovuq kelishi, yozdagi qurg‘oqchilik, chigirtka bosishi) iqtisodiyotning va paxtachilik agrotexnikasining ahvolini yanada og‘irlashtirdi.

Butun Turkiston o‘lkasi uchun berilgan bu tavsif Buxoro vohasidagi ahvolni ham ifodalagan, desak xato bo‘lmaydi.

Xulosa: XIX asr oxiri- XX asrning boshlarida Buxoro vohasida g‘alla, paxta yoki boshqa poliz ekinlarini ekib parvarishlash dehqonlar uchun qo`l mehnati bilan bajariladigan mashg`ulotlar ancha og‘ir bo‘lgan. Sug‘orish shoxobchalarining talabga javob bermaganligi, unumdor erlarning boy – badavlat kishilar tomonidan bo‘lib olingani, Buxoro amiri tomonidan undirilgan soliqtarning haddan ortiqligi, qishloq xo‘jalik texnikasi va ish qurollarining oddiyligi madaniy ekinlar hosildorligini oshirishga imkon bermagan.

Dono xalqimiz, tadbirkor bobo dehqonlarimiz ming yillar davomida yerga ishlov berish, ekin ekib mo`l hosil olishning o`ziga xos usullari va tadbirlarini yaratib, Quyi Zarafshonning murakkab tabiiy sharoitida ham jahon ziroatchilik madaniyatiga o`ziga xos munosib hissa qo`shganlar , og’ir sharoitlarga qaramay o’zlarining asriy tajribalari asosida an`anaviy dehqonchilik usullari yordamida mo’l-ko’l hosil yetishtirishga muvaffaq bo’lganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. -Т..1972.
2. Дала этнографик маълумотлари,ахборотчи Шоди Рўзиев,1990 й (Аҳмад Жумаевниг шахсий архивидан).
3. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Аҳмад Жумаевниг 2012йил.
4. Дала этнографик маълумотлари, ахборотчи Раҳмон Жўраев, 2003 йил
5. Дала этнографик маълумотлари, 1997 йил. Коракул тумани.
6. Дала этнографик маълумотлари, 1998 йил Ромитан тумани Ромиш қишлоғи
7. Жабборов И. Ўзбек халк этнографияси.-Т., 1994. -Б. 102.
8. Шаниязов К.Ш. Узбеки - карлуки. -Т., 1964. -Б. 169.

XX АСРДА БУХОРО ШАҲРИДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ВА ЙЎЛ ИНФРАТУЗИЛМАСИ ШАКЛЛАНИШИ

Нафиса Закировна Ҳаётова
т.ф.ф.д.(PhD),
Бухоро давлат университети

Аннотация. Ушбу мақолада совет даврида Бухоро шаҳрида транспорт инфразулмаси ва йўлсозлик ривожланиши таҳлил қилинган. Манбаларга таянган ҳолда автобус ва енгил автомашини-такси хизматларини шаклланиши, транспорт воситалари паркининг босқичма-босқич кенгайиши ҳамда йўлларни асфальтлаш жараёнлари ёритилади. Мақолада мазкур инфратузилмавий ўзгаришларнинг шаҳар ижтимоий ҳаётига, аҳоли ҳаракатланиш имкониятларига ва кейинги транспорт ривожига кўрсатган таъсири ҳақида хулосалар берилади.

Калит сўзлар: урбанизиция, темир йўл, Ўзавтосаноат, инфратузилма, модернизация

Бухоро шаҳар муҳитининг шаклланиши, тарихий қиёфаси ҳамда инфратузилмаси кўп асрлик тараққиёт давомида турли сиёсий-иқтисодий босимлар, ривожланиш босқичлари ва маъмурий ислоҳотлар таъсирида ўзгариб келган. Маълумки, XIX асрнинг иккинчи ярмида Чор Россиясининг 1868 йилдаги босқини Бухорода муайян янги турдаги инфратузилмавий ўзгаришларга олиб келган бўлса-да, шаҳарнинг асосий қайта қурилиши ва босқичма-босқич тизимли ўзгариши 1920 йилдан кейинги совет даврида жадал тус олди. Мазкур жараёнларда шаҳар инфратузилмасини модернизация қилиш, айниқса транспорт қатновини йўлга қўйиш, аҳолини ичимлик суви ва газ билан таъминлаш масалалари давлат сиёсатининг етакчи йўналишларидан бирига айланди.

Бухоро шаҳрида урбанизация жараёнлари нафақат шаҳарнинг меъморий қиёфасини, балки унинг ички мухандислик ва транспорт инфратузилмасини ҳам тубдан ўзгартирди. Шаҳарнинг иқтисодий ривожланиши, аҳоли зичлиги ва ишлаб чиқариш корхоналарининг қурилиши натижасида транспорт тизими унинг барқарор фаолиятини таъминловчи энг муҳим таркибий қисмга айланди. Совет даврида Бухоро шаҳридаги транспорт қатнови тизими шаҳарсозлик сиёсатининг ажралмас қисми сифатида шаклланди. Айтиш жоизки, республикада автомобиль транспорти тизими темир йўл транспортига нисбатан кечроқ ривожланди. Бунинг асосий сабаби Россия империяси ва кейинчалик Совет Иттифоқининг минтақадаги транспорт сиёсатида ташқи ташув хизматидан, асосан темир йўлдан фойдаланиш устун бўлган. Шу шароитда, маҳаллий аҳамиятга эга автомобил йўллари босқичма-босқич барпо этила бошланди. Хусусан, 1928-1932 йиллар давомида узунлиги 62 км бўлган Бухоро-Ғиждувон-Қизилтепа йўналишидаги илк автомобиль йўли қурилиб фойдаланишга топширилди[1]. Бу йўл нафақат маҳаллий аҳамиятга , балки иқтисодий-стратегик аҳамиятга ҳам эга бўлган. Сабаби пахта етиштирувчи туманларини Бухоро шаҳри орқали Самарқанд билан боғлаб, хом-ашё ташиши ва маҳсулот айланмасига хизмат қилган. Мазкур йўл Ўзбекистонда қурилган илк қора қопламали (асфальт) йўллардан бири бўлиб, мамлакатда замонавий автомобиль транспорти тизими ривожланишининг бошланғич босқичини ифода этган.

1930-йилда ЎзбекистонССРда йўл қурилиши соҳасидаги ишлар давлат миқёсида ташкилотчилик асосида йўлга қўйилиб, “Ўзйўлқурилиштрест” акциядорлик жамияти ташкил этилди[2]. Ташкилот янги йўллар барпо этиш, мавжуд йўлларни таъмирлаш, транспорт техникасини жорий этиш ва йўл қурилишидаги моддий ресурсларни тақсимлаш ишларини ҳам мувофиқлаштирган. Шунингдек, унинг таркибида 1929-йилдан буён фаолият кўрсатиб келаётган, республикада ягона автомобиль ташкилоти- “Ўзавтосаноат

[1] Азизов Қ.Ҳ., Содиқов И.С., Ўроқов А.Х., Дарабов М.С., Сайфутдинова Р.А., Холиқов А.И. Автомобиль йўлларининг ривожланиш тарихи ва алоқа йўллари. 1-китоб. Тошкент.2020.-Б. 89.
[2] Ўша ерда.

савдо” ҳам киритилиб, бу билан йўл қурилиши соҳаси ва автомобиль транспортини ривожлантириш иши бир тизимга бирлаштирилди.

1930-йилларнинг иккинчи ярмига келиб, шаҳарнинг иқтисодий ва демографик ўсиши транспорт воситаларининг кўпайиши билан узвий боғлиқ ҳолда кечди. Архив маълумотларига кўра, 1938-1940 йиллар оралиғида Бухоро шаҳрида автомобиль транспорти парки барқарор ўсиш тенденциясини намоён этган. 1938 йилда шаҳарда 68 та енгил автомобиль, 234 та юк ташувчи машина ва 8 та автобус мавжуд бўлган. Улар йилига тахминан 256,1 минг йўловчи ташишни таъминлаган[1]. Айтиш жоизки, дастлабки автобус қатнови Бухоро шаҳрида фақат бирта йўналишда - Лаби Ҳовуз майдонидан Винзаводгача бўлган масофада амалга оширилган[2]. Бу йўналиш тасодифан танланмаган бўлиб, Лаби Ҳовуз шаҳарнинг маъмурий ва ижтимоий маркази ҳисобланса, Винзавод ва ўша ҳудудда жойлашган “Шелькомательная” (Ипак маҳсулотларини қайта ишловчи) фабрикаси шаҳар саноат тармоғининг илк ишлаб чиқариш нуқталаридан бири бўлган. Шу сабаб мазкур йўналишда нафақат ишчиларни иш жойига ташиш, балки шаҳарнинг иқтисодий марказини ишлаб чиқариш ҳудуди билан боғловчи муҳим транспорт артерияси вазифасини бажарган. Бу даврда автобус қатнови шаҳар аҳолиси учун янги турдаги жамоат транспорти сифатида қабул қилинган бўлиб, у замонавий транспорт тизимининг пойдеворини яратди.

1939 йилга келиб шаҳарда транспорт воситалари сони сезиларли ўсди: енгил автомобиллар сони 76 тага, юк машиналари 355 тага, автобуслар сони эса 11 тага етди. Йўловчи ташиш ҳажми ҳам ўсиб, 200,4 минг нафар аҳолини ташкил этди[3]. Бу кўрсатгичлар шаҳарда транспорт хизматига бўлган эҳтиёжнинг тобора ортиб бораётганидан дарак берарди. Бир йил ўтгач, яъни 1940 йилда, Бухоро шаҳри транспорт тизими янада кенгайди. Енгил автомобиллар сони 82 та, юк автомобиллар сони 379 та, автобуслар эса 15 тага етди. Йилига ташилган йўловчилар сони 234,9 минг нафарни ташкил этган[4]. Демак, 1938 – 1940 йиллар ичида енгил автомобиллар сони 20 %дан ортиқ, автобуслар сони эса қарийб икки баробарга кўпайган. Бу ҳолат шаҳар иқтисодиётининг тикланиши ва меҳнат ҳаракатчилигининг ошиб бориши билан изоҳланади.

1939 йилларга оид архив маълумотларида Бухоро шаҳрида фақат битта йўл намлагич машина (поливочный транспорт) мавжуд бўлгани қайд этилган[5]. Бу жараён шаҳар инфратузилмасининг ҳали шаклланиш ва тизимлашиш босқичида эканлигини кўрсатади. Йўл намлагич машина ўша даврдаги транспорт тизими билан узвий боғлиқ бўлиб, унинг асосий вазифаси шаҳар кўчаларини сув билан сепиш орқали қумли ва чангли йўлларнинг ҳаракат учун яроқли ҳолатда сақланишини таъминлашдан иборат бўлган. Бу эса тўғридан-тўғри транспорт воситалари ҳаракат хавфсизлиги ва йўловчи ташиш самарадорлигига таъсир этган.

Айтиш жоизки, урушдан кейинги йилларда Бухоро шаҳрида ободонлаштириш ишлари кенг кўламда олиб борилди. Айниқса. йўл ва кўприк қурилишига катта эътибор қаратилди. 1952 йил 9 январда Ўзбекистон ССР ҳукумати “Бухоро шаҳрини ободонлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорни қабул қилди ҳамда бу мақсад учун 1 300 000 сўм маблағ ажратди[6] [4]. Бир йил давомида қарор ижросини таъминлаш борасида амалий ишлар олиб борилиб, умумий майдони 120 073 м² бўлган шаҳар кўчалари таъмирланди ва асфальтланди, шу қатори кўчалар кенгайтирилди. Жумладан, Пушкин кўчаси (ҳозирда Меҳтар Анбар),

Ш. Эргашев кўчалари текисланиб асфальтлаштирилди ҳамда Шоҳруҳ ариғи устидан кўприк қурилиб, Лаби Ҳовуз майдонида таъмирлов ишлари олиб борилди.

[1] ЎМА. 1619-жамғарма, 11-рўйхат, 796-йиғма жилд, 51-бет.
[2] Бухоро вилоят Автотранспорт Нуронийлар раиси Садуллаев Хусайн Ҳамидович билан бўлган суҳбат асосидаги маълумот. 2025 йил.
[3] ЎМА. 1619-жамғарма, 11-рўйхат, 796-йиғма жилд, 51-бет.
[4] ЎМА. 1619-жамғарма, 11-рўйхат, 796-йиғма жилд, 51-бет.
[5] ЎМА. 1619-жамғарма, 11-рўйхат, 796-йиғма жилд, 55-бет.
[6] Красная Бухара. 12 января 1952 год.

XX аср ўрталаридан республикамизнинг кўплаб шаҳарларида такси хизмати йўлга қўйилди. Автобус қатнови фаолият кўрсатсада, шаҳарларда аҳолига транспорт хизмати кўрсатиш борасида муаммолар кўп бўлган. Фақатгина саноат корхоналарнинг қурилиши ва аҳоли сонининг кўпайиб бориши транспорт инфратузилмасининг ривожланишига туртки бўлган. 1970-йиллар ўрталарида Бухоро шаҳрида жами 246 та автобус, 150 та енгил автомашина-такси аҳолига хизмат кўрсатган. Шаҳарда транспорт воситалари сони йил сайин ошиб бориб, биргина 1973 йилда 30 та янги автобус ва 20 та енгил автомашина келтирилган[1]. Бу ҳолат шаҳар ҳокимияти ва давлат томонидан транспорт соҳасига эътибор кучайганини кўрсатади.

Хулоса қилсак, ушбу даврда Бухоро шаҳрида транспорт тизими ривожи аҳоли эҳтиёжи ва саноатлашув билан узвий боғлиқ бўлган. Аввал мавжуд бўлган муаммоларни бартараф этиш учун давлат томонидан транспорт воситалари парки изчил равишда кенгайтирилган. Лекин, бу жараённи бир томонлама -ижобий деб баҳолаш тўғри эмас. Совет даврида амалга оширилган инфратузилмавий лойиҳалар, жумладан транспорт ва йўлларни таъмирлаш ҳаракатлари, кўп ҳолларда мустамлакачилик манфаатларини кўзлаган ҳолда ташкил этилганини инкор этиб бўлмайди. Ўзбекистон, хусусан Бухоро каби ҳудудлар, асосан пахта етиштириш ҳамда хом-ашё базаси сифатида қаралган, шу боис инфратузилмани ривожлантириш ҳам айни иқтисодий манфаатларни таъминлашга хизмат қилган. Транспорт паркларини ташкил қилиш ва йўлларни асфальтлаштириш орқали, аввало, хом-ашёни узлуксиз етказиш, саноатга зарур маҳсулотларни ташиш ва марказ манфаатларига мос равишда ҳудудлар ўртасида логистик алоқаларни тезлаштириш мақсад қилинган.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ПОД ВЛИЯНИЕМ СОВЕТСКОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XX ВЕКА)

Камола Орзиева Сайидмуродовна
Научный исследователь
Бухарский государственный университет
Кафедра археология и истории Бухары

Аннотация. В статье анализируются структурные изменения в хозяйственной жизни Бухарской области во второй половине XX века в условиях советской экономической политики. Аграрное хозяйство, основанное на хлопководстве, развитие ирригации и промышленности раскрываются на основе статистических данных и конкретных примеров. Односторонняя ориентация на хлопок, экологические проблемы и кризисные факторы рассматриваются как сложное экономическое наследие для области.

Ключевые слова: экономическая политика, хозяйственная жизнь, промышленность, сельское хозяйство, хлопок, трудовые ресурсы, производство.

Вторая половина XX века стала периодом глубинных структурных изменений в экономической жизни Советского Союза, Узбекской ССР и входящей в её состав Бухарской области. Централизованное планирование, пятилетние планы, аграрно-промышленная политика, программы по ирригации и мелиорации, а также решения по территориальному размещению промышленности существенно изменили хозяйственный облик области. Эти процессы оказали непосредственное влияние на уровень и образ жизни населения, на экономическую среду в целом и сформировали важную историческую основу для анализа современного развития Бухарской области. Системное изучение изменений в хозяйственной жизни и образе жизни населения Бухарской области позволяет глубже осмыслить исторический опыт и корректно оценить исторический контекст нынешних реформ.

[1]Тоғаева А. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти муаммолари (1950-1990 йиллар).Тошкент: “Yangi nashr”. 2017.-Б.126.

Во второй половине XX века Бухарская область сформировалась, прежде всего, как аграрная сырьевая база и в определённой степени как зона частичной индустриализации. Пятилетние планы предусматривали развитие сельского хозяйства, прежде всего хлопководства, расширение ирригационных и мелиоративных работ, а также создание предприятий лёгкой, пищевой и строительной промышленности по переработке сельскохозяйственного сырья[1]. В результате усилилась специализация колхозов и совхозов, расширились площади орошаемых земель, начала складываться аграрно-промышленная структура хозяйства.

Сельское хозяйство и в данный период оставалось ведущей отраслью хозяйственной жизни Бухарской области, при этом в рамках советской экономической политики область была глубоко специализирована на хлопководстве. Объём производства хлопкового сырья вырос с 282 тыс. тонн в 1958 г. до 463 тыс. тонн в 1970 г. В 1974 г. 500 тыс. тонн. В 1971-1975 гг. было произведено в общей сложности 2 млн. 157 тыс. тонн хлопка. Это на 203 тыс. тонн больше по сравнению с предыдущей пятилеткой[2]. Для достижения такого роста в 1953-1958 гг. на развитие водного хозяйства в области было направлено 105 млн. сумов[3]. В колхозах и совхозах усиливалось укрупнение аграрного производства, обеспеченность техникой, применение минеральных удобрений и внедрение современных агротехнических мероприятий.

В этих условиях возрастающая потребность в кадрах ускорила подготовку трудовых ресурсов. В частности, если в 1965 г. в области было подготовлено 730 механизаторов-водителей, то в 70-80-е гг. численность трактористов для сельскохозяйственных предприятий возросла с 23,4 тыс. до 68,9 тыс. человек, а комбайнёров — с 2,8 тыс. до 19,5 тыс. человек. В 1971-1975 гг. в колхозах и совхозах области трудилось свыше 9 тыс. агрономов, инженеров, ветеринарных работников и зоотехников, а также около 8 тыс. механизаторов - водителей сельскохозяйственных машин[4]. Однако резкое смещение структуры посевных площадей в сторону хлопка, чрезмерное использование водных ресурсов, усиление процессов засоления и нарушение экологического баланса в 70-80-е годы приобрели ещё более острый характер.

Замедление темпов роста урожайности хлопка, снижение качественных показателей и события, связанные с «хлопковым делом», выявили внутреннее напряжение в системе[5]. К концу 80-х годов в условиях общесоюзного экономического кризиса, перебоев в обеспечении горюче - смазочными материалами, запчастями и удобрениями аграрный сектор Бухарской области уже не мог выполнять завышенные плановые обязательства по хлопку; в результате к 1990 г. снизилась экономическая эффективность сельского хозяйства, а экологические проблемы приобрели более острый характер.

Изменения в промышленной инфраструктуре и образе жизни населения, прежде всего, проявились через модернизацию энергетики и производственных отраслей. 26 июня 1957 г. Совет Министров СССР принял постановление № 715. Этот документ был направлен на газификацию городского населения, коммунального хозяйства и промышленных предприятий Узбекской ССР, были одобрены предложения ЦК КП Узбекской ССР, Совета Министров Узбекской ССР и Госплана СССР о строительстве в 1958-1960 гг. магистрального газопровода Джаркак - Бухара - Самарканд - Ташкент. Этот газопровод оформился как проект, имеющий огромное народно- хозяйственное значение для республик Средней Азии, в том числе для Бухарской области[6]. Сосредоточение значительных запасов газа, прежде всего Бухара – Хивинской впадине, позволило довести объём добычи газа в Узбекистане к 1965 г. до 18 млрд. кубометров[7]. Это создало

[1] Национальный архив Узбекистана (НАУ), фонд 88, опись 13, дело 7864, лист 25.
[2] Государственный архив Бухарской области (ГАБО), фонд 1023, опись 1, дело 1199, лист 358.
[3] ГАБО, фонд 1023, опись 1, дело 1199, лист 370
[4] ГАБО, фонд 1023, опись 1, дело 1202, лист 39.
[5] НАУ, фонд 88, опись 13, дело 7864, лист 40.
[6] НАУ, фонд 837, опись 38, дело 9022, лист 77
[7] НАУ, фонд 2384, опись 5, дело 184, лист 12.

необходимую сырьевую базу для широкого использования газа в промышленных процессах.

В одном только городе Бухаре действовало свыше 30 промышленных предприятий, на которых трудилось более 20 тыс. рабочих и 2,5 тыс. инженерно-технических работников, около 40 % из них составляли женщины[1]. К концу 80-х годов расширение газо - химических производств, предприятий строительных материалов и других промышленных объектов в предшествующие десятилетия, в сочетании с общесоюзным экономическим кризисом, перебоями в снабжении топливом и сырьём, износом основных фондов и запоздалой технической модернизацией, привело и промышленные отрасли Бухарской области к состоянию, близкому к кризису.

К 90-м годам снижение темпов производства, сокращение рабочего времени, остановки на отдельных предприятиях, задержки заработной платы, а также усиление проблем с обеспечением населения товарами первой необходимости обнажили внутреннюю слабость индустриально-инфраструктурного расширения советского периода. Ориентация системы на одностороннее развитие хлопководства, неэффективное использование ресурсов, жёсткое планирование и практика «выполнения» статистических показателей снижали реальную эффективность экономики. Слабость местной инициативы и гибких механизмов управления, а также недостаточный учёт региональных потребностей и особенностей привели к существенному разрыву между проводимой экономической политикой и реальными условиями жизни населения.

Во второй половине XX века изменения в хозяйственной жизни и образе жизни населения Бухарской области были тесно связаны с реализацией советской экономической политики и системы централизованного планирования на местном уровне. В результате проводимых мероприятий по индустриализации, специализации сельского хозяйства, развитию ирригации и социальной инфраструктуры существенно обновились экономический облик и социальный ландшафт области.

Однако за этими результатами скрывались и серьёзные проблемы: односторонняя ориентация экономики на сырьевое направление, неэффективное использование ресурсов, диспропорции в распределении, чрезмерное внимание к статистическим показателям и ограниченность местной инициативы. Поэтому при оценке хозяйственной жизни и условий повседневного быта в Бухарской области в советский период необходимо учитывать не только позитивные инфраструктурные изменения, но и системные недостатки, и внутренние противоречия. Такой подход позволяет в современных условиях критически осмыслить исторический опыт при разработке стратегий экономического и социального развития области.

Список использованных источников

1. Национальный архив Узбекистана, фонд 88, опись 13, дело 7864.
2. Государственный архив Бухарской области, фонд 1023, опись 1, дело 1199.
3. Государственный архив Бухарской области, фонд 1023, опись 1, дело 1202.
4. Национальный архив Узбекистана, фонд 88, опись 13, дело 7864.
5. Национальный архив Узбекистана, фонд 837, опись 38, дело 9022.
6. Национальный архив Узбекистана, фонд 2384, опись 5, дело 184.
7. Национальный архив Узбекистана, фонд 2384, опись 5, дело 66.

BUXORONING ESKI SHAHAR QISMIDAGI ME’MORIY OBIDALAR TASNIFI

Fattullayev Farrux Fazliddin o‘g‘li –
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan qadimiy Buxoro savdo-sotiq markazi sifatida jahonga dong taratgan. O‘rta asrlardayoq o‘zining timu-toqlari, o‘ziga xos savdo rastalari bilan xorijlik savdogarlar e’tiborini tortgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “... Azaldan savdo yo‘llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida

[1] НАУ, фонд 2384, опись 5, дело 66, лист 9.

joylashgan boqiy Buxoro, uning ko‘pni ko‘rgan, ilm-ma’rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik borasida nom qozongan xalqi har qanday hurmat va e’tiborga munosibdir”. Shuning uchun ham Buxoroning savdo-sotiq sohasidagi tarixi ham noyob .

“Dunyoda alohida bir elga, alohida bir yurtga bag‘ishlab barpo qilingan yodgorliklar majmuasi kamdan-kam uchraydi. Buxoroi Sharif ayni shunday o‘lkalar qatoriga kiradi.” Shahrimizda shunaqa tarixiy obidalar borki, ularga o‘xshashini hech qaysi musulmon davlatida uchratmaysiz. Arablar shaharni “Madina at tujjor” deb, ya’ni savdogarlar shahri deb ataganlar. Shuningdek, Buxoro shahrida savdo-sotiq ishlari o‘ziga xos shaklda tashkil etilgan. Shaharda arxitekturasi juda noyob toq va timlar, turli savdo rastalari bo‘lgan mahsulot xiliga qarab alohida bozorlar bo‘lgan.

Hozirgi avlod ularning saqlanib qolgan qismini biladilar, xolos. Bizning maqsadimiz Buxoro shahridagi o‘rta asr savdo-sotiq ishlari haqidagi ma’lumotlarni bayon qilish orqali yosh avlodga Buxoro savdo-sotig‘i haqida ayrim ma’lumotlarni yetkazishdan iborat. Buxoroi Sharifning to‘liq savdo manzarasini tasavvur eta olish hamyurtlarimizda o‘zgacha g‘urur baxsh etishi shubhasiz! Shayboniylar sulolasi idora qilgan davrda savdo-sotiq ishlari taraqqiy etib, savdo-sotiqqa aloqador binolar qurila boshlandi. XVI asr qurilgan savdo inshootlari orasida toq va timlar alohida qiziqish uyg‘otadi. Toqlar shahristonning Labihovuz maydonidan Registon maydonigacha boradigan asosiy savdo ko‘chasidagi chorrahalarda qurilgan. Qadimiy Buxoroi Sharifda turli mahsulotlar alohida-alohida rastalarda sotilgan. Sharq mamlakatlarining ko‘pida Buxoro savdo rastalarida sotilgan mahsulot va buyumlar qadrlangan. Sug‘d tilining ilk o‘rta asrlardan boshlab, xalqaro savdo tili maqomini olishi, sug‘d savdogarlarining savdo-sotiqda vositachilik qilishi ham savdo-sotiq rivojiga imkon yaratgan. Savdo rastalari Nodir Devonbegi madrasasining orqa tomonidan boshlanib, u yerda rastayi halvogari, rastayi baqqoli, rastayi rohati-jon furushi, (muzqaymoq sotish rastasi) joylashgan bo‘lsa, Ko‘kaldosh madrasasi yo‘nalishida bozori jav (tariq) faoliyat ko‘rsatgan . Hozirgi Ko‘kaldosh madrasasida bozori namak (tuz bozori) joylashgan. Uning qarama-qarshi tomonida bozori naxo‘t (mosh, no‘xat, loviya) sotilgan. Nodir Devonbegi hovuzi atrofida nonfuro‘shlar va holvagarlar rastalari bo‘lgan.Labihovuzdan Samarqand darvozasi yo‘nalishida attorlar rastasi, so‘ngra ko‘mir sotiladigan bozori tano‘r (tandirsozlik bozori) davom etgan. Ko‘kaldosh madrasasi orqasida rastayi qassob joylashgan. Labihovuzdan Toqi Sarrofongacha o‘t sotiladigan bozori alaf, choy rastasi, tovuq sotiladigan bozori murg‘, bozori latta, bozori sham joylashgan.

Toqi Sarrofon ikki ko‘cha chorrahasida bo‘lib, ulardan biri Registon tomoniga qarab ketgan. Bu toqning gumbazi bir-birini kesib o‘tadigan 4 ta mustahkam peshtoq ustiga qurilgan. Peshtoqlar tagidan “Chorzamich” deb atalgan Buxoro arxitekturasiga xos gumbaz bilan qoplangan yo‘l o‘tadi. Bu toqning Sarrofon deb atalishiga sabab, unda sarroflar o‘tirib xorijiy pullarni almashtirganlar va pul maydalaganlar. Gavkushon madrasasi yo‘nalishida Shohruh arig‘ining ikki tomonida cho‘bfuro‘shlar rastasi joylashgan.

Mag‘oki Attori masjidi yo‘nalishida attorchilik rastasi bo‘lib, unda shom, attor va boshqa dorivorlar sotilgan. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Mag‘oki Attori masjidining orqa tomonidan Timi Safed joylashgan bo‘lib, unda rastayi oynafuro‘shi, rastayi shonafuro‘shi joylashgan. Shuningdek, toqi Telpakfurushon yo‘nalishida rastayi sallafuro‘shi, rastayi adraslar o‘rin olgan. Ko‘kaldosh madrasasining Toqi Telpakfurushon yo‘nalishida poyafzal rastasi, mix va taqa (namgari) singari rastalar bo‘lgan.

Timi Abdullaxon 1577-yilda qurilgan. Markaziy Osiyoda yagona yopiq bozor hisoblanib, ichkari qismi juda salqin bo‘lgan. Bu savdo markazida ipak, kundal, kimxo, farangi singari matolar sotilgan. Timning orqa tomonida miltiq sotiladigan bozor bo‘lgan. Abdullaxon timida 6 ta darvoza bo‘lib, odatda ko‘p mahsulotlar chakana savdosi shu yerda o‘tkazilgan. Qorong‘i tushishi bilan bozor yopilib, hech kimning kirishiga qo‘yilmagan. Xorijiy savdogarlarning savdo-sotiq ishlari olib borishi uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Karvonsaroy ularga xizmat qilgan.

Toqi Zargaron muntazam 8 burchakli, uning 2 xonasi bahaybat gumbaz bilan yopilgan. 16 ta darchali gumbazning meridional qobirg‘alari bor. U yerda 36 ta zargarlik do‘koni bo‘lib, ayollar uchun tayyorlangan va butun dunyoga mashhur zargarlik buyumlari shu yerda tayyorlanib sotilgan. Toqi Zargarondan Minorayi Kalon yo‘nalishida ikki tomondan guruch (birinch) bozori joylashgan, undan keyin go‘sht sotuvchilar (rastayi qassobi) joylashgan.

Registon maydoni chorrahasida Toqi Pirgaron (hozir u yiqitilib yo‘l o‘tkazilgan) joylashgan bo‘lib, unda o‘q-yoy tayyorlangan 30 dan ortiq ustaxonalar joylashgan.

Registon va Boloi Hovuz atrofida ham katta-katta savdo rastalari joylashgan. U yerda choy, qovurilgan no‘xat (biryon) qog‘oz va siyoh, beshik (rastayi gavorafuro‘sh), qo‘y (bozori go‘sfand), o‘t (alaf), kadi, tarvuz va qovun rastalari joylashgan.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroning eski shahar qismidagi mahallalar tarixini o‘rganar ekanmiz bunda xonliklar davrida bunyod etilgan me’moriy inshootlar xususan savdo muassasalari muhum ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гулямов Х.Г. Из истории дипломатических отношений России с Бухарским ханством XVIII в. –Т.: Фан. 1992. С.95.
2. Раҳмонқулова З. “Бухоро амирлигининг дипломатик алоқолари” // Жамият ва бошқарув. 2002. №3. –Б.74-75.
3. Қўлдошев Ш. Манғитлар даврида Бухоро-Хитой муносабатлари/Бухоро тарихи масалалари (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). Бухоро: 2017. –Б.178179.
4. Авазов Й. Бухоро амирлигининг ташқи иқтисодий алоқалари (XIX-XX аср бошлари) //Мозийдан садо. 2007. -№1. –Б.42
5. Логофет Р.И. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т.2.-СПб., 1911.
6. Маев Н. Очерки Бухарского ханства, Гиссарского края и горных бекств // Материалы для статистики Туркистанского края. - СПб., 1879. T.V.
7. Хаников Я.В. Поясниельная записка к картам Аральского и Хивинского ханского. Русского Географического Общество. Кн.1851 г.
8. Жуковский С.В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехстолетие. -СПб, 1915.

BUXORO MODDIY MADANIYATI (O’ZBEKISTON MODDIY MADANIYATI TARIXI JURNALI ASOSIDA)

Jo’raboyev Azizbek Axmadjon o’g’li
E-mail: a.a.juraboyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot ishida mustaqillik yillarida Buxoroda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bayon etilgan. Qadimiy shahar arxeologik o‘rganish natijalarini umumlashtiradi. Zamonbobo madaniyati O‘zbekistonning qadimgi metallurgiya va metallga ishlov berish tarixida alohida o‘rin tutganligi, Islom me’morchiligining yo‘nalishlaridan biri karvonsaroylarning qurilish an’analarining kelib chiqishiga bag‘ishlangan. Poykand - Buxoro vohasining janubi-g‘arbiy qismida joylashgan qadimiy shahar bo‘lib, Buxoro hududida qadimiy davlatchilik an’analarining mavjudligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Zamonbobo, Poykand, Zarafshon, Naumitan, Beshkent, Qizilqum, metallurgiya, madaniyat, ibodatxona.

Buxoro — O‘rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri, O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyatining ma’muriy markazi: U Zarafshon daryosining quyi vodiysida, uning delta kanallaridan birida, Rudizor — hozirgi Shaxrud (Shaharrud — shahar daryosi) bo‘yida, shimoli-sharqda — janubi-g‘arbiy yo‘nalishda cho‘zilgan. Tarixiy-geografik jihatdan bu hudud shimol va g‘arbda qumli Qizilqum cho‘liga, janubda Qarshi dashtiga, janubi-sharqda Qarnabcho‘l cho‘liga tutashgan Buxoro ga kiradi.Qadimdan shu nomdagi vohaning poytaxti bo‘lgan shahar, manbalarga ko‘ra, so‘nggi antik davr va ilk o‘rta asrlarga kelib, tarixiy-siyosiy sharoitlar tufayli o‘z maqomini shu davr uchun ahamiyatli bo‘lmagan boshqa shahar markazlari: Papkend (Boyqand), Naumitan (Hamitan) (Hamitan)ga vaqtincha berib qo‘ygan[1].

Misning dastlabki rivojlanishi jarayoni sodir bo'lgan boshqa O'rta Osiyo madaniyatlarida bo'lgani kabi, Zamonbobo aholisi orasida metall buyumlar juda kam edi. Ikkita aholi punkti va bitta qabristonni qazish natijasida kichik bir to'plam topilgan. Topilmalar toifalari va turlarining diapazoni kichik. Buyumlar asboblar, bezaklar va hojatxona aksessuarlari bilan ifodalanadi.

[1] Д.Мирзаахмедов К ПРОЦЕСАМ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОПОГРАФИИ БУХАРЫ-НУМИДЖКАТА. ИМКУ.Вып.42.-Ташкент,2022. С.132-150.

Zamonbobo madaniyatida metallga ishlov berishning to'xtashi, ehtimol, uning tashuvchilari Tojikiston janubidagi janubi-sharqga ko'chishi tufayli sodir bo'lgan. Muallifning A.M.Mandelstam Beshkent madaniyatining shakllanishida Zamonbobo qabilalari ishtirok etgan, deb hisoblaydi[1].

Poykendning Buxorodan ham qadimiy ekanligini, unda Zardushtiylarning eng qadimgi olovli ibodatxonalaridan biri Eron va Turonning afsonaviy hukmdori Feridun tomonidan qurilgani, keyin Buxoro hukmdorlarining qarorgohlaridan biri shu yerda joylashganligi haqida yozganlar. Paykendning ilk arxeologik tadqiqotlari 1913 va 1914-yillarda Turkiston havaskor arxeologlar to‘garagi kotibi L.A.Zimin tomonidan olib borilgan. 1939 va 1940-yillarda bu maskanni qazish ishlari Zarafshon ekspeditsiyasi (M.M. Dyakonov, Ko‘sa nomidagi Davlat muzeyi va V.N. Germit) tomonidan olib borilgan. O‘zbekiston qadimiylik va san’at yodgorliklarini muhofaza qilish qo‘mitasi ishtirokida moddiy madaniyat boshqarmasi 1981-yilda Davlat Ermitaj muzeyi va O‘zbekiston Arxeologiya instituti tomonidan tashkil etilgan Buxoro arxeologik ekspeditsiyasi (BAE) tomonidan tizimli tadqiqotlar boshlandi, 1983-1985-yillarda Sharq muzeyi (Moskva) ekspeditsiyasi qo‘shildi[2].

Buxoro viloyati O‘rta Osiyoning markazida joylashgan hudud bo‘lib, tarixiy davrda boshqa tarixiy-madaniy hududlar bilan tutashgan hududda bo‘lgan. Xorazm. Markaziy So‘g‘d, Turkiston (shimoliy dasht hududi). Janubiy So‘g‘d va Bakurin-Taxaristonning shimoli-g‘arbiy oxiri. Qora dengiz va O‘rta yer dengizi mamlakatlarini Uzoq Sharq va Hindiston bilan bog‘lovchi yo‘l kommunikatsiyalari Buxoro orqali o‘tgan[3]. Siyosiy mavqeyining ayrim xususiyatlarini hisobga olmagan holda, bu shaharning iqtisodiy hayotining rivojlanish darajasining pasayishi haqida avtomatik ravishda xulosa chiqarishning hojati yo'q. Buxoro X asrda Movarounnahrning siyosiy va iqtisodiy markaziga aylangan bo‘lib, falslarni shu qadar faol zarb qilganki, ular butun markaziy Movarounnahrning chakana savdo ehtiyojlarini amalda qondirgan. Yana bir misol: X asrda Somoniylar davrida Shosh bor-yo‘g‘i 8 ta fals chiqarishni amalga oshirgan bo‘lsa, Nasroboddagi kichik Farg‘ona zarbxonasi 9 ta gaz chiqarishni amalga oshirgan. Katta rivojlangan mintaqani muhim savdo yo'llari kesishmasida joylashgan ko'p sonli shahar va qishloqlar bilan kichik shahar bilan faqat ularning zarbxonalari ishlab chiqarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida solishtirish maqsadga muvofiq emas. VIII asrning 2-yarmida Movarounnahrning iqtisodiy rivojlanish darajasi haqida deyarli hech qanday ma’lumot yo‘q. Numizmatik ma'lumotlar bu yerda ma'lum darajada yordamga keladi. X asr boshlarigacha Buxoroda Somoniylar falslari umuman zarb qilinmagan, hatto Ismoil ibn Ahmad davrida poytaxt bo‘lganida ham Samarqandda mis zarb qilingan. Faqat X asr boshidan Nasr II ibn Ahmad davrida Buxoroda fals zarb qilish boshlandi va ularning Samarqandda chiqarilishi epizodik xususiyat kasb etdi[4].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Д.Мирзаахмедов К ПРОЦЕСАМ ФОРМИРОВАНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ТОПОГРАФИИ БУХАРЫ-НУМИДЖКАТА. ИМКУ.Вып.42.-Ташкент, 2022. С.132-150.
2. В.Д.Рузанов НЕКОТОРЫЕ ИТОГИ ИЗУЧЕНИЯ МЕТАЛЛА ЗАМАНБАБИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ. ИМКУ.Вып.36.-Ташкент, 2008.С.47-49.
3. А.В.Омельченко, В.В.Мокробородов КЕРАМИЧЕСКИЕ КОМПЛЕКСЫ ЭЛЛИНИСТИЧЕСКОГО ВРЕМЕНИ ИЗ ПАЙКЕНДА: НОВЫЕ ДАННЫЕ. ИМКУ.Вып.40.- Самарканд, 2018(19). С.92-114.
4. Ш.Адылов «ГЛАВНАЯ ДОРОГА» И КАВКАЗСКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ». ИМКУ.Вып.42.-Ташкент, 2022. С.81-89.
5. А.Х.Атаходжаев УРОВЕНЬ СРЕДНЕАЗИАТСКОГО ДЕНЕЖНОГО ОБРАЩЕНИЯ VIII-X ВВ. В СФЕРЕ МЕДИ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ. ИМКУ.Вып.35.-Ташкент, 2006. С.216-219.

[1] В.Д.Рузанов НЕКОТОРЫЕ ИТОГИ ИЗУЧЕНИЯ МЕТАЛЛА ЗАМАНБАБИНСКОЙ КУЛЬТУРЫ. ИМКУ.Вып.36.-Ташкент,2008.С.47-49.

[2] А.В.Омельченко, В.В.Мокробородов КЕРАМИЧЕСКИЕ КОМПЛЕКСЫ ЭЛЛИНИСТИЧЕСКОГО ВРЕМЕНИ ИЗ ПАЙКЕНДА: НОВЫЕ ДАННЫЕ. ИМКУ.Вып.40.- Самарканд,2018(19). С.92-114.

[3] Ш.Адылов «ГЛАВНАЯ ДОРОГА» И КАВКАЗСКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ». ИМКУ.Вып.42.-Ташкент,2022. С.81-89.

[4] А.Х.Атаходжаев УРОВЕНЬ СРЕДНЕАЗИАТСКОГО ДЕНЕЖНОГО ОБРАЩЕНИЯ VIII-X ВВ. В СФЕРЕ МЕДИ КАК ПОКАЗАТЕЛЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ. ИМКУ.Вып.35.-Ташкент,2006. С.216-219.

3-SHO‘BA. BUXORO TARIXI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI

БУХОРО ВА ЎЗБЕКИСТОН ОСМОНИДА ҚАТНАГАН ИЛК САМАЛЁТЛАР ТАРИХИГА ДОИР (XX АСР ДАСТЛАБКИ ЎН ЙИЛЛИКЛАРИ)

Ҳаитов Шадмон Аҳмадович
Бухоро давлат университети
Профессори,
Тарих фанлари доктори

Аннотатсия: Мазкур мақолада Ўзбекистон ва Бухоро осмонида даслаб парвоз қилган фуқаро ва ҳарбий ҳаво лайнерлари ҳақида архив ҳужжатлари орқали маълумотлар келтирилган.

Калит сўзи: Ҳаво транспорти тарихи, Туркистон ўлкаси, Бухоро амирлиги, Седов самолёти, “Добролёт” жамияти, “Юнкерс” самолёти, БХСР (Бухоро Халқ Совет Республикаси), Ҳаво флоти, Транспорт инқилоби.

Осмонда парвоз қилган ҳаво транспорти ҳақидаги маълумотлар XX аср бошларидаги тарихий манбалар ҳисобланган ўз даври матбуот органларида (“Туркестанские ведомости”, “Туркестанский курьер”), архив ҳужжатларида учрайди. Архив ҳужжатларидан бирида: 1909-1914-йилларда Европанинг Англия, Франция, Германия шаҳарларида турли номлар билан аталган (Тироль, Свит, Налетивший ва ҳ.к) самолётлар ўтмишдоши юзлаб шарлар 4-5 кишини ҳавода олиб учиб юрарди. Уларни бошқарадиган аэронавтлар кейинчалик самолётларнинг бошқарувчилари бўлишди. Туркистонда бундай шарлар 1910-1913-йилларда пайдо бўлди. Уларда ўнлаб кишилар юқоридан шаҳар ва қишлоқларни томоша қолишга муваффақ бўлдилар[1]. Демак, Туркистонда ҳаво флотининг ташкил этилиши ва илк самолётлар кириб келиши 1910-йилларга тўғри келади деб ҳисоблашга асослар бор. Янги Бухоро (Когон)да босилган “Бухорои шариф” газетасининг (форс-тожик тилида) 1912-йил 4-апрелдаги 21-сони хабарлардан бири: “Седов самолёти Тошкентда” деб номланган. Хабар мазмуни билан танишган асносида қуйидагилар аён бўлди. 1912-йил 28-29-март кунлари рус учувчи Седов ўз самолётида илк бор Тошкентда учиб кўрсатди. Унинг самолётида 3-4 нафар хотин-қизлар, яна 3 нафар эркаклар ҳам Тошкент бўйлаб учдилар. Шунингдек, Тошкентга турли ҳудудлардан ташриф бюрган меҳмонлар ҳам самолётда учиб, юқоридан шаҳарнинг кўринишини томоша қилдилар[2] (Седов самолёти Тошкентда // Бухорои шариф; 21-сон, 1912-йил 4-апрел (араб имлосида)).

Ҳаво транспорти билан боғлиқ Ўзбекистон миллий Архив йиғма жилдлардан бири Седов самолёти мувоффақиятли парвоз қилганлиги, техник жиҳатдан созлиги, синовдан ўтганлиги, соатига 100-120км тезликда учиш қайд этилган[3]. Бироқ Седов парвоз этган самолёт қайси мамлакатда ишлаб чиқарилган, қанча от кучига эгалиги, маркаси (номи) билан боғлиқ маълумотлар архив ҳужжатида кўрсатилмаган. Қоғозларда бизга ноаниқ схема ва чизмалар мавжуд.

Самолётларни Ўзбекистон ва Бухорога келтириш воқеаси шу билан тугамайди. Кейинчалик, яъни Биринчи жаҳон уруши йилларида, Бухоро, Хоразм ва бошқа ҳудудларга ҳарбий самолётлар келтирилиб, улардаги салонда учувчи, яна 2-3 киши жойлашган. Айрим пайтларда бундай самолётлардан Бухоро-Тошкент, Хива-Бухоро, Бухоро-Олмота бўйлаб мактуб етказишда ҳам фойдаланилган. Айниқса, “Босмачилик” (Истиқлолчилик) ҳаракатлари йилларида (1917-1924 йй) ўнлаб ҳарбий самолётлар кириб келган. Бухоро амирлигини ағдаришда Қизил Армия қисмлари Янги Бухоро(Когон) аэродромидан кўкка

[1] Воздушный шар налетовший на гору // Туркестанский курьер, 1913 г-№105; ЎзМА, И-1-фонд, 1-рўйхат; 496-йиғма жилд; 198-варақ
[2] Седов самолёти Тошкентда // Бухорои шариф; 21-сон, 1912-йил 4-апрел (араб имлосида)
[3] ЎзМА, И-1-фонд, 1-рўйхат, 8359 йиғма жилд, 214-варақ, 214-варақ орқаси.

кўтарилиб, Эски Бухорога сон-саноқсиз бомбалар ёғдирганлар. Бу ҳарбий самолётлар хорижда ишлаб чиқарилган бўлиб, “Фарман”, “Фарсел”, “Сонвич”, “Баузен”, “Албатрос” каби номлар билан аталган.

Туркистон АССР (1917-1924), БХСР ва ХХСР (1920-1924) ҳукуматлари мавжуд бўлган даврда “Добролёт” (Кўнгилли учувчилар жамияти) орқали немисларнинг аҳоли ташийдиган “ЮНКЭРС-1”, “ЮНКЭРС-2” маркали самолётларини харид қилишга ҳаракатлар бўлган. Ҳатто, бу борада ТАССР, БХСР, ХХСР вакиллари М.С.Исаев, Абдураҳим Юсуфзода, М.А.Матчонбоев, “Добролёт бошқармаси” вакили И.Девятоский ўртасида 1923-йил 21-октябрда шартнома ҳам имзоланган. Унга кўра Бухорога 4 та, Хивага 2 та, Туркистонга 1 та ЮНКЕРС самолётларини харид қилиб келиши керак эди. 1924-йил 1-апрелдан бу самолётлар Бухоро-Хива, Бухоро-Душанбе, Бухоро-Хива-Олмота бўйлаб парвоз қилиши мўлжалланган.

БХСР ҳукумати истиқболда бундай самолётлар харидини 20 тага етказишни мўлжаллаган[1].

ЮНКЕРС самолёти сиғими учувчидан ташқари 6-8 та йўловчи олиб, тезлиги соатига 160-200 км бўлган. Унда йўловчилар 10 фунт (1 фунт-450гр) ўзи билан юк олиши, 32 пудгача юкхонага юк кетиши, масалан Хива-Қизилтепа масофасида кира ҳақи 150 рубл бўлган. ЮНКЕРС самолёти 85 от кучига эга бўлиб, 2 соату 40 минутдан 3 соатгача парвоз қила олган. Бухоро-Хива оралиғи 2 соату 15 минут, Душанбе-Бухоро масофани 2 соату 20 минутда босиб ўтган.

Бироқ ЮНКЕРС-1,2 самолётларининг техник таъминоти юқори бўлмаган, учувчи ўтирадиган салон барча қулайликларга эга эмасди, шунингдек, пассажирлар ўриндиғи ҳам оддий бўлган. Булар ҳақида архив манбаларида батафсил маълумотлар берилган[2] . Нима бўлганда ҳам одамлар узоғини ўз даври учун қуруқлик транспортига нисбатан бир неча бор яқин қиладиган илк самолётлар ўз даври учун “Транспорт инқилоби” ҳисобланади.

БУХОРОДА АВТОМОБИЛ ҚАТНОВИ ТАРИХИДАН (ХХ АСР БОШЛАРИ)

Ҳаитов Шодмон Аҳмадович
Бухоро давлат университети
Профессори,
Тарих фанлари доктори

Аннотатсия: Ушбу мақолада Бухоро амирлигига ХХ аср бошларида кириб келган илк автомобиллар (“Бенц”, “Форд”) тарихи ҳақида архив манбалари ва даврий матбуот маълумотлари асосида фикр-мулоҳаза билдирилган.

Калит сўзи: Бухоро амирлиги, Абдулаҳадхон, Сайид Олимхон, техник тараққиёт, автомобил тарихи, “Бухорои Шариф” газетаси, жадид мактаблари, “Бенц” автомобили, Файзулла Хўжаев, БХСР, транспорт модернизатсияси.

Ортда қолган ХХ аср техника ва транспорт соҳасида буюк кашфиётлар асри бўлди. XIX аср охири – ХХ аср бошларида Бухоро амирлиги жаҳон иқтисодий, техник, маданий-маърифий тараққиётидан ортда қолган бўлсада, сўнгги икки амир: Абдулаҳадхон (1859; 1885-1910) ва Сайид Олимхон (1880, 1910-1920 йй; 1944)лар даврида бир қатор техник ўзгаришлар ва янгиликлар юз берди. Айниқса, амир Абдулаҳадхон ҳукмронлиги йилларида амирлик ҳудудига телефон, телеграф, почта, киномотография, фотоаппарат, дазмол, рус самовар, қўлсоати, ёзув машинкаси, босмахона каби техник янгиликлар кириб келди. Амир рухсати билан Бухорода рус дорихонаси (1889-йилда 2 та), касалхона (1891-йил), туғруқхона (1910-йил) рус-тузем мактаби, жадид мактаблари очилди. Шу билан бирга Европа ва Россиядан замонавий техника воситалари велосипед, мотоскиллар, ҳатто, автомобиллар кириб кела бошлади. 1893-йилда “Тошкент велосипедчилар жамияти”

[1] ЎзМА, Р-73-фонд, 44-йиғма жилд, 5-варақ, 32-йиғма жилд, 172-варақ, Р-2027-фонд, 1-рўйҳат, 21-йиғма жилд, 28, 29-варақлар, Р-49-фонд, 15 йиғма жилд, 1, 2, 3, 4, 5, 6-варақлар

[2] ЎзМА, Р-53-фонд, 1-рўйҳат, 52-йиғма жилд, 39, 40, 41-варақлар.

тузилиб, бу жамият томонидан Туркистон ўлкасига “Аррон”, “Свифт”, “Триумф”, “Блок пионер”, “Реал Блок” маркали велиосипедлар кириб келганлиги уларни биринчи бўлиб солиқчилар минганлиги билан боғлиқ маълумотлар архив манбаларида учрайди. Шунингдек, “Ван Дерер Верке”, “Верокс” каби мотоскиллар кириб келиб, уларни дастлаб хориж фуқаролари эгалари бўлган[1]. Мотоскилларнинг асосий ҳайдовчилари Туркия фуқаролари бўлгани архив ҳужжатлари тасдиқлайди. 1910-йиилдан бошлаб Тошкент техникалар омборига Россия орқали Германий, Англия, Францияда ишлаб чиқарилган “Омнибус” (8 ўриндиқли); 3,5,8,10 ўринли “Бенц”, “Фиат”, “Пежо”, “Форд” автомобиллари келтирилиб, ҳатто, соатига 40-60 км масофа босадиган бу автомобиллар Тошкентда бир манзилдан иккинчисига пассажирларни ташигани маълум. Улардаги нарх-наво от қўшилган фойтунлардан арзон ва автомобил мижозлар учун қулай бўлган. Биринчи автомобиллар ташқи кўринишидан жозибали бўлмасада, аҳолига транспорт хизмати кўрсатишда қулайликлар яратган. Ушбу автомобилларнинг ўриндиқлари, шинаси, одам сиғими, тезлиги ҳақида архив манбаларида ва ўша давр матбуотида қизиқарли маълумотлар келтирилган[2].

Янгиликларга ошуфта бўлган, техник ўзгаришларни синчковлик билан кузатиб борган, саёҳатчи Амир Абдулаҳадхон 1910-йил арафасида Тошкент техникалар омборидан енгил автомобиллардан бирини харид қилмаслиги мумкин эмасди, деб ҳисоблаш хато бўларди. У ҳар бир ўзгариш ва янгиликга эътиборли бўлган. Саёҳатларидан бирида Ашхободда “Ўт ўчирувчи” отряди тузилганининг гувоҳи бўлиб, Бухорода ҳам шундай гуруҳ тузиш чораларини кўрганди. Амир автомобили ҳақидаги хабар ва мақолани (мақолани ўқиш имконияти бўлмади) Янги Бухоро (Когон)да илк бор Бухоро матбуоти ҳисобланган, 1912-1913 – йилларда чоп этилган форс-тожик тилидаги “Бухорои шариф” орқали танишиш мумкин. “Бухорои Шариф”нинг 153 та сони босилган бўлиб, унинг 1912-йил 16-апрелдаги 31-сонида “Мактуб баишора” (Ишора мактуби) сарлавҳаси остида хабар босилган. Ушбу хабарда амир автомобили ҳақида мақола эълон қилингани эса эсалатиб ўтилган. Мақоладан олдинроқ Кармана (ҳозирги Навоий)га амир томонидан “Бенц” маркали автомобил сотиб олиб келингани ва амир боғида усти ёпиқ ҳолда сақланиши қайд этилган. Автомобил ҳайдалмаслиги, у занглаб, қаровсиз қолмаслиги учун бир қўриқчига 150-200 танга маош берилиб қўриқлаб келинаётгани ёзилган. Ушбу автомобил кейинчалик Бухорога олиб келинганми ёки йўқми? Биз бундай хабар берувчи манбани ҳамон тополмадик. Яна бир мулоҳаза шундаки, Амир Абдулаҳаднинг вориси Сайид Олимхон “инқилоб ритсари” М.В.Фрунзедан енгилганидан сўнг, Мохи-Хоссадан Ғиждувонга қараб дастлаб автомобилда йўлга чиққан. Бу ҳақда Бухоролик журналист ва ёзувчи Нусратилла Наимов (Аллоҳ Раҳматига олсин!) сўнгги ҳукмдор тарихий қиссасида кекса онахон “Робия Мажидова билан шахсий мулоқотида амирни автомобилда йўлга чиқанида” воқиф бўлган. Бу ҳақда Р.Мажидованинг отаси қизига айтиб берган экан. Амир автомобилида 2-3 та яқин аъён ва амалдорлари, Афғонистоннинг Бухоро амирлигидаги элчиси Абдулшукурхон, Тошкентдаги элчихона ходими Муҳаммад Асланхонлар бўлишган. Ҳатто, амир Абдулхолиқ Ғиждувоний мақбараси олдида автомобилдан тушиб, соч-соқоли оқарган донишманд отахон билан мулоқотда ҳам бўлган. Автомобилнинг ёқилғиси тугаб, йўлни давоми фойтунда босиб ўтилган. Ўз-ўзидан савол туғилади. Бу автомобил Карманадаги “Бенц” эдими ёки бошқа автомобилмиди? Иккинчидан, амирга ҳамроҳлик қилган 2-3 та автомобилдаги амалдорлар ким эди? Ҳайдовчи маҳаллий халқ вакили бўлганми, ёхуд хорижликми? Амир билан бирга бўлган 2 нафар афғон фуқаролари кимлигини манбалар тасдиқлайди[3]. Амир автомобилнинг кейинги “саргузашти” ёхуд “тақдири” нима бўлди?- деган савол ҳам қўйилиши эҳтимолдан ҳоли эмас?

[1] ЎзМА, И-1-фонд, 28-рўйхат, 236 йиғма жилд, 12,13,14,15-варақлар

[2] ЎзМА И-2-фонд, 1-р, 1286 йиғма жилд, 196, 197, 198-варақлар, Шодмонова С.Б. Туркистон тарихи-матбуот кўзгусида (1870-1917-йиллар) Т.: 2011.Б. 169-172.).

[3] Наимов Н. Сўнгги ҳукмдор, Бухоро—2008.-Б.119-120, ЎзМА, Р-48 фонг 1-рўйхат 22 йиғма жилд, 145-варақ.

Бухорода автомобиллар пайдо бўлиши (енгил ва юк ташийдиган) тарихи бу билан тугамайди. Маълумки, амирлик тартиби ағдарилганидан сўнг, БХСР ҳукумати замонавий тараққиётга эришиш йўлида кўп куч сарфлади. Жумладан, енгил автомобилларни Бухорога келтириши чоралари ҳам кўрилди. Архив ҳужжатларидан бирида 1923-йил 26-февралда Файзулло Хўжаевнинг 504-рақамли билдиргиси сақланган. Ушбу билдиргида БХСР Халқ нозирлар шўроси раиси: "Ҳозир (1923-йил феврал) Бухорода 1 та енгил автомобил , "Форд" мавжуд. Истиқболда улардан кўплаб олиб келиниши кўзда тутилмоқда. Шунинг учун биз келтириладиган автомобилларни бошқариш мақсадида "автомобилчилар отрядини" тузишимиз керак. Бу автомобиллар Эски Бухоро, Янги Бухоро (Когон), Чоржўй шаҳарларида 1923-йил баҳоридан қатнай бошлаши мўлжалланмоқда. Шунинг учун йўллардага тош ётқизиш, асфалтлаш ишларини кучайтириш" топшириғи берилган[1]. Бизнингча, Бухоро Республикаси шаҳарларида 1923-йил баҳоридан енгил автомобиллар қатнай бошлаган. Юк автомобиллари қатнови ҳақидаги қиссага дуч келмадик. Бироқ енгил автомобиллар қатнови Эски Бухоро шаҳрида 1923-1924-йилларда мавжудлигини "Озод Бухоро" газетасида босилган бир нохуш хабар ҳам тасдиқлайди. "Бухоро кўчалари қоронғу, нотекис бўлгани учун автомобил остида қолиб майиб-мажруҳ бўлганлар сони анчагина" деб хабар берганди, газета.

Хуллас, Бухорога автомобилларнинг кириб келиши тарихи XX аср дастлабки ўн йилликларига бориб тақалади. Бироқ бу мавзу ҳақида кенг маълумотларга эга бўлиши учун хали кўп изланишлар олиб бориш керак.

BXSR HUKUMATI YILLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI VA DEHQONCHILIK MADANIYATINING RIVOJLANI

Haitov J.Sh.
BuxDU Arxeologiya va Buxoro
tarixi kafedrasi mudiri, t.f.d. (DSc), dotsent

O‘zbekiston milliy davlatchiligi taraqqiyotida 1920-1924-yillarda mavjud bo‘lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) muhim tarixiy bosqich ekanligi ayni haqiqatdir. O‘zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda BXSR tarixi mavzusi o‘zining dolzarbligi bilan tadqiqotchilarni jalb qilib kelmoqda.

BXSRning 1920-1924-yillar tarixini o‘rganish ushbu respublika tashkil topgan dastlabki yillardanoq boshlangan edi. BXSR tarixiga doir yozilgan adabiyotlarni tahlil va tavsif qilish jarayonida shu aniq bo‘ldiki, ularni metodologik yondashuv va ilmiy-amaliy xususiyatiga ko‘ra 2 davrga: sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarga va O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng yuzaga kelgan asarlarga ajratish mumkin. Bu o‘rinda BXSR davlat va siyosat arboblari Fayzulla Xo‘jaev, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat asarlarini alohida qayd qilish lozim. Ular birlamchi manbalar asosida voqealar tafsilotini haqqoniy tasvirlashga erishgan bo‘lsalar-da, sovet tuzumi va kommunistik mafkura ta'sirida o‘z asarlarini qayta yozishga, ayrim joylarini o‘zgartirishga majbur bo‘lganlar.

BXSRda Fayzulla Xo‘jaev boshchiligida nozirlar kengashi hukumati tuzilib, alohida «Ziroat ishlari kengashi» (qishloq xo‘jalik ishlari nozirligi) tashkil etildi. Mazkur nozirlikni Buxoro jadidchilik harakatining yirik vakillaridan biri Mirzo Abdulrahim Yusufzoda 1920-yil kuzidan 1921-yil yanvariga qadar boshqardi. Yusufzoda Buxoro Respublikasining Afg‘onistondagi favqulodda va muxtor elchisi qilib tayinlangandan so‘ng, avval Porso Xo‘ja, 1922-1923-yillarda esa Safo Jo‘raboev ziroat noziri vazifasida ishladi. Halim Ashurov ziroat nozirining muovini vazifasida ishlab keldi.

O‘zbek xalqining donishmand farzandi, taniqli hukumat va davlat arbobi, inson va siyosatchi Fayzulla Xo‘jaev (1896 – 1938) o‘zining 42 yillik qisqa, lekin sermazmun hayoti davomida tarixda o’chmas iz qoldirdi. F.Xo‘jaev BXSR (1920 – 1924) va O‘zbekiston SSR

[1] ЎзМА. Р-48 фонд, 1-рўйҳат, 1- йиғма жилд, 70 варақ, 183 йиғма жилд, 21, 23, 24-варақлар

hukumati (1925 – 1938) ni boshqargan yillarda yurtimizda zamonaviy sanoat va qishloq xo‘jaligini taraqqiy qildirish, agrosanoat rivojini ta’minlashda kerakli barcha chora-tadbirlarni ko’rdi.

Rossiya imperiyasi mustamlakasi yillarida va undan keyin kechgan tarixiy bosqichlarda: Ya’ni Buxoro amirligi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (1920-1924-yillar) hukumati paytida ham dehqonchilikning asosiy tarmoqlari donli ekinlar ekish (bug‘doy, arpa, makkajo‘xori) paxtachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, poliz ekinlari yetishtirish, ipakchilik kabilar bo‘lgan. F.Xo‘jaev BXSR hukumatini rahbari lavozimida ishlab yurigan paytlarda Buxoroda mevachilik va sabzavotchilikni rivojlantirishda, yangi ekin navlarini joriy etish hamda ulardan yuqori hosil olib, ommaviylashtirishning tashabbuskori bo’lganligini tarixiy dalillar tasdiqlaydi. F.Xo‘jaevning taklifi bilan o‘lkadagi turli hududlarda o‘stirilgan olma, nok, shaftoli, o‘rik, uzum singari mevalarning yangi navlari BXSR ekin maydonlarida madaniylashtirilgan. U qishloq xo‘jaligining taraqqiyotida paxtachilik, ipakchilik, qorako‘lchilik sohalari bilan birga bog’dorchilik, manzarali daraxtlar o‘stirib, aholini istirohat, dam oladigan parklarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratgan. Manbalarning ma’lumoticha F.Xo‘jaev meva va sabzavotchilikni intensiv yo‘lga qo‘yish chora – tadbirlarini ko‘rgan. “Ozod Buxoro” gazetasida ta’kidlanishicha, BXSR hukumati va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasidagi shartnomaga ko‘ra Markazga katta miqdorda ho‘l va quruq mevalar yetishtirib berish kerak bo‘lgan. 1923-yil yozi va kuzida BXSR hududida olma, o‘rik, uzum, shaftoli, nok singari mevali daraxtlar kutilgan darajada hosil bermagan. BXSR hukumati o‘z zimmasiga olgan majburiyatni bajarish maqsadida Farg‘ona vodiysining Qo‘qon, Marg‘ilon, Andijon, Farg‘ona kabi o‘nlab shaharlarida o‘zining meva sotib olish do‘konlarini, savdo shahobchalarini ochadi. Farg‘onalik mirishkor dehqonlardan sotib olingan meva va sabzavotlar Buxoro mahsuloti sifatida “Markaz”ga yuborilgan. Ushbu tadbir orqali Farg‘onadan serhosil mevali daraxtlarning minglab ko‘chatlari Buxoroga olib kelinadi.

Ayniqsa F.Xo‘jayev boshchiligidagi BXSR hukumati “Amerika” paxta navini iqlimlashtirish va hosilni unumdorligini oshirish maqsadida ko‘plab islohotlar o‘tkazgan. XX asr boshlarida Buxoro paxtasiga talab kuchayishi, imperiya markaziy rayonlaridagi sanoat korxonalari, bozor va yarmarkalariga paxta yetkazishni ko‘paytirish ehtiyojidan kelib chiqib, 1915-yildayoq Amerika paxtasini yetishtirishga ixtisoslashgan Zirabuloq va Chorjo‘y bekliklari hududlarida asosan “Amerika” paxta navi ekilib kelingan va 1915-1916-yillarda amirlikda yetishtirilgan 2 mln pud paxtaning 30-40%i ushbu nav hisobiga to‘g‘ri kelgan.

XX asr boshlarida Buxoro amirligida paxtadan yuqori hosil olish ustida izlanishlar olib borilgan bo‘lib, 1922-yilda 1916-yilgi paxta hosilining 25 foizi olingan, yoxud keyingi olti yilda (1916-1922-yillar) paxta hosili 30 foizdan oshmagan.

“Amerika” paxta navi hosildorligi go‘za (mahaliy paxta navi) dan past bo‘lsada (1desyatinadan 20-25 st) unga Rossiya to‘qimachilik korxonalarida talab kuchaydi. Avvalo, bu paxtaning tola sifati baland, ikkinchidan esa Rossiya barcha korxonalarida qayta ishlash mumkin edi. Buxoro mahaliy g‘o‘za navini asosan Rossiya imperiyasining Lodz (Polsha) shahridagi to‘qimachilik korxonalarida ko‘p ishlatilgan. 1893-yildan 1917-yilga qadar Buxoroda paxta ekiladigan yerlar miqdori 300.000 tanobgacha bo’lib, 1914-yildan boshlab 3/1 qism yerlarga “Amerika” paxta navi ekilib (100.000 tanobdan ortiq), paxtadan olinadigan foyda daromadi o‘rtacha 25 mln oltin so’mni tashkil etgan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillarida (1920-1924) “Rus-Buxoro paxta shirkati”, 1- va 2-Buxoro qarz shirkatlari” qayta tiklanib, ular faoliyatida irrigatsiya inshootlarini qayta tiklash, dehqonlarga imtiyozli qarzlar berish, davlat paxta tayyorlash bazasiga paxtasini topshirgan dehqonlarga 1 pud (16 kg) paxta evaziga 2 pud (32 kg) buta berish, un va oziq-ovqat mahsulotlarini paxtakorlarga arzon, imtiyozli baholarda sotish kabilar joriy etilgan. Xabarlardan birida: “paxta ekini bergan dehqonlarga sanoat mollari (gazmol va idish-tovoqlar, ro‘zg‘or buyumlari) 20-30 foiz arzonroq beriladi. Dehqonlarga beriladigan qarzlar miqdori 1,5 mln ortiq so‘mga yetadi”- deb yozilgan manbalarda.

Buxoro dehqonlari “Amerika” paxta navidan ko‘ra g‘o‘za mahaliy navini ko‘p ekib ishlaganlar. Biroq ikki navli paxtaning narx-navosi o‘rtasida farq katta bo‘lib, “Amerika” navi

bozorda yuqori baholangan. BXSR hukumati g‘o‘za navini ekkan dehqonlarni moliyaviy himoya qilganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar manbalarda uchraydi.

BXSR hukumati “Amerika” paxta navini ekadigan dehqonlarni qo‘llab quvvatlash yo‘lidan borgan va ekin maydoniga “Amerika” paxta navi ekkanlarga hukumat hisobidan qarz (ssuda) berilib, hosil cho‘g‘i baland bo‘lgan yillarda qarz foizlaridan voz ham kechilgan. 1923 yilda “Amerika” paxta navini ekkan dehqonlar uchun 500 ming oltin so’m imtiyozli qarz berilganligi, urug‘lik uchun berilgan chigitning barchasi ekilishi nazoratda ekanligi bilan bog’liq ma’lumot o’sha davr davriy matbuotida keltiriladi.

Xullas, F.Xo‘jaev yurtimiz aholisini zamonaviy davlatlardagi xalqlar singari yuqori turmush tarzida istiqomat qilishining yalovbardorlaridan biri bo’lgandi Buxoroda “Amerika” paxta navini ekish, yildan yilga ushbu nav parvarish qilinadigan yer maydonlari kengaytirilgan. F.Xo‘jayev boshchiligidagi BXSR hukumati “Amerika” paxta navini o‘z xo‘jaligida yetishtirgan dehqonlarni doimo rag‘batlantirib borgan.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro‘yxati

1. Buxoro Xalq Sho‘rolar Jumhuriyatida // Ozod Buxoro; 43-son; 1923-yil 2-fevral.
2. Paxta ekuvchi dehqonlarga yordam // Buxoro axbori; 138-son; 1923-yil 3-mart.
3. Sulaymon Ali Boy o‘g‘li. Buxoroda paxtachilik // Buxoro axbori; 210-son; 1923-yil 6-oktabr.
4. Sug‘urish, yo‘llarni tuzatish // Buxoro axbori; 199-son; 1923-yil 9-sentabr.
5. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодиёт, ижтимоий-сиёсат ва маданий ҳаёт(1920-1924 йиллар).Бухоро-2005.

“BUXORO QIZIL MATBUOTINING QISQACHA TARIXI” TO‘G‘RISIDA MULOHAZALAR

Raxmonov Kamol Djamolovich
BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari doktori (DSc).

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro xalq sho’rolar jumhuriyati mavjud bo‘lgan yillarda matbaachilik ishi, gazeta va jurnallar chop ettirish, gazeta va jurnallar chiqarish va tarqatish boshlanganligi, gazetaning targ‘ibotchilik faoliyatidagi o‘rni haqida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: matbaachilik, til gazetasi, matbuot bayrami, poliagrafiya, qizil matbuot, maxsus sarmoya.

Buxoro xalq sho’rolar jumhuriyatining rasmiy matbuot organi hisoblangan “Ozod Buxoro” gazetasi sahifalarida matbuotning ahvoli, matbaachilik ishi, gazeta va jurnallar chop ettirish, matbuot bilan bog‘liq muammo va vazifalar haqida maqolalar chop etib borilgan. Gazetalardagi matbuot haqida yozilgan xabar va maqolalardan matbuotning o‘sha davrdagi umumiy ahvoli, gazetxonlarning matbuotga munosabati, gazetalarning moddiy-texnikaviy bazasini yaratish yo‘lidagi ishlar, gazetalarni uning o‘quvchilari orasida tarqatish kabilardan voqif bo‘linadi. “Ozod Buxoro”ning ko‘plab sonlarida va undan oldin chop etilgan “Buxoro axbori” gazetasida “Matbuotimiz nima uchun yuksalmaydur”, “Matbuot haqida yana bir-ikki so‘z” (Ziyo Usmoniy), “Turkistonda matbuot” (muxbir), “Matbuot nimadur?” (Bekboy), “Gazetaga ko‘mak bering!” (taxririyat), “Buxoroda matbuot”, “Uchqun” jurnali” (Buxoro xabarlari), “Chorjo‘yda til gazetasi” (muxbir), “Matbuot va adabiyot” (muxbir), “Gazetaga yordam beringlar” (tahririyat), “Qo‘rqma, gazeta gunohsizlarni tishlamaydur!” (“Mufattish”), “Gazeta yuborishga diqqat qilinsun!” (Behbudiylik-Qarshi shahridan), “Gazetaning birinchi davri”, “Gazetani tuzatish masalasi”, “Matbuot bayramiga tayyorlanmak kerak” (Said Ahroriy), “Gazetaning qishloqda tarqalishi” (muxbir), “Buxoro qizil matbuotining qisqacha tarixi” (Baxtiyor Xo‘ja) kabi maqola va xabarlar[1] o‘rin olgan. Ushbu mavzudagi maqola va xabarlarning mazmuni asosan quyidagi masalalarga

qaratilgan. Avvalo, jumhuriyatda tub joy aholi tilida (o‘zbek tilida) gazeta va jurnallar chiqarish va tarqatish boshlanganligi, gazetaning targ‘ibotchilik faoliyatidagi o‘rni, matbuot uni o‘quvchilar uchun zaruriy ma’naviy ozuqa ekanligi, bu ishda barcha ziyolilar ishtirok qilishi kerakligi bayon qilinadi. Ayrim maqolalarning asosiy mavzusi esa 3-3,5 mln. aholiga ega bo‘lgan Buxoro uchun 2000-2500 nusxada chop etiladigan “Ozod Buxoro” gazetasi yetarli emasligi, muharrir va muxbirlarning yetishmasligi va mavjudlarining xam malakaviy tajribasizligi, nashriyot (poliagrafiya) ishidagi son-sanoqsiz kamchiliklar va yetishmovchiliklar[2], qog‘oz va boshqa ashyoviy buyumlar, musulmon shriftining chetdan keltirilishi muammolariga yo‘naltirilgan.

Quyida e’tiboringizga havola etilayotgan gazeta muxbarlaridan biri Baxtiyor Xo‘ja (?)ning qalamiga mansub “Buxoro qizil matbuotining qisqacha tarixi” deb nomlangan tanqidiy yo‘nalishdagi maqolasining ilmiy, manbaviy, publisistik ahamiyati muhimligini inobatga olib, joriy imloga o‘girildi va ilk bora aynan to‘liq holatda e’lon qilish muhim deb xulosaga kelindi.

Aynan: “**Nashri maorif**” **jurnali.** Buxoro butun tarixida birinchi marta jurnal hayoti 1923 yilda boshlanadur. Shu yilning martlarida markaz kasabalar sho‘rosi huzuridagi «Nashri maorif» sho‘basi tomonidan shu ismda 2 haftalik adabiy, faniy, iqtisodiy va siyosiy bir majalla chiqarildi.

Maqsadi: Buxoro kasabalarini oqartirmoq bo‘lsada, kasabalar turmushidan sira yozmas edi. Kasabalar ittifoqiga doir ba’zi qaror va nizomnomalardan boshqasini buning sahifasida ko‘rmak muyassar bo‘lmadi. Faniy qismi bo‘sh, ilmiy va siyosiy qismlari juda zaif bo‘lmoq barobarida adabiy jihatdan ko‘chani taqlid etgan esada, undagi qalamlarning yerli bo‘lmog‘onligiga ko‘ra butunlay rasvo bo‘lg‘ondur. Jurnalning butun sahifalari X.Abdullayev va uning oilasiga mansub kishilar tomonidan monopoliyaga oling‘onligi uchun boshqa hech bir qalam ishtirok etmagan.

Buxoro jug‘rofiyasiga oid yozuvlari xato bo‘lmoq barobarida boshqa maqolalarida mahalliy xalqning ehtiyoji bilan sira hisoblashilmog‘on. Kasabalarg‘a siyosiy savod o‘rgatmak, ularning ma’lumotlarini orttirmak, kasabachilik harakatlari bilan tanishtirmak to‘g‘risida «Nashri maorif»ning hech qanday bir xizmati yo‘qdur. Aksariyat haligi monopol yozuvchilarga tobe’ bo‘lg‘onligidan ularning chala-chulpa va iste’fodan nari maqola va yozuvlari bilan to‘lg‘on. Shuning uchun bu majallani Buxoro muhitida ma’naviy ozuqa va unum berish o‘rnig‘a moddiy zararlar bergay deb hisoblamak to‘g‘ridur. Negakim, behuda yerga sarf etilg‘on oqchalar albatta zarardur. Buning ustiga mazkur majallaning hech kerakmas holda 5000 nusxadan chop qilinib, 80 foizini tarqalmay yotg‘onini qo‘shsak; zararni yaxshigina chamalab chiqmoq mumkindur. Bu majalla 5 nusxa chiqib, nihoyat butun tahrirchilarning Buxoro tuprog‘idan qochishi bilan umriga xotima berilgan. X.Abdullayev ham majallaga tegishli hisobni bera olmasdan qochdi. Boshqa rafiqlari ham shuning yo‘lidan ketdilar.

«Uchqun». Nashri maorifning bir hamsoyasi bor edi. Bu majallaning ham 1-soni aprel (1923 yil – K.R.)da chiqadur. Buxoro xalq maorif nazoratining nashri afkori bo‘lg‘oni uchunmi jidiyroq va ko‘proq ilmiy va adabiy bir ruhda yashnag‘ondur.

Majallada Fitrat, Said Ahroriy, Sadriddin Ayniy, Cho‘lpon, G‘ulom Zafariy, Mo‘min Sattoriy, Mahmud Suboh, Sayfulmulk Mustafo kabi muhtaram qalamlar ishtirok etadur. Adabiyot, Buxoro tarixi, ta’lim va tarbiya hamda iqtisodiy qismlari anchagina foydalidur. Maorif tomonidan chiqarilg‘oni uchun bo‘lsa kerak, ko‘proq ziyolilar tegrasida foyda beradur. Maorif nazorati hukumatning markaziy bir idorasi bo‘lmog‘oni uchun oqcha jihatdan ko‘p qisilg‘oni kabi nazorat tomonidan ham moddiy jihatga juda zaif qaralib, davom etishga tirishilmagandur. Buxoroda adabiy va ilmiy qalamlarning oz va kuchsizroq bo‘lg‘onligiga ko‘ra endigina Turkistonning qalamlaridan keng miqyosda foydalanish planlari tuzilib turg‘on bir chog‘da haligi pulsizlik kasali bilan og‘rib birdan ikkinchi sonida oqsadi. Ikkinchisini ko‘rishga hasrat bo‘ldik.

«Maorif va madaniyat». Buxoroning matbuot va bilim havaskorlari 6 oygacha bir dona jurnalning yuzini ko‘ra olmadi. Bu to‘g‘rida maorif nazoratimiz ham sira bir harakat qilmadi. Nazorat tomonidan bu to‘g‘rida hech bir umid bo‘lmog‘onligini e’tiborga olib, boshqa bir o‘ring‘a bosh urmak to‘g‘ri keldi. Matbuot oshiqlaridan bir nechtasi bir oy markaz firqo‘m atrofida aylanib yuz ming balo va mashaqqat bilan nihoyat «Maorif va madaniyat» jurnalining birinchi sonini dekabr oyida (1923 yil) chiqarmoqqa muyassar bo‘ldilar.

«Maorif va madaniyat» majallasi oylik chiqarildi va yana maorif nazoratining nashri afkori qilindi. Mazkur havaskorlar jurnalni maorif tegrasini borishni o‘ylab maorif nozirining o‘zini mas’ul muharrir qilishg‘a g‘ayrat etgan esada, esizkim…

Boshda sarmoya qilinib markaz firqo‘m tomonidan bu majallaga 1 ming so‘m berilib, keyin iqtisod sho‘rosi tomonidan 8 ming so‘m ta’sis etilgan esada, mas’ul muharrirning bu ishg‘a sira qiziqmog‘onligidan bu ish ham oqsab qoldi. Yo‘qsa, bu majallaning dohilini, ma’naviy tartibini yaxshigina yo‘lg‘a qo‘yilmoq barobarida ziyoda qalamlar jalb etilg‘on edi.

Birinchi soni dekabrda, 2-soni yanvarda chiqdi. Majallaning mundarijasi adabiyot, ta’lim va tarbiya, tarix va osori-atiqa, ijtimoiy fanlar, siyosat va iqtisod bo‘limlariga ayrilg‘oni kabi har bir bo‘limga ma’lum sahifalar va maxsus yozguvchilar belgilangan edi. Negakim, adabiyot qismida Botu, Suboh, Ahroriy, Elbek; ta’lim-tarbiya bo‘limiga Begi, Saidiy, Amir Najib, Sayfulmulk, Ahroriy; osori-atiqa qismida Saidiy, Alimjonov, Po‘lat Soliyev, ijtimoiy bo‘limga Ne’mat Hakim; iqtisodda Olimdor Boymatov o‘rtoqlar yozuvlarini ko‘ramiz. Butun bu yozuvlar uchun jurnalning 100 dan ortiq sahifalari chiqarildi va bunga 20 ga yaqin maqola kiritildi.

Jurnalning ma’naviy va texnika jihatdan qanday yaxshi ta’min etilganligi o‘z-o‘zidan anglashiladur. Munda ko‘proq sinfiy tabaqaga e’tibor bo‘lg‘onligi bilinadur.

Esizkim, haligi dangasalik orqasida o‘ziga maxsus sarmoyani ola bilmasdan 2-sonini o‘zida to‘xtab qoldi. Negakim, uchinchi son uchun shu yo‘ldan borishg‘a maxsus dasturamal tuzilib, qalam ahllariga ham alohida ta’limot berilg‘on edi. Bundan keyin haligacha bu jurnalni ko‘rib bo‘lmadi»[3].

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1. // Бухоро ахбори. 83-сон. 1922 йил 9 май; 107-сон. 1922 йил 2 ноябр; 111-сон. 1922 йил 19 ноябр; 136-сон. 1923 йил 23 феврал; 139-сон. 1923 йил 6 март; 146-сон. 1923 йил 22 март; 159-сон. 1923 йил 19 апрел; 166-сон. 1923 йил 5 май // Озод Бухоро. 6-сон. 1923 йил 31 август; 27-сон. 1923 йил 20 декабр; 28-сон. 1923 йил 22 декабр; 88-сон. 1924 йил 11 май; 91-сон. 1924 йил 17 май; 103-сон. 1924 йил 14 июн; 107-сон.

2. يا اوسمانى. مه تبوئاتيميز نيمه اوچون يوكسه لمه يدور // بوخارا اخبارى. 83-سان. 1922 ييل 9 مه ى. Усмоний. Матбуотимиз нима учун юксалмайдур //Бухоро ахбори. 83-сон. 1922 йил 9 май.

3. Baxtiyor Xo‘ja. Buxoro qizil matbuotining qisqacha tarixi // Озод Бухоро. 107-сон. 1924 йил 28 июн.

BUXORODA TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK SOHASI

Boltayev A’zam Xomidovich
Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD)
Ochilov Shaxzod
Tarix ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Buxoro tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Shuning uchun bu diyorni ko‘plab olimlar o‘rgangan va tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirganlar. Buxoro tarixiy o‘lkashunoslik yo‘nalishida tadqiq qilish ishlari ham ancha oldinroqdan boshlangan. Ammo u davrda bu soha tarixiy o‘lkashunoslik deb nomlanmagan.

Buxoro tarixiga qiziqish o‘rta asrlardayoq mahalliy doiradan chiqib, musulmon muarrixlari ilmiy, tarixiy, geografik qiziqishlarining obyektiga aylandi va voha tarixi haqida yig‘gan ma’lumotlari ularning asarlariga ko‘chdi. Lekin bu hali Buxoroni ilmiy o‘rganish emas, balki Buxoro to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tavsifiy mazmunda ifoda etish edi. Biroq, shu ma’lumotlar ham bugungi kunga kelib manbaviy ahamiyat kasb etmoqdaki, ulardan yurtimiz, shu jumladan, Buxoro tarixini o‘rganishda samarali foydalanish mumkin. Buxoro tarixini Narshaxiydan boshlangan yozish uslubi, ayrim o‘zgarishlarni hisobga olmaganda, o‘tgan asrning 20 yillariga qadar, ya’ni ilmiy uslub shakllangunga qadar davom etdi.

Muhammad Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asari rus va g‘arb olimlari tomonidan yaxshi qabul qilingan. Undagi o‘lkamizdagi ijtimoiy-siyosiy masalalardan tashqari, o‘lka tarixiy

geografiyasi, shahar tarixiy topografiyasiga oid ma’lumotlar tadqiqotchilar diqqatini o‘ziga tortgan edi.

Dunyo tan olgan olimlardan V.V.Bartold[1], shuningdek, I.I.Umnyakov[2], V.A.Shishkin[3], O.A.Suxaryeva[4], O.G.Bolshakov[5] M.Saidjonov[6], A.R.Muhammadjonov[7] va boshqalar Buxoro tarixi va tarixiy topografiyasini o‘rganishda “Buxoro tarixi” asaridan keng foydalanganlar.

Yevropa sharqshunoslari ichida fransuz olimi Charlz Shefer 1892-yil Parijda asarning forscha matnini, rus o‘lkashunosi N.S. Likoshin 1897-yil Toshkentda ruscha tarjimasini, ingliz olimi Richard Fray 1954-yil Kembrijda inglizcha tarjimasini chop ettirdilar. Shuningdek, eronlik olim Mudarris Rizaviy 1939-yil Tehronda asarning forscha qiyosiy matnini e’lon qildi. Bu jarayon keyingi davrlarda va mustaqillik yillarida ham davom etdi.

O‘lkamiz tarixi haqida ma’lumot beruvchi keyingi manba arab va fors muarrixlari asarlari bo‘lib, Istaxriy “Kitob masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlarga boriladigan yo‘llar haqida kitib), Ibn Xavqal “Kitob surat ul-ard” (“Yer surati kitobi”)[8] va muallifi no’malum “Hudud al-olam” (“Olam chegaralari”)[9] asarlarida Buxoro shahri, uning topografiyasi, joy nomlari, darvozalari haqida ma’lumot berilgan.

XII-XIII asrlar o‘lkamiz tarixi haqida Otamalik Juvayniyning “Ta’rixi jahonkushoy” (“Jahongir [Chingizxon] tarixi”) asari orqali bilib olish mumkin. Unda Buxoro to‘g‘risidagi ma’lumotlarni nisbatan ko‘proq uchratamiz.

Temuriylar davrida Buxoro haqida Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali Yazdiylarning “Zafarnoma” asarlarida Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asarida ma’lumotlar berilgan. Shayboniylar davrida Buxoro markazga aylanganidan keyin o‘lka tarixi haqida qo‘plab asarlar yozilgan. Bular ichida Ruzbehxonning “Mehmonnomayi Buxoro”, Muhammadyor ibn Arab Qatag‘onning “Musaxxir al-bilod” (“Mamlakatlarni zabt etuvchi”), Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomayi shohiy” (“Shohni sharaflaydigan kitob”), Badriddin Kashmiriyning “Ravzat ar-rizvon” va boshqa asarlarda[10] o‘lka tarixi va topografiyasi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, diniy masalalari mahokama qilingan.

Shu davrni yoritishda Zaxiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini alohida qiyd qilib o‘tish zarur. Chunki bu manba bir Buxoro tarixi uchun emas butun o‘lkamiz tarixi uchun memuar asar sifatida e’tirof etilgan. Unda tarix, geografiya, tabiat, topografiya, toponimika, xalqlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli kabi masalalari tahlil etilgan.

Ashtarxoniylar davri xususida yorqin ma’lumotlar beruvchi tarixiy asarlardan biri Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” va Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarlari bo‘lib, unda yer egaligi va soliq turlari, davlat tuzumi, iqtisodiy muammolar, geografik va etnografik masalalar, turli qabilalar va ularning ijtimoiy mavqei haqida ma’lumot berilgan.

Mang‘itlar davr Buxoro haqida ma’lumot beruvchi asarlar qatoriga Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoye’” (Nodir voqealar), “Risola yoxud mang‘itlar saltanatining qisqacha tarixi”, Mirzo Abdulazim Somiy Bo‘stoniyning “Daxmayi shohon”, “Tuhfayi shohiy”, “Tarixi salotini mang‘itiya” kabi asarlarni kiritish mumkin. Unda o‘lka tarixiga doir ajoyib voqealar, shahar topografiyasi, mang‘it hukmdorlarining tarixi va boshqa masalalar yoritilgan.

---

[1] Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. В 9 томах. Т.1. – Москва: Наука, 1963.

[2] Умняков И.И. К вопросу об исторической топографии Бухары // Сборник Туркестанского восточного института в честь А. Э.Шмидта.- Ташкент, 1923.

[3] Шишкин В.А. Варахша.- Москва: Наука, 1963.

[4] Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства.- Ташкент: Фан, 1958.

[5] Большаков О.Г. Хронология восстания Муканны // История и культура народов Средней Азии.- Москва: Наука, 1976. - Б.90-98.

[6] Саиджонов М. Бухоро ва эски бинолари / “Маориф ва ўқутғувчи”. Тошкент, 1927, № 9-10.

[7] Мухамеджанов А.Р. История орошения Бухарского оазиса.- Ташкент: Фан, 1978; шу муаллиф: Қадимги Бухоро. – Тошкент: Фан, 1991

[8] Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал-ард / Араб тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Ш.С. Камолиддин. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат нашриёти, 2011.

[9] Ҳудуд ул-олам (Моваройннаҳр тавсифи) / Форс тилидан таржима, сўз боши, изоҳлар ва жой номлари кўрсаткичи муаллифи Омонулло Бўриев. – Тошкент: O’zbekiston, 2008.

[10] Ҳ. Тўраев. Бухоро тарихи ёзма манбаларда. – Бухоро: Дурдона, 2023.

Shuningdek, Mirzo Salimbekning “Kashkuli Salimiy”, “Jome’ ul-gulzor”, “Ta’rixi Salimiy”, Sharifjon Mahdum Sadr Ziyo va Sayyid Muhammad Nosir To‘ra kabi tarixchi o‘lkashunoslarning ilmiy faoliyatini natijasida Buxoro tarixiy o‘lkashunosigi sohasi ham rivojlandi.

XX asr 20-yillaridan keyin o‘lkada tarixnavislikning yangi uslublari kerib kela boshladi. Tarixiy o‘lkashunoslikning tarkibiy qismi bo‘lgan arxeologiya, etnorafiya, topografiya, arxiv va muzey yo‘nalishlari taraqqiy etdi. Bu yo‘nalishlarda olib borilgan izlanishlar tarixiy o‘lkashunoslikning rivojlanishiga va taraqqiy etishiga turtki bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoroda tarixiy o‘lkashunoslik, o‘lka tarixini o‘rganish ishlari qadimdan shakllangan. Ammo u tarixiy o‘lkashunoslik deb nomlanmagan. “Buxoro tarixi” asarini tom ma’noda tarixiy o‘lkashunoslik manbasi desak xato bo‘lmaydi. Chunki unda tarixiy o‘lkashunoslikka xos bo‘lgan barcha komponentlar o‘rin olgan. Shuningdek, keyingi davr manbalari va kitoblarida ham o‘lkamiz tarixi haqida qimmatli ma’lumotlar jamlangan.

BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVINING ZAMONAVIY FAOLIYATIDAGI RAQAMLASHTIRISH JARAYONI

Murodova Dilrabo Shomurodovna
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va kelgusi avlodlarga qoldirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan arxivlarning zamonaviy faoliyati, ayniqsa, Buxoro viloyat davlat arxividagi raqamlashlashtirish jarayonlari, uning mohiyati, aholiga ko‘rsatilayotgan arxiv xizmatlari tarixiy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Tarixiy meros, arxiv hujjatlari, raqamlashtirish, aursorsing xizmati, agentlik, elektron hujjat, interaktiv xizmatlar, elektron arxiv.

Bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonida har bir davlatning intellektual salohiyatini namoyon etuvchi arxivlarning ahamiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Shu jihatdan davlatchilik hamda kishilik jamiyati tarixini xolisona o‘rganish zarurati mustaqil ijtimoiy institutlar sifatida faoliyat ko‘rsatayotgan arxivlar tarixini tadqiq etish va keng qamrovli tadqiqotchilarni qimmatli manbalar ko‘lami bilan tanishtirish dolzarbligini ko‘rsatmoqda.

Arxiv ishini yanada rivojlantirish, ilg’or dunyoviy tajribalardan samarali foydalanish hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish maqsadida mamlakatimizda tegishli me’yoriy-huquqiy poydevor yaratilgan bo‘lib, muntazam ravishda takomillashtirilmoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va kelgusi avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”. Shu jihatdan tarix ko‘zgusi bo‘lgan arxivlar faoliyatida ham hozirda bir qator zamonaviy imkoniyatlar yaratilib, xalqimizning o‘tmish merosini kelajak avlodlarga yetkazish borasida salmoqli ishlar qilinayotganligini ko‘rish mumkin. Mustaqillik yillarida Buxoro viloyat davlat arxivida ish samaradorligi tubdan yaxshilanib, Milliy arxiv hujjatlari soni ortib borganligini ko‘rish mumkin[1]. Respublikamizdagi eng yetakchi arxiv muassasasalaridan biri bo‘lgan Buxoro viloyat davlat arxivida ham dastlab 2015-yilda raqamlashtirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Hujjatlarining elektron nusxalari bazasini yaratish bo‘yicha “Arxiv Fondi” dasturiy ta’minoti yaratilgan bo‘lib, unda fondlar, alohida qimmatli hujjatlar hamda yig‘majildlarning ro‘yxati, hujjatlarning topografiyasi va nusxalari kiritilgan. Mazkur zamonaviy ta’minotdan foydalanish arxiv fondlarida saqlanayotgan alohida qimmatli hujjatlarning sug‘urta nusxalarini yaratish bilan

[1] Юсупов У. Алиев А. Ўзбекистон архивлари. - Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 128.

bir vaqtda, jismoniy va yuridik shaxslarning davlat arxiviga kelib tushadigan murojaatlari va so‘rovlarining ijrosini ta’minlash mumkin. Shuningdek, elektron hujjat aylanmasini sifatli va maqbul tashkil etish maqsadida xodimlarning bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlash, axborot kommunikatsion texnik vositalaridan samarali foydalanishni tashkil etishga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Raqamlashtirish ko‘lamini oshirish maqsadida viloyat arxivida aursorsing xizmati tashkil etilgan bo‘lib, bu jarayonga axborot xavfsizligini ta’minlash va arxiv xodimlarini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish maqsadida faqatgina arxiv xodimlarigina qamrab olingan. “O‘zarxiv” agentligining 2017-yil birinchi yarim yillik asosiy ish rejasiga muvofiq Buxoroda agentlik tomonidan “Shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxatlarini takomillashtirish va ularni raqamlashtirish masalalari” mavzusidagi respublika arxivchilari seminari o‘tkazilgan[1].

Buxoro viloyat hokimi tomonidan 2017-yil yanvar oyida tasdiqlangan “Buxoro viloyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2017-yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan loyihalarning manzilli dasturi”da davlat arxivi tomonidan alohida xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida Infokiosk o‘rnatish loyihasi kiritilgan. 2017-yilda davlat arxiviga 8 000000 so‘m hisobiga arxiv hujjatlari to‘g‘risida elektron ma’lumot joylashtirilgan “Infokiosk” o‘rnatilgan bo‘lib, mazkur manbada fuqarolarga imkoniyat yaratish maqsadida viloyat davlat arxivi faoliyatiga doir ma’lumotlar, sohaga oid me’yoriy hujjatlar bazasi, davlat arxivi tomonidan bajariladigan pulli xizmatlar va shaxsiy tarkibga oid fondlar ro‘yxati hamda ular to‘g‘risidagi ma’lumotlar berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining 2018-yil 28-yanvardagi 04/2-120-sonli topshirig‘i ijrosi bo‘yicha, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari va so‘rovlarini bajarishda qulaylik yaratish hamda vaqtini tejab, hujjatlar qidiruvini yengillashtirish maqsadida arxivlardagi barcha shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxati Exel shaklga kiritilgan. Buxoro viloyat davlat arxividagi mavjud 317 saqlov birligi, 73879 kadr hujjatlar ro‘yxati raqamalashtirilgan[2]. Muassasada 2019-yil 1-yanvar holatida 327975 saqlov birligidagi hujjatlar saqlangan. Mazkur yilning 9-oylik davriga qadar 1667 saqlov birligidagi 368977 varaq alohida qimmatli hujjatlar raqamlashtirilib, dasturga kiritilgan[3].

2020-yil 1-yanvar holatida viloyat davlat arxivida 805 ta fond mavjud bo‘lib, ularda 335692 saqlov birligida hujjatlar saqlangan. Yil mobaynida jami 488 saqlov birligidagi 111592 kadr – alohida qimmatli hujjatlar raqamlashtirilib, ularning sug‘urta nusxalari yaratilgan[4]. O‘zbekiston Respublikasi davlat Mustaqilligining 30 yillik bayrami arafasida “O‘zarxiv” agentligi tizimida Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish yuzasidan 2021-yilga mo‘ljallangan “Yoshlar Dasturi” ga ko‘ra 2021-yilning 7-8-iyun kunlari Buxoro shahrida bo‘lib o‘tgan “Yosh arxivchilar Forumi”da ham “Elektron arxivlar: arxivlar faoliyatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsiya” mavzusidagi konferensiya tashkil etilgan. Tadbir doirasida respublika arxivlarida faoliyat ko‘rsatayotgan yosh mutaxassislar sohaga oid yutuq va muammolar, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan istiqbolli rejalar bo‘yicha taklif va mulohazalarini muhokama qilishgan.

Buxoro viloyati arxiv ishi hududiy boshqarmasi tizimidagi davlat arxivlarining 2024-yilda arxiv ishini rivojlantirish bo‘yicha 21 ta asosiy ko‘rsatkichlarning barchasi bajarilgan. 202 ta idoraviy hujjatlar arxivlar tomonidan ishlab chiqilib, shundan 78 ta yig‘ma jildlar nomenklaturalari, 41 ta ish yuritish yo‘riqnomalari, 40 ta ekspert komissiyalari nizomlari, 43 ta idoraviy arxiv nizomlari ishlab chiqilishida uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatilgan. Davlat arxivlari tomonidan 48 ta fonddan 19752 saqlov birligidagi boshqaruv hujjatlari, 31 fonddan 3102 saqlov birligidagi shaxsiy tarkib hujjatlari qabul qilingan. Shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivlariga esa 70 fondga 1724 saqlov birligidagi shaxsiy tarkib hujjatlar hamda 4 fondga 691

[1]Архив-ахборот манбаи / Ўзбекистонда давлат архивлари тизими ташкил топганлигининг 100 йиллигига бағишланган альбом. – Бухоро: Бухоро, 2019. – Б. 41.
[2] BVDA, 1396-fond, 1-ro‘yxat, 807-yig‘majild, 110-varaq.
[3] Buxoro viloyat davlat arxivining 2019-yil ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy hisoboti. – B. 4.
[4] Насиллаев С. Архив ҳужжатлари – маданий мерос объекти // Галаосиё овози, 2021 йил 27 май.

saqlov birligidagi saqlash muddatlari vaqtincha bo‘lgan hujjatlar qabul qilinganligi hisobotlarda qayd qilingan. 2024 yilda davlat arxivlarida 30790 s.b.da saqlanayotgan hujjatlarning qimmatliligini aniqlash ekspertizasi o‘tkazilib, bu 129 foizni tashkil qilgan. Bundan tashqari davlat arxivlarida jami 12684 ta jismoniy va yuridik shaxslarning ijtimoiy-huquqiy va mavzuli so‘rovlari ko‘rib chiqilib, arxiv hujjatlari asosida 12353 ta so‘rovlar 242 foizga ijobiy hal etilgan.

Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik yillarida Buxoro viloyat davlat arxivi yangi qonunchilik tamoyillari va tartiblari asosida o‘zining zamonaviy faoliyatida qator yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Natijada arxiv ishi samaradorligi oshib, hujjatlarni qabul qilish, hisobga olish, saqlash va ulardan foydalanishni tashkil etish jarayonida ijobiy natijalarga erishildi. Hujjatlarning elektron nusxalarini shakllantirish bo‘yicha dasturiy ta’minot joriy qilinib, alohida qimmatli hujjatlar, fondlar va yig‘majildlar ro‘yxatlari hamda nusxalari kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Юсупов У. Алиев А. Ўзбекистон архивлари. - Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 128.
2. Архив-ахборот манбаи / Ўзбекистонда давлат архивлари тизими ташкил топганлигининг 100 йиллигига бағишланган альбом. – Бухоро: Бухоро, 2019. – Б. 41.
3. BVDA, 1396-fond, 1-ro‘yxat, 807-yig‘majild, 110-varaq.
4. Buxoro viloyat davlat arxivining 2019-yil ko‘rsatkichlari bo‘yicha umumiy hisoboti. – B. 4.
5. Насиллаев С. Архив ҳужжатлари – маданий мерос объекти // Галаосиё овози, 2021 йил 27 май.

ERONDAGI 1905-1911 YILLARDA ROSSIYA-GERMANIYA ZIDDIYATLARINING KUCHAYIB BORISHI (“TURKISTON TO’PLAMI” MATERIALLARI ASOSIDA)

Orziev Mahmud Zaynievich
Tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro davlat universiteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi dotsenti”
Samadova Ruxshona Ramazon qizi
Buxoro davlat universiteti “Tarix” ta’lim yo’nalishi IV-bosqich talabasi

Аннотация: В статье анализируются процессы, происходившие в Иране в 1905–1911 годах, отраженные на страницах материалов «Туркестанского сборника», включая революционные процессы, борьбу за конституционные и демократические процессы, выступления против российского и британского государств, приток немецкого капитала в Иран, открытие и деятельность школ в Иране немцами, привилегии, предоставленные немецким компаниям в обмен на экономическое проникновение, рост влияния Германии в Иране и рост негативных настроений по отношению к России. Отдельно освещаются недостаточная поддержка Иранской революции со стороны Германии и дискредитация немецкого влияния в Иране среди низших слоёв общества. Также с помощью фактов и доказательств раскрываются факты, связанные с Иранской революцией и попытками шаха подавить революцию.

Ключевые слова: революция, капитал, королевская власть, политический интерес, парламент, реакция, конституция, «Восточный берег»

XX asr boshlarida Sharq mamlakatlarida milliy uyg’onish va o’zlikni anglash jaryonlari sodir bo’lib, bu ijtimoiy–siyosiy voqeliklarda o’z aksini topdi. Sharqning yirik mamlakatlaridan biri bo’lgan Eronda 1905–1911 yillarda inqilobiy harakatlar sodir bo’lib, ilg’or fikrli ziyolilar va taraqqiyparvar kuchlar mamlakatda konstitutsion tartiblarni o’rnatish, zamonaviy ilf – fan va texnika yutuqlarini jamiyat hayotiga tadbiq etishni talab qilib chiqa boshladilar. Inqilobiy chiqishlarning aksariyati Eronni iqtisodiy va siyosiy jihatdan yarim qaram qilib olishga urinayotgan Rossiya va Angliya davlatlariga ham qarshi qaratilgan ediki, bu hol Yevropaning eng taraqqiy etgandavlatlari o’rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirib yubordi. Mamlakatdagi tartiblardan va qaramlikdan Erondagi nafaqat quyi tabaqa balki, shoh xonadoni vakillari ham noroziliklarini

yashirib o'tirmaydilar. Ayrim kajarlar sulolasi vakillari hatto, Eron parlamentiga a'zo bo'lganliklarini siyosiy faoliyatidagi eng oliy cho'qqi deya baholaganligini ko'rishimiz mumkin[1].

Ushbu mashqimizda biz, Eron inqilobi va buning natijasida buyuk davlatlarning Eronning ichki bozoriga kirib kelishi, uning moddiy boyliklarini talash xususidagi raqobatlarining faqat bir jihati, ya'ni Rossiya va Germaniya ziddiyatlarini yoritishni lozim deb topdik. Rossiya va Angliya o'rtasidagi kelishuvga ko'ra Rossiya Eronning shimoliy, Angliya esa janubiy qismlarini ta'sir doiralariga bo'lib olgan edilar. 1905–1911 yillardagi Eron inqilobi davrida Rossiya va Angliyaning Erondagi ta'siri bir qadar pasayib, mamlakatda Germaniya nufuzining oshishi bilan bog'liq maqola va xabarlar 1867–1917 yillarda tuzib borilgan "Turkestanskiy sbornik" ("Turkiston to'plami") da ham katta salmoqqa ega.

"Turkiston to'plami"dagi bu maqola va xabarlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, hali 1907 yildayoq Eronda Germaniya ta'sirining oshishi Rossiya imperiyasi diplomatik amaldorlarini tashvishga solgan. Shu yili chop etilgan "Rech" matbuot organining 485–sonida B. Imzosi bilan "Otnoshenie derjav k Persii" maqolasida; "Jurnalist Peterburgda diplomatik vakillardan biri bilan suhbatlashgani, vakilning so'zlariga ko'ra esa, Germaniya Erondagi har bir harakatni kuzatib mintaqada o'z ta'sirini o'tkazishga urinayotgani, bu borada Turkiya Germaniyaning ishonchli ittifoqchisi ekanligi, Ammo, ahvol shu tarzda ketishda davom etsa, Angliya va Rossiya davlatlari jim qarab turmasliklari[2]"–bilan bog'liq fikr–mulohazalarni keltirib o'tadi.

Erondagi ziyoli qatlam va taraqqiyparvar kuchlar orasidagina emas, Eron hukumat doiralarida ham Germaniyaning mavqei oshib borganligini "Turkiston to'plami" materiallari tasdiqlaydi. Maqolalarning birida; "Tehronda nemislar 200 bola o'qiydigan maktab ochgani, hashamatli binoni qurish va uning moddiy ta'minoti uchun Germaniya imperatorining shaxsan o'zi 15 ming marka ajratgani, Germaniya korchalonlari ham bu maktab uchun o'z mablag'larini ayamaganligi, bu yerda bolalar savdo va iqtisodiy bilimlarni ko'proq o'rganishlari, bolalarni hatto, Markaziy Yevropaga sayohat qildirayotganlari, nemislar Eron shohidan Sheroz shahrida ham shunday bir maktab ochishlariga ruxsat olganliklari, nemislar shu yo'l bilan eronliklarning ko'nglini topayotganligi, Eronda esa, Rossiyaga nisbatan dushmanona kayfiyat kuchayib borayotganligi[3]"–bilan bog'liq ma'lumot xavotirli tarzda keltirib o'tiladi.

Haqiqatdan ham, nemislarning Eronga kirib kelishi juda ehtiyotkorona bo'lib, Germaniya ishbilarmon doiralarining Eronga qiziqib qolishi Berlin–Bog'dod temir yo'lining qurilishi borasida Turkiyaning Germaniyaga kontsessiya berishi bilan bog'liq edi. Shu sababli, nemislar hali Rossiya va Angliya hukmron doiralarini imkon qadar cho'chitmasdan Erondagi hukmron tabaqani o'z manfaatlari yo'liga burishga harakat qilganlar. Bu boradagi asosiy faoliyat turi esa maktab, ta'lim tarbiya bo'lib, nemislar hatto, Eron ta'lim vazirligi majlislarida ham ishtirok etish huquqini qo'lga kiritganliklari bilan bog'liq ma'lumotlar "Turkiston to'plami" keltirib o'tiladi. To'plamning 493–tomida, Amiradjibi (Ehtimol, Amir Hojibiy bo'lsa kerak) imzosi bilan bosilgan "Nemtsы v Persii" maqolasida; Eronda shu paytgacha frantsuzlar, inglizlar, yahudiylar, armanlar, ruslarning maktablari bo'lgani holda bu maktablar yo o'z millatdoshlariga yoki dindoshlari, mazhabdoshlarining bolalariga ta'lim bergani, nemislar esa, birinchi bo'lib, eronliklarning bolalarini o'qita boshlaganlari, Tehrondagi nemis maktabi hozirda yiliga 30 ming rublь miqdorda subsidiya olayotgani va ushbu maktab boshlig'i Eronning ta'lim vazirligi (Vazirat ulm) yig'ilishlarida qatnashish huquqini qo'lga kiritgani, bu esa, Germaniya manfaatlariga mos keladigan qarorlar va qonunlar chiqarilishiga erishish imkonini berishi, nemislar bu bilan ham cheklanmay, maktablari tarmog'ini butun Eron bo'ylab tarqatayotgani, kattalar uchun kechki maktablar ochayotganliklari, shu sabab Eron aholisida nemislarga nisbatan iliq munosabati shakllanayotgani, nemislar boshqa davlatlardan farqli o'laroq kontsessiya va savdo shartnomalarisiz, Eronga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan kirib kelayotganliklari[4]"–xususidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin.

[1] Беседа с Персидским посланником в Берлине. // Туркестанский сборник. Том 491. – С.154-155.
[2] Отношние держав к Персии //Туркестанский сборник. Том 468. – С. 64-66.
[3] Немцы в Персии // Туркестанский сборник. Том 468. – С.69.
[4] Амираджиби. Немцы в Персии // Туркестанский сборник. Том 493. – С. 113-114.

Nemislarning Eronda ta'sir doiralarining o'sib borishi Rossiya matbuot organlarining ham katta xavotiriga sabab bo'lib boradi. "Turkiston to'plami" ning 451–sonida B. Pavlov imzosi bilan "Persidskiy krizs v osveshenie Germanskogo diplomata.–Rossiya i Germaniya v Presii.–Beseda s russkim visokopostavlenni deyatelem" maqolasida siyosiy arbobning bu masaladagi fikr mulohazalari keltirilib; "Hozirda (1907–1908 yy) Eronda shoh hokimiyati hech qanday kuchga ega emasligi, shoh hatto chet elliklarni ham himoya qila olmasligi, bu Eron fuqarolar urushi yoqasida ekanligini anglatishi, Germaniya Eronda dastlab siyosiy manfaatlari yo'qligi sababli, savdo va madaniy yo'l bilan kirib kelishga uringani, inqilobiy harakatlarda ham chetdan turib kuzatayotgani va o'z fuqarolarini himoya qilish bilan shug'ullanayotgani, Berlindagi oliy doiralar Rossiyani reaktsion guruhlarni qo'llab–quvvatlashda ayblayotgani, bu orqali esa Germaniya Erondagi savdo aylanmasini kun sayin oshirib borayotgani, nemis olimlari Eron madaniyatini, yer osti va yer usti boyliklarini o'rganayotgani, ahvol shu tarzda ketadigan bo'lsa, Rossiya va Angliya Eronni vaqtincha okupatsiya qilishlari mumkinligi[1]"–xususidagi fikrlar Rossiya hukmron doiralarining Erondagi voqeliklarni diqqat bilan kuzatib borganliklaridan adlolat beradi.

Haqiqatdan ham Germaniyaning Eronda iqtisodiyotiga kirib kelishi kuchayib borib, 1907-1908 yillarda bir qator shaharlarda kichikroq va Tabriz, Tehron shaharlarida yirik omborxonalar ochgani, bu yerda nemis firmalari va korxonalari tomonidan ishlab chiqilgan ninadan tortib avtomobilgacha bo'lgan buyumlarning sotila boshlanganini ham "Turkiston to'plami" materiallari orqali bilib olishimiz mumkin[2].

Nemislarning Eronda aholining keng qatlamlari tomonidan qo'llab–quvvatlanishi u qadar mustahkam emasdi. Eron inqilobi davrida Germaniya inqilobchilarni yetarli darajada qo'llab–quvvatlamaganligi bunga sabab deb qarash mumkin. Berlinda chop etiladigan "Berliner Tageblatt" matbuot organida chop etilgan maqolalar bunday xulosaga kelishimzga asos bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki 1907 yilning 10 iyunь kuni Shoh qo'shinlari Parlament binosini to'pga tutib, inqilobni kuch bilan bostirishga urinadi. Natijada, Tehrondagi qonli to'qnashuvlarda ko'plab odamlar halok bo'ladi. Shoh reaktsiyasi esa, konstitutsiya tarafdorlarini ta'qib ostiga oladi. Matbuot organining yozishicha ko'plab gazeta va axborot agentliklari Eron elchixonasidan bu voqeliklarga aniqlik kiritishni so'rab qilgan murojaatlarida, ular bilmasliklarini aytib haqiqiy voqelikni yashirganlar[3]. Ikkinchi bir tomondan esa, matbuot organi Germaniya hukumatini sustkashlikda ayblaydi. Chunki Germaniyaning Tehrondagi missiyasi shoh ta'qib qilgan konstitutsiya tarafdorlarini elchixonaga kirib yashirinishlariga ruxsat bermaydi. Matbuot organi buni Rossiya va Angliya oldida taslimchilik deb baholaydi. Maqola ostida imzosini qo'yishni istamagan juralist Karbaloda eronliklarning mashhur mushtaidlaridan biri bilan suhbatlashgani; "Uning ta'kidlashicha, Germaniyaning "Sharqiy bank"i Eronda o'z filialini ochishga uringanligi, bank direktorining o'g'li Guttmanning Eronga kelishi, so'ng no'malum sabablarga ko'ra bankning ochilmaganligiga ham Rossiya va Angliya oldida Germaniyaning hadiksirashi sabab bo'lgani, endi esa eronliklar oldida Germaniya butunlay ishonchni yo'qotgani, chunki, og'ir daqiqalarda inqilobchilarni yolg'iz qoldirganligi[4]"–kabi firk mulohazalar Eron aholisining Germaniyaga nisbatan ham yetarlicha iliq munosabatda bo'lmaganligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, inqilobi davrida ham Yevropa davlatlarining Eron ichki ishlariga aralashuvi, mamlakat taraqqiyotini o'zlari istagan yo'nalishga burishga harakat qilganliklari, buning uchun esa, turli usullardan foydalanganliklari, o'zaro ziddiyatlar va manfaatlar to'qnashuvi natijasida vujudga kelgan siyosiy keskinlikni bartaraf etish o'rnga chetda kuzatib turishlari bilan bog'liq ko'pdan–ko'p ma'lumotlarni "Turkiston to'plami" dagi ma'lumotlar orqali bilib olamiz. XX asr boshlaridagi Eron taraqqiyoti esa, Yevropa davlatlari manfaatlari kesishgan nuqtalardan biri ediki, uni o'rganish va tahlil etish kelajakdagi vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

[1] Павлов Б. Персидский кризис в освешение Германского дипломата. – Россия и Германия в Пресии. – Беседа с русским высокопоставленны деятелем // Туркестанский сборник. Том 451. – С. 164-166.
[2] Германия и Персидский рынок. Туркестанский сборник. Том 450. – С. 33-34.
[3] Кровавья события в Персии // Туркестанский сборник. Том 493. – С. 80-81.
[4] Отношения между Персией и Германией // Туркестанский сборник. Том 477. – С. 107-108.

ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ РОМИТАН ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ТУРК ХОҚОНЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШДАГИ АҲАМИЯТИ

Латипов Жасур Лазиз ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бухоро давлат университети доценти
Эргашев Жаҳонгир Юнус ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бухоро давлат университети доценти

Аннотация: В данной статье исследуются ещё не решённые вопросы истории Ромитана эпохи раннего Средневековья, в том числе роль региона во внутренних политических борьбах Тюркского каганата. Кроме того, в статье приведён анализ источников и содержащихся в них сведений.

Ключевые слова: Наршахи, “История Бухары”, Ромитан, Тюркский каганат, Кара Чурин, Абруй, Нири каган, ябгу.

Бухоро воҳасининг илк ўрта асрлар даври тарихини ўрганишда Наршахийнинг “Бухоро тарихи” асарининг аҳамияти беқиёсдир. Ушбу асардан олинган маълумотлар ҳозирга қадар муқобили кам учрайдиган асосий фактлар сифатида қабул қилинади. Кўпгина тарихий адабиётларда илгари сурилган фикрлар ҳам айнан шу асардаги маълумотларнинг таҳлилига асосланган. Айниқса, Ромитан тумани ҳудудларида илк ўрта асрларда юз берган воқеа-ҳодисаларнинг таҳлили алоҳида аҳамиятлидир. Бу давр тарихи, шубҳасизки, Турк хоқонлиги (552-659) давлатининг сиёсий ривожланиш босқичлари, ушбу давлатдаги ички кураш жараёнларига боғлиқ ҳолда ўрганилиши лозим.

Ромитан ҳудудининг ўрта асрлар давридаги тарихига оид илк маълумотлардан бири Турк хоқонлиги даврида шаҳарнинг қурилиши масаласидир. Гарчи бир ўринда шаҳарга қадимда Афросиёб томонидан асос солинганлиги ҳақида таъкидланса-да, бошқа жойда қуйидагича тарздаги фикрларни ҳам учратамиз: “*Ундан (Шери Кишвар) кейин бўлган бошқа подшоҳ Искажкат, Шарғ ва Ромтин қишлоқларини бино қилди, сўнгра Фарахший қишлоғига асос солди. Хитой подшоҳининг қизини келин қилиб Бухорога олиб келганларида унинг жиҳозлари орасида Хитойдан бир бутхона ҳам олиб келдилар ва уни Ромтинга ўрнатдилар*[1]”. Бу ўринда, аввало, гап қайси давр хусусида кетаётганлигини аниқламоқ лозим. Асарда Шери Кишвар (ёки Эл Арслон) турк хоқони Қора Чўрин (кўпинча Тарду хоқон билан тенглаштирилади, 575-588/599-йилларда Турк хоқонлигининг ғарбий ўлкалардаги ҳокими, 599-603-йилларда Шарқий Турк хоқонлигининг ҳукмдори бўлган)нинг ўғли эканлиги ва унинг Абруй (Або хоқон ёки Тўреман, 581-587-йиллардаги оппозицион ҳукмдор) қўзғолонини бостирганлиги ҳақида ҳикоя қилинади. Бу эса Турк хоқонлигидаги тахт курашлари ва давлатнинг иккига бўлиниб кетиши билан боғлиқ воқеадир. Турк хоқонлигининг тўртинчи ҳукмдори Таспар хоқон (ёки Тобо, 572-581) вафот этгач, кўп ўтмай давлатда тахт учун курашлар бошланади. 584-йили амалдаги ҳукмдор – Ишбара хоқон (Шаболе ёки Шэту, 581-587) билан исёнчи шаҳзода Або хоқон ўртасида уруш бошланади[2]. Ушбу кураш Або хоқоннинг Хитой билан иттифоққа киришган Ишбара хоқондан енгилиши билан тугайди. Л.Гумилев ўзининг “Қадимги турклар” асарида ёзишича, Ишбара хоқондан енгилгач, Або хоқон Бухоро вилоятидаги Пойканд ҳудудига чекинган ва кейинроқ ғарбий ҳудудлар ҳокими бўлган Қора Чўриннинг ўғли Шери Кишвар томонидан ўлдирилган[3]. Унинг номи форс манбалари, жумладан, “Бухоро тарихи” асарида ҳам Абруй кўринишида келтирилади.

[1] Наршахий, Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / форс-тожик тил.тарж. А.Расулевники. Масъул муҳ. А.Ўринбоев. – Т.: Фан, 1966. – Б.17.
[2] Латипов Ж. Хитанлар: давлатчилик сари йўл (монография). – Т.: “Наврўз” нашриёти, 2019. – Б.25.
[3] Гумилев Л.Н. Қадимги турклар. Таржима, кириш сўз муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Б.Ўрдабекли, А.Айритомий. – Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси “Фан” нашриёти, 2007. – Б.125-127.

Шери Кишвар ҳақидаги қисқа маълумотларда қўзғолон бостирилгач, Бухорода ўз ҳокимлик сулоласига асос солганлиги ва 20 йил ҳукмронлик қилганлиги ёзилади[1]. Аммо баъзи тарихий адабиётларда унинг Эрондаги Сосонийлар давлати (224-651) ҳудудига қилинган ҳарбий юриш чоғида ҳалок бўлган Саба-шоҳ билан айни бир шахс эканлиги ҳақида маълумотлар келтирилади[2]. Бу эса Наршахийнинг ҳокимлик муддати ҳақидаги маълумотларини, албатта, рад этади. Биз шу ўринда ушбу масаланинг чигалликлар ва ноаниқликларга бой эканлигини таъкидламоқчимиз. Л.Гумилев қарашларига зид ўлароқ, халқаро илмий жамоатчилик томонидан 587-йилда Абруйни мағлуб қилган ҳам, 588/589-йилда саркарда Баҳром Чўбин отган ўқдан ҳалок бўлган ҳам Шери Кишвар эмас, Турк хоқонлигининг расмий ягона ҳукмдорларидан бири бўлган Баға хоқон (ёки Чулохоу, 587-588) эканлиги таъкидланади[3]. Биз ушбу мулоҳазани қўллаб-қувватлаган ҳолда, Шери Кишвар шахсияти ва фаолиятининг янада аниқлаштиришга муҳтожлигини, унинг Бухородаги 20 йиллик ҳукмронлиги даври эса ягона манбага асосланган ҳамда тарихий хронологик жараёнларга номутаносиб эканлигини айтмоқчимиз.

“Бухоро тарихи” асарида ундан кейинги ҳукмдор сифатида кўрсатилган шахсни Буйруқ хоқон (Нири ёки Элтегин номлари билан ҳам аталади, 588-599-йилларда Ғарбий Турк хоқонлиги ҳукмдори) деб ҳисоблаш мумкин. Илмий жамоатчилик орасида унинг насаби хусусида ҳам узил-кесил илмий хулоса мавжуд эмас. Буйруқ хоқон, турли илмий мулоҳазаларга кўра, Шери Кишварнинг, хоқонлик шаҳзодаси Янсу тегиннинг ёки Эронда ҳалок бўлган Сава-шоҳнинг ўғли, Қора Чўриннинг ёки Муғон хоқон (Абруйнинг отаси, 553-572)нинг набираси сифатида эътироф этилади[4]. Фикримизча, Буйруқ хоқон Эрон билан юз берган урушдан кейинги сиёсий бўшлиқ туфайли Бухоро вилояти атроф ҳудудларини ўз пойтахтига айлантириб, хоқонликнинг ғарбий қисмида ҳукмронлик қилган. Тарихчи А.Отахўжаев фикрича, Шери Кишварнинг ўғли бўлган Шели исмли шахс бухорхудот сифатида Бухорони 605/606-620-йилларда бошқарган[5]. Фикримизча, унинг Нили хоқон билан ягона ёки алоҳида шахс эканлиги ҳақида мулоҳазалар, шунингдек, ушбу келтирилган йилларнинг аниқлиги ечимга муҳтождир. Айтиш жоизки, ушбу шахс Ғарбий Турк хоқонлиги (Хитойга тобелик даври билан 583-742)нинг ва Бухоро маҳаллий давлатининг биринчи мустақил ҳукмдорларидан эканлиги туфайли кўплаб янги ва ноаниқ хулосалар келиб чиқиши мумкин.

Буйруқ хоқон ўз ҳукмронлиги даврида бир қанча қишлоқларга асос солди, вайрон бўлганларини тиклайди. Наршахий томонидан икки ўринда Ромитан шаҳрининг қурилганлиги ҳақидаги маълумотдан унинг илк ўрта асрларда юз берган тўқнашувлар туфайли маълум вақт хароб ҳолга тушиб қолганлигини хулоса қиламиз. Ушбу урушларнинг энг ёрқин намунаси сифатида Баға хоқон ўлдирилгандан сўнг Бухоро атроф вилоятларининг Баҳром Чўбин қўшини томонидан эгалланиши ва талон-тарож қилинишини кўрсатиш мумкин[6]. Буйруқ хоқонга турмушга узатилган Хитой маликасининг исми Сянши бўлиб, Наршахий хоқоннинг унга атаб Ромитанда пагода (буддавийликда табаррук нарсалар сақланувчи минора кўринишидаги иншоот) қуриб берганлигини эслатади[7]. Бу маълумотлар таҳлили эса Ромитаннинг маълум муддат Ғарбий Турк

[1] Наршахий, Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / форс-тожик тил.тарж. А.Расулевники. Масъул муҳ. А.Ўринбоев. – Т.: Фан, 1966. – Б.17.

[2] ан-Наршахи, Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар. Та’рих-и Бухара. История Бухары. Пер., комм. и прим. Ш.С. Камолиддина. Археолого-топографический комм. Е.Г. Некрасовой. – Т.: SMIA-SIA, 2011. – С.137, комм.38.

[3] Sinor D. The establishment and dissolution of the Turk empire // The Cambridge History of Early Inner Asia (from earliest times to the rise of the Mongols). – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – P.306.

[4] Niri Qaghan – Wikipedia. URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Niri_Qaghan

[5] Отахўжаев А. Илк ўрта асрларда Ғарбий Суғд – Бухоро Суғдининг маъмурий бошқарувидаги ўзига хослик // “Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)” республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Бухоро: Бухду нашри, 2017. – Б.86.

[6] Колесников А.И. Иран в начале VII века (источники, внутренняя и внешняя политика, вопросы административного деления) // Палестинский сборник. Вып.22(85). – Ленинград: Издательство “Наука” Ленинградское отделение, 1970. – С.52.

[7] Тарихий адабиётларда унинг Суй сулоласи (581-618) томонидан яксон Шимолий Чжоу сулоласи (557-581)нинг исёнкор вакили бўлганлиги, Нили хоқон вафотидан кейин унинг укасига турмушга чиқиб, 600 йилларда Хитойга кетганлиги ҳамда

хоқонлиги пойтахти ёки пойтахтларидан бири (Пойканд билан биргаликда) сифатида хизмат қилганлиги ҳақидаги хулосаларни келтириб чиқаради. Ушбу фикримизни Хитой манбалари ҳам далиллаши мумкин. Масалан, “Бэй ши” (“Бэй йилномаси”)нинг 97-бобида “Аланьми” (Ромитан) шаҳри ҳақида эслатилиб, унда яшовчи ҳукмдор фамилияси “Чжао-у”, яъни “ябғу” эканлиги ёзилган[1]. Маълумки, “ябғу” унвони дастлаб Ғарбий хоқонлик ҳукмдорларигагина берилар эди.

Хулоса сифатида айтиш мумкинки, Ромитан шаҳри ва унинг атроф ҳдудлари илк ўрта асрларда Бухоро воҳасининг йирик иқтисодий ва сиёсий марказларидан бири сифатида ички ва ташқи ҳарбий-сиёсий жараёнларнинг марказида турган. Ҳудуд тарихи ва унга боғлиқ жараёнларнинг маҳаллий ва хорижий манбалар воситасида ўрганилиши ҳали ўз ечимини топмаган илмий масалалар учун хулоса беришга асос бўлиши мумкин. Жумладан, ҳудуд тарихининг Турк хоқонлиги марказий маъмурияти билан алоқаларининг маҳаллий суғдий манбалар, Хитой йилномалари, форс ва туркий манбаларни тадқиқ қилган ҳолда ўрганилиши шахсияти тўла аниқлаштирилмаган Шери Кишвар, Қора Чўрин, шунингдек, Нири хоқон каби шахсларнинг сиёсий фаолиятини ёритишда катта аҳамиятга эга. Айни чоғда ушбу масалалар хоқонликнинг иккига бўлиниши ва маҳаллий ҳокимликларнинг ташкил топиши каби жараёнларни тадқиқ қилиш учун ҳам муҳимдир.

СУВ ТЕЖАШНИНГ БУХОРО ТАЖРИБАСИ: ТАРИХИЙ АМАЛИЁТ ВА НАТИЖА

Naimov Ismat Nusratilloyevich
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Аҳмад Дониш (1827-1897) XIX асрнинг иккинчи ярмида Бухоро амирлигида барча соҳаларда ўзининг илғор фикрлари билан муносиб из қолдирган кўп қиррали фаолият соҳибидир. У ўз илмий меросида Бухоро амирлигидаги ижтимоий-иқтисодий, сиёсий масалаларни ёритишга ҳаракат қилди ҳамда ўз замонасидаги муаммоларни бартараф этиш қаратилган таклифларини илгари сурди. Замонанинг долзарб масалаларидан бири эса бу – сув танқислиги муаммоси эди.

1868 йилда Зарафшон водийсининг Зирабулоққача бўлган қисми Россия империяси томонидан босиб олиниб, сувнинг боши унинг қўл остига ўтади. Бу ҳолат бухороликларни ташвишлантирмай қолмас эди. Чунки, Самарқанд воҳасининг Россияга қўшиб олиниши билан Зарафшон дарёсининг юқори оқимида жойлашган ва Бухоро воҳасининг сув таъминоти учун сув ташлагич “қулфак” бўлиб хизмат қилувчи асосий сув тармоқлари, жумладан Чўпонота сув айирғич иншооти Зарафшон музофоти ихтиёрида қолиб, Бухорони сув билан таъминлаш аввалгидек амирлик бошқарувида эмас балки, Россиянинг Туркистондаги маъмурияти хохишига боғланиб қолган эди [9: 117]. Мустамлакачилар имкон қадар воҳани сув қарамлигига тутиб туришга ҳаракат қилдилар. Хусусан, 1874 йилда Бухорода бўлган ва унинг сув таъминотидаги аҳволини кузатган Н.П. Стремоухов “Зарафшоннинг асосий оқими бизнинг ҳудудимизда бўлгани учун ҳар йилги сув тақсимоти ҳукуматимиз ихтиёрида. Бу ишни бошқариш билан у бухороликлар олдида анчагина устунликка эга. Энг зарур эҳтиёж (сув)дан қисиб, Россияга нисбатан ўз муносабатларида эҳтиёткор бўлишга ҳамма вақт уларни мажбур этиш мумкин” [12: 191], - дейди. Демак, билдирилган фикрлардан англаб етиш мумкинки, Россия сиёсий ҳукмрон вакиллари Зарафшон дарёси масаласига жиддий қарашган ва сувни ўз назоратларида тутиб туриш тўғрисида мақсадларини яришиб ўтиришмаган.

ўша ерда вафот этганлиги ҳақидаги маълумотлар бор. Унинг Ғарбий хоқонликда қолган ўғли Таман хоқон (Хэшана ёки Чуло хоқон, 604-612) ҳам кейинроқ Хитойга кетиб, 614-йилда Синь-и номли хитойлик маликага уйланган. Қаранг: ан-Наршахи, Абу Бакр Мухаммад ибн Джа‘фар. Та’рих-и Бухара. История Бухары. Пер., комм. и прим. Ш.С. Камолиддина. Археолого-топографический комм. Е.Г. Некрасовой. – Т.: SMIA-SIA, 2011. – С.147, комм.56.

[1] Ли Яньшоу. Бэй ши (хитой тилида). – Пекин: Чжунхуа шуцзюй, 1974. – Б.3238.

Шуни қайд қилиш лозимки, Бухоро амирлиги амалдорлари сувни ўз назоратларига олиш учун қўлдан бой берилган ҳудудларни амирликка қайтариш лозим, деган фикрда эдилар ва бунинг учун барча ҳаракатларни амалга оширдилар. Ушбу масалада Бухоро элчилари Россия империяси пойтахти Петербургга жўнашдан олдин Туркистон генерал губернатори К.П.Кауфман билан учрашиш ва унинг бу хусусдаги нуқтаи-назарини билиш мақсадида 1869 йил август ойида Тошкентга келадилар. Абулқосимбий бошчилигидаги амирлик элчиларига таржимон сифатида шарқшунос ҳамда губернатор маслаҳатчиси П.И.Пашино бириктирилади [11]. Аҳмад Дониш таркибида бўлган бухоролик элчиларга П.И.Пашино тажрибасизлик қилиб, куни-кеча Бухоро-Россия муносабатлари К.П.Кауфман ҳузурида муҳокама этилгани [11: 145] ва Самарқандни Бухорога қайтариб бериш тўғрисида Петербургдан келган махфий телеграмма мазмуни билан таништирган [4: 59]. Бу хабарга асосан элчилар Самарқандни қайтариб бериш тўғрисидаги қарорнинг бажарилишини губернатордан талаб қиладилар, аммо К.П.Кауфман буни мутлақо рад этади. Назаримизда, ушбу телеграмма тавсия мазмунига эга бўлган. Чунки, рус подшоси Туркистондаги барча масалаларни ўз империяси фойдасига ижобий ҳал қилиш ваколатини тўла-текис К.П.Кауфманга топширган эди. Албатта, кейинчалик генерал губернатор махфий хат билан амирлик элчиларини ким хабардор қилганини обдон суриштиради ва айбдор П.И.Пашинога йўл қўйилган бундай ҳолатни ҳарбий дала судида кўриб чиқиб, ўлим жазосига маҳкум этиш билан таҳдид қилади [4: 60].

Шундай бир вазиятда А.Дониш бир вақтлар ота-боболари томонидан минг машаққат билан ўзлаштирилган ерларни қайтиб саҳрога бой беришга йўл қўймаслик ҳамда мамлакатда кенг қамровли сув ислоҳотини амалга ошириш зарур деган, фикрда эди. Аҳмад Дониш бу тўғрисида ўзининг ажойиб ғоясини илгари суриб, Бухоро воҳасини мустақил Амударё суви билан таъминлаш имкониятини берувчи лойиҳа тархини чизади [15].

Аҳмад Дониш сув танқислиги масаласида Бухоро амири Музаффархоннинг эътиборсизлигини ниҳоятда танқид остига олади. Амир Музаффар замонида Бухоро ободончилигида катта тушкунликлар юз тутганлиги, мамлакатнинг таназзулга юз тутиш сабаблари сифатида Бухоро суви руслар тасарруфига ўтиб, кўпчилик экинзорнинг сувсизликка учраганлиги, аксар деҳқонлар туманлардан Сирдарё бўйидаги русларга қарашли ерларга кўчиб ўтганликлари ва амалдорлар ҳамда солиқ йиғувчиларнинг жабр-зулми кучайиб кетгани, султонга тегишли ерлар экилмай қолганидан ташвишланади [5: 94]. Шунингдек, у ҳали булоқ(ариқ)дан сув чиқмасдан туриб, миробларнинг деҳқондан пора талаб қилишларини ҳам танқид қилади [5: 74].

Аҳмад Дониш шундай бир шароитда воҳа деҳқонлари ўз оилаларини тебратиш мақсадида ерга ишлов беришнинг турли усулларидан фойдаланганларини ҳам алоҳида қайд этади. Бироқ, аллома бирор-бир асарида ерга ишлов бериш усуллари тўғрисида батафсил маълумот бермаган.

Зарафшон дарёсининг қуйи қисмидаги камсувлик ҳамда амалдорларнинг бундан фойдаланиб амалга оширган таъмагирликлари деҳқонларни сув танқислигига қарши кураш йўлларини излаб топишга мажбур этади ва улар оғир ҳамда машаққатли меҳнат сарфлаб бўлса-да, воҳанинг деҳқончилик тарихида, диққатга сазовор бўла оладиган, ўзига хос антиқа янгиликни ихтиро этадилар.

Бу кундалик эҳтиёж учун энг зарур бўлган деҳқончилик маҳсулотларини суғориладиган ерларда сувсиз етиштириш агротадбирларининг ишлаб чиқилиши бўлиб, бу усул Бухоро соҳибкорлари ўртасида “қоқлама” номи билан машҳурдир [12: 171].

Сув танқислиги натижасида вужудга келган деҳқончилик агротехникасининг бу ажойиб усули ҳақида бир мунча муфассал тўхтаб ўтиш ўринлидир. Чунки у Зарафшон воҳаси деҳқонларининг водий агротехникаси бўйича, асрлар давомида тўпланган жуда бой тажрибаларидан бўлиб, қисман бўлса-да, деҳқончилик тарихини янги саҳифалар билан бойитади.

“Қоқлама” атамасини фақат XIX асрнинг иккинчи ярмига оид тарихий манбаларда тилга олинган. Манбаларда “қоқлама” шудгор маъносида ишлатилган. Аммо унинг оддий

шудгор маъносидаги тор тушунчадан фарқ қилиб, машаққатли меҳнат талаб қиладиган агротехниканинг дастлабки усулини англатиши тўғрисида фикр қилиб бўлмайди. Чунки манбаларда “қоқлама” сўзининг изоҳига оид аниқроқ маълумот берилмаган [12: 172].

Тарихчи, академик олим А.Р.Муҳаммаджонов ушбу атаманинг маъносини ва аҳамиятини ёритишда этнографик маълумотларга таяниш лозимлигини таъкидлайди. Олим 1958-1964 йилларда Бухоро вилояти Ромитан туманидаги Қоқиштувон, Хўжауббон, Қўрғон, Мирзая; Қоракўл туманидаги Қораун, Жиғачи ва бошқа туманлар қишлоқларида бир гуруҳ ёши улуғ деҳқонлардан тўпланган оғзаки маълумотларга таянган ҳолда “қоқлама” атамасига батафсил аниқлик киритиши мумкин бўлган муҳим маълумотлари қўлга киритади [12: 172].

Маълумотларга қараганда, “қоқлама” қуйидаги иш жараёнларини ўз ичига олган. Ерни “қоқлама”га тайёрлаш асосан эрта баҳорда, ҳали ердан нам қочмасдан бошланган. Ери шўрҳок туманларда эса иш ҳатто қишда бошланиб, ернинг шўрини ювиш учун аввало, агар имконият бўлса, яхоб суви берилган. Баҳор кириши билан шудгор қилишга киришилган. “Қоқлама” шудгор ерни бирин-кетин узлуксиз ҳайдашдан иборат бўлиб, у икки навбатга бўлинган. *Биринчи навбат*: ерни ҳайдаш то саратон (21 июнь – 22 июль)нинг охиригача давом этган. Ёзги чилланинг кириши билан ерни ҳайдаш вақтинчалик тўхтатилиб, шудгор қилинган майдон қирқ кун давомида қуёш нурида тобланиши учун танаффуз берилган. Буни маҳаллий деҳқонлар “лолабби шудгор” деб атаганлар. Бу даврда қуёшнинг ўткир нурлари ва ёзнинг жазирама ҳарорати билан шудгор қилинган майдон тупроғидаги зараркунанда ҳашоратлар ва бегона ўсимликларнинг тухум ва илдизлари деярли қуриб битган. Асад (23 июль – 22 август) ойи кириши билан *иккинчи навбат*: ер ҳайдаш бошланиб, у сунбула(23 август – 22 сентябр)гача давом этган. Ҳар иккала навбатда ҳам ер майдони 6-10 маротабача ҳайдалган (Баъзи бир деҳқонлар ерни то асад, яъни июл ойининг ўрталарига қадар 20 маротабагача ҳайдаб, сўнгра шудгорни бир ой муддатга ташлаб қўйганлар).

А.Р. Муҳаммаджонов шахсан суҳбатда бўлган, Ромитаннинг кекса соҳибкорларидан Зоиров Отамуродбобо, - “Хўжалиги бир мунча бақувват бўлган ўрта ҳол деҳқонлар ерни шудгор қилиб, “қоқлама”га тайёрлаш учун ҳар йили фақат омоч тишининг ўзидан 5-10 тасини эҳтиёт қилиб олдириб қўйишлари” – тўғрисида маълумот берган. Бундан англаш мумкинки, ерни қоқлама усулида шудгор қилиш жараёни нақадар машаққатли меҳнатни талаб қилган.

Сентябрь ойидан бошлаб, шудгор қилинган майдон бўйлаб, “мола” (шудгор қилинган ерни текислаш ва йирик кесакларни майдалаш учун ишлатиладиган агроускуна) босишга киришилган. Мола босиш ҳам ўз навбатида уч босқичга бўлинган. Аввало махсус тишли мола билан шудгорга 8-10 маротаба узунасига ҳамда кўндалангига мола босилган. Бухоро деҳқонлари буни “чапирост” усулидаги “дондона мола” деб юритганлар. Дондона мола шудгор кесакларини майдалаш учун ишлатилган. Кўп маротаба ҳайдалган ва қайта-қайта дондона мола юргизилган ер майдони натижада майда тупроққа, яъни “ҳок”ка айланган. Шу билан ерни “қоқлама”га тайёрлаш учун олиб борилган асосий ишлаш жараёни тугаган.

“Қоқлама”га тайёрланаётган ернинг тупроғини тобига келганини аниқлаш учун, одатда деҳқонлар ўрта ҳажмли кесакни юқорига отиб, шудгорга ташлаб кўрганлар. Шудгорга тушган кесак агар тупроққа ботиб, қўмилиб кетса, у вақтда ер майдони етилган деб ҳисобланган. Бундай шудгорга қадам қўйилса, киши оёғи тиззасигача тупроққа ботиб кетган. Экишдан аввал “чапирост” (“чап ва ўнг”)усулида ерга иккинчи навбат мола босилиб, унинг сони 6-8 маротабагача етказилган. Сентябрь ойининг охиридан бошлаб эса, ерга уруғ сепилган. Уруғдан сўнг тишли мола билан учинчи навбат 2-3 маротаба яна мола босилган. Шу билан қарийб олти ой мобайнида давом этган машаққатли ва мураккаб агротадбирлар жараёни ўз ниҳоясига етган.

Экин майдонининг бу қадар синчиклаб ишланиши, “қоқлама”га экилган экинларни қишки ва баҳорги ёғингарчилик ҳисобига етарли намлик билан таъминлаш имконини берган. Чунки қайта-қайта ҳайдаланиши натижасида майда заррачаларга айланган тупроқ

бир неча маротаба юргизилган моланинг оғир зарби билан зичланиб, ердаги намликнинг ортиқча парланишига йўл қўймас ва намликни ўзида узоқ вақт сақлаш имконини берар эди. Деҳқонларнинг сўзича, ернинг намини ҳатто шамол ҳам кўтармаган. Натижада “қоқлама”га экилган бошоқли экин кузнинг ўзидаёқ униб чиқиб, қишда илдизли панжалаб, баҳорда фаол ўсиб, ёзнинг иссиқ ҳарорати бошламасданоқ бошоқ тортиб, дон қотгунга қадар суғоришга муҳтож бўлмай, етарли намни ернинг ўзидан олган.

“Қоқлама”га донлик экинлардан асосан буғдой ва қисман арпа экилиб, улар кейинги йилга ҳосил тўккан. Шунинг учун ҳам “қоқлама”га экилган экинни маҳаллий деҳқонлар “солий” ёки “йиллик” деб аташган. Кекса деҳқонларнинг фикрича, “қоқлама”га экилган буғдой суғориладиган майдоннинг ҳосилидан кам бўлмаган [12: 173]. Аксинча, суғориладиган ердан кўра кўпроқ ҳосил берган. Чунки, бундай усулда ерга қадалган уруғ илдизи жуда яхши ривож топган.

Бухоронинг кам сувли туманлари: Ромитан, Хайработ, Жондор ва Қоракўлда “қоқлама” усули жуда кенг жорий этилган бўлиб, айниқса Қоракўлда туманида ғалла деярли “қоқлама”да етиштирилган.

Қоракўлнинг кекса деҳқонларидан Мулла Бердибобонинг гувоҳлик беришича, - “Қоқламани Қоракўл деҳқонлари кашф этган” [12: 173]. Таъкидлаш лозимки, “қоқлама”нинг кашф этилиши, туманларнинг сув таъминотидаги имконияти билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, асрлар давомида деҳқончилик агротехникасида тўпланган жуда бой тажрибалар асосида юзага келган ноёб кашфиёт сифатида қараш лозимдир.

Тарихий манбаларда берилган айрим маълумотлар ҳамда Бухоро воҳаси бўйлаб тўпланган этнографик маълумотларга қараганда, XIX асрнинг иккинчи ярми ҳамда XX аср бошларида Зарафшон дарёсининг қуйи оқимидаги суғориш тизимларида деҳқончиликда “қоқлама” усулидан кенг фойдаланилган.

Демак, суғориладиган ерларда ниҳоятда оғир меҳнат талаб қиладиган “қоқлама” усули билан донли экинларни сувсиз етиштириш, Зарафшон водийсининг қуйи қисми деҳқончилик тарихида, Бухоро соҳибкорларининг доимий сув танқислигига қарши ихтиро қилган агротехниканинг ўзига хос ажойиб тадбирларидан бўлиб, Бухоронинг суғорилиш тарихини ўрганишда алоҳида ўрин тутади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, XX ўрталарида сув ресурсларидан оқилона фойдаланмаслик натижасида бугунки кунда бутун ер юзида ва шу жумладан мамлакатимизда ҳам сув танқислиги муаммоси тобора авж олиб бормоқда. Йирик саноат корхоналари фаолиятининг жадаллашуви натижасида глобал иссиқлик тобора хафв солиб, бу ўз навбатида сув ҳамда озиқ-овқат танқислигига олиб келмоқда. Албатта, ушбу муаммони бартараф этиш бўйича олимлар жуда кенг қамровли илмий изланишларни олиб бормоқдалар ва самарали инновацион ғояларни илгари суриб амалиётда жорий этмоқдалар. Бу бўйича уларга кўмакчи сифатида сувдан самарали фойдаланишни тартибга солиш ва тегишли чора-тадбирларни амалга ошириш мақсадида ҳукуматимиз таркибида алоҳида Сув хўжалиги вазирлиги ташкил этилди. Биз юқорида баён этган ерга ишлов беришнинг “қоқлама” усули машаққатли меҳнат талаб этишини таъкидлаб ўтдик. Бироқ, ушбу усул авдодларимизнинг ҳаёт тажрибасидан муваффақиятли ўтган бўлиб, ўз навбатида сувни тежашга хизмат қилган ва самарасини берган. Шу нуқтаи-назардан ўтмиш тарихимизда авдодларимиз томонидан сув муаммосини бартараф этиш ҳамда суғорма деҳқончилик маданиятини шакллантириш борасида эгаллаган тажрибаларига ҳам соҳа вакиллари томонидан эътибор берилса, ўйлаймизки фойдадан холи бўлмайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Анвармирзо Ҳусаинов. Амударёни янги ўзандан оқизиш лойиҳасининг маъно-мазмуни // “Адабиёт газетаси”, № 4. 2018 йил 14 март.
2. Аҳмади Дониш. Асарҳои мунтаҳаб. – Сталинобод.: Нашрдавточик, 1959. – 287 с.
3. Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш тарихидан. – Тошкент.: ЎзССР ФА, 1961. – 95 б.

4. Гневушева Е.И. Забытый путешественник, Жизнь и путешествия Петра Ивановича Пашино. Москва.: “Географическая литература”, 1958. – 112 с.
5. Дониш А. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи. Қиёмиддин Йўлдошев таржимаси. – Тошкент.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2014. – 144 б.
6. Дониш А. Наводирул вақое. Форс тилидан А.Ҳамроев ва А.Шокиров таржимаси. – Тошкент.: “Фан”, 1964. – 411 б.
7. Дониш А. Путешествие из Бухары в Петербург. Перевод с таджикского М.Н. Османова и Л.Н. Демидчика. – Сталинобад.: “Таджикиздат”, 1960. – 300 с.
8. Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии периода присоединения её к России (Бухара). – Ташкент.: «Наука», 1965. – 75 с.
9. Жумаев А., Жумаева Н. Аҳмад Дониш асарларида сув таъминоти масалалари // Аҳмад Дониш – XIX асрнинг буюк мутафаккири: Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. 2-китоб. – Бухоро.: 2007. – Б. 117.
10. Ирригация Узбекистана. Развитие ирригации в комплексе производительных сил Узбекистана. 4-томлик. I-том. – Ташкент.: “Фан”, 1975. – С. 600.
11. Камол Айни. Встречи Ахмада Дониша с П.И. Пашино // Народы Азии и Африки. 1963. №6.
12. Муҳаммаджонов А. Қуйи Зарафшон водийсининг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Фан”, 1972. – 375 б.
13. Наимов И. Аму-Бухоро каналининг илк лойиҳаси // “Бухорои шариф газетаси”, 2012. - №6.
14. Наимов И. Аҳмад Донишнинг “Манғит амирлари тарихи” асарида сув ислоҳоти масаласи // «GLOBAL SCIENCE AND INNOVATIONS 2019: CENTRAL ASIA», МАТЕРИАЛЫ VI Международной научно-практической конференции. IV-том. – Нур-султан, 2019. – С. 91-96.
15. Наимов И. Моҳир муҳандис // “Муҳофаза+”, 2019. - №8.
16. Раджабов З. Выдающийся просветитель таджикского народа Ахмад Дониш. – Сталинобод.: “Ирфон”, 1961. – 221 с.

MO‘G‘ULLAR ISTILOSI VA HUKUMRONLIGI DAVRIDA BUXORO VOHASIDAGI TURK-MO‘G‘UL QABILALARINING O‘RNASHUVI XUSUSIDA

Orziyev Mahmud Zayniyevich
Buxoro davlat universiteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasi dots.nti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Hamdavov Dilmurod Bobomurod o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti “Arxeologiya va Buxoro tarixi” kafedrasi II-Bosqich magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada Chingizxon boshchiligidagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining Movarounnahrga bostirib kirishi, ushbu siyosiy jarayonlarda Buxoro vohasi tarixi, shuningdek, Buxoro vohasiga kelib o‘rnashgan turk-mo‘g‘ul qabilalari, ularning Chig‘atoy ulusi siyosiy hayoti va o‘zbek xalqining etnik shakllanishida ishtirok etishi masalalari xususida fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, istilo, turk-mo‘g‘ul, urug‘-qabila, Buxoro vohasi, hokim, joylashuv, “Katta o‘g‘illar yurishi”, ulus, boshqaruv

Chingizxon (1155-1206/1227 yy) boshchiligidagi turk-mo‘g‘ul qabilalari tomonidan Movarounnahrni istilo qilinishi aslida qon-qarindosh urug‘-qabilalarning o‘zaro kurashlari bo‘lib, istilo natijasida yagona saltanat vujudga kelgan edi. Ulkan saltanatni Chingizxon vafotidan oldinroq to‘rt o‘g‘li o‘rtasida taqsimlagan bo‘lib, O‘rta Osiyo hududlari uning ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga ulus sifatida berilgan. Tarixiy adabiyotlardagi ma’lumotlarga tayanib, Chingizxon vafotidan keyin ko‘pgina hududlar o‘z mustaqilliklarini tiklab olgan deb, xulosa qilish mumkin.

Bunday xulosaga kelishimizning asosiy sababi O‘qtoy (Ugedey 1186-1229/1241 yy) hoqon bo‘lgandan so‘ng, harbiy yurishlar davom ettirilgan va qo‘shin xan (xitoy)liklar, qipchoqlar, bajigid, ruslar, asudlar, mojarlar, kashmirliklar, serkeliklar va yana bir qancha xalqlar qatorida buxoroliklarni ham bo‘ynsundirish maqsadida katta qo‘shin yuborganligiga oid fakt sabab bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, Ugedey hoqon tashkil etgan harbiy yurish 1235 yilda sodir bo‘lib, tarixiy adabiyotlarda bu harbiy yurish “Katta o‘g‘illar yurishi” degan nom bilan keltirib o‘tilgan[1]. Bundan tashqari Chig‘atoyxon boshqaruvi davrida Buxoro va Samarqand hududlari uning ulusi tarkibiga dastlabki davrlarda kirmaganligiga oid qarashlar ham mavjud bo‘lib, taniqli olim V.V. Bartold ma’lumotlarida, O‘qtoy (Ugedey) hukumronligi davrida Movarounnahrni Chig‘atoy emas, balki hoqon tomonidan tayinlangan shaxslar boshqargani keltirilgan. Ya’ni, Movarounnahrning boshqaruvchisi Xazar-Buqa bo‘lib, u asosan Naxshab yaqinidagi yaylovlarda yashaganligi keltirilgan. Xitoylik Chingsang Tayfu va Buqa Nusha Samarqand va Buxoro viloyatlari hokimlari bo‘lganlar[2]. Ya’ni, Chig‘atoy Movarounnahrni o‘ziniki qilib olguncha siyosiy jihatdan Movarounnahr aslida ulug‘ hoqon O‘qtoyning mulki bo‘lib hisoblangan. Chig‘atoyxon esa, bu hududlarni o‘ziniki qilib olgan. Siyosiy jihatdan Movarounnahr 1238 yilda Chig‘atoy ulusiga qo‘shib olingan bo‘lib, aslida bu Buxorodagi Mahmud Torobiy qo‘zg‘olonidan so‘ng yuz bergan[3]. Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni bostirilgandan so‘ng, Chig‘atoy Mahmud Yalavochni 1238 yilda oliy hoqondan so‘ramay Movarounnahr boshqaruvidan olib tashlagan. O‘qtoy shundan so‘ng Movarounnahrni bir qismini unga inju qilib bergan. Ammo, Munke hoqon (1251-1259 yy) davrida bu yerlar hoqon boshqaruviga qaytarilgan va Ma’sudbek boshqara boshlagan[4]. Ammo, Buxoro endilikda Chig‘atoy xonlari tasarrufida qolavergan.

Mo‘g‘ullar istilosi turk-mo‘g‘ul qabilalarining Yevroosiyo mintaqasida joylashuvi, turli urug‘-qabilalarning turli hududlarga ko‘chib borib joylashuvi va turli xalqlar jumladan, o‘zbek xalqi etnik shakllanishida ishtirok etishi sodir bo‘lgan. Buxoro va uning atroflari ham o‘zbek xalqining shakllanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etgan hududlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Mo‘g‘ullar istilosiga qadar Buxoro atroflarida o‘g‘uzlarning yashaganligi, shuningdek, ular hozirgi Turkmanistonning shimoliy hududlarida ham o‘rnashganliklari tarixiy adabiyotlarda keltirilgan. XIV-XV asrlarda bu hududlarga Sirdayobo‘yi va Dashti Qipchoq hududlaridan yana bir qancha o‘g‘uz-turkman guruhi kelib o‘rnashgan. Tarixiy adabiyotlarda ular “Nurota turkmanlari” nomi bilan ma’lum ekanligiga oid fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan[5]. Movarounnahrga kirib kelgan yana bir turkiy qabila qorluqlar mo‘g‘ullar istilosi arafasida o‘troqlasha boshlagan bo‘lib, XIII asr boshlarida o‘troqlashgan bo‘lsalarda, Samarqand, Buxoro, Surxondaryoning cho‘l-dasht mintaqalaridagilari ko‘chmanchi hayot tarzini davom ettirganlar[6]. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga tayanib, mo‘g‘ullar istilosi arafasida Buxoro vohasida o‘g‘uz-turkman va qorluqlar aholining asosiy qismini tashkil qilgan deb xulosa qilish mumkin.

Mo‘g‘ullar hukumronligi davrida arablarning Tait qabilasi ham Movarounnahr ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan deb hisoblash mumkin. Chunki, mustaqil mo‘g‘ul xonlaridan so‘nggisi bo‘lgan Qozonxon hozirgi Muborak shahri yaqinida o‘zining Zanjirsaroy deb nomlangan qasridan turib Chig‘atoy ulusini boshqargan. Ammo, uning shafqatsizligi sababli amirlaridan bo‘lgan Qazag‘an qo‘zg‘olon qilib uni qatl ettirgan. Mo‘g‘ullar davri tarixchisi Rashiddidin keltirib o‘tgan ma’lumotlarga qaraganda, Qozonxonga qarshi qo‘zg‘olon ko‘targan amir Qazag‘an ham shu urug‘ yetakchisi hisoblangan. Taniqli olim G.Ye. Grumm-Grjimaylo esa ehtimol Tait

[1] Чннгисиада: свод свидетельств современников / Пер., сост. и коммент. А.Мелехина. – М.: Эксмо, 2009. – С. 218-219; 354.
[2] Бартольд В.В. Сочинения. Том I. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Издательство восточной литературы, 1963. – С. 543-544.
[3] Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. - Б.: Кыргызстан, 1995. – С. 19.
[4] Энхчимэг Ц.Ц. Чагатайский улус (1221-1346) // Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата исторических наук. - Улан-Удэ, 2004. – С. 12.
[5] Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи (ўқув-қўлланма). – Т.: Унивеситет 2007. – Б. 263.
[6] Шаниязов К. Узбеки-Карлуки. (Историко-этнографический очерк). – Т.: Издательство “Наука” Узбекской ССР, 1964. - С. 35.

qabilasini arab bo‘lsa kerak degan fikrga kelgan[1]. Taniqli etnograf olim Karim Shoniyozov esa, Tait qabilasi vakillarini ko‘p soli bo‘lishlari barobarida ularni XIV-XV asrlarda Movarounnahrning Buxoro va Samarqand shaharlarida Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida tarqalib yashaganliklarini keltirib o‘tgan[2]. Shunday bo‘lsada, amir Qazag‘anning arab qabilasidan ekanligi bahsli bo‘lib, Chig‘atoy ulusida xon saroyi qo‘riqchilarining qavchin urug‘i vakillaridan bo‘lishi zaruriy qoida bo‘lganligi ushbu fikrlarni bahsli ekanligini ko‘rsatib beradi. Bundan tashqari mo‘g‘ullar hukumronligining so‘nggi davrlarida Xorazm va Buxoroda Do‘rman qabilalarining o‘rnashganligi ma’lum. Ammo, bu qabila Chig‘atoy ulusida siyosiy parokandaliklar natijasida kelib qolganlar[3]. Afsuski Buxoro vohasida ularning qachon va qay tariqasida kelib o‘rnashganligiga oid ma’lumotlarga hozircha duch kelmadik. Arg‘un qablasi xususida ham shunday xulosa berish mumkin bo‘lib, arg‘unlar asosan Buxoro vohasining janubiy-g‘arbiy qismida asosan Qorako‘lda yashaganlar. Bobur davrida bu qabilaning amirlaridan biri Sulton Husayn Qorako‘l hokimi bo‘lgan[4].

Xulosa qilib aytish mumkinki, Buxoro vohasi hududlarida mo‘g‘ullar istilosiga qadar va istilo davrida bir qator urug‘-qabilalar kelib o‘rnashgan bo‘lib, ular o‘g‘uzlar, qorluqlar, arablar (Tait qabilasi), arg‘unlar va boshqa qabilalarni misol tariqasida keltirib o‘tishimiz mumkin. Arlot qabilasi va uning Buxoro vohasida o‘rnashishi esa alohida mavzu bo‘lib hisoblanadi. Ushbu urug‘-qabilalar o‘zbek xalqi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etganlar.

БУХОРО ВИЛОЯТИДА СОВЕТ МАКТАБИ ТАРИХИ

Бобожонова Феруза Хаятовна
Бухоро давлат университети доценти, тарих фанлари номзоди

АННОТАЦИЯ. Ушбу мақолада Бухорода совет ҳокимияти йилларида таълим масалалари ёритилади. Бу даврдаги мактаблар бинолари, таъминоти, дарс ва дарсликлар, ўқитувчилар уларга берилган маошлар, ўқитувчилар ва ўқувчиларларнинг аҳволи масалалари баён этилган. Мақолада мактаблар тўғрисида қабул қилинган бир қанча қарорлар келтирилган. Бухородаги бошланғич тўлиқсиз ўрта ва ўрта мактаблар йиллар кесимида таҳлил қилиб берилган. Мактаб таълимида ислоҳотчилик масалалари ҳар томонлама ёритиб берилган. Бухорода 1938-1985 йилларда халқ таълимини ривожлантириш йўлида қилинган ҳаракатлар ушбу мақолада ёритилган.

Калит сўзлар: мактаб, совет мактаб, маориф, совет ҳукумати, ўқувчи, ўқитувчи, синф, бошланғич таълим, дарсликлар, Ўзбекистон ССР, ўрта мактаблар, ислоҳотчилик, таълим, ўқув йили, кечки мактаблар, савод, илм.

Янги Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар туфайли Бухоро воҳасида совет ҳокимияти даврида маънавий-маърифий тадбирларни амалга ошириш жараёнида миллий урф-одатлар, қадриятларни мафкуравий жиҳатдан камситилганлигини тарихий манбаларга таянган ҳолда ўрганиш долзарб масалалардан биридир. Мактаб — ўқитувчи раҳбарлигида ёш авлодга маълумот бериладиган ва тарбиявий ишлар олиб бориладиган ўқув тарбия муассасаси ҳисобланади. Шундан келиб чиқиб, Ўзбекистонда таълим тарихига назар ташлайдиган бўлсак, таълим тизими анъанавий таълим берувчи мактаблар (эски мактаблар), жадид, рус-тузем мактаблари ва совет туридаги мактаблар мавжуд бўлган.

[1] Грумм-Гржимайло Г.Е. Западная Монголия и Урянхайский край. Том второй. Исторический очерк этих стран в связи с историей Средней Азии. // Л.: 1926. - С. 539.

[2] Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни / Таҳрир ҳайъати Д.А. Алимова, Э.Ф. Арифханова, У.С. Абдуллаев ва бошқ. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 382., Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи (ўқув-қўлланма). – Т.: Унивеситет 2007. – Б. 400.

[3] Грумм-Гржимайло Г.Е. Западная Монголия и Урянхайский край. Том второй. Исторический очерк этих стран в связи с историей Средней Азии. // Л.: 1926. - С. 533.

[4] Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома. – Т.: Ўзбекистон фанлар академияси нашриёти, 1960. – Б. 78., Бобур Заҳириддин Муҳаммад. Бобурнома: [Ўрта-ёшдаги мактаб боалари учун] / [Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев; муҳаррир А.Ўктам]. – Т.: Юлдузча, 1989. – Б. 23.

Совет ҳукумати совет мактабини ўзбек халқининг маданиятини юксалтиришда воситаларидан бири бўлиб қолади деб ҳисоблар эди. Ўзбекистонда совет мактабларининг янада кенгайиб бориши учун муҳим шартлардан бири ўзбек тилида дарсликлар ва бошқа ўқув адабиётлари яратиш, ёзувни анъанавий (эски) диний мактаб анъаналаридан тамоман халос қилиш эди. Бунинг учун советлар араб графикасига асосланган ёзувни янги алфавит асосига кўчиришга тайёргарлик кўрилиши лозим эди. Ўзбек совет мактабини янада кўпайтириш маҳаллий миллат кишиларидан ўқитувчилар тайёрлашга қаттиқ эътибор беришни талаб этар эди.

Умумий бошланғич таълимни жорий этиш, саводсизликни тугатиш каби ислоҳотлар ҳам ижобий, ҳам салбий тарзда кечди. Масалан, янги совет мактаблари муаллимларга муҳтож бўлса-да, анъанавий (эски) мактаблар ва жадид усулидаги мактаблар муаллимларидан фойдаланмади, аксинча, уларга “душман” сифатида қаралди. Бухорода 1938-1940 йилларда халқ таълимини ривожлантириш йўлида катта ишлар амалга оширилди, бу ўртада икки марта (1929-1940) алифбо алмашинувини бошдан ўтказишга тўғри келди. 1930 йилларнинг охирига келиб, Бухорода 82 та бошланғич, тўлиқсиз ўрта ва ўрта мактаблар фаолият кўрсатарди.

1930-1931 ўқув йилида ўқувчилар сони 6590 нафарни, шу жумладан 1900 нафарни қиз болалар ташкил этди. Бу вақтга келиб умумтаълим мактабидан ташқари, политехник ва касб ҳунар мактаблари ҳам ташкил этилди. Бухоро вилоят халқ таълими учун 1941 йилда 29,4 миллион сўм, 1945 йилда 53,7 миллион сўм маблағ давлат буюджетидан ажратилган. Ўзбекистонда таълим тизимини яхшилаш учун ўнлаб қарорлар қабул қилинарди. Бироқ, бу қарорлар миллий мактабларда тўлиқ бажарилмасди. Мактаблар урушдан кейин ҳам дарсликлар билан тўлиқ таъминламади. Моддий ўқув базаси русийзабон мактабларникидан анча паст эди. Ўрта мактабни битирувчилари орасида эрта турмушга берилиши туфайли қизлар камчиликни ташкил қилар эди. Маорифни ривожлантиришда маҳаллий миллатларга паст назар билан қараш совет тузуми сиѐсатининг пинҳона фаолиятига яширинган эди. Кейинги йилларда очилган архив маълумотларида собиқ иттифоқдаги республикаларда онгли, маданиятли, ҳурфикрли кишиларни бўлишига йўл қўймаслик ҳақидаги маҳфий кўрсатмалар бежиз эмас эди. 1985 йилда олий ўқув юртлари сони 42 тага етди. 1946-47 ўқув йилида республикада 4483 мактаб бўлиб, 212.000 ўқувчи ўқиган бўлса, 1965-66 ўқув йилида 9716 га ундаги 373 ўқувчилар сони 2.476.000 кишига етди. Олий ўқув юртларида талабалар сони 21.190 дан 168.800 тага етди. Бу миқдор ―маҳаллий миллат йигит қизлари билим учун эмас, диплом учун қизиқсин деган ақидага асосланганлигини кўрсатади. Шундай бўлишига қарамай Ўзбекистонликларни, хусусан ўзбекларни илмга чанқоқлиги ҳар қандай сунъий тўсиқларни енга бошлади.

Хулоса қилиб айтганда, совет мактаб таълими соҳасида ўзига яраша ва камчиликлар билан бир қаторда кўп мактабларнинг қурилиши, мактаб ишлариги масъулият билан ёндашув масалаларини кўриш мумкин.

ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА АНГЛОЯЗЫЧНЫМИ ВОСТОКОВЕДАМИ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ОРИЕНТАЛИСТОВ)

Мубинов Мухаммадали Акобирович
Базовый докторант
Бухарский государственный университет

Аннотация. В данной статье с точки зрения исторической науки анализируется роль и значение произведений англоязычных востоковедов XIX века, а также современных исследователей в изучении политической и социально-экономической истории Бухарского эмирата. Кроме этого, на научной основе раскрывается процесс широкого распространения и популяризации сведений о Бухарском эмирате в странах Европы посредством источников, созданных на английском языке.

Ключевые слова: Бухарский эмират, дипломат, путешествие, востоковедение, англоязычные востоковеды, ориентализм, социально-экономическая жизнь, исторический источник, деконструкция.

Среди среднеазиатских ханств Бухарский эмират являлся одним из самых могущественных в политическом, социально-экономическом отношении и имел значительное влияние в регионе Центральной Азии. Начиная с XIX века, Бухарский эмират находился в центре внимания многочисленных зарубежных исследователей. Иностранные англоязычные востоковеды, участники научных экспедиций, а также разведчики, независимо от своих целей, посещали Бухарский эмират с намерением всестороннего изучения и по итогам своих поездок создали обширную базу источников. Именно благодаря их трудам читатели в странах Европы получили представление о Бухарском эмирате. Сам факт существования такого крупного государства, как Бухарский эмират, и сведения о его политической, социально-экономической и культурной жизни стали широко известны и популярны в Европе в контексте истории государств Востока с их экзотическими городами.

В XIX – начале XX века Бухарский эмират привлекал множество английских авторов, исследователей, дипломатов, которые считали его важным политическим центром и сердцем Центральной Азии. Эти исследователи описывали амиров как образованных и культурных правителей, управляющих просвещенным и мудрым обществом. В частности, работы XIX века таких востоковедов, как Арминий Вамбери, Фрэнсис Скрайн и Эдвард Денисон Росс, а также современные исследования Андреаса Вильде, проводились именно с точки зрения востоковедения.

Одним из крупных востоковедов, который исследовал различные аспекты Бухарского эмирата и представил свои выводы, был венгерский ученый, путешественник и лингвист Арминий Вамбери. В 1863 году он посетил эмират и, ознакомившись с его политической, социальной и культурной жизнью, состоянием различных языков, городов и регионов, а также с религиозными вопросами, связанными с исламом, собрал обширный материал. В 1864 году он опубликовал свою работу «Путешествие по Центральной Азии» [1] в Лондоне. А.Вамбери стал автором множества произведений, статей и очерков по истории Центральной Азии. Его вклад в развитие востоковедения был весьма значительным, поскольку его исследования стали причиной изменения содержания концепции «Ориентализм» или «Востоковедение», означавшей британский колониализм в XVIII веке. После исследований А.Вамбери востоковедение стало самостоятельной научной дисциплиной, а изучение истории Бухарского эмирата стало частью развития данной области в европейских странах. Более того, его труды сыграли ключевую роль в публикации обширных сведений о Бухарском эмирате в крупных европейских издательствах, что в дальнейшем привело к их чтению и изучению широкой аудиторией и научным сообществом.

Важным вкладом в изучение истории Бухарского эмирата с точки зрения исторического метода является совместная работа историков и лингвистов Ф.Скрайна и Э.Росса. Ф.Скрайн, офицер британской армии, долго служивший в Индийской армии, а также работавший британским послом в Санкт-Петербурге, неоднократно посещал Центральную Азию, в том числе Бухару, Самарканд и другие города. О своем путешествии и его результатах он написал работу под названием «Сердце Азии, история Российского Туркестана и ханств Центральной Азии с древнейших времен» [2]. Это произведение он подготовил в соавторстве с британским коллегой, лингвистом и востоковедом Э.Россом, который был специалистом по истории и культуре Ирана и Центральной Азии. Э. Росс был заинтересован в изучении ираноговорящего населения и его культуры в этом регионе, поэтому посвятил множество исследований Центральной Азии.

В своем произведении Ф.Скрайн и Э.Росс сосредоточили внимание на политической жизни Бухарского эмирата, его административно-территориальном делении и политической власти эмиров. Кроме того, Ф.Скрайн анализировал политическое влияние

Российской империи на политическую и социально-экономическую жизнь Бухарского эмирата после её колониальных действий в Туркестане.

Также следует отметить исследования профессора Андреаса Вильде, который внёс значительный вклад в изучение истории Бухарского эмирата и историю Центральной Азии. А.Вильде, являвщийся профессором Бамбергского университета в Германии, в своих важных статьях «Бухарский эмират» и «Династия Мангытов» анализирует историю Бухарского эмирата, различные подходы в местной историографии, а также особенности политической, социальной и экономической жизни на фоне зарубежной историографии и исследований Центральной Азии. Кроме того, исследование основано на различных первичных источниках и хрониках, предоставляющих информацию об административных и территориальных структурах мангытов, а также изучает эволюцию исторических представлений о Бухаре [3]. Данное издание является важным современным исследованием в области востоковедения, которое сформировало новые подходы к истории Бухарского эмирата в европейских странах и США, а также значительно увеличило интерес к исследованию истории Бухарского эмирата. Одной из важных публикаций А.Вильде в рамках данного исследования является статья «Династия Мангытов», в которой рассмотрены работы местных историков, таких как Мухаммад Вафо Карминаги, Мирза Шамс Бухари, Ахмад Дониш, Мирза Абдулазим Сами, Мухаммад Якуб, Мулла Мухаммад Шариф и других. Также автор не обошёл стороной анализ работ на русском и английском языках, современных публикаций и исследований [4]. А.Вильде через свои вышеупомянутые исследования продемонстрировал, что история Бухарского эмирата является важным объектом исследования не только в Узбекистане, но и в зарубежных странах.

Таким образом, изучая многочисленные работы англоязычных исследователей, можно заключить, что большинство из них подчеркивают высокую культурную ценность Бухарского эмирата, его архитектурные памятники, а также важность роли эмирата как основного фактора в регионе. В целом, англоязычные авторы создали богатую литературу, которая играет важную роль в отображении истории Бухарского эмирата и его сложной и многогранной роли как важного государства Центральной Азии.

Список использованных литератур

1. Arminius Vambery. Travels in Central Asia, being the Account of a Journey from Turkoman desert on the Eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand. London. John Murray, Albemarle Street. 1864.
2. Francis Henry Skrine, Edward Denison Ross. The Heart of Asia: A History of Russian Turkestan and the Central Asian Khanates from the Earliest Times. London. 1899.
3. Andreas Wilde. The Emirate of Bukhara // Oxford Research Encyclopedia of Asian History. Oxford University Press USA, 2017. -21 pages.
4. Andreas Wilde. Manghit dynasty // Encyclopaedia of Islam Three, 2020. -P.113-117.

TURKISTON DAVRIY MATBUOTI BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISH MANBASI

Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Tel: +998993751997
sherzodnosirov094@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligi tarixining so`nggi davrlari ya’ni Amir Sayyid Olimxon hukmronligi davri (1911-1920) tarixini o`rganishda Turkistonda nashr etilgan davriy matbuot materiallarining manba sifatidagi o`rnini tahlil qilingan. Asosan, “Turkiston viloyatining gazeti”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg`ona”, “Samarqand”, “Hurriyat”, “Ulug` Turkiston”, “Ishtirokiyun”, “Mehnatkashlar tovushi” gazetalari va “Oyina” jurnallarining Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o`rganishdagi materiallari tahlilga tortilgan.

Kalit so`zlar: gazeta, jurnal, iqtisod, savdo, maishiy hayot, tibbiyot, yoshlar, Buxoro, Kogon.

Buxoro amirligi tarixini o`rganishda birlamchi manbalar qatorida davriy matbuot nashrlari ham muhim o`rin egallaydi. Buxoro amirligining 1912-yilga qadar bo`lgan tarixini matbuot orqali tahlil qiladigan bo`lsak, asosan Turkiston general-gubernatorligining rus tilidagi rasmiy nashri "Туркестанский ведомости" va uning o`zbek tilidagi ilovasi "Turkiston viloyati gazeti" kabilarnigina aytish mumkin. Bu davrga qadar nashr etilgan milliy matbuot nashrlari "Taraqqiy", "Shuhrat", "Osiyo", "Tujjor", "Xurshid" gazetalari uzoq muddat davomida nashr etilmaganligi va senzuraning yuqoriligi tufayli Buxoro amirligi tarixiga oid yetarli darjada maqola va xabarlar e'lon qilmaydi. "Tujjor" gazetasida Buxoro amirligi iqtisodiy ahyotiga oid ayrim ma'lumotlarni uchratsih mumkin.

Buxoro amirligi hududida 1912-1913 yillarda nashr etilgan "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalarida tabiiyki, Buxoro amirligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy tarixiga doir maqola va xabarlar e'lon qilingan. Shuning uchun ushbu maqolada Buxoro amirligi hududlaridan tashqarida bosilgan matbuot nashrlariga ko`proq urg`u beriladi. Turkiston mintaqasida 1913-yildan Samarqandda "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali bosila boshlagan bo`lib, ularning sahifalarida Buxoro amirligi tarixiga doir yetarli daajadagi ma'lumotlar mavjud. 1914-yildan Toshkentda "Sadoyi Turkiston" va Farg`onada "Sadoyi Farg`ona" gazetalari nashr qilindi. Mahmudxo`ja Behbudiy "Turkistonning egizak farzandlari" deya ta'riflagan ushbu ikki gazetada ham Buxoro amirligi tarixiga oid materiallar mavjuddir.

Turkistonda nashr qilingan keyingi jadid matbuoti organlari "Hurriyat" va "Ulug` Turkiston", bolshevicha ruhdagi "Ishtirokiyun" va "Mehnatkashlar tovushi" gazetalarida ham Buxoro amirligining tarixiga doir bir qator materiallar e'lon qilingan.

Yuqoridagi matbuot organlarining tahlili shuni ko`rsatadiki, Buxoro amirligi bilan bog`liq bo`lgan har bir siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat matbuotning diqqat markazida bo`lgan va imkon darajasida ushbu ma'lumotlar nashr sahifalarida yoritib borilgan. Ushbu matbuot nashrlarining ayrimlari Buxoro amirligining siyosiy hayotiga doir ma'lumotlarni ko`proq o`z sahifalari orqali mushtariylariga yetkazgan bo`lsa, ayrimlari Buxoro amirligining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti shuningdek, madaniy hayotiga oid bo`lgan maqola va xabarlarni ko`proq yetkazishga harakat qilgan.

Ushbu nashrlar orasida "Turkiston viloyati gazeti" tahlil qilingan 1910-yildan keyingi nashrlarida Buxoor amirligi bilan bog`liq barcha jabhalarda ma'lumotlar berib borishga harakat qilgan. Uning sahifalarida Buxoro amirligi siyosiy hayotiga doir ma'lumotlardan tortib, amirlikning iqtisodiy hayoti, bozorlaridagi savdo holati, amirlikning qishloq xo`jaligidagi muammolar va yutuqlar, yetishtirilayotgan mahsulotlar xususida ham ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari amirlikning ijtimoiy hayoti, aholining turmush darajasiga doir xabarlar ham gazetaning sahifalaridan o`rin olgan.

Turkistondagi jadid matbuot nashrlaridan bo`lgan "Samarqand" gazetasi va "Oyina" jurnali Buxoro amirligi xususida asosan ijtimoiy va iqtisodiy mavzularda materiallar e'lon qilib borgan. Ta'lim tizimi, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotni isloh qilish bilan bog`liq harakatlar va ularning natijalariga doir turli maqola va xabarlar yozilgan bo`lib, ular orasida Buxoro amirligi hududlaridan yuborilgan maktublar ham ko`pchilikni tashkil etgan.

"Sadoyi Turkiston" va "Sadoyi Farg`ona" gazetalari o`z sahifalarida Buxoro amirligi xususida ham materiallar berib borgan bo`lib, ularda asosan amirlikning iqtisodiy hayoti muhokama qilingan. Buxoro amirligida iqtisodiy hayot, qishloq xo`jaligi va dehqonlarning hayoti bilan bog`liq ma'lumotlar yuqoridagi gazetalarda yoritilgan.

"Hurriyat" va "Ulug` Turkiston" gazetalari nashr qilingan davrlarda siyosiy vaziyatning keskin o`zgarishi, Rossiya imperiyasida birin ketin sodir bo`lgan "fevral inqilobi" va "oktabr inqilobi" natitasida ushbu gazetalar diqqatlarini ko`proq siyosiy hayot bilan bog`liq vaziyatlarga qaratadilar. Tabiiyki ushbu jarayonlar Buxoro amirligiga ham ta'sir qilgan bo`lib, amirlik hududida ham siyosiy vaziyat avjiga chiqqan edi. Mazkur gazetalarda Buxoro amirligidagi 1917-

yil aprelda sodir bo`lgan “aprel voqealari”, hukumatning Yosh buxoroliklar bilan muosabatlari, 1918-yilda sodir bo`lgan “Kolesov voqeasi” va undan keyingi siyosiy taranglik bilan bog`liq xabarlarga keng o`rin ajratilgan. Shu bilan birga, ushbu gazetalarda kam bo`lsa ham amirlikning iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga doir ma’lumotlarni uchratish mumkin.

1918-yildan boshlab Buxoro amirligi o`zining mustaqilligini saqlab qolish uchun jiddiy kurashga kirishga majbur bo`ladi. Shu davrda nashr qilingan bolshevik ruhdagi gazetalar “Ishtirokiyun” va “Mehnatkashlar tovushi” kabi gazetalarda Buxoro amirligi siyosiy ahvoli, amalga oshirilayotgan tashqi siyosiy harakatlarni ko`proq yoritilganligini ko`rishimiz mumkin. Sotsializmni targ`ib qilishda Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayotning og`ir holatlari va oqibatlari xususidagi materiallar doimiy ravishda ushbu gazeta sahifalarida berib borilgan. Ushbu gazeta materiallaridan foydalanishda obyektivlik nuqtayi nazaridan tanqidiy ruhda yondashish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har qanday holatda ham Turkistondagi davriy matbuot materiallari Buxoro amirligining 1910-1920-yillardagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini o`rganishda birlamchi manbalar qatorida turadi. Sababi ushbu matbuot nashrlaridagi ma’lumotlar voqealarning ayni paytda sodir bo`lganlarini o`z mushtariylariga yetkazib borgan. Ularning muxbirlari ham Buxoro amirligi hududlarida yashab istiqomad qilgan shaxslar bo`lib gazetaga yuborayotgan ma’lumotlarni o`z ko`zi bilan ko`rgan yoki ishonchli kishilar vositasida qo`lga kiritgan hisoblandi. Bundan tashqari, yuqoridagi matbuot nashrlari o`z sahifalarida Buxoro amirligi tarixiga oid ma’lumotlarni Rossiya imperiyasida mashhur bo`lgan davriy matbuot organlari: “Sho`ro”, “Tarjumon” kabilardan olgan holatda boyitib borgan. Bu esa, ma’lumotlarning haqiqatga yaqinligini yanada oshishiga xizmat qiladi.

Xulosa o`rnida shuni ta’kidlash mumkinki, Turkiston davriy matbuoti Buxoro amirligining so`nggi amiri Sayyid Olimxon hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini yoritish manbasi bo`la oladi va tadqiqotlarda ulardan foydalanish taqdiqotning ilmiy qimmatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдирашидов З., Эгамқулова Н. Маҳмудхўжа Беҳбудий ва унинг “Ойина” журнали. –Т: 2019.
2. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар // Асарлар. 8 жилдлик. 1-жилд.– Тошкент: Ўз ССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1963.
3. Ҳалимова С. А. Убайдулла Асадуллахўжаев ва “Садойи Туркистон”. Монография. –Т: 2021.
4. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири – XX аср бошлари). Монография. –Т: 2021.
5. “Туркистон вилоятининг газети” га тузилган библиографик кўрсаткич (1870-1916 йиллар). Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти. –Т: 2008.

O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH MASALASI: BUXORO TARIXI MISOLIDA (1925-1991 YILLAR)

Abdishukurov Bobomurod Faxriddin o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
1-bosqich magistranti
https://orcid.org/0009-0007-0323-3618
Ilmiy rahbar: P.f.d., (DSc) S.A.Toshtemirova

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1925-1991 yillarda O‘zSSRda pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi Buxoro tarixi misolida ko’rib chiqilgan, shuningdek tadqiqotda sovet davrida mahalliy va markaziy hukumat siyosati, Xalq ta’limi tizimi hamda o‘qituvchilar tayyorlash institutlari faoliyati tahlil qilinadi. Buxoro viloyatida pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni, mavjud o‘quv muassasalari, kurslar va malaka oshirish tizimi, shuningdek, kadrlar tanqisligi va uning ta’lim sifatiga ta’siri o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, hokimiyat, Set Tandon, “sehrli chiroq”, moddiy-texnik baza, yangi o‘quv binolari, “qoldiq prinsipi”, ta’lim, tarbiya;

XX asrning birinchi va ikkinchi yarmida O‘zbekistonda pedagogik kadrlar tayyorlash masalasi mamlakatning ta’lim tizimi rivoji uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Sovet davrida ta’lim siyosati markazlashgan tarzda olib borilgan bo‘lib, har bir hududda, jumladan Buxoro viloyatida ham o‘qituvchilarni tayyorlash va malaka oshirish tizimi davlat tomonidan rejalashtirilgan va tartibga solingan. Pedagogik kadrlar tayyorlash nafaqat mahalliy ta’lim muassasalarining, balki markaziy hukumatning strategik maqsadlariga ham bevosita bog‘liq bo‘lgan. Buxoro hududi esa o‘zining tarixiy, madaniy va ma’rifiy an’analariga ega bo‘lib, pedagogik kadrlarni tayyorlashda o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. 1925–1991 yillar mobaynida viloyatdagi pedagogik institutlar, maktablar va kurslar orqali kadrlar tayyorlash jarayoni tizimli ravishda amalga oshirilgan. Shu bilan birga, mahalliy sharoit, kadrlar tanqisligi, malaka darajasi va ta’lim sifati masalalari doimiy e’tiborda bo‘lgan. Sovet hokimiyati yillarida har bir respublikada o‘z ko‘lami va ahamiyati bo‘yicha misli ko‘rilmagan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Buni hayotimizni ravshan o‘ylaydigan, hayotimizga xolis baho beradigan barcha e’tirof etadi. O‘zbekiston SSRda bo‘lgan Hindiston jamoat arbobi Set Tandon Sovet hokimiyati yillarida o‘z taassurotlarini shunday ifodaladi: “Uni shunga o‘xshash narsa bilan solishtirish qiyin, chunki Aladdinning “sehrli chiroq” yordamida ham bunday muvaffaqiyatga erishish qiyin[1]. Faqat sotsializmning ajoyib nomini olgan ijtimoiy tizimgina bunga erisha oladi”. Set Tandon Sovet hokimiyati davridagi ijtimoiy va ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarni yuqori baholagan bo‘lsa-da, bu baho bir tomonlama va idealizatsiyalangan deya baholanishi mumkin. Sovet davrida pedagogik kadrlar tayyorlash tizimi samarali bo‘lgan bo‘lsa-da, u ko‘pincha markazlashgan siyosiy nazorat ostida amalga oshirilgan va pedagogik yondashuvlarni ham siyosiy ideologiya bilan chambarchas bog‘lagan. Buxoro misolida ham ko‘rilganidek, mahalliy kadrlar yetishmasligi va markazdan yuborilgan o‘qituvchilarning hududga moslashishdagi qiyinchiliklar mavjud bo‘lgan. Shu bilan birga, ta’limdagi yutuqlar ko‘p hollarda ideologik maqsadlar bilan uyg‘unlashgan, pedagoglarning mustaqil ilmiy va metodik faoliyati cheklangan.

Buxoroda 1925-1940-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish yo‘lida katta ishlar amalga oshirildi, bu o‘rtada ikki marta (1929, 1940) alifbo almashinuvini boshdan o‘tkazishga to‘g‘ri keldi. 1930-yillarning oxiriga kelib, Buxoroda 82 ta boshlang‘ich, to‘liqsiz o‘rta maktablar faoliyat ko‘rsatardi. 1924-1925 o‘quv yilida O‘zbekistonda barcha tipdagi 908 ta maktab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1925-1926 o‘quv yilida maktablarning soni 1353 taga oshgan, shu jumladan, 867 ta boshlang‘ich, qolgani esa 7 yillik maktab bo‘lgan. Mavjud 75513 nafar o‘quvchining 4/3 qismi boshlang‘ich maktabda o‘qigan. 1924-1925 yilda respublikaning qishloqlarida 640 ta maktab faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1925-1926 yilda 1052 ta maktabda darslar olib borilgan. 1925-1928 yillarda O‘zbekistonda 271 ta maktab qurilgan[2]. 1930-yil 3-avgustda “Qishloqda maorif xodimlarining moddiy ahvolini yaxshilash to‘g‘risida”gi O‘zSSR MIQ ning qarori qabul qilingandan so‘ng maorif ishlari jonlana boshlandi. 1930-yilda Buxoroda birinchi oliy o‘quv yurti Pedagogika institutining ochilishi muhim ahamiyat kasb etib, pedagog kadrlarni tayyorlash ishlari yo‘lga qo‘yildi. Buning uchun Toshkent va Moskvaning oliy o‘quv yurtlari katta yordam ko‘rsatdi. Umuman olganda, 1925–1940-yillardagi ta’lim siyosati hududlardagi savodxonlikni oshirish, maktablar tarmog‘ini kengaytirish va pedagogik kadrlar tayyorlash yo‘nalishida sezilarli yutuqlarga olib keldi. Shu bilan birga, alifbo almashinuvi, o‘qituvchilar tayyorlov sifatiga ta’sir qiluvchi qisqa kurslar, moddiy-texnik bazaning yetishmasligi va ta’limning ortiqcha mafkuraviy tus olishi kabi omillar bu davr ta’lim jarayonining murakkab va ziddiyatli jihatlari sifatida namoyon bo‘ladi.

[1] Ишанов А.И. Бухарская народная Советская республика. Т., Узбекистан, 1969, 378-380 стр. https://www.academia.edu/105641585/Ишанов_А_И_Бухарская_народная_советская_республика_Ташкент_1969

[2] H.To‘rayev., B.Mirzaqulov. O‘zbekiston tarixi (Buxoro tarixi) X jild (O‘zbekiston tarixi va manbalari) T., O‘zbekiston, 2023, 380-382 b.

1930-yilning 5-sentabrida O‘zbekiston SSR xalq maorifi komissarligi Buxoroda pedagogika instituti tashkil qilish haqidagi buyruqni e’lon qildi va 9-sentabrdan institut ish boshladi. Shu vaqtda uning tarkibida jamiyatshunoslik, tarix, kimyo va biologiya bo‘limlari ish boshlab, ularda 45 nafar talaba tahsil olgan. 1931-yilda fizika matematika bo‘limi, ko‘p o‘tmay fakultetlar tashkil etilgan. 1934-yilda esa o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti ish boshlagan. 1930-1935 yillarda Buxoro, Qarshi, G‘ijduvon va Qorako‘lda bir yillik tayyorlov kurslari ochilgan edi. 1938-yilda Buxoro davlat instituti ikki yillik o'qituvchilar instituti bilan birlashdi. Shu yillarda talaba yoshlarning maishiy turmushini yaxshilash yuzasidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. 1933-yilga kelib 210 nafar talaba turar joy bilan ta’minlandi. 1936-1937 o‘quv yilida institutning yangi o‘quv binosi ishga tushirildi. Urushdan keyingi yillarda O‘zbekistonda ta’lim sohasida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lgan: maktablar tarmog‘i kengaygan, o‘qituvchi kadrlar tayyorlangan va ta’lim tizimi asta-sekin rivojlangan[1]. Biroq 1945-1946-o‘quv yilida Buxoroda faqat 78% o‘quvchi maktabga jalb qilingan, maktab binolari yomon holatda bo‘lgan, yoqilg‘i yetishmasligi va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish darslarni muntazam olib borishni qiyinlashtirgan. Shu bilan birga, bu davr tajribasi kelajakdagi islohotlar uchun muhim saboq bo‘lgan.

O‘zbekistonda urushdan keyingi yillarda xalqning fidokorona mehnati va davlatning ta’limga bo‘lgan e’tibori natijasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, 1940–41-o‘quv yilidan 1970–71-o‘quv yiliga qadar umumta’lim maktablarida o‘qituvchilar sonining 2,5 baravar ortgani ta’lim jarayonining kengayishi, o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlari yaxshilanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, maktablar tarmog‘ining kengaygani, yangi o‘quv binolarining qurilgani va ta’limning ommalashgani ham o‘sha davrning ijobiy tomonlari sifatida qayd etiladi[2]. Biroq bu jarayon bilan birga muammolar ham mavjud edi: ayrim hududlarda o‘qituvchi malakasi yetarli emas edi, o‘quv dasturlari sovet mafkurasi bilan haddan ziyod to‘yingan holda olib borildi, milliy ta’lim mazmunining rivojlanishi esa cheklab qo‘yildi. Bundan tashqari, miqdoriy ko‘rsatkichlarning o‘sishi har doim ham sifatning oshishiga to‘liq mos kelmagan. Shunga qaramay, o‘zbek xalqining sa’y-harakati bilan yaratilgan ta’lim tizimi keyingi islohotlar uchun muhim zamin bo‘lib xizmat qildi. 1970-1971 o‘quv yilida O‘zbekistonda umumiy ta’lim maktablari soni 7072 taga yetib, ularning o‘quvchilari 3 mln. 164 ming kishini tashkil qilganligi ta’lim tizimining kengayishi va ommaviylashuvi sifatida ijobiy baholanishi mumkin. Bu ko‘rsatkichlar davlatning ta’limga e’tibor qaratgani va maktab tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan sa’y-harakatlarning natijasi edi. Shu bilan birga, maktablarning sifat darajasi, ayniqsa qishloq maktablarida, sezilarli darajada past bo‘lib qolgan. Bu holat 20–30-yillarda shakllangan “qoldiq prinsipi”ning ijtimoiy oqibatlari bilan izohlanadi. Tanqidiy jihatlari shundan iboratki, 1970–1980-yillarda xalq ta’limi uchun ajratilgan mablag‘ 11% dan 8% ga kamayib, maktablarning katta qismi zarur o‘quv jihozlari, asbob-anjomlar bilan ta’minlanmagan, issiq ovqat bufetlari tashkil etilmagan va kuni uzaytirilgan guruhlar ishlari cheklangan darajada qolgan. Natijada o‘quvchilarning qo‘shimcha ta’lim va tarbiyaviy mashg‘ulotlardan foydalana olish imkoniyati cheklangan[3]. Umuman olganda, 1970-80-yillardagi ta’lim tizimining miqdoriy rivojlanishi ijobiy bo‘lsa-da, uning sifat va moddiy-texnik ta’minoti, shuningdek, qo‘shimcha ta’lim xizmatlarining yetarli emasligi tizimning samaradorligini pasaytirgan. Shu davr tajribasi ta’limni yanada sifatli va barqaror rivojlantirish uchun muhim saboq bo‘lgan.

1925–1991 yillarda O‘zSSRda pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni Buxoro misolida ko‘rib chiqilganda, bu davr ta’lim tizimining shakllanishi va takomillashuvi uchun juda muhim bosqich bo‘lgani yaqqol namoyon bo‘ladi. Sovet hokimiyati tomonidan ta’limni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanishi natijasida Buxoroda pedagogik maktabning shakllanishi, o‘quv-metodik bazaning kengayishi, o‘qituvchilarni tayyorlash tizimining bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi kabi jarayonlar amalga oshirildi. Hududda yangi

[1] https://oyina.uz/uz/article/3696?utm_source=chatgpt.com

[2] Izbullayeva G. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. // Darslik – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022. – 290-292 b.

[3] Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi: o‘quv qo‘llanma // – Toshkent: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021. – 118-120 b.

maktablar, texnikumlar va institutlarning ochilishi mahalliy aholining pedagogik bilimlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qildi. Buxoro pedagogika instituti ham ushbu davrda o‘qituvchi kadrlar tayyorlashning markaziga aylandi, natijada minglab mutaxassislar respublika ta’lim tarmog‘iga yetkazildi. Shu bilan birga, pedagogik jarayon sovet mafkurasi bilan cheklangani, o‘quv dasturlarining markazlashgan holda boshqarilishi, milliy ta’lim an’analari va mahalliy ehtiyojlarning yetarli darajada inobatga olinmagani kabi salbiy omillar ham mavjud edi. Ayrim yillarda o‘qituvchilar safini “sinfiy tozalash” siyosati ta’sirida shakllantirish holatlari kuzatilgan bo‘lib, bu esa ta’lim sifatini barqarorlashtirishga to‘sqinlik qilgan. O‘qituvchilar sonining ko‘payishi ba’zan ularning malakasi bilan mutanosib bo‘lmagan, material-texnik baza esa ayrim joylarda talabga javob bermagan. Shunga qaramay, mazkur davrda to‘plangan ilmiy-metodik tajriba, kadrlar tayyorlash bo‘yicha shakllangan tizim va xalqning ta’limga bo‘lgan e’tiborining kuchayishi Buxoro va butun O‘zbekiston ta’limi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Bu davrda yetishib chiqqan pedagoglar mustaqillik yillaridagi islohotlar uchun asos bo‘lib xizmat qildi, milliy ta’lim tizimining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ишанов А.И. Бухарская народная Советская республика. Т., Узбекистан, 1969, 378-380 стр.
2.https://www.academia.edu/105641585/Ишанов_А_И_Бухарская_народная_советская_республика_Ташкент_1969
3. H.To‘rayev., B.Mirzaqulov. O‘zbekiston tarixi (Buxoro tarixi) X jild (O‘zbekiston tarixi va manbalari) T., O‘zbekiston, 2023, 380-382 b.
4.https://oyina.uz/uz/article/3696?utm_source=chatgpt.com
5. Izbullayeva G. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. // Darslik – Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona, 2022. – 290-292 b.
6. Mardonov Sh., Zokirova U. Pedagogika nazariyasi va tarixi: o‘quv qo‘llanma // – Toshkent: “ISHONCHLI HAMKOR”, 2021. – 118-120 b.

БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ХИВА ХОНЛИГИ ЎРТАСИДАГИ ҲАРБИЙ-СИЁСИЙ НИЗОЛАРНИНГ АҲОЛИ ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ

Латипов Жасур Лазиз ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бухоро давлат университети доценти
Сабирова Мадина Саъдулла қизи
Бухоро давлат университети магистранти

Аннотация: В статье исследованы конфликтные политические отношения между Бухарским эмиратом и Хивинским ханством, а также негативное влияние военных столкновений на жизнь местного населения. Кроме того, в статье проанализированы исторические источники, относящиеся к данной проблеме.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Бухарский эмират, Мухаммад Рахимхан I, Ромитан, резня, войны.

Ўзбек хонликлари бошқаруви Марказий Осиё тарихининг йирик империядан мустамлака ҳудудга айланишига қадар давом этган ўрта босқич ҳисобланади. Бу давр қуруқлик орқали амалга оширилган халқаро савдо ҳажмининг қисқариши, диний мутаассибликнинг кучайиши, илм-фан тараққитининг сусайиши, минтақа давлатлари иқтисодий ва ҳарбий салоҳиятининг пасайиши билан характерланиб, бу омиллар ҳудуднинг, Жаҳоннинг йирик мустамлакачи давлатлари билан солиштирганда, ниҳоятда қолоқлашувига олиб келган. Бунинг устига, Марказий Осиё хонликларининг муттасил равишда ўзаро низолашуви эса минтақада яшовчи халқлар турмушида иқтисодий қийинчиликлар, халқ норозилиги, ижтимоий-сиёсий беқарорликларнинг доимий мавжудлигига сабаб бўлган.

Бухоро ва Хива хонликлари деярли бир вақтда (XVI аср) ташкил этилган давлатлар бўлиб, бу икки давлатнинг ўзаро муносабатлари аксарият даврларда низоли бўлган. Бухоро хонлиги (1533-1756)нинг тугатилиб, амирлик бошқарувининг ўрнатилиши Хива хонлиги (1512-1920) билан келишмовчиликларга барҳам бермай, аксинча, янги босқичга кўтарилишига хизмат қилган. Хива хонлиги XVIII асрнинг иккинчи ярмида иноқлар ўртасидаги кураш, туркман қабилалари ҳужуми натижасида заифлашиб, Бухоро амирлиги (1756-1920) сиёсий устунликни ўз қўлида сақлаган бўлса, кейинроқ Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) томонидан Бухоро ҳудудларига ҳужумлар кучайиб, амирлар бу ҳужумларни тўла бартараф этишга ожизлик қилганлар. Бу ҳолатнинг халқ ҳаётига таъсирини Хива хонлиги билан чегара ҳудудларда жойлашган аҳоли манзилгоҳлари мисолида аниқроқ таҳлил этиш мумкин. Жумладан, Ромитан тумани Бухородан Хивага кетувчи йўл устида жойлашган бўлиб, Ў.Мавлонов ушбу йўлда 8 та ёғоч кўприк бўлганлигини ёзади[1]. Хива хонлиги билан чегарада жойлашганлиги тумандаги қишлоқларнинг ҳаётига таъсир этмасдан қолмаган.

Икки давлат ўртасидаги муносабатларнинг душманлик кайфиятида бўлганлиги сабабли Ромитан тумани ҳудудида Хива қўшинлари томонидан тез-тез талончилик юришлари амалга оширилган. Мунис Хоразмий (1778-1829 йилларда яшаган) ва Муҳаммад Ризо Огаҳий (1809-1874 йилларда яшаган)лар томонидан яратилган “Фирдавс ул-иқбол” (“Бахту саодат жаннати”) асарида ёзилишича, 1806-йилнинг январь ойида ўзбек ва туркманлардан тузилган 110 кишилик Хива хонлиги ҳарбий бўлинмаси Ромитаннинг Қоқиштувон қишлоғига ҳужум қилиб, 70 дан зиёд асир ва бошқа ўлжалар билан қайтган[2]. Огаҳий бу қишлоқни Хайробод туманида жойлашган, дея қайд этади. Бу каби ҳужумлар Хива қўшинлари томонидан бир неча маротаба амалга оширилган бўлиб, 1823-йил февралида Бухоро амирлиги ҳудудларига қилинган юришда Хива хони Муҳаммад Раҳимхон I Қоқиштувондаги кўл бўйи ва ундан сўнг Ромитан атрофларига ўрнашиб, ҳужумга шахсан ўзи бошчилик қилади. Огаҳийнинг эътирофича, ўша вақтда Бухоро амири Ҳайдар (1800-1826)нинг Миёнқолда кўтарилган 1821-1825-йилги хитой-қипчоқ қабилалари қўзғолони, шунингдек, Қўқон хонлиги (1709-1876) ҳужумлари билан бандлиги ва пойтахтда йўқлиги туфайли Хива хони ҳимоясиз пойтахтга ҳужум қилишдан “ўзини тийган” ва Қоқиштувонни эгаллаш билан чекланган[3]. Тарихчи П.Иванов ушбу воқеа ҳақидаги маълумотларнинг “Тарихи амир Ҳайдар” асарида ҳам ёзилганлигини эслатган. Унинг ёзишича, Ромитанга хиваликлар ҳужуми ва бунинг оқибатида юзага келган вайронагарчиликлар хабари амирнинг Самарқанддаги Челак тумани ҳудудини қамал қилаётган вақтида юз берган[4]. Манбаларда Хива қўшинлари Бухоро амирлигининг турли шаҳар ва қишлоқлари қаторида Ромитан ва Қоқиштувонни ҳам талаганликлари, уйларни ёқиб, тинч аҳолини асирга олганликлари тўғрисида маълумотлар келтирилган. Муҳаммад Раҳимхон I нинг ўзи эса Хўжа Уббон мақбарасига бориб, у ердаги қурбонлик қозонини бузганлиги, зиёратгоҳ қудуғини кўмдириб ташлаганлиги ёзилади. Кейин эса хон Ромитан шаҳрига юриб, у ерни олмагунча Бухорога томон бормаслигини айтган[5]. Яна ўша асарда ёзилишича, ҳужум давомида Ҳазорбоғ қишлоғининг қалъасида кўпгина қирғин ва вайронагарчиликлар амалга оширилиб, Хива хони қўшинлари томонидан 12 минг киши асирга олинган. Дастлаб Муҳаммад Раҳимхон I уларни қатл қатл қилишга буюрган. Аммо, бунчалар кўп мусулмоннинг қатл қилиниши буйруғи хон аъёнларининг қаттиқ норозилигига сабаб бўлгач, улар занжирбанд ҳолда Хивага олиб кетилади. Кейинчалик

[1] Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. – Т.: Akademiya, 2008. – Б.289.

[2] Мунис ва Огоҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.225.

[3] Мунис ва Огоҳий. Фирдавс ул-иқбол. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.474-477.

[4] Иванов П.П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821-1825 гг. (Источники и опыт их исследования). – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1937. – С.75.

[5] Китай-кипчакское восстание в изображении Ибадуллы и Мухаммед Шерифа, авторов “Истории эмира Хайдера” // прил. в кн. Иванов П.П. Восстание китай-кипчаков в Бухарском ханстве 1821-1825 гг. (Источники и опыт их исследования). – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1937. – С.110.

амир Ҳайдар музокаралар орқали ушбу асирларни ортга қайтариб олиб келишга муваффақ бўлган.

Хива хонларининг ҳудудга юришлари бу билан тўхтаб қолмаган. Кенг кўламли ҳужумлар сони камайса ҳам кичик талончилик ва бошқа сабаблар билан туман ҳудудига кириш ҳолатлари давом этаверган. Масалан, Огаҳийнинг “Зубдат ут-таворих” (“Тарихлар сараси”) асарида ҳижрий 1259 йилнинг рамазон ойи (1843 йилнинг сентябрь-октябрь ойлари)да Хайроболдан “тил” (маълумот олиш учун тутилган асир) ушлаб келинганлиги ёзилган[1]. Бу эса, табиийки, стратегик мақсадларни кўзда тутар эди. Ўша йилнинг қишида эса Хива аскарлари Хайробод туманига, Қоқиштувонга талончилик ҳужумларини уюштирганлар. Огаҳийнинг ёзишича, Бекмонбий, Тағой мироб, Раҳматулла ясовулбоши ва Яъқуббой бошчилигидаги хиваликлар қўшини ўшанда 5 кишини қатл қилиб, 300 кишини асирга олиб қайтганлар[2]. Баъзи тарихий адабиётларда кейинроқ амир Музаффар (1860-1885) томонидан Қоқиштувонда тузилган кўнгилли қўшинлар Хива хонлиги ҳужумларига қарши доимий қурол билан таъминланиб турилганлиги хусусида маълумотлар бор[3]. Бу эса Хива хонлиги ҳужумларининг Бухоро амирлиги учун доимий муаммолар келтириб чиқарганлиги ҳамда Хива қўшинлари ҳужумига тайёргарлик ҳолати амирлик ташқи сиёсатидаги муҳим вазифалардан саналганлигини англатади.

Хуллас, ўзбек хонликлари ўртасидаги муносабатларнинг низоли ҳолати, ўзаро урушларнинг тинимсиз давом этганлиги, яқин қўшничилик муносабатлари ўрнида душманлик кайфиятининг сақланиб туриши аҳоли турмуш фаровонлиги, давлатларнинг иқтисодий-молиявий ҳолати ҳамда ҳарбий-сиёсий барқарорлигига салбий таъсир кўрсатган. Бу эса ярим асрдан сўнг Қўқон хонлигининг тугатилиши, Бухоро амирлиги ва Хива хонликларининг Россия империяси (1721-1917) протекторатига айланиб қолишига сабаб бўлган. Хонликлар ўртасидаги ўзаро муносабатлар, ҳарбий низолар ва уларнинг сабабларини батафсил ва мукаммал тадқиқ қилиш бугунги кунда тарихчи олимларнинг муҳим вазифаларидан биридир.

BUXORO OKRUGIDA XX ASRNING 30-YILLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT XUSUSIDA MULOHAZALAR

Irgashov Xusniddin Nuridin o‘g‘li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
xusniddinirgashov38@gmail.com
Ilmiy rahbar:
Normatov Otabek Maxamatjonovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘tgan asrning 30-yillarida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibidagi Buxoro okrugi va unga qarashli rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tahlil qilinadi. Ushbu davr O‘zbekiston tarixida iqtisodiy va ma’muriy islohotlar faollashgan, qishloq xo‘jaligi sohasida kollektivlashtirish siyosati amalga oshirilgan, yangi sanoat korxonalari va transport tarmoqlari shakllana boshlagan davr sifatida ahamiyatga ega. Maqolada, xususan, Buxoro okrugida yashovchi aholining soni va tarkibi, ularning jinsiy hamda hududiy taqsimoti, shuningdek, mintaqada faoliyat yuritgan temir yo‘l tizimining iqtisodiy hayotdagi o‘rni haqida fikr

[1] Огаҳий, Муҳаммад Ризо. “Зубдат ут-таворих”дан // Асарлар. Т.5. Тарихий асарлардан парчалар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б.181.
[2] Огаҳий, Муҳаммад Ризо. “Зубдат ут-таворих”дан // Асарлар. Т.5. Тарихий асарлардан парчалар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – Б.191-192.
[3] Halimov T. Asrlarga tatigulik saxovat / To‘ra Halimov, Tal’at Halimov. – Buxoro: Durdona, 2016. – B.17-18.

yuritiladi. Shu bilan birga, rayonlarda tashkil etilgan kolxoz xo‘jaliklari, ularning ishlab chiqarish salohiyati hamda aholi turmush darajasiga ko‘rsatgan ta’siri ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston SSR, Buxoro okrugi, rayonlar, temiryo‘l stansiyalari, o‘zbeklar, Romitan-Hayrabod, sug‘orma dehqonchilik, ma’muriy-hududiy birliklar.

1930-yillarning boshlariga kelib Buxoro okrugi O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tarkibidagi muhim ma’muriy-hududiy birliklardan biri hisoblangan. Mazkur okrug iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, unda qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalari yetakchi o‘rin tutgan. Okrug o‘z navbatida bir nechta rayonlarga bo‘lingan bo‘lib, har bir rayon o‘zining ma’muriy markaziga ega edi.

Buxoro okrugi tarkibiga quyidagi rayonlar kirgan:

1. Sultonobod rayoni — markazi Do‘rmon shaharchasi bo‘lib, hudud asosan dehqonchilik va chorvachilikka ixtisoslashgan.

2. Shofirkon rayoni — markazi Xo‘ja Orifda joylashgan bo‘lib, bu hudud qadimdan sug‘orma dehqonchilik, ayniqsa paxtachilik bilan mashhur bo‘lgan.

3. G‘ijduvon rayoni — markazi G‘ijduvon shahri. Bu rayon tarixan savdo va hunarmandchilik markazi sifatida tanilgan, 1930-yillarda esa kolxoz xo‘jaliklari rivojlanayotgan hududlardan biri edi.

4. Vobkent rayoni — markazi Vobkent shahri bo‘lib, rayon aholisi asosan bog‘dorchilik, uzumchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan.

5. Romitan–Hayrabod rayoni — markazi Lag‘lyak bo‘lib, bu hudud tabiiy resurslarga boy bo‘lgan hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bilan ajralib turgan.

6. Eski Buxoro rayoni — markazi Qa’la Osiyo bo‘lib, tarixiy jihatdan qadimiy Buxoro shahrining markaziy qismi hisoblangan. Bu rayon ma’naviy, siyosiy va madaniy hayot markazi bo‘lib, o‘z davrining asosiy ma’muriy boshqaruv nuqtasi sifatida faoliyat yuritgan.

7. Yangi Buxoro (Kogon) rayoni — markazi Yangi Buxoro shahri bo‘lib, u o‘zining temiryo‘l stansiyasi atrofida shakllangan sanoatlashgan hudud edi. Bu rayon okrugning transport va savdo aloqalarida alohida o‘rin tutgan.

8. Qorako‘l rayoni — markazi Qorako‘l shahri. Bu rayon keng cho‘l hududlarini o‘z ichiga olgan bo‘lib, aholisi asosan chorvachilik, ayniqsa qorako‘l qo‘ylarini boqish bilan shug‘ullangan[1].

Mazkur rayonlarning har biri o‘zining tabiiy-geografik sharoiti, xo‘jalik yo‘nalishi va iqtisodiy imkoniyatlari bilan ajralib turgan. Shu bois Buxoro okrugi 1930-yillar boshida O‘zbekistonning iqtisodiy va ma’muriy xaritasida muhim o‘rin egallagan.

1930-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra Buxoro okrugi aholisi soni ma’lumotlari statistik jihatdan alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular hududdagi demografik jarayonlar, ijtimoiy tuzilma va jinsiy tarkibni o‘rganish imkonini beradi. O‘sha davrda aholi asosan Eski Buxoro, Yangi Buxoro (Kogon) va G‘ijduvon shaharlari hamda boshqa rayonlar va ularga qarashli qishloq hududlarida yashagan. Aholining erkaklar va ayollar o‘rtasidagi nisbati o‘sha davr jamiyatining mehnat resurslari, ijtimoiy faol qatlamlari va oilaviy tuzilmasini aniqlashda muhim mezon bo‘lib xizmat qiladi. Aholining jinsiy tarkibi — ya’ni erkaklar va ayollar nisbati — o‘sha davr jamiyatining mehnat resurslari, oilaviy tuzilmasi hamda demografik barqarorlik darajasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan. Erkaklar sonining ustunligi ko‘proq ishlab chiqarish va mehnat jarayonlari bilan bog‘liq faol qatlam mavjudligini bildirsa, ayollar sonining ortishi esa aholining tabiiy o‘sish salohiyati va ijtimoiy barqarorlikni ifoda etgan.Quyidagi jadvalda 1930-yil boshlariga oid statistik ma’lumotlar asosida Buxoro okrugidagi rayonlar aholisi haqida batafsil ma’lumot keltirilgan.

T/r	Rayon nomi	Jami aholi	Erkaklar	Ayollar
1	Sultonobod	26 058	13 863	12 195
2	Shofirkon	22 242	11 833	10 409
3	G‘ijduvon	63 882	34 407	29 475

[1] Государственная Плановая Комиссия УзССР Экономико- Статистический Сектор Госплана “УзССР РАЙОНЫ УзССР В ЦИФРАХ”. Самарканд 1930. С-11-12.

4	Vobkent	53 259	28 334	24 925
5	Romitan – Hayrabod	41 276	21 753	19 523
6	Eski Buxoro	101 281	53 731	47 550
7	Yangi Buxoro	61 501	33 199	28 302
8	Qorako‘l	45 621	24 088	21 533

XX asr 30-yillarining boshlarida Buxoro okrugi aholisi tarkiban millatlar jihatidan ancha rang-barang edi. Mintaqaning tarixiy rivojlanishi, savdo yo‘llari kesishgan hududda joylashgani, shuningdek, iqtisodiy faoliyatning turli shakllari aholining milliy tarkibida xilma-xillikni yuzaga keltirgan. Okrug hududida o‘zbeklar bilan bir qatorda tojiklar, turkmanlar, forslar, arablar, yahudiylar hamda boshqa millat vakillari istiqomat qilgan. Millatlar tarkibining o‘ziga xosligi, bir tomondan, Buxoro shahrining qadimiy madaniyat va ilm markazi sifatida shakllanganligi bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, bu holat hududda olib borilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning demografik ta’sirini ham ifodalaydi. Aholining milliy tarkibini o‘rganish — mintaqaning ijtimoiy tuzilmasini, til va madaniyatlarning o‘zaro aloqalarini, shuningdek, tarixiy muhitning etnik ko‘rinishini anglashda muhim manba hisoblanadi. Buxoro okrugining asosiy aholisini o‘zbeklar tashkil qilgan bo‘lib, ularning ulushi Sultonobod va Shofirkon rayonlarida – 93.2 %, G‘ijduvonda – 97.9 %, Vobkentda – 85.8 %, Romitan-Hayrabodda – 89.2 %, Eski Buxoroda – 75.2 %, Yangi Buxoroda – 79.8 %, Qorako‘lda – 92.5 % ni tashkil etgan[1]. Bundan tashqari okrugda tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, arablar, ruslar va boshqa millatlar ham yashaganligi hamda aholi ulushining ma’lum qismini tashkil etganligi o‘sha davr manbalarda qayd etiladi.

Etnik jarayonlar va demografik tarkibni tahlil etar ekanmiz, aholining mintaqa bo‘ylab joylashish zichligiga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Chunki aholining joylashuvi - har bir hududning tabiiy-geografik sharoiti, iqtisodiy faoliyati, sug‘oriladigan yerlar hajmi hamda transport infratuzilmasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim ko‘rsatkichdir. O‘tgan asrning 30-yillari boshlarida Buxoro okrugida aholining joylashish zichligi rayonlar kesimida ancha farqlangan. Bu holat, bir tomondan, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanish imkoniyatining notekisligi bilan izohlanadi. Masalan, har bir kvadrat kilometr hududga:

- Sultonobod rayonida o‘rtacha 73 kishi,
- Shofirkonda — 49,1 kishi,
- G‘ijduvonda — 188,4 kishi,
- Vobkentda — 68,1 kishi,
- Romitanda — 13,4 kishi,
- Eski Buxoroda — 72,9 kishi,
- Yangi Buxoroda — 13,8 kishi,
- Qorako‘l rayonida esa atigi 6,8 kishi to‘g‘ri kelgan[2].

Ushbu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, aholining eng zich joylashgan hududi G‘ijduvon bo‘lib, bu yerda qadimdan sug‘oriladigan dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo rivojlangan. Aksincha, Qorako‘l va Romitan rayonlarida aholining zichligi past bo‘lib, bu hududlarning keng cho‘l va yarim cho‘l hududlardan iboratligi, chorvachilik asosiy tarmoqqa aylangani bilan izohlanadi. Demak, 1930-yillarda Buxoro okrugi bo‘ylab aholining joylashuvi bir tekisda bo‘lmagan: markaziy va sug‘orma yerlar aholisi ko‘p, chekka va quruq hududlarda esa nisbatan kam yashovchi aholi to‘plangan. Bu holat iqtisodiy rivojlanishning notekisligini, shuningdek, tabiiy-geografik omillarning ijtimoiy hayotga ta’sirini yaqqol namoyon etadi.

1930-yillar boshlarida O‘zbekiston SSRda, xususan, Buxoro okrugida transport infratuzilmasini rivojlantirish siyosatiga alohida e’tibor qaratilgan. Bu davrda temiryo‘l tarmoqlari

[1] Государственная Плановая Комиссия УзССР Экономико- Статистический Сектор Госплана “УзССР РАЙОНЫ УзССР В ЦИФРАХ”. Самарканд 1930. С-33-34.
[2] УзССР РАЙОНЫ УзССР В ЦИФРАХ”. Самарканд 1930. С-33-34.

mintaqaning iqtisodiy hayotida muhim o‘rin egallay boshladi[1]. Ayniqsa, paxta, g‘alla, qorako‘l terisi, meva-sabzavot mahsulotlari hamda hunarmandchilik buyumlarini tashishda temiryo‘l transporti asosiy vosita sifatida xizmat qilgan. Buxoro okrugi hududida yangi temiryo‘l stansiyalarining barpo etilishi rayonlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi, shahar va qishloq aholisining harakatlanish imkoniyatlarini kengaytirdi hamda tumanlar o‘rtasida mahsulot almashinuvini osonlashtirdi. Natijada, har bir rayon markazi o‘ziga yaqin temiryo‘l stansiyasi orqali mamlakatning boshqa iqtisodiy markazlari bilan bog‘lanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Quyidagi jadvalda 1930-yillarda Buxoro okrugidagi temiryo‘l stansiyalari, ularning joylashuvi va rayon markazlaridan bo‘lgan masofasi keltirilgan:

T/r	Rayon nomi	Rayon markazi	Stansiya nomi	Rayon markazidan stansiyagacha bo‘lgan masofa
1	Sultonobod	Do‘rmon	Qiziltepa	34
2	Shofirkon	Xo‘ja Orif	-	32
3	G‘ijduvon	G‘ijduvon	-	16
4	Vobkent	Vobkent	Buxoro	24
5	Romitan – Hayrabod	Laglyak	-	20
6	Eski Buxoro	Qa’la Osiyo	-	8
7	Yangi Buxoro	Yangi Buxoro	Kogon	0
8	Qorako‘l	Qorako‘l	Qorako‘l	3

1930-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Buxoro okrugi tarkibida uchta shahar maqomiga ega ma’muriy bo‘linma mavjud edi. Ular — Eski Buxoro, Yangi Buxoro (Kogon) hamda G‘ijduvon shaharlari edi. Bu davrda Buxoro okrugi O‘zbekiston SSR tarkibidagi muhim iqtisodiy va madaniy markazlardan biri bo‘lib, uning shahar aholisi soni ham, shaharsozlik darajasi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan[2]. Eski Buxoro — o‘sha davrda okrugning eng yirik shahri bo‘lib, 51 960 nafar aholi istiqomat qilgan. Bu ko‘rsatkich Eski Buxoroning nafaqat ma’muriy, balki siyosiy va iqtisodiy markaz sifatidagi o‘rni yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Shahar qadimiy Buxoro amirligi davridan meros bo‘lgan savdo yo‘llari, hunarmandchilik markazlari va ilm-fan o‘choqlari bilan mashhur bo‘lib, XX asr boshlarida ham o‘z tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan. Yangi Buxoro (Kogon) shahri esa, 11 520 kishi istiqomat qilgan o‘rta hajmdagi sanoatlashuv yo‘lidagi shahar bo‘lgan. Bu shahar dastlab Rossiya imperiyasi davrida, temir yo‘l stansiyasi atrofida vujudga kelgan bo‘lib, 1930-yillarga kelib sanoat, transport va savdo-sotiq markaziga aylana boshlagan. Yangi Buxoro Eski Buxoroga nisbatan zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lib, bu yerda temir yo‘l orqali yuk va yo‘lovchi tashish faol rivojlangan. G‘ijduvon shahri esa nisbatan kichikroq bo‘lib, 4 142 nafar aholi yashagan. Shunga qaramay, u o‘zining tarixiy savdo markazlari, hunarmandchiligi, ayniqsa, kulolchilik va dehqonchilik mahsulotlari bilan mashhur edi. G‘ijduvon aholisi asosan qishloq xo‘jaligi va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan, bu esa uni iqtisodiy jihatdan barqaror, lekin nisbatan sust rivojlangan shahar sifatida tavsiflash imkonini beradi.

Umuman olganda, 1930-yil boshlariga kelib Buxoro okrugining shahar aholisi taxminan 67 ming nafardan ortiqni tashkil etgan. Bu raqam o‘sha davr uchun sezilarli ko‘rsatkich bo‘lib, Buxoro okrugida shahar madaniyatining shakllanib borayotganidan dalolat beradi. Aholining asosiy qismi Eski Buxoroda to‘plangani esa tarixiy markazning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini ochib beradi. Ba’zi manbalarda esa, Buxoro okrugining umumiy aholi soni 562 707 kishi bo‘lib,

[1] Normatov O.M. Buxoro va O‘rta Zarafshon okruglaridagi savdo-sotiq munosabatlarining ayrim jihatlari xususida // – Toshkent.: Turon tarixi. 2016. № 4-5. 23-bet.

[2] Normatov O.M. Buxoro okrugining tashkil etilishi va uning umumiy holati // “Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti”. – Buxoro, 2010. №1. 17-bet.

ularning 92 985 nafari (16%) shahar aholisi, 469 722 nafari (84%) qishloq aholisi hisoblangan. Okrug bo‘yicha aholi zichligi 1 vyorstada 39,7 kishiga, agar shahar aholisini hisobga olmaganda 33 kishiga to‘g‘ri kelgan. Agar okrug hududining 75% cho‘lligini hisobga olsak, madaniy vohalarda aholi zichligi ancha yuqori bo‘lgan. Masalan, madaniy vohalarda aholi zichligi 1 vyorstaga 60 kishidan (Qorako‘l rayonida) to 296 kishigacha (G‘ijduvon rayonida) to‘g‘ri kelganligi qayd etiladi[1].

Buxoro okrugi aholisining ko‘pchiligi o‘troq holda yashagan. Qishloqlarda asosan xutorlarda yashaydigan aholi ariq bo‘ylarida joylashgan bo‘lib, ma’muriy jihatdan 35 – 40 xutorlar machit atrofida birlashgan. Ikki-uchta machitlar atrofidagi xutorlar qishloqlarni tashkil etgan. Okrug bo‘yicha 1392 qishloq tipidagi aholi punkti (qishloqlar) bo‘lib, ularning aholisi 90621 xo‘jalikni (xonadonni) tashkil qilgan. Bundan tashqari okrugda 3 ta shahar mavjud bo‘lib, ular Buxoro (okrug markazi), Kogon va G‘ijduvon shaharlaridan iborat. Okrugda yana shahar tipidagi 2 ta posyolka bo‘lib, bular Vobkent va Qorako‘l hisoblangan[2]. Aholining milliy tarkibiga ko‘ra o‘zbeklar 82,3% ni, tojiklar 6,7% ni, arablar 5,9% ni, qozoqlar 0,5% ni, turkmanlar 3,9% ni va qolgan aholi turli millatlar vakillariga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, ular ozchilikni tashkil qilgan[3].

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, Buxoro okrugi O‘zbekiston SSR hududining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan qismi hisoblangan. Okrug tarkibidagi rayonlarning ijtimoiy hayoti, etnik jarayonlar hamda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini o‘rganish o‘sha davr uchun ham, bugungi kun uchun ham dolzarb masalalardan biridir. Hududda aholining joylashish zichligi, millatlar tarkibi va xo‘jalik tarmoqlarining shakllanishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan. Masalan, qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan rayonlarda aholi sonining nisbatan kamligi, sanoat va savdo markazlariga yaqin hududlarda esa zich joylashuvi kuzatilgan. Bu esa iqtisodiy resurslarning taqsimlanishi, mehnat bozori va demografik o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, Buxoro okrugi tarkibida milliy tarkibning xilma-xilligi - turli etnik guruhlarning bir hududda tinch-totuv yashashi, o‘zaro madaniy va iqtisodiy aloqalarining rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu boisdan ham okrugdagi etnodemografik jarayonlarni o‘rganish nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy nuqtayi nazardan ham katta ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. “УзССР РАЙОНЫ УзССР В ЦИФРАХ”. Государственная Плановая Комиссия УзССР Экономико- Статистический Сектор Госплана Самарканд 1930.
2. Normatov O.M. “O‘zbekistonga o‘tkazilgan rayonlashtirish va uning natijalari”. Monografiya. Toshkent – 2025.
3. Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I.
4. Normatov O.M. “1920-1924 yillardagi Buxoro respublikasini ma’muriy-hududiy tuzilishi xususida” //Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Buxoro, 2010. – B.113-115.
5. Normatov O.M. Buxoro va O‘rta Zarafshon okruglaridagi savdo-sotiq munosabatlarining ayrim jihatlari xususida // – Toshkent.: Turon tarixi. 2016. № 4-5. – B. 23-25.
6. Normatov O.M. Buxoro okrugining tashkil etilishi va uning umumiy holati // “Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti”. – Buxoro, 2010. №1. – B. 16-18.

[1] Normatov O.M. “O‘zbekistonga o‘tkazilgan rayonlashtirish va uning natijalari”. Monografiya. Toshkent – 2025. 68-bet.
[2] Материалы по районированию Узбекистана. Выпуск I.– С. 35.
[3] Normatov O.M. “O‘zbekistonga o‘tkazilgan rayonlashtirish va uning natijalari”. Monografiya. Toshkent – 2025. 69-bet.

AN’ANAVIY SHARQ JAMIYATIDA AYOLLARNING MAQOMI: BUXORO AMIRLIGI MISOLIDA

Yuldashaliyeva O‘g‘iloy Maxmudjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar o‘qitish metodikasi (tarix)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
yuldoshaliyevaogiloy@gmail.com
Ilmiy rahbar:
Jumayeva Shoira Berdiyarovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada an’anaviy Sharq jamiyatida ayollarning ijtimoiy, huquqiy va madaniy maqomi Buxoro amirligi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy manbalar, etnografik kuzatuvlar va sharqshunos olimlarning ilmiy qarashlari asosida Buxoro jamiyatidagi gender munosabatlari, ayollarning oila va jamiyatdagi roli, ta’limga bo‘lgan imkoniyatlari hamda iqtisodiy faoliyati yoritiladi. Shuningdek, diniy-ma’rifiy institutlarning ayollar hayotiga ta’siri, ularning huquqiy maqomini belgilovchi shariat va urf-odat normalari ilmiy tahlil qilinadi. Maqola Buxoro tarixiy kontekstida ayollarning o‘rni qanday shakllanganini va ushbu jarayonning Sharq jamiyatining umumiy ijtimoiy tuzilmasi bilan qanday bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, ayollar maqomi, an’anaviy Sharq jamiyati, gender munosabatlari, shariat, urf-odat, ijtimoiy institutlar.

Sharq jamiyatlarining tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy an’analari asrlar davomida murakkab va ko‘p qatlamli jarayon sifatida shakllangan bo‘lib, unda ayollarning o‘rni va maqomi alohida ahamiyat kasb etadi. An’anaviy Sharq sivilizatsiyasida ayolga bo‘lgan munosabat, bir tomondan, shariat qoidalari, ikkinchi tomondan esa mahalliy urf-odatlar, qabila an’analari va ijtimoiy institutlar tomonidan belgilab kelingan. Bu omillar ayollarning oilaviy, iqtisodiy, huquqiy va madaniy hayotdagi mavqeini turlicha shakllantirgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyo hududida, jumladan, Buxoro amirligida ayolning jamiyatdagi o‘rni o‘ziga xos tarixiy jarayonlar va mahalliy ijtimoiy tuzumning o‘ziga xos jihatlari bilan belgilanadi.

Buxoro amirligi o‘z davrida Sharqning eng muhim siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, bu hududda shakllangan ijtimoiy munosabatlar, shariat normalari hamda mahalla institutining faoliyati ayollar hayotining barcha jabhalariga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ayollarning ma’naviy tarbiyasi, ta’lim olishi, oilaviy majburiyatlari, mulkiy huquqlari, iqtisodiy faoliyati va jamiyatdagi mavqeini o‘rganish Sharq jamiyatining umumiy ijtimoiy makonini anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur yo‘nalishda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat singari ma’rifatparvar olimlarning qarashlari, shuningdek, rus sharqshunoslari — V. Nalivkin, M. Andreev kabi tadqiqotchilarning etnografik kuzatuvlari alohida manba sifatida qadrlanadi.[1]

Ushbu tadqiqotda an’anaviy Buxoro jamiyatida ayollarning maqomi tarixiy manbalar, sharqshunoslik tadqiqotlari, mahalliy urf-odatlar va ijtimoiy institutlar faoliyati asosida ilmiy tahlil qilinadi. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, Sharq jamiyatidagi gender munosabatlarini tarixiy kontekstda o‘rganish nafaqat o‘tmishdagi ijtimoiy jarayonlarni anglashga yordam beradi, balki bugungi kunda ham ayollarning jamiyatdagi mavqeiga oid ijtimoiy-sotsiologik jarayonlarni chuqurroq talqin qilish imkonini beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari Sharq jamiyatidagi ayol obrazining shakllanishi hamda uning ijtimoiy institutlar bilan o‘zaro aloqasini ochib berishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq jamiyatida ayollarning maqomi diniy-huquqiy me’yorlar (fiqh) va mahalliy an’analarning uyg‘unlashuvi orqali shakllandi.Shariatga ko‘ra ayollar merosning ma’lum ulushiga ega bo‘lishgan,nikoh va ajralish masalalarida o‘z roziligini bildirish huquqi berilgan, hamda mulkni boshqarishi va savdo faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan.Biroq urf-

[1] Sagdullayev S., Boboev H. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi,1996. 212-218, 301-309 b

odatlar,mahalla nazorati, oilaviy patriarxat, qarindosh-urug‘ munosabatlari ayollarning amaliy hayotda keng ijtimoiy ishtirokini cheklagan.

Buxoro amirligida huquqiy jarayonlar shariat asosida yuritilgan. Ayollarning huquqlari qozixonalar amaliyotida quyidagi masalalar orqali ko‘rinadi:

-Nikoh shartnomalarida ;

-Mahr miqdorini belgilashda;

-Taloq masalalari;

-Meros ulushida;

Shikoyatlar yuzasidan qoziga murojaat qilish kabilarda.

Ayrim tarixiy hujjatlar, manbalar ayollarning o‘z huquqlarini talab qila olganini ko‘rsatadi. Masalan, qozixonalar arxivida ayollarning merosdan ulush talab qilgani, eri tomonidan adolatsiz munosabat uchun shikoyat qilgani holatlari qayd etilgan.[1] Buxoroda ayollar ta’lim olishi erkaklarnikiga qaraganda sezilarli darajada cheklangan bo‘lsa-da, qizlar ta’limi asosan uch turda tashkil etilgan:

- Maktab (boshlang‘ich daraja): Qur’on o‘qish,yozuv asoslari, odob-axloq saboqlari va qizlar uchun zarur bo‘lgan uy hunarmandchiligi elementlari o‘rgatilgan.Shu o‘rinda aytib o‘tish kerakki Buxoro nafaqat din va diniy ta’lim borasida balki, hunarmandchilik borasida yetakchi va mashxur hisoblangan. Va bu ta’lim turii mahram muhitda, xotin domlalar tomonidan olib borilgan. Yana bir turi esa uy ta’limi ya'ni xususiy ta’lim bo‘lib,ko‘p hollarda savodli ayollar yoki otalar o‘z uylarida diniy savod,gigiyena,oilaviy hayot qoidalari,tikuvchilik, kashtachilik kabi hunarlar bo‘yicha qizlarga ta’lim bergan. Ma’rifatparvarlik ta’limi XIX–XX asr boshlarida shakllangan bo‘lib, jadidchilik harakati ta’siri ostida ayollarni o‘qitish masalasi yangi bosqichga ko‘tarilgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jadid olimlari Sharq jamiyatlaridagi orqada qolishning asosiy sabablaridan biri sifatida ayollarning savodsizligini ko‘rsatgan.Xususan, Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalaridan birida “Ayolning savodi - millat savodi” degan g‘oyani ilgari suradi,qizlarning boshlang‘ich ta’lim olishini muhim deb biladi va ayolning ma’rifati jamiyat rivojini belgilashini ta’kidlaydi[2].

Abdurauf Fitratning “Oila”, “Muallimlar uchun qo‘llanma”, “Rahbari najot” kabi asarlarida esa ayollarning ma’rifatsizligi oiladagi ma’naviy inqirozga olib borishi,ayollarni o‘qitish shar’iy va ijtimoiy jihatdan zarurligi,ta’limning millat taraqqiyotidagi o‘rni keng asoslab beriladi. Munavvarqori Abdurashidxonov “Adabiyot yohud milliy she’rlar” va boshqa asarlarida:qizlar maktablarini ochish,ayollar o‘rtasida savodxonlik kurslarini tashkil etish zarurligini aytadi. Jadidlarning qarashlari natijasida XX asr boshlarida qizlar uchun “usuli jadid” maktablari ochila boshlanadi.[3] Buxoro amirligining iqtisodiy hayotida ayollarning hissasi sezilarli bo‘lgan. Ular asosan gilam to‘qish,kashtachilik,atlas-adras to‘qish, chiroyli kiyim tikish,ip yigirish,zardo‘zlikbilan shug‘ullangan. Etnograf V. Nalivkina asarlarida ayollarning kashtachilikdagi yuqori mahorati, naqshlarning ma’naviy ma’nosi hamda ularning bozordagi talab yuqori mahsulotlar sifatida qadrlangani alohida ta’kidlab o‘tadi. Ayollar ko‘pincha uyda tayyorlangan mahsulotlarni oiladagi erkaklar orqali bozorga chiqarishgan,ayrim hollarda ayniqsa, beva ayollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilishgan,qishloqlarda uy xo‘jaligi mahsulotlarini almashish orqali iqtisodiy hayotda faol ishtirok etganlar.M. S. Salye va Bartoldning tarixiy tadqiqotlarida ayollar ishlab chiqargan mahsulotlar Buxoro iqtisodiyotining muhim qismi bo‘lgani ta’kidlanadi.[4]

Buxoro ayollari madaniy hayotda faol qatnashgan bo‘lib, ularning asosiy faoliyati marosimlar, udumlar va mahalla hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayollar to‘y marosimlari,sunnat to‘ylari,beshik to‘yi,holva tortish,oila yig‘inlari,mahalla ayollar davralari marosimlarni tashkil qilish va o‘tkazishda bosh rolni o‘ynagan[5]. Etnografik asarlarda xususan, M. Andreev va L. Sobolev asarlarida ayollar marosimlarning asosiy tashkiliy kuchi sifatida nafaqat oilaviy, balki

[1] Karimova Z. Buxoro qizlar maktablari tarixi va ma’rifiy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2021.48-63,107-115b.

[2] Tursunov N. Jadid ma’rifatchilari va ayol savodi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.25-39,66-74b.

[3] Mirzaahmedov F. Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimida ayollar faoliyati. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022.59-78,133-140b

[4] Alimova D. Oila va ayol tarbiyasi Buxoro hududida (XIX–XX asrlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.33-41,92-101b.

[5] Islomov A. Markaziy Osiyo tarixida ayollarning iqtisodiy va maishiy roli. – Toshkent: Sharq, 2019.54-70,121-130b.

ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita bo‘lgani ta’kidlanadi[1]. Mahalla Sharq jamiyatining qadimiy ijtimoiy boshqaruv institutidir. Unda ayollar yosh kelinlarni tarbiyalash,kasallarga yordam berish,muhtojlarga ko‘maklashish,bayram va marosimlarni tayyorlash,nizolarni yumshatish kabi vazifalarni bajargan. E. Rtveladze va A.Asqarov izlanishlariga ko‘ra, mahalla ayollarining ijtimoiy birdamlikni saqlashdagi roli turkiy-islomiy madaniyatning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Buxoro misolida ayollarning maqomi Sharq jamiyatida bir yoqlama cheklovlarga emas, balki diniy me’yorlar, ijtimoiy-iqtisodiy struktura va ma’rifiy jarayonlar bilan belgilanadigan ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, ayol tarixiy jarayonlarda jamiyatning ma’naviy-ma'rifiy, madaniy va ijtimoiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:.

1. Azimjonova S. Buxoro amirligida ayollar tarixi: ijtimoiy va madaniy tahlil. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Alimova D. Oila va ayol tarbiyasi Buxoro hududida (XIX–XX asrlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
3. Islomov A. Markaziy Osiyo tarixida ayollarning iqtisodiy va maishiy roli. – Toshkent: Sharq, 2019.
4. Tursunov N. Jadid ma’rifatchilari va ayol savodi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. Karimova Z. Buxoro qizlar maktablari tarixi va ma’rifiy ahamiyati. – Toshkent: Fan, 2021.
6. Rasulov R. Sharq falsafasida ayol va oilaviy qadriyatlar. – Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2019.
7. Mirzaahmedov F. Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimida ayollar faoliyati. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022.
8. Sagdullayev S., Boboev H. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

XITOY YILNOMALARIDA TOXARISTON HAQIDAGI AYRIM MA’LUMOTLAR

Ikromov Nozim Ikromovich
Termiz Davlat Universiteti “O’zbekiston tarixi va manbashunoslik” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: TXitoy yilnomalari O’rta Osiyoning qadimgi va ilk o’rta asrlar tarixi uchun ma’lumot beruvchi muhim adabiyotlardan bo’lib, ilk o’rta asrlarda O’zbekistonning janubiy va hozirgi Afg’onistonning shimoliy qismlari Toxariston deb atalgan. Shuningdek, ilk o’rta asrlar davrida o’z davrining yirik davlatlari bo’lgan Xitoy, Arab xalifaligi, Tibet davlatlari o’rtasidagi ziddiyatlar kuchaygan bo’lib, Toxariston knyazlari o’z mustaqilliklarini saqlab qolish uchun Xitoyga elchi imperatorlariga elchilar yuborganlar. Toxaristondan Xitoyga borgan elchilar va ularning faoliyati, maqsadi xususida to’xtalib o’tamiz

Калит сўзлар: imperator, Shofan o’lkasi, elchi, tarixiy-geografik o’lka, qo’zg’olon, savdo-sotiq, shisha buyumlar, ilk o’rta asrlar

Tarixiy geografik viloyatlar qadimda va o’rta asrlar davrida tabiiy geografik to’siqlar, ya’ni, tog’, daryo, o’rmon, cho’l kabilar bilan chegaralangan. Yurtimiz tarixida qadim va ilk o’rta asrlar davrida Sug’diyona, Ustrishona, Choch, Eloq va boshqa o’lkalarning mavjud bo’lganligi, ulardagi iqtisodiy – ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar xususida tarixiy manbalar va adabiyotlarda ko’plab ma’lumotlar uchraydi. Yurtimizning janubiy sarhadlarida joylashgan ana shunday tarixiy geografik o’lkalardan biri Toxariston, uning ilk o’rta asrlar tarixi va ayniqsa, Xitoy bilan munosabatlariga oid ayrim ma’lumotlar xususida fikr bildirib o’tamiz.

Toxaristonning ilk o’rta asrlar tarixiga oid dastlabki ma’lumotlar Xitoyning “Bey shi” (“Shimoliy xonadonlar tarixi”) da uchraydi. Ushbu tarixiy adabiyotda, Xitoyda shisha tayyorlash Chjou (mil.avv 1027 – 256 yy) sulolasi hukmronligining so’nggi davrlarida boshlangan bo’lsada, Toxaristonliklar shishalar ayniqsa, rangdor shishalar tayyorlashda xitoyliklardan ancha ilgarilab ketganliklari bayon qilingan[2].

[1] Azimjonova S. Buxoro amirligida ayollar tarixi: ijtimoiy va madaniy tahlil. – Toshkent: Fan, 2018.87-104,156-162b.
[2] Ртвеладзе Э. Великий шельковы путь. – Т.: Ўзбекистон миллий энцклопедияси. 1999. –С. 114.

Xitoy tarixiy adabiyotlarda milodiy VII asrgacha Toxariston yigirma yettita knyazlkka bo'linib ketganligi, uning Tuxulo, Duxulo, Dutsyuy, Doushalo, Doutsyuylo va boshqa qator nomlari keltirilganligini uchratishimiz mumkin. Jumladan, Doule atamasining kelib chiqishida varvarlarning Moxe – Doule qo'shig'i sabab ekanligi diqqatga sazovor[1]. Bundan tashqari Toxariston hududida joylashgan (Boti, Talьkan, Kumed va boshqalar) shaharlar va ularning tuzilishi, o'rnashgan o'rni ham batafsil keltiriladi[2].

Taniqli olim A. G. Malyavkin Tan sulolasi tarixidan quyidagi parchalarni o'zining "Tan davri xronikalari Markaziy osiyo davlatlari haqida" asarida: Tuxulo aholisi eftalitlar (Yada) bilan aralash holda yashashi, eftalitlarda aka – ukalar bitta ayolga uylanishi (poliandrya – ta'kid bizniki), o'lka shimolida Poli tog'i borligi, tog' tepasida g'aroyib otlarning borligi, mahalliy aholi biyalarni bu yerlarga o'tlagani olib kelib, g'aroyib otdan nasl olishi, knyaz yabg'u deb nomlanishi U-de (618-627 yy), Chjen Guan erasi (627-650 yy), Yun Xuey erasining birinchi yili (650-651yy) da o'lpon sifatida, bo'yi yetti chi, qora rangli, oyog'i tuyaniki singari, qanotli, bir kunda 300 li (bir li – 579 metrni tashkil etgan) gacha oladigan, temir parchalarni ham yutadigan qush yuborilgan. Matn parchalarining keyingi qismida esa, Shanь lun erasining birinchi yili (705-706 yy), Kay an (713-742 yy), Tyan bao (742-756 yy) eralarida bir necha bora Tuxulo (Toxariston) elchilari Xitoyga kelganligi, ular o'zlari bilan deyarli har safar otlar, xachirlar, 200 turdan ortiq dori-darmonlar, va nafis shisha idishlarolib keganliklari xususidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin[3].

Milodiy VIII asr boshlarida Movarounnah hududini arab istilochilari zabt eta boshladilar. Arablarga qarshi milliy ozodlik harakatlari avj olib, ayrim holatlarda Xitoy hukumdorlaridan ham yordam so'ralganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Shunday ma'lumotlarning biridan, 719 – yilning fevralida Buxoro hukmdori Tug'shoda, Samarqad ixshida Gurak, Kumed (Toxariston knyazliklaridan biri) hukmdori Narayana Xitoyga elchi jo'natib, imperatorga yozgan maktublarida arablarning yovuzliklari va ularga qarshi kurashga yordam so'ragnlari keltirib o'tiladi[4]. Ma'lumotlarning birida, Tyan bao erasi o'rtalarida (742-756 yy) Tuxulo knyazi Isilanь Erkin Xitoyga o'lpon sifatida chopqir va zotdor otlarni yuborgani, Isilanь musulmoncha Islom so'zining xitoycha transkripsiyasi ekanligi ham keltirib o'tiladi[5].

Ma'lumki, Xitoyda 755-763 yillarda An Lu-shan qo'zg'oloni bo'lib, ushbu qo'zg'olon o'zining ko'lami katta va kengligi jihatidan o'sha davr dunyoning eng yirik qo'zg'olonlaridan biri bo'lgan edi. Tarixiy adabiyotlarda Anь Lu-shan qo'zg'olonini bostirish uchun Silla (Hozirgi Koreya), Uyg'ur hoqonligi, Tibet, Maneylar (Birma qabilalari), Dashi (Arab xalifaligi) askarlarining yordamga kelgani xususidagi ma'lumotlar mavjud. Ma'lumotlarning birida, Syan yuan erasining boshlarida, ya'ni,758-760 yillarda G'arbdagi to'qqizta davlat jumladan, Toxariston ham imperatorga nisbatan odobsizlik qilganlarni azolash uchun o'z askarlarini yuborganliklarini, ular Xitoy hududiga yetib kelganda, imperator bu qo'shinlarni Shofan o'lkasidagi imperiya qo'shinlari bilan qo'shilish xususida ko'rsatma berganligi bilib olishimiz mumkin[6].

Xulosa qilib aytish mumkinki, ilk o'rta asrlarda yurtimiz janubiy sarhadlari, xususan Toxariston hududi o'z davrining eng taraqqiy etgan o'lkalaridan biri edi. Buyuk ipak yo'lining janubiy tarmog'ining muhim shaharlari joylashgan bu o'lka aholisi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jihatdan dunyoning ilg'or davlatlari bilan qizg'in munosabatlarga kirishgan. Uning tarixini o'rganish va tadqiq etish esa bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

[1] Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука, 1989. – С. 193., 213.

[2] Бартольд В. В. Туркестан в эпоху Монгольского нашествия. Т.1. - М.: "Наука"; 1963. – С. 117., 130. Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука, 1989. – С. 237.

[3] Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии: Тексты и исследования. – Новосибирск: Наука, 1989. – С. 69.

[4] Смирнова О. И. Очерки из истории Согда. – М.: "Наука"; 1970. – С. 213.

[5] Малявкин А. Г.Материалы по истории уйгуров в IX-XII вв. - Новосибирск, "Наука"; 1974.– С. 148. Коммент. 522.

[6] Малявкин А. Г. Историческая география Центральной Азии (Материалы и исследования). . - Новосибирск, "Наука"; 1981.– С. 69.

“XX ASR O‘RTA OSIYO TARIXIY-ILMIY MUHITIDA L. I. REMPEL’: TARJIMAI HOLI VA ASOSIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI”

To‘raeva Guli Baxriddinovna
Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrasi o‘qituvchisi
turayevaguli8@gmail.com
Rasulov Muhammadmuso Jasur o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
Tarix ta’lim yonalishi 1- bosqich talabasi

Аннотация. Ushbu maqolada XX asr O‘rta Osiyo san’ati va madaniy merosini o‘rganishda buyuk tarixchi, san’atshunos va xaritashunos L. I. Rempel’ning ilmiy merosi tahlil qilinadi. Rempel’ning tadqiqotlari O‘zbekiston va mintaqa shaharlarining me’moriy obidalari, masjidlar, minoralar, madrasalar, maqbaralar, shuningdek, xalq hunarmandchiligi, amaliy san’at, milliy kiyim-kechak va numizmatika sohalarini o‘z ichiga oladi. Maqolada olimning metodologik yondashuvi, monografiyalari va maqolalari, Buxoro va Samarqand ekspeditsiyalari hamda O‘zbekiston san’atshunoslik ilmiy maktabiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: L. I. Rempel’, O‘rta Osiyo san’ati, Buxoro, Samarqand, arxitektura, amaliy san’at, ilmiy meros.

XX asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyoning tarixiy-madaniy merosini o‘rganish jarayonida bir qator yirik olimlar shakllandi. Shulardan biri — tarixchi olim, san’atshunos va xaritashunos Lev Izrailevich Rempel’ bo‘lib, uning ilmiy merosi O‘zbekiston va butun mintaqa madaniyati tarixini chuqur o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Rempel’ning tadqiqotlari arxeologiya, san’at tarixi, topografiya, shaharsozlik, muzeyshunoslik va kartografiya sohalarining kesishgan nuqtasida shakllanib, shaharlar tarixini kompleks yondashuv asosida tahlil etishga yordam berdi.

Rempel’ asosan Buxoro, Samarqand, Xorazm va Farg‘ona vodiysi madaniy yodgorliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari bilan tanilgan bo‘lib, u o‘z tadqiqotlarida tarixiy manbalar, arxeologik dalillar, me’moriy meros va san’at namunalarini bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida qo‘llagan. Shu sababli uning ishlari nafaqat tarix fanida, balki san’atshunoslik, etnografiya hamda shaharning tarixiy topografiyasi kabi yo‘nalishlarda ham asosiy manbalar qatoriga kiradi.

Olimning ilmiy faoliyati O‘rta Osiyoning o‘rta asrlaridan to XX asr boshlariga qadar bo‘lgan madaniy rivojlanish jarayonlarini qayta tiklashda alohida ahamiyatga ega. Uning yaratgan xaritalari, yodgorliklar tasnifi, shaharlarning tarixiy tuzilishiga oid ishlari ham zamonaviy tadqiqotchilar uchun muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu maqolada L. I. Rempel’ning hayot yo‘li, ilmiy maktabi, tadqiqot metodologiyasi va O‘rta Osiyo tarixshunosligi, san’atshunosligi hamda kartografiyasiga qo‘shgan hissasi kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Asosiy qism.Tarixchi olim, san’atshunos va xaritashunos Lev Izrailevich Rempel’ 1904-yil 7-noyabrda Kishinyov shahrida tug‘ilgan. Uning otasi Srula Pinxusovich Rempel va onasi Sulamifi Lazarevna Shteynberg (1887–1946) o‘z davrining ma’rifatli, ziyoli kishilari bo‘lgan. Rempel’ning bobosi — Pinxus Rempel — Kishinyov shahrida obro‘-e’tiborli shaxs sifatida tanilgan bo‘lib, uning oilasida intellektual muhitning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

1914-yilda Rempel’lar oilasi Magilyov gubernasining Bixov shahriga ko‘chib boradi va Birinchi jahon urushi yillarida u yerda istiqomat qiladi. 1917-yilda front orti hududlaridagi notinchlik va harbiy harakatlar kuchaygach, oilaning Feodosiya (Qrim) shahriga ko‘chishi ularning xavfsizlikka intilganini ko‘rsatadi. Otasining 1923-yilda vafotidan so‘ng, Rempel’lar Simferopol shahriga joylashadilar.

L. I. Rempel’ning ilmiy shakllanishi aynan shu davrdan — 1924-yildan boshlanadi. U Simferopoldagi Tavrida markaziy muzeyida dastlab amaliyotchi, keyinchalik ilmiy xodim va

bo‘lim boshlig‘i sifatida faoliyat yuritib, muzeyning arxeologiya va san’atshunoslik bo‘limlarida katta tajriba to‘pladi. Aynan Tavrida muzeyi Rempel’ning O‘rta Osiyo va Qrim arxeologiyasi, tarixiy topografiya va san’atshunoslik bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlarining metodik asosini yaratgan muhim ilmiy maktab bo‘lib xizmat qildi[1].

1928-yilda L. I. Rempel’ Moskvaga kelib, o‘sha davr ilmiy-intellektual muhitida faol ishtirok eta boshlaydi. U 1931-yilda Moskva davlat universitetini tamomlab, 1931–1933-yillarda Davlat san’at akademiyasining aspiranti sifatida ilmiy faoliyatini davom ettiradi. Talabalik yillaridanoq Rempel’ning ilmiy qiziqishlari orasida O‘rta Osiyo san’ati alohida o‘rin egallagan bo‘lib, u bu yo‘nalishga oid ilk tadqiqotlarini 1930-yillardayoq e’lon qila boshlagan.

Rempel’ning dastlabki muhim ilmiy ishlari qatoriga 1930-yilda chop etilgan “Национальная архитектура Средней Азии” (“O‘rta Osiyoda milliy arxitektura”) maqolasi kiradi. Mazkur maqola Moskvaning “Искусство в массе” jurnalining sakkizinchi sonida chop etilib, O‘rta Osiyo me’morchiligini milliy-tarixiy an’analarga asoslangan holda o‘rganish borasida yangi ilmiy qarashlar taklif qilgani bilan e’tibor qozongan.

Shundan so‘ng Rempel’ O‘rta Osiyo va Eron madaniy merosiga oid bir qator ilmiy-tanqidiy maqolalar bilan ilmiy jamoatchilikka tanila boshladi. Ularning orasida “Архитектура ислама” (Akademiya arxitekturi, №3, 1935), “К итогам международного конгресса по иранскому искусству” (Akademiya arxitekturi, №3, 1935), “Мавзолей Измаила Саманидов” (Akademiya arxitekturi, №3, 1936) kabi tadqiqotlar alohida ilmiy ahamiyatga ega[2].

Rempel’ning Sharq me’morchiligi, islom san’ati va o‘rta asr yodgorliklarining rivojlanish tarixiga oid maqolalari uning ilmiy metodologiyasini shakllantirishda muhim bosqich bo‘ldi. U bu ishlarda arxitektura obidalarining tipologiyasi, ularning tarixiy qatlamlari hamda milliy san’at an’analari bilan bog‘liq jarayonlarni tizimli ravishda tahlil qilgan. Rempel’ning birinchi yirik ilmiy asari — “Живопись Советского Закавказья” nomli monografiya 1932-yilda nashr etilib, sovet davri Zakavkazye tasviriy san’ati bo‘yicha muhim tadqiqot sifatida baholangan. 1935-yilda esa uning navbatdagi monografiyasi — “Архитектура послевоенной Италии” chop etilib, Yevropa me’morchilik jarayonlariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar qatoriga kiradi.

1937-yil Rempel’ hayotida keskin burilish bo‘lgan yildir: turmush o‘rtog‘i, san’atshunos T. V. Vyaznikovtseva repressiya qilinib, qamoqqa olinadi. Shu yilning o‘zida Rempel’ qadimgi Buxoro shahriga surgun qilinadi. 1937-yil iyuldan boshlab u Buxoroda suratkash sifatida mehnat qiladi, keyinchalik esa shahar muzeyida oddiy xodim sifatida ishlashga majbur bo‘ladi.

1939–1948-yillarda Rempel’ning ilmiy faoliyati Samarqand viloyat muzeyi bilan bog‘liq bo‘lib, u bu davrda muzeyning ilmiy xodimi sifatida arxeologiya, numizmatika, tasviriy san’at va me’morchilikka oid materiallar bilan ishlaydi. 1948-yilda olim Qozog‘istonning Jambul shahriga ko‘chiriladi va u yerda o‘rta maktabda chizmachilik o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydi. Rempel’ to‘liq oqlangunicha, ya’ni 1954-yilgacha Jambul viloyat muzeyida ilmiy xodim sifatida ham faoliyat yuritgan.

1954-yildan boshlab Rempel’ning hayoti Toshkent bilan bog‘lanadi. U dastlab O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasining San’atshunoslik institutida tasviriy va amaliy san’at hamda arxitektura bo‘limi ilmiy xodimi sifatida ishlaydi, 1955-yildan boshlab esa ushbu bo‘limning boshlig‘i sifatida mintaqaviy san’atshunoslik ilmiy maktabining rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. 1957–1961-yillarda Rempel’ sobiq A. N. Ostrovskiy nomidagi Toshkent davlat rassomchilik institutida (hozirgi M. Uyg‘ur nomidagi San’at instituti) san’at tarixi va nazariyasi kafedrasi professori va kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritadi.

Rempel’ professor G. A. Pugachenkova (1915–2007) bilan hamkorlikda Buxoro, Samarqand hamda O‘zbekistonning boshqa shaharlaridagi arxitekturani o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etgan. Bu ekspeditsiyalar davomida ular masjidlar, minoralar, madrasa va maqbaralarning konstruktiv xususiyatlari, tarixiy qatlamlari va bezak san’atini kompleks ravishda hujjatlashtirdilar.

[1] Рempель Л. И. Комсомол в Крыму. Симферополь, 1927.-С.88.
[2] http://ru.wikipedia.org/w/index.php?title=Рempель,_Лазарь_Израилевич&oldid

1990-yilda Rempel' Moskva shahriga ko‘chib o‘tadi. O‘zbekiston va O‘rta Osiyo san'ati tarixi bo‘yicha yirik mutaxassis sifatida tanilgan Rempel' o‘zining ko‘p sonli ilmiy asarlarini O‘zbekistonning tarixiy arxitekturasi, milliy kiyimlari, numizmatikasi, pullari, amaliy bezak san'ati va boshqa madaniy meros sohalariga bag‘ishlagan. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham O‘rta Osiyo san'atini o‘rganishda muhim manba sifatida qadrlanadi.

L. I. Rempel' O‘rta Osiyo san'atini chuqur o‘rganish jarayonida nafaqat me'moriy obidalar va amaliy san'at namunalariga, balki mintaqaning etnik guruhlariga mansub madaniy merosga ham alohida e'tibor qaratgan. U Buxoro yahudiylari hamda Qoraqalpoq xalqining san'ati, turmush tarzi, an'anaviy bezaklari va tasviriy merosini tadqiq etgan san'atshunoslardan biridir. Mazkur izlanishlar Rempel'ning ilmiy qamrovining kengligini ko‘rsatib, uning O‘rta Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatini kompleks yondashuv asosida o‘rganganligini tasdiqlaydi.

Rempel'ning mintaqaviy san'atga oid yirik asarlari orasida bir qancha ilmiy monografiyalar alohida ajralib turadi. Jumladan, "Архитектурный орнамент Узбекистана" (1961) asari O‘zbekiston hududidagi me'moriy bezak san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qiladi. 1965-yilda chop etilgan "История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины XIX века" monografiyasi esa O‘zbekiston san'at tarixi bo‘yicha ilk fundamental tadqiqotlardan biri sifatida qadrlanadi. Unda tasviriy va amaliy san'at, arxitektura, hunarmandchilik, bezak san'ati kabi yo‘nalishlar qamrab olingan.

Rempel'ning o‘tmish madaniy merosini jonli tasvirlagan muhim asarlaridan biri sifatida "Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары" (1982) monografiyasi e'tiborga molik bo‘lib, unda XIX–XX asr boshlaridagi Buxoro shahri hayoti, hunarmandchiligi, me'morchilik san'ati va an'anaviy shahar madaniyati ilmiy-nazariy yondashuv asosida ochib berilgan. Shuningdek, Rempel'ning 1987-yilda nashr etilgan "Цел времён. Вековые образи и бродячие сюжеты в традиционном исскустве Средней Азии " (1987) asari O‘rta Osiyo xalqlarining qadimiy an'anaviy san'atining tarixiy ildizlariga bag‘ishlangan muhim tadqiqotdir.

1992-yilda esa Rempel'ning "Мои современники" deb nomlangan esdaliklari chop etildi. Ushbu memuarlar nafaqat uning shaxsiy hayot yo‘li, balki XX asrning birinchi yarmi va ikkinchi yarmidagi ilmiy muhit, san'atshunoslik maktablari, hamkasblari bilan bo‘lgan ijodiy munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi. Rempel'ning ushbu asari mintaqa ilmiy tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida baholanadi.

L.I.Rempel Toshkentdagi ko`p yillik faoliyati davomida O`rta Osiyo san`atining yirik bilimdoniga aylandi. U ko`pgina san`at yodgorliklari va arxeologik qazilmalarida ishtirok etgan. Bu izlanishlar natijasida ko`pgina maqolalar e`lon qildi. Rempel qilgan ishlar juda muhimdir. U O`zbekiston biddiy boyliklarining go`zalligini ko`rsatadi.[1]

Uning arxeologiya sohasida olib borgan ishlari unga san`at tarixi va qadimiylikni sevuvchilarning hurmatiga sazovor bo`ldi.

L.I.Rempel bu yo`nalishda ko`p mehnat qildi. Uning qalamiga O`rta Osiyo san`ati bo`yicha har tomonlama mukammal tadqiqotlar olib borgan. Bu tadqiqotlar maxsus ko`p sonli jurnallarda ilmiy maqolalar tarzida e`lon qilingan.

Rempel boshqa san`at tarixchilariga o`xshab faqat axborot va faktlar bilan chegaralanib qolmaydi. U masalani har tomonlama tahlil qiladi.Rempel yodgorliklarni faqat tashqi belgilari bilan chegaralanib qolmay,har bir yodgorlikning O`rta Osiyo san`atidagi o`rni, uning badiiy qiymatini chuqur o`rganishga harakat qilgan.

L.I.Rempel O`rta Osiyo tarixi bu - umumiy san`at tarixining nisbatan yosh yo`nalishi hisoblanadi deb ta`kidlab o`tgan. Har bir san`at tarixi bo`limi rivojida, boshida ishning daliliy tomonlariga qiziqish ko`p bo`ladi va boshqa tomonlar unutilib qoldiriladi. Bugungi kunda san`at tarixining barcha sohalariga qiziqish ortmoqda.

[1] http://www.ziyonet.uz

L.I.Rempel alohida yodgorliklarni o`rganish uchun bu yodgorlik qurilgan davr haqida to`liq tasavvurga ega bo`lish kerak[1], degan fikrga keldi. Bunday fikrlash san`at tarixi haqida tasavvurlarni kengaytiradi. L.I.Rempel o`zining dastlabki maqolasida O`rta Osiyoda qadimiy madaniyatlarning almashinuvini mohirona tasvirlab bergan.

Sharqiy Parfiya,Kushonlar imperiyasi, Xorazm va So`g`dlar madaniyati almashinuvini tasvirlab bergan. Shu bilan birgalikda L.I.Rempel har bir davrda san`atning vujudga kelishida jamiyatning turli qatlamlarining muhim rolini ham eslatib o'tgan[2].

Rempel o`zining " Условие вопроси изучения средневекого исскуства Средней Азии " nomli maqolasida arxitektura bu - alohida soha ekanligini aytadi. Rempel san`atshunoslik izlanishlarini arxeologik o`zgarish bilan birga olib borish kerakligini aytadi. Bu esa san`atning chuqur ichkarisiga kirishga yordam beradi. Arxeologiya izlanuvchining qo`liga madaniyat o`tmishini beradi, deb ta`kidlab o`tgan Rempel. Bundan tashqari Rempel Kushon saltanati (mil.av.II asrdan milodiy IV asrgacha) haqida ham ma`lumotlar berib uni o`rta asr san`atiga chuqur iz qoldirganligini alohida takidlaydi. Rempel So`g`d yozuvlari haqida gapirar ekan, so`g`d yozuvlari buyuk davrning buyuk mahsuli hisoblanadi deb aytgan.

XV-XVI asrlarda O`rta Osiyo minatyurasi yorqin san`at darajasiga ko`tarildi. Bunda badavlat tabaqa vakillari hayoti bilan bir qatorda oddiy xalq hayoti ham o`z aksini topgan. Bu davr san`ati jahon xazinasiga durdona bo`lib qo`shilgan.[3]

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida L. I. Rempel'ning tadqiqotlari Buxoro shahri me'morchiligi, xaritashunosligi hamda aholining turmush tarzi haqida batafsil tarixiy tahlillarni o‘z ichiga oladi. Shahar atrofida, ayni davrda, qal'a shaklidagi tuproq devorlar (pasxa) mavjud bo‘lib, ularni himoya qilish tizimi juda murakkab tuzilgan edi. Devorning tepasida ikki metr qalinlikdagi platformalar (barbetlar) joylashtirilgan bo‘lib, u devor bo‘ylab himoya qurollarini tashishga xizmat qilgan.

Shahar devorining uzunligi taxminan 12 kmni tashkil etgan. Devor bo‘ylab 116 ta yarim minora mavjud bo‘lib, shaharga kirish-chiqish 11 ta ikki minorali darvoza orqali amalga oshirilgan. Darvozalar o‘nboshi boshchiligidagi sarbozlar tomonidan doimiy nazorat qilinar edi. Shu bilan birga, Qarshi, Imom va Shirgaron darvozalarida sarkarda navbatchilik qilgan.

Darvozalar kech soat sakkizda yopilgan va kalitlar mirshabxonaga olib borilgan, faqat Qarshi darvozasi kaliti darvozabonga qoldirilgan, chunki ushbu darvozadan xabarchilar kiritilgan, shuningdek, shaharga kechikib kelganlar ham faqat shu darvozadan o‘tgan. Kech qolgan shahar aholisi yoki mehmonlardan kirish uchun maxsus to‘lov undirilgan, bu esa shahar tartibini ta'minlash va nazoratni kuchaytirish maqsadida amalga oshirilgan.

L. I. Rempelning "Далёкое и близкое" asarida Buxoro shahrining ijtimoiy hayoti, shahar boshqaruv tizimi va aholining kundalik turmush tarzi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltiradi.

Xulosa. L. I. Rempel'ning ilmiy merosi XX asr O‘rta Osiyo san'ati va madaniy merosini o‘rganish sohasida katta ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlari Buxoro va Samarqand shaharlarining me'moriy obidalari, minoralar, madrasalar, maqbaralar, shuningdek, xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik, milliy kiyim-kechak va numizmatika kabi sohalarni qamrab olgan.

Rempel'ning ilmiy yondashuvi tarixiy, san'atshunoslik va etnografik metodlarni uyg'unlashtirish orqali O‘rta Osiyo madaniy merosining tizimli tahlilini amalga oshirishga imkon bergan. Uning Buxoro shahriga oid tadqiqotlari shahar devorlari, darvozalar, bozorlar, shahar aholisining turmush tarzi va xavfsizlik tizimi kabi tarixiy jihatlarni batafsil yoritgan.

L. I. Rempel'ning ilmiy merosi nafaqat tarixiy va san'atshunoslik tadqiqotlari, balki O‘rta Osiyo madaniy merosini saqlash, tadqiq etish va rivojlantirish uchun ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

---

[1] Рempель Л.И. Архитектурный орнамент Узбекистана. История развития и теория построения. Институт искусствознания Академии Наук УзССР. Ташкент: Гослитиздат УзССР, 1961. – С.129.

[2] Рempель Л.И. История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины XIX века (с Г. Пугаченковой). Институт искусствознания имени Хамзы Хаким-заде Ниязи. Москва: Искусство, 1965. – С.6.

[3] Рempель Л.И. Искусство Среднего Востока. Избранные труды по истории и теории искусств. Библиотека искусствознания. Москва: Советский художник, 1978. – С.33.

ADABIYOTLAR

1. Рempель Л. И. Далёкое и близкое. Страница жизни, быта строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. – Москва : Искусство, 1982. – 320 с.
2. Рempель Л. И. Архитектурный орнамент Узбекистана. – Ташкент : Фан, 1961. – 250 с.
3. Рempель Л. И. История искусств Узбекистана с древнейших времён до середины XIX века. – Ташкент : Фан, 1965. – 400 с.
4. Рempель Л. И. Цел времён. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Ташкент : Фан, 1987. – 360 с.
5. Рempель Л. И. Мои современники. – Москва : Наука, 1992. – 280 с.
6. Рempель Л. И. Национальная архитектура Средней Азии // Искусство в масси. – 1930. – №8. – С. 12–25.
7. Рempель Л. И. Архитектура ислама // Академия архитектуры. – 1935. – №3. – С. 45–59.
8. Рempель Л. И. К итогам международного конгресса по иранскому искусству // Академия архитектуры. – 1935. – №3. – С. 60–72.

GENEALOGY OF THE NAME BUKHARA IN HISTORICAL SOURCES

Abbas Eghbal Mehran
Shahid Chamran University of Ahvaz, Researcher of Central Asia and the Caucasus, PhD in History of Islamic Iran, PhD.
Mohammad Reza Alam
Shahid Chamran University of Ahvaz, Professor of History Department, PhD in History of Islamic Iran, Professor.

Abstract. Bukhara is one of the important historical and cultural cities in Central Asia, which has been known throughout history as a scientific, economic and religious center. Due to its geographical location, this city has always been a meeting place for different cultures and civilizations. This article examines the genealogy of the name Bukhara in historical sources. By analyzing historical documents and texts, an attempt is made to identify the roots of the name Bukhara and its developments over time. Also, the cultural and social impacts of this city on surrounding civilizations will be examined. This research aims to answer these questions using the analytical-descriptive method: 1- What are the roots of the name Bukhara in historical sources and what developments has it undergone? 2- How can the cultural and social impacts of Bukhara on other civilizations be identified? Research hypotheses suggest that the name Bukhara originated from a word of Iranian or Sogdian origin and has experienced semantic and pronunciation changes throughout history. As a cultural and scientific center, Bukhara has had significant impacts on the development of science, literature, and art in the Central Asian region.

Keywords: Genealogy, Bukhara, Historical sources, Iranian, Sogdian.

Bukhara is a famous city in Transoxiana and is derived from Bukhara, meaning much knowledge. It was named so because there were many scholars and wise men in that city. Bukhara is now part of the Republic of Uzbekistan. This city was initially the capital of the Samanids, later Genghis conquered and destroyed it, and after rebuilding it for many years, it was the capital of the Uzbek rulers and was again captured by Iran, and during the Qajar era, the Russians also captured it.[1] We do not know many sources about the history of Bukhara in the Sogdian region in ancient times. Apparently, its location was originally a water reservoir in ancient times.[2] According to Juveyni [3] Its name comes from the language of the pagan Uyghur and Khatai people who called

[1] Farahani, Hassan (2006), The Daily History of Contemporary Iran, Vol. 1, Tehran: Institute of Political Studies and Research, p. 222.
[2] Narshkhi, Mohammad Jafar (1972), History of Bukhara, Vol. 1, translated by Abu Nasr Ahmad bin Mohammad Nasr Qabawi, summarized by Mohammad bin Zafar bin Omar, Tehran: Modarres Razavi Publishing House, p.7.
[3] Juveyni, Atamalik bin Muhammad (2008), Book of the History of the World Explorer, Vol. 1, p. 76, edited by Muhammad Qazvini, Tehran: Hermes, p. 76.

their temples "Bukhar", and according to a hadith, its name is also mentioned as Fakhira.[1] Moghaddisi takes its name from Mount Khoran, which later became Kokharan and Bukhara.[2] In later periods, it was also called Bukhara Sharif. Its derivation should be considered from the Sogdian word Bukharak.[3] During the Achaemenid period, Alexander, in his campaign to Transoxiana (Trans-Jihun), after conquering Samarkand, also captured Bukhara. During the Sasanian period, Khosrow I Anushirvan marched towards the lands of Hayatla and recaptured Tokharistan, Zabulistan, Kabulistan, and the Saghani (Chaghani) kingdoms. The Khagan king, Sinjabu, also captured Chach, Fergana, Samarkand, Kash, and Nakhshab up to Bukhara.[4] During Muawiyah's reign, Arab armies under the command of Ubaydullah ibn Ziyad first encountered the people of Bukhara, whose king, Khatun, a woman of no means (Bukhara Khudat), ruled as viceroy of her son Tughshadeh, but their war ended in a compromise and Ubaydullah withdrew after taking one thousand dirhams and four thousand slaves.[5]

Ahmad bin Muhammad (bin) Nasr says that there are many names for Bukhara and he has mentioned it in his book as Nimjakat. And again I saw in another place that he mentioned it as Bumskat. And in another place it is written in Tazi as Madinat al-Safriya, meaning the city of Ru'in. And in another place it is written in Tazi as Madinat al-Tujar, meaning the city of merchants. And the name Bukhara is more famous than all of them. And no city in Khorasan has more names than this, and in a hadith the name Bukhara Fakhira has been mentioned.[6] In the book Tarqeem Masalik wa Mamalek, Bukhara is described as follows: "Bukhara is called Bumjakth. It is a city built on a hill and the houses are made of wood. It has built pavilions, gardens, and parks next to each other. The diyas are close to each other, so that the gardens are all connected, measuring twelve miles by twelve miles. And a wall has been built around it."[7] Bukhara, which is located beyond the river, is called Fakhira. In some reports, it is narrated that the Prophet Ayyub went there and prayed for Bukhara's well-being. This prayer caused Bukhara to boast about other cities. For this reason, it was called Fakhira.[8] No matter how much I researched, I could not find the reason for naming this city Bukhara. There is no doubt that this city is one of the ancient cities that is famous for its purity, its abundance of gardens, orchards, and various fruits.[9] Juyini has written in Jahangosha that in ancient times, in every century, there was a gathering of scholars of every religion of that time. And he has written about the origin and reason for naming the city Bukhara. And the origin of Bukhara is from Bukhara, which in the language of the Mughals means a gathering of knowledge. And this word is in the language of the nearby pagan Uyghurs, whose temples, which are the places of idols, are called Bukhara.[10]

Genealogical analysis of the name "Bukhara" in historical sources shows that this name has deep and diverse roots in ancient languages and cultures. A study of Sogdian and Old Persian texts suggests that the word "Bukhara" probably meant "good place" or "place with good weather". Throughout history, this name has become a symbol of science, culture, and trade, and is known as an important scientific and cultural center in Central Asia. With a rich history, Bukhara has served not only as a trading center but also as a meeting place for cultures and civilizations. The literary and scientific works that emerged in this city indicate its profound influence on Islamic and non-Islamic civilizations. Also, Bukhara's role in the spread of science and knowledge during the Golden Age of Islam made it one of the most important educational centers. The genealogy of

[1] Narshkhi, Mohammad Jafar (1972), History of Bukhara, Vol. 1, translated by Abu Nasr Ahmad bin Mohammad Nasr Qabawi, summarized by Mohammad bin Zafar bin Omar, Tehran: Modarres Razavi Publishing House, pp.30-31.
[2] Moqaddasi, Muhammad ibn Ahmad (1385), The Best Divisions in the Knowledge of Regions, Vol. 1, translated by Alinaqi Manzavi, Tehran: Koumash, p. 332.
[3] Dinvari, Ahmad (1989), Al-Akhbar al-Tawal, vol. 1, translated by Mahmoud Mahdavi Damghani, Tehran: NI, p. 37.
[4] Ibid,pp.67-68.
[5] Tabari, Muhammad ibn Jarir (1990), History of Tabari: History of Nations and Kings, vol. 5, translated by Abul-Qasim Payandeh, Tehran: Asatir, pp. 297-298.
[6] Narshakhi, Muhammad ibn Ja'far (1984), History of Bukhara, translated by Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad Nasr al-Qabawi, Tehran: Toos, p. 30.
[7] Ibid,p.168.
[8] Ibid,p.200.
[9] Ibid,p.168.
[10] Juveyni, Atamalik bin Muhammad (1387), Juwayni's History of the World's Conqueror, edited by Muhammad Qazvini, Tehran: Hermes, p. 76.

Bukhara helps us to better understand the cultural and historical identity of this city and to recognize its importance in the history of the region and the world. This recognition can help strengthen cultural and social ties between nations and preserve the rich historical heritage, and will reveal new dimensions of Bukhara's history.

Resources

1. Juveyni, Atamalik bin Muhammad (1387), Juwayni's History of the World's Conqueror, edited by Muhammad Qazvini, Tehran: Hermes, p. 76.
2. Narshakhi, Muhammad ibn Ja'far (1984), History of Bukhara, translated by Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad Nasr al-Qabawi, Tehran: Toos, pp. 30-168-200.
3. Farahani, Hassan (2006), The Daily History of Contemporary Iran, Vol. 1, Tehran: Institute of Political Studies and Research, p. 222.
4. Narshkhi, Mohammad Jafar (1972), History of Bukhara, Vol. 1, translated by Abu Nasr Ahmad bin Mohammad Nasr Qabawi, summarized by Mohammad bin Zafar bin Omar, Tehran: Modarres Razavi Publishing House, p.7.
5. Moqaddasi, Muhammad ibn Ahmad (1385), The Best Divisions in the Knowledge of Regions, Vol. 1, translated by Alinaqi Manzavi, Tehran: Koumash, p. 332.
6. Dinvari, Ahmad (1989), Al-Akhbar al-Tawal, vol. 1, translated by Mahmoud Mahdavi Damghani, Tehran: NI, p. 37.
7. Tabari, Muhammad ibn Jarir (1990), History of Tabari: History of Nations and Kings, vol. 5, translated by Abul-Qasim Payandeh, Tehran: Asatir, pp. 297-298.

BUXORO XONLIGI TARIXI AKS ETGAN SAFAVIYLAR DAVRIGA OID AYRIM MANBALAR XUSUSIDA

Abdurazzoqova Yulduz Munis qizi
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
tayanch doktoranti.
Tel.:+99893 397-97-26
E-mail:abdurazzakovayulduz8@gmail.com.
ORCID: 0009-0007-4776-9377.

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1500–1756-yillar oralig‘ida Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti Eron tarixiy manbalari asosida ilmiy tahlil qilinadi. Safaviylar, Afshoriylar va boshqa Eron sulolalari tomonidan yaratilgan manbalar — "Tarixi olamorayi Abbosiy", "Tarixi jahongushoyi Nodiriy", "Olam-orayi Nodiriy", va boshqa fors tilidagi asarlar tadqiqotning asosiy manba negizini tashkil etadi. Ushbu manbalar orqali Buxoro xonligining Eron bilan diplomatik aloqalari, harbiy to‘qnashuvlari, savdo-iqtisodiy munosabatlari hamda madaniy jarayonlari yoritiladi. Maqolada ikki tomonlama tarixiy ma’lumotlar uyg‘unligi nazariy jihatdan asoslanadi va Eron manbalarining O‘rta Osiyo tarixshunosligida tutgan o‘rni ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro xonligi, Eron manbalari, Safaviylar, Afshoriylar, Shayboniylar, Ashtarxoniylar, Nadirshoh, diplomatik aloqalar, harbiy yurishlar, iqtisodiy munosabatlar, madaniy almashinuv, fors manbashunosligi, Markaziy Osiyo tarixi.

Buxoro xonligi XVI–XVIII asrlar davomida Markaziy Osiyodagi yetakchi siyosiy markazlardan biri bo‘lib, uning qo‘shni davlatlar, ayniqsa Eron bilan bo‘lgan munosabatlari mintaqa tarixida muhim o‘rin tutadi. Buxoro tarixini o‘rganishda mahalliy manbalar bilan bir qatorda Eron saroy tarixchilari tomonidan yozilgan fors tilidagi asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. Safaviylar, Afshoriylar va boshqa Eron sulolalari davrida yaratilgan mazkur asarlar Buxoro xonligining siyosiy jarayonlari, diplomatik elchiliklar, chegaraviy masalalar, harbiy yurishlar, savdo aloqalari va madaniy munosabatlariga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur maqola Buxoro xonligining 1500–1756-yillardagi tarixini Eron manbalari asosida ilmiy tahlil qilib, mavjud ma’lumotlarni tizimli shaklda jamlashni maqsad qilib qo‘yadi. Shayboniyxonning Movarounnahrda hokimiyatni egallashi va Safaviylar davlati bilan raqobatning kuchayishi Eron tarixiy adabiyotida keng yoritilgan. Iskandarbek Munshiyning *“Tarixi olamoroyi*

Abbosiy” (“Dunyoni bezovchi Abbos tarixi”), Mehdixon Astrabodiyning *“Tarixi jahongushoyi Nodiriy”* (“Jahon fotihi Nodirshoh tarixi”) kabi manbalarda Shayboniyxon va Shoh Ismoil o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, ayniqsa 1510-yil Marv jangi batafsil tasvirlangan. Eron tarixchilari Shayboniy davlatining kuchayishini Eron uchun xavf sifatida baholab, Safaviylar harbiy siyosatini asoslaydi. Iskandar Munshiyning “Tarixi olamoroyi Abbosiy” asari Shayboniylar va Safaviylar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar, ayniqsa elchiliklar, sovg‘alar va savdo kelishuvlari haqida noyob ma’lumot beradi. Abdullaxon II davri Buxoro tarixining barqarorlashuvi sifatida talqin etiladi[1]. Ashtarxoniylar sulolasining hokimiyatga kelishi Eron tarixnavisligida siyosiy beqarorlik davri sifatida tavsiflanadi. “Tarixi olamoroyi Abbosiy”da Valimuhammadxon, Baqi Muhammadxon va Imomqulixonning siyosiy faoliyati bayon etiladi. Imomqulixonning Balx va Tohariston ustidan nazoratni mustahkamlash siyosati Eron manfaatlariga zid bo‘lgan bo‘lsa-da, Eron tarixchilari uning davlat boshqaruvini mustahkamlash borasidagi faoliyatini yuqori baholagan.

Subhonqulixon davrida Buxoroda ichki ziddiyatlar kuchaygani, iqtisodiy inqiroz belgilari paydo bo‘lgani manbalarda qayd etiladi. Eron manbalarida ayniqsa savdo yo‘llari xavfsizligi, chegara nizolari va Buxoro elchilarining Isfahonga tashrifi haqida batafsil ma’lumotlar keltiriladi[2].

XVIII asrning o‘rtalarida Nodirshoh Afshorning Buxoroga yurishi Eron tarixnavisligining eng batafsil yoritilgan mavzularidan biri hisoblanadi. “Tarixi jahongushoyi Nodiriy” va “Olam-oroyi Nodiriy”da 1740-yil Buxoro yurishining sabablari, jarayoni va oqibatlari aniq sanalar bilan tasvirlangan. Eron tarixchilari Abulfayzxonning zaif siyosati, davlat boshqaruvidagi parokandalik, amaldorlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni Nodirshohning oson g‘alabasiga asosiy sabab sifatida ko‘rsatadi. Mang‘itlar vakili Muhammad Rahimning siyosiy mavqei oshishi ham aynan shu manbalarda ta’kidlanadi. Fors manbalari Buxoro xonligining iqtisodiy hayotiga oid boy ma’lumotlarni beradi. “Tarixi jahongushoyi Nodiriy”da karvon yo‘llari, bojxonalar, savdo mahsulotlari, narxlar dinamikasi haqida qaydlar mavjud. Buxoroning hunarmandchilik markazi sifatidagi mavqei, ayniqsa ipakchilik, zargarlik va qurolsozlik tarmoqlarining rivoji yoritiladi[3]. Madaniy aloqalar masalasida Eron manbalari Buxoroni diniy-ilmiy va adabiy markaz sifatida e’tirof etadi. Fors tili Buxoroda ilmiy va adabiy til sifatida qo‘llanilgani ham alohida qayd etilgan. Eron manbalarida Buxoro–Eron diplomatik aloqalarining batafsil bayoni uchraydi. Elchi yuborish, sovg‘alar almashinuvi, elchilarni kutib olish marosimi, muzokaralarning mazmuni Eron saroy tarixchilarining asarlarida aniq tasvirlangan. Ayniqsa, Shoh Abbos davrida Buxorodan kelgan elchilarning alohida e’tibor bilan qabul qilingani haqida ko‘plab ma’lumotlar mavjud[4]. Bu elchiliklar orqali ikki davlat o‘rtasida savdo shartnomalari, chegara masalalari, harbiy ittifoqlar yoki betaraflikka oid kelishuvlar muhokama qilingan. Fors tarixiy manbalari Buxoro qo‘shinlarining tarkibi, qurollanish darajasi, harbiy qo‘mondonlarning faoliyati haqida ham muhim ma’lumot beradi. Shayboniylar qo‘shinidagi yengil otliq qo‘shinlar, Ashtarxoniylar davrida harbiy intizomning pasayishi, Mang‘itlar harbiy kuchining ko‘tarilishi Eron tarixchilarining diqqat markazida bo‘lgan. Nodirshoh yurishlari tasviri orqali XVIII asr o‘rtalarida Buxoroning mudofaa imkoniyatlari ancha zaiflashgani qayd etiladi[5].

Eron manbalari Buxoro shaharlarining iqtisodiy ahvolini, bozorlardagi narx-navoni, hunarmandchilik tarmoqlarini, karvon savdosini alohida qayd etadi. Savdo yo‘llarining Isfahon, Hirot, Mashhad, Buxoro va Balx orqali o‘tgan asosiy tarmoqlari ko‘rsatiladi. Shuningdek, Buxoro vohasida dehqonchilikning rivoji, sug‘orish tizimi va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayirboshlash haqida ham ma’lumot beriladi.

Fors manbalari Buxoroni musulmon Sharqining ilm markazi sifatida yuksak baholaydi. Madrasa tizimi, faqihlar, muhaddislar va tilshunoslar haqida ko‘plab ma’lumotlar uchraydi. Xususan, XVII–XVIII asrlarda Buxoro madrasalarining Eron, Hindiston va Afg‘oniston hududlaridan talabalar jalb qilgani qayd etiladi. Fors manbalarida Buxoro tasavvuf maktabining ta’siri ham alohida eslatiladi[6].

[1] ایرج (ویرایشگر). ۱۳۳۴–۱۳۳۵. عباسی آرای‌عالم تاریخ (جلدی دو). تهران.

[2] ایرج (ویرایشگر). ۱۳۳۴–۱۳۳۵. عباسی آرای‌عالم تاریخ (جلدی دو). تهران.

[3] Mirzo Mehdihon Astrobodiy Tarixi jahongushoyi Nodiriy.Tehron-1956. 100-118.

[4] Madrahimov, A. A. Eron va Buxoro munosabatlari tarixidan. Toshkent – 2015. 35-42.

[5] Ahmedov, B.O‘zbekiston va Eron o‘rtasidagi tarixiy aloqalar. Toshkent –1982.

[6] Madrahimov, A. A. Eron va Buxoro munosabatlari tarixidan. Toshkent – 2015. 35-42.

Xulosa qilib aytganda, maqolada yoritilgan manbalar Buxoro xonligining XVI-XVIII tarixi nafaqat siyosiy voqealar ketma-ketligi, balki mintaqa geosiyosiy muvozanatining muhim tarkibiy qismi sifatida yoritilgan. Fors tarixchilari tomonidan qoldirilgan asarlar Shayboniylar va Ashtarxoniylar davlatining ichki boshqaruvi, harbiy tizimi, diplomatik elchiliklar va savdo-iqtisodiy Jarayonlariga oid batafsil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu manbalar Buxoro xonligining Eron bilan o'zaro ta'siri natijasida shakllangan siyosiy muhitni ham aniq tasvirlaydi. Alohida qayd etish joizki, Eron manbalari Buxorodagi siyosiy beqarorlik davrlarini, markaziy hokimiyatning kuchayishi yoki zaiflashishini, iqtisodiy inqirozlar va tiklanish bosqichlarini tashqi kuzatuvchi sifatida obyektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, ular madaniy aloqalar, ilmiy almashinuvlar, diniy markazlarning holati, tasavvuf maktablarining o'rni va o'zaro madaniy ta'sir jarayonlarini ham keng yoritadi.

Shu bois, Eron manbalari Buxoro xonligi tarixini chuqur va tizimli o'rganish uchun muhim manbashunoslik asosini yaratadi. Ular nafaqat tarixiy faktlarni qayd etadi, balki Buxoro xonligining mintaqaviy siyosatdagi mavqeini, iqtisodiy salohiyatini va madaniy o'rnini mukammal tasavvur qilish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Eron yozma manbalari Buxoro xonligi tarixini to'liq tiklashda mahalliy manbalar bilan teng darajada ahamiyatli bo'lib, ularni o'rganish ilmiy jarayonning ajralmas qismidir.

Eron manbalarida XVII asr Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti keng yoritilgan bo'lib, ular Movarounnahr tarixini tiklashda eng muhim tashqi manbalardan biri hisoblanadi. Fors tarixchilari tomonidan qoldirilgan asarlar Shayboniylar va Ashtarxoniylar davridagi Buxoro–Eron munosabatlari, diplomatik aloqalar, harbiy yurishlar hamda savdo-iqtisodiy jarayonlar haqida batafsil ma'lumot beradi.

Eron manbalari o'zining aniq sanalari, diplomatik yozishmalarni qayd etishi, iqtisodiy ta'riflari va tasviri bilan O'rta Osiyo tarixshunosligida o'rniga ega bo'lib, ular yordamida Buxoro xonligining mintaqaviy siyosatda tutgan o'rni yanada ravshanlashadi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Ahmedov, B.O'zbekiston va Eron o'rtasidagi tarixiy aloqalar. Toshkent –1982.
2. Madrahimov, A. A. Eron va Buxoro munosabatlari tarixidan. Toshkent – 2015.
3. Beers, T. S. Persian Art and Literature in the Safavid Era. London.1992.
4. Dickson, M. Shah Tahmasb and the Uzbeks. Princeton, NJ: Princeton University Press// 1975, 486 p.
5. Quinn, S.History of Shah Abbas I. Chicago: University of Chicago Press.
6. Savory, R.The History of Shah Abbas the Great. London: Cambridge University Press.1978.
7. ایرج افشار، (ویرایشگر). ۱۳۳۴–۱۳۳۵. تاریخ آرای‌عالم عباسی (جلدی دو). تهران.
8. ایرج افشار، ؛۱۳۵۰ ۱۳۸۲. تاریخ آرای‌عالم عباسی (مجدد چاپ). تهران.
9. محمدتقی پژوه،دانش. ۱۳۳۹. فهرست های‌نسخه خطی کتابخانه ملی ایران. تهران.
10. عباس آشتیانی، اقبال. ۱۳۳۴. مکتب نگاری‌تاریخ در ایران. تهران.

AFG'ONISTON MATBUOTI SAHIFALARIDA BUXORO AMIRLIGU TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR XUSUSIDA

Nizamov Asqar Baxromovich
Toshkent farmatsevtika instituti o'qituchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Afg'onistonda ilk matbuot organi bo'lgan "Shams an-Nahoriy Kobuliy" ("Kobulning ertalabki quyoshi") gazetasi va undan so'ng 1911-1918-yillarda faolit ko'rsatgan "Siroj al-Axbor Afg'oniya" ("Afg'on xabarlari yoritgichi") gazetalari faoliyati, ularda ko'tarilgan asosiy masalalar, Buxoro amirligida sodir bo'layotgan voqea hodisalar, Janubiy Turkiston (hozirgi shimoliy Afg'oniston) bekliklaridagi voqeyliklar, Afg'onistonda chop etilayotgan matbuotning Buxoro amirligi hududida tarqalishiga qo'yilgan ta'qiq kabi masalalarni yoritilishiga oid ayrim fikr-mulohazalar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Imperiya, Janubiy Turkiston, gazeta, nashriyot, ziyolilar, targ'ibot, hin-ingliz matbuoti, gazetalarni ta'qiqlash, ilm-fan, texnika taraqqiyoti, siyosiy raqiblik

XIX asrning ikkinchi yarmi Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalari O'rta Osiyo hududlarini istilo qilish borasida bir-birlaria siyosiy raqiblik qila boshladilar. Sharq mamlakatlarida ham milliy mustaqillikni saqlab qolish, iqtisodiy va madaniy yuksalish borasida ilg'or fikrli ziyolilarning qarashlari ham aynan shu davrda vujudga kelgan bo'lib, oddiy aholi orasida bu g'oyalarni targ'ibot qilish va ilm-fan, texnika taraqiyoti yutuqlarini hayotga tadbiq etish zarurligini uqtirish vositasi sifatida matbuot ishlarini jonlantirishga e'tibor qaratilgan edi.
Angliyaga yarim qaram bo'lgan Afg'oniston davlatida bu g'oyalar targ'iboti Buxoro amirligidan ko'ra birmuncha ilgariroq boshlanganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Afg'onistonda Sheralixon (1862-1879 yy) hukmronligi davrida ilk bora matbuot va bosmaxona ishlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, 1870 yildan boshlab, pochta xizmati va pochta markalari chop etila boshlangan. 1878 yilda ikkinchi Anglo-Afg'on urushi (1878-1882 yy) boshlangunga qadar 105 turdagi pochta markalarining chop etilganligi a'lum. Shuningdek, 1873-1879 yillarda "Shams an-Naxori Kobuliy" ("Kobulning tush paytidagi quyoshi") gazetasi va 1878 yil ingliz-afg'on urushi boshlanishidan oldinroq birinchi milliy kalendar ham chop etilganligi Afg'onistonda bosmaxona va matbuot ishlari Buxoro amirligidan oldinroq vujudga kelganligini ko'rsatadi[1].

Sheralixon davrida Kobulda uchta Shams an-Naxor, Murtadavi va Mustafavi nomli bosmaxonalar faoliyat yuritgan bщlib, "Shams an-naxori Kobuliy" gazetasi dastlabki sonlari Murtadavi bosmaxonasida, yettinchi sondan boshlab Shams an-Nahor bosmaxonasida chop etilgan. Gazetaning birinchi sahifasida yirik medalon ichida "Shams an-Naxori Kobuli" so'zlari yozilgan bo'lib, medalonning ikki tomonida sherlar tasviri hukmdor Sheralixonni anglatgan. Shuningdek, Sher va Ali musulmon an'analarida Ali Ollohning sheri ekanligi bilan bog'liq afsonalarga ham ishora bo'lgan. Gazetada Afg'oniston, qo'shni musulmon mamlakatlari Yevropa mamlakatlari, mustamlakachilik urushlari bilan bog'liq ma'lumotlar chop etilgan. Xorijiy xabarlarning aksariyati Hindistonda chop etiladigan hin-ingliz matbuoti "Tilism-i xayrat", "Sind News" va "Mufarrax al-kulyub" kabilardan ko'chirib bosilganligini ham ko'rish mumkin[2]. Albatta yaqin qo'shni davlat bo'lgan va Janubiy Turkiston (hozirgi Shimoliy Afg'oniston) uchun raqobat qilinayotgan Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol ham keng yoritib borilgan. Ammo, ushbu matbuot organi Buxoro amirligi hududiga tarqalganligi, obunachilarining soni bilan bog'liq ma'lumotlarga hozirda ega emasmiz.

Ikkinchi Ingliz-Afg'on urushi davrida Afg'onistonda matbuot va bosmaxona ishlari to'xtab qoladi. Bu borada XX asrning dastlabki yillari yangi qadamlar tashlangan bo'lib, 1906 yil chop etilgan "Siroj al-Axbor" gazetasining ilk soni chop etilishi bilan inglizlar uning yopilishini talab qilishi natijasida matbuotchilik ishi yana bir necha yilga ortga suriladi. 1911-1919 yillar oralig'ida "Siroj al-Axbor" gazetasi muntazam chop etilib turildi. Gazetaning dastlabki 14 ta soni 12 sahifadan iborat bo'lgan bo'lib, keyingi barcha sonlar 16 sahifadan iborat holda chop etilgan. Gazetaning deyarli barcha sonlari (1911 yilgi ayrim sonlaridan tashqari) O'zMU fundamental kutubxonasida saqlanadi[3]. Gazetaning mustaqillik, musulmonlarni o'zaro birlashuvini targ'ib qilishi Buxoro amirligi hududida tezda tarqalib, o'zining muntazam mushtariylariga ega bo'lishini ta'minlagan. D.Ya. Ochildiev ma'lumotlarida "Siroj al-Axbor Afg'oniya"ning Buxoro amirligidagi doimiy obunachilari soni 120 ta ekanligi keltirib o'tilgan[4].

Buxoro amirligi hududida ilk bora chop etilgan "Buxoroyi sharif", "Turon" gazetalari ham Afg'oniston matbuotini diqqat bilan kuzatib borganlar. Jumladan, "Turon"ning 38-soni "Matbaa" ruknida: "Afg'onistonda hozirga qadar matbaalari bor bo'lsada harofot matbaalari yo'q xikmanda edi. Hozir bir necha dona harofot matbaasi ochilubdir harflari shakllari Istanbul harofatindan ochiqdur[5]"-degan ma'lumotlarni o'qish mumkin. Bu kabi ma'lumotlar, qisqa xabarlar Buxoro matbuotida anchagina salmoqqa ega.

[1] Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана: Афганистан в новое время/Ответственные редакторы: Р.Т. Ахрамович, О.В. Ганковский, В.А. Лившиц. Том II. – М.: Наука, 1965. – С. 244.
[2] https://dl.wdl.org/13030_1_7.png
[3] Очилдиев Д.Я. "Сирож ал-Ахбор" как источник по изучению общественно-политической мысли Афганистана начало XX век // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар (Общественые науки в Узбекистане). 3-сон 1973 йил, - С. 43-44.
[4] Очилдиев Д.Я. Младоафганское движение Т.: "Фан" 1985. – С. 27.
[5] Матбаа // Турон 38-сон, 1912 йил, 4 декабрь.

“Siroj al-Axbor Afg’oniya”ning Rossiya imperiyasi hududiga kirib kelishi mustamlaka ma’murlari noroziligiga sabab bo’lib, uni olib kirish ta’qiqlab qo’yiladi. Ammo, ushbu matbuot organining Buxoro kirib kelishi davom etganligini arxiv manbalaridagi ma’lumotlar tasdiqlaydi. Buxorodagi rus siyosiy agentligining 1913 yil 5 avgustdagi 201-sonli Buxoro qushbegisi Nasrulloga yuborilgan maxfiy xatida “Siroj al-Axbor” gazetasining ta’qiqlanishiga qaramay kirib kelayotgani va uning Buxoroga tarqalmasligiga kirib kelayotganligi sababli, uning har bir yangi sonidan bir nusxa Afg’oniston amirining Buxorodagi savdo agenti orqali agentlikka yetkazilish so’raladi[1]. Shu orqali siyosiy agentlik mahalliy aholi kayfiyatidan va Afg’onistondagi vaziftdan xabardor bo’lib turishga harakat qilgan deb xulosa qilish mumkin.

“Siroj al-Axbor”ning kirib kelishini ta’qiqlanishi ayrim ilmiy jamiyatlarda, jumladan sharq tillarini o’rganish jamiyatida ma’lum bir qiyinchiliklarni tug’diradi. Shu sababli, ushbu jamiyat rasmiy idoralarga “Siroj al-Axbor” gazetasini yangi sonlarini yetkazib berishni iltimos qilganliklari arxiv hujjatlarida saqlanib qolingan. 1915 yil 24 noyabrda “Siroj al-Axbor”ning 30 dona so’nggi sonlaridan yuborishni, 1916 yil 4 fevralda esa 1915 yil 9 dekarbdagi 9028 sonli iltimosnomaga asosan 10 dona eski sonlarini olganliklari uchun rasmiy ma’murlarga minnatdorchilik bildirilgan[2].

Rossiyada inqilob va sovet rejimining ta’siri ostida nafaqat Afg’oniston matbuoti va uning har qanday ko’rinishlarining kirib klishi, balki, Afg’oniston bilan bo’ladigan har qanday munosabat butunlay uzilib qolgan edi.

HOFIZ TANISH BUXORIYNING “ABDULLANOMA” ASARI VA UNING BUXORO TARIXINI O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI

Astanova Nasiba Qudratovna-
Buxoro davlat universiteti magistranti
Ilmiy rahbar:
Orziyev Mahmud Zayniyevich-
tarix fanlari falsafa doktori(PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Hofiz Tanish Buxoriy XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoro saroyida faoliyat yuritgan mashhur solnomachi tarixchilardan biri haqida va uning Buxoro tarixining manbashunosligidagi o’rni haqida ma’lumotlar keltirilgan. Uning “Sharafnomayi shohiy” nomli asari, xalq orasida “Abdullanoma” deb tanilgan, Abdullaxon II davriga oid asosiy tarixiy manba hisoblanadi . Asarda Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida birlamchi ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Solnoma, manbashunoslik, Abdullaxon II, Buxoro xonligi, Shayboniylar, Bartold, ierarxiya, ilmiy maktab, shaharsozlik.

“Abdullanoma” Abdullaxon II (1583–1598) hukmronligi davrida uning topshirig‘i bilan yozilgan. Asar 1580-yillarda yakunlangan. “Abdullanoma” ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda Shayboniylar sulolasining kelib chiqishi, Shayboniyning Movarounnahrni egallashi (1500–1501), Ubaydullaxon, Abdullaxon I, Jonibek Sulton davrlari, XVI asr o‘rtalaridagi siyosiy jarayonlar va Abdullaxonning hokimiyatga kelish jarayonlari bayon etiladi [1]. Ikkinchi qismda esa Abdullaxon II hukmronligining asosiy siyosiy voqealari, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvi tizimi tasvirlanadi [3]. Muallif o‘z zamonasidagi voqealar guvohi bo‘lganligi sababli ma’lumotlar aniq va ishonchli bo‘lib, bu asarning tarixiy qiymatini oshiradi [4]. “Abdullanoma”da Abdullaxon II ning Xorazm, Hisor, Balx, Samarqand kabi hududlarga qilgan yurishlari hamda ularning sabab va oqibatlari batafsil keltiriladi [1]. Bartoldning fikricha, bu asar XVI asr Movarounnahr siyosiy tarixini tiklashda eng muhim birlamchi manbalardan biridir [5]. Shuningdek, Buxoro xonligidagi amaldorlar ierarxiyasi, saroy marosimlari va davlat boshqaruvi tizimi kabi ma’lumotlar boshqa manbalarda bunday keng qamrovda uchramaydi [3]. Asar fors tilida yozilgan. Uslubi saroy

[1] Ўзбекистон Республикаси Марказий Давлат Архиви (ЎзРМДА) И-126. фонд, 2-рўйхат, 4-ҳужжат, 43-варақ
[2] ЎзРМДА И-3. фонд, 1-рўйхат,773-ҳужжат, 1-варақ, 3-варақ.

tarixchiligiga xos: Balog‘atli, bezakli, murakkab jumlalar, Qur’ondan iqtiboslar, Abdurahmon Jomiy va boshqa shoirlardan parchalar keltirilgan. Shu bilan birga voqealar xronologik va juda aniq tarzda qayd qilingan.

“Abdullanoma”da soliq tizimi, yer-suv munosabatlari, savdo yo‘llari, karvonlar harakati va iqtisodiy siyosat haqida batafsil ma’lumotlar bor [1]. Mukminova ushbu ma’lumotlarni tahlil qilib, XVI asr Buxoro iqtisodiy hayotining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlagan [6]. Shuningdek, shahar bozorlari, hunarmandchilik markazlari va dehqonchilik haqida berilgan ma’lumotlar iqtisod tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi [6]. Asarda madrasa, masjid, xonaqohlar, ulamolar, shoirlar va san’at namoyandalari haqida ham ko‘plab ma’lumotlar uchraydi [1]. Karamatovning ta’kidlashicha, Hofiz Tanishning madaniy va ma’rifiy hayotga oid qaydlari Buxoro ilmiy maktabi tarixini tiklashda asosiy manbadir [7].

Buxoro shahrining me’moriy inshootlari, qurilishlar va shaharsozlikning rivoji ham asarda aniq tasvirlangan [3]. Hofiz Tanish Buxoriy o‘z asarida ilgari yaratilgan solnomalar, shuningdek o‘z davrining og‘zaki an’analari va hujjatlaridan foydalangan bo‘lsa-da, voqealarning bevosita guvohi sifatida birlamchi ma’lumotlar bergan [4]. Semyonov va Ahmedovning tadqiqotlariga ko‘ra, “Abdullanoma” Shayboniylar davri manbashunosligining eng ishonchli va to‘liq manbasi hisoblanadi [8][2]. Tarixiy asarda Movarounnahr xalqlarining etnik tarkibi, jumladan qang‘li, qipchoq, qarluq, xalaj, og‘ajiri, uryonqit, qo‘ng‘irot, orlot, uyg‘ur, sulduz, bayovut, do‘rmon va boshqa qavmlarning kelib chiqishi va ularning urf-odatlari to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Uni yozishda Hofiz Tanish Narshaxiyning „Buxoro tarixi“, Rashiduddinning „Jome at-tavorix“, Juvayniyning „Tarixi jahon kushoy“, Mirxondning „Ravzat us-safo“, Sharafuddin Ali Yazdiyning „Muqaddimai Zafarnoma“, Koshifiyning „Rashahot ayn al-hayot“, Mirzo Haydarning „Tarixi Rashidiy“ va boshqa tarixiy asarlardan foydalangan bo‘lsada, ammo asarning asosiy qismi XVI asrda sodir bo‘lgan ko‘pgina tarixiy voqealarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan shohidlardan to‘plangan materiallar asosida yozilgan. Bu asar Movarounnahr xalqlarining XVI asrdagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o‘rganishda birinchi darajali manbalardan hisoblanadi. Asarni 1942 — 1951 yillarda o‘zbek sharqshunos olimi S. Mirzayev (1885 — 1961) o‘zbek tiliga tarjima qildi. B. Ahmedov uni to‘ldirib va tuzatib qayta nashr etdi (1999-2000)[1].

“Abdullanoma”ning qo‘lyozmalari Istanbul, Tehron, Buxoro, Toshkent va Peterburg kutubxonalarida mavjud. Muhim ilmiy nashrlar: Sharafnomayi shohiy (Abdullanoma) — 1969, 1971, 1991 yillarda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi tomonidan nashr etilgan. 1998 yilda qisqartirilgan ruscha tarjimasi chop etilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “Abdullanoma” Abdullaxon II hukmronligi davri haqida eng keng qamrovli, yaxlit va ishonchli ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan noyob tarixiy asardir. Asarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va manbashunoslik jihatidan qiymati uni XVI asr Buxoro tarixini o‘rganishda asosiy manbaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Hafiz Tanish al-Bukhariy. Sharafnomayi shohiy (Abdullanoma) (A. N. Boldirev & I. M. Ostroumov, Eds.). Toshkent–Moskva: Fan / Nauka. 1969–1991
2. Ahmedov. B. O‘zbek xonliklari tarixi. Toshkent: O‘zbekiston.1993
3. Muhammadjonov. A. Abdullaxon II davlati. Toshkent: Fan.1996
4. Karamatov. N. O‘rta Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi. Toshkent: Fan.1986
5. Bartold. V. V. Sochineniya (Vols. 1–9). Moskva–Leningrad: Nauka. 1963–1977.
6. Mukminova. R. Buxoro xonligining ijtimoiy-iqtisodiy tarixi. Toshkent: Fan.1977
7. Karamatov. N. O‘rta Osiyo tarixshunosligi va manbashunosligi. Toshkent: Fan.1986
8. Semyonov. A. A. Materialy po istorii uzbekskikh khanstv. Toshkent: AN UzSSR.1949

1970-80-YILLARDA BUXORODA QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING AHVOLI XUSUSIDA

Jo‘rayev Isomiddin Ismoilovich
Zarmed universiteti o‘qituvchisi

Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekistonda xususan, Buxoro viloyatida yashovchi xalqlar taqdirida tub o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Sovet hokimiyati yillari davom etgan davrda mustabid asoratdan xalos bo‘lish o‘zbek xalqining jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallash imkonini berdi. Ayni paytda, mustaqil O‘zbekiston Respublikasida bir tomondan mustabid tuzumning uzoq yillar mobaynida to‘planib qolgan asoratlarini bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa, taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalardagi mavjud muammolarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, agrar va sanoat sohalarida islohotlar amalga oshirishdan iborat muhim vazifalar turibdi.

Qishloq xo‘jaligini isloh qilish natijasida Buxoro oblastida 1970-yil yakunida zavod kollektivi davlatga qorako‘l teri yetishtirish sotish planini 110,7 % bajarib, plandagi 17 ming o‘rniga 18 ming 830 dona sifatli qorako‘l teri topshirilgan. Jun sotish plani 152,9% go‘sht sotish 101,1 % bajarildi. Har yuz sovluqdan 152,7 ta qo‘zi olindi. Qorako‘l teri tan narxi har sovluqdan 25 so‘m 50 tiyin arzonlashgan. Zavodda 1967-yildan to‘la xo‘jalik hsobiga o‘tilganligi, eng muhim mehnatga kommunistik munosabatda bo‘lish va ongli intizom, yuksak uyushqoqlikning ajoyib samarasidir. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishining samaradorligi ko’pgina komplekslarning boshqa barcha bo‘g‘inlarini ham proporsional, balanslashtirilgan tarzda rivojlantirishga bog‘liq. Shu boisdan SSSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1981-1985-yillarga hamda 1990 yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarida qishloqqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olingan mahsulotlarni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag‘larni ko‘proq sarflash ko‘zda tutilgan edi. Biroq, qishloq xo‘jaligi mashinalarini, o‘g‘it ishlab chiqarishni ko‘paytirish va sifatini yashilash, transport, mahsulot saqlash butun sohani takomillashtirish tadbirlari yetarlicha amalga oshirilmagan, uni qayta ishlashning ishlab chiqarish ba’zasi mustahkamlanmagan, oziq-ovqat, go‘sht va sut sanoati zamonaviy mashina-uskunalar bilan ta’minlanishiga yetarli e’tibor qaratmaganligi sababli rejalar to‘la amalga oshirilmagan.

1964-yildan boshlab sovxozda ichki xo‘jalik hisobi joriy qilindi. Natijada xo‘jalikda yetishtirilgan qorako‘l terilarining 80-85 % birinchi sortga qabul qilindi. Sovxoz boshqa xo‘jaliklarga ko‘plab nasldor qo‘chqorlar yetkazib beradigan bo‘ldi. Ixtisoslashtirishning nihoyatda samarali ekanligini Omonkeldi nomli sovxoz misolida ko‘rish mumkin. Bu xo’jalik 1964-yili paxtakor kolxozlardagi mayda qorako’lchilik fermalari ba’zasida tashkil etilgan edi. 1966-yili sovxozda har 100 sovliqdan 126 ta qo‘zi olindi, jami qorako‘l terilarining 74 % birinchi sortga topshirildi, holbuki ilgarilari bu ko‘rsatgich shunga muvofiq ravishda 102 va 39,2 (%)ni tashkil etgan. Qo‘ylardan mo‘ljaldagidan ancha ziyod sifatli jun qirqib olindi, 1966-yilda go‘shtga topshiriladigan har qaysi qo’yning tirik vazni 42,3 kilogrammga yetkazildi, ya’ni ilgarigiga nisbatan o’rta hisobda 5 kilogramm ortdi, nobut bo‘lgan qo‘ylar soni 0,8 foizdan oshmadi. Demak, ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish mo‘l-ko‘l va sifatli mahsulot yetishtirishning muhim omilidir.

Qishloq xo‘jaligi xomashyosi resurslarini oshirish o‘z navbatida istiqbolda sug’oriladigan yerlar hajmini ko’paytirish bilan aloqador bo’ladi. Dastlabki hisob kitoblarga ko’ra, istiqbolda umumiy sug’oriladigan yer maydonlari taxminan 1972-yildagi 2,8 mln gektardan 5 mln gektarga yetkaziladi. Bu nafaqat paxta yetishtirish imkoniyatlarini kengaytirish, balki guruch, meva, bog’ va uzum yetishtirishga ham yer ajratilishiga olib keladi.

Yog‘-moy sanoati O‘zbekiston SSR oziq-ovqat sanoatining muhim tarmog‘i sifatida qolmoqda. Paxta xomashyosi yalpi hosildorligi yildan-yilga oshirilishi yog‘-moy sanoati tarmog’ini kengaytirishni talab etmoqda, shu bilan birgalikda paxta yer maydonlarini yetishtirishdagi hududiy nomutanosiblikni bartaraf etish, paxta tozalash sanoati yog’ zavodlari masalasini bartaraf etish talab etiladi.

Ixtisoslashtirilgan yirik xo‘jaliklar tashkil etish, qorako‘lchilik fermalarida mexanizatsiyasidan unumli foydalanish, ishlab chiqarishni yaxshi yo‘lga qo‘yish, xususan, yem-xashak ba’zasini mustahkamlash va ana shu asosida qorako‘lchilikni nihoyatda serdaromad tarmoqqa aylantirish imkonini beradi. Buxoro oblastidagi “Kommunizm” sovxozi qorako‘lchilarining qo‘lga kiritgan yutuqlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Bu xo‘jalik 1957 yilda Konimex rayonidagi yettita kam quvvat kolxoz zaminida tashkil etildi. Ana shundan buyon o’tgan davr ichida sovxoz tashkiliy jihatdan mustahkamlandi, chorvachilikning muhim tarmog’i hisoblangan qorako’lchilikni jadal sur’atlar bilan rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

Xalq xo‘jaligi dasturida qishloq xo‘jaligi samaradorligi ko‘pgina jihatlardan qishloq xo‘jaliginigina emas, balki agrosanoat kompleksining boshqa barcha bo‘g‘inlarni ham proportsional, balanslashtirilgan tarzda rivojlantirishning 1981-1985-yillarga hamda 1990-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan asosiy yo’nalishlaridan qishloqda ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olinadigan mahsulotni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag‘lar ko’proq sarflanishi ko‘zda tutilgan edi.

KPSS Markaziy Komitetining “Mexanizatsiyalashgan kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi negizida qishloq xo’jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalashni yanada rivojlantirish to’g’risida”gi 1976 yil 28 mayda qabul qilingan qarorida keng kooperatsiyalash negizida qishloq xo’jalik ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalash, uni zamonaviy industriya negiziga ko’chirish – sotsialistik qishloq xo’jaligini yanada rivojlantirishning bosh yo‘li, rivojlangan sotsializm sharoitida lenincha kooperativ plan g‘oyalarini amalda ro‘yobga chiqarishda yangi bosqich ekanligi ko‘rsatib o’tilgan.

Shu bilan birga sanoatda mehnatni tashkil etishning brigada shakli takomillashtirilmagan, mehnatda ishtirok koeffisienti bo‘yicha taqsimotning rag’batlantiruvchi samarasi sohada kam qo’llanilgan. Ko‘pgina korxonalarda bunday brigadalar nomigagina mavjud, ular davlat rejalari asosida faoliyat yuritmagan. Mehnatni normallashga doir ishlar yetarli darajada olib borilmagan.

Agro-sanoat birlashmasi yuzaga kelishi hamda rivojlanishi maqsadga muvofiq iqtisodiy muhit sharoitidagina muvaffaqiyatli amalga oshishi mumkin. Ushbu muhim xalq xo‘jaligi muammosi ahamiyati to‘g‘risida L.I. Brejnev Umumittifoq kolxozchilarining III syezdida so‘zlangan nutqida: “Agrar-sanoat birlashmalari so’zsiz yorqin kelajakka ega. Bu nafaqat yangi tashkil etish shakli balki muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisa. Biz bu borada amalda kuzatilayotgan tajribalarga diqqat bilan e’tibor qaratishimiz lozim, o’zimizni xatolardan ogohlantirishimiz, yetarli o’ylanmagan, shoshilinch qarorlarni bartaraf etishimiz kerak”ligi ta’kidlangan.

1984-yil 26 – 27-mart kunlari Moskvada bo‘lib o‘tgan Butunittifoq iqtisodiy qurultoyida aynan O‘zbekiston Respublikasining Buxoro viloyati iqtisodiyoti masalalari: tajriba va qayta qurish masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek Buxoro viloyatida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va xomashyo bazasini kengaytirish masalasi muhokama etiladi.

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan band bo’lgan korxonalar qariyb 40 %, qurilish materilallari ishlab chiqarish korxonalari 6,2 %, duradgorlik va yog‘ochsozlik korxonalari 21,4 % tashkil etadi. Shuni qayd etish kerakki, sabzavot, meva, uzum, sut va boshqa tez buziladigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar va sexlar bir muncha o’sgan bo’lishiga qaramay, bunday korxonalar respublikada hali yetarli emas.

Shu boisdan SSSRni iqtisodiy va sotsial rivojlantirishning 1981-1985-yillarga hamda 1990-yilgacha bo‘lgan davrga mo’ljallangan, asosiy yo‘nalishlarida qishloqqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olingan mahsulotlarni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag‘larni ko‘proq sarflash ko‘zda tutilgan. Qishloq xo‘jaligi mashinalarini, o‘g‘itlarni chiqarishni ko‘paytirish va sifatini yashilash, transport, mahsulot saqlash butun sohani takomillashtirish tadbirlari belgilab qo‘yilgan, uni qayta ishlashning ishlab chiqarish ba’zasi mustahkamlanmoqda, oziq-ovqat, go‘sht va sut sanoati zamonaviy mashina-uskunalar bilan ta’minlangan. Qishloq xo‘jaligi samaradorligi ko’pgina jihatlardan qishloq xo‘jaliginigina emas, balki agrosanoat kompleksining boshqa barcha bo’g’inlarni ham proportsional, balanslashtirilgan tarzda rivolantirishning 1981-1985-yillarga hamda 1990-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan

Asosiy yo‘nalishlaridan qishloqqa ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan va qishloqdan olinadigan mahsulotni qayta ishlaydigan tarmoqlarga kapital mablag‘lar ko‘proq sarflanishi ko’zda tutilgan edi.

Xullas, markazning buyurtmasi hisobiga qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish va ularni rejali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish ishlari rejalashtirilgan edi. “1970–1985-yillarda Buxoro, G‘ijduvon, Shofirkon tumanlarida qoramol yetishtirish keskin kamayishini kuzatish mumkin. Qorako‘l, Peshku, Vobkent tumanlarida qoramolchilikning rivojlanishi sohasidagi ayrim nuqsonlarni hisobga olmaganda katta kamchiliklar ko‘zga tashlanmasdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Муқсимов С. Қоракўл махсулотларини кўпайтириш ва таннархини арзонлаштириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. –Б.265
2. КПСС XXVI съезининг материлларидан, 62-63 бетлар.
3. Қурбонов Ф., Ниёзов А. Коннимех (Бухоро область, “Коннимех”давлат наслсилик совхози тарихт)//Ўзбекистон колхоз ва совхозлари таризи (Очерклар) 3-китоб. Тошкент.: Ўзбекистон. 1972. –Б. 113-117.
4. КПССнинг иқтисодий сиёсати: Ўқув қўлланмаси (Авт.: Абалкин Л.И, Белик Ю.А., Владимиров Б.Г ва бошқ.) –Т.: Ўзбекистон, 1982. 259 б.
5. Народное хозяйство СССР г. Стат. Сб., Ташкент, Узбекистан, 1973.

BUXURO SHAHRI GUZARLARI TIZIMI VA ULARNING NOMLANISHIDAGI TARIXIY O’ZGARISHLAR (XX ASRNING 30-YILLARI MISOLIDA)

Xayriyev Javohirbek Oybek o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
j.o.xayriyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1930-yillarda Buxoro shahri guzarlari nomlarining o‘zgarish jarayoni tahlil qilinadi. Manba sifatida “Buxoro Proletari” gazetasining tegishli soni va Buxoro tarixiga oid manba va maqolalar asos qilib olingan. Tadqiqotda guzarlarni qayta nomlashning siyosiy-mafkuraviy sabablari, ushbu jarayoning mahalliy boshqaruv tizimiga ta’siri hamda an’anaviy shahar makonining transformatsiyasi ilmiy yondashuv asosida ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: “Buxoro Proletari”, sovet matbuoti, Buxoro shahri guzarlari, sovet mafkurasi, transformatsiya, “Mirza Usmon”, “Registan”, gazeta, jurnal, maqola.

Buxoro shahri ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, u o‘zining murakkab ijtimoiy makoni – guzarlar tizimi bilan ajralib turgan. Guzar mahalla hayotining markazi, hunarmandchilik faoliyatining o‘chog‘i va o‘ziga xos o‘zini o‘zi boshqarish instituti sifatida muhim rol o‘ynagan. Guzarlar o‘rta asrlardan boshlab bir qancha asosiy funksiyalarni bajarib kelgan: jamoat yig‘ilishlari va muhokamalar o‘tkaziladigan maskan, masjid,choyxona,hovuz,do‘konlar joylashgan markaz, hunarmandlar uyushnasi kabi vazifa va funksiyalarni bajarib kelgan. Guzar shahar hayotida nafaqat ma’muriy birlik balki, aholining alohida boshqaruv tizimiga ega oqsoqollar boshchiligidagi o‘ziga xos boshqaruv organi ham hisoblangan. Buxoro qadimdan shahar ichidagi shahar sifatida shakllangan murakkab guzar tizimiga ega bo‘lgan.

XVI-XIX asrlarda Buxoroda har bir guzarning o‘z masjidi, hovuzi,bozorchasi, usta va hunarmandlar guruhi mavjud bo‘lgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida guzarlar Buxoroning iqtisodiy faoliyatini belgilagan asosiy bo‘linmalar vazifasini bajargan. 1920-yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, guzarlarning nomlari va boshqaruv tizimlarida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Sovet hokimiyati an’anaviy nomlarni “feodalizm va diniy meros qoldig‘i” deb baholab, ularni ideologik talablarga mos ravishda o‘zgartirdi.

XX asrning birinchi yarmi Buxoro shahri hayotida katta siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar yuz bergan davr sifatida tarixda qoldi. Buxoro qadimdan guzar va mahallalar tizimi bilan mashhur bo‘lgan. Har bir guzar shahar aholisining o‘ziga xos ijtimoiy makoni, hunarmandchilik markazi va madaniy markazi vazifasini bajarib kelgan. Har birining o‘z tarixi, qadimiy nomi, ularga mansub hunar egalari bo‘lgan[1].

Sovet hokimiyati o‘rnatilgach, bu nomlar ko‘plab mafkuraviy va siyosiy maqsadlar asosida yangilab borildi. O‘sha yillarda shaharda boshqaruv tizimi, ma’muriy bo‘linmalar, ta’lim muassasalari va jamiyat hayotining boshqa jabhalari qayta ko‘rib chiqilib, sovet boshqaruviga moslashtirildi. XX asr boshlarida, xususan, sovet hokimiyati o‘rnatilishi bilan shaharning an’anaviy ma’muriy tuzilishiga sezilarli o‘zgarishlar kiritildi. Ushbu o‘zgarishlarning muhim yo‘nalishlaridan biri – Buxoro shahri guzarlari nomlarining yangilanishi bo‘ldi,guzarlarning nomlari ideologik talablardan kelib chiqib qayta ko‘rib chiqildi.

Gazeta sahifasidagi ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro shahar sovetining ijroiya qo‘mitasi 1930-yillar davomida millatchilikka oid deb topilgan yoki eski, tarixiy nomlar o‘rniga yangi, sovet mafkurasiga mos nomlarni berishni maqsad qilgan[2].

Bu jarayon quyidagi omillar bilan izohlanadi: sovet mafkurasini mustahkamlash; inqilob va sovet arboblari nomlarini keng targ‘ib qilish; mahalliy milliy an’anaviy nomlarni kamaytirish; shahar boshqaruvini yagona tizimga tushirish; mahalla boshqaruvini sovet tizimiga moslashtirish. Bu davrga kelib boshqaruv tizimida guzar oqsoqollari o‘rnini sovet mahalla qo‘mitalari egalladi.

Natijada ko‘plab guzarlar yangi nomlar bilan qayta ro‘yxatga olingan. Gazeta ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha paytda Buxoro shahrining kamida 40 dan ortiq guzarlari yangi nom olgan. Gazetadagi maqolada (44 ta guzar) ning ro‘yxati keltiriladi[3]. Masalan: “Murtaza Xoja” – “Narimanov”, “O‘zgarish” – “Pushkin”, “Hoji Rafe – Maorif”, “Mirza Rahmatulla” – “1-May”, “Mir Ma’sudxoja” – “Sverdlov”, “Muhamad Said” – “Oktabr”, “Mufti Zada” – “Kommuna”, “Mirza Usman” – “Revolutsiya”, “Mirza Fayzi” – “Qizil O‘zbekiston”, “Taraqqiy” – “Komsomol”, “Kasagaran” – “Bolshevik”, “Mirza Mustafa” – “Qizil Armiya”, “Registan” – “ Revolutsiya maydoni”, “ G‘ulam Riza” – “Sanaat”, “Abdulla Xoja” – “Madaniyat”[4].

Bu o‘zgarishlarning deyarli barchasida xalq orasida mashhur bo‘lgan tarixiy shaxslar, mahalliy diniy ulamolar yoki qadimiy kasb-hunar markazlarining nomi o‘chirilib, o‘rniga: sovet arboblari (Lenin,Gorkiy), inqilobiy terminlar (Proletar, Kommuna, Sotsializm), qizil armiya va inqilobga oid nomlar (Qizil Armiya, Qizil Yulduz) joylashtirilgan[5].

Jarayonning ijtimoiy ta’siri: Nomlarning o‘zgarishi shahar aholisi uchun oddiygina rasmiy jarayon bo‘lib qolmay, balki kundalik hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan: mahallalarning tarixiy xotirasi zaiflashgan, an’anaviy guzar-kasb tizimi izdan chiqa boshlagan, yoshlarda yangi siyosiy tushunchalar mustahkamlanishi ko‘zlangan.

Biroq shunga qaramay, Buxoroning qadimiy ruhi, mahalla institutining asosi yo‘qolib ketmadi. Bugungi kunda ham ko‘plab guzarlarda qadimiy nomlar va rivoyatlar xalq xotirasida saqlanib qolgan. Buxoroning qadimiy eski shahar qismini atroflicha o‘rgangan O.A.Suxarevaga ko‘ra Buxoro guzari shunchaki hududiy birlik emas, balki ijtimoiy jamoa, ma’naviy makon va mehnat faoliyati markazi bo‘lgan. U guzarlarni “shahar hayotining eng barqaror, tarixiy ildizga ega bo‘lgan tashkilot” deb tariflaydi. Har bir guzar o‘zining “ma’naviy hududi”ga ega bo‘lib, aholi ko‘p hollarda bir guzar ichida tug‘ilib, shu yerda umr o‘tkazgan. Suxareva buni “uzluksiz jamoaviylik shakli” deb ataydi[6]. Suxareva Buxoro guzaralari iqtisodiy va ijtimoiy mavqeyiga ko‘ra farqlanganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra guzarlar asosan 3 turga bo‘lingan.

Markaziy guzarlar – boy savdogarlar, madrasa ulamolari, badavlat hunarmandlar yashagan.

Chekka guzarlar – kam ta’minlangan qatlam, oddiy ustalar va qishloqdan kelgan mehnatkashlar yashagan.

Hunarmandchilik guzarlari – zargarlik,miskarlik,charmdorlik kabi kasblarga mansub oilalar jamlangan.

Xulosa qilib aytganda 1930-yillarda Buxoro shahridagi guzar nomlarining o‘zgarishi – bu shunchaki ma’muriy qaror emas, balki o‘sha davr siyosiy jarayonlarining yaqqol ko‘zgusidir. O‘zgarishlar shahar tuzilishiga, madaniy xotiraga va aholi hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.Tarixiy hujjatlar va gazeta sahifalari orqali biz bu jarayonning qanday kechgani, qanday nomlar o‘zgargani va o‘zgarishlarning mazmuni haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lamiz. Biroq Suxarevaning 1950-1960 yillardagi kuzatuvlariga ko‘ra, sovet boshqaruvi an’anaviy guzar tizimini ma’muriy birlik sifatida rasmiylashtirmadi. Ammo guzarlarning ijtimoiy-madaniy

mazmuni xalq hayotida saqlanib qoldi. Sovetlar guzarlarni “mahalla qo‘mitalari”ga aylantirdi, biroq: guzarning jamoaviy birdamligi; qo’shnichilik madaniyati, an’anaviy marosimlar hali uzoq vaqt davomida o‘z kuchini yo‘qotmaganini qayd etadi. Sovet islohotlari tashqi ko‘rinishni o‘zgartirgan bo‘lsa-da, guzarlarning ijtimoiy-axloqiy tizimi 1970 – yillargacha davom etgan[7].

ADABIYOTLAR

1. Сухарева О. Позднефеодальный город Бухара конца XIX — начала XX в. Ремесленная промышленность. – T:1962.
2. Сухарева О. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). – T:1958.
3. Сухарева О. Бухара. XIX — начало XX в. (Позднефеодальный город и его население). – M:1966.
4. Hayotova N. Buxoro shahrida sovet davri arxitekturasi va shaharsozlik siyosati: tarixiy-me’moriy tahlil. – T:2025.
5. Shahar guzarlariga yangi nom berildi//Buxoro Proletari. 83-son.1938-yil 11-aprel.
6. To‘rayev,X.Buxoro viloyat toponimlari yuzasidan ayrim mulohaza va tavsiyalar/ X. To‘raev // Buxoronoma. – 2020. – 24 iyun. –B.6.

BUXORO TARIXIGA BIR NAZAR

Buxoro davlat universiteti
1-bosqich talabasi
Jurayeva Ferangiz Jamshidovna

Anotatsiya. Ushbu maqola Buxoro shahrining tarixiy, madaniy va ilmiy rivojlanishini tahlil qiladi. Buxoro nafaqat Sharqning qadimiy shaharlaridan biri sifatida, balki ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida o‘zining boy merosi bilan ajralib turadi. Maqolada shahar tarixidagi muhim davrlar, jumladan Somoniylar, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar va Temuriylar davri, arablar fathi hamda me’moriy yodgorliklar, madrasalar va jamoat inshootlari kabi masalalar keng yoritilgan. Shu bilan birga, Buxoroning Buyuk Ipak yo‘li markazidagi roli, turli xalqlar bilan madaniy almashinuv va islom dini ta’siri ham tahlil qilingan. Maqola Buxoroning tarixiy va madaniy merosini chuqurroq o‘rganish, shuningdek shaharni Sharq olamidagi ilmiy va madaniy markaz sifatida tushunish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Buxoro, tarix, madaniyat, ilm-fan, Somoniylar, Temuriylar, me’morchilik, Arablar fathi.

Buxoro shahrining tarixi 2500 yillik boy merosga ega bo‘lib, u nafaqat hududiy va siyosiy rivojlanish markazi, balki Sharqning madaniy va ilmiy poytaxtlaridan biridir. Shahar qadimdan savdo-sotiq, ilm-fan va madaniyat markazi sifatida shakllangan, Buyuk Ipak yo‘lining markaziy nuqtasida joylashgani sababli turli xalqlar va sivilizatsiyalar bilan aloqada bo‘lgan[1]. Buxoroning tarixiy rivojlanishi turli davrlar va siyosiy tizimlar bilan bog‘liq bo‘lib, shaharda madaniyat, hunarmandchilik va ilm-fan doimiy ravnaq topgan. Somoniylar davri, arablar fathi, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Temuriylar davri Buxoroning tarixiy va madaniy mavqeini yanada mustahkamlagan. Shu bilan birga, shaharning me’morchilik yodgorliklari, masjidlar, madrasalar va jamoat binolari Buxoroning boy madaniy merosini tashkil qiladi. Ushbu maqola Buxoro tarixini, ilmiy va madaniy rivojlanishini, shuningdek shaharning Sharq olamidagi ahamiyatini chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada Buxoro shahrining tarixiy rivojlanishi, me’morchilik merosi, ilm-fan markazlari va madaniy almashuvlar keng yoritiladi.

Buxoro tarixi nafaqat hududiy va siyosiy rivojlanishni, balki Sharqning boy madaniy merosini ham o‘zida mujassam etadi. Shahar Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgani, turli xalqlar va dinlar bilan aloqada bo‘lganligi, ilm-fan va hunarmandchilikning rivojlanishi Buxoroni

[11] Beckwith, Empires of the Silk Road, 93–100-betlar.

Sharq olamidagi eng muhim markazlardan biriga aylantirgan. Shaharda madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, turli xalqlar bilan madaniy almashinuvlar Buxoroni ko‘p asrlar davomida o‘ziga xos, bag‘rikeng va ko‘p qirrali markaz sifatida ajratib turadi. Shu bilan birga, Buxoro nafaqat tarixiy, balki madaniy va ilmiy merosi bilan ham dunyo e’tiboriga sazovor bo‘lgan.

Buxoro tarixi o‘zida 2500 yillik madaniy va siyosiy rivojlanishni mujassam etadi. Shahar qadimdan ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida shakllangan, turli xalqlar va sivilizatsiyalar bilan aloqada bo‘lgan. Buxoro tarixida Abruy boshchiligidagi qo‘zg‘olon, Arablar bosqini va Buxorxudotlar davri shahar siyosati va madaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Shu tariqa Buxoro Sharq olamining eng qadimiy va boy merosga ega shaharlardan biri sifatida dunyoga tanilgan.Buxoro tarixi: madaniyat, ilm-fan va me’moriy meros Buxoro tarixi nafaqat hududiy va siyosiy rivojlanishni, balki Sharqning boy madaniy merosini ham o‘zida mujassam etadi. Buxoro — Markaziy Osiyoning eng qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi va taraqqiyoti bugungi kunda ham bir qator ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Tarixiy manbalarda shahar kelib chiqishi turlicha talqin etilgani, afsonaviy rivoyatlar bilan arxeologik topilmalar o‘rtasidagi farqlar Buxoroning dastlabki siyosiy va madaniy rivojlanish jarayonini aniq belgilashni qiyinlashtiradi. Aynan shu masala — Buxoroning ilk shakllanish davri va uning tarixiy asoslarini aniqlash — zamonaviy tarixshunoslikning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy rivoyatlar Buxoro tarixini Afrosiyob, Siyovush yoki boshqa afsonaviy shaxslar bilan bog‘lagan bo‘lsa, xorijiy manbalarda, xususan, Xitoyning “Tan shu” yilnomalarida Buxoro vohasi miloddan avvalgi II asrlardayoq shakllangan shahar-madaniyat markazi sifatida tilga olinadi. Arab va fors muarrixlari — Narshaxiy, Tabariy, Bal‘amiylarning asarlarida esa Buxoro VII–VIII asrlardan boshlab yirik siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida tasvirlanadi. [1]Bu manbalar orasidagi tafovutlar mazkur shahar tarixining ilk bosqichlarini tarixiy kontekstda qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.So‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan arxeologik izlanishlar Buxoro hududining ancha qadimiy jarayonlarga ega ekanligini isbotladi. Varaxsha, Paykend, Romiton, Qiziltepa, Buxoro Arki kabi yodgorliklarda o‘tkazilgan qazishmalar miloddan avvalgi V–IV asrlarga oid urbanizatsiya qatlamlarini ochib bergani holda, shahar madaniyatining rivoji afsonaviy manbalarda qayd etilgandan ham qadimiyroq ekanligini ko‘rsatmoqda. Shunday bo‘lsa-da, bu topilmalar hali to‘liq tizimlashtirilmagan, shahar shakllanishining uzluksiz davrlari esa ilmiy ravishda to‘liq aniqlab berilmagan.Shu sababli, Buxoro tarixining ilk bosqichi — muammo sifatida o‘rganilishi zarur bo‘lgan masaladir. Yozma manbalar va arxeologik dalillar o‘rtasidagi ziddiyatlar, tarixiy rivoyatlar va ilmiy faktlar orasidagi tafovutlar, shuningdek, shaharning dastlabki siyosiy tuzilmasi haqida mavjud qarashlarni qayta tahlil qilish Buxoro tarixshunosligining asosiy vazifalaridan biridir. Mazkur tadqiqot ham aynan shahar taraqqiyotining eng qadimgi bosqichlarini muammo sifatida ko‘rib, manbalar asosida uning ilmiy talqinini berishga qaratilgan.

Shahar Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgani, turli xalqlar va dinlar bilan aloqada bo‘lganligi, ilm-fan va hunarmandchilikning rivojlanishi Buxoroni Sharq olamidagi eng muhim markazlardan biriga aylantirgan.[2]

Shaharda madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, turli xalqlar bilan madaniy almashinuvlar Buxoroni ko‘p asrlar davomida o‘ziga xos, bag‘rikeng va ko‘p qirrali markaz sifatida ajratib turadi. Shu bilan birga, Buxoro nafaqat tarixiy, balki madaniy va ilmiy merosi bilan ham dunyo e’tiboriga sazovor bo‘lgan.

Buxoro tarixi o‘zida 2500 yillik madaniy va siyosiy rivojlanishni mujassam etadi. Shahar qadimdan ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida shakllangan, turli xalqlar va sivilizatsiyalar bilan aloqada bo‘lgan. Shahar tarixida qo‘zg‘olonlar, bosqinlar va mahalliy hokimiyatlarning siyosiy faoliyati shahar madaniyati va ilm-fanining shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

[11] Asqarov, A. Samarqandning eng qadimgi tarixi. — Toshkent, 2003, 41–44-betlar.
[2] Beckwith, Empires of the Silk Road, 93–100-betlar.

Somoniylar davri Buxoro tarixida ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnash davri sifatida ajralib turadi. Shu davrda shaharda madrasalar, masjidlar, hammomlar va jamoat binolari qurilgan. Somoniylar davri inshootlarida IX–X asrlardagi Sharq matematikasi va me'moriy yondashuvlar aks etgan. Shu davrning eng mashhur yodgorligi – Somoniylar maqbarasi bo'lib, butunlay pishiq g'ishtdan qurilgan va mahalliy so'g'diy me'morlar tajribasiga asoslangan. [1]

Buxoro me'morchiligi o'zining noyobligi bilan ajralib turadi. Shaharda turli ahamiyat va darajadagi imoratlar, jamoat binolari qurilgan va ta'mirlangan. Madrasalar, masjidlar, karvonsaroylar, hammomlar va minoralar shaharning madaniy va ijtimoiy hayotini shakllantirishda muhim rol o'ynagan. Somoniylar davridan boshlab, Buxoro me'moriy merosini keyingi davrlar, jumladan Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Buyuk Saljuqiylar va Xorazmshohlar davri davom ettirgan.

Temuriylar davrida Samarqand poytaxt bo'lishiga qaramay, Buxoro ilm-fan va madaniyat markazi sifatida o'z mavqeini saqlab qolgan. Shahar: Ilm-fan, ta'lim va madaniyat markazlaridan biri sifatida qadrlangan. Poytaxt Samarqandga mudofaa va ma'naviy jihatdan eng yaqin markaz sifatida xizmat qilgan. Movarounnahrning asosiy shaharlardan biri sifatida madaniy va ma'rifiy mavqeini saqlab turgan.[2]

Temuriylar davri Markaziy Osiyo va kengroq mintaqa tarixida yuksak siyosiy barqarorlik, ilm-fan, madaniyat va me'morchilikning ravnaq topgan davri sifatida baholanadi. Biroq bu yuksalish jarayoni o'z davrida bir qator murakkab siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar bilan ham yuzma-yuz bo'lgan. Ushbu maqolada Temuriylar davlatining shakllanishi va rivojlanishi jarayonidagi asosiy muammolar, ularning sabablari hamda tarixiy natijalari tahlil qilinadi.Amir Temur o'z davrida markazlashgan va qat'iy boshqariladigan davlatni shakllantirgan bo'lsa-da, uning vafotidan so'ng markaziy hokimiyat asta-sekin zaiflashdi. Mirzo va amirlar o'rtasidagi raqobat, hududiy hokimlarning mustaqillikka intilishi davlatning siyosiy barqarorligiga jiddiy putur yetkazdi.Temuriylar davridagi siyosiy beqarorlik, iqtisodiy pasayish va taxt uchun kurash XVI asr boshida davlatning parchalanishiga sabab bo'ldi. Ammo madaniy meros – me'morchilik, ilmiy an'analar, adabiyot – keyingi asrlar davomida ham o'z ahamiyatini yo'qotmadi.[3]Temuriylar davri misolida ko'rinadiki, kuchli shaxs tomonidan barpo etilgan davlatning barqarorligi vorislik tizimining mustahkamligiga, siyosiy birlikning saqlanishiga va iqtisodiy sharoitning barqaror bo'lishiga bevosita bog'liq. Temuriylar davlatidagi asosiy muammolar — markazlashuvning zaiflashuvi, vorislar o'rtasidagi kurash, savdo yo'llarining o'zgarishi — imperiyaning parchalanishiga olib kelgan. Ammo davrning natijalari madaniyat va ilm rivoji orqali jahon sivilizatsiyasi tarixida chuqur iz qoldirdi.

Mo'g'ullar istilosidan so'ng shahar va undagi inshootlarning aksariyati ta'mirtalab holga kelgan bo'lsa-da, Buxoro o'z tarixiy va madaniy ahamiyatini yo'qotmagan.

Islom dini va madaniy rivojlanish

Arablar fathi Buxoro va Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish davri bo'lgan. Islom dini mintaqa hayotiga kirib, Buxoroda mustahkam ildiz otdi. Buxoro musulmon davrini islomgacha bo'lgan davr bilan bog'lovchi zanjir sifatida iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishni ta'minlagan. Shu tariqa shahar nafaqat siyosiy va savdo markazi, balki islomiy madaniyat va ilm-fan markazi sifatida shakllangan

2500 yillik ilmiy, madaniy va siyosiy rivojlanishni o'zida mujassam etadi. Buyuk Ipak yo'li markazida joylashgani tufayli turli xalqlar va sivilizatsiyalar bilan aloqada bo'lgan. Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar va Temuriylar davrida shaharning ilm-fan va madaniyat markazi sifatidagi mavqei yanada mustahkamlangan.Me'morchilik, shaharsozlik, madrasalar va diniy inshootlar shaharning boy madaniy merosini yaratgan. Shu tariqa Buxoro Sharq olamida qadimiy va boy madaniy merosga ega markaz sifatida dunyo e'tiboriga sazovor bo'lgan.

Buxoro tarixi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining eng qadimiy, eng barqaror va eng boy merosga ega bo'lgan sahifalaridan biridir. Shahar 2500 yillik tarix davomida siyosiy markaz,

[11] Pugachenkova, Sredneaziatskoe iskusstvo, 88-bet.
[2] Yazdiy, Zafarnoma, 114–118-betlar.
[3] Frye, The Heritage of Central Asia, 212–220-betlar.

savdo yo‘llari chorrahasi, ilm-fan va ma’naviyat beshigi sifatida shakllanib kelgan. Buyuk Ipak yo‘lining markazida joylashgani tufayli Buxoro turli xalqlar, dinlar va madaniyatlar o‘rtasidagi beqiyos muloqot maydoniga aylangan, bu esa uning madaniy qatlamini nihoyatda boyitgan.

Qadimgi Buxorxudotlar davridan boshlab, Arablar bosqini, Somoniylar davrining siyosiy uyg‘onishi va islom sivilizatsiyasining ravnaqi, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar va Saljuqiylar davrida davom etgan uzluksiz taraqqiyot — bularning barchasi Buxoroning mintaqa taraqqiyotidagi o‘rnini mustahkamladi. Somoniylar maqbarasi kabi yodgorliklar mahalliy me’moriy an’analarning yuksak darajasini namoyon etgan bo‘lsa, ilm-fan sohasidagi yutuqlar butun Sharq dunyosiga ta’sir o‘tkazgan.

Temuriylar davrida Buxoro siyosiy poytaxt bo‘lmagan bo‘lsa-da, u islom dini markazi, ilm-fan va ma’rifat o‘chog‘i sifatida yuksak mavqeni saqlab qoldi. Shu bilan birga, bu davr o‘ziga xos murakkabliklar bilan ham ajralib turdi. Siyosiy markazlashuvning zaiflashuvi, vorislik tizimidagi noaniqliklar, amirlar o‘rtasidagi raqobat va buyuk taxt kurashlari davlatning zaiflashuviga olib keldi. Bundan tashqari, XV asr oxirlariga kelib Ipak yo‘li ahamiyatining susayishi iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Biroq Temuriylar yaratgan ilmiy-madaniy muhit — Ulug‘bek rasadxonasi, madrasalar, me’moriy maktablar — keyingi asrlarda ham o‘z kuchini yo‘qotmadi va Markaziy Osiyoning madaniy identitetini shakllantirishda davom etdi.

Tarixiy jarayonlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, Buxoro rivojining asosiy omili geografik joylashuv va madaniy bag‘rikenglik bo‘lsa, uning qisqa muddatli tanazzullari siyosiy barqarorlikning sustlashuvi, vorislik inqirozi va tashqi iqtisodiy omillar bilan bog‘liq bo‘lgan. Shunday bo‘lsa-da, shahar har qanday siyosiy beqarorlikdan keyin yana tiklana olgan va o‘zining ilmiy-madaniy markaz sifatidagi mavqeini qayta tiklagan.

Yakunda aytish mumkinki, Buxoro tarixi — bu o‘ziga xos uyg‘unlik: siyosiy jarayonlar, iqtisodiy o‘zgarishlar, madaniy an’analar va ilm-fan taraqqiyotining uzluksiz bog‘lanishidir. Temuriylar davri muammolari tarixiy jarayonlarning murakkabligini yoritib bersa, uning natijalari — ya’ni madaniy yodgorliklar, ilmiy meros, ma’naviy qadriyatlar — butun Markaziy Osiyo madaniyatiga o‘lmas hissa qo‘shdi.

Foydalanilgan ma’lumotlar

1. Narshaxiy, Muhammad ibn Ja’far. Buxoro tarixi. — Toshkent: Fan, 1966.
2. Tabariy, Abu Ja’far Muhammad. Tarixi at-Tabari. Qayta nashrlar.
3. Yoqut al-Hamaviy. Mu’jam al-Buldon. — Bayrut: Dar Sadir, 1977.
4. As-Sam’oniy, Abu Sa’d Abd al-Karim. Kitob al-Ansab.
5. Abu Mansur as-Saolibiy. Yatimat ad-dahr.
6. Hamdulloh Qazviniy. Nuzhat al-Qulub.
7. Ibn al-Asir. Al-Kamil fit-tarix.
8. Sharofuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. — Toshkent: Fan, 1997.
9. Bartold, V. V. Turkistonning o‘rganilishi tarixi. — Toshkent: Fan, 1993.
10. Bartold, V. V. Mo‘g‘ullar istilosi davrida Turkiston. — Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1992.

CHORVA KASALLIKLARI VA CHEGARA SIYOSATI: TURKISTON-BUXORO VETERINARIYA PUNKTLARINI TASHKIL ETISH REJALARI (XIX ASR OXIRI)

Bazarbayeva Shohsanam Muratovna
University of Business and science
nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
Tel: +998 90 945 07 02

Annotasiya: Ushbu maqola XIX asr oxirida Turkiston general-gubernatorligining Buxoro amirligi bilan chegaradosh hududlarda chorva kasalliklari (epizootiya) tarqalishiga qarshi kurash strategiyasini tahlil qiladi. Mustamlaka ma’muriyati veterinariya sohasidagi eng katta xavfni Buxoro amirligidan kelayotganini aniqlaydi. Bunga Buxoro va Turkiston o‘rtasidagi nazoratsiz uzun chegaralar, Afg‘onistondan Buxoroga, u yerdan esa Turkiston yaylovlariga minglab chorva mollarining doimiy migratsiyasi sabab bo‘lgan.

Kalit so`zlar: Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, veterinariya siyosati, veterinar shifokorlar, veterinar shifokorlarning xizmat safarlari, chorva mollari kasalliklari, qushxonalar, tadbirkorlar, mahalliy xalq.

XIX asr oxirida mustamlaka ma'muriyati qo‘shni davlatlardan va xonliklardan chorva mollari kasalliklari kirib kelishining oldini olish uchun veterinariya punktlarini tashkil etish qaror loyihasini ishlab chiqqan. Mazkur hujjatni ishlab chiqishdan avval mustamlaka ma'muriyati, birinchi navbatda, Turkiston o‘lkasi chorvachilik sohasida qaysi davlatlar bilan iqtisodiy aloqalar qilishini o‘rganib chiqadi. Bunda nafaqat chorva mollari hamda xomashyolar tijorati, balki chorva mollarining migratsiyasi ham hisobga olingan.

Turkistondagi imperiya vakillari chorva mollari orasida yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun qo‘shni davlat va xonliklardan infeksiyalarning kirib kelish xavfini baholagan. Ular birinchi navbatda qaysi davlatlardan yoki xonliklardan qaysi geografik yo‘llar orqali chorva mollar va xomashyolar kirib kelishini aniqlashga uringan. Ularning fikriga ko‘ra, Angliya humkronligi ostidagi Hindiqush va Pomir o‘lkalaridan Turkistonga yuqumli kasalliklarning kirib kelish xavfi deyarli mavjud bo‘lmagan. Chunki Turkiston hamda mazkur o‘lkalar o‘rtasida chorvachilik sohasida aloqalar mavjud bo‘lmagan. Aksincha, Qashg‘ar tomondan hayvonlarda uchraydigan infeksiyalarning Turkistonga kirib kelish xavfi yuqori bo‘lgan. Chunki azaldan mazkur mintaqalar o‘rtasida teri savdosi rivojlangan bo‘lib, bu jarayon mustamlaka davrida ham davom etayotgan edi. Boshqa tomondan, mustamlaka ma'muriyatining Qashg‘ardan kirib kelishi mumkin bo‘lgan kasallikning oldini olish imkoni mavjud bo‘lgan. Chunki terilar Qashg‘ardan Turkistonga Ergashtom orqali kirib kelgan. Bu esa mazkur yo‘ldan o‘tayotgan chorva mollari va chorva xomashyolarini veterinariya nazoratidan o‘tkazish imkonini bergan[1].

1891-yil 10-avgustda Turkiston general-gubernatori Buxoro amirligida veterinariya punktlarini tashkil etish masalasini o‘rganish uchun amirlikka komissiya yuborishga topshiriq bergan. Mazkur ishga Turkiston o‘lkasi bosh veterinariya hamda general-gubernator maslahatchisi bo‘lgan N. Brovnikov rahbarlik qilgan. U mazkur ekspeditsiyani amalga oshirish uchun 1892-yilda Samarqand viloyat harbiy gubernator huzurida bo‘ladi. Jumladan, u Turkiston general-gubernatorining viloyat boshlig‘iga aytgan topshirig‘ini yetkazadi. Unga ko‘ra, Samarqand viloyat harbiy gubernatori Buxoro amirligi ma'muriyatiga ushbu ekspeditsiya ularning hududiga borayotganligi hamda ularga kerakli sharoitlar yaratib berishni so‘raydi. Shuningdek, N.Brovnikov viloyat boshlig‘idan uning qo‘l ostidagi veterinar shifokorlardan birini unga yordamchi sifatida qo‘shib yuborishni iltimos qiladi[2].

1892-yilda Turkiston general-gubernatori Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligiga xat yuboradi. U xatida Turkistonda veterinariya nazoratini tashkil etishi uchun Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatining ayrim aholi punktlarida veterinariya punktlarini tashkil etganligini qayd etadi. Biroq, ular bu bilan bir qatorda Buxoro, Xisor va Petro-Aleksandrsk shaharlarida ham veterinariya punktlarini tashkil etish zarur deb topganligini aytadi. Ushbu veterinariya punktlarini har biriga 1 nafardan veterinariya shifokorlari, 2 nafardan feldsher hamda tarjimon tayinlash ko‘zda tutgan. Mustamlaka ma'muriyatining rejasiga ko‘ra, Buxoro, Hisor va Petro-Aleksandrovsk shaharlaridagi veterinariya punktlari xarajatlarining yarmi Turkiston general-gubernatorligi davlat xazinasidan hamda qolgan qismi Buxoro amirligi va Xiva xonligi hukumatlari tomonidan qoplanishi lozim bo‘lgan. Turkiston general-gubernatori Buxorodagi Rossiya agentligi rahbaridan bu masala bo‘yicha Buxoro amiri bilan bog‘lanish hamda Buxoro va Hisorda tashkil etish rejalashtirilgan veterinariya punktlarining xarajatlarini to‘lashda ishtirok etishni so‘raydi. Mustamlaka ma'muriyatining hisob kitobiga ko‘ra, bu veterinariya punktlarining har birining bir yillik xarajati 3805 rublni tashkil etgan[3].

Boshqa tomondan, mustamlaka ma'muriyati veterinariya sohasidagi eng katta xavfni Buxoro amirligidan kutgan. Bunga bir qancha sabablar bor edi. Birinchidan, Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi o‘rtasidagi chegaralar uzun bo‘lgan va chegaralarni nazorat

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish, 34-varaq.
[2] O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish, 12-varaq.
[3] O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish, 45-varaq.

qilish ishlari amalga oshirilmagan. Masalan, arxiv manbalariga ko‘ra, har yili Buxoro amirligi chorvadorlari minglab chorva mollarini Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on va Jizzax uyezdlaridagi yaylovlarga boqish uchun olib kelgan. Shuningdek, Afg‘onistondan Buxoro amirligiga har yili ko‘plab chorva mollari kirib kelgan. Buxoro amirligida ular veterinariya nazoratidan o‘tkazilmagan. Keyinchalik esa ushbu chorvalar Buxoro amirligidan Turkiston hududiga sotish va yaylovlarda boqish uchun olib kelingan[1].

Yuqoridagi ma’lumotlarni hisobga olgan holda, Turkiston general-gubernatorligi, birinchi navbatda, Buxoro amirligi bilan qo‘shni hududlarda veterinariya punktlarini tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. Bu chorva mollarining yuqumli kasalliklari kirib kelishining oldini oladigan yagona chora sifatida ko‘riladi. Chunki Buxoro amirligi va Afg‘onistondan Turkistonga sotish uchun olib keligan turli turdagi chorva mollarini o‘sha veterinariya punktlarida tekshirish va ularni karantinga olish imkoni paydo bo‘lar edi. Biroq, amalda bu ishni ro‘yobga chiqarish deyarli imkonsiz edi. Chunki yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, Buxoro amirligi va Turkiston general-gubernatorligi chegaralar juda uzun bo‘lgan. Bundan tashqari, ushbu chegaralarning aksariyat qismi tekisliklardan iborat edi. Bu esa Buxoro amirligi chorvadorlarining turli geografik yo‘llar orqali Turkiston o‘lkasiga kirib kelish imkonini bergan. Turkiston general-gubernatorligining veterinariya boshqarmasi bu murakkablikka darhol e’tibor qaratgan. Masalan, Buxoro amirligi va Turkiston o‘lkasidagi Hisor tog‘ tizmalari orqali chegarani kesib o‘tuvchi 17 ta yo‘l mavjud bo‘lgan. Bu degani mustamlaka ma’muriyati o‘sha 17 ta yo‘lning har biriga bittadan veterinariya punktlarini tashkil etish vazifasini qo‘ygan. Bundan tashqari, Nurota bekligi va Jizzax uyezdi chorvadorlarining ikki hududda ham chorva mollarini sug‘orish uchun quduqlari mavjud bo‘lgan. Bu esa chorvadorlar bir hududdan ikkinchi hududga tez-tez ko‘chib o‘tganligini anglatgan. Jumladan, veterinariya mutaxassislari quyidagi savollarni qo‘yadi: Nurota va Jizzax podalari uchun umumiy sug‘orish joyi bo‘lib xizmat qilgan quduqlar atrofida qanday veterinariya nazoratini o‘rnatish mumkin? Buxoro amirligi va Turkiston o‘lkasi janubiy chegaralari bo‘ylab o‘tgan ushbu 17 ta o‘tkazish punktida bir nechta veterinariya punktlarini tashkil etish uchun qancha mablag‘ kerak bo‘ladi? Bu savollardan ko‘rinib turibdiki, veterinariya mutaxassislari Buxoro amirligi bilan qo‘shni uyezdlarda veterinariya nazaratini o‘rnatish iqtisodiy va tashkiliy jihatdan qiyin ish ekanligini tushungan. Shu sababli mustamlaka ma’muriyati birinchi navbatda moliyaviy xarajatlarni kamaytirishga harakat qilgan. Buning uchun ular juda oddiy usuldan foydalangan. Bu usul esa ta’qiqlardan iborat edi. Masalan, Jizzax va Nurota o‘rtasidagi chegarani nazorat qilish uchun mahalliy aholining yordamidan foydalangan. Ma’muriyat aholiga Buxoro amirligidan kelgan chorvalarni sotib olmaslikni va ular bilan savdo aloqalarini olib bormaslikni so‘raydi. Janubiy chegara hisoblangan Hisor tog‘ tizmalari orqali o‘tgan 17 ta o‘tkazish punktini esa chorva haydash uchun berkitib qo‘ygan[2].

Xulosa, Turkiston ma'muriyati chorva kasalliklarining kirib kelishi bo‘yicha eng katta xavfni Buxoro amirligidan kutgan. Buning sababi Buxoro orqali Afg‘onistondan nazoratsiz chorva mollari kirib kelishi, shuningdek, Buxoro chorvadorlarining Turkistonning Kattaqo‘rg‘on va Jizzax uyezdlaridagi yaylovlarga doimiy migratsiyasi bo‘lgan.

Garchi ma'muriyat Buxoro bilan chegaradosh hududlarda veterinariya punktlarini tashkil etishni yagona samarali chora deb hisoblagan bo‘lsa-da, amalda bu ishni ro‘yobga chiqarish deyarli imkonsiz edi. Chegaralarning uzunligi, ularning aksariyat qismining tekisliklardan iboratligi va Hisor tog‘tizmalaridagi 17 ta o‘tkazish yo‘li mavjudligi nazoratni o‘rnatish uchun nihoyatda katta moliyaviy va inson resurslarini talab qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O`zbekiston Milliy Arxivi, I-3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish.
2. Петков П., Горячкин А. Развитие животноводства в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, - 1968.
3. Юлдашев А. Аграрные отношения в Туркестане. – Ташкент, 1969.

[1] O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish, 34-varaq.
[2] O‘zbekiston Milliy arxivi, I.3-fond, 1-ro‘yxat, 72-ish, 34-varaq orqasi.

4. Shchekin V.A. Chorvachilik. Maxsus qism. (2-nashr). – Toshkent: O`quvchi. 1968.
5. Xo‘jaxonov I. Farg‘ona vodiysi chorvador aholisining an`anaviy uy-joylari xususida // Ta`lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. – 2005. - №2.

BUXORO KIMYO MAKTABI RIVOJIGA AYOL OLIMALARNING QO‘SHGAN HISSASI.

Teshayeva Yulduz Hakim qizi
BuxDU tayanch doktaranti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Buxoro kimyo maktabi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan ayol olimalar – professor G.A. Xudoynazarova, dotsent Z.A. Sulaymonova, dotsent E.A. Xudoyarova, dotsent D.A. Hazratova hamda dotsent Z.K. Qodirovalarning ilmiy va pedagogik faoliyati keng yoritilgan. Ularning kimyo fanining turli yo‘nalishlarida olib borgan ilmiy izlanishlari, yaratilgan ilmiy ishlari, yosh kadrlar tayyorlashdagi xizmatlari va kimyo ta’limi rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Ayol olimalarning Buxoro kimyo maktabi shakllanishi va taraqqiyotidagi o‘rni, ustoz-shogird an’analarini rivojlantirishdagi sa’y-harakatlari ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

KALIT SO‘ZLAR. Buxoro kimyo maktabi, ayol olimalar, ilmiy maktab, yuqori molekulyar birikmalar, organik kimyo, noorganik kimyo, kompleks birikmalar, pedagogik faoliyat, ilmiy izlanish, ta’lim metodikasi, kimyo ta’limi.

Kimyo fani taraqqiyoti insoniyatning ilmiy-texnik rivojida alohida o‘rin tutadi. Bu jarayonda nafaqat erkak olimlar, balki ayol olimalarning ham beqiyos mehnati, izlanishlari va fidoyiligi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston ilm-fan maktablari orasida o‘z an’analari va ilmiy muhitiga ega bo‘lgan Buxoro kimyo maktabi shakllanishida ham xotin-qiz olimalarning hissasi ulkan bo‘lgan. Ularning ilmiy, pedagogik hamda innovatsion faoliyatlari natijasida kimyo sohasi uchun ko‘plab ilmiy kadrlar tayyorlandi, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar yo‘lga qo‘yildi. Quyida Buxoro kimyo maktabining taraqqiyotida alohida o‘rin egallagan bir qator olimalarning hayoti, ilmiy izlanishlari va faoliyati haqida batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Kimyo faniga fidoyilik bilan xizmat qilayotgan professor Gulbahor Akievna Xudoynazarova 1967 yil 9 aprelda Buxoro viloyatining Galaosiyo shahrida tug‘ilgan. U 1989 yilda Buxoro davlat pedagogika institutining kimyo-biologiya yo‘nalishini imtiyozli diplom bilan tamomlagach, ilmiy-pedagogik faoliyatini shu dargohda boshlab yuborgan. Keyinchalik “Yuqori molekulyar birikmalar kimyosi” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 2000 yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan. Professor Xudoynazarova o‘z ilmiy faoliyati davomida 300 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiyalar muallifi sifatida tanilgan.

2016 yilda “Oliy ta’lim muassasasining eng yaxshi pedagogi” tanlovining tabiiy fanlar yo‘nalishida “Mutaxassisligi bo‘yicha eng yaxshi pedagogi” naminatsiyasida I o‘rinni hamda 2018 yilda professor - o‘qituvchilari uchun o‘tkazilgan tanlovining “Eng samarali ishlayotgan olima o‘qituvchi” yo‘nalishida III o‘rinni egallagan.[1]

U 2007–2023 yillarda ko‘plab magistr va bakalavrlarga ilmiy rahbarlik qilgan, xalqaro ilmiy nashrlar tahririyati a’zosi sifatida faoliyat yuritgan. Uning shogirdlari orasida respublika miqyosidagi tanlovlar g‘oliblari ham bor. 2024 yilda esa “Yuqori molekulyar birikmalar” ixtisosligi bo‘yicha professor ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan.

Zilola Abduraxmonovna Sulaymonova 1975 yilda Buxoro shahrida tug‘ilgan bo‘lib, 1996 yilda kimyo-biologiya yo‘nalishini imtiyozli diplom bilan tugatgan. U 2019 yilgacha Organik va fizkolloid kimyo kafedrasida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritgan.

2022 yilda “Ferrosen hosilalari asosida kompleks birikmalar sintezi va xossalari” mavzusidagi dissertatsiyasini himoya qilib, PhD ilmiy darajasiga ega bo‘lgan. U 5 ta darslik, 3 ta

[1] Olima Xudoynazariva G.A bilan bo’lgan suhbatdan. 5.11.2025 y.

o‘quv qo‘llanma, 2 ta monografiya hamda 60 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi. Shuningdek, respublika va xalqaro konferensiyalarda 80 dan ortiq tezislari chop etilgan.

1981 yilda Navoiy viloyati Qiziltepa tumanida tug‘ilgan E’tibor Axatovna kimyo ta’lim yo‘nalishida tahsil olib, pedagogik faoliyatni maktabda boshlagan. Keyinchalik Buxoro davlat universitetida faoliyat yuritib, 2024 yilda “Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining kompleks birikmalari” bo‘yicha PhD dissertatsiyasini himoya qilgan. U “Organik kimyo”, “Kompleks birikmalar kimyosi”, “Fizikaviy tadqiqot usullari” kabi fanlardan dars berib keladi. 60 dan ortiq ilmiy ishlar muallifi.[1]

1989 yilda tug‘ilgan Dilshoda Azamovna 2013 yilda magistraturani tamomlab, kimyo ta’limida faoliyat boshlagan. U xususan, to‘qimachilik materiallari texnologiyasi bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, “Xitozan ishtirokida ipak matolarni pardozlash texnologiyasi” mavzusida PhD darajasini olgan. 2 ta darslik, 3 ta o‘quv qo‘llanma, 20 dan ortiq ilmiy maqolalar muallifi hisoblanadi.

1966 yilda tug‘ilgan Zulfiya Kobilovna Qodirova kimyo faniga qariyb 40 yildirki xizmat qilib kelmoqda. U 1990 yildan boshlab Umumiy kimyo hamda Organik kimyo kafedralarida faoliyat yuritgan. Ilmiy faoliyati davomida 170 dan ortiq ilmiy-uslubiy ishlar yaratgan, shu jumladan, 2 ta darslik, 2 ta o‘quv qo‘llanma va 2 ta monografiya muallifi. U 38 nafar bakalavrga ilmiy rahbarlik qilib, ko‘plab iste’dodli yoshlar yetishib chiqishiga hissa qo‘shgan. 2024 yilda “Bioorganik kimyo” ixtisosligi bo‘yicha dotsent unvonini olgan.

Buxoro kimyo maktabi taraqqiyotida ayol olimalarning o‘rni beqiyosdir. Ularning ilmiy izlanishlari, ta’limiy fidoyiligi, yosh avlodni ilm-fanga yo‘naltirishdagi sa’y-harakatlari natijasida kimyo sohasi nafaqat Buxoroda, balki respublika miqyosida ham yangi bosqichga ko‘tarildi. Har bir olimaning tajribasi, ilmiy merosi va pedagogik faoliyati kelajak avlod kimyogarlarining shakllanishida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudoynazarova G.A. Benzoksazolonil(tionil) akrilatlarning stirol bilan sopolimerlari sintezi va xossalari. – Buxoro: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi, 2000. – 180 b.
2. Sulaymonova Z.A. Ferrosen hosilalari asosida kompleks birikmalar sintezi va xossalari. PhD dissertatsiya. – Buxoro: BuxDU, 2022.
3. Xudoyarova E.A. Mn(II), Ni(II), Cu(II), Zn(II) ionlarining ftorlitetraketon hosilalari bilan kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi va xossalari. PhD dissertatsiya. – Buxoro: BuxDU, 2024.
4. Hazratova D.A. Xitozan ishtirokida ipak va aralash tolali matolarni pardozlash texnologiyasini takomillashtirish. PhD dissertatsiya. – Toshkent: ToshTI, 2019.
5. Qodirova Z.K. Bioorganik kimyo asoslari va metodikasi. – Buxoro: BuxDU, 2020.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Kimyo fanini o‘qitish metodikasi. – T.: 2018.
7. Междисциплинарные исследования в науке и образовании. – Киев: 2017–2023.
Buxoro davlat universiteti rasmiy veb-sayti: www.buxdu.uz (2025-yil holatiga ko‘ra).

"XIX ASRDA AFG‘ONISTON VA ROSSIYA TURKISTONIDA CHEGARA SIYOSATINING SHAKLLANISHI VA GEOSIYOSIY OMILLARI"

Shohruz Sharipov
PhD, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti tadqiqotchisi, O‘zbekiston
email: Shohruz@i.ua
Orcid: 0000-0003-1460-2902

Annotatsiya: XIX asr Afg‘oniston va Rossiya Turkistoni chegara hududlarida milliy va etnik identitetlarning shakllanishida muhim davr bo‘ldi. Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat — ya’ni "Buyuk o‘yin" — nafaqat siyosiy manfaatlar yo‘lida yangi

[1] “Buxoro kimyogarlari”, G.A.Xudoynazarova, M.A.Tursunov,Buxoro,2025.

chegaralarning belgilanishiga olib keldi, balki mintaqaning madaniy, ijtimoiy va milliy manzarasiga ham chuqur ta’sir ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Rossiya imperiyasi, Afg‘oniston, Buyuk o‘yin, etnik identitetlar, Britaniya imperiyasi, chegaralar, milliy identitetlar, XIX asr

Ma’lumki, hozirgi zamon Afg‘onistonining to‘g‘ridan-to‘g‘ri "vorisi" bo‘lgan Afg‘oniston davlati Osiyo xaritasida ilk bor 1747-yilda paydo bo‘lgan. Bu hududda ilgari mavjud bo‘lgan davlat tuzilmalari hozirgi Afg‘oniston bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlatchilik nuqtayi nazaridan bog‘liq bo‘lmagan[1]. Ilmiy adabiyotlarda 1747–1818 yillarda mavjud bo‘lgan Afg‘oniston davlati "Durroniylar imperiyasi" nomi bilan tanilgan[2] – bu nom davlatni boshqargan sulola nomidan olingan. Qiziqarli jihati shundaki, aynan ushbu sulola hukmdorlari o‘z hukmronligi davrida faol istilochilik siyosatini olib borganlar: ular Xuroson va Hirot, Afg‘on Turkistoni deb ataluvchi hudud, Panjob va hatto Qashmirning ayrim qismlarini o‘z davlatiga qo‘shib olganlar[3] – holbuki, bu davlatning geografik markazi dastlab Kandahor shahri va uning atrofidagi hududlar bo‘lgan[4]. Shu tariqa, XVIII asr oxiridagi Afg‘oniston o‘z ichiga hatto hozirgi zamon Afg‘onistonidan ham kattaroq hududlarni olgan edi – biroq XIX asrda va undan keyin Afg‘oniston tarkibiga kirgan ayrim yerlar hanuz unga qo‘shilmagan edi.

Bundan tashqari, aynan XVIII asrning ikkinchi yarmida Afg‘oniston tashqi siyosatida geografik jihatdan kengayish va yangi hududlarni qo‘shib olishga intilish tendensiyasi shakllangan bo‘lib, bu tendensiya XIX asrda ham davom etgan, faqat endi boshqa bir afg‘on sulolasi hukmdorlari tomonidan amalga oshirilgan. Aynan o‘sha davrda, XVIII asr ikkinchi yarmida, hozirgi kungacha saqlanib qolgan Afg‘onistonning ilk chegaralaridan biri – ya’ni uning Eron bilan chegarasi paydo bo‘lgan.

Durroniylar imperiyasi, uning hukmdorlari yuritgan faol bosqinchilik siyosatiga qaramay, zaif davlat tuzilmasi bo‘lib chiqqan va XIX asrning dastlabki o‘n yilliklaridayoq parchalanib ketgan. Shu davrda Afg‘oniston qisqa muddatli "feodal parokandalik" davriga kirgan edi. Biroq yangi sulola – Barakzoylar sulolasi vakillari mamlakatdagi bu siyosiy bo‘linishni nafaqat bartaraf etishga, balki yangi hududlarni bosib olish yoki tinch yo‘l bilan qo‘shishga ham muvaffaq bo‘lganlar. Natijada, XIX asr oxiriga kelib, Afg‘oniston o‘z davlat chegaralarini shakllantirdi, bu chegaralar hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

XIX asr oxirida Afg‘onistonning chegaralari tashqi kuchlar tomonidan – avvalo Britaniya imperiyasi tomonidan – sun’iy tarzda belgilanar ekan, bu jarayon mintaqadagi ko‘plab etnik guruhlarning tabiiy yashash hududlarini bo‘lib yubordi. Ayniqsa, bu holat pushtunlar, tojiklar, hazoralar, o‘zbeklar kabi yirik etnik guruhlarning milliy o‘zligini saqlash va davlat tarkibida o‘z o‘rnini topishda qator muammolarni keltirib chiqardi[5]. Masalan, Ewansning asarida Afg‘onistonning XIX asrdagi siyosiy holati va etnik guruhlarning davlat tarkibidagi o‘rni haqida quyidagicha ma'lumot keltiriladi: "Abdur Rahmonxon hukmronligi davrida (1880–1901) Afg‘onistonning hozirgi chegaralari shakllantirildi. U markaziy hokimiyatni mustahkamlash uchun turli etnik guruhlarni, jumladan, pushtunlar, tojiklar, hazoralar va o‘zbeklarni birlashtirishga harakat qildi. Biroq, bu jarayon ko‘pincha zo‘ravonlik va majburlash bilan amalga oshirildi, natijada etnik ziddiyatlar kuchaydi[6]."

1893-yilda ingliz mustamlakachilari va afg‘on amiri Abdurahmonxon o‘rtasida imzolangan **Durand kelishuvi** asosida chizilgan chegara chizig‘i (Durand Line) eng ko‘p zarar yetkazgan etnik guruh – bu **pushtunlar** edi. Ushbu chiziq tarixan bir butun bo‘lgan pushtun qabilalarini ikki davlat – Afg‘oniston va Britaniya Hindistoni (bugungi Pokiston) o‘rtasida sun’iy

[1] Ganda Singh. Ahmad Shah Durrani: father of modern Afghanistan. Bombay: Asia Publishing House, 1959. 457 p.
[2] Рейснер И. М. Развитие феодализма и образование государства у афганцев. М.: издательство Академии наук СССР, 1954. 416 с.
[3] История Афганистана с древнейших времен до наших дней / Отв. ред. Ю. В. Ганковский. М.: Мысль, 1982. 128-130 с.
[4] Массон В. М., Ромодин В. А. История Афганистана. Т. 2. Афганистан в Новое время. М.: Наука, 1965. С.95-96
[5] Martin Ewans. Afghanistan: A Short History of Its People and Politics Harper Collins Publishers Inc. United of America. 2002. p. 9
[6] Martin Ewans. Afghanistan: A Short History of Its People and Politics Harper Collins Publishers Inc. United of America. 2002. p. 74

ravishda ajratdi. Shuningdek, Ewans Durand chizig‘ining o‘rnatilishi va uning pushtun xalqi uchun oqibatlari haqida ham to‘xtaladi: "1893-yilda Britaniya Hindistoni va Afg‘oniston o‘rtasida Durand chizig‘i belgilandi, bu esa pushtun qabilalarini ikki davlat o‘rtasida bo‘lib qo‘ydi. Bu bo‘linish pushtunlarning milliy o‘zligi va hududiy da'volariga salbiy ta'sir ko‘rsatdi va mintaqadagi beqarorlikka sabab bo‘ldi[1]."

Shunday qilib, XVIII asr ikkinchi yarmi va butun XIX asr davomida Afg‘onistonning hozirgi kungacha mavjud bo‘lgan davlat chegaralari shakllanib bo‘ldi. Bu chegaralar quyidagilardan iborat: Britaniya Hindistoni (keyinchalik Pokiston) bilan chegara – “Dyurand chizig‘i”; Amudaryo bo‘ylab Rossiya imperiyasi bilan chegara (bu keyinchalik SSSR bilan, hozirda esa Markaziy Osiyodagi postsovet respublikalari bilan chegara hisoblanadi); Eron bilan chegara (bu XVIII asr ikkinchi yarmida Durroniylar sulolasi bosqinlari natijasida vujudga kelgan); Xitoy bilan chegara (Vaxon koridori orqali). XX asr davomida ushbu chegaralar faqat aniqlashtirilgan, ammo tubdan o‘zgartirilmagan.

Ikkinchi muhim xulosa esa shuki: XVIII asr ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi yarmida Afg‘oniston chegaralari avval Durroniylar sulolasi, so‘ng esa Barakzoylar sulolasining birinchi amiri olib borgan faol bosqinchilik va hujumkor siyosat natijasida shakllangan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi yarmida esa Afg‘oniston davlat chegaralari aniqlanishda davom etgan bo‘lsa-da, bu jarayon asosan tashqi siyosat sohasida faol bo‘lgan tashqi kuchlar – avvalo Buyuk Britaniya va Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan siyosat natijasida yuz bergan (1872–1873 va 1884–1885 yillardagi ikki afg‘on chegara bitimi, 1893 yildagi Dyurand chizig‘i bo‘yicha kelishuv, 1895 yildagi Pomir bo‘yicha chegara kelishuvi va boshqa voqealar bunga misoldir). XIX asrda Afg‘onistonning chegaralari Britaniya va Rossiya imperiyalari o‘rtasidagi geosiyosiy raqobat natijasida tashqi kuchlar tomonidan belgilandi. Ayniqsa, 1893-yilda inglizlar bilan afg‘on amiri Abdurahmonxon o‘rtasida imzolangan Durand chizig‘i Afg‘oniston tarixida eng muhim, ammo eng bahsli chegara belgisi bo‘lib qoldi. Bu chiziq nafaqat davlat hududini belgilab berdi, balki mahalliy aholi, ayniqsa etnik guruhlar o‘rtasida sun’iy bo‘linishni ham keltirib chiqardi. Bu sun’iy chegaralar milliy o‘zlik masalasining murakkablashuviga sabab bo‘ldi. Misol uchun, pushtun xalqi Durand chizig‘i orqali ikki qismga ajraldi – biri Afg‘oniston, ikkinchisi Britaniya Hindistoni (hozirgi Pokiston) hududida qoldi. Natijada, bir etnik guruh bir davlatda asosiy siyosiy kuchga aylansa, ikkinchi qismi boshqa davlat tarkibida marginal holatga tushdi. Bu holat, ayniqsa, XX asrda "Buyuk Pushtuniston" g‘oyalarining kuchayishiga, hududiy da’volar va xalqaro mojarolarga zamin yaratdi. Milliy o‘zlikni shakllantirish yo‘lidagi harakatlar esa, ko‘p hollarda boshqa etnik guruhlar bilan ziddiyatli shaklga kirdi. Pushtunlar o‘zlarini davlatning asosiy tashkil etuvchisi deb bilgan bo‘lsa, tojiklar, hazoralar, o‘zbeklar ham siyosiy tenglik va madaniy huquqlarini talab qilishga harakat qilishdi. Bu esa ko‘p millatli Afg‘oniston davlatida ichki siyosiy muvozanatning buzilishiga olib keldi. Shuningdek, etnik guruhlarning tarixiy hududlari sun’iy chegara orqali ajralib ketgani, ularning o‘z tarixiy ildizlariga sodiq qolish istagini kuchaytirdi. Bu holat milliy identifikatsiya jarayonini murakkablashtirdi, chunki har bir etnik guruh o‘z tarixiy va madaniy merosini saqlab qolish uchun kurash olib borishga majbur bo‘ldi. Tashqi kuchlar bu etnik ziddiyatlardan foydalangan holda Afg‘oniston siyosatiga bevosita aralasha boshladilar. Harbiy, siyosiy yoki iqtisodiy bosimlar orqali ular mamlakatdagi turli guruhlar o‘rtasidagi bo‘linishni yanada kuchaytirib, o‘z manfaatlarini ilgari surdilar. Shu tariqa, milliy birlik va mustaqil davlat qurish yo‘lidagi harakatlar doimiy siyosiy beqarorlik, qurolli ziddiyatlar va xalqaro aralashuvlar bilan to‘qnash keldi. Xulosa qilib aytganda, Afg‘onistonning XIX asrda tashqi bosim ostida shakllangan sun’iy chegaralari milliy o‘zlik inqirozini keltirib chiqardi. Bu inqiroz esa hududiy da’volar, ichki etnik ziddiyatlar, siyosiy beqarorlik va uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlarning asosiy omillaridan biriga aylandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ganda Singh. Ahmad Shah Durrani: Father of Modern Afghanistan. Bombay: Asia Publishing House, 1959. 457 p.

[1] Martin Ewans. Afghanistan: A Short History of Its People and Politics Harper Collins Publishers Inc. United of America. 2002. p. 78

2. Рейснер И. М. Развитие феодализма и образование государства у афганцев. М.: издательство Академии наук СССР, 1954. 416 с.
3. История Афганистана с древнейших времен до наших дней. Отв. ред. Ю. В. Ганковский. М.: Мысль, 1982. С. 128-130.
4. Массон В. М., Ромодин В. А. История Афганистана. Т. 2. Афганистан в Новое время. М.: Наука, 1965. С. 95-96.
5. Martin Ewans. Afghanistan: A Short History of Its People and Politics. Harper Collins Publishers Inc., United States of America, 2002.

XX ASRNING 30-YILLARIDAGI ATEISTIK SIYOSATNING BUXORO MASJIDLARIGA TA'SIRI

Gadoyev Dadaxon Xayrulloyevich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

1926-yilda Buxoroning eski shahar qismida taxminan 200-230 ta masjidlar faoliyat yuritgan. Ularda 500 nafar xodim xizmat qilgan, ularga bir yilda 35-40 ming rubl berilgan. Bundan tashqari, bu yillarda masjidlarni ta'mirlashga pul ajratilgan. 1926-1927-yillarda hamma joyda aholi o'z hisobidan masjidlarni ta'mirlagan. Faqat ayrim hollarda masjid qavmlari vaqf bo'limlariga yordam so'rab murojaat qilganlar va bunda ham ularga rad javobi berilgan[1-60]. Ma'lumki, musulmon yodgorliklarining eng ko'zga ko'ringanlari hisoblangan masjidlar vaqf mulklaridan ajralganligi bois yildan yilga xarob bo'lib kelayotgan edi. Bu ko'ngilsiz voqelarning oldini olish maqsadida I.Umnyakov 1927-yilning 22-31-martida Buxoro va Samarqand shaharlariga safar qiladi. I.Umnyakovning bu haqdagi fikrlari quydagi mazmunda edi: Buxoroga safarimizning asosiy maqsadi tarixiy yodgorliklarni vayron qilinayotganligi haqidagi masalani aniqlash bo'ldi. "Oblgormestxoz" ishchilari tomonidan qadimiy Buxoroning Registonidagi ko'hna yodgorliklarni vayron qilishga kirishilgan edi. Abdulazizxon madrasasi va Poyanda masjidi shular jumlasidandir. Yodgorliklarni saqlash Buxoro komissiyasi qadimiy musulmon obidalarini muhofaza etish vazifasiga amal qilgan holda Zarafshon okrugi Ijroiya Qo'mitasi (shaxsan uning raisi muovini Abdurashid Mukamilov)ni bu haqda xabardor qilib o'z noroziligini bildiradi. A.Mukamilov esa bu fikrga qarshi chiqib, "yodgorliklarning hammasi ham, ayniqsa, Poyanda masjidining hech qanday qimmati-tarixiyligi yo'q" deydi. Shunga qaramay u Abdulazizxon madrasasining vayron qilinishini to'xtatish haqida farmon beradi. Lekin ming afsuski, Poyanda masjidi batamom vayron bo'lgan edi[2-23]. Bu misollardan ko'rinib turibdiki, ba'zi mahalliy to'ralar, manqurt amaldorlar, o'z dini, tarixi, madaniyatini unutgan yoki ularni nazar-pisand qilmagan ma'nan sotqinlar ham ko'plab obidalarning buzilishiga yo'l qo'yib kelgan.

O'zbekiston SSR da 1927 yilda o'nlab masjidlar yopib qo'yilgan. 1927-1928-yillardan so'ng, Islom dinimizga tazyiqlar boshlandi. Masjid, madrasa, xonaqoh va namozgohlar yoptirildi va buzib tashlandi. Islom diniga e'tiqod qiluvchi kishilar musulmonchilik farzini ado etish uchun bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan masjidlarga borib, namoz o'qishga majbur bo'ldilar[3-14]. Bu davr mobaynida masjidlarni yopish ishlari olib borildi. Masjidlarni yopish to'g'risida iltimos bilan kolxoz va kambag'allar jamoatining qarori sifatida rasmiylashtirilgan[4-102].

O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Sovetining 1928-yil 22-sentyabrda bo'lib o'tgan yig'ilishda vaqf mulklarini bekor qilish to'g'risidagi qaror e'lon qilindi[3-14]. Bu qarorda asosan vaqf mulklari tugatilib ularni mahaliy sovet organlariga berish nazarda tutilgan edi.

1930-yilga kelib imom va mullalar, eshon va mutavallilar faoliyatini davom ettirgan taqdirda hukumat organlari tomonidan katta miqdorda soliq to'lashga majbur qilindi. Sovetlarning dindorlarga katta soliq solishdan asosiy maqsadi diniy arboblik vazifasidan bezitish, tashlab ketishga majbur qilish bo'lgan. 1929 -1939-yillar orasida birgina Turkistoning o'zida 14000 masjid yoptirilib buzdirilgan. Bundan tashqari, shayx, imom va boshqa diniy arboblar jazolangan, ba'zilari qamalgan yoki o'ldirilgan, surgun qilingan[5-6].

Ba’zi masjidlarda Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan kishilar joylashtirilgan. U yerda hatto hojatxona ham qurilgan. Bunday vashiyliklar va kelgindilarning ichkilikbozliklari, shovqin-suroni mahalliy aholini nafratlantirgan. Qarshilik ko‘ratgan aholi kelgindilar tomonidan kaltaklangan.

1930-yilning oxirga kelib, Buxoro shahrida 6 ta masjid faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, ular ham katta soliqqa tortilgan. Vaholanki, 1924-1925-yillarda Buxoroda 429 ta masjidlar qoshida eski usul maktabi bo‘lgan. Ularning vaqf yerlarining miqdori 1611127 tanob bo‘lib, umuman vaqf mulklaridan 882889 so‘m miqdorida daromad olingan[6-61].

Sovet hukumati ba’zi masjidlarni sun’iy buzilishini ko‘rib turib indamaslik siyosatini olib borgan. Shunday masjidlar sirasiga Romitan tumanidagi Yozda Ahmad Vali masjidini misol keltirish mumkin, 1930-yilda tuman markaziga ko‘chib kelgan fuqarolar bu masjidning pishgan g‘ishtlarini uy qurilishida va tuman markazidagi kinoteatr qurilishida masjid devoridagi g‘ishtlar ishlatishgan[7].

Buxoroning noyob arxitektura inshooti hisoblangan Poyiostona masjidida ham xuddi shunday holat bo‘ladi. Sadriddin Ayniy o‘zining “Qullar” romanida ushbu masjid haqida va saroy to‘g‘risida ma’lumotlar beradi[8-40]. Shu bilan birga bu yerda katta madrasa ham faoliyat ko‘rsatgan. 1920-yilgi inqilobdan keyin hammom, qul saroyi va madrasa buzilib, ularning g‘ishtlari sovetlar tomonidan yangi binolar uchun ishlatib yuborilgan. Sovetlar davrida masjid ombor vazifasini bajargan. Peshtoqlari nurab, yarim vayrona holga tushgan. Shu mahalla fuqarosi Omonullaxon Latipov (bobo Maxsum)ning aytishlaricha, masjid 1927-yilgacha faoliyat yuritgan.

Masjidning hozirgi ko‘rinishi XVIII asrda qayta ta’mirlangan shakli bo‘lib, uning yonida katta saroy ham mavjud. Saroyda Hindistondan keltirilgan “Buzgunch” deb nomlanuvchi o‘simlik bilan savdo qilingan. “Buzgunch”dan matolarni bo‘yash uchun bo‘yoq olingan. Masjid ro‘parasida shu nomli hammom va “Saroyi g‘ulomon” deb ataluvchi qullar bilan savdo qiluvchi saroy bo‘lgan. Hozirgi kunda bu saroyning xarobalari saqlanib qolingan.

Ziyolilar ichida yodgorliklarni muhofa etishga ishtiyoqmandlar kam bo‘lgan. Jumladan, M.Saidjonov va V.Vyatkinlar ta’kidlab o‘tishlaricha, 1930-yili O‘zbekiston SSR Maorif Xalq Komissarligi boshqarmasi xodimlari biri shunday yozadi: “Allaqanday xarobalarni muhofaza etishdan bizga qanday naf tegadi. Bu ishlar uchun ko‘plab mablag‘ sarflamoqdamiz va hech qanday natijalar ko‘rmayapmiz. Bu xarobalarni borib ko‘rganimizda mening boshimga ilohiy ruhdagi g‘oyalar suqilib, kiradi”[7] shu mazmundagi xat kelib tushgan.

O‘zbekiston SSR XKS raisi Fayzulla Xo‘jaev imzosi ostida 1934-yil iyun oyida 586-raqamli qaror qabul qilinadi. Ushbu qarorga asosan Toshkentda “Ateistlar muzeyi” tashkil qilinadi. Unga ajratilgan binoni ta’mirlash uchun davlat bujetidan 17000 so‘m mablag‘ o‘tkazilishi ta’kidlanadi[9-78]. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, sovet hokimiyati o‘z manfaati yo‘lida davlat byujetidan xohlagancha mablag‘ sarf qilgan.

Ilmiy izlanish davomida Shofirkon tumanidagi ba’zi qadimiy masjidlar sovet davrida buzib tashlanganligini guvohi bo‘ldik. Jumladan, hozirgi Jo‘yrabot MFY hududida Temirchi Ato qabristoni joylashgan. Bu yerdagi qariyalarning so‘zlariga ko‘ra bu qabriston hududida igna yasovchi ustalar yashashgan. Temirchi Ato ham mashhur hunarmand bo‘lgan. Temirchi Atoning vasiyatiga binoan qabristonga birinchi bo‘lib, uning jasadi qo‘yilgan. Shu tariqa qabristoning nomi Temirchi Ato nomini olgan.

Qabristoning ikkinchi nomi Toshmasjid. To‘qqizta masjidi bo‘lgan Kalon qishlog‘idagi farzandsiz bir boy 1745-yilda o‘zidan yodgorlik sifatida qabristonga tutash qilib shu masjidni qurdirgan. Sharqona uslubda pishiq g‘ishtdan qurilgan bu masjidga 500-600 kishi namoz o‘qigan. Xalq orasida bu masjid Toshmasjid deb yuritilgan. 1932-yilda Sovetlar tomonidan bu masjid buzdirilib, toshlari tashib ketilgan.

Tumandagi yana bitta qadimiy va katta qabristonlardan biri Said Ota qabristoni bo‘lib, bu qabriston qadimdan obod va mashhur bo‘lgan. 1930-1935 yillargacha qabriston hududida 40 xonali masjid bo‘lgan. Har bir xona o‘ziga xos sharqona uslubda bezatilgan, ularda tilla shamdonlar turgan. 40 ta katta-kichik qozonda yarma oshi pishirilib xalqqa tarqatilgan. Sovet davrida masjid buzib tashlangan, undagi tilla shamdonlar Sankt-Peterburgga olib ketilgan[10-108].

G‘ijduvon tuman Ulfatbibi MFY Xo‘ja qishlog‘ida joylashgan Xo‘jalar Jome masjidi 1924-yilda qurilgan bo‘lib, to 1937-yilgacha faoliyat yuritgan. Qatag‘on yillarida yopilib paxta omborxonasidan, xo‘jalik ombori sifatida foydalanib kelingan.

Sovet hokimiyati davrida yuzlab me’moriy obidalar singari masjidlar ham “revolyutsion” o‘zgarishlar natijasida buzib tashlandi yoki yoptirilib, ayrimlarini molxona va omborxonaga aylantirishdi. 1935-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoro shahri yodgorliklariga ko‘pgina tashkilotlar joylashgan. Bolohovuz masjididi Buxoro Oliy muallimlar tayyorlash institutining talabalar uchun oshxonasi sifatida foydalanilgan. Sarrafon masjidi choyxonaga, Shoh Axsi masjidi poyabzal fabrikasi omborxonasiga, Kokilai Kalon, Cho‘bboz masjidlari kommunal uyi, Poyiostona masjidi axlatxonaga aylantirildi. Mir Ibrohim masjidi shirkatchilarga, Mavlono Sharif masjidi shahar muhandislari idorasi ixtiyoriga berildi. Arabon masjidining tahoratxonasi o‘rni novvoyxona shirkatiga berilib, Kokilai Xurd masjidi tijorat do‘koniga topshirilgan. Uzkomstaris faoliyati ustidan 1939-yilning aprel oyida o‘tkazilgan tekshiruv natijasida uning ixtiyoriga berilgan masjidlardan noto‘g‘ri butunlay boshqa maqsadda foydalanilganligi aniqlanadi. Jumladan, Masjidi Kalon va Chor Minor masjidlari namozxonlar qo‘lidan tortib olinib, Gortors tashkiloti undan g‘alla ombori sifatida foydalanib kelgan[11-148]. Masjidi Kalon bor-yog‘i bir necha yil ichida vayrona holga kelib qoldi. Uning ayrim darvozalarini o‘g‘irladilar, ayrimlari chirib nobud bo‘ldi. Masjidning o‘ttizdan ortiq gumbazlari yorilib, yiqilgan edi.

Buxoro shahri G‘oziyon guzaridagi G‘oziyon madrasa masjididan XX asrning 50 yillarigacha qamoqxona sifatida foydalanilgan. Xuddi shu qamoqxonaga aylantirilgan masjidda 1941-yilda istiqlolchilar namoyondalaridan biri bo‘lgan Hamro Polvon ochlikdan o‘lgan edi[12-36]. Jondor tumanidagi Qiz bibi Jome masjidi saksovul urug‘i saqlanadigan ombor sifatida ishlatib kelingan.

Totalitar tuzum davrida jumhuriyatimizda 89 tagina masjid mavjud edi[13-158]. 1940-yil O‘zbekiston SSR XKS raisi nomiga yo‘llangan ma’lumotlardan birida respublikada din peshvolarning soni 519 nafar ekanligi, Buxorodagi 6 ta masjidda 6 nafar imom faoliyat ko‘rsatayotganligi ma’lum qilinadi[14-98].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilgandan keyin imkoni boricha tarixiy obidalarni saqlab qolishga harakat qildi. Keyingi yillarda masjidlarning katta tayanchi bo‘lgan vaqf mulklarining tugatilishi masjidlarni ayanchli holga olib keldi. Masjidlardan azon ovozi eshitilmaydigan bo‘ldi. Islom dining taqiqlanishi, masjid va madrasalarning yopilishi ma’naviy hayotni yanada qattiq qashshoqlantirdi. Huvullab qolgan masjidlar esa omborxonalarga, tashkilotlar va artellarning ish joyiga aylantirilgan. Ikkinchi jahon urushi yillarida masjidlar faoliyatiga ozgina erkinlik berildi. Ochishga ruxsat berilgan masjidlar oz bo‘lganligi bois dindorlar ehtiyojini to‘la qondirolmagan, natijada sovet hukmatining ruxsatsiz diniy arboblar tomonidan masjidlarni ochish hollari kuzatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Алимов И.А. Ўзбекистонда вақф мулкларининг тугатилиши (1917 – 1929 йиллар). – Тошкент: “Фан”, 2009. – Б.160.
2. Умняков И. Изучения культуры и быта Средней Азии в 1920—1927 гг. – Москва: “Новый Восток”,1928, № 23-24.
3. O’zbekiston Milliy arxivi. R-2456 fond, 1-ro’yxat, 10-ish, 14 varaq.
4. Ишанходжаева З. Репрессивная политика советской власти и культура Узбекистана: трагедия выживания 1925-1953. – Тошкент: “Tafakkur”, 2011. – С. 102.
5. Мирзоев М. Беписандлик заволи // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. 1993 йил 4 июн.
6. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. – Бухоро: “Дурдона”, 2018. – Б.61.
7. Qudratov Muhriddin 1999 yilda tug’ilgan, Yozda Ahmad Vali jome masjidi imom xatibi, suhbat 2022-yil 5-dekabrda yozib olingan.
8. Садриддин Айний. Асарлар. 3-жилд. Қуллар (роман). – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1964. – Б. 38-40.
9. Мирзоев М. Беписандлик заволи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 1993 йил 4 июн.

10. Салмонов А. Ўзбекистонда совет ҳокимятининг диний сиёсати: уйдирма ва тарих ҳақиқати. – Тошкент: “Тафаккур”, 2015. – Б. 78.
11. Салимов М., Каримов Б. Шофиркон тарихи. – Тошкент: “Ёзувчи”, 1998. – Б.198.
12. Абриев Р. Ўзбекистон мустақиллиги йилларида тарихий-меъморий обидаларни таъмирлаш ва қайта тиклаш жараёнлари (Зарафшон воҳаси мисолида). – Тошкент: 2015. – Б.48.
13. Ражабов Қ.,Ражабов Д. Ҳамро Полвон. – Тошкент: Абу матбуот-консулт, 2011. – Б.36.
14. Ўзбекистон ислом обидалри. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002. – Б. 158.
15. O’zbekiston Milliy arxivi. R-837-fond, 32-ro’yxat, 1859-ish, 98-varaq.

BUXORONING G‘ARBIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI

Sharipova Marjona Ravshan qizi
Buxoro davlat universiteti magistri
Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti t.f.f.d.(PhD),dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoroning G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari tahlil qilingan. Tadqiqotda Buxoro viloyatining Germaniya, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Ispaniya va Niderlandiya kabi davlatlar bilan savdo, investitsiya, turizm va texnologik hamkorlik yo‘nalishlari yoritildi. Statistik ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va investitsion loyihalar tahlili asosida hududning Yevropa bilan aloqalari dinamikasi va zamonaviy tendensiyalari ko‘rsatib berildi. Maqolada mavjud muammolar, rivojlanish istiqbollari va takliflar ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, G‘arbiy Yevropa, iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, savdo, eksport, turizm, Yevropa Ittifoqi, sanoat modernizatsiyasi**.**

Buxoro iqtisodiy, madaniy va sivilizatsion markazlardan biri bo’lib, Yevropa davlatlari bilan uzluksiz aloqalar o‘rnatib kelgan. Tarixiy manbalarda Buxoro savdogarlari Hindiston, Fors, Kaspiy bo‘yi, Kavkaz va hatto Yevropaning ayrim shaharlarigacha borib savdo qilgani qayd etilgan. Milliy taraqqiyot yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’tarish uchun harakatlarni amalga oshirishda xalqimizning matonati muhim o’rin tutadi.[1]

Mustaqillik yillarida Buxoro viloyati O‘zbekistonning G‘arbiy Yevropa davlatlari jumladan, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Italiya, Ispaniya, Niderlandiya va Shveysariya bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini davom ettirdi. Hozirgi global iqtisodiy integratsiya sharoitida G‘arbiy Yevropa Buxoro uchun yuqori texnologiyalar, investitsiyalar, sanoat modernizatsiyasi[2], turizm bozori va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti bo‘yicha eng istiqbolli hamkorlardan biridir. Ushbu tadqiqotning maqsadi Buxoro va G‘arbiy Yevropa davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning shakllanishi, hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini ilmiy asosda tahlil qilish.

Mustaqillikdan keyin O‘zbekiston boshqa davlatlar singari G’arbiy Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy, siyosiy va diplomatik hamkorlikni boshlab yubordi. Buxoro viloyati O‘zbekistonning yirik gaz va neft konlari joylashgan hududlaridan biri bo‘lib, Yevropa davlatlari bilan texnologik hamkorliklarni o’rnatdi. 1990-2000-yillar davomida Buxoro-Qorako‘l gaz konlarini modernizatsiya qilishda Germaniya, Fransiya va Italiya sanoat kompaniyalari ishtirok etdi. Italiyaning “Snamprogetti”, Germaniyaning “Siemens”, Fransiyaning “TotalFinaElf” kompaniyalari bilan texnika sohasida hamkorlikni o’rnatdi.

[1] Sh.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib,, yangi bosqichga ko`taramiz. 1-jild. – T.: “O`zbekiston”,2019.
[2] F.Utayeva Mustaqillik yillarida buxoroda toqimachilik sanoatining rivojlanishi // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2022. – т. 18. – №. 18.(Utayeva F. Development of the textile industry in Bukhara during the years of independence // Tsentr nauchnyx publikatsiy (bukhdu. en). - 2022. - t. 18. – no. 18.)

2000-2010-yillarda esa Buxoro neftni qayta ishlash zavodi modernizatsiyasi Yevropa texnologiyalari asosida amalga oshirildi. Germaniya kompaniyalari tomonidan “Buxoro-Rivoj” ta’lim va sanoat loyihalari joriy qilindi.2016-yildan keyin Energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha Yevropa Ittifoqi grantlari jalb qilindi. Shuningdek, Buxoro shahrining issiqlik ta’minoti tizimi Germaniya va Chexiya texnologiyalari asosida yangilandi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida es Buxoro O‘zbekistonning muhim paxtachilik va uzumchilik hududi sifatida Yevropa bilan faol savdo qiladi. Buxorodan G’arbiy Yevropa davlatlariga Eksport qilinayotgan mahsulotlar: paxta tolasi, ip-gazlama va trikotaj mahsulotlari, uzum, quruq meva, pista, ipak mahsulotlari (Buxoro ipakchilik klasterlari) Buxoro G’arbiy Yevropa davlatlari bilan bir qator hamkorlik loyihalari ishlab chiqdi. 2012-yil Yevropa Ittifoqi tomonidan “Agro-yo‘l xaritasi” dasturi qabul qilindi.

2017-yil Buxoro paxta-to’qimachilik klasterlari mahsulotlari AQSh, Italiya va Fransiya brendlari bilan hamkorlik shartnomalari o’rnatildi.

Shu bilan birga Buxoroda tarixiy madaniy joylarning ko‘pligi va o‘ziga xosligi boshqa davlatlar qatorida G’arbiy Yevropa davlatlari alohilisini qiziqtirib kelmoqda. Buxoroga eng ko‘p sayyohlar Germaniya, Fransiya, Italiya, Ispaniya va Buyuk Britaniyadan kelmoqda. Yevropa kompaniyalari tomonidan Buxorodagi tarixiy obidalarni restavratsiya qilish bo‘yicha texnik va moddiy yordamlar ko‘rsatilamoqda.

1993-yil “Buxoro tarixiy meros” dasturiga Yevropa ekspertlari jalb qilindi. 1997-yil Buxoro shahrining 2500 yilligi Yevropada keng targ‘ib qilindi. Bu ham Buxoroni butun G’arbiy Yevropa bo‘ylab tanilishiga va turistlar oqimini oshirishga imkon yaratadigan jarayon hisoblanadi. 2017-yil “Turizmni rivojlantirish” davlat qo‘mitasi tashkil etildi.[1] 2018-yil Yevropa aviakompaniyalari (Turkish Airlines, LOT, Lufthansa guruhlari) orqali Buxoroga turistlar soni oshdi[2].

2022-yil Yevropa Ittifoqi tomonidan Buxoroda “Raqamli turizm” platformasi ishga tushirildi. Bugungi kunda Yevropa davlatlari Buxoroga kelayotgan turistlarning 35–40% qismini tashkil etadi. Mustaqillikdan keyingi davrda Buxoro viloyatining logistika infratuzilmasi Yevropa texnologiyasi asosida rivojlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Buxoroning G’arbiy Yevropa davlatlari bilan iqtisodiy aloqalari so‘nggi o‘n yillikda jadal rivojlanmoqda. Bu hamkorlik ijobiy natijalarga olib kelgan. Sanoat modernizatsiyasi[3] sohasida Yevropa texnologiyalari asosida to‘qimachilik, suv ta’minoti, energetika sohalari yangilanmoqda.[4] Eksport imkoniyatlari kengaydi. Buxoro mahsulotlari Yevropaning yuqori talabli bozorlariga kirib bormoqda. Turizm rivojlanmoqda. Buxoro Yevropa sayyohlari uchun eng jozibador maskanlardan biriga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida Buxoroning og’ir va yengil sanoat, iqtisodiy va madaniy sohalarda xorijiy davlatlar bilan samarali hamkorliklar amalga oshirilgan. Birgina paxta-to’qimachilik klasteri sohasida o’ndan ortiq xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalari natijasida, Buxoro to’qimachilik sanoati mahsulotlari jahon bozoridan o’rin egalladi. Buning natijalari shuni ko’rsatadiki, to’qimachilik sanoati sohalarining Buxorodagi rivoji natijasida ko’plab ish o’rinlari yaratildi.

XX ASR 50-80 YILLARIDA BUXORO TEMIR YO‘LINING KADRLAR MASALASI

Majidov Jo‘rabek Jalilovich-
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Ziyovaddinova Mohidil Mirshakar qizi-
BuxDU magistranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro transportining muhim tarmog’i hisoblangan temir yo‘l sohasidagi kadrlar masalasi, muammolari va yechim borasida amalga oshirilgan ishlar xususida so’z boradi.

[1] Абдулазиз Йўлдошев Енгил саноат маҳсулотлари // Халқ сўзи 2020 йил 17 сентябр.
[2] Янги Ўзбекистон // Сиёсат 2022 йил 22 август 169-сон.
[3] M.G‘anieva “Buxoroning xalqaro turizm salohiyati va Yevropa bilan hamkorlik istiqbollari”. Ijtimoiy fanlar jurnali, №4, 2021.
[4] Янги Ўзбекистон // Сиёсат 2022 йил 22 август 169-сон.

Temir yo‘llar ramziy ma’noda davlat iqtisodiyotining muhim qon tomirlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, hududlarning “Markaz” va boshqa mamlakatlar bilan bog‘lanishida temir yo‘llarning ahamiyati yuqori bo‘lib, Buxoro viloyatini XX asr ikkinchi yarmida O‘zbekiston va sobiq SSSRning turli hududlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan. Kogon temir yo‘l stansiyasi o‘tgan asrning 50-yillarida Ashxobod temir yo‘llari boshqarmasi tarkibida bo‘lib, uning faoliyati tashkil etilishida o‘sha vaqtda keng tarqalgan “Sotsialistik musobaqa” muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

Barcha sohada bo‘lgani kabi temir yo‘l tizimida ham kadrlar masalasi hamisha dolzarb bo‘lib, ayniqsa, malakali kadrlarga ehtiyoj hamisha sezilib turgan. Malakali kadrlarni saqlab qolish, ularni rag‘batlantirish ishlarini ommalashtirish, ommaviy axborot vositalari orqali xalqqa tanitib borish kabi ma’naviy rag‘batlantirish ishlari muntazam amalga oshirilib kelingan. Shuningdek, o‘sib kelayotgan yosh avloddan malakali mutaxassis tayyorlashda tajribali kadrlardan foydalanilgan, ularning tajribasi o‘rganilgan. Ayniqsa, bu hol urushdan keyingi xalq xo‘jaligini tiklash yillarida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, tiklanish ishlari temir yo‘l tizimining o‘zida ham olib borilgan. Vagonlar, lokomotivlar ta’miri 50-yillarda dolzarb masala bo‘lib, aynan 1950-yilgi ma’lumotlarda Kogon temir yo‘li vagon deposining jamoasi vagonlarni sifatli ta’mirlab, xomashyoni tejaganligi aytiladi.[1]. Matbuot sahifalarida bu borada o‘rnak ko‘rsatgan tajribali kadrlar sifatida temiryo‘lchi Shebekov, qozonchi Yegorov, ressorchi Xoroshev, slesar Larchenko staxanovcha vaxtada turib ishlaganliklari va rejani yuqori sifat bilan 150 foizdan oshirib bajarayotganlari, slesar Aleksandra Marasanova o‘zining besh yillik rejasini oshirib bajargani, bu kabi kadrlar tajribasidan yoshlar o‘rnak olishga chaqirilgani keltirib o‘tilgan[2]. Xuddi shu kabi mazmundagi bir xabarda temir yo‘l izlari texnik holatini tekshiruvchi Medvedov faoliyatiga to‘xtalib, temiryo‘lchilar kuni bayrami u tomonidan 101-okladkani qishga to‘la ta’mirlash bilan kutib olganligi bayon qilingan[3]. Shuningdek, “Buxoro haqiqati”ning 1950-yilgi sonlarining birida Kogon temir yo‘l stansiyasining katta strelkachisi[4] Gomoskov tajribali kadrlardan ekanligi yosh strelkachilarga o‘z ish tajribasini o‘rgatayotganligiga oid ma’lumotlar keltirib o‘tilgan[5]. Shu kabi yoshlarni tajribali kadrlardan o‘rnak olishga bo‘lgan chaqiriqlarni ko‘plab uchratish mumkin.

Ayrim hollarda butun jamoani (sexni) rag‘batlantirib borish evaziga yanada ko‘proq va samaraliroq ishlashga chorlangan. Masalan, Ashxobod temir yo‘li Kogon uzeli yoshlar tashkilotining tarkibi 1950-yilda 360 temiryo‘lchi yoshlarga ega bo‘lgan. Komsomol mashinistlar iyul oyida sakkizta og‘ir yukli poyezdni belgilangan masofagacha jadval asosida yurg‘izib, poyezdlar tezligini rejaga nisbatan soatiga ikki kilometrgacha oshirgan malakali kadrlar sanab o‘tilgan. Vagon uchastkasi jamoasi esa mahsulot sifatini oshirganligi uchun “a’lochi sex” nomi berish bilan cheklanib qolingan[6]. 50-yillarda malakali kadrlarni moddiy rag‘batlantirishdan ko‘ra ko‘proq matbuot orqali minnatdorchilik yoki ma’naviy rag‘batlantirish ishlari amalga oshirilganligini ko‘rish mumkin.

Kadrlarni rag‘batlantirishning yana bir usuli ularga turli mukofotlar, orden, medallar va ko‘krak nishonlari berish bo‘lgan. 1951-yilgi ma’lumotlarda Kogon temir yo‘l stansiyasi vagon uchastkasi poyezd ustasi M.S.Kostetskiy faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Uning uzoq yillik mehnat faoliyati keltirib o‘tilishi bilan bir qatorda samarali faoliyati mevasi sifatida mamlakatning

[1] O‘zMA., R-608-fond, 9-ro‘yxat, 588-yig‘majild, 71-varaq.
[2] Темирйўлчилар куни шарафига депочилар ҳиссаси. // Бухоро ҳақиқати. 1950 йил, 30 июль. 152 (3267)-сон.
[3] Кекса ишчининг совғаси. // Бухоро ҳақиқати. 1950 йил, 30 июль. 152 (3267)-сон.
[4] Temir yo‘l strelkasi yoki kaliti. Bu rels yo‘li bo‘ylab o‘rnatiladigan qurilma. Umumiy holda yo‘llarni tarmoqlash uchun xizmat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, harakat tarkibi asosiy yo‘ldan ikki va undan ortiq filialdan biriga o‘zgartirish imkonini beradi. Asosiy yo‘ldan filiallardan biriga yo‘nalish “Junga qarshi” harakat deyiladi. Jun yo‘nalishda harakatlanayotgan o‘qni tegishli joyga ko‘chirishga yordam beradigan moslama. Jun to‘g‘ri ishlamasa, poyezd o‘qi kesilib ketishi va halokat sodir bo‘lishi mumkin. Калинин В.К., Сологуб Н.К., Казаков А.А. Общий курс железных дорог. Учебник для проф.-техн. учеб. заведений. – 2-е, переаб. и доп. – М.: Высшая школа, 1973. – С. 77.
[5] Илғор стрелкачи. // Бухоро ҳақиқати. 1950 йил, 30 июль. 152 (3267)-сон.
[6] Фроленко И. Темирйўлчи комсомоллар. // Бухоро ҳақиқати. 1950 йил, 30 июль. 152 (3267)-сон.

oliy mukofotlaridan biri Lenin ordeni[1] berilganligi yoritilgan[2]. Bundan tashqari Kogon temir yo‘l stansiyasi katta strelkachisi Vasiliy Astashkin SSSR Oliy Soveti Prezidiumining Qarori bilan “Shavkatli mehnati uchun[3]” medali bilan, shuningdek, Ashxobod temir yo‘li boshqarmasi buyrug‘i bilan “A’lochi kuzatuvchi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlanganligi ham keltirilgan[4]. Bu mukofotlanishlar, albatta, kadrlarga bo‘lgan e’tiborni ko‘rsatib beradi.

Amalga oshirilayotgan ishlarning deyarli barchasi kommunistik mafkura va partiya targ‘iboti nazorati ostida olib borilgan. Targ‘ibot ishlariga kommunistlar, partiya maktabini o‘qib kelgan mafkuraviy jihatdan kuchli tayyorgarlikdan o‘tgan kishilar faoliyat olib borishi mo‘ljallangan. “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1951-yilgi sonlaridan birida Buxoro viloyati temir yo‘llarida faoliyat olib borayotgan targ‘ibotchilar haqida ma’lumot keltirilib, jami 781 ta targ‘ibotchi borligi, shulardan 312 kishi oliy ma’lumotli, 393 nafar o‘rta ma’lumotli, ulardan 163 kishi, rahbar xodimlar, 613 shaxs esa muhandis-texnik ekanligi qayd etilgan. 1950-1951-o‘quv yilida “VKP (b) tarixi qisqa kursi”ni o‘rganuvchi 255 to‘garak tashkil etilgan. Temir yo‘l tashkilotidagi kommunistlarning 97 foizi partiya o‘quviga jalb qilingan. Stansiya va razyezdlarda 1700 dan ortiq kishi partiya maorifiga tortilgan. Mahalliy millatlarning tilidagi to‘garak va siyosiy maktablar soni ko‘paytirilib, ularda o‘zbek va qozoqlardan ikki mingdan ortiq kishi o‘qigan. Mashg‘ulotlarda temiryo‘lchi o‘quvchilari 90-95 foiz ishtirok etayotganligi keltirib o‘tilgan[5]. Yuqoridagilardan temiryo‘lchilarni kommunistik mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash birinchi galdagi vazifa sifatida qaralganligini ko‘rish mumkin. Siyosiy-mafkuraviy targ‘ibot-tashviqot ishlari keyingi yillarda ham davom ettirilgan bo‘lib, Toshkent temir yo‘l uzelining partiya qo‘mitasi huzurida har oyda ikki marta partgrupporglarning (partiya guruhlari tashkilotchilarining, rahbarlarining) seminarlari o‘tkazilgan[6]. Seminarlarda Lenin-Stalin partiyasining rahbarlik rollari va boshlang‘ich partiya tashkilotlarining ishlab chiqarishdagi vazifalari haqida ma’ruzalar o‘qilgan. Ma’ruzalarga barcha viloyatlardan bo‘lgani singari Buxoro viloyati temir yo‘l uzeli partiya a’zolari ham ishtirok etgan. Aprel oyi boshida bo‘lib o‘tgan seminarda temiryo‘lchilar orasida ommaviy-siyosiy ishlarni kuchaytirish, og‘zaki va ko‘rgazmali targ‘ibot, sotsialistik musobaqalarni uyushtirish, devoriy gazetalar ishi kabi mavzulardagi masalalar muhokama qilingan[7]. Respublika markazidan olingan partiyaviy ko‘rsatmalar targ‘ibotchilar orqali mahalliy hududlarga yetkazilgan. Ayrim hollarda ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyatlar ham siyosiy va partiyaviy o‘qishlar natijasi sifatida baholangan. 1952-yilgi ma’lumotlarda Kogon temir yo‘li siyosiy bo‘limi keyingi vaqtlarda o‘z ishlarini ancha yaxshilagani, Partiya XIX syezdi qarorlarini bajarishda bosh-qosh bo‘layotgani, turli tadbirlarni amalga oshirayotgani sababli, yo‘l bo‘limi noyabrning birinchi yarmidayoq yuk ortish va bo‘shatish yillik rejasini bajargani keltirib o‘tilgan. Ammo, temir yo‘l bo‘limining korxonalari va ayrim tarmoqlarda kasaba uyushmasi ishlari yomon tashkil etilganligi ham qayd etilgan[8]. Bu kadrlar qo‘nimsizligini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan holatlardan biri hisoblanardi. Shuningdek, siyosiy targ‘ibot ishlari 50-yillardagi eng kuchli ta’sirga ega bo‘lgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, syezdlar va ular sharafiga mehnatda turli yutuqlarni qo‘lga kiritish kabi tashabbuslar amalga oshirila boshlangan. Masalan, Kogon

[1] Lenin ordeni – dastlab 1926-yilda Ilich ordeni ta’sis etish to‘g‘risida taklif berilgan. Ammo, 1930-yilga kelibgina u joriy qilingan. Orden SSSR MIKning oltinchi apreldagi farmoni bilan ta’sis etilgan. Beshinchi may sanasida Lenin ordenining nizomi qabul qilingan. 1932-yil 11-yanvarda esa Lenin ordeni bilan mukofotlanish shartlari, mukofotlanganlarni taqdirlash tartibi qabul qilingan. Дуров В.А. Энциклопедия советских наград. Орден Ленина. Орден Сталина (проект). – М.: Любимая книга, 2005. – С. 56.

[2] Стахановчиларнинг иш тажрибаларини кенг оммалаштирайлик. // Бухоро ҳақиқати. 1951 йил, 31 август. 173-сон.

[3] Shavkatli mehnati uchun medali sobiq SSSRda dastlabki zarb qilingan medallardan bo‘lib, uning ta’sis etilishi SSSR qurolli kuchlari Prezidiumining 1938-yil 27-dekabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan. Keyinchalik mehnat SSSR Oliy Kengashining 1943-yil 19-iyundagi farmoni bilan o‘zgartirilgan va medal to‘g‘risidagi nizomga SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining farmoni bilan 1947-yil 16-dekabrda o‘zgartirish kiritilgan. SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1980-yil 28-martdagi farmoni bilan bu medal nizomiga yangi tahrir kiritilgan. Володин А.Н., Мерлай Н.М. Медали СССР. – СПб.: Печатный двор, 1997. – С. 41–44.

[4] Файзиев Қ. Темир йўл станциясининг илғор стрелкачиси. // Бухоро ҳақиқати. 1951 йил, 5 август. 155 (3528)-сон.

[5] Содиқов А. Темир йўл партия ташкилотларида партия ўқувига эътибор кучайтирилсин! // Қизил Ўзбекистон. 1951 йил, 52 (7805)-сон. 3 март.

[6] O‘zMA., R-608-fond, 9-ro‘yxat, 588-yig‘majild, 69-varaq.

[7] Темир йўл партгруппоргларининг ўқиши. // Қизил Ўзбекистон. 1952 йил, 6 апрель. 83 (8192)-сон.

[8] Лерчук Н. Област партия комитетининг инструктори. Темир йўл сиёсий бўлимининг ишлари яхшилансин. // Бухоро ҳақиқати. 1952 йил, 17 декабрь. 248 (4880)-сон.

lokomotiv deposida O‘zbekiston Kommunistik Partiyasi XII syezdi va SSSR Oliy Soveti saylovlarini targ‘ibot qilganlari, targ‘ibotchilarning umumiy soni 32 kishi ekanligi, targ‘ibot ishlari natijalarida yuk ortish, tushirish va jo‘natish rejalarini oshirib bajarishga undayotganliklari xususidagi ma’lumotlarni ko‘rish mumkin[1].

XX asrning 50-yillarida sobiq SSSRning Ashxobod temir yo‘li bir qismi sifatida faoliyat ko‘rsatgan Buxoro (Kogon) bo‘limi Respublika miqyosidagina emas, sobiq SSSRning janubiy mintaqalaridagi muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘l hisoblangan. Kogon temir yo‘l bo‘limi uchun 50-yillarda xalq xo‘jaligini tiklash jarayonida vaqtni tejash uchun poyezdlar tezligini oshirish, yoqilg‘ini tejash, belgilangan rejalarni bajarish, turli vaxta (tinchlik vaxtasi, sotsialistik vaxta va h.)larda ishlash jarayonlari, turli tashabbuslar, staxanovchilik harakatlari avj olganligi xarakterli xususiyat hisoblangan.

MANG‘ITLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISLOHOT

Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
O‘rinboyeva Ro‘zigul Amrullayevna
Buxoro davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII - XIX asrlarda Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro amirligida amalga oshirishgan harbiy islohotlar tahlil etiladi. Tadqiqotda amirlar Muhammad Rahimxon, Shohmurod, Muhammad Haydar, Amir Nasrullo va Amir Muzaffarning harbiy siyosati, muntazam qo‘shin tuzilishi, qurollanish tizimidagi o‘zgarishlar hamda harbiy boshqaruvdagi yangiliklar yoritilgan. Maqolada islohotlarning mamlakat mudofaa qudratini oshirishdagi o‘rni, ularning ijobiy natijalari va cheklangan jihatlari ham tahlil qilinadi. Natijada, Mang‘itlar davridagi harbiy islohotlar Buxoro amirligi siyosiy barqarorligi va markazlashuvini taminlashda muhim rol o‘ynagani bilan birga, zamonaviy harbiy tizimga o‘tish uchun tarixiy zamin yaratagani ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rahimxon, Shohmurod,Muhammad Haydar, Amir Nasrullo, A. L. Troiskaya, Salkov Shedrin kutubxonasi, Anke fon Kyugelgen, Ahmad Donish, B. Ismoilova, P. Demezo, A. L. Proiskaya, N Ignatyev, Yuzboshi, Panjagboshi, Qorulbegi, Panjagboshi hur.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi o‘zbek xonliklarining ichida o‘z salohiyati, hududi , aholisi tabiiy resurslari va boshqalar jihatidan aholida mavqega ega edi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab hokimiyat tepasiga kelgan o‘zbek mang‘it urug‘i sulolasi vakillari Ashtarxoniylar hukmronligini tugatib mamlakatda hukm surayotgan o‘zaro kurashlarga chek qo‘yishga, Markaziy hokimiyatga mavqeyini oshirishga qishloq xo‘jaligi, savdo- sotiq, obodonchilik borasida bir qator jiddiy islohotlar o‘tkazishga birmuncha erishdilar. Jumladan, mang‘itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimbiy (1747-1758) undan so‘ng amir Shohmurod (1758-1800) Amir Nasrullo (1826-1860) lar davrida kuchli va Markazlashgan davlat barpo etish siyosati bosh shior qilib olingan edi. Buxoro amirligidagi yana bir e’tiborga molik muhim masala bu harbiy qo‘shin masalasidir.Mang‘itlar sulolasining asoschisi Muhammad Rahimxon (1747-1759) o‘z hukmronligini dastlab mamlakatni mustahkamlash hamda davlat uchun muhim bo‘lgan mustaqil yoki yarim mustaqil holatga kelib qolgan ma’muriy - hududiy birliklarni qayta birlashtirishga harakat qilishdan boshlagan. Xususan Anke fon Kyugelgen "Muhammad Rahim mamlakatda yashovchilarni baxtiyor ayladi. U davlatni boshqarish bilan birga o‘zini boshqarishni va fuqarolarni hurmat qilishni hamda ularning dardi bilan yashashni unutmadi" deb qayd etadi. Mang‘itlar sulolasining keyingi vakili sifatida Muhammad Doniyolbiy (1758 - 1785) keladi. Muhammad Rahim davrida davlatning siyosiy va iqtisodiy masalalari bo‘yicha yordamchi, maslahatchisi lavozimida faoliyat yuritayotgan. Muhammad Doniyolbiy sofizm

[1] Мўминов Ш. Агитаторлар амалий ишга бошладилар. // Бухоро ҳақиқати. 1954 йил, 24 январь. 17 (5164)-сон.

ta'limotini ashaddiy tarafdori ekaniligi to‘g‘risida to‘liq ma'lumot bo‘lmasada uning o‘g‘li Shohmurod ushbu ta'limotning yirik namoyondalaridan biri bo‘lib shakllanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergan. Otasi vafotidan keyin uning o‘g‘li Shohmurod davlatni boshqarish vakolatni qo‘lga kiritadi. Shohmurod davlat boshlig‘i - amir unvoninni ta'sis etar ekan ushbu unvonning o‘zbek va mo‘g‘ul urug‘lari an'analari bilan emas balki shariat qoidalari asosida yuzaga kelganini asoslab beradi. Harbiy sohadagi boshqaruv faoliyatini ulamolarning fatvosi asosida olib borgan hamda aynan uning davrida huquq manbasi bo‘lmish sunnaga sezilarli darajada amal qilgan. Ahmad Donish ham Amir Shohmurodni xalifa Umar bilan bir qatorga qo‘yib amirlik gilamini kambag‘allik kiymi bilan bezadi, jahon bog‘ida dushmanlik va yomonlik tomirni sug‘urib tashladi va adolat nihollarini o‘tkazdi, deb uning faoliyatini yuksak baholagan.

Mang‘itlar sulolasining yana bir vakili bo‘lmish Amir Haydar hukmronligi davri (1800-1826) kelib dastlabki tub o‘zgarishlar ro‘y berib, ya'ni ma'lum ma'noda muntazam armiya tashkil etildi deyishiga asos bor. Biroq, ba'zi tarixchilar bu fikrga to‘la qo‘shilmaydilar. Tadqiqotch B. Ismoilova Buxoro amirligida armiya va harbiy ishlarni tashkillashtirishni ikki bosqichga bo‘ladi va birinchi bosqichni XIX asr boshlaridan XIX asrning 30 - yillarigacha, ya'ni Amir Haydar davridan hisoblanab, bu davrni shu sohaga dastlabki asos qo‘yilganligi, to‘la muntazam armiyani tashkil etilganligini esa ikkinchi bosqichda Amir Nasrulloxon davriga (1827- 1860 yillar) to‘g‘ri kelib to 1877-yilda oxirga yetkazdi deydi. Umuman Amir Haydar mamlakat mudofaasi, muntazam qo‘shin tuzish yo‘lida e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdi, U boshlagan harbiy islohotlar uning vorisi Amir Nasrulloxon tomonidan rivojlantirildi.Amir Nasrullo davri (1826 -1860) xususida to‘xtalganda uning hukmronligi davrida muntazam qo‘shin yuzaga kelgan edi deb to‘xtalib o‘tgan edik.

P. Demezon amirlikda 19000 yo‘llanma askar mavjud bo‘lgan deb yo‘llanma askar beruvchi hududlarni sanab o‘tadi jumladan Buxoro viloyati-12000, Samarqand -2500 , Qarshi-2500, Maymana-1000, Qorako‘l-1000 akar berishi lozim bo‘lgan. Bu harbiy chegara qo‘rg‘onlari va asosiy shaharlarda joylashtirilgan. Undan tashqari turkmanlar qo‘shimcha, hukmdor umumiy chaqiriq elon qilgudek bo‘lsa degan maqsadda 18000 o‘z hisoblaridan harbiy askarlar tayyorlab turishlari kerak bo‘lgan .

P. Demezon Nasrulloning 1833-yili Shahrisabzga yurishini takidlab amir faqatgina 5000 kishi yig‘a olganligi va shuncha turkmanlardan askar olganligiga to‘xtalib, oziq - ovqat taqchilligi sabab bu yurish uch haftada tugaganligini alohida qayd etib o‘tadi. P. Demezonning ma'lumotiga ko‘ra poytaxtda 8-10 ta zambarak mavjud bo‘lgan. A.L. Proiskaya harbiy muntazam qo‘shin tuzilishi xususida M.E. Saltikov Shedrin kutubxonasidagi ikkita muallifi noma'lum qo‘lyozmaga to‘xtaladi. Bular Buxoro amiri "Nasrullo Bahoridirxonning yurishlari to‘g‘risida" hamda "Buxoro sarbozlari xususida" nomli qo‘lyozmalardir. Bu qo‘lyozmalar 1859 yil yozida N. Ignatyev misyasi ozod etgan sobiq rus qullari tilidan yozib olingan bo‘lgan.Ozod qilingan rus qullarining 8 tasi bevosita amir domiy qo‘shinida xizmat qilgan. Bu yozmalarga ko‘ra doimiy qo‘shin sarbozlar 1837-yili rus asirlari va fors qullari ishtirokida tashkil etilgan. Avval boshida sarbozlar bataloni 800 kishidan iborat bo‘lib, qo‘shimcha 250 tog‘li kishilardan to‘pchilar guruhi -Artelleya tashkil etildi. Bundan tashqari zobitlar oyligi quyidagicha bo‘lgan. Yuzboshi - 6 tillo(24s kumush pul) Panjagboshi-85 tangga Qorovulbegi - 4 tillo Panjagboshi hur 50 tangga Bosh lashkarboshi Shohruhxon yiliga 2 ming tillo oylik daromad olgan. Shu davrda amir ixtiyorida 50 ta zambarak bo‘lgan deyiladi. Qurol - yarog‘ tayyorlash uchun qo‘rg‘oshin asosan G‘uzordan olingan. Qurollarning aksariyat ko‘pligi Samarqandda ishlangan , Qarshida esa ko‘plab xususiy qurol aslaha omborlari mavjud bo‘lgan.Sarbozlarning asosiy faoliyati to'pchilarni himoya qilish, jangga oldingi saflarda kirish bilan xarakterlanar edi. Shuning uchun ham ko‘pchilik yurishlarda sarbozlar ma'lum qismi qirilib ketar edi. Masalan 1842-yilgi Qo‘qon 1855-yilgi Shahrisabz yurishlarida sarbozlarning deyarli yarmi qurilib ketadi .

Amir Muzaffar davriga to‘xtaladigan bo‘lsak (1860-1885) hukmronligining boshlanishi qo‘shin tarkibi , uning sifat darajasiga ham ta'sir ko‘rsatadi.

Nasrullo davrida barpo etilgan ozmi-ko‘pmi qo‘shin yanada ko‘proq zaiflashib , o‘tkinchi lashkarboshilar Shohrux, Usmonbek qo‘liga tushib qoladi. Ahmad Donish bu xususida " uning

davrida lashkar ham zaiflashgan otasi zamonida harbiy yurishlarda pishigan sarkardalarni qatl ettirib, o‘rinlariga tagi past kishilarni va g‘ulomlarni tayinlagan. Rossiya o‘lkaga bostirib kirganda esa tagi past, nodon va g‘ayratsiz sarkardalar juftakni rostlab qoldilar, to shu vaqtgacha ulardan ozor chekib kelgan askar g‘ulomlarga xizmat qilishni or bilib tarqab ketdilar. Natijada barcha viloyatlar Rossiya qo‘liga tushdi .

Xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ya bo‘lmaslikkari tufayli ham Buxoro amirligi boshqa o‘zbek xonliklari singari Rossiya imperiyasi iskanjasiga tushib qolishi to‘la qonli deyishimiz mumkin.

Amirlikning harbiy tuzilmasi xususida ma’lumotlar kam shubu masala yuzasidan maxsus ilmiy – tadqiqot, izlanishlar deyarli qilinmagan. Rus mustamlakachiligi davri mualliflari ham bu xususda ko‘pincha umumiy ravishda to‘xtab o‘tganlar. Sobiq sovetlar hukmronligi davrida ham darslik va adabiyotlarda bu xususda sayoz ma’lumot berilar yoki umuman hech deyilmas edi.

Istisno tariqasida A.L. Troiskayaning 1953-yili chop etgan Saltkov Shedrin kutubxonasidagi ikkita hujjat asosida yozgan maxsus shu masalaga bag‘ishlangan maqolasini keltirishimiz mumkin. XIX asr boshiga kelganda darhaqiqat amir huzuridagi otliq , gvardiya navkarlar va urush boshlangudek bo‘lsa xalqdan yig‘iladigan yollanma qo‘shindan iborat bo‘lgan qoracherik, qoraqozon, qilquyruq.

Qoracherik - oddiy xalqdan to‘plangan piyoda qo‘shin, uning ustiga o‘z mehnat qurollari, ba’zan kamon- o‘q, nayza bilan qurollangan bo‘lar edilar. Navkarlar esa otliq bo‘lib, ularning qurol - yarog‘lari qoracherikdan keskin farq qilar moddiy ta’minotlari ham amir tomonidan kafolatlanar edi. Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra XIX asr boshidagi navkarlarning soni 3600 ta bo‘lgan ekan.

Mang‘itlar hukmronligi davrida Buxoro amirligida amalga oshirilgan harbiy islohotlar davlat qudratini mustahkamlash, markazlashgan boshqaruv tizimini yaratish va zamonaviy armiya shakllantirish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi. Amir Nasrulloh va Amir Muzaffar davrida doimiy qo‘shin tuzildi, harbiy intizom kuchaytirildi, qurollar yangilandi hamda harbiy boshqaruv tizimi soddalashtirildi. Bu islohotlar Buxoro amirligining ichki barqarorligi va tashqi xavflarga qarshi kurashish qobiliyatini oshirdi. Shunga qaramay, XIX asr oxiriga kelib, texnik va harbiy sohalarda Yevropa davlatlaridan orqada qolish, amirlik armiyasining zaiflashuviga sabab bo‘ldi. Shu bilan birga, bu davr islohotlari O‘rta Osiyo tarixida harbiy tizimni rivojlantirish yo‘lidagi muhim tajriba sifatida katta ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodiyev J. M " Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi" T. 2008.
2. Shukrullayev Y.A. BUXORO AMIRLIGIDA QO‘SHIN VA HARBIY MASALALARGA OID QO‘LYOZMALAR TAHLILI (AMIR HAYDAR MAKTUBLARI ASOSIDA). FAN, TA’LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI NOMLI III ILMIY ONLAYN KONFERENSIYA. -44-49 b.
3. Rajabov O.I. AMIR SHOHMURODNING BUXORO AMIRLIGI BOSHQARUVIDAGI ISLOHOTLARI. WWW.HUMOSCIENCE.COM. 2023.-335-342 b.
4. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков (XVIII-XIX вв.) - Алматы.: Дайк-Пресс, 2004. С.80-81.
5. "O‘zbekistonning yangi tarixi"ni tayyorlash va nashr etish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1996 yil 16 dekabrdagi qarori // xalq so‘zi.- 1996 - 17 dekabr.
6. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi qarori // xalq so‘zi. - 1998 - 28 iyul.
7. Shodiyev J. M " Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi" T. 2008.
8. Ravshanov P. "Shahrisabz tarixi (Eng qadim davrlardan XX asrning birinchi choragigacha ") T, 2011.

BUXORO AMIRLIGIDA MAG`ITLAR HUKMRONLIGI

Rayimova Moxinabonu Rashidovna
Buxoro Davlat Universiteti
bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda XVIII asr o‘rtalarida Buxoro xonligida hokimiyat tepasiga kelgan Mang‘itlar sulolasi faoliyati yoritilgan. Unda Buxoro amirligining tashkil topishi, davlat boshqaruvi tizimi, mashhur amirlarning siyosiy islohotlari, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o‘zgarishlar tahlil qilingan. Shuningdek, Mang‘itlar hukmronligi davrida Buxoroning Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari va amirlikning tanazzulga yuz tutish sabablari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Mang‘itlar sulolasi, Muhammad Rahimxon, Amir Nasrulloh, Amir Muzaffar, siyosiy boshqaruv, islohotlar, Rossiya protektorati, madaniyat.

XVIII asr 40-yillariga kelib Buxoro xonligida siyosiy va iqtisodiy inqiroz kuchaydi. Ashtarxoniylar sulolasining so’nggi valiki Abulfayzxon hukmronlik yillarida markaziy hokimiyatning zaiflashdi. Eron shohi Nodirshohning Buxoroga hujumi va mamlakatning asosiy shaharlari Buxoro hamda Samarqandning egallashi vaziyatni yanada murakkablashtirdi.Shunday murakkab vaziyatda tarix sahnasida yangi siyosiy kuch - mang‘itlar sulolasi paydo bo‘ldi. Movarounnahrda yashagan bir qancha o‘zbek qabilalri orasida, xossatan mang‘itlarning ashtarxoniylardan hokimiyatni o‘z qo‘llariga olishlari tasodifiy bir voqea emas, balki bu qabilalarning O`rta Osiyoda paydo bo‘lganidan buyon topgan o‘rni bilan bog‘liqdir. Nufuzli mang‘it beylaridan Muhammad Hakimbiy otaliq mang‘itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi uchun shart-sharoit yaratib berdi. Muhammad Hakimbiyning o‘g‘li Muhammad Raximxonning 1756-yil 16-dekabrda Buxoro taxtini rasmiy ravishda egallashi va o‘zini amir deb e‘lon qilishi bilan 173-yil hukmronliki qilgan yangi sulolaga asos solinib, Buxoro bundan keyin amirlik deb atala boshlandi.

Muhammad Raximxon hukmronligining dastlabki yillaridan Nurota hokimi To‘g‘aymurodbek G‘uzor hokimi Jahongirbek, Shahrisabz hokimi olimbek, Hisor hokimi Muhammadamin, Sherobod hokimi Sheralibeklarning itoatsizligini tizginlashga kirishdi. Urgut, Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jandni qo‘lga kiritishga muvoffaq bo‘ldi. 1758-yil 24-martda mang‘itlar sulolasi asoschisi muhammad Rahimxon to‘satdan vafot etgach, taxtga shoshilinch ravishda balog‘atga yetmagan nevarasi Fozil To‘ra o‘tkazilib, unga Fozilxon nomi berildi. Muhammad Doniyolbiy esa yangi xonga otaliq qilib tayinlandi. Ammo bu qarorni hamma ham ma‘qullamaydi. Norozi bo‘lgan viloyat hokimlari ayrim qabilalar amirlari markaziy hokimiyatga qarshi bosh ko‘taradi. Doniyolbiy isyon ko‘targanlar bilan bitim tuzishga muvoffaq bo‘ladi. Shu kelishuvga ko‘ra Fozil To‘ra taxtdan tushirilib uning o‘rniga ashtarxoniylardan bo‘lgan shahzoda Abulg‘ozixon taxtga chiqadi. 1781-yil rossiya tomonidan savdo bitimi tuzish to‘g‘risidagi taklifini 92 o‘zbek qabilalari boshliqlarining roziligisiz qabul qila olmasligini aytar ekan, Doniyolbiy otaliq markaziy hokimiyatning ancha zaifliginin tan oladi.

Doniyolbiy otaliqning qo‘shin ta‘minoti uchun qo‘shimcha soliqlarning joriy etishi vaziyatni og‘irlashtirib yuboradi va 1784-yilda buxoroda qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga olib keladi va Doniyolbiy yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy tanglik oqibatida hokimiyatni o‘g‘li Shohmurodga topshirishga majbur bo‘ladi. O`zining 15 yillik hukmronligi davrida amir Shohmurod mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borishga harakat qilib, mamlakat ichki hayotini, iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida pul islohoti o‘tkazgan va sof kumush tanga zarb qildirgan. Uning davrida Buxoro va rossiya munosabatlarida elchilik va savdo aloqalari ham muhim ahamiyat kasb etgan. 1774-yil Ernazar Maqsudov Astraxan orqali Moskvaga borgan va yo‘lda Pugachyovning isyonchilar tomonidan mol-mulki talangan. 1779-yilda Maqsudov yana elchi bo‘lib Peterburgga boradi va Rossiya bilan Buxoroliklarning Rossiya hududidan hajga borishiga ruxsat olinadi. Javob tariqasida 1781-yilda malika Yekaterina buyrug‘i bilan Bekchurin Buxoroga elchi bo‘lib keladi. Elchi Buxoro amirligining kuch-qudrati bilan bog‘liq ma‘lumotlarni olishga harakat qilgan. 1786-yilda Karmana, Shahrisabz, Xo‘jand, Marv zodagonlari ustiga yurish qilib, ularni o‘ziga tobe etadi, qattiqo‘l davlat siyosatini yurgizadi.

Shohmurod Buxoro aholisini soliqlardan ozod qildi, tarxon yorlig‘i bergan. U Afg‘oniston hukmdori Temur Shohga qarshi muvoffaqiyatli urushlar olib bordi. Amir Shohmurod 1800-yilning 30-noyabrida vafot etib, Jo‘ybordagi Eshoni Imlo qabristonidagi o‘zining Piri Shayx Safar qabri oldida dafn etilgan. Undan keyin o‘g‘li amir Haydar taxtni egalladi. U hokimiyatdan mustaqil bo‘lishga intilayotgan Shahrisabz, Kitob, Urgut bekliklari hamda Miyonqol va Samarqand hokimliklariga qarshi kurash olib borgan. Otasi kabi Xurosonga harbiy yurishlarni amalga oshirib, Balx, Badaxshon, Qunduz va Maymanani 1817-yilda Buxoro amirligiga qaytarishga muvoffaq bo‘ladi. Marv viloyatining hokimi bo‘lib turgan ukasi Dinnosirbek Xiva xoni Eltuzarxonning va‘dalariga ishonib, 1804-yilda akasiga qarshi bosh ko‘taradi, biroq mag‘lubiyatga uchraydi. Shu yili amir Haydar O‘ratepaga yurish qiladi va uni zabt etib, O‘tkir so‘fini hokim etib tayinlaydi. 1821-1825-yillari amir Haydar Miyonqolda xitoy-qipchoqlar isyonini bostirish bilan ovvora bo‘lganda Xivaliklar Chorjo‘y va Marvga harbiy yurish uyushtiradilar. Xivaliklar hatto Marvni zabt etishga muvoffaq bo‘lishadi. Bungacha ham amirlikning sharqiy qismida ancha yo‘qotishlar va o‘zgarishlar yuz bergan edi. Masalan, Qo‘qon hukmdorlari 1805-yili Xo‘jandni, 1809-yili Toshkentni, 1816-yil Turkistonni ishg‘ol qilib, xonlik hududiga qo‘shib olgan edilar. 1806-yil Jizzax, 1806-1813-yillari O‘ratepa, 1821-yili Samarqandga tahdid solganlar.

Amir Haydar hukmronligi davri qanchalik tahlikali, ziddiyatli bo‘lmasin, u ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashish bilan birga mamlakatda bir qator islohotlarni amalga oshirishga muvoffaq bo‘ldi. Amir Haydar 1826-yil 6-oktyabrda vafot etib, otasi Shohmurod yoniga dafn etilgan. Undan keyin taxtga katta o‘g‘li Husayn o‘tirgan. U 2 yarim oy hukmronligidan so‘ng zaharlanib, Buxoroda vafot etgan. Amir Husayndan keyin ukasi Umarxon amirlik taxtiga chiqqan. U davlat ishlariga e‘tiborsizlik bilan qaragan va mayxovrlikka ruju qo‘ygan. Bundan foydalangan ukasi Bahodirxon Buxoroni qamal qilgan. Umarxon yengilgach, Farg‘onaga qaytib kelgan va shu yerda vabo kasalligiga chalinib, vafot etgan. Shundan keyin taxtni ukasi Nasrulloxon egallagan. U 1837-yilda harbiy sohada islohotlar o‘tkazib, o‘z qo‘shinining jangovar holatini yaxshiladi.

Amir Nasrullo Xiva va Qo‘qon xonliklarini Buxoro atrofida birlashtirishga urindi mamlakatning hududiy yaxlitligini tiklash uchun Qo‘qonxonlari tomonidan tortib olingan Xo‘jand, O‘ratepa, Toshkent, Jizzax va Zominni Buxoro amirligiga qaytardi. 1842-yil Qo‘qonga yurish qilib, xonlik hududini egalladi. Amir Nasrullo 1843-yil Marvni ham Buxoroga bo‘ysundiradi. Amir Nasrullo 20 yil olib borgan harbiy yurishidan so‘ng 1856-yil Kitob va Shahrisabzni uzil-kesil egallaydi. Nasrullo 1860-yil 5-oktyabrda 54 yoshida vafot etadi va Buxoroda dafn etiladi. Nasrullodan so‘ng uning vorisi Muzaffar taxtga o‘tiradi. Muzaffarning hukmronlik davri Rossiyaning O‘rta Osiyo xonliklariga qarshi harbiy harakatlari kuchaygan davriga to‘g‘ri keladi. 1868-yildagi Rossiya bilan bo‘lgan janglardan keyin birin-ketin amirlikka tegishli bo‘lgan hududlarni egallab olinishi amir Muzaffarxon o‘zaro sulh tuzishga majbur bo‘lgan. Sulhga ko‘ra, Buxoro Rossiyaga qaramligini tan oladi. Ruslarga 500 ming rubl tovon to‘laydi. Amir Muzaffarxondan keyin o‘g‘li Amir Abdulahadga yarimmustamlaka meros bo‘lib o‘tadi. Amirga qarshi bir qator norozilik harakatlari bo‘ladi. Jumladan, 1909-yil Shahrisabz va Qarshida xalq amirlikka qarshi bosh ko‘taradi. Qarshi shavqatsizlik bilan bostiriladi. O‘sha davr ma‘lumotlariga ko‘ra, Amir qul va cho‘rilarga rasman ozodlik berish to‘g‘risida farmon chiqargan. U 1910-yil vafot etgach, o‘g‘li Olimxon hokimiyatga keladi. Amir Olimxon hukmronligi davrida aholini 1 yillik xiroj to‘lashdan ozod qiladi. Uning davrida mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy turmush yanada og‘irlashadi. Olimxon o‘z davlati hududida xalqning umumiy manfaatlariga javob bera oladigan siyosat yurgizmadi. Oqibatda o‘zi zarar ko‘radi. 1920-yil 2-sentyabrda qizil askarlar ma‘muriy bino - Arkni egallab uni usiga qizil baryoqni o`rnatadilar. Shundan so‘ng amir Olimxon Afg‘oniston hududiga o‘tib ketadi va 1756-yildan buyon Buxoro amirligini boshqarasyotgan Mang‘itlar sulolasi 1920-yil sentyabrda butunlay tugatiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, davlat mustaqilligini saqlab qolish hukmdorlarning siyosatiga bog‘liq. Ammo so‘nggi mang‘it amirlari to‘g‘ri siyosat yurita olmaganligi sababli eng katta ne‘mat bo‘lgan mustaqillikni qo‘ldan boy berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston tarixi X jild (Buxoro tarixi) “O`zbekiston” T.2023

2. Halim To‘rayev “Buxoro tarixi”, “Durdona” B.2020
3. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, S. Xoshimov, O‘. Ubaydullayev “Vatan tarixi 2”, “Sharq” T.2016
5. Arminiy Vamberi “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi”, “Info Capital Books” T.2024
5. Muhammad Ali Baljuvoniy “Tarixi Nafoiy”, “Akademiya” T.2001

BUXORODA POLITSIYA MIRSHABLARI XIZMATINING SHAKLLANISHI

Qodirov Quvonch Bekmurodovich
O‘zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi Akademiyasi Dotsenti
Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘rta Osiyo xonliklarining Chor rossiyasi tomonidan istilo etilishi davrida Buxoroda politsiya mirshablari xizmatining shakllanishi, mazkur tizimning dastlabki holatdagi vazifalari to‘g‘risida ma’lumotlar beriladi. Shunindek maqolada, mazkur tizimning dastlabki faoliyatiga doir masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: politsiya, mirshab, shabgard, mulozim, jinoyat, jazo, mahbus, zindon, Chor Rossiyasi, xonliklar, soqchilik, davlat, idora.

Qariyb uch ming yillik taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan o‘zbek davlatchiligi tarixida jamiyatning xavfsizligi, yurt tinchligi va osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi, xalqning erki va ozodligi, madaniy taraqqiyotini ta’minlash uchun ichki ishlar tizimiga ehtiyoj katta bo‘lgan. Shu sababli mazkur ishga davlatning muhim vazifasi sifatida juda katta e’tibor berilgan.

Tarixiy adabiyotlarning ma’lumot berishicha, xonliklar davriga kelib, hozirgi ichki ishlar organlari tuzilmasiga o‘xshash va uning ayrim funktsiyalarini bajaruvchi dastlabki, o‘z nomiga ega bo‘lgan maxsus bo‘linmalar tashkil etilgan. Masalan, Buxoro tarixi bo’yicha tadqiqot olib borgan olimlar A.A.Semenov va A.I.Eshonovlar XVIII-XIX asrlarda Buxoroda “tungi hukmdorlar”-“Mirshablar” bo’lganligini qayd etishadi . Ushbu so‘z etimologiyasiga ko‘ra “Mir”-hukmdor, “Shab”-tun, qorong‘ulik kabi ma’nolarni anglatadi[1].

Ushbu olimlarning ma’lumotlariga ko‘ra, shaharda kechki soat sakkizdan keyin shahar ko‘chalarida tabiblar, doyalar va shabgardlardan tashqari barchaning yurishi taqiqlangan. Shabgardlar - tungi soqchilar kechasi yurganlarni ushlab, mirshabxonaga keltirganlar. Mirshab (mirshabxona boshlig‘i) erta tongda ularga jazo tariqasida ko‘cha supurtirib, hammom tozalatishni buyurgan. Har bir mirshabxonada 30-40 tacha qurollangan mulozimlar xizmat qilishgan. Ular asosan ko‘chalar, bozorlarda tartib saqlash, o‘g‘rilik, tuhmat, mushtlashish kabi jinoyatlarni aniqlash va chora ko‘rish, yoki zindonga qamash hamda saqlash kabi vazifalarni bajarganlar.

Haftaning juma kunlari mirshabxona boshlig‘i amir huzurida yozma ravishda hisobot berib turgan. Mazkur hisobotda hafta davomida sodir etilgan jinoyatlar, huquqbuzarliklar, jazo berilgan shaxslar, zindonga qamalganlar haqida ma’lumot bergach, mirshabxona boshlig‘i o‘z mulozimlarini ijtimoiy jihatdan rag‘batlantirish maqsadida amirdan mukofot yoki zindonda saqlanayotgan mahbuslarning ta’minoti uchun mablag‘ so‘ragan. Mirshablarning haftalik ishidan mamnun bo‘lgan hollarda amir xazinadan rag‘bat tariqasida tilla yoki sovg‘a ajratishga farmon bergan.

Shuningdek, mirshablar, shahar muhofazasiga mas’ul bo‘lib, davlatning mahbuslarini saqlash ham ularning vazifasi hisoblangan. Jinoyat sodir etgan shaxs jazo tariqasida zindonga tashlangan, saqlash muddatini sodir etgan qilmishining og‘ir yoki yengil darajasiga qarab, jinoiy ishni ko‘rgan qozi-kalon belgilab bergan. Mahbuslar zindonda jazo o‘tash davrida mirshablar ularni kecha-kunduz doimiy ravishda nazorat qilib turishgan. Ularning o‘lib qolmasliklari uchun ikki kunda non, suv yoki boshqa yeguliklar bilan ta’minlab turishgan.

Turkistonning harbiy quvvatini o‘rgangan G.A.Arandarenkoning fikri bo‘yicha: “Amirlik mirshabxona mulozimlarining ayrimlari tinch sharoitda uylarida yashar, haftada besh kun

[1] Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамаларининг луғати. – Т.: 2013. – Б. 143.

(chorshanba va jumadan tashqari) erta tongda eshak bilan Buxoroga kelar va kun davomida xizmat qilib, yana qaytib ketar edilar" - deb o‘z asarida ta’kidlagan[1].

Amirlikda mirshablarning ta’minoti turli viloyatlar va tumanlardan keladigan daromad hisobidan amalga oshirilgan. Jumladan, mirshabxona boshlig‘i oyiga 3 tilla, shabgard -mulozimlar 1 tilladan maosh olishgan. Jumaboy mulozimning o‘lgan xotinini dafn etish uchun esa mato (kafanlik) berilgan. Birinchi xulosa shundan iboratki, markaziy hokimiyat mirshablarning vafot etgan a’zolarini dafn marosimlarini moddiy ta’min etishga harakat qilgan. Ikkinchi xulosa shundan iboratki, mulozimlar ma’lum darajada davlat tomonidan ta’min etilgan bo‘lsa-da, ularning oilasi ahvoli nochor bo‘lgan. XIX asrning 60-yillarida Buxoroda bo‘lgan Ye.K.Meyendorf Buxoro mirshablarining "pilta miltiq va egri qilich" bilan mulozimlarning uzun nayza bilan qurollanganliklari haqida ma’lumot berib o‘tadi[2].

Shuningdek, rus harbiy manbalari ma’lumotlariga ko‘ra, Buxoro mirshablari va qo‘riqchilar bilan birgalikda Karmondan 2 tosh uzoqlikdagi Raboti Malikda ham joylashtirilgan bo‘lib, ularga Buxoro-Karmana-Samarqand yo‘lini qo‘riqlash vazifasi yuklatilgan. 1893 yilda Buxoro amiri Abdulahad Rossiyadan Buxoroga qaytayotganda Ashxobodda ruslar tomonidan o‘qitilgan, malaka jihatidan kazaklardan qolishmaydigan, yaxshi qurollangan, kiyimlari xuddi kazaklarnikiga o‘xshash turkman mirshablarini ko‘rib qolganligi manbalarda qayd etilgan.

Umuman olganda mirshablar haqida qo‘shimcha ravishda ba’zi tarixiy ma’lumotlarni keltirib o‘tish joizdir. Jumladan, Sadriddin Ayniyning "Buxoro inqilobining tarixi" asarida qayd etilishicha, "Buxoro darvozasining vokzal maydonida rus politsiya idorasi ochilganligi, bu idora Buxoroning ichida har bir ishga muxtor va qodir etib belgilanganligi shuningdek, uylarda tintuv o‘tkazish, aholini qamash, jarimaga tortish ishlarini bajarar edilar".

Vengriyalik mashhur sayyoh Arminiy Vamberi (1832-1913) o‘zining Markaziy Osiyoga 1863-1864 yillarda uyushtirgan safari asosida yaratgan "Markaziy Osiyo bo‘ylab sayohat" asarida qayd etishicha: Buxoroda politsiya (mirshablar) boshqaruvi Osiyoning boshqa shaharlariga qaraganda ancha kuchli faoliyat yuritgan. Kunduz kunlari raisning o‘zi bozorlar va jamoat joylarini aylanib chiqadi yoki o‘zining mulozimlarini jo‘natadi. Kun davomida to‘polon, o‘g‘irlik va boshqa jinoyatlar sodir etmasliklarini nazorat qiladi. Odatda mirshabboshiga 4 nafar bosh qo‘riqchi bo‘ysungan. Har bir qo‘riqchiga 8 nafar kichik qorovullar bo‘ysungan bo‘lib, jami 32 tani tashkil etishgan. Quyosh botgandan ikki soat o‘tgandan keyin hech kim ko‘chaga chiqishga jur’at qila olmagan. Chunki Amir mirshablarga ko‘chada yurganlarning barchasini hibsga olishni buyurgan. Tunda mirshablar ayniqsa, birovning uyiga o‘g‘irlikka kirmoqchi bo‘lganlar yoki ishqiy sarguzashtlar axtarib yurganlarga aloxida e’tibor qaratganlar[3].

Professor D.Ziyayevaning "XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘rta Osiyo harbiy ishlar tarixidan" maqolasida ta’kidlashicha: Rossiya tomonidan Xiva xonligi zabt etilgach, bunga qadar xonlikda mavjud bo‘lgan qo‘shin tarqatib yuboriladi. Taxminan 2000 ming kishilik navkarlar mirshablik xizmati uchun saqlab qolinadi[4].

Shu davrda xon Turkiston general-gubernatorligi orqali Rossiya harbiy vazirligidan ko‘p iltimoslar bilan o‘z navkarlari uchun qurol-yarog‘ olishga muvaffaq bo‘lgan edi. Aslida chor hukumati Xiva xonligini qurol bilan ta’minlash, qurolli kuchlarni kuchaytirishdan manfaatdor emas edi. Bu navkarlar xonlikda saroy qo‘riqchisi vazifasini bajarganligi uchungina ularga qurol berilgan. Shuningdek, ular soliqdan ozod etilgan bo‘lib, xizmatga o‘z oti va yemishi bilan kelganlar. Ularga xon tomonidan maosh tayinlangan.

Manbalarda keltirilishicha, Maxdi Chanishev Qo‘qon voqealari vaqtida shahardagi tartib va intizomni saqlash uchun butun militsiyaga bosh qo‘mondon etib tayinlangan. U bolsheviklar bilan bo‘lgan janglar vaqtida alohida jonbozlik ko‘rsatgan[5].

---

[1] Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане. 1874-1889. -СПб, 1889. -С.368.
[2] Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - М., Наука. 1975. - С.24.
[3] Arminius Vambery. "Travels in Central Asia". London. John Murray. Aldemarle Street. 1864. (Марказий Осиё буйлаб саёхат). -Б.366.
[4] Зияева Д. XIX аср охири ва XX аср бошларида Ўрта Осиё ҳарбий ишлар тарихидан. Ўзбекистон тарихи. Журнали. 2002. № 3. Б.13.
[5] Кичик хабарлар: Мухторият аъзолари // Улуғ Туркистон. 1918 йил 21 март.

Shuningdek, Qo‘qon xonligida mahalliy boshqaruv tizimida qo‘rboshi lavozimi mavjud bo‘lib, u mirshablik ishlarini olib borgan. Shu davrdagi xiyonat, yolg‘on qasam, o‘g‘irlik jinoyatlarining oldini olishda hamda shahardagi tungi qo‘riqchilik vazifalarini qo‘rboshilar amalga oshirganlar.

O‘rta Osiyoning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi natijasida tuzilgan Turkiston general-gubernatorligi metropoliya manfaatlarini himoya qilgan holda katta imtiyozlarga ega bo‘ldi. Jumladan, general gubernatorlik markaziy boshqaruvi dastlabki vaqtda to‘rt bo‘limdan iborat bo‘ldi. Bu bo‘limlar ma’muriy nazorat ishlari, moliyaviy xo‘jalik ishlari, soliqlar nazorati, sud va huquq ishlari bilan ham shug‘ullandi. Natijada, ma’muriy boshqaruv zo‘ravonlikka asoslangan doimiy usul sifatida saqlab qolindi[1].

Turkistonda Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy hukmronligini ta’minlashni birinchi darajali vazifa deb hisoblashgan. Shuning uchun Turkiston imperiyasining ichki ishlar vazirligiga emas, balki harbiy vazirligiga mustamlaka hukmronligini qaror toptirdi. Shu sabab Turkiston general-gubernatoriga imperator tomonidan “tub aholining boshqaruvida, qonunlarida va urf-odatlarida rus davlatining manfaatlari bo‘lgan barcha narsalarni o‘zgartirish huquqi” berilgan edi. Birgina Termizni misol qilib olinsa, o‘sha davrda shaharda xatto durustroq politsiya binosi ham yo‘q edi. Buzilib, qulay deb turgan politsiya binosidan har qanday jinoyatchi bemalol qochib ketishi hech qanday gap emas edi. Lekin shunga qaramasdan, ruslardan tashqari rus bo‘lmagan xalqlar faqat politsiya roziligi bilan Termizda yashash huquqini olganlar[2].

Xulosa qilib aytganda, jamiyat hayotida ilk davlatlar yuzaga kelishi bilan ularning chegaralarini, aholining tinchligini, savdo karvonlarining xavfsizligini ta’minlash, tashqi hujumlardan himoyalash maqsadida turli nomlar, ko‘rinishlar ostida, guruhlar, qo‘shinlar, otryadlar shaklida dastlabki tuzilmalar barpo etila boshlagan. Ularni tashkil etish va tuzish, qurol-yarog‘lar, oziq-ovqatlar, maosh bilan ta’minlash davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida e’tiborga olindi. Shunday qilib, Turkiston o‘lkasida Rossiya hukmronlik qilgan yillarda qonun loyihalari doimo to‘ldirilib, o‘zgartirilib turilardi. Buning siri juda oddiy edi. Chor Rossiyasining qonun loyihalari Turkistonni Rossiya imperiyasining markazlashgan boshqaruvi tizimiga kiritib, uni rus burjuaziyasi va dvoryan-pomeshchilar mulkiga aylantirishga qaratilgan edi. Shu sababli mazkur politsiya mirshablari tarixi davlatchilik tarixi bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlanib bordi.

ПОНЯТИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА, ЕГО МЕТОДЫ И ЗНАЧЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА ЭМИРА БУХАРЫ АБДУЛАХАДХАНА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ

Вахабов Азизжон Хамидович
Базовый докторант
Бухарский государственный университет

Аннотация. В статье раскрываются теоретические основы понятий «политический портрет» и «историко-политический портрет», а также рассматриваются возможности их применения при изучении личности эмира Бухары Саида Абдулахадхана. Показано, что метод политического портретирования служит средством приведения в единую систему психологических особенностей политического лидера, его политической практики и различных общественных представлений о нём.

Ключевые слова: Политический портрет, историко-политический портрет, психологический портрет, контент-анализ, интердисциплинарный метод, эмир Бухары Абдулахадхан.

В XIX–XX вв. в историографии усиливается внимание к фактору личности, что приводит к развитию биографических исследований, исторических портретов и

[1] Шамситдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи. – Андижон., 2001. –Б. 298.
[2] Даминова З. Термиз шахрининг Россия мустамлакасига айлантирилиши ва унинг оқибатлари. – Ўзбекистон тарихи. – Журнали. 2002. – № 3. – Б.32.

специальных работ о политических лидерах. В рамках современных подходов возникает необходимость интеграции методов социологии, политологии и психологии в изучение исторических деятелей. В этом контексте понятия «политический портрет» и «историко-политический портрет» оформляются как самостоятельное методическое направление.

Изучение личности эмира Бухары Саида Абдулахадхана (1885–1910-гг.) также требует именно такого интердисциплинарного подхода. Его правление тесно связано с открытием Бухарского эмирата для европейских социально-экономических и культурных отношений, внутренним кризисом феодальной системы и осторожными попытками модернизации. Об этом периоде местные авторы, в частности, Ахмад Дониш, Мирзо Салимбек, Саййид Мансур Олимий, а также зарубежные путешественники и исследователи оставили различные, порой резко противоречивые описания. Именно эта совокупность конфликтующих образов наглядно демонстрирует необходимость и эвристический потенциал метода политического портрета[1].

В теоретической литературе политический портрет трактуется как научная модель, комплексно выражающая личность политического лидера в пересечении психологических, социально-политических и культурных факторов. В таком портрете лидер выступает как:

- индивид, обладающий уникальными личностными чертами;
- субъект, действующий внутри конкретной политической системы;
- фигура, связанная с определёнными культурными и национальными традициями и с существующим в обществе «социальным заказом»[2].

Историко-политический портрет, в свою очередь, расширяет временные и пространственные измерения политического портрета, объединяя в единую систему биографию личности, политический строй эпохи, оценки современников и источниковые характеристики. В этом случае личность рассматривается в «историческом интерьере» — на фоне определённого политического порядка, конкретных исторических процессов и социальных структур[3].

На примере эмира Абдулахадхана это можно показать следующим образом:

- Ахмад Дониш рисует его как символ духовного упадка и политического капитулянтства, трактуя эмира как слабовольного и склонного к наслаждениям правителя[4].;
- Мирзо Салимбек описывает Абдулахадхана как эмира, сумевшего сохранить мир и порядок, ведущего активную религиозную жизнь и проводящего осторожную политику равновесия в отношениях с Россией[5];
- Саййид Мансур Олимий, в свою очередь, акцентирует внимание на сейидском происхождении эмира и его религиозно-легитимационной политике, связанной с Меккой и Мединой, трактуя её как стратегию укрепления авторитета Бухары в масштабе всего исламского мира[6].

Таким образом, историко-политический портрет эмира Абдулахадхана формируется на пересечении нескольких слоёв - политико-нравственного, психологического, религиозно-легитимационного и внешнеполитического.

В политическом портретировании важную роль играет и попытка косвенного восстановления психического типа лидера на основе воспоминаний, путевых заметок и дипломатических донесений[7]. У Ахмад Дониша Абдулахадхан предстаёт как гедонистичный, слабовольный, оторванный от забот народа правитель; у Салимбека — как добрый, щедрый, неравнодушный к нуждам подданных эмир, поддерживающий спокойствие во всех областях Бухары; Саид Мансур Олимий, в свою очередь, показывает его как правителя, который с помощью религиозных символов и сакрального насаба стремится компенсировать политическую слабость, укрепляя свой статус через святость места и происхождения. Эти противоречивые психологические образы раскрывают потенциал дистанционной психодиагностики в рамках политического портретирования и позволяют с определённой осторожностью делать выводы о мотивации, страхах и стратегиях адаптации лидера.

Методология политического портрета исходит из того, что личность лидера должна изучаться не изолированно, а во взаимосвязи с политическим строем, политической культурой, национально-исторической ситуацией и «социальным заказом» общества. В эпоху Абдулахадхана Бухара:

- внешне сохраняет облик независимой монархии, фактически являясь протекторатом России;
- внутренне переживает кризис феодальной системы и коррупцию придворной бюрократии;
- во внешнем плане становится ареной символической борьбы за влияние в исламском мире (завии и рабаты в Мекке и Медине, мечеть в Петербурге и т.д.).

Поэтому в политическом портрете Абдулахадхана формируется образ правителя переходного периода, пытающегося скрыть ослабление власти за счёт ритуалов, религиозных символов и демонстративной внешней лояльности.

Приведённые выше теоретические и источниковедческие наблюдения показывают, что историко-политический портрет является не просто биографическим жанром, а интердисциплинарным научным методом, объединяющим различные подходы — биографический, контент-аналитический, психологический и контекстуальный. С помощью политического портретирования исследователь получает возможность глубже понять как личность лидера, так и политическую систему его времени.

Список литературы

1. Смирнова Е.И. Политическое портретованиекак метод анализа политической элиты и перспективы его применения в политической науке // The Caspian Region: Politics, Economics, Culture. – 2016. – № 1 (46).
2. Игнатов В. В. *Историко-политический портрет как метод междисциплинарного исследования //* Московский экономический журнал. – 2020. – № 5. – С. 643–650.
3. Рыскова Т. М. *Политический портрет лидера: вопросы типологии* // Психология и психоанализ власти / ред. Д. Я. Райгородский. – Самара: Бахрах-М, 1999. – С. 26–30.
4. Ахмад Дониш. (Манғитлар сулоласи тарихи. Киемиддин Йулдощев таржимаси. Тошкент – 2014. В. 110
5. Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimiy. Tavorixi Muttaqadimin va Muttaaxirin. Narzullo Yo'ldoshev tarjimasi. Buxoro-2003 yil.
6. Саййид Мансур Олимий. Бухоро – Туркистон бешигида Амир Абдулахад хакида. Халим Тураев таржимаси. "Бухоро - 2004".В.40-41
7. Ракитянский Н. М. *Личность политика: теория и методология психологического портретирования.* -2-изд. – М., 2011.

СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ БУХАРЫ В КОНЦЕ XVIII И НАЧАЛЕ XIX ВВ.

Гафурова Иродахон Мухтаровна
Международная академия исламоведения Узбекистана,
Учёный секретарь Учёного совета, PhD, и.о. доцента

В тезисе исследуется многогранная роль медресе в Бухаре XIX – начала XX вв. как ключевого элемента мусульманской образовательной системы. Раскрывается структура учебного процесса и образовательных программ, а также определяется социально-религиозная функция медресе в формировании бухарской духовной культуры. Подчеркивается, что медресе были не только религиозными школами, но и важнейшими центрами просвещения, права и философии, оказывавшими значительное воздействие на интеллектуальное развитие и общественную жизнь региона.

Бухара, благодаря своему стратегическому положению на Великом Шелковом пути и активному покровительству знаниям, уже в IX–X веках заслужила почетное прозвание «Купол Ислама» (Куббат-уль-Ислам). Этот статус был обусловлен концентрацией выдающихся улемов (богословов), факихов (знатоков права) и философов, превративших город в один из главных центров ханафитского мазхаба.

В последующие столетия, несмотря на политические потрясения, традиция религиозного и светского обучения не только сохранилась, но и укрепилась. К XVIII веку в Бухарском ханстве окончательно оформилась высокоорганизованная и устойчиво функционирующая система медресе, которая была призвана обеспечить всестороннюю подготовку не только духовных, но и юридических, административных и интеллектуальных кадров государства.

Образование в Бухарском ханстве (конец XVIII – начало XIX вв.) было иерархичным: оно включало мактабы, медресе (средние и высшие) и спецшколы при мечетях/вакфах[1]. Процесс обучения строился согласно исламским педагогическим принципам: постепенность, авторитет устоза и усвоение знаний через практику и наставничество.

Медресе были не просто учебными заведениями, но и важными социальными институтами. Они являлись средоточием интеллектуального развития, где наряду с теологией углублялись право, философия и естественные науки. На протяжении столетий Бухара подтверждала свой статус символа духовного наследия мусульманского Востока, эффективно совмещая изучение фикха с развитием рациональной мысли[2].

В XVIII–XIX веках в ханстве действовали десятки крупных медресе (Мир-и Араб, Кукалтош, Улугбека и др.), при этом только в Бухаре их насчитывалось более 150, с общим контингентом до 30 тысяч студентов[3]. Финансовая поддержка системы обеспечивалась вакфами — религиозными фондами, которые покрывали расходы на обучение, питание и содержание преподавательского состава.

Мусульманское образование было связано с государственной и духовной властью: эмиры выступали его покровителями, используя как инструмент укрепления легитимности[4]. Несмотря на это, система сохраняла сравнительную автономию: мударрисы и муфтии пользовались влиянием, но самостоятельно определяли программы и методики обучения.

Целью медресе было воспитание образованных богословов (улемов), которые занимали бы важные посты, такие как кади, муфтии, имамы и мударрисы. Эта система обеспечивала социальный подъем для талантливых юношей: независимо от происхождения, обучение давало шанс достичь значимого положения в обществе.

Программы медресе отличались широтой и преемственностью. Они включали не только религиозные, но и светские науки, отражая широкий спектр классической исламской учености. Учебный план можно условно разделить на две крупные категории, хотя они и тесно переплетались.

Во-первых, религиозные дисциплины (Наджма-и ильмийя) были направлены на подготовку квалифицированных духовных и судебных кадров. Они включали ключевые исламские науки, такие как Фикх (исламское право), Хадисоведение, Тафсир (толкование Корана) и Калам (богословие). Во-вторых, рациональные и светские дисциплины (Улюм аль-аклийя) имели целью развитие аналитического и критического мышления, а также подготовку административных кадров. К ним относились Логика (Мантик), Философия, а также инструментальные дисциплины: Арабская грамматика (Сарф и Нахв). Помимо этого, для формирования всесторонне образованных специалистов в медресе преподавались

[1] Джурабаев Дж. Х. Система мусульманского образования в Бухарском ханстве в конце XVIII – начале XIX вв. // История. – №3. – 2013. – С. 210

[2] Рустамова Д. Медресе как институт исламской культуры Средней Азии. – Ташкент: Фан, 2008. – С. 44.

[3] Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Ташкент: Akademnashr, 2017. – С. 85.

[4] Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. – М.: Наука, 1963. – С. 301.

Астрономия (илм-и нуджум), Математика (хисаб), Медицина (тиб) и Литература. Таким образом, медресе не только готовили священнослужителей, но и формировали кадры для административной и судебной систем ханства[1].

Медресе Бухары XVIII – начала XX веков – это уникальный институт, который успешно сочетал образовательную, духовную, научную и социальную функции. Их миссия была шире простого обучения: они играли центральную роль в сохранении культурной идентичности, трансляции интеллектуальных традиций и развитии исламского мировоззрения. В XIX – начале XX вв. именно эта система обеспечила непрерывность духовного наследия Бухары и всего мусульманского мира.

ИСТОРИОГРАФИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА КОМПЛЕКСА КАЛОБОД

Хаётов Феруз Умиджонович
Магистрант Бухарского государственного университета,
Преподаватель истории Академического лицея МВД Бухары.
Tel: +998914000763
feruzfirstname@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimiy Buxoro shahrining shimoli-sharqiy qismidan o’rin olgan, Kalobod jaribining mashhur majmuasi Kalobod ansambli xususida so’z boradi. Majmuani o’rganishda turli xil hududlarda joylashgan shaharlar bilan qiyosiy tahlil, shahar strukturasiga xos tushunchalar, hamda majmuaning ilk o’rta asrlardan boshlab hozirgi davrgacha bo’lgan jarayondagi holatiga ham baho beriladi. Mavzening tarixini o’rganishda o’z hissalarini qo’shgan Ibn Xavqal, Sam’oniy, L.I. Rempel, V.V. Bartold, O.A. Suxareva, N. Xanikov, A. Jumanazar, Q. Bahromovlarning asarlariga murojaat qilinib, ular keltirgan ma’lumotlar solishtirilib, o’zaro tahlil qilingan. Maqolaning maqsadi – Kalobod majmuasining qadimgi davrdan hozirga qadar bo’lgan holatini o’rganishdan iborat.

Kalit so’zlar: Jarib, daha, Nishopur, Sheroz, Kalobod, madrasa, masjid, hovuz, darvoza, “Darb”, Numijkat, “Darvozai kalon”, rabot, vaqf, kutvol, avsat, “chorsu”, “Shohrud”.

Джариб Калобод (даха) — это местность, расположенная в северо-восточной части старого города Бухары. Этот район существовал с древних времён, и основные сведения о нём относятся к эпохе раннего Средневековья. Ранее, вплоть до XVI века, данная территория считалась одним из сельских поселений, расположенных за пределами города. Из этой местности вышло множество улемов, учёных, а также мастеров своего дела и всемирно известные специалисты своего времени[2]. В ходе нашего исследования мы установили, что местность с таким названием существует не только в Бухаре, но и во многих районах Хорасана и Ирана (например, махалля Калобод в Нишапуре, небольшое поселение Калобод в Ширазе и др.)[3]. (В нашей статье, посвящённой Абу Исхаку Калободи, мы также подробно изложили сведения об этой местности)[4].

На протяжении веков на территории данного джариба было возведено множество сооружений, и среди них мы рассмотрим архитектурные объекты, непосредственно связанные с названием этого джариба. В целом под названием «Калобод» в пределах джариба существовали четыре сооружения: медресе, мечеть, хауз и городские ворота. Одним из самых древних построек является ворота Калобод, которые относятся к раннесредневековому периоду Бухары (в те времена город первоначально носил название «Нумиджкат» – «Навмичкат»; это название образовано от слов: персидско-таджикского

[1] Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Ташкент: Akademnashr, 2017. – С. 92.
[2] Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб).-Т.: “Ҳилол Нашр”, 2017. -Б. 126.
[3] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд. Насоим ул-Муҳаббат. Т.: 2001. –Б. 233. ,Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб).-Т.: “Ҳилол Нашр”, 2017. -Б. 126.
[4] Hayotov F.U. Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2025/1 (118). Buxoro Kalobodiy shayxlar bayoni (Abu Bakr Kalobodiy misolida). –B. 186-191.

«нау» — «новый», согдийского «мич», а также «кят» или «кат» — «город», то есть означало «Новый город»)[1].

Ворота Калобод считаются одними из самых известных городских объектов, прослеживаемых с периода раннего Средневековья. Эти ворота издавна были соединены с оборонительной стеной, защищавшей данный населённый пункт. Во многих случаях большинство исследователей делают ошибочные выводы о Калободских воротах, пытаясь сравнить их с воротами Кавола (Карши) или Мазори Шариф. Однако для определения функций данного сооружения целесообразно прежде всего обратиться к научно-исследовательским работам О. Сухаревой. В своей работе «Квартальная община позднефеодального города» данные Сухаревой позволяют сделать следующий вывод: городские ворота можно разделить на две группы. В отличие от других стран, здесь нет четкого различия между внутренней крепостью и внешней крепостью, защищающей окрестности города. Напротив, в Бухаре встречались ворота двух типов:

1-я группа ворот — это ворота, соединённые с оборонительными стенами, ограничивающими Старый город, представляющие собой комплекс из одиннадцати основных городских ворот, соединённых с защитными стенами города. В раннесредневековый период их количество составляло семь[2].

2-я группа ворот — это ворота махаллей и кварталов, соединённые с особыми стенами, защищавшими городские улицы и жилые районы. Они практически не отличались от городских ворот. Как правило, каждая улица-квартал (гузар) была ограничена стенами домов, а сами стены напоминали сплошные внешние укрепления без окон и дверей. Вход в каждый гузар осуществлялся через ворота[3].

Опираясь на данные О. А. Сухаревой, эти ворота назывались «Дарвоза-и Калон» («Большие ворота»). Ибн Хавкаль же в своём труде «Китаб Сурят ал-Ард» относит Калобод к городской рабатской части и определяет Калободские ворота как ворота рабата. В своей книге он перечисляет названия подобных ворот и, в целом, их количество, согласно сведениям учёного, составляло 11. Ибн Хавкаль называет эти типы ворот термином «дарб[4]» [5]. (Согласно рассказам и преданиям, приведённым Наршахи и Сухаревой, эти ворота назывались «дар»). По данным исследований В. В. Бартольда, подобные ворота в Средние века существовали во многих городах Ирана, в том числе: «современные города, такие как Хамадан, не имели общих городских оборонительных стен, однако у всех гузаров и махаллей были отдельные защитные стены и ворота, которые закрывались каждую ночь, и такие ворота строились в конце улицы или проезда, ведущего из квартала[6]». Строительство таких ворот в раннее Средневековье было полезным для защиты от нашествий кочевников и имело чрезвычайно важное значение для местного населения [7].

В комплексе Калобод, по древности, после ворот выделяется памятник — медресе Калобод. Существует мнение, что медресе было построено в XVI веке, однако документы вакф свидетельствуют о том, что первые её фундаменты возведены значительно раньше. Медресе расположена в гузаре с одноимённым названием и считалась одним из главных центров науки своего времени. Согласно вакфным документам, изначально медресе называлась Ханская медресе или медресе Арсланхана. Однако Мирзо Шариф Махдум поясняет, что её первоначальное название — Калободская. В период с XII по XVII века медресе была известна под именем Арсланхан[8]. Однако строительство медресе связано не только с Арслонханом. Согласно исследованию историка А. Жуманазара, сохранился

[1] To’rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. “Durdona”, 2020. -B. 58.
[2] Подробнее см.: Ремпель. Л. И. Далекое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и исскуства Старой Бухары. Бухарские записи. -Т.: 1982. -С. 104., To’rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. “Durdona”, 2020. -B. 65-66.
[3] Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва.: «Наука», 1976. – С. 16.
[4] Дарб – арабское слово, означающее «путь», «улица», «внешние ворота».
[5] Подробнее см.: Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард. Мовороуннаҳр. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2011. –Б. 41.
[6] В.В. Бартольд. Сочинения, том-VI, -Москва.: 1966. –С. 157.
[7] Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва.: «Наука», 1976. – С. 16.
[8] Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: “Akademnashr”, 2017. -B. 47.

вакуфный документ XI века, относящийся к периоду Арсланхана, в котором содержится важная информация о том, что слуга Арсланхана Амир Кутвол, а также Кайхотухон и его мать жили примерно за полтора столетия до этого[1]. Это доказывает, что медресе была возведена значительно раньше — в X веке. Со временем на основе фундаментов старой медресе началось строительство нового здания. Вакуфные документы называют строителем нововозведенной медресе Абдурахим-хожу ибн Хожу Калон. Он также известен под именем Хожа Саад Калон (1530–1582)[2]. Кроме того, в вакуфных документах XVI века вместе с ними приводится упомянутый выше вакуфный документ XI века, при этом сохраняется также имя Арсланхана. Тем не менее сведения о медресе не получили широкого распространения среди населения. Вместо этого среди бухарцев возникли легенды и предания, отражающие мистическое настроение. Главным героем этих историй выступает личность Абу Бакра Исхака Калободи, который представлен как строитель медресе[3].

Согласно сведениям учёного Бахрома Каюмова, медресе была двухэтажной и в ней ежегодно обучалось от 150 до 200 студентов. По уровню медресе считалась средней степени – «авсат». Также Б. Каюмов указывает 1600 год как дату последнего строительства медресе[4]. По другим источникам, дата постройки медресе указаны 1608–1609 годы[5]. По хиджрийскому (лунный календарь) летоисчислению в вакуфных документах указана дата 1018 год[a 6]. Портал медресе высокий и большой; в его входной части построен каркасный айван, до входа медресе окружена низкой стеной и имеет также небольшие ворота, что можно наблюдать на исторических фотоснимках. По этим признакам медресе напоминает медресе хорезмийского стиля. Согласно некоторым данным, медресе состояла из 79 келий, тогда как в других источниках их количество достигает 100.[7]. Кроме того, сведения о деятельности медресе и её включении в число основных медресе Бухары упоминает Н. Ханыков в своем исследовании «Описание Бухарского ханства»[8]. В 1930-х годах медресе была передана в использование в качестве тюрьмы. В последующие годы здание служило коммунальным хозяйственным объектом. В 1953 году советская власть полностью разрушила сооружение. В настоящее время на его месте расположены частные жилые дома[9]. Если обратить внимание на план медресе Калобод, становится ясно, что по конструкции она существенно отличалась от других медресе Бухары. Примечательно то, что в её внутренней части находились лишь два арочных помещения в форме михраба с пештаком. Это доказывает, что она не была построена по распространённой в Бухаре планировке «Чорсу».

Помимо медресе, неподалёку располагалась квартальная мечеть Калобод. Мечеть гузара Калобод была построена в XVIII веке. Здание возведено из обожжённого кирпича и отличалось тщательностью исполнения. По плану мечеть представляла собой прямоугольник с айваном на северной стороне, поддерживаемым двумя деревянными колоннами. Здание Калободской мечети было разобрано в 1950-х годах XX века. В настоящее время на этой территории тоже расположены частные жилые дома[10].

Рядом с мечетью находился хауз Калобод (бассейн), который объединял вместе с медресе Мирзо Фузайла оба сооружения в единый ансамбль. К сожалению, на данный

[1] Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: “Akademnashr”, 2017. -В. 294.
[2] Подробнее см.: Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва.: «Наука», 1976. – С. 246. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: “Akademnashr”, 2017. -В. 294.
[3] Подробнее см.: Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва.: «Наука», 1976. – С. 246-248.
[4] Подробнее см.: Баҳромов Қаюм. Бухоро мадрасалари. –Т.: “Меҳнат”, 2013. –Б. 55.
[5] Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва.: «Наука», 1976. – С. 246, https://rusrav.uz/2018/09/24/medrese-kalobod/ (Обращение к этому сайту: 17.11.2025).
[6] Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: “Akademnashr”, 2017. -В. 294.
[7] https://rusrav.uz/2018/09/24/medrese-kalobod/ (Обращение к этому сайту: 17.11.2025).
[8] Ханыковъ Н. Описание Бухарскаго ханства. Санкт-Петербургъ. Типографія Императорской Академии Наукъ. 1843. –С. 272.
[9] https://rusrav.uz/2018/09/24/medrese-kalobod/ (Обращение к этому сайту: 17.11.2025).
[10] https://rusrav.uz/2020/01/26/mechet-kalobod/ (Обращение к этому сайту: 07.10.2025).

момент нам не удалось точно определить размеры пруда. Однако точные сведения о нём отражены в исследованиях Н. Ханыкова «Описание Бухарского ханства» и Л. И. Рempеля «Далёкое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары. Бухарские записи». Например, Ханыков в материалах о 83 хауза Бухары упоминает и хауз Калобод[1]. Лазарь Рempель в своём труде, описывая Шахрудский канал, приводит следующие сведения: «Когда канал Шахруд протекал через город, он делился на несколько направлений, и большинство из них проходило через территорию этого джариба. Первое направление шло через северо-восточные районы города — территорию Калобода, достигало прудов Фазиаддина Махсума (в работе Л. И. Рempеля это название, возможно, указано с ошибкой), Каро Камол, Дилькушои Дарун, Песхона, Олим-хожа, Джафар Ходжа, Куча-Бог, обеспечивая их постоянным водоснабжением. Остальные направления канала протекали через близлежащие городские территории и попадали в тазары[2]".

Итак, комплекс Калобод, благодаря своей древности, считался одним из ведущих сооружений своего времени. Несмотря на то, что в современной литературе он упоминается редко, он неизменно привлекал внимание выдающихся учёных своего времени. Вместе с тем, при изучении этой территории исследователи допускали значительные ошибки в датировках и некоторых терминах. Кроме того, исходя из вышеизложенных сведений, известно, что до наших дней ни один объект комплекса не сохранился. Тем не менее усилия современных учёных по фиксации и изучению этих сооружений в исторических источниках представляют собой крайне важную историко-научную задачу.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб).-Т.: "Ҳилол Нашр", 2017. 336.-б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17-жилд. Насоим ул-Муҳаббат. Т.: 2001. 284-б.
3. Баҳромов Қаюм. Бухоро мадрасалари. –Т.: "Меҳнат", 2013. –Б. 78.
4. В.В. Бартольд. Сочинения, том-VI, -Москва.: 1966. 784-с.
5. Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. – Т.: "Akademnashr", 2017. 592-б.
6. Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард. Моворoуннаҳр. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2011. 400-б.
7. Рempель. Л. И. Далекое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и исскуства Старой Бухары. Бухарские записи. -Т.: 1982. 302-с.
8. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. –Москва.: «Наука», 1976. -364 с.
9. To'rayev. H. Buxoro tarixi. -Buxoro. "Durdona", 2020. 320-b.
10. Ханыковъ Н. Описание Бухарскаго ханства. Санкт-Петербургъ. Типографія Императорской Академии Наукъ. 1843. –С. 280.
11. Hayotov F.U. Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axboroti. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY 2025/1 (118). Buxoro Kalobodiy shayxlar bayoni (Abu Bakr Kalobodiy misolida). –B. 186-191.
12. https://rusrav.uz/2018/09/24/medrese-kalobod/ (ushbu saytga 17.11.2025 da murojaat qilingan).
13. https://rusrav.uz/2020/01/26/mechet-kalobod/ (ushbu saytga 07.10.2025 da murojaat qilindi).

[1] Подробнее см.:Ханыковъ Н. Описание Бухарскаго ханства. Санкт-Петербургъ. Типографія Императорской Академии Наукъ. 1843. –С.81.
[2] Рempель. Л. И. Далекое и близкое: страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и исскуства Старой Бухары. Бухарские записи. -Т.: 1982. -С. 145.

BUYUK IPAK YO‘LI ILK SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDA OT.

Fayziyev Abdusamad Abduxoliq o‘g‘li
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti
O‘zbekiston tarixi va manbashunoslik kafedrasi o‘qituvchisi,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti.
Email: fayziyevabdusamad40@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-9298-8492

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab shakllangan ilk savdo munosabatlarida otning roli ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxeologik, etnografik va yozma manbalar asosida otning savdo karvonlaridagi ahamiyati, transport vositasi sifatidagi qo‘llanilishi, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy mavqe ramzi sifatidagi roli yoritiladi. Maqola Buyuk ipak yo‘li misolida otning qadimiy O‘rta Osiyo savdo va madaniy hayotidagi o‘rni haqida yangi qarashlar taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Buyuk ipak yo‘li, ot, sug‘d savdogarlari, O‘rta Osiyo, transport vositasi, iqtisodiy va ijtimoiy mavqe, arxeologik manbalar, etnografik manbalar.

G‘arb va Sharqni asrlar davomida iqtisodiy va madaniy jihatdan bog‘lab turgan Buyuk Ipak Yo‘lining shakllanishi va insoniyat tarixidagi ahamiyati ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ilk bor nemis geografi Ferdinand fon Rixtgofen 1877-yilda nashr etilgan “Xitoy” kitobining birinchi jildida Ipak Yo‘lining tarixiy rivojlanishini tahlil qilgan. U Xan sulolasi davrida Sharqdan G‘arbga yo‘naltirilgan yo‘llarni o‘rganib, nemis tilidagi “Seidenstrasse” atamasini ingliz tiliga “Silk Road” deb tarjima qilgan va fanga kiritgan.[1]

O‘zbek olimlari esa savdo karvonlarining Sharqdan G‘arbga qachon yo‘lga chiqqani, yo‘l tarmoqlari va masofasi haqida tadqiqotlar olib borgan. Arxeolog A.R. Muhammadjonovning fikricha, Buyuk ipak yo‘li Uzoq Sharqdan O‘rta Osiyo va Eron orqali O‘rta yer dengizigacha cho‘zilgan bo‘lib, u Xitoyning qadimiy poytaxti Chanan (Shanan) shahridan Italiyaning Venetsiyasigacha yetgan. Savdo karvonlari ilk bor miloddan avvalgi II asrning ikkinchi yarmida Xitoydan G‘arbga yo‘lga chiqqan. Iqtisodchi N. To‘xliyev esa bu bosqichni aniqroq belgilab, karvonlar miloddan avvalgi 126-yildan boshlab harakat qilganini qayd etadi[2].

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar savdo aloqalarining yanada qadimgi davrlarda mavjudligini ko‘rsatadi. Qadimgi Xitoy yozma manbalariga ko‘ra, Markaziy Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar miloddan avvalgi III ming yillikning oxirlarida ham mavjud bo‘lgan. Masalan, Chjushu jinyan (“Qamish kitob xotiralari”) asarida miloddan avvalgi 2342-yilda Chyuysou davlatidan Markaziy tekislikka (Chjungyuan) mehmonlar kelgani, ular bilan birga mustahkam otlar, surikat va itlar olib kelgani qayd etilgan. Ushbu Chyuysou davlati hozirgi Farg‘ona vodiysi hududida joylashgan edi. Mazkur manbalar O‘rta Osiyo xalqlari va Xitoy o‘rtasidagi savdo aloqalarining qadimiyligini, shuningdek otning savdoda muhim mahsulot sifatida ishlatilganini tasdiqlaydi.

Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab quruqlik orqali yuruvchi savdogarlar qaysi yo‘ldan foydalanmasin, O‘rta Osiyo, hozirgi O‘zbekiston shaharlari hududidan o‘tgan. Barcha yo‘llar tutashgan nuqtada biz yashab turgan mintaqa joylashgan edi. Mo‘g‘ulistondan o‘tgan yo‘l esa Marv va Amul[3] orqali Urganchdan o‘tgan. Xorazmdan quyi Volgaga boradigan yo‘l esa Xorazmshohlar yo‘li deb atalgan. Xullas, O‘rta Osiyo Janub va Shimol, Yaqin va O‘rta Sharqqa o‘tadigan yo‘llar tutashgan joyda bo‘lgan. O‘rta Osiyo orqali Xitoydan g‘arbga o‘tadigan savdo karvon yo‘llari doimo sug‘diylar nazorati ostida edi. Sug‘dlik savdogarlar o‘zlarining bu yo‘ldagi hukmronliklarini saqlab qolish uchun Sharqiy Turkistonda, Yettisuvda, Oltoydan to Yenisey

[1] Ся Ш., Халмакшинова С.Р. Концепция Шёлкового пути в XIX - первой половине XX века. // Международный научно-исследовательский журнал, 2021. № 8 (3). – С. 187-191.
[2] Ashirova N.X. Buyuk ipak yo‘lining Markaziy Osiyo shaharlaridagi taraqqiyot yo‘li. // Journal of New Century Innovations, 2023. № 25(3). – B. 7-9.
[3] Amul - 36,46961 kenglik va 52,35072 uzunlikda joylashgan shahar. U hozirgi Eron Islom Respublikasining Mozandaron viloyatida joylashgan tarixiy shahar. https://www.geodatos.net/en/coordinates/iran/amul

sohillariga qadar bo‘lgan hududlarda, Shimoliy Xitoyning Shamsiy viloyatida, Dunxuan[1] shahrida III–IV asrlarda ming xo‘jalikdan iborat sug‘d qishloqlari qad ko‘targan. Sug‘dlar IV–V asrlarda tarkib topgan va Turfondan Shimoliy Mo‘g‘ulistonga tomon ketgan uyg‘ur yo‘li, VIII asrda qaror topgan va Sharqiy Turkistondan Jung‘oriya orqali Xakasiyaga borib yetgan qirg‘iz yo‘lidan ham foydalanganlar. Bu yo‘llar ichida Dunxuandan shimoli-g‘arbga ketgan ipak yo‘li alohida ahamiyatga ega edi. Bu yo‘lning ahamiyati Xitoy hukumatiga Xan sulolasining hukmdori U-Di tomonidan Sharqiy Turkiston xunnlariga qarshi ittifoqchi izlab Qang‘uyga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi, saroy zobiti Chjan Syan orqali ma’lum bo‘lgan. Bungacha xitoyliklar G‘arbiy meridianal yo‘lidan foydalanishgan. Bu yo‘l orqali Xo‘tan[4.216] nefriti Xitoyning markaziy viloyatlariga miloddan avvalgi II mingyillikdan kela boshlagan edi. Nefrit savdosida yuechji qabila ittifoqi asosiy vositachi bo‘lgan. Xan sulolasi davrida ana shu nefrit savdo yo‘li orqali Sharqiy Turkistonga ko‘plab ipak matolari borardi. Xitoy bu yo‘lni iqtisodiy zaruriyat tufayli qo‘lga kiritishga harakat qildi. Biroq miloddan avvalgi 165-yilda bu yo‘l xunnlar qo‘liga o‘tdi. Ular bu yo‘l uchun kurashib yuechjilarni Xo‘tan[2], Turfon, Qashg‘ar vohasidan g‘arbga siqib chiqardilar. Xunnlar, hatto Shimoliy Xitoy yerlariga ham da’vogarlik qildilar. Natijada Xitoy o‘sha davrning qudratli davlatlaridan biri bo‘lgan Qang‘uyga yaqinlashishga majbur bo‘ldi. Xitoydan O‘rta Osiyoga arzon narxlardagi ipaklarni sug‘d savdogarlari olib kelishgan. Xususan, samarqandlik sug‘dlar xalqaro savdoda ustasi farang bo‘lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar xalq orasida eng nufuzli, obro‘li, mo‘tabar insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatni boy qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg‘or xo‘jalik ixtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo‘lganlar. Ayni vaqtda o‘zga mamlakatlarning urf-odatlari, kuchi va qudrati, hududiy joylashishi, tabiati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o‘ta hushyor davlat ayg‘oqchilari ham bo‘lganlar. Yozma manbalardagi ma’lumotlarga qaraganda III–VII asrlarda O‘rta Osiyo va O‘rta Sharq orqali o‘tgan «Ipak yo‘li»ning nazorati sug‘dlarning qo‘lida bo‘lgan bo‘lsa, VIII asr o‘rtalariga kelib, «Ipak yo‘li»ning g‘arbiy qismi arablar nazoratiga o‘tadi.

Ipak yo‘li deb atalishiga qaramay, bu yo‘l faqatgina ipak savdosining savdo yo‘li emas edi, balki o‘tmishdagi tog‘ tizmalari va cho‘llarni aylanib o‘tuvchi, tabiiy ofatlar va jangovar hududlarga moslashuvchi turli tovarlar tashiladigan yo‘llar tarmog‘i edi[3].

Ilk Xan sulolasining imperator saroyi tarixchisi Sima Sian o‘zining zamondoshi Chjan Syanning sayohatlari va topilmalarini o‘zining “Buyuk tarixchining yozuvlari” (Shiji) asarida qayd etgan[4]. Bundan tashqari, Sima Siandan qariyb bir asr keyin yozgan aka-uka tarixchilar Pan Gu va Ban Chjao o‘zlarining “Sobiq Xan sulolasi tarixi” (Xan Shu) asarida Chjan Syanning ekspeditsiyasini qayd etadilar[5].

Miloddan avvalgi 138-yilda Xitoy imperatori Xan U-Di yaqinda qudratli Xiongnu(Xunn) qabilalarigai qarshi kurashishga ittifoqchi (yuechjilar) qidirib topish uchun Chjan Syanni g‘arbga safar qilish topshirig‘iga binoan jo‘natgani haqida “Buyuk tarixchining yozuvlari” (Shiji) va “Sobiq Xan sulolasi tarixi” (Xan Shu) ham ma’lumotlar qayd etilgan. Xan Xitoyi va Yuechjilar bilan ittifoq tuzishga intilib, Chjan Syan “Longsidan yo'lga chiqdi” va “Xiongnu(Xunn) hududi bo‘ylab g‘arbga sayohat qildi”[6]. Xunnlar tomonidan o‘n yil davomida asirga olingan Chjan Syan

[1] Dunxuan — Xitoydagi qadimiy shahar, Gansu provinsiyasining chekka g‘arbida. Dunxuan 1-ming yillikda Xitoyni Janubiy va G‘arbiy Osiyo orqali Yevropa bilan bog‘laydigan Buyuk ipak yo‘lida muhim manzil bo‘lgan. To‘liqroq qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Д” ҳарфи. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 408.

[2] Xo‘tan — Xitoyning g‘arbiy qismidagi daryo, Tarim daryosining o‘ng irmog‘i. To‘liqroq qarang: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Х” ҳарфи. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б. 309.

[3] Valerie Hansen, The Silk Road: A New History. – New York: Oxford University Press, 2012. – P. 8-9.

[4] Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II, trans. Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 1961. – P. 231-233.

[5] Jonathan Tao. Heavenly Horses of Bactria: The Creation of the Silk Road. // Emory Journal of Asian Studies. 2019. – P. 13.

[6] Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II, trans. Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 1961. – P. 231-233.; Michael Loewe., Hulsewe A.F.P., China in Central Asia: The Early Stage: 125 BC-AD 23; An Annotated

qochishga muvaffaq bo‘ldi va yuechjilarga[1] davlatiga yetib oldi, faqat Xitoyning ittifoq tuzish haqidagi taklifiga rad javobi berildi[2].

Sima Sian ma’lumotlariga ko‘ra, Chjan Syanning Farg‘ona haqida quyidagicha ma’lumot beradi: “Ular hukmronlik qiladigan hudud boy va serhosil bo‘lib, bosqinchilardan yaxshi himoyalangan. Ular Xan davlatiga aloqa o‘rnatish uchun hududni juda uzoq deb hisoblashgan va Xiongnu (Xunn)ga hujum qilish niyatida bo‘lmagan”[3].

Shuningdek, Chjan Syan Xan imperatoriga hisobot berish maqsadida Daxia (Baqtriya) va atrofdagi noma’lum shohliklar haqidagi ko‘plab ma’lumotlarni olib qaytdi. U o‘z topilmalari haqida shunday yozadi: “Men Daxia shahrida Qiong (Chyungshan)dan bambuk qamishlar va Sichuan provinsiyasida tayyorlangan matolarni ko‘rdim. Mahsulotlarni qanday olganliklarini so‘raganimda, mahalliy aholi: ‘Bizning savdogarlarimiz ularni Shendu bozorlaridan sotib olishadi’ dedi. Shendu Daxiadan janubi-sharqda bir necha ming li[4] masofada joylashgan bo‘lib, aholisi yerga yaxshi ishlov beradi, mintaqa issiq va nam. Agar aholi jangga chiqsa, fillarga minadi. Shohlik katta daryo bo‘yida joylashgan[5]”. Olimlar shundan so‘ng Daxia va Shenduni mos ravishda Baqtriya va Hindiston deb topdilar[6].

Chjan Syanning kuzatishlari ikkita muhim ma’lumotni ochib berdi. Birinchidan, Chjan Syan sayohatlaridan oldin ham xitoylar va baqtriyaliklar o'rtasida tovar almashinuvi mavjud bo'lgan. Masalan, Hindiston orqali Xitoyning Qiong(Chyungshan) va Shu(Sichuan) viloyatlaridan bambuk qamish va matolar uzoq Baqtriyaga yetib kelgan. Ikkinchidan, Chjan Syanning Baqtriyada xitoy mollarini topib hayratga solishi, imperator Xan hukumati Xitoy va Hindiston o‘rtasida, Xitoy va Baqtriya o‘rtasidagi savdo hajmidan bexabar bo‘lganini ko‘rsatadi. Chjan Syanning Xan imperatoriga Hindiston orqali Baqtriyaga savdo yo‘lini belgilash uchun rasmiy ekspeditsiyaga buyruq berish to‘g‘risidagi taklifi ham buni yana bir bor tasdiqlaydi. Uning chet ellarda bo‘lganida qiziquvchanligi Markaziy Osiyoning Xitoy tovarlarini sotib olishga bo‘lgan qiziqishini yanada ochib berdi. Bundan tashqari, Chjan Syan ekspeditsiyasi Baqtriya bilan savdo qilishning rasmiy yo‘lini kashf etish orqali Xitoy va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirishda ajralmas birinchi qadam bo‘ldi.

Chjan Syan Xitoyning g‘arbiy qismidagi savdo-sotiqni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan bo‘lsa-da, rasmiy Ipak yo‘lining paydo bo‘lishiga Xan imperiyasining Chjan Syan topilmalari asosida harakat qilish qaroriga ta’sir etuvchi yana bir muhim omilni, ya’ni O‘rta Osiyoning samoviy otlarini e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Taniqli xitoyshunos olima Julia Lovellning ta’kidlashicha, iqtisodiy salohiyat Ipak yo‘lini yaratish va saqlab qolish uchun turtki bo‘lgan[7].

Chjan Syanning Baqtriya shimolidagi Dayuan(Dovon) haqidagi quyidagi xabari Buyuk ipak yo‘li iqtisodiy munosabatlaridagi asosiy tovarlardan biri otning nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etganligini ko‘rsatadi:

“Dayuan Xiongnu hududidan janubi-g‘arbda, Xitoydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri g‘arbda 10 000 li ga yaqin masofada joylashgan. Xalq yerga o‘rnashib, dala haydab, sholi, bug‘doy yetishtiradi.

Translation of Chapters 61 and 96 of the History of the Former Han Dynasty. // Sinica Leidensia Edidit Institutum Sinologicum Lugduno Batavum, Vol. 14. – Leiden: Brill, 1979. – P. 207-210.

[1] Bu yerda yuechjilar deb Qadimgi Farg‘ona ya’ni Dovon davlati aholisi nazarda tutilyapti.

[2] Michael Loewe., Hulsewe A.F.P., China in Central Asia: The Early Stage: 125 BC-AD 23; An Annotated Translation of Chapters 61 and 96 of the History of the Former Han Dynasty. // Sinica Leidensia Edidit Institutum Sinologicum Lugduno Batavum, Vol. 14. – Leiden: Brill, 1979. – P. 207-210.

[3] Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II, trans. Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 1961. – P. 232.

[4] Li (里) so‘zi Xitoyda an'anaviy bo‘lgan masofa o‘lchov birligi hisoblanadi. Miloddan avvalgi III asrgacha 1 li 300-360 qadamga, o‘rta asrlarda 576 metrga teng bo‘lgan. Hozir 500 m teng.

[5] Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II, trans. Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 1961. – P. 235-236.

[6] Xinru Liu. The Silk Road in World History. – New York: Oxford University Press, 2010. – P. 8.; Luce Boulnois. Silk Road: Monks, Warriors and Merchants, trans. Helen Loveday. – Geneva: Airphoto International Ltd., 2005. – P. 61-67.

[7] Julia Lovell. The Great Wall: China against the World, 1000 BC - AD 2000. – New York: Grove Press, 2006. – P. 74. – 432 p.

Ular uzumdan sharob ham tayyorlaydilar. Viloyatda ko‘plab go‘zal va baquvvat otlar bor, ulardan ter o‘rniga qon chiqadi; ularning ajdodlari samoviy otlardan bo‘lgan[1].”

Bunday ta’riflangan ot imperator U-Dini juda qiziqtirdi. Boshqa otlar bilan solishtirganda, ularning chidamliligi va kattaligidan hayratda qolgan U-Di ularga “samoviy otlar” (yánín) unvonini berdi. Xan Xitoyi va O‘rta Osiyo o‘rtasidagi ko‘plab o‘zaro aloqalarda Xan imperiyasi O‘rta Osiyoning kuchli ot zotlarini qadrlashi hamda o‘zaro savdoda otning miqdorini oshirish istagini bildiradi. Misol uchun, Dayuan(Dovon) otlarini qabul qilgandan so‘ng, imperator ularni sotib olish uchun o‘sha mintaqaga doimiy elchilar oqimini yuborgan .

V. Firsovning “Turkiston va Turkiston ot zotlari” nomli asarida Turkiston o‘lkasining mahalliy aholisi ularning otlari dunyoda tengsiz ekanligi bilan bog‘liq antik muarrixlarning fikrlarni bayon qilgach, qadimgi xitoyliklarning Tibet janubiy-g‘arbidagi aholining dunyoda tengsiz otlarga ega bo‘lganligi xususidagi yozma ma’lumotlari yana bir bor tasdiqlaydi[2].

Qadimgi Xitoy uchun otlarning nechog‘lik ahamiyati ularning qo‘shni davlatlar bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarida namoyon bo‘ladi. Xususan, O‘rta Osiyodagi Usun qabilasi Xan Xitoyiga nikoh ittifoqi tuzishni taklif qilganda, xitoyliklar 1000 ta ot sovg‘a qilishni so‘radilar . Bundan tashqari, Dayuan shohi Ershida o'z mamlakatining eng yaxshi otlarini yashirayotgani aniqlanganda, imperator U-Di savdolashish uchun elchilar karvonini yubordi. Dayuan podshosi buni rad etdi va elchilarni qatl qilishni buyurdi. Bunga javoban imperator general Li Guanglini Ershini qamal qilishga yuboradi. Dastlabki jangdagi mag‘lubiyat Imperator U-Dini jahlini chiqardi hamda ikkinchi jangda muvaffaqiyat qozonishni ta'minlash uchun Li Guangliga yordam uchun kattaroq qo‘shin yubordi. U-Di qo‘shinga shuningdek, “otlarni tanlashda mohir ” bo‘lgan shaxslarni ham qo‘shib yubordi. Xanlarning g‘alabadan keyin 3000 ta eng zo‘r otlarni tovon sifatida oldilar.

Dayuanga qarshi urush otlarning nafaqat Buyuk ipak yo‘lidagi xalqaro savdogagi o‘rnini, balki ot savdosi siyosiy ahamiyat kasb etganligini ham isbotlaydi. Chunki Dayuanning samoviy otlarni Xitoyga sotishdan bosh tortishi urushning asosiy sababi ekanligi hamda yuborilgan qo‘shin tarkibida otlarning sifatini baholash uchun maxsus tanlangan kishilarning qo‘shib yuborilishi, tinchlik faqat Dayuan qirolining o‘ldirilishi va sulh sifatida oltin, kumush va boshqa boyliklar emas, faqatgina, 3000 ta samoviy ot belgilanishi, otlar evaziga tinchlik berish taklifini qabul qilib, Ershini tark etishi Buyuk ipak yo‘lining sharqiy tarmog‘ida eng asosiy tovar bu - ot ekanligining isboti bo‘ladi. Ehtimol, Xan elchilarining o‘ldirilishi va Dayuan shohining o‘limi faqat jangovar harakatlar boshlash uchun bahona bo‘lgan. Lekin, o‘lpon, savdo mahsuloti yoki sovg‘a shaklida bo‘lsin, otlar Xitoyning O‘rta Osiyo bilan o‘zaro munosabatlarida markaziy rol o‘ynagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Ashirova N.X. Buyuk ipak yo‘lining Markaziy Osiyo shaharlaridagi taraqqiyot yo‘li. // Journal of New Century Innovations, 2023. № 25(3). – B. 7-9.
2. Ikromov N.M. Fayziyev A.A. Heavenly horses of Turkestan in historical sources. // «Научный импульс». № 14, часть 1. 2023. – С. 115-119.
3. Jonathan Tao. Heavenly Horses of Bactria: The Creation of the Silk Road. // Emory Journal of Asian Studies. 2019. – P. 1-24.
4. Julia Lovell. The Great Wall: China against the World, 1000 BC - AD 2000. – New York: Grove Press, 2006. – 432 p.
5. Luce Boulnois. Silk Road: Monks, Warriors and Merchants, trans. Helen Loveday. – Geneva: Airphoto International Ltd., 2005. – 574 p.
6. Michael Loewe., Hulsewe A.F.P., China in Central Asia: The Early Stage: 125 BC-AD 23; An Annotated Translation of Chapters 61 and 96 of the History of the Former Han Dynasty. // Sinica Leidensia Edidit Institutum Sinologicum Lugduno Batavum, Vol. 14. – Leiden: Brill, 1979. – 273 p.

[1] Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II, trans. Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 1961. – P. 233.
[2] Ikromov N.M. Fayziyev A.A. Heavenly horses of Turkestan in historical sources. // «Научный импульс». № 14, часть 1. 2023. – С. 115-119.

7. Sima Qian. Records of the Grand Historian: Han Dynasty II, trans. Burton Watson. – New York: Columbia University Press, 1961. – 522 p.
8. Valerie Hansen, The Silk Road: A New History. – New York: Oxford University Press, 2012. – 320 p.
9. Xinru Liu. The Silk Road in World History. – New York: Oxford University Press, 2010. – 168 p.
10. Ся Ш., Халмакшинова С.Р. Концепция Шёлкового пути в XIX - первой половине XX века. // Международный научно-исследовательский журнал, 2021. № 8 (3). – С. 187-191.
11. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Д” ҳарфи. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000. – 441 б.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Х” ҳарфи. Биринчи жилд. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2000. – 309 б.

"NEMIS MUHOJIRLARINING TURKISTONDAGI HAYOTI: BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (КНАУЭР Н.Х. «НЕМЦЫ ДРЕВНЕГО КРАЯ» MANBASI ASOSIDA)"

Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
Boltayev Oxun Obid o’g’li
email:9690798@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1914–1916-yillar davomida Turkiston o‘lkasida ro‘y bergan demografik siljishlar, xususan, nemislar va boshqa yevropalik muhojirlarning ko‘chirilishi, ularning yashash sharoiti va bu jarayonlarning mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy holatiga ta’siri tahlil etiladi. Birinchi jahon urushi davrida harbiy asirlar, deportatsiya qilingan aholining ommaviy ravishda Turkistonga yuborilishi o‘lkada iqtisodiy tanglik, epidemiya, ijtimoiy beqarorlik va inqirozli holatlarning kuchayishiga olib kelgani hujjatlar asosida yoritilgan. Shu bilan birga, maqolada nemis muhojirlarining joylashtirilishi, ularga nisbatan mahalliy aholining munosabati, sanitariya sharoitlari va davlat siyosatining ayrim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so’zlar: Turkiston, nemis muhojirlari, deportatsiya, harbiy asirlar, qochqinlar, 1914–1916-yillar, epidemiyalar, ijtimoiy tanglik, Birinchi jahon urushi, Tashkent, kolonistlar, Sirdaryo, Farg‘ona, Samarkand, sanitariya.

Nemislar — Rossiya poddaniklari, asosan Orolbo‘yi (Ostziya) guberniyalaridan harbiy xizmatchilar bo‘lib, Orenburg, G‘arbiy-Sibir, Kavkaz batalonlari tarkibida harbiy yurishlarda qatnashganlar va turli boshqarmalarning xodimlari sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonga kelishgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, rus nemislarining kichik bir qismi XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida ko‘chmanchilar tomonidan Volga yaqinidagi nemis koloniyalariga qilingan bosqinlardan so‘ng Xiva, Buxoro va Markaziy Osiyodagi boshqa shaharlardagi qullik bozorlariga tushgan. Taxminan shu davrlarda nemislar — Germaniya va boshqa Yevropa davlatlarining poddaniklari ham paydo bo‘la boshlagan. Masalan, Toshkentda 1869 yilda uchta Prussiya va bitta Saks poddanik nemis yashagan, 1877 yilda esa 17 nafar Germaniya davlatlarining poddaniklari ro‘yxatga olingan, 1909 yilda esa Germaniya poddaniklari orasida 24 nafar savdogar va tadbirkor, Avstriya poddaniklari orasida esa 30 dan ortiq musiqachilar bo‘lgan. Mintaqaning yuqori rahbariyatida nemis kelib chiqishiga ega shaxslarning bo‘lishi albatta bu jarayonga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan (general-gubernatorlar: K.P. fon Kaufman, N.O. fon Rozenbax, F.V. Martson, general-gubernator yordamchisi V.E. Flug mintaqa boshliqlari sonining taxminan to‘rtdan birini tashkil qilgan va boshqaruv yillari umumiy boshqaruv davrining yarmidan ko‘prog‘ini (23 yil — 50 yillik boshqaruvdan oldin 1917 yilgacha) tashkil etgan). Biroq so‘nggi yillardagi ba’zi nashrlarda qayd etilgandek, nemislarning ko‘chishi uchun «ustunlik» haqida yoki tarixning hech qanday davri uchun gapirish noto‘g‘ri hisoblanadi.

XIX asrning 80-yillarida, ayniqsa K.P. fon Kaufman davrida boshlangan, ayniqsa hosildorligi past va ocharchilik yillarida rus imperiyasi hukumatining «ishonchli elementlar» bilan mintaqani aholilash strategiyasi doirasida o‘tkazilgan nemis dehqonlarining ko‘chishi to‘lqinlar

shaklida, o‘z-o‘zidan kechib, markaziy organlarning cheklov qarorlariga qaramasdan amalga oshgan (ularda faqat «asl rus kelib chiqishi, pravoslav diniga mansub shaxslar ko‘chirilishi mumkinligi» ta’kidlangan). Hududdagi nemis aholisi orasida jamiyatning barcha ijtimoiy qatlamlari vakillari bo‘lgan: harbiy unvon egalari, tadbirkorlar, do‘konlar, magazinlar, dorixonalar, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari egalari, savdogarlar, muassasalarda xizmatchilar, o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari, yuristlar, chop etish uylari, pochta, temir yo‘l, telegraf, sug‘orish inshootlari ishchilari, hunarmandlar va eng ko‘pi — dehqonlar. O‘zlarining dastlabki qiyinchiliklariga qaramay, ular hududda yevropa turmush tarzining tashuvchilari bo‘lib, odatda o‘z kasbiy majburiyatlariga juda vijdonan yondashgan, mintaqaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan, qonunlarga itoatkor va halol jamiyat a’zolari bo‘lishgan. Nemis dehqonlari o‘z etnik va diniy ajralib turishini qat’iyan saqlagan, til va kundalik madaniyatni asrab kelgan. Ularning holati juda qiyin bo‘lgan, yer yetishmasligi, mahalliy madaniyatning agrartexnologiyasi bilan tanishmaslik kabi muammolar yuzaga kelgan.

“XIX asr oxirida 20 yil ichida taxminan 500 nemis dehqon oilasi kelgan.” “Ammo ularning bir qismi yer yetishmasligi, harbiy xizmatni bajarish istamasligi kabi qiyinchiliklarga duch kelib, shaharlarga tarqala boshlagan, hunarmandchilik bilan shug‘ullangan, orqaga qaytgan yoki Amerikaga va Kanadaga ketgan.” Qiyinchiliklar va noqulayliklarni yengib o‘tib, nemis dehqonlari yangi iqlim sharoitlariga, yashash sharoitlariga, mahalliy va yangi mintaqa uchun noyob qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishga moslashishda tez muvaffaqiyatga erishdilar. Ular qishloq xo‘jalik va sanoat ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtirib, xo‘jaliklarini ancha yuqori darajaga ko‘tarib, nisbatan boy qatlamni tashkil etdilar. Nemis oilalarining farovonligini ta’kidlab, A.I. Soljenitsin ularning asosiy xususiyatini qayd etgan: “Barcha orasida ayniqsa mehnatkash bo‘lganlar nemislar edi “tejamkor va charchamas, yerda shunday cho‘l borki, nemislar uni gullagan o‘lkaga aylantira olmasdi, eski Rossiyada aytilardi: nemis — bu qorag‘ochdek, qayerga ekilsa, o‘sha yerda o‘sadi.” Nemislarning har bir qishlog‘ida ibodatxona, kutubxona va yaxshi jihozlangan cherkov-maktab bor edi. Shaharlarda esa aholining tarqalgan joylashuvi milliy madaniy an’analar asta-sekin yo‘qolishiga, nemis tilining zaiflashishiga olib keldi, biroq milliy turmush tarzini va oila qoidalarini saqlashga intilish hali ham kuchli edi, bunda diniy e’tiqod katta yordam berdi. Mintaqaning nemis aholisi orasida asosan lyuteran-yevangelik e’tiqodiga amal qiluvchilar bo‘lgan, shuningdek katoliklar, pravoslavlar, islohatchilar, kech baptistlar, yetinchi kun advendistlari ham bor edi; dehqonlar orasida esa ko‘pchilik menonitlar edi.

Nemislar — shahar va qishloq aholisi, ko‘plab tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, o‘sha davrda mintaqa aholisining eng bilimdon qatlami hisoblangan. 1914 yilga kelib, Turkistonda 9 million mahalliy aholi va 500 mingdan ortiq “kelganlar” yashagan, ulardan 21 ming nafari yevropalik kelib chiqqanlar edi. Ulardan 11 ming kishi harbiy xizmat uchun Turkistonga yo‘naltirilgan, qolganlari — rossiyalik va xorijlik yevropaliklar — o‘z tashabbuslari bilan mintaqaga kelgan (9000–10000 polshalik, 8–8500 nemis, 1200–1500 pribaltlar, 600–700 yunon, 120–140 moldovalik, 80–100 Fransiya va Shveytsariyadan kelganlar, 50–60 skandinavlar, 60–70 italyanlar, 50–60 inglizlar, 20–25 belgiya, 20 yugoslavlar). Mintaqada joylashgan yevropaliklardan nemislar Sirdaryo viloyatida taxminan 7600 kishi bo‘lgan, ulardan 4200 nafari Toshkentda; Ashxobodda — 586, Mervda — 96, Krasnovodskda — 24, Samarqandda — 378, Chardjouda — 118, Kerki — 107, Farg‘onada — 98 kishi.

Ular nemislarning umumiy sonidan 0,26 % ni tashkil qilgan, mintaqa aholisi tarkibidagi nisbiy ulushi esa 0,1 % dan kam edi. 1914 yil iyuldan, Birinchi jahon urushi boshidan Turkistonda yangi nemis guruhlari paydo bo‘la boshladi: Germaniya va Avstro-Vengriya armiyalarining urush mahbuslari, front yaqinidan ko‘chirib kelinganlar va qochqinlar. Harbiy idoraning tashabbusi bilan “urush holatidagi barcha hududlardan” nemislar va boshqa xalqlar birinchi deportatsiyasi amalga oshirildi. 1914–1916 yillarda taxminan 200 ming nemis deportatsiya qilindi, ular “dushman kelib chiqqanlar” sifatida qaralgan, jumladan 1915 yil 27 aprelidan boshlab 150 ming volinlik nemis deportatsiya qilindi, taxminan 500 volinlik koloniya tugatildi, deportatsiya qilingan volinliklarning bir qismi Markaziy Osiyoga yuborildi. Nemislarning Turkistonga migratsiyasi tinch iqtisodiy xarakterni yo‘qotdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:
1. ЦГА РУз. Ф. И-461. Оп. 1. Д. 1747. Л. 6. 9 ТВ. 1915. 22 декабря;
2. ЦГА РУз. Ф. И-461. Оп. 1. Д. 1747. Л. 5об, 71; «Ферганская жизнь». 1916. 2 января.
3. Никольская Г.Б., Матвеев А.М. Из истории азиатских и европейских выходцев в Средней Азии // Научные труды ТашГУ. Ташкент. 1972. С. 77 — 78; Обзор Сырдарьинской области за 1912 год. Ташкент. 1914. С. 6; Кригер В. Рейн. Волга. Иртыш. Алматы. 2006.
4. История народов Узбекской ССР. Т. 2. Ташкент. 1947. С. 350.
5. Boltayev, O. (2024). XX ASR BOSHLARIDA GERMANIYA VA TURKIYA ITTIFOQINING MARKAZIY OSIYOGA TA'SIRI. *Modern Science and Research*, *3*(12), 556-564.
6. Boltayev, O. (2023). A GENERAL DESCRIPTION OF THE POLITICAL AND DIPLOMATIC PROCESSES IN CENTRAL ASIA IN THE MIDDLE OF THE 18TH CENTURY. *Modern Science and Research*, *2*(9), 145-149.

BUXORO AMIRLIGI TARIXIGA OID ASARLARDA AMIR MUZAFFAR SHAXSIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Rahmatilloyev Nusratillo Hikmatillo o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Buxoro amirligini turli yillarda boshqargan amirlarga nisbatan tarixiy manbalarda turlicha ta’riflar va fikrlar berilgan bo‘lib, ularda amirlarning kundalik hayoti, davlat boshqaruvi sohasida olib borgan islohotlari, mamlakatni boshqarishda yo‘l qo‘ygan bir qator xato va kamchiliklari ba’zan xolisona, ba’zan biroz noto‘g‘ri usulda talqin etilgan. Shuning uchun, quyidagi maqolada Buxoro amirligini eng murakkab davrlardan birida, ya’ni, Chor Rossiyasining amirlikka uyushtirgan harbiy yurishlari davomida boshqargan amirlardan biri – Amir Muzaffarxonning siyrati va surati haqida bo’lib, ushbu shaxs haqida turli manbalardagi muhokamalarga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Mirzo Abdul Azim as-Somiy, V.Krestovskiy, Buyuk Britaniya qirolichasi Viktoriya, Karmana, Mir Sayyid Ahadxon.

Qo‘qon xonligining tarixini yoritishda muhim manbalardan biri – bu shubhasiz Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiyning “Tarixi jahonnamoyi” asari hisoblanadi. Bunda muallif o‘zi yashagan davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalar haqida muhim ma’lumotlar beradi. Jumladan, adib Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoga uyushtirgan harbiy yurishlarining tafsilotlari juda ishonarli tarzda yoritilgan. Mazkur asarning oxirgi bobi kitobning xotimasi sifatida tayyorlanib, unda Xudoyorxon va amir Muzaffar haqida bir qancha ma’lumotlar beriladi. Bu bobning nomi: xon hazratlari Xudoyorxon valine’mat hamda “zafar ko‘rmagan Buxoro podshohi amir Muzaffar haqida va uning davrida yuz bergan voqealar” deb atalgan. Bu o‘rinda amirni g‘alabaga erishmagan podshoh sifatida ta’riflanganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Rossiya imperiyasi bilan shiddatli va qonli janglar olib borilayotgan bir paytda, Qo‘qon xonligi qo‘shinlarining tang ahvolga tushib qolishi fonida mamlakat Buxoro amirligidan yordam so‘rashga majbur bo‘ladi. Ushbu holat asarda quyidagicha tasvirlanadi va buning oqibatida amir Muzaffarxon shaxsiyatiga oid ba’zi jihatlar ham keltirib o‘tiladi: “Noiloj, yordam uchun ul xezalaklarning boshlig‘i, xotinlar shohining yasan-tusan qilgan vakili, zamonning erkaklarini o‘ldirib, urg‘ochisini parvarish qiluvchi, moyakdor xotin, oy yurishli g‘ozador, kir yuvguchi sovun bibisi, qorni katta sassiq hidli, tubanlikda o‘sgantikan, pastkashlikning Xudo urgani, zafarsiz shoh Muzaffar, ya’ni, xatarga kon kulfatzada, darbadarlikda kekkayib kekirgan” degan o‘ta salbiy ma’nodagi ta’riflar keltiriladi. Asarning yana bir qismida 1866-yilning bahor oylarida amir Muzaffarning Qo‘qonga yurishi chog‘amir shaxsiyatiga shunday ta’riflar keltiriladi shunday tasvirlanadi: “Bu voqealar asnosida Buxoro podshohi bo‘lmish pastkash tab’li silliq kurra, saxiy sifatli baxil, ko‘zi ochiq ko‘r, zafarsiz amir Muzaffar…, nomard xezalak, gavdasi salobatiga nomunosib obro‘ egasi…”.

Yana bir tarixiy manbada aytilishi-cha, Mirzo Abdul Azim as-Somiy amirni “fazilatli ishlarni amalga oshirgan va yaxshi xulq ko‘rsatgan deb baholasa, Ahmad Donish uni “tug‘ma nodon va tor fikrli”, “aqlsiz va qonxo‘r”, “buzuq va zolim” deya ta’rif etgani haqida ma’lumot beriladi.

1883-yilda amir Muzaffar bilan shaxsan uchrashgan Rossiya imperiyasi harbiy xodimi V.Krestovskiy o‘z xotiralarida amir Muzaffarni shunday tasvir etadi: “Amirning chehrasida ilgari bo‘lgan go‘zallikdan hali ham izlar bor edi…Uning qora mo‘ylovi va qisqa soqoli, nozik qoshlari, katta qora ko‘zlari bor edi. Uning chehrasi suhbatdoshida yoqimli taassurot uyg‘otishi haqida ma’lumotlar bor. Tarixdan bu amirning oila a’zolari turli hududlarda yashaganligi ayon. masalan, uning Toshkentda yashagan jiyanlaridan biri Mir Sayyid Ahadxon rus millatiga mansub shaxslardan biri bilan suhbati davomida amirni “ ayollar go‘zalligiga juda qiziqqan” bo‘lganligini aytib o‘tgan ekan.

Internet ma’lumotlarida Amir Muzaffar Alisher Navoiy ijodiga juda katta mehr bilan munosabatda bo‘lib, 1872-yilda Alisher Navoiy qalamiga mansub devonning qo‘lyozma nusxasini Buyuk Britaniya qirolichasi Viktoriyaga sovg‘a qilganligi haqida yoziladi. Bundan shu narsa ayonki, amir ba’zi tarixchilar ta’riflaganidek salbiy xarakterga ega bo‘lmagan, balki u mashhur shoirlar ijodiga qiziqib turgan.

Yana bir tarixiy manbada aytilishi-cha, amir Muzaffar nazmni nihoyatda xush ko‘rgan, adabiyot ahlini qadrlagan, umr yillari davomida qo‘lidan kelgancha aholining ziyoli va she’riyatga oshufta qismini o‘z atrofida to‘plagan. Amir Buxoro va Karmanadagi saroy va chorbog‘larida nazmiy kechalar uyushtirib turgan. Bu kechalarda bahru-bayt, ya’ni, nazmiy musoboqalar ham uyushtirilib turilgan. Ahmad Donish bunday kechalarni “ashula va raqs” yig‘inlari deb ataydi va amirni “ichkilik, bazmu jamshid, buzuqlik va shahvoniy nafsga berilgan deya ta’rif etadi.

Umuman olganda, amirning hukmronlik yillari qanday kechganligidan qat’iy nazar, u Buxoro amirligi va butunjahon mamlakatlari tarixida ma’lum ma’noda o‘z o‘rniga ega hukmdor sanaladi hamda u haqidagi tarixiy asarlarda keltirilgan fikrlar xoh ijobiy, xoh salbiy bo‘lsin, bu amirning mamlakat oldida qilgan xizmatlariga soya sololmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy, “Tarixi jahonnamoyi”, Toshkent-2012.
2. Kumushxon Sultonova “Amir Muzaffar faoliyati”, New Renessainse”
3. Sherxon QORAYEV “BUXORO HUKMDORI AMIR MUZAFFARNING ADABIY MAJLISLARI (Ahmad Donishning "Risola yoxud Mang'itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi" kitobi ma'lumotlari asosida)”, 30.09.2024.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi materiallari
5. Internet saytlari

MADINADAGI HARAM HUDUDI: TARIXIY, DINIY VA MADANIY TAHLIL

Umedaxon.Sh.Soxibova
BuxDu doktoranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Madinai Munavvaradagi Haram hududining shakllanish tarixi, chegaralari, diniy va ma’naviy ahamiyati, shuningdek, uning zamonaviy holati hamda islom ummati uchun tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot Qur’on oyatlari, hadislar, islom manbalari, tarixiy yozuvlar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga tayanadi.

Kalit so‘zlar: Madinai Munavvara, Haram hududi, Masjidun Nabaviy, Ravzai Sharif, Payg‘ambar (s.a.v.), islom tarixi, diniy meros.

Madinai Munavvara — Islom tarixining eng muhim markazlaridan biri bo‘lib, u Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hijrat qilgan joyi, dastlabki musulmon jamoasi shakllangan makon va islom davlatining ilk poydevori sanaladi. Ushbu shahar Allohning amri bilan “Haram” ya’ni muqaddas, tinchlik va omonlik maskani sifatida e’lon qilingan.

Haram so‘zi arabcha “ ”حرامildizidan olingan bo‘lib, “taqiqlangan”, “hurmatli” yoki “muqaddas” ma’nolarini bildiradi. Demak, Haram hududi — Alloh tomonidan belgilangan muqaddas joy bo‘lib, unda ayrim dunyoviy ishlar, masalan, jonzot o‘ldirish, daraxt kesish yoki urush qilish taqiqlanadi.

Rasulullоh (s.a.v.) hadislarida shunday marhamat qilganlar: “Ibrohim (a.s.) Makkani haram qilganidek, men ham Madinani haram qildim. Bu yerda daraxt kesilmaydi, qurol ko‘tarilmaydi.”(Imom Buxoriy)

Madinaning muqaddasligi nafaqat diniy jihatdan, balki insoniyat tarixidagi tinchlik, iymon va ma’naviy uyg‘onish markazi sifatida ham beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Haram hududining paydo bo‘lishi, geografik chegaralari, tarixiy o‘zgarishlari, hamda zamonaviy holati ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Haram hududining paydo bo‘lishi

Rasulullоh (s.a.v.) Madinaga hijrat qilganlaridan so‘ng, bu joyni Allohning amri bilan “Haram” deb e’lon qilganlar. Bu voqea islom tarixida muhim burilish nuqtasini tashkil etadi, chunki Madina shu vaqtdan boshlab faqat siyosiy markaz emas, balki ruhiy markazga aylandi.
Hadislarda ta’kidlanishicha, Payg‘ambar (s.a.v.) Madinaning atrofini muborak "Haram” deb e’lon qilib, uning chegaralarini belgilab chiqqanlar. Ahmad rivoyati: "Men Madinaning oraliqlarini haram qildim. Undan hech qanday o‘simlik yulib olinmasin, uning daraxtlari kesilmasin, uning hayvonlari ovlanmasin.

"Navaviy aytadi:"Oraliqlari" deganda Sharqdan Sharqiy Lava maydoni, G‘arbdan G‘arbiy Lava maydoni, shimoldan va janubdan esa tog‘lar kiradi."Oraliqlar" degani: Ikkita lava maydoni va oraliqlarini anglatadi. Madina uylari ham lava maydonlarida joylashgan, tog‘lar esa shaharning chegarasini belgilaydi. Madina oraliqlari ham shunday . Savr va Ayr tog‘lar janubiy va shimoliy yo‘nalishda, Lava maydonlari esa sharq va g‘arbda joylashgan.
Bu chegaralar quyidagilardan iborat:
Janub tomoni – zulxulayfa (hozirgi Abor Ali yaqinidagi joy),
Shimol tomoni – Ayr tog‘igacha,masjidi
Sharq tomoni – Vodiya vohasi,
G‘arb tomoni – Aqiq vodiysigacha
Haramning diniy maqomi

Hadislarda Madinaning afzalligi haqida ko‘plab rivoyatlar keltirilgan. Rasulullоh (s.a.v.) marhamat qilganlar:“Kim Madinada sabr qilsa, men unga qiyomat kuni shafoat qilaman.”
(Imom Muslim rivoyati). “Madinaning changi ham shifo, uning tuprog‘ida baraka bor.”(Termiziyning rivoyati)

Bu hadislar Madinai Munavvaraning ruhiy-ma’naviy ahamiyatini yanada oshiradi. Masjidun Nabaviy va Ravzai Sharif

Haram hududining markazida Masjidun Nabaviy joylashgan bo‘lib, u 622-yilda Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan qurilgan. Keyinchalik u bir necha bor kengaytirildi: xalifa Umar (r.a.), Usmon (r.a.), va Abbosiylar davrida, shuningdek, Saudiya Arabistoni qirollari tomonidan katta rekonstruksiya ishlari olib borilgan.

Masjid ichidagi Ravzai Sharif — Payg‘ambar (s.a.v.)ning qabrlari joylashgan joy bo‘lib, u “jannat bog‘chasidan bir bog‘cha” deb atalgan. Bu joyda o‘qilgan ibodatlar, qilingan duo va istig‘forning savobi boshqa joylardagidan ko‘proq bo‘lishi haqida sahih hadislar mavjud. Bugungi kunda “Ravzai mutohhara” Madinadagi Payg’ambar alayhissalom masjidlari, ya’ni Masjidun Nabaviyning ajralmas qismi bo’lib, ziyoratchilar bilan doim gavjum.

Payg’ambar alayhissalom va U zotning ikki sahobasining qabrlari eshik va derazasiz bir nechta devorlar bilan o’ralgan, shuning uchun u erga hech kim to’g’ridan-to’g’ri kirish imkoniga ega emasPayg'ambar alayhissalomning qabri Masjidun Nabaviyning janubi-sharqiy qismida joylashgan. Uning shimoliy va janubiy tomonlari 16 metr, g'arbiy va sharqiy tomonlari esa 15 metr.

Ravzai mutohhara atrofidagi ilk devorlar hijriy 678 yilda Zohir Baybars tomonidan qurilgan. Ular yog'ochdan yasalgan va balandligi 3 metr edi. Hijriy 886 (milodiy 1481) yili

Payg'ambar alayhissalom masjidida kuchli yong'in chiqadi va yog'och inshootlar vayron bo'ladi. Keyin Sulton Ashraf Kaytbay bu devorlarni bugungi kungacha saqlanib qolgan, biz ko'rib turgan panjaralar bilan almashtiradi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak qabrining bir nechta eshiklari bor:

1. Bobi Tahajjud – Ravzaning shimoliy qismida joylashgan. Muhammad payg'ambar sollallohu alayhi vasallam tahajjud namozini o'qigan mehrob;
2. Bobi Tavba – Ravzaning janubiy qismida joylashgan;
3. Bobi Oisha yoki Bobi Vufud – Ravzaning g'arbiy qismida joylashgan. Payg'ambar alayhissalom Madinaga kelgan qabilalar va elchilarni qabul qiladigan joyni belgilovchi ustun yonida joylashgan.
4. Bobi Fotima – qabrning sharqiy qismidagi Fotima roziyallohu anho uyi tomon olib boruvchi eshik. Bu eshik qabr o'ralgan binoning ichki qismiga kirishingiz mumkin bo'lgan yagona eshikdir. Kirish uchun faqat Saudiya Arabistoni hukumatining ruxsati bilan mumkin

Qabrning sharqiy tomonida “Salomlashish joyi” deb nomlangan oltin panjarali devor joylashgan. Bu erda ziyoratchilar devordagi maxsus teshiklar orqali ichkari ko'rinmasada nazar tashlab, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam va u zotning sahobalariga salom berishlari mumkin.

O'rtada keluvchi aylana va kattaroq teshik ortida Muhammad sollallohu alayhi vasallam qabri, undan keyingi ikki aylana teshik Abu Bakr roziyallohu anhu va Umar roziyallohu anhu qabrlarini bildiradi. Birinchi teshik va qolgan ikkita teshik o'rtasida Bobi Oisha, ya'ni Oisha onamiz o'z uylariga kirib-chiqib yurgan eshik o'rni joylashgan.Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak qabrlari 2 qismga bo'lingan:Tashqi qismi: Fotima roziyallohu anhoning uyi joylashgan joy bilan qabrning tashqi devori orasidagi bo'shliq.

Bu joyga faqat yuqori martabali amaldorlar va masjid xodimlari kirishi mumkin, ular bu devorga o'rnatilgan peshtaxtani almashtiradilar, tozalash ishlarini olib boradilar. Va shu joydan ichkariroqqa hech kim kira olmaydilar.

Ichkari tomon – Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam va u zotning sahobalarining qabrlari joylashgan joy.

Mazkur joy Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning xotini Oisha roziyallohu anhoning xonadonlari bo'lib, bu muqaddas xona ketma-ket uchta devor bilan o'ralgan.

Birinchi devor Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hayotlik chog'larida, Madinaga ko'chib kelganlaridan ko'p o'tmay qurilgan. U 91 hijriy yili Umar ibn Abdulaziz tomonidan Ka'ba qurilgan toshlarga o'xshash toshlar yordamida qayta qurilgan

Beshburchak shakldagi ikkinchi devor ham Umar ibn Abdulaziz tomonidan qurilgan. Nega to'rtburchak emas, noodatiy beshburchak shaklida qurilgan deyilsa, bu erni Muqaddas Ka'baga o'xshatib qo'ymaslik va uni mo'minlarning sajdagohiga aylantirmaslik uchun shunday qilingan. Beshburchak devor atrofidagi peshtoqli uchinchi devor hijriy 886 yilda qurilgan. Aynan shu devorni ziyoratchilar panjaradagi aylana 3 ta teshik orqali ko'rishlari mumkin. Ravzai mutohharaning ichki qismida, ya'ni birinchi devorida mutlaqo eshik va deraza yo'q. Hech kim unga kirish huquqiga ega emas.Qabrning bu qismiga kirib, Payg'ambar alayhissalom va u zotning sahobalarining qabrlarini 540 yil oldin o'z ko'zlari bilan ko'rgan oxirgi odam Masjidi Nabaviyda sodir bo'lgan kuchli yong'indan keyin tozalash ishlari bilan shug'ullangan olim Ali ibn Ahmad Samhudiy edi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, Haram hududi faqat diniy ahamiyatga ega bo‘lmay, balki u musulmonlar uchun ruhiy markaz, ma’naviyat maktabi hamdir.

Madinaga kirgan har bir musulmon o‘z qalbida tinchlik, Allohga yaqinlik va iymon kuchini his etadi. Bu holat Qur’on oyatlarida ham ifodalangan: “Albatta, bu shaharni (haramni) tinchlik, omonlik maskani qildik.”

(Qur’on, Ankabut surasi, 67-oyat. Taqiqlangan amallar

Islom huquqiga ko‘ra, Haram hududida quyidagi amallar qat’iyan man etilgan:

Daraxt kesish, o‘simliklarni yo‘qotish;

Qurol ko‘tarish yoki urushish;

Ov qilish yoki jonzotlarga zarar yetkazish.

Bu taqiqlar Allohning tinchlik va muqaddaslikka chaqiruvchi amrining ramzi sifatida qabul qilinadi.

Rasulullоh (s.a.v.) Madinaning atrofini muqaddas deb e'lon qildilar. Uning har qanday qismidan biron daraxtni kesish, o‘lja olish mumkin emas, faqat zarurat uchun — tuya yemi uchun. Sahih hadislarda keladi: — Albatta, Ibrohim (a.s.) Makkani haram qildi va men Madinani haram qildim. Uning daraxtlari kesilmaydi, yovvoyi hayvonlari ovlanmaydi, uning butalari buzilmaydi. U yerdan daraxt kesish mumkin emas, faqatgina bitta kishi tuyasining ehtiyoji uchun (ya'ni, tuya yeydigan) narsalarni olib ketishi mumkin. Unda jang uchun qurol olib yurish ham mumkin emas. Bugungi kunda Saudiya Arabistoni hukumati Madinadagi Haram hududini zamonaviy infratuzilma bilan ta’minlagan. Masjidun Nabaviy atrofida millionlab haj va umra ziyoratchilarini qabul qila oladigan hajxonalar, zamonaviy sovutish tizimlari, sun’iy soyabonlar o‘rnatilgan. Shunga qaramay, bu joyning muqaddaslik maqomi o‘zgarmagan — har bir metr joyi Qur’on va Sunnat bilan himoyalangan.

Xulosa

Madinaning Madinadagi Haram hududi — islom tarixining yuragi, musulmon ummatining iymon va muhabbat markazidir. U Allohning amri va Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning duolari bilan haram qilingan muqaddas hudud bo‘lib, bu joyda tinchlik, adolat va iymon qadri ulug‘lanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. Haram hududining tarixiy chegaralari Rasulullоh (s.a.v.) tomonidan belgilangan va bugungi kungacha saqlanib qolgan.
2. Madinaning ma’naviy maqomi uni musulmonlar uchun ikkinchi eng muqaddas joyga aylantirgan.
3. Zamonaviy infratuzilma bu hududni yanada qulay, ammo hanuz ruhiy jihatdan pok joy sifatida saqlashga xizmat qilmoqda.Demak, Madinadagi Haram hududi faqat tarixiy obida emas, balki tirik ma’naviy merosdir — musulmonlarning birligi va iymon timsolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Imom Buxoriy. As-Sahih.
2. Imom Muslim. Sahih Muslim.
3. Ali bin Abdulloh Samhudiy. Xulosat ul vafo biaxbari dari almustafa. Damashq. 1972.

“BUXORO PROLETARI” GAZETASI (1930-1938): TARIXIY MATBUOT, MAFKURAVIY DISKURS VA TARJIMONLAR FAOLIYATINING TAHLILI

Xayriyev Javohirbek Oybek o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
j.o.xayriyev@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatini o‘rganish manbalaridan biri sifatida mahalliy matbuot sahifalari tahlil qilinadi. Buxoro viloyati tarixiga oid ma’lumotlarni Buxoro viloyatidagi hududlaridan tashqaridada ko‘plab uchratish mumkinligi va Buxoro viloyatining ham madaniy, ham ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli to‘g‘risidagi qiziqishlar butun O‘zbekistonni qamrab olganligi aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: “Buxoro Proletari”, sovet matbuoti, gazeta, jurnal, maqola, tarjimonlar, idealogik diskurs.

Insoniyat ko‘z oldida juda katta tezlikda o‘zgarib borayotgan voqeliklar, turli xil jarayon va hodisalar insoniyatni o‘tgan davrni yana qayta tahlil etishga majbur qiladi. Tarixda ham sodir bo‘lgan voqea va hodisalar biz bilgan kabi va biz o‘qigan kabi bo‘lmasligi mumkinligi, voqealarning biz bilmagan biz ko‘rmagan tomonlari ham mavjudligi tadqiqotchini o‘rganayotgan davri tarixini juda ham sinchiklab, manbalarning qiymati va qimmatini to‘g‘ri anglagan holda yondashishga undaydi.

1930-1938-yillar O‘zbekiston tarixida keskin siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar davri bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar o‘z aksini matbuotda, ayniqsa “Buxoro Proletari” gazetasida yaqqol ko‘rsatdi. Sovet mafkurasi asosida ishlangan bu nashr qadimiy Buxoro madaniyatiga, tarixiy obidalariga va dini-marifiy merosga qarshi sinfiy va tanqidiy qarashlarni ilgari surdi. Ushbu maqola “Buxoro Proletari” gazetasining mazkur yillardagi maqolalari, tarjimonlar roli va mafkuraviy tahlilni

o‘rganishga qaratilgan.Ushbu matbuot materiallari ham viloyat tarixini o‘rganishda juda qimmatli manbalar bo‘lib xizmat qiladi.

“Buxoro Proletari” gazetasi asosan 1930-1938-yillarda faoliyat yuritgan. Bu gazeta asosan Buxoro Kompartiyasining va Eski Shahar sho‘rosining matbuot organi hisoblangan. Gazetada 1930-1938 – yillarda Buxoro va uning tarixiga oid bir qancha maqolalar e’lon qilingan bo‘lib maqolalar asosan ikki asosiy yo‘nalishda taqdim etilgan: Amirlik va Xonliklar davri tarixiga oid tanqidiy va mafkuraviy ruhdagi maqolalar va ikkinchisi ilmiy va diniy merosning sinfiy bahosi siaftida Po-I Kalon, Mir Arab singari madrasa va masjidlar maqolalar orqali diniy-marifiy obidalar ham sinfiy nuqtai nazardan baholangan.

Matbuotning bu davrdagi asosiy vazifasi tarixiy haqiqatni emas, balki sovet mafkurasini ommaga singdirish bo‘lgan. Tarixiy obidalar – Po-I Kalon, Ark, madrasalar – sinfiy ramzga aylantirilgan, diniy qadriyatlar esa “xalqni so‘qirlikka yetaklovchi vosita sifatida baholangan. Bu holat zamonaviy tarixshunoslikda “idealogik tafsir tarixshunosligi” deb ataladi.

Tarjimonlar o‘z faoliyatida mustaqil ilmiy pozitsiyada emas, balki siyosiy topshiriqlar asosida ish olib borgan. Ularning maqola va tarjmalari asl manbaning mazmunidan uzoqlashgan bo‘lib, ilmiy nuqtai nazardan metodologik muammolarni yuzaga keltiradi[1]. “Buxoro Proletari” gazetasi 1930-1938-yillarda sovet mafkurasining asosiy tribunasiga aylangan. Keling avvalo gazeta haqida umumiy malumotlarni keltirib o‘tsam. “Buxoro Proletari” gazetasi Buxoro Kom Partiyaning mafkuraviy organi vazifasini bajargan. Gazetada 1930-1933-yillarda gazetaning bosh muhariri bo‘lib Rustam Abdurahmonov faoliyat yuritgan.

Gazeta joylashgan bino Eski Buxoro Registon maydoni matbaa binosida “Buxoro Proletari” gazeta idorasida joylashgan[2]. Gazeta o‘z davrida nafaqat partiyaning mafkuraviy tribunasi balki kundalik hayotning asosiy axbarot tarqatuvchisi vazifasini ham bajargan. Gazetada kollektivlashtirish, paxta siyosati, kulaklashtirish, partiya yig‘ilishlari bilan birgalikda kundalik e’lonlar ham berib borilgan. “Buxoro Proletari” gazetasiga a’zolik badali 1930-yilda quyidagicha bo‘lgan. 1 oyga 60 tiyin, 3 oyga 1 som 80 tiyin, 6 oyga 3 som 60 tiyin, 1 yilga 7 som 20 tiyin bo‘lgan. E’lon berish bahosi 1 satir 60 tiyin. Yo‘qotganlar uchun 1 som 10 tiyin. 1930-yilda gazetaning bir oyda 20 dan ortiq soni chiqqan, gazeta deyarli har kuni yoki kun ora chiqib turgan[3].

Gazetaning 1930-yilgi soni asosan eski o‘zbek tilida arab alifbosida chop etilgan, gazeta 4 betdan iborat bo‘lgan. Gazetaning birinchi betida eng yuqori qismida gazetaning nomi, joylashgan binosi va ko‘chasi va a’zolik badali miqdori, shunga o‘xshagan ma’lumotlar keltirilgan. Birinchi betda asosan Partiya hayotiga oid muhim qarorlar, kollektivlashtirish, paxta hosili, rayonda paxtaning ekish jarayonlari borishi va mavsumiy chopiq tahlil qilinib borilgan. 1930-1933-yillarda gazetaning bosh muhariri lavozimida ishlagan Rustam Abdurahmonov “QARMAQ” nomli hajviy post ostida o‘sha davrda faoliyat yuritgan muhbirlarning she’r, fleyton, hikoya va turli xil rivoyatlar orqali o‘sha davr odamlarining og‘ir hayoti hajviy usilda tanqid qilingan. “QARMAQ” nomli postda muhbirlar turli xil g‘ayrioddiy taxalluslardan foydalangan. Bular quyidagilar: “qarmaq”, “ER – TAJ”, “Turdiqul”, “sabzi ali”, “ZARBDAR”, “Shertaj”, “avaz qorqaq”, kabi o‘nlab taxalluslarda kambag‘al xalq tilidan yozilgan[4].

1930-1933-yillardagi gazetaning yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki bu davrda gazeta eski o‘zbek tilidagi arab alifbosi va eski lotin alifbosidagi o‘zbek tilidagi ikki xil nashrdan iborat edi, ikki xil yozuv bitta nashrda chop etilardi.

1933-yil 30-iyuldan e’tiboran gazeta mahalliy xalqqa juda yaqin bo‘lgan tojik tilida eski lotin alifbosida chiqa boshlagan[5]. 30-iyulda gazetaning tojik tilidagi birinchi nashri bosmadan chiqqan. 1933-yildan e’tiboran “Buxoro Proletari” gazetasi bir oyda 18 marta asosan oyning juft kunlarida nashr etila boshlangan. Yana shu narsa diqqatimizni tortadiki gazeta 1933-yildan asosan malum vaqt oralig‘ida ikki betdan qilib nashr etila boshlangan ya’ni, ikki bet tojik tilida va ikki bet o‘zbek tilida nashr etilgan. 1933-yilda gazetaga ma’sul muharrir qilib T.Rahimov tayinlangan[6].

“Buxoro Proletari” gazetasi o‘zidan oldin chiqqan “Buxoro Axbori” (1920-1923), “Ozod Buxoro” (1923-1930) gazetalari singari yuqorida ko‘rsatilgan davrda Buxoro Viloyatining asosiy matbuot organi vazifasini bajardi. Gazetaning har bir sonida bir-birini takrorlamaydigan maqola va e’lonlar berib borildi. Maqolalarning asosiy mazmun mohiyati sovet mafkurasi va uni aholi

ongiga singitishdan iborat edi. Gazetada shuningdek O‘zbekiston va Buxoro tarixiga oid materiallar ham o‘rin olgan.

ADABIYOTLAR

1. Рахмонов К. “Бухоро Ахбори” ва "Озод Бухоро" газеталари - Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихини урганиш манбаси. –Т:2008.
2. Орзиев М. XIX асрнинг охири – XX аср биринчи чорагида Бухорода босмахона, нашриёт ва матбуот иши. – Самарқанд,2020.
3. Шадманова С. Даврий матбуотда Туркистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ахволи масалалари (1870 - 1917 й.). – Т:2011.
4. Rahmonov K. “Buxoro Axbori” gazetasi – Buxoro Respublikasi matbuot organi//Jamiyat va boshqaruv.-T.,2004. № 2.-B.44-46.
5. “QARMAQ”//Buxoro Proletari. 4-son.1930-yil 5-oktyabr.
6. Buxoro Proletari. 1-son.1933-yil 30-iyul.
7. Buxoro Proletari. 125-son.1933-yil 3-avgust.
8. Yusupov U. Rus tili SSSR xalqlari orasidagi aloqa va birlashuvning quvvatli vositasi// Buxoro Proletari. 82-son.1938-yil 10-aprel.
9. Shahar guzarlariga yangi nom berildi//Buxoro Proletari. 83-son.1938-yil 11-aprel.

BUXORO VILOYATIDA 1992-YILDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY O’ZGARISHLAR

Buxoro davlat universiteti doktoranti
Xayrullayev Umidjon Fayzullo o’g’li

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Buxoro viloyatidagi iqtisodiy ko’rsatkichlar, davlat siyosatining iqtisodiyotga ta’siri, davlat rejalari, qishloq xo’jalik masalalari, paxta siyosati, oziq-ovqat, sanoat tarmoqlari haqida muhim ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so’zlar: “Karrera” firmasi”, “Yangi bozor”, “Birimiz ikki bo’lsin”, qorako’l teri

1991-yil 31-avgustda mustaqillikka erishkanimizdan so’ng mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o’tish uchun jadala harakatlar boshlandi. 1992-yilda Buxoro tumanida 35 ming tonna paxta yetishtirilgan va sabzavot, poliz, uzum, meva, don, pilla, jun, qorako’l teri tayyorlash rejalari bajarilgan. Tuman yalpi daromadi 1,7 mlrd so’m bo’lishi prognoz qilingan. Xo’jalik ixtiyorida qoladigan paxta tolasi hisobidan 607 mln so’m, paxtachilikning o’zidan 1 mlrd 500 mln so’m daromad olingan. 1992 yil dekabr oyigacha 3977 gektar yer 14526 oilaga qo’shimcha tomorqa sifatida berilgan. 27600 m^2 uy-joy qurilib, 18 km. gaz quvurlari, 44 km. ichimlik suvi quvurlari yotqizilgan. O’qituvchi va tarbiyachilarning oylik maoshlari 2-3 martaga oshirilgan. Nogironlar, kam taminlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida xayriya jamg’armasi tashkil etilgan va bu jamg’armaga 1 mlndan ortiq mablag’ yig’ilgan. U. Yusupov nomli jamoa xo’ligida Italiyaning “Karrera” firmasi bilan hamkorlikda yangi tikuv fabrikasi qurilib foydalanishga topshirildi[1].

Peshko’ tumanida kam ta’minlangan va ko’p bolali oilalarda, ayniqsa ta’ziya sodir bo’lganda iqtisodiy qiyinchiliklar mavjudligini hamda uzoq qishloqlardan tuman markaziy kutubxonasiga qatnash muammolarini o’rganib chiqib 1992-yil avgust oyida kam ta’minlangan va ko’p bolali oilalarda ta’ziya sodir bo’lganda ular yashab turgan xo’jalik hisobidan 3 ming so’mdan moddiy yordam berish, hamda, tuman markaziy kasalxonasi tug’ruqxona bo’limida yangi farzand ko’rgan onalarni o’z manzillariga eltib qo’yish uchun bepul xizmat ko’rsatadigan alohida yengil avtomashina ajratish haqida hokimlik qarori qabul qilingan[2]. Tumanda qurilish sohasida ichki imkoniyatlardan to’la foydalanilib, qurilish, obodonchilik ishlarining asosiy qismi hashar yo’li bilan amalga oshirilgan. 1992 yilda 24500 m^2 turar joy binosi, 700 o’rinli 2 ta klub 360 o’rinli makatab, 380 o’rinli bolalar bog’chasi, tuman markazida qariyb 3 mln madaniyat va istirohat bog’i

[1] A. Abdurahmonov Buxoro tuman hokimining birinchi o’rinbosari Viloyat xalq deputatlar kengashining 12-sessiyasida qilgan dokladi. Buxoro vioyat davlat arxivi. Fond-1459. 1- ro’yxat. 5-yig’ma jild.23-varaq.
[2] N. Kenjayev Peshko’ tuman hokimi Viloyat xalq deputatlar kengashining 12-sessiyasida qilgan dokladi. Buxoro vioyat davlat arxivi. Fond-1459. 1- ro’yxat. 5-yig’ma jild.25-varaq.

qurilib ishga tushirilgan. 4 km gaz quvuri yotqizilgan va minnga yaqin xonadon tabiiy gaz bilan ta'minlangan[1].

1992-yilda 9449 ga yerga paxta ekilib har gektar yer hisobiga 34,6 sentner hosil rejalashtirilgan. Peshko' tumani 1949 yildan bir necha bor boshqa tumanlarga qo'shilib ajratilishi uning iqtisodiyotini ijtimoiy va madaniy rivojlanishini ancha ortga surdi. Bundan tashqari ko'pgina tashkilotlar nosoz binolar va vagonlarda joylashgan[2]. Korxona va tashkilotlarda shtatlarning qisqarishi natijasida ishsizlik darajasi oshgan va tumandagi yagona paxta tozalash zavodini hisobga olmaganda, bironta sanoat korxonasi yo'q. Qurilishi boshlangan konserva zavodi mablag' yo'qligi tufayli qurilishi to'xtatilgan[3].

Buxoro shahrida (Shahar hokimi Nosirov Ubaydullo) 1992 yilda o'tgan yilga nisbatan sanoat mahsuloti hajmi 13 fioizga ko'paydi, shu davr mobaynida 6 mlrd so'mdan ko'proq xalq iste'moli mollari ishlab chiqarilgan. "Birimiz ikki bo'lsin" dasturining bajarilishi natijasida may-dekabr oylarida 530 mln so'mlik mahsulot sotib olingan va aholiga yetkazib berilgan[4].

1992 yilda Buxoroning eski shahar hududida ta'mirlash obodonlashtirish, qayta qurish ishlariga 6 mln so'm mablag' sarflangan[5].

Qorako'l tumanida (Shamsitdinov Sayfiddin "Yangi bozor" brigadir) 1992 yilda 27 ming aholiga 642 M2 uy-joy qurilgan. 235 o'rinli bolalar bog'chasi, 2 ta hammom, 15 km asfalt yo'l, 130 km gaz quvuri yotqizilgan. 1993 yilda 14 ta maktab, 6 ta bolalar bog'chasi, 4 ta hammom, tipovoy choyxona, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan bolalar poliklinikasi paxta tozalash zavodida 400 o'rinli madaniyat uyi qurish, cho'l hududidan 1000 gektar yer o'zlashtirish reja qilingan[6].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Buxoro vioyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.31-varaq
2. Buxoro vioyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.36-varaq
3. Xayrullayev, U., & Farhodjonova, Z. (2025). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA BUXORO VILOYATIDAGI IQTISODIY VAZIYAT. Modern Science and Research, 4(2), 494-503.
4. Xayrullayev. U, BUXORO VILOYATINING IQTISODIY HOLATI (1990-1991 YILLAR) New Renaissance *ResearchBib IF - 11.01, ISSN: 3030-3753, Volume 2 Issue 1*

AMIR NASRULLOHXON DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI: DIPLOMATIK MUNOSABATLAR.

Hotamova Sevara Sulaymon qizi
Buxoro davlat Universiteti Arxeologiya va
Buxoro tarixi kafedrasi 1-kurs tayanch doktoranti
(88)870-07-44
sevarahotamova3@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Nasrullohxonning (1826–1860) Buxoro amirligidagi hukmronligi siyosiy, harbiy va diplomatik jihatlardan o'rganiladi. Shuningdek, ingliz–afg'on urushi bilan bog'liq voqealar hamda Do'st Muhammadxonning Buxoroga kelishi kabi tarixiy voqealar yoritilgan. Nasrullohxon siyosiy mustaqillikni saqlash, markazlashuvni kuchaytirish va Buxoro amirligi mavqeini mintaqa miqyosida mustahkamlashga intilgan hukmdor sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Amir Nasrullohxon, Markaziy Osiyo, siyosiy islohotlar, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar, Shahrisabz, Chorcho'y.

[1] N. Kenjayev Peshko' tuman hokimi Viloyat xalq deputatlar kengashining 12-sessiyasida qilgan dokladi. Buxoro vioyat davlat arxivi. Fond-1459. 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.25-varaq.
[2] N. Kenjayev Peshko' tuman hokimi Viloyat xalq deputatlar kengashining 12-sessiyasida qilgan dokladi. Buxoro vioyat davlat arxivi. Fond-1459. 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.27-varaq.
[3] N. Kenjayev Peshko' tuman hokimi Viloyat xalq deputatlar kengashining 12-sessiyasida qilgan dokladi. Buxoro vioyat davlat arxivi. Fond-1459. 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.27-varaq.
[4] Buxoro vioyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.31-varaq.
[5] Buxoro vioyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.31-varaq.
[6] Buxoro vioyat davlat arxivi. 1459- Fond, 1- ro'yxat. 5-yig'ma jild.36-varaq.

XIX asrning birinchi yarmi Buxoro amirligi tarixida siyosiy markazlashuv jarayonlarining kuchayishi, davlat boshqaruvi tizimining qayta shakllanishi va qo‘shni hududlar bilan murakkab munosabatlar davri bo‘ldi. Amir Nasrullohxon (1826–1860) hukmronligi mintaqa siyosiy tarixida o‘zining qat’iyligi, islohotlari va tashqi siyosiy faoliyati bilan muhim o‘rin tutadi[1]. Hijriy 1240 (1825–1826)- yilda Buxoro taxtini egallagan Nasrullohxon davlat boshqaruvida keskin choralar qabul qildi. U siyosiy raqibi Hakim qushbegini qatl qildiradi, bu orqali o‘z hokimiyatini mustahkamlashga intiladi. Shuningdek, amir davlatning turli viloyatlaridagi hokimlar faoliyatini qayta ko‘rib chiqib, Qarshi, Yangiqo‘rg‘on, Chelak, Nurota, Narpay, Qorako‘l, Chojo‘y kabi muhim hududlarga yangi hokimlar tayinlaydi[2]. Bu hokimiyatning kuchayishiga xizmat qilgan.

1832- yilda Amir Nasrulloh Shahrisabzga yurish qiladi. Ushbu yurish natijasida Chorjo‘y viloyati amir qo‘liga o‘tadi va qal’a buzdiriladi. Shundan so‘ng amir Shahrisabz hokimi Doniyol valine’mat bilan sulh tuzadi va uni devonbegilik mansabi bilan mukofotlaydi. Bu voqea Nasrullohxonning siyosiy qudratni bir vaqtning o‘zida kuch va diplomatiya bilan muvofiqlashtirganini ko‘rsatadi. Doniyol Valine’mat vafotidan so‘ng Buxoro-Shahrisabz o‘rtasidagi to‘qnashuvlar qayta avj olib, har yili ikki marta yurishlar amalga oshirilgani manbalarda qayd etiladi[3].

Nasrullohxon taxtga chiqqach, tashqi siyosatni mustahkamlash maqsadida bir nechta davlatlarga elchilar yuboradi. Qobilbek elchi Eron podshohi Muhammadshoh huzuriga elchi sifatida yuborilib, Buxoro manfaatlarini himoya etuvchi diplomatik muzokaralar olib bordi. Boltaqulbek Chig‘atoybek esa Istanbulda Usmonli sultoni Abdulmajid tomonidan ehtirom bilan qabul qilinib, Eronda ham siyosiy masalalarda o‘zining o‘tkir javoblari bilan manbalarda alohida qayd etilgan[4].

Nasrullohxon ikki marta elchi sifatida Rossiya imperatori Nikolay I huzuriga vakillar yuboradi. Bular orqali Buxoro–Rossiya siyosiy aloqalari yanada jonlanadi.

1838-yil 29-avgustda (1255-hijriy) Angliya qo‘shinlarining Afg‘onistonga yurishi natijasida Kobul shahri bosib olindi. Kobulning egallanishi Afg‘oniston hukmdori Do‘stmuhammadxonning siyosiy mavqeini izdan chiqardi va u o‘z saroyini tark etib, Balxga chekinishga majbur bo‘ldi. Balxda bo‘lgan chog‘ida Do‘stmuhammadxon Buxoro amiri Nasrulloga murojaat qilib, undan siyosiy panoh va harbiy yordam so‘radi[5]..

Amir Nasrullo dastlab Do‘stmuhammadxonni Buxoroga taklif qilib, uni o‘z himoyasiga olishga tayyorligini bildirdi. Shuningdek, u Do‘stmuhammadxonning amakivachchasi bo‘lgan Muhammad Afzalxonni ham Buxoroga chaqiradi. Bu holat ayrim manbalarda, xususan *“Tarixi Turkiston”* asarida, Amir Nasrulloning Afg‘oniston ichki siyosiy kurashlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga bo‘lgan intilishi sifatida talqin etiladi. Dastlabki muzokaralardan keyin Do‘stmuhammadxon Afg‘onistonda yuzaga kelgan vaziyatni o‘z kuchi bilan barqarorlashtirish niyatida bo‘lgani sababli, Nasrulloning ayrim takliflarini rad etdi. Oradan ko‘p vaqt o‘tmasdan ikki hukmdor o‘rtasida sovuqlik yuzaga keladi. Manbalarning guvohlik berishicha, Amir Nasrullo unga bergan ayrim va’dalardan voz kichadi. Do‘stmuhammadxonning karvoni Chorjo‘y yaqinidagi Omiya daryosi bo‘yiga yetganda, Amir Nasrullo tomonidan jo‘natilgan guruh uni quvib yetadi. Do‘stmuhammadxon vaziyatni anglab, ehtimoliy hibsga olinishi mumkinligini sezadi va shuning ortidan Buxoroga qaytib, Nasrulloga quyidagi mazmundagi murojaatni yetkazadi: «Agar sizning menga qarshi niyatingiz bo‘lsa, men qaytdim. Ochiq jangga tayyorman. Agar yengsangiz, mayli, lekin meni yashirincha o‘ldirmang.» Ushbu murojaatdan so‘ng Amir Nasrullo Do‘stmuhammadxonni hurmat bilan qabul qiladi va unga uch yuz nafar afg‘on xizmatkori bilan

[1] Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро //Айни С. Куллиёт. - Душанбе, 1966. – 32 с

[2] Шодмон Воҳидов, Фарзия Ансорова. Мирзо Салимбек ва асари ӯ “Таърихи Салимӣ” / (муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал ва эзоҳоти. – Душанбе, 2024.С.110.

[3] Мир Салмонхўжа Самарқандий. *Тафсил ва таърихи давлати ҷамоаи Манғит аз замони Раҳимхон* (нусхаи дастхати Институти дастхатҳои Санкт-Петербург, № S.33/XIII). Бозгардон, эзоҳот ва нашри факсимиле: Шодмон Воҳидов. – Панҷакент, 2024. – Б. 12

[4] Шодмон Воҳидов, Фарзия Ансорова. Мирзо Салимбек ва асари ӯ “Таърихи Салимӣ” / (муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал ва эзоҳоти. – Душанбе, 2024.С.113

[5] Шодмон Воҳидов, Фарзия Ансорова. Мирзо Салимбек ва асари ӯ “Таърихи Салимӣ” / (муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал ва эзоҳоти. – Душанбе, 2024.С.114

Buxoroda istiqomat qilishga ruxsat beradi. Rasmiy manbalarda Nasrulloning bu davrdagi siyosiy yo‘nalishi Do‘stmuhammadxon shaxsiga qarshi ochiq dushmanlikni o‘z ichiga olmagani ta’kidlanadi.

Do‘stmuhammadxonning Buxorodagi hayoti uzoq davom etmaydi. Oradan bir necha oy o‘tib, Amir Nasrullo ularning ta’minoti uchun ajratilayotgan moddiy yordamni keskin kamaytiradi. Natijada Do‘stmuhammadxon va uning atrofidagi afg‘onlar iqtisodiy qiyinchiliklarga duch keladilar va ularning soni asta-sekin kamayib boradi[1]. Tadqiqotchilar bu holatni ikki hukmdor o‘rtasidagi siyosiy ishonchning to‘liq tiklanmaganligi va Nasrulloning tashqi bosimlar ostida qaror qabul qilganligi bilan izohlaydilar.

Nasrullohxon hukmronligi davrida ikki marotaba Rossiya imperatori Nikolay I huzuriga diplomatik elchilar yuborilib, bu orqali Buxoro-Rossiya siyosiy munosabatlarining faollashuviga erishildi.

Amir Nasrullohxon davri Buxoro amirligi tarixi uchun markazlashuv, siyosiy qat’iylik, harbiy faoliyat va xalqaro diplomatiyaning faol bosqichi bo‘ldi. U davlat boshqaruvini kuchaytirish, qo‘shni hududlarda tartib o‘rnatish va xalqaro maydonda Buxoro mavqeini mustahkamlashda muhim rol o‘ynadi. Ichki siyosatdagi qat’iylik, Shahrisabzga qilingan yurishlar, Eron, Usmonli imperiyasi va Rossiya bilan olib borilgan diplomatik aloqalar bu davrning asosiy mazmunini tashkil etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро //Айни С. Куллиёт. - Душанбе, 1966. – 344 с
2. Мир Салмонхўжа Самарқандий. *Тафсил ва таърихи давлати ҷамоаи Манғит аз замони Раҳимхон* (нусхаи дастхати Институти дастхатҳои Санкт-Петербург, № S.33/XIII). Бозгардон, эзоҳот ва нашри факсимиле: Шодмон Воҳидов. – Панҷакент, 2024. – 17–18-бб.
3. Шодмон Воҳидов, Фарзия Ансорова. *Мирзо Салимбек ва асари ӯ “Таърихи Салимӣ”* (муқаддима, таҳияи матн, нусхабадал ва эзоҳот). – Душанбе, 2024. – 329 с.

SOVET HUKUMATINING O’ZBEKISTON SSRDAGI 1941-1945 YILLARDA OLIB BORGAN ASPIRANTURA BOSQICHIGA OID SIYOSATI (BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVI SAQLOVI HUJJATLARI MISOLIDA)

Nasilloyev Sunnat Shavkat o’g’li
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
nasilloyevsunnat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tadqiqotchi tomonidan sovet hukumatining O’zbekiston SSRdagi 1941-1945 yillarda olib borgan aspirantura bosqichiga oid siyosati, hamda, ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishga qaratilgan bir qancha huquqiy hujjatlar va ularning mohiyatini Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovi hujjatlari misolida o’rganish maqsad qilingan.

Kalit so’zlar: O’zbekiston SSR, sovet hukumati, ilmiy siyosat, aspirantura, tadqiqotchi, qaror, farmoyish, yo’riqnoma.

O’zbekiston SSRda 1941-1945 yillarda tadqiqotlarning ko’lami va sifatini oshirish maqsadida ishlab chiqarishdan ajralgan holda tadqiqot bilan shug’ullanish uchun aspirantura tizimini takomillashtirish choralari ko’rildi. Shunday bo’lsada 1941-1942 yillarda aspiranturaga qabul qilish rejasi qoniqarsiz bajarilgan. Aspirantlar bilan ilmiy va tarbiyaviy ishlar yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan. SSSR Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi Oliy ta’lim ishlari bo‘yicha Butunittifoq qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan tekshirish shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab davlat o‘quv yurtlari rahbarlari va oliy o‘quv yurtlari direktorlari aspirantlar bilan ishlashga yetarlicha e’tibor qaratmaganligi, buning natijasida esa ko’pgina aspirantlar, shu jumladan oxirgi kursda o'qiyotganlar ham oliy o'quv yurtlari bilan aloqalarni uzganliklari isbotini topgan.

[1] Айний С. Таърихи амирони манғитияи Бухоро //Айни С. Куллиёт. - Душанбе, 1966. – 38 с

Mavjud muammolarni hal etish maqsadida SSSR Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi Oliy ta'lim ishlari bo'yicha Butunittifoq qo'mitasining 1942 yil 18 dekabrdagi Xalq komissarliklari (bo'limlari) va oliy o'quv yurtlari direktorlariga yuklatilgan "Aspirantlarni ro'yxatga olish to'g'risida"gi D-09-45-sonli[1] ko'rsatma xatida - aspirantlarni ro'yxatga olishda to'g'ri tartib o'rnatish, urush yillarida oliy o'quv yurtlarini tashlab ketgan aspirantlar bilan aloqa o'rnatish, muvaffaqiyatli aspirantlarni oliy o'quv yurtlariga qaytarish choralarini ko'rish. aspirantlarining o'quv ishlarini tashkil etilishini ta'minlash va ularning dissertatsiya ishlarini bajarishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aspirantlarning ish faoliyati ustidan direktor, kafedra mudirlari va ilmiy rahbarlar tomonidan nazorat o'rnatish, Oliy maktab ishlari bo'yicha qo'mitaga aspirantlarning ilmiy-tadqiqot rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish vazifasi yuklatilgan.

SSSR Xalq Komissarlari Soveti 1943-yil 5-yanvardagi 168-r-sonli farmoyishi bilan SSSR Savdo xalq komissarligini 1943-yil yanvardan boshlab oliy o'quv yurtlari aspirantlarini SSSR XKSning 1941-yil 19-oktabrdagi 2148-son qarorida maxsus ko'rsatilgan tashkilotlar uchun belgilangan me'yorlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlangan.[2] Ushbu farmoyishning bajarilishi ilmiy-tadqiqot ishlarining to'xtab qolmasligini ta'minlash maqsadida joriy etilgan.

SSSR XKS huzuridagi Oliy maktab ishlari bo'yicha Butunittifoq qo'mitasi tomonidan 1943 yil 5 iyunda № Ус-52-1 sonli "Oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari kengashining ilmiy darajalar berish bo'yicha hisoboti to'g'risida"gi yo'riqnoma shakllantirilgan. Ilmiy daraja berish huquqi berilgan oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari direktorlariga ijro uchun yuborilgan yo'riqnomada dissertatsiyalarni tayyorlash bo'yicha kafedralarning ishiga baho berilishi masalasi qo'yilgan.[3] Ilmiy kengashning o'rni va ahamiyati oshirilishi belgilangan.

Aspirantura bosqichi uchun qabul jarayonlarini tashkil etish, eng yaxshi nomzodlarni saralash maqsadida SSSR Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi Oliy ta'lim ishlari bo'yicha Butunittifoq qo'mitasining 1943 yil 14 iyuldagi "1943 yilda oliy o'quv yurtlariga aspiranturaga qabul qilish rejasi to'g'risida"gi 189-son buyrug'i[4] tasdiqlangan. Buyruqda xalq komissarliklari va bo'limlari o'rtasida taqsimlangan holda ittifoq hududidagi oliy o'quv yurtlarining aspiranturasiga qabul qilish rejasi belgilangan.

Shuningdek SSSR Xalq Komissarlari Kengashi huzuridagi Oliy maktab ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ro'yxat bo'yicha ittifoqda oliy o'quv yurtlarining 250 nafar aspirantiga Qizil Armiya safiga safarbarlik uchun kechiktirish berilishi ta'minlash, Davlat, kooperativ va jamoat korxonalari, hamda, muassasalari rahbarlariga aspiranturaga qabul imtihonlariga ishtirok etish uchun talabgorlarga 15 kunlik ish haqi saqlanmagan holda ta'til berish majburiyati yuklash vazifasi yuklatilgan. SSSR Xalq Komissarlari kengashi rais o'rinbosari - V. Molotov va SSSR Xalq komissarlari kengashining ishlar bo'limi boshlig'i - M. Smirtyukov imzosi bilan tasdiqlangan buyruqda Aspirantura bosqichida aspirantlar faqatgina ilmiy tadqiqot bilan shug'illanishlari maqsadida o'qishga qabul qilinganligi to'g'risida xabar berilgan kundan e'tiboran 1 oydan kechiktirmay aspirant bo'lguniga qadar faoliyat yuritgan ishidan bo'shatilishi zarurligi qayd etilgan.

Oliy o'quv yurtlari va mutaxassisliklari bo'yicha aspiranturaga yangi qabul rejasini belgilash, Oliy o'quv yurtlari, xalq komissarliklari va mutaxassisliklar bo'yicha taqsimlangan holda sirtqi aspiranturaga qabul rejasini tasdiqlash, Oliy o'quv yurtlari direktorlari aspiranturaga ilmiy darajaga ega bo'lmagan, lekin o'quv va ilmiy ishlarda o'zini ko'rsatgan assistentlar va universitet o'qituvchilarini jalb etishi zarurligi, Oliy o'quv yurtlari bilan aloqani vaqtincha uzib qo'ygan ikkinchi va uchinchi kurs aspirantlarini qaytarish, yangi o'quv yilidan boshlab ular bilan mashg'ulotlarni tiklash bo'yicha zarur choralar ko'rish, ishlab chiqarishdagi mehnat sharoitiga

[1] BVDA 532-C-fond, 1-ro'yxat, 78-yig'majild, 34-varaq.
[2] BVDA 532-C-fond, 1-ro'yxat, 59-yig'majild, 5-varaq.
[3] BVDA 532-C-fond, 1-ro'yxat, 78-yig'majild, 65-varaq.
[4] BVDA 532-C-fond, 1-ro'yxat, 78-yig'majild, 106-varaq.

ko‘ra universitetga qaytarilishi mumkin bo‘lmagan aspirantlar uchun masofaviy o‘qitish tashkil etish kabi muhim masalalar ham buyruqdan o’rin olgan.

Oliy o’quv yurtlarida ilmiy kadrlar tayyorlash muammolariga yechim sifatida SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1943-yil 23-iyuldagi 13986 r-sonli O‘zbekiston SSRda pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Oliy ta’lim bo‘yicha Butunittifoq qo‘mitasi tomonidan 1943 yil 5 avgustdagi “O‘zbekiston SSRda pedagogik kadrlar tayyorlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 212-son buyrug'i [1] qabul qilindi. Ushbu buyruqning 4-bandida 1943-yil uchun O‘rta Osiyo Davlat universitetiga aspirantlar qabul qilish rejasini 40 kishiga, Toshkent pedagogika institutiga esa 10 kishiga oshirish va 1943 yil 1 sentyabrdan kechiktirmay alohida mutaxassisliklar bo‘yicha qo‘shimcha aspirantura o‘rinlarini taqsimlash rejasini tasdiqlash uchun qo‘mitaga taqdim etish ko’zda tutilgan bo’lib, ushbu masalalarning bajarilishi ustidab nazorat O‘rta Osiyo davlat universiteti rektori T. Sarimsoqov va Toshkent pedagogika universiteti direktori K.Karimov zimmasisiga yuklatilgan bo’lsa, buyruqning 6-bandida yuqoridagi tadbirlar uchun barcha xarajatlar 1943 yilda O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti byudjetida maorif uchun nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Sohaga oid yana bir hujjat SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Oliy ta’lim ishlari bo‘yicha Butunittifoq qo‘mitasining 1943 yil 28 maydagi“Oliy ta’lim muassasalarining yillik hisobotlarini taqdim etish tartibi to‘g‘risida” Oliy o'quv yurtlari direktorlariga ijro uchun yuborilgan D-09-34-sonli[2] ko'rsatma xatidir. Xatning 10-bandi Aspirantura bosqichini o’z ichiga oladi. Unda qabul qilish rejasi ishlab chiqish va uni amalga oshirish, mutaxassisliklar bo'yicha aspirantlar kontingentini (kunduzgi va sirtqi bo'lim talabalari alohida) o’rganish topshirilgan.
11-band esa oliy o’quv yurtlari kafedralari kesimida ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasi va mavzularini ishlab chiqish va tahlil qilish. tadqiqotlarni moliyalashtirish, tugallangan ilmiy–tadqiqot ishlarini ishlab chiqarishga joriy etish masalalari bag’ishlangan.

1943 yilning iyul-avgust oylarida Oliy o‘quv yurtlari (ilmiy-tadqiqot institutlari) ilmiy kengashlarining dissertatsiyalar himoyasi bilan bog’liq tekshirishlarda aniqlanishicha, ilmiy darajaga da’vogarlar “SSSR Xalq Komissarlari Kengashi qarorlarini qo‘llash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaning 12-bandini buzgan holda 1937-yil 20-mart va 1938-yil 26-apreldagi yo’riqnomaga rioya qilmagan holda dissertatsiya avtoreferatini taqdim etmasdan himoya qilishga ruxsat etilgan. Shu munosabat bilan yo‘riqnomaning 38-bandidagi doktorlik dissertatsiyalarining avtoreferatlarini Oliy attestatsiya komissiyasiga yuborish to‘g‘risidagi talab ham qator hollarda bajarilmaganligi aniqlangan.

SSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Oliy maktab ishlari bo‘yicha Butunittifoq qo‘mitasi tomonidan himoyaga dissertatsiyalarni qabul qilish huquqiga ega bo'lgan universitetlar (ilmiy tadqiqot institutlari) direktorlariga taqdim etilgan 1943 yil 25 avgustdagi “Dissertantlar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalarning ishlanmalarini taqdim etish to‘g‘risida”[3] US-52-1-sonli ko'rsatma xatida yo‘riqnomaning 12-bandi talabiga qat’iy rioya qilish va ilmiy darajaga talabgorlar dissertatsiya avtoreferatini topshirishdan oldin dissertatsiya himoyasiga ruxsat bermaslik talabi qo’yilgan.

Aspirantlarda qo’yilgan talabga mos ravishda, oliy o’quv yurtlarida aspirantura bosqichi uchun “zaruratga mos ravishda” yangi ixtisosliklar shakllantirildi. 1943-yilda aspiranturaga qabul qilish kvotalari oshirilgan. Jumladan, aynan shu yilda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanikalash injenerlari instituti - 1) Gidromelioratsiya sistemalarini ekplatatsiya qilish, 2) Gidrotexnika inshootlari, 3)Binokorlik materiallari va ishlari, 4) Injenerlik konstruksiyalari kabi yo‘nalishlar; O‘rta Osiyo Industrial instituti - 1) Elektr mashinalari 2) Metall kesuvchi stanoklar 3) Foydali qazilmalarni qidirish 4) Tog‘ mexanikasi 5) Mashinasozlik texnologiyasi, 6) Elektr o‘lchash texnikasi 7) Sanoat korxonalarini elektrlashtirish ixtisosliklarida; Toshkent Yuridik

[1] BVDA 532-C-fond, 1-ro’yxat, 78-yig’majild, 110-varaq.
[2] BVDA 532-C-fond, 1-ro’yxat, 78-yig’majild, 46-varaq.
[3] BVDA 532-C-fond, 1-ro’yxat, 78-yig’majild 66-varaq.

instituti - 1) Grajdan (fuqarolik) huquqi va protsessi 2) Jinoiy protsess 3) Yer-suv va kolxoz huquqi 4) Davlat va huquq tarixi 5) Davlat va huquq nazariyasi 6) Xalqaro huquq kabi ixtisosliklar uchun aspiranturaga qabul qilgan. Talabgorlar uchun imtihonlar jarayonlari “Marksizm-Leniniz asoslari” kursidan, chet tili va maxsus fanlardan o‘tkazilgan. O’zbekiston SSRda Ilmiy tadqiqot mavzulari sovet mafkurasi va moddiy manfaatlariga mos tarzda tashkillashtirildiki, maqsad xalq muammolarini ijobiy hal etish emas, SSSR ehtiyojlari (sanoat va mafkura)ga yo‘naltirish bo‘ldi. [1]

SSSR Xalq Komissarlari Kengashining 1944-yil 18-fevraldagi № 178-son qarorida “Oliy o‘quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot faoliyati to‘g‘risida” nizom tasdiqlangan. Nizomda oliy o‘quv yurtlarining ilmiy-tadqiqot faoliyatining asosiy vazifalari sifatida - professor-o‘qituvchilar kadrlarini xalq xo‘jaligi rivojiga, mamlakat mudofaasini mustahkamlashga, shuningdek, Sovet Ittifoqida fan va madaniyatning yanada taraqqiy etishiga ko‘maklashuvchi ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga eng to‘liq jalb etish; professor-o‘qituvchilar kadrlarining ilmiy malakasini oshirish; oliy maktab talabalari uchun ilmiy va texnik muammolarni qo‘yish va hal etish bilan amaliy tanishtirish va ularning eng iqtidorlilarini ilmiy tadqiqotlar bajarishga jalb etish vazifasi qo’yilgan.

XULOSA. Sovet hukumatining O’zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati tarixiga oid huquqiy asosga ega hujjatlarning O’zbekiston tarixini o’rganishdagi ahamiyati bois tadqiqotchilar o’z tadqiqotlarida arxiv hujjatlari bilan batafsil tanishishlari zarur. 1941-1945 yillarda ilm-fanga oid adabiyotlarda sohaga oid tanqidiy qarashlar emas, balki sovet mafkurasi ustunlik qiladi. Yuqoridagi arxiv hujjatlari orqali biz O’zbekiston SSRda oliy o’quv yurtlarida ilmiy kadrlar tayyorlash masalasida ko’plab buyruq, qarorlar qabul qilingan bo’lsada, mavjud muammolar ijobiy hal etilmaganligini ko’rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Nasilloyev S.Sh. “Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati.” Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning “Tafakkur va talqin” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to’plami, II qism. Buxoro – 2023. 7-12 betlar.
2. Nasilloyev S.Sh. “O’zbekiston fanlar akademiyasining tashkil etilishi”. RESEARCH FOCUS xalqaro ilmiy jurnali 2023 yil 5-son. 92-98 betlar.
3. Nasilloyev S.Sh. “O’zbekiston SSR qishloq xo’jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash muammo va yechimlari(1960-1970 yillar misolida)”. Buxoro davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2024. №12. 47-50 betlar.
4. Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovi hujjatlari (Fond 532-C, Buxoro davlat universiteti faoliyatiga oid hujjatlar)

O‘ZBEKISTON SSRDA 1960-1980 YILLARDA QISHLOQ XO'JALIGI FANLARIDA ILMIY KADRLAR TAYYORLASH

Nasilloyev Sunnat Shavkat o’g’li
Buxoro davlat universiteti
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi
nasilloyevsunnat@gmail.com

Annotatsiya. Tadqiqot ishi O’zbekiston SSRda 1960-1980 yillarda qishloq xo'jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash, olib borilgan ilmiy siyosat, shu jumladan muammo va ularning yechimlarini o’z ichiga olgan.

Kalit so’zlar: O’zbekiston SSR, aspirantura, ilmiy kadrlar, Markaziy qo'mita, qaror, ilmiy himoya.

KPSS Markaziy qo'mitasi va SSSR Vazirlar kengashining 1967 yil 16 noyabrdagi 1064 - son qaroriga, shuningdek, O'zbekiston KP Markaziy komiteti va O'zbekiston SSR Vazirlar

[1] S.Sh. Nasilloyev. Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati. Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning “Tafakkur va talqin” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to’plami, II qism. Buxoro – 2023. 7-12 b.

kengashining 1968 yil 13 fevraldagi 52 - son qarori, muvofiq “Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashni takomillashtirish to'g'risida” buyrug’i tasdiqlangan.

O'zbekiston KP Markaziy komiteti va O'zbekiston SSR Vazirlar kengashining qarorida qayd etilishicha, 1960-1967 yillarda respublikada “kommunistik qurilish amaliyoti” tomonidan ilgari surilgan katta muammolarni hal qilishga qodir ilmiy kadrlar o'sgan bo’lib, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda yanada yaxshilanishga erishilgan. 1968 yilda Respublikada 5 mingga yaqin fan doktori va fan nomzodi ilmiy darajalariga ega bo'lgan ilmiy xodimlar, shu jumladan 350 dan ortiq fan doktori. 3 mingdan ortiq aspirantlar faoliyat olib borardi. Ko'pgina mutaxassislar mustaqil ravishda, aspiranturadan tashqarida dissertatsiyalar ustida ishlaganligini inobatga olsa bu raqamlar oshishi tabiiy.

Biroq ilmiy kadrlar tayyorlashda jiddiy kamchiliklar mavjud edi.[1] Xususan, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy o'quv yurtlari ilmiy tadqiqotlar o'tkazish qobiliyatini namoyish etgan yosh mutaxassislarni aspiranturaga tanlash bo'yicha kam ish olib borilgan. Ko'pgina aspirantlar belgilangan muddatda dissertatsiyalar ustida ishlashni tugatmagan. 1966 yilda aspiranturani tugatgan 748 kishidan atigi 64 nafari o'z vaqtida dissertatsiyalarni himoya qilgan.

O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi vazirligining ilmiy-tadqiqot institutlarida 1966 yilda aspiranturani tugatgan 76 kishidan 3 nafari dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilgan, 1967 yilda esa bitirgan 64 nafar aspirantdan atigi 3 nafari dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilgan. Bu institut rahbarlarining abituriyentlarni tanlashga, aspirantlar uchun zarur ilmiy, ishlab chiqarish va maishiy sharoitlarni yaratishga, ilmiy rahbarlarni tanlashga yetarlicha e'tibor bermasliklari natijasidir, shu bilan birga akademiklar va fanlar akademiyalari muxbirlari, fan doktori va professorlar aspirantlarning ilmiy rahbariyatiga kam jalb qilingan. [2]

Qishloq xo'jaligi fanining eng dolzarb tarmoqlari bo'yicha aspirantlarni tayyorlash rejalari muntazam ravishda bajarilmagan. Ko'pincha institutlarga ba'zi mutaxassisliklarni boshqalar bilan almashtirishga ruxsat beriladi. 2 yil davomida aspirantlarni qabul qilish rejasi amalga oshirilmagan. O'rta Osiyo pillachilik ilmiy-tadqiqot institutida 3 yil davomida ushbu institutning hech bir aspiranti dissertatsiya himoya qilmadigan. 1967 yilda Lalmi dehqonchilik instituti bo'yicha dissertatsiyalar himoya qilinmadi. Bir necha yillar davomida institutlar maqsadli aspirantura rejasini bajarmagan.

Ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashdagi mavjud kamchiliklar asosan Vazirlikning Fan Bosh Boshqarmasi ushbu muhim ishga kam e'tibor qaratishi, ilmiy-tadqiqot muassasalari ishini kam nazorat qilishi va ularga zarur yordam ko'rsatmasligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy komiteti va o' zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1968 - yil 13-fevraldagi 52-sonli "ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish to'g'risida" gi qaroriga muvofiq ilmiy kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish va bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida 1960 yilgacha atigi 26 ta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan. 1960-1970 yillar davomida qishloq xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlarida 617 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 143 nafari yoki 23,1 foizi o‘z vaqtida dissertatsiya ishini himoyaga taqdim etgan. Topshirilgan ilmiy tadqiqot ishlaridan, 47 nafari yoki 32,8 foizi o‘z vaqtida himoya qilgan. Shuningdek kechikish bilan bo’lsa-da keyingi yetti yilda sohada 367 ta aspirant tadqiqot ishini himoya qilgan bo’lib, ushbu qiymat umumiy dissertatsiyalarning 59,4% ini tashkil etadi.

Agarda 1960-1965 yillarni alohida olib qaraydigan bo’lsak, 262 nafar aspirant tayyorlangan, shundan 45 nafari o‘z vaqtida dissertatsiya himoyasiga taqdim etdi. Bu yillar davomida jami 94 ta yoki 35,9% dissertatsiya himoya qilingan.

[1] S.Sh. “Nasilloyev Sovet hokimiyatining O‘zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati” Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning “TAFAKKUR VA TALQIN” mavzusidagI respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to’plami II qism. Buxoro – 2023. 7-12 b.

[2] O'zMA, R-90-fond 10-ro’yxat, 2675-yig’majild, 124-varaq

1966-1970 yillarda esa 355 nafar aspirant tayyorlandi, belgilangan muddatda 98 ta dissertatsiya himoyaga taqdim etildi, ulardan 29 tasi himoya qilingan, 5 yillik davomida yana 273 dissertatsiya himoya qilingan bo'lib, bu barcha tadqiqotlarning 76,8 % ini tashkil etadi.

Himoyasini o'z vaqtida bajara olmagan 320 nafar aspirantning 92,4 foizi himoyani 2 yildan 6 yilgacha kechiktirib yakunlagan. Ushbu dissertatsiyalarning mavzulari dolzarb bo'lib, ko'plab tadqiqotlar natijalari amaliy va nazariy ahamiyatga ega edi. Shu sababdan ham tadqiqotchilar uchun vaqt va shart-sharoitlar yetishmasdi. Tugallangan ilmiy-tadqiqot ishlari xalq xo'jaligi va ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi, masalan, "Kolxozda agrotexnika va agrokimyoviy tadbirlarni o'tkazishda tuproq xaritasidan foydalanish", "Amudaryoning quyi oqimidagi sholi yetishtiriladigan hududlarning tuproqlari va ularning unumdorligini oshirish yo'llari" kabi tadqiqotlar shular jumlasidandir.

Birgina "O'zbekistonda go'shtli va junli qo'ychilikni yaratish" nomli tadqiqot ishidan olingan dastlabki natija orqali naslchilik ishlari uchun fermer xo'jaliklariga 1477 bosh nasldor qo'chqorlar topshirilib, go'sht-junli qo'ylar turi yaratilgan. Ayniqsa ikkinchi jahon urushi davridagi talab keyinchalik ham respublika hududida saqlanib qolgan.[1]

Shuningdek mahalliy qoramollarni go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan nasldor qoramollar bilan chatishtirish asosida yangi yirik shoxli mollar naslini yaratish, ushbu yo'l orqali respublikaning go'shtga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekistondagi qoramollarning asosiy zotlarida ba'zi qon oqsillarining polimorfizmini o'rganish bo'yicha ishlar ham nazariy ahamiyatga ega bo'ldi. [2]

Aspirantlarni tayyorlash uchun respublika va Ittifoq ilmiy-tadqiqot muassasalari va Oliy o'quv yurtlaridan yirik olimlar jalb etildi.

O'zbekiston SSR Veterinariya institutida ilmiy kadrlar tayyorlash ishlari jadal suratda olib borildi, biroq, institutda 1958-1970 yillarda 79 kishi aspiranturani tugatgan bo'lsa, ulardan 49 nafari (62.0 %) o'z vaqtida dissertatsiyalarni yakunlagan. Shulardan 23 kishi yoxud 29.1% aspirant belgilangan muhlatda himoya qilgan. 1958-1970 yillarda jami 63 dissertant yoki 79,9% aspirantlar tadqiqot mavzusini himoya qilgan. Dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilmagan 40 nafar aspirantdan 35 nafari aspiranturani tugatgandan so'ng tadqiqotni himoya qilishi uchun 2 yildan - 4 yilgacha kerak bo'lgan.

Tuproqshunoslik institutida esa 1947 yildan - 1960 yilgacha, mavjud 13 yil mobaynida atigi 7 ta dissertatsiya himoya qilingan bo'lsa, keying o'n yil davomida jami 37 ta mavzu himoya qilingan. Ya'ni 1960-1970 yillarda 52 kishi aspiranturani tamomlagan, ulardan 11 nafari yoki 21,1 foizi vaqtida himoya qilish uchun dissertatsiyalarni taqdim etgan. Aspirantlarning 3 nafari yoki 5,7 foizi o'z vaqtida himoya qilgan. Xulosa qilish mumkinki, qolgan aspirantlar uchun ko'proq vaqt kerak bo'lgan yoki keyinchalik ham tadqiqotini yakunlay olmagan. 1947-1970 yillarda umumiy hisobda 44 ta dissertant tadqiqot orqali ilmiy darajaga ega bo'lgan.

Chorvachilik institutida aspirantura 1958 yildan 1970 yilgacha jami 132 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 27 nafari yoki 20,4 foizi dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilish uchun taqdim etgan, shu jumladan 8 yoki 6,1% aspirant muhlatida himoya qilgan. 62 nafar aspirant aspiranturani tugatgandan so'ng 2-5 yil davomida dissertatsiyalarni himoya qilgan, 1958-1970 yillarda institut tomonidan jami 84 ta dissertatsiya himoya qilingan.

Yomg'irli (Lalmi) dehqonchilik (богарного земледелия) institutida ham ilmiy kadrlar tayyorlash ishlari tegishli darajada olib borilmagan, institutda 1961-1970 yillarda 29 nafar aspirant tayyorlandi, ulardan 8 nafari yoki 27,5 foizi o'z vaqtida dissertatsiyalarni taqdim etgan. Shundan 4 kishi yoki 13,7% rejada ko'zda tutilgan muddatda himoya qilgan. Aspiranturani tamomlaganlarning 11 nafari yoki 37,9 foizi esa nomzodlik dissertatsiyasini keyinchalik himoya qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, 1961-1970 yillarda ilmiy-tadqiqot instituti aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash ishini 51,7 %gagina bajargan, xolos.

[1] S.Sh. Nasilloyev, "Sovet hukumatining O'zbekiston SSR oliy yurtlarida aspirantura bosqichini tartibga solish sohasidagi huquqiy hujjatlari va ularning mohiyati. (ikkinchi jahon urushi davrida)" Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, № 17(54). 49-55 b.
[2] O'zMA, R-90-fond 10-ro'yxat, 4456-yig'majild, 176-varaq

Ipakchilik institutida 1947-1960 yillarda 6 nafar aspirantning dissertatsiyalari himoya qilingan. 1960 yildan 1970 yilgacha 25 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 15 nafari yoki 60.0%, dissertatsiyalarni himoya qilgan. Hech bir aspirant dissertatsiya ishini o'z vaqtida yakunlamadi, dissertatsiyalarni himoya qilish aspiranturani tugatgandan keyin 10 yil ichida amalga oshirilgan.[1] Sholichilik institutida aspirantura bo'limi 1965 yilda tashkil etilgan. 1970 yilga qadar 6 nafar aspirant tayyorlangan, ulardan 33.3 foizi dissertatsiya himoya qilgan.

Dissertatsiyalarni o'z vaqtida himoya qilmaslikning asosiy sabablaridan biri avvolo ular uchun yetarli sharoit yaratilmaganli, iqtisodiy muammolarning mavjudligi va vaqt masalasi edi. Ko'pgina aspirantlarning 2-3 yil davomida dalada tajriba o'tkazishgan, 3-yil esa ma'lumotlarini qayta ishlash, shuningdek dissertatsiyani yozish uchun deyarli vaqt qolmas edi.

Dissertatsiyalarni himoya qilishni kechiktirishning sabablari - tadqiqot mavzulari va usullarini, shuningdek, aspirantlarni ilmiy rahbarlarni tayinlamasdan sirtqi bo'limlarga qabul qilish, tugallangan ishlar bo'yicha jurnallarda ilmiy maqolalarni o'z vaqtida nashr etmaslik va boshqa kamchiliklardir.

Yuqoridagi masalalarni hal etish maqsadida O 'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi vazirligi hay'ati aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqdi.

Xususan, 1) Istiqbolli ilmiy xodimlar, ilmiy ishlarni bajarishga qodir bo'lgan tadqiqotchilar orasidan aspiranturaga abituriyentlarni tanlashga ko'proq e'tibor berish; 2) aspirantlarni ilmiy rahbar roziligisiz qabul qilishga yo'l qo'ymaslik; 3) "Talabgorlarni aspiranturaga qabul qilish" va "Aspirantura to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, tajriba-sinov o'tkazish, ilmiy-ishlab chiqarish tajribalaridan xabardor, natijaga erishishga yaqin bo'lganlar orasidan tanlash; 4) O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi (МСХ УЗССР)ga kelgusi yil aspirantlarini qabul qilish uchun ariza taqdim etilgunga qadar aspirantura ishlari mavzusini aniqlash va institut kengashi a'zolari orasida mavzularni qayta ko'rib chiqish; 5) oliy o'quv yurtida mutaxassisligi nomenklatura bo'yicha mutaxassislik profiliga mos kelmaydigan shaxslarning aspiranturaga qabul qilinishiga yo'l qo'ymaslik; 6) dissertatsiyalar mavzularida tajriba ishlarini o'tkazish uchun aspirantlarga o'z vaqtida zarur ilmiy-ishlab chiqarish sharoitlarini yaratish; 7) bajarilgan ishlar bo'yicha ilmiy maqolalarni nashr etishda aspirantlarga yordam berish; 8) institut ilmiy kengashida dissertatsiya mavzulari bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida vaqti-vaqti bilan aspirantlar va ilmiy rahbarlarni eshitish, monitoring tashkil etish; 9) har yili kalendar muddatlarda aspirantlarni attestatsiyadan o'tkazish, 10) aspirantura dissertatsiyalari sifatiga talabchanlikni oshirish dissertatsiyalar mavzularini, ilmiy tadqiqot usullarini zamonaviy tarzda tasdiqlash, aspirantlar ilmiy rahbarligiga akademiklar, muxbir a'zolar, fan doktorlari, professorlarni jalb qilish masalasi ilmiy-tadqiqot institutlari direktorlari uchun majburiy etib belgilangan.

Qishloq xo'jaligi fanlari bosh boshqarmasiga esa 1) talabgorlardan KPSS tarixi bo'yicha aspiranturaga kirish imtihonini qabul qilish (Falsafa bo'yicha berilgan nomzodlik minimumi mavjud ekanligiga qaramay), 2) mavzulari institutning tematik rejasida ko'zda tutilmagan aspirantura ishlarining o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik; 3) har bir institutning ilmiy kadrlar tayyorlash borasidagi ishlarini tizimli nazorat qilish;
4) Qishloq xo'jaligi fanlari bosh boshqarmasi kengashida ilmiy kadrlar tayyorlash bo'yicha ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlarining hisobotlarini tinglash; 5) aspirantlarning ilmiy-nazariy konferentsiyalarini o'tkazish vazifasi yuklatilgan.

Xulosa. Ushbu dalillarga asoslanga holda O'zbekiston SSRda qishloq xo'jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash to'g'ri tashkil etilmaganligini ko'rishimiz mumkin. 1971 yil 25 oktabrda Toshkent shahri o'tkazilgan O'zbekiston SSR Qishloq xo'jaligi vazirligi hay'ati (hay'at raisi - E. Shayxov) yig'ilishi "Aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash to'g'risida"gi 85-son qarorni tasdiqlagan. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston SSR Vazirlar kengashi respublikaning iqtisodiy hayotini yaxshilash maqsadida iqtisodiy fanlar bo'yicha

[1] O'zMA, R-90-fond 10-ro'yxat, 4456-yig'majild, 177-varaq

aspiranturaga har yili qabul qilish rejasini 10-12 ta o'ringa ko'paytirish masalasini ijobiy baholagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. S.Sh. "Nasilloyev Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSRdagi ilm-fan siyosati" Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning "TAFAKKUR VA TALQIN" mavzusidagI respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman to'plami II qism. Buxoro – 2023. 7-12 b.
2. S.Sh. Nasilloyev, "Sovet hukumatining O'zbekiston SSR oliy yurtlarida aspirantura bosqichini tartibga solish sohasidagi huquqiy hujjatlari va ularning mohiyati. (ikkinchi jahon urushi davrida)" Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, № 17(54). 49-55 b.
3. S.Sh.Nasilloyev "O'zbekiston fanlar akademiyasining tashkil etilishi" RESEARCH FOCUS xalqaro ilmiy jurnali 2023 yil 5-son 92-98 b.
4. O'zbekiston Milliy arxivi saqlovi hujjatlari
5. Buxoro viloyat davlat arxivi saqlovi hujjatlari

TURKISTONDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SUG'ORISH SIYOSATINING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI (1870-1880 yy.)

Xamrayev Iskandar Murotjonovich
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkistonda suv resurslaridan foydalanish va sug'orish siyosatining ijobiy va salbiy tomonlari yoritilgan. Shuningdek, sug'orish tizimlarining modernizatsiyasi — kanallar qazilishi, mavjud ariqlarning rekonstruksiya qilinishi va yangi sug'orish inshooatlarining qurilishi — tashqi ko'rinishda mintaqaning agrar rivojlanishini ta'minlayotgandek ko'ringan bo'lsa-da, amalda bu harakatlar chor hukumati manfaatlariga, xususan paxtachilikni rivojlantirish strategiyasiga xizmat qilganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: suv qoidalari, kanal qazish, an'anaviy ariq tizimlari, yangi sug'orish inshootlari, paxtachilikni rivojlantirish strategiyasi, suv resurslari.

Suvdan foydalanish qoidalarini kodifikatsiya qilish orqali mustamlakachilik ma'muriyati an'anaviy kommunal va odatiy tizimni byurokratik ratsionallik bilan boshqariladigan tizimga aylantirdi. Shu ma'noda, suvdan kim, qachon va qanday sharoitlarda foydalanishi mumkinligini aniqlash harakati aholini tartibga solish usuliga aylandi. Turkistonda 1870–1880-yillarda qabul qilingan yangi suv nizomlari orqali suvdan foydalanish huquqlari va majburiyatlari qayta belgilandi. Bu siyosat Turkiston viloyatining rasmiy nashrlarida ham keng yoritilgan bo'lib, suvdan foydalanishdagi ijtimoiy tengsizlik va ma'muriy nazoratni mustahkamlash vositasi sifatida tavsiflanadi[1]. Tarixan Markaziy Osiyoda suv resurslarini boshqarish jamoaviy muzokaralar va ierarxiyani, shuningdek, ijtimoiy majburiyatni ham o'z ichiga olgan. Davlatning bu munosabatlarni rasmiylashtirishga urinishi, betaraflikni da'vo qilgan holda, ko'pincha mavjud tengsizliklarni kuchaytirgan yoki yangilarini yaratgan. 1870–1880 yillardagi Turkiston suv qoidalari shunchaki ma'muriy o'zgartirishdan ko'proq narsani anglatadi. Ular jamiyat, davlat va tabiat o'rtasidagi munosabatlardagi o'zgarishlarni o'zida mujassam etgan. Suv bilan bog'liq huquq va majburiyatlarni qayta belgilash orqali mustamlakachilik ma'muriyati ham moddiy hayotni, ham odamlar hokimiyat, adolat va dunyodagi o'rnini tushunadigan kontseptual doiralarni shakllantirdi.

Turkiston general-gubernatorligining rasmiy hisobotlari va ma'muriy hujjatlarida sug'orishni kengaytirish sivilizatsiyalashgan va rivojlanish loyihasi sifatida tasvirlangan. Bu ritorika kanal qazishni, an'anaviy ariq tizimlarini qayta qurishni va yangi sug'orish inshootlarini yaratishni hosildorlikni oshirish va dehqonlar farovonligini oshirish vositalari sifatida ifodalagan. Sug'orish tizimlarining modernizatsiyasi — kanallar qazilishi, mavjud ariqlarning rekonstruksiya

[1] Turkiston viloyatining gazeti. 1870–1880 yillar sonlari. — Toshkent.

qilinishi va yangi sug‘orish inshootlarining qurilishi — tashqi ko‘rinishda mintaqaning agrar rivojlanishini ta’minlayotgandek ko‘ringan bo‘lsa-da, amalda bu harakatlar chor hukumati manfaatlariga, xususan paxtachilikni rivojlantirish strategiyasiga xizmat qilgan. V.V. Barthold ta’kidlaganidek, Turkiston agrar iqtisodiyoti Rossiya sanoatining xom ashyo bazasiga aylantirilgan bo‘lib, bu jarayonda suv resurslari ustidan nazorat hal qiluvchi rol o‘ynagan[1]. 1860-yillardan boshlab Rossiyada paxtaga talab ortib bordi, ayniqsa Amerika fuqarolar urushi (1861–1865) davrida va undan keyin, bu global paxta ta’minotini uzib qo‘ydi. Turkiston qulay muqobil manba sifatida paydo bo‘ldi. Turkiston kabi qurg‘oqchil mintaqada suv nafaqat qishloq xo‘jaligi ehtiyoji, balki siyosiy ta’sir vositasi ham edi. Taniqli sharqshunos Bartold Turkistonning agrar iqtisodiyoti Rossiya imperiyasining xomashyo qo‘shimchasiga aylantirilganini ta’kidladi. Bartoldning so‘zlariga ko‘ra, suv resurslarini boshqarish bu o‘zgarishda hal qiluvchi rol o‘ynagan. Sug‘orish tizimini nazorat qilish orqali mustamlaka hukumati imperiya to‘qimachilik ishlab chiqarishini qo‘llab-quvvatlash uchun butun qishloq xo‘jaligi landshaftini qayta tuzdi. Bu o‘zgarishlar XX asrga qadar davom etgan keng ko‘lamli paxta yetishtirish uchun zamin yaratdi va undan keyin ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga olib keldi. Tarixan Turkistonda sug‘orishni modernizatsiya qilish qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihasi emas, balki Rossiya imperiyasi strategiyasining hisoblangan tarkibiy qismi edi.

Muxtasar qilib aytganda, sug‘orish tizimlarini qayta shakllantirish va suv resurslari ustidan nazoratni o‘rnatish orqali Rossiya imperiyasi mintaqa qishloq xo‘jaligini muntazam ravishda paxta yetishtirishga yo‘naltirdi. Bartold va boshqa tarixchilar ko‘rsatganidek, Turkiston samarali ravishda xom ashyo bazasiga aylantirildi, suvni nazorat qilish esa mustamlakachilik iqtisodiy o‘zgarishlarining asosiy dastagi bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turkiston viloyatining gazeti. 1870–1880 yillar sonlari. — Toshkent.
2. Barthold V.V. Ocherki po istorii Sredney Azii. — Moskva: Nauka, 1963.

KASPIYORTI TEMIRYO‘LI QURILISHIDA MAHALLIY AHOLINI ISHTIROKI (BUXORO AMIRLIGI MISOLIDA)

Buriyev Zavqiddin Toshpo‘lat o‘g‘li
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Kalit so‘zlar: Kaspiyorti temiryo’li, Buxoro amirligi, Marv, Samarqand, Annekov, M. I. Slutskiy.

Annotatsiya: Kaspiyorti temiryo‘lining qurilishida imperiya markaziy hududlaridan temiryo ‘l qurilishi bo‘yicha mutaxasislar olib kelishi bilan bir qatorda mahalliy aholining ishtiroki ham muhim o‘rin tutgan. 1896-yilda birinchi uchastkada ishlagan 13100 kishidan 5900 nafari o'zbeklar, 3600 nafari ruslar, 2520 nafari forslar bo'lgan. Buxoro amirligi bilan temir yo'li qurilishi uchun 1913-yil oktyabrdan 1914-yil aprelgacha ishchi yollash bo'yicha muzokaralar olib borilgan.

XIX asrning 80-yillari boshida qurilish jarayoni jadallashgan Kaspiyorti temiryo‘li Rossiya imperiyasining o‘lkadagi harbiy, iqtisodiy, siyosiy manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilar edi. Qurilish ishlariga jalb qilish uchun vakillar Boku, Derbent, Lenkoranga yuborildi va 9-iyul kuni general-mayor Petrusevich Annenkovga Bokuda 500 ishchi yollanganini, ular harbiy kemalarda tashilishini xabar qildi. 1885-yil 4-iyun kuni Kaspiyorti harbiy temir yo'li qurilishida 2 minggacha ishchi, 21-iyun kuni 4 ming, 12, 26-avgustda 8 ming, 20-noyabrda esa 14 ming ishchi ishlagan. 1883-yil aprel oyida faqat Marvdan Amudaryogacha bo'lgan uchastkada 12 minggacha tuproq qazuvchi (har biri 4 ming kishidan 3 partiya) ishlagan.

1885-yilga kelib mahalliy millat ishchilarining yo'l qurilishiga oqimi shu qadar katta ediki, dastlab faqat Rossiyadan tuproq qazuvchilarni talab qilgan o'sha Annenkov 30-may kuni Bosh shtabga

[1] Barthold V.V. Ocherki po istorii Sredney Azii. — Moskva: Nauka, 1963.

telegramma yubordi: «...Marv okrugi harakatsiz aholi uchun osonlikcha va foydali ravishda 20.000 gacha ishchi yetkazib bera oladi. Bunday miqdor tufayli ish rejasini butunlay o'zgartirish va Rossiyadan ishchilarga bo'lgan keyingi talabni to'xtatish zarurati tug'ildi». Amudaryo ortida, yo'lning Samarqand uchastkasi qurilishida barcha yer ishlari o'zbeklar va tojiklar tomonidan bajarildi. Bu haqda harbiy vazirlik o'zining «Kaspiyorti harbiy temir yo'lining Samarqand uchastkasi qurilishi to'g'risida hisobot»ida shunday yozgan: «bu uchastkadagi barcha yer ishlari... faqat mahalliy ishchilar, ya'ni o'z sug'orish kanallarini qurishga ko'nikkan Buxoro fuqarolari tomonidan bajarilgan». Samarqand uchastkasida har kuni o'rtacha 2500 dan ortiq kishi, 1887-yil sentabr, oktabr, noyabr oylarida esa har kuni qurilishga chiqqan ishchilar soni 5 mingga yetgan temir yo'li Toshkentga shoxobcha bilan birga, uchastka boshliqlari ma'lumotlariga ko'ra, 1896-yil 17-yanvarda - 5095 kishi, 1896-yil yoz oylarida esa ishchilar soni 20 ming kishiga yetgan.[1]

Yo‘l quruvchilar soni Toshkentga shoxobchasi bo‘lgan yo‘lning o‘sishi hisobiga ko‘paygan, uchastka mudirlarining ma’lumotlariga ko‘ra, 1896-yil 17-yanvar holatiga ko‘ra 5095 kishi qurilayotgan bo‘lsa, 1896-yil yoz oylarida ishchilar soni 20 ming kishiga yetgan. Ishchilarning milliy tarkibi juda xilma-xil bo'lgan, ammo qazuvchilarning mutlaq ko'pchiligi o'zbeklar edi. Shunday qilib, 1896 yil davomida birinchi bo‘limda 13100 kishi ishlagan, ulardan 5900 nafari o‘zbeklar, 3600 nafari ruslar, 2520 nafari forslar, 700 nafari armanlar, 330 nafari lezgilar, 50 nafari italyanlar edi. Birinchi uchastka qurilishi boshlanganda (1896 yil 17 yanvardagi ma'lumotlarga ko'ra) 3115 ishchidan 2500 nafari yoki 80,2 foizi o'zbeklar edi. Ikkinchi bo‘limda (1896-yil 4-mart holatiga ko‘ra) 975 kishi ishlagan, shundan 733 nafari o‘zbeklar bo‘lib, 75,1% ni tashkil qilgan. Uchinchi bo‘limda (1896 yil 27 yanvar holatiga ko‘ra) 1005 ishchidan deyarli 85,5% (860 kishi) o‘zbeklar edi. Yo‘l qurilishida uning barcha uchastkalarida jami 100 mingdan ortiq turli millat vakillari mehnat qildi.[2]

1913-yil oktabrda Buxoro temir yo‘l korxonasi direktori M. I. Slutskiy qurilish ishlariga tayyorgarlik ko‘rish uchun Buxoroga keldi. Unga birinchi navbatda mehnat masalasini hal qilish topshirildi. Kompaniya barcha qazish ishlariga mahalliy ishchilarni jalb qilishni maqsad qilgan. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, qazish ishlari uchun 3000 ga yaqin odam kerak bo'lgan. 1913-yil oktyabridan 1914-yil apreligacha Slutskiy Buxoro hukumati bilan ishchilarni yollash borasida muzokaralar olib bordi. Amir buxoroliklarning qo‘shni davlatlar va boshqa shaharlarga ish uchun odatiy ko‘chishlarini taqiqlashga va’da berdi va temir yo‘l 3000 emas, balki 10-15000 ishchini ta’minlay olishiga ishontirdi. Biroq amir belgilangan miqdordagi ishchilarni yubormagan. 1914-yil aprel oyining o‘rtalarida qurilishga dastlabki 400 ta Buxoro ishchilari yetib keldi. 1-mayga qadar yana 600 nafar, so‘ngra 10, 20-may, 5 va 15-iyun kunlari har biridan 500 nafardan buxoroliklarni yollash rejalashtirilgan edi.

Yirik temir yo‘l stansiyalarida mustamlakachilar uchun zarur bo‘lgan ma’muriy rejimni o‘rnatish Rossiya imperiyasining Turkistondagi – Kaspiyorti viloyatidagi manfaatlari uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Imperiya hukumati tomonidan 1888-yil 23-iyulda tasdiqlangan “Chorjo‘y va Buxoro temir yo‘l stansiyalari yaqinidagi qishloqlarni boshqarish, obodonlashtirish va ularning xo‘jaligi to‘g‘risida qoidalar” shundan dalolat beradi. Shunga muvofiq 1883-yil 23 iyul (1365-yil 25 shavvol) protokolida bayon etilgan qoidalarning bajarilishini nazorat qilish Chorjo‘y temir yo‘l stansiyasiga yondosh joylarda esa Rossiyaning siyosiy agentligiga vaqtincha yuklanadi. Chorjo‘y harbiy boshlig‘iga hamda Buxoro stansiyasi qoshidagi poseleniyaga mudirlik qilish uchun tayinlangan shaxsga Turkiston o‘lkasi viloyatlaridagi uyezd boshlig‘i huquqi berildi[3].

Mazkur qoidalar joriy etilganidan keyin ancha vaqt o‘tgach, temir yo‘l poseleniyalarini va harbiy garnizonlarni qurish uchun Buxoro amirligi hududining bir qismi zo‘rlik bilan bosib olishga bog‘liq ravishda Turkiston o‘lkasi Dehqonchilik va davlat mulklari boshqarmasi 1915-yil 5 mayda: “Buxoro amiri Oliy hazratlari tomonidan muhandis Kovalevskiyga Samsonovo stansiyasi hududida keng sug‘orish konsessiyasi tuhfa etilayotganligi tufayli, Turkiston general-gubernatorligi huzuridagi

[1] З. К. Ахмеджанова. К истории строительства железных дорог В Средней Азии (1880-1917 гг.). ТАШКЕНТ · 1965. С-76-77.
[2] З. К. Ахмеджанова. К истории строительства железных дорог В Средней Азии (1880-1917 гг.). ТАШКЕНТ · 1965. С-80-81.
[3] O’zbekiston Milliy arxivi, I-16-jamg’arma, 1-ro’yxat, 755-ish.

diplomatik amaldor janob o‘lka bosh boshlig‘i topshirig‘iga ko‘ra, Buxorodagi Siyosiy agentni Buxoro hukumati bilan bog‘liq aloqalar uchun, mazkur muhandisga berilayotgan maydonni oldindan ajratish, yuqorida zikr etilgan stansiya qoshidagi bo‘lajak rus poseleniyesi uchun zarur bo‘lgan yer uchastkasini ajratib berish zarurligi to‘g‘risida xabardor qildi” – deb yozgan edi[1].

Ushbu maktubdan so‘ng roppa-rosa 22 kun o‘tgach, Turkiston o‘lkasi Dehqonchilik va davlat mulklari boshqarmasi Buxoro amirligidan ajratib olingan yerlarda “Buxoro temir yo‘lining Qarshi, Samsonovo va Kalif stansiyalari hududlarida ... bo‘lajak posyolkalar uchun joyni va talab etiladigan yer maydonlarini” aniq belgilab, rus poseleniyalarini barpo etish loyihasini ishlab chiqish vazifasini qo‘ydi[2]. Tabiiyki, Buxoro, Kaspiyorti va Toshkent temir yo‘llari mintaqalardagi zikr etilgan, ya’ni boshqa temir yo‘l stansiyalari hududidagi rus posyolkalari uchun ajratilgan yerlarda istiqomat qilib kelgan tub aholi o‘z yerlaridan ko‘chirilgan.

SOMONIYLAR SULOLASINING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI: TARIXIY JARAYON VA OMILLAR

Umarov Baxtishod Baxridin o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti
https://orcid.org/0000-0002-0501-3789
b.b.umarov2019@buxdu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada Somoniylar sulolasining shakllanish jarayoni, uning Movarounnahrdagi siyosiy ta’siri va hukmronlikka erishish omillari tahlil qilinadi. Tadqiqot Asad ibn Somonxudotning o‘g‘illari – Nuh, Ahmad, Yahyo va Ilyos ibn Asadlarning faoliyatini o‘rganishga asoslangan bo‘lib, ularning Tohiriylar davlatiga xizmat qilishdan mustaqil siyosiy kuchga aylanish jarayoniga e’tibor qaratadi. Maqolada Somoniylar tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar, iqtisodiy mustahkamlanish strategiyalari va mintaqaviy boshqaruv usullari tahlil qilinadi. Xususan, Nuh ibn Asadning Samarqandni boshqarishi, Ahmad ibn Asadning Farg‘onadagi islohotlari, Yahyo ibn Asadning Shosh va Ustrushonadagi faoliyati hamda Ilyos ibn Asadning Xurosondagi siyosiy roli ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Somoniylar dastlab Tohiriylar vassali sifatida harakat qilgan bo‘lsa-da, keyinchalik o‘z hududiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash orqali IX asr oxiri va X asrda Movarounnahrda asosiy siyosiy kuchga aylangan.

Kalit so‘zlar: Somoniylar, Movarounnahr, Tohiriylar, siyosiy hokimiyat, Nuh, Ahmad, Yahyo, Ilyos va boshqalar.

Kirish. Tarixiy manbalarda Asad ibn Somonxudot haqida deyarli hech qanday ma’lumot uchramaydi. Mavjud bo‘lgan ayrim manbalarda u Xalifa Ma’mun davrida (813–833) Tohir ibn Husayn (775–822) xizmatiga kirgani va uning to‘rt o‘g‘li borligi qayd etiladi. Keyinchalik, bu to‘rt o‘g‘il Xalifa Ma’munga Rofe ibn Lays qo‘zg‘olonini bostirishda va hokimiyatni mustahkamlashda muhim yordam ko‘rsatadi. Ularning xizmatlari evaziga 819-yilda Ma’mun tomonidan 819-yil Nuh Samarqand hokimi, Ahmad Farg’ona hokimi, Yahyo Shosh va Ustrushona hokimi va Ilyos Hirot hokimi etib tayinlanadi. Ayni paytda, Xuroson viloyati mahalliy Tohiriylar sulolasi qo‘liga o‘tadi. Dastlab, viloyatga Tohir ibn Husayn noib etib tayinlanadi (821), bir yildan so‘ng esa uning o‘g‘li Talxa ibn Tohir (822–828) Xuroson noibi bo‘ladi. Biroq, ular Movarounnahr viloyatlaridagi hukmdorlikni Somoniylar oilasiga topshirish siyosatini davom ettirgan.

Tadqiqot usullari. Ishning obyekti somoniylar sulolasining shakllanish jarayoni, uning Movarounnahrdagi siyosiy ta’siri va hukmronlikka erishish omillari bo‘lib, mavzuni yoritishda tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiylik, xolislik, ma’lumotlarni tizimlashtirish kabi metodlardan foydalanilgan.

[1] Канода Н.Н. Переселенческие поселки в Закаспийской области. (Конец XIX - начало XX в.) [Текст] / АН ТССР. Ин-т истории им. Ш. Батырова. - Ашхабад : Ылым, 1973. – С.25.
[2] O’zbekiston Milliy arxivi, I-16-jamg‘arma, 1-ro’yxat, 490-ish, 2-2 orqa varaqlar.

Tahlil va natijalar. Nuh ibn Asad sulolaning dastlabki hukmdori sifatida Tohiriylar qo'l ostida Movarounnahrning bosh shahri Samarqandni idora etadi. Narshaxiy va Al-Balozuri asarlarida Nuh ibn Asad 817-yildan Samarqand boshqaruviga kelganligini, garchi Ahmad, Yahyo va Ilyoslarga boshqa hududlar berilgan bo'lsa-da, ular akasi Nuh va u boshchiligida xalifalikka bo'ysunganligini qayd etadi

Nuh ibn Asad Somoniylar sulolasining dastlabki hukmdori sifatida Movarounnahrning markaziy shahri bo‘lgan Samarqandni boshqargan. Narshaxiy va al-Balozuriy asarlarida Nuh ibn Asadning 817-yildan boshlab Samarqand hokimi sifatida faoliyat yuritganligi qayd etiladi. Shuningdek, ushbu manbalarda Ahmad, Yahyo va Ilyosga boshqa hududlar taqsimlangan bo‘lsa-da, ular akasi Nuh ibn Asad boshchiligida xalifalik hokimiyatiga bo‘ysunganligi ta'kidlanadi [1, 69; 2, 356-357]. Ayrim manbalarda esa Nuh ibn Asadning Samarqand hokimligi 819-yilda boshlanganligi qayd etiladi [3; 4, 24–25]. Ushbu tafovut manbalar o‘rtasidagi xronologik nomuvofiqlik yoki siyosiy voqealar talqinidagi farqlardan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. 817–819-yillar oralig‘idagi bu ikki yil farq Nuh ibn Asadning Samarqand hokimligiga tayinlanish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshganligini ko‘rsatishi ehtimoldan holi emas.

Nuh ibn Asad boshqaruvi davrida qo‘shin holati yaxshilanib, Samarqand va uning atroflaridagi devorlar ta'mirlanadi. Hukmdor sifatida mis tangalar zarb ettiradi[5, 38-39]. Katta siyosiy mavqeiga erisha boshlagan Nuh ibn Asadga Movarounnahr soliqlarini to'plab tohiriylarga yuborish vazifasi ham topshiriladi. Ibn Xurdodbehning 826–827-yillarga (hijriy 211–212-yillarga) oid Xuroson va unga bo‘ysunuvchi mintaqalarning xiroj solig‘i miqdori haqidagi ma'lumotlarida So‘g‘dning katta qismi, Farg‘ona hamda “turk shaharlari” Nuh ibn Asad boshqaruvi ostida bo‘lganligi qayd etiladi [6, 194]. Bu ma'lumot Somoniylarning bu davrda faqat harbiy va siyosiy emas, balki iqtisodiy jihatdan ham o‘z mavqeini mustahkamlashga harakat qilganini ko‘rsatadi. “Turk shaharlari” atamasi ostida VII–VIII asrlarda Farg‘ona va uning atrofida yashagan turkiy qabilalarga mansub aholi istiqomat qilgan shaharlar nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin. Taxminimizcha, bu shaharlarga Axsikat, Koson va boshqa hududlar kirgan.

Movarounnahrning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti biroz izga tushishi bilan Nuh g'ayridinlarga (asosan islomni qabul qilmagan turk qabilalariga) qarshi yurishlarni boshlaydi. 839-840-yillarda Isfijob (hozirgi Sayram)ga yurish qilib g'alaba qozonadi[4, 25; 7, 106-107]. G‘alabadan so‘ng shahar atrofi mustahkam devor bilan orab olindi. Bundan oldinroq 838–839-yillarda Koson va Urasht hududlariga (Farg‘ona vodiysidagi o‘rta asr shahri, hozirgi Qirg‘iziston hududiga to‘g‘ri keladi. “Hudud al-‘Olam” manbasiga ko‘ra, Urasht shahri yonidan Qurshab daryosi oqib o‘tgan) yurishlar uyushtirilib, ushbu hududlar egallangan bo‘lsa-da, Isfijobdagi g‘alaba somoniylar uchun tarixiy ahamiyatga ega jang bo‘lib tarixga kirgan.

Sababi somoniylarning dastlabki harbiy yurishlari Tohiriylar amriga binoan, ko‘chmanchi qabilalar hujumlarini qaytarish yoki mahalliy qo‘zg‘olonlarni bostirish maqsadida amalga oshirilgan edi. Isfijobning zabt etilishi esa Somoniylar tomonidan mustaqil ravishda tashkil etilgan ilk yurish hisoblanadi. Ushbu g‘alaba Somoniylarning mintaqadagi harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bilan birga, ularning hududiy kengayish siyosatining shakllanishiga zamin yaratgan.

Somoniylar sulolasining yirik vakillaridan biri Nuhning ukasi, Ahmad ibn Asadning Farg‘ona hokimi etib tayinlanishi bilan Farg'ona vodiysidagi mahalliy sulolalar hukmronligi tugatilib, hokimiyat Somonxudot avlodlari qo'liga o‘tdi[8, 15]. Ahmad uchun Farg‘onani boshqarish murakkab jarayon bo‘lgan. Hatto 822–823-yillarda Ustrushona (ba'zi tadqiqotlarga ko‘ra, Shosh) va Farg‘onada hali islomni qabul qilmagan turkiy qabilalarning isyoni natijasida u Farg‘onani tark etishga majbur bo‘lgan. Mirxondning yozib qoldirishicha, Xuroson noibi Talxa ibn Tohir Ahmadning iltimosiga binoan nufuzli vaziri Ahmad ibn Abu Xolidni katta qo‘shin bilan Farg‘onaga yuboradi [9, 114]. “Din dushmanlari” Ahmad ibn Abu Xolid tomonidan quvib chiqariladi va Ahmad ibn Asad Farg‘ona boshqaruvini qayta qo'liga oladi[10, 82]. Ushbu voqealar Somoniylar hokimiyatining Movarounnahr hududida mustahkamlanish jarayoni murakkab va beqaror kechganini, ayniqsa, mahalliy qarshilik va isyonlarni bostirish uchun harbiy-siyosiy ittifoqlar muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Farg‘onada Ahmad ibn Asad hokimiyatining mustahkamlanishi va to‘liq o‘rnatilishi uning akasi Nuh ibn Asadning siyosiy va harbiy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq edi. Xususan, Farg‘onaga shimol va shimoli-sharqdan bostirib kirgan turkiy qabilalarga qarshi kurashda asosiy yetakchilikni aynan Nuh ibn Asad amalga oshirgan. Isfijob fath etilishi bilan uzumzor, bog’lar va ekinzorlarni o’rab turuvchi mudofaa devorlari hamda shaharni himoya qilish maqsadida qal’alar barpo etilishi bilan Ahmadning mavqei Farg’onada yanada ko’tarildi[11, 24]. Buning natijasida turkiy qabilalar bilan aloqa yaxshilanib, ko’plab talon-tarojlik urushlari sezilarli darajada to’xtatildi.

Ibn Havqalning ma’lumotlariga ko‘ra, Isfijobdan (hozirgi Sayram) to Farg‘ona vodiysining chekka hududlarigacha bo‘lgan mintaqada turkiy qarluqlar yashab, ular bilan chegaradosh bo‘lgan [12, 20]. Bu hududlar vaqt-vaqti bilan qarluqlarning hujumlariga uchragan. Shu sababli Nuh kabi Ahmad ham o‘z qo’shinining jangovorligi va qurol-aslahalarining takomillashtirib borilishiga katta e’tibor bergan. Ahmad ibn Asad davrida Farg‘ona vodiysi va unga qo‘shni turkiy shaharlarning rivojlanishini inobatga olganda, Somoniylar qo‘shinining yuqori jangovar tayyorgarlikda bo‘lishi zarur edi. Ayniqsa, chegarada yashovchi ko‘chmanchi qabilalar asosan talonchilik yurishlari bilan shug‘ullanganligi sababli, qo‘shin doimiy jangovar shaylik holatida saqlangan.

Shu yillarda Ahmad o‘z hokimiyati ostida bo‘lgan Farg‘ona va turkiy shaharlardan 326 400 dirham xiroj solig‘ini undirgan [13, 160]. Manbalarda keltirilmagan bo‘lsa-da, 839–840-yillardagi Nuhning Isfijobga yurishlarida ukalari ham ishtirok etgan bo‘lishi ehtimoli bor. Sh. Kamoliddin ham ushbu taxminni ilgari surib, musulmon bo‘lmaganlarga qarshi g‘azovot urushlari har bir hukmdor uchun sharafli ish hisoblanganligini qayd etadi [11, 29]. Ammo fikrimizcha, yurishda Ahmad ishtirok etmagan bo‘lishi kerak, chunki 838–839-yillarda Farg‘onada kuchli zilzila yuz berib, 15 mingdan ortiq inson halok bo‘lganligi manbalarda keltiriladi [14, 19; 15, 56]. Bunday vaziyatda Ahmad Farg‘onada bo‘lib, urushga uncha katta bo‘lmagan qo‘shin va oziq-ovqat bilan yordam bergan bo‘lishi mumkin. Shoshning Isfijobga yaqinligi, qarluqlar bilan doimiy to‘qnashuvlardan qutulish va tinchlikni mustahkamlash maqsadida Yahyo ibn Asad bevosita ushbu yurishda ishtirok etgan bo‘lishi kerak.

Yahyo ibn Asad Somoniylar sulolasining uchinchi vakili bo‘lib, Xuroson noibi G‘asson ibn Abbod tomonidan Shosh va Ustrushona hokimi etib tayinlangan. Manbalarda Yahyo ibn Asad haqida to‘liq ma’lumotlar saqlanib qolmagan bo‘lsa-da, Shosh va Ustrushona tarixiga oid ayrim siyosiy jarayonlarni tahlil qilish orqali uning faoliyatini ma’lum darajada tiklash imkoniyati mavjud.

822–823-yillarda Ustrushona va Farg‘onada yuzaga kelgan qo‘zg‘olon xalifa Ma’munning markaziy hokimiyatini zaiflashtirishga qaratilgan harakatlardan biri bo‘lib, uni bostirish uchun Xuroson noibi Talha ibn Tohir katta qo‘shin bilan yurish boshlaydi. Ushbu jarayonda xalifa Ahmad ibn Abu Xolidni qo‘shimcha harbiy yordam bilan yuborib, qo‘zg‘olon bostirilishiga alohida e’tibor qaratgan. Manbalarga ko‘ra, birlashgan arab qo‘shini Ustrushona podshohi Kovus ibn Sahirni mag‘lub etib, uni va o‘g‘li al-Fadl ibn Kovusni asirga olib Bag‘dodga jo‘natgan[16, 61]. Ushbu hodisa Ustrushona tarixidagi burilish nuqtalaridan biri bo‘lib, viloyatning siyosiy mustaqilligiga yakun yasagan.

Ibn al-Asir o‘z asarida ushbu voqealarni batafsil yoritgan bo‘lsa-da, Ustrushona va Shosh voliysi Yahyo ibn Asad haqida ma’lumot bermaydi. Bu esa Yahyo ibn Asad dastlab faqat Shosh viloyatini boshqargan, Ustrushona esa nomigagina unga tegishli bo‘lgan degan xulosani ilgari surish imkonini beradi. Ustrushonaning somoniylar tasarrufiga o‘tishi aynan Ahmad ibn Abu Xolidning ushbu yurishidagi g‘alaba bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik somoniy hukmdorlar mintaqada o‘z mavqeini mustahkamlagan. Bu jarayonda Yahyo ibn Asadning hokimiyatini mustahkamlashda sulola rahbari Nuh ibn Asadning ta’siri katta bo‘lgan. Shuningdek, Yahyo ibn Asadning Nuh ibn Asad boshchiligidagi shimoliy yurishlarda ishtirok etgani qayd etilgan. Ayniqsa, Shosh mintaqasi o‘sha davrda ko‘chmanchi qabilalar bilan to‘qnashuvlarning asosiy markazlaridan biri bo‘lib[17, 173], Yahyo bu hududlarda somoniylar ta’sirini kengaytirishda muhim rol o‘ynagan.

826–827-yillardan boshlab Yahyo ibn Asad boshqaruvi ostidagi Shosh, Ustrushona va Xo‘jand hududlaridan Tohiriylarga yuborilgan soliqlar miqdori aniq qayd etilgan bo‘lib, bu Somoniylar davrida mintaqadagi moliyaviy tizimni o‘rganish uchun muhim dalildir. Manbalarga ko‘ra, jami 757.100 dirham soliq yig‘ilgan bo‘lib, uning asosiy qismini (609.100 dirham) musayyab dirhamlari, qolgan qismini esa muhammadiy dirhamlari tashkil etgan[6, 68]. Umuman olganda, Nuh, Ahmad va Yahyo ibn Asadlar tomonidan Tohiriylarga 2.172.500 dirham soliq yuborilgan[13, 160].

Ibn Xurdodbehning ushbu ma’lumotlariga tayanib, keyingi yillarda Xo‘jand hududi ham Yahyo ibn Asad tasarrufiga o‘tganini taxmin qilish mumkin. Bu jarayon Somoniylarning shimoliy hududlardagi ta’sirining ortib borishini hamda Yahyo ibn Asadning Shosh va Ustrushonadan tashqaridagi yerlarda ham siyosiy mavqeini mustahkamlashga intilganini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Yahyoga qarashli Binkatda qadimdan zarbxona mavjud bo‘lib, keyingi davrlarda ham uning faoliyat yuritgani hududdagi iqtisodiy barqarorlik va pul muomalasining davomiyligini anglatadi.

Somoniylar sulolasining to‘rtinchi voliysi Ilyos ibn Asad bo‘lib, unga Movarounnahr hududi emas, balki Xurosondagi Hirot shahri in’om etilgan edi. U to‘rt aka-uka ichida tohiriylarga bevosita xizmat qilgan yagona vakil bo‘lib, Xuroson qo‘shinlari qo‘mondoni sifatida harbiy-siyosiy faoliyat yuritgan. Hirot va Seistondagi faoliyati bilan Abbosiy xalifalarining e’tiborini qozongan Ilyos ibn Asad ma’lum muddat Misrning Iskandariya shahri voliyligi lavozimiga ham tayinlangan[18, 80-81]. Ilyos ibn Asad butun faoliyati davomida Tohiriylar xizmatida bo‘lib, yirik harbiy yurishlar va qo‘zg‘olonlarni bostirishda bevosita o‘z qo‘shini bilan ishtirok etgan. Abdulloh ibn Tohir noiblikka kelgach, Xurosonni amalda mustaqil boshqarishga intilgan. U bu maqsadni amalga oshirish uchun tajribali, kelajakni oldindan ko‘ra biluvchi siyosiy arboblar hamda harbiy qo‘mondonlar yordamidan foydalangan. Ilyos ibn Asad aynan shunday yuqori mavqega ega bo‘lgan tarixiy shaxslardan biri sifatida ajralib turadi.

841/842-yilda Nuh ibn Asad vafot etadi va Abdulloh ibn Tohir Ahmad hamda Yahyoni Samarqand hokimi etib tayinlaydi [19, 220]. Samarqandda qancha vaqt qo‘shhokimiyatchilik davom etgani bizga noma’lum. Aynan shu yillarda Binkatda Yahyo ibn Asad nomidan tangalar zarb etila boshlagan [20, 30–31; 21, 190–198].

Tadqiqot davomida Yahyoning Samarqandda tanga zarb qildirganligi haqida ma’lumot uchratilmadi. Biroq R.N.Fryening fikriga ko‘ra, Ahmad 858–859-yillardan boshlab Samarqandda fals tangalar zarb qildirgan [22, 137]. Bundan xulosa qilish mumkinki, Ahmad Farg‘onadan turib Samarqandni nazorat qilgan, Yahyo esa Qarluq xoqonligi bilan chegara hisoblangan Shosh va uning atrofidagi hududlar mudofaasiga katta e’tibor qaratgan. Yahyoning Shoshda o‘z nomidan tangalar zarb qildirganligi uning mustaqil faoliyat yuritganligini ko‘rsatadi. Ahmad esa aka-uka Somoniylar yagona maqsad yo‘lida harakat qilayotganini hisobga olib, o‘z mavqeini mustahkamlashga intilgan. Ushbu maqsad xalifalikka sodiq, Xurosondan alohida mustaqil boshqariladigan siyosiy tuzilma tashkil etish bo‘lgan.

Yahyo ibn Asad umrining oxirigacha, ya’ni 37 yil davomida Shoshni idora etganligini inobatga olsak, u shaharda bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan bo‘lishi tabiiy. 855/856-yilda Yahyo vafot etganidan so‘ng, Samarqand bilan birga Shosh ham Ahmad ibn Asad qo‘liga o‘tadi. Yahyo ibn Asad bilan deyarli bir vaqtda Ilyos ibn Asad ham vafot etgan, natijada Hirot ustidan nazorat Somoniylar qo‘lidan chiqqan.

Manbalarga ko‘ra, Ahmad ibn Asadning Nasr, Ya’qub, Yahyo, Asad, Ismoil, Is’hoq va Homid ismli yetti nafar o‘g‘li bo‘lgan[9, 114]. Bartoldning ma’lumotlariga binoan, Ahmad Samarqandga o‘g‘li Nasrni, Shoshga esa ikkinchi o‘g‘li Abu Yusuf Ya’qubni voliy etib tayinlagan[23, 268]. Shu tariqa Movarounnahr boshqaruvi to‘liq Ahmad ibn Asad nazoratiga o‘tgan.

Samarqand Movarounnahrning yirik va strategik jihatdan muhim shahri bo‘lib, uning nazorati Abbosiylar va Tohiriylar uchun katta ahamiyat kasb etgan. Ahmad esa vaziyatni to‘g‘ri baholab, dastlab Samarqandda turib butun hududni boshqargan. Keyinchalik esa u shahar boshqaruvini o‘g‘li Nasrga topshirib, o‘zi Farg‘onaga qaytgan.

Nasr ibn Ahmad haqidagi dastlabki ma'lumotlar Ibn Havqal va Istaxriy asarlarida uchraydi. Ko'chmanchi turk qabilalari orasida islom dinining jadallik bilan yoyilishi somoniylar nomi bilan bo'g'liqligini deyarli barcha manbalar orqali ko'rishimiz mumkin[24, 96]. Nasr ham boshqa somoniy voliylar singari islomni qabul qilmagan hududlarga g'azovot yurishlarini amalga oshirgan. Xususan, Shavg'arga 300 minglik g'oziylar qo'shini bilan yurish qilgan[17, 131]. Shavg'arning Janubiy Qozog'istonda joylashganligini hisobga olsak, Nasr bu davrda siyosat maydoniga chiqib, katta siyosiy kuchga ega bo'lganligiga guvoh bo'lamiz.

Ahmad ibn Asad vafotidan so'ng (864-yil) Tohiriylar hukmdori Muhammad ibn Tohir Nasrni Samarqand va Xuroson chegarasi hududlar voliysi etib tayinlaydi. Aslida bu butun Movarounnahr boshqaruvi amalda Nasr qo'liga o'tganligidan dalolat berar edi. Numizmatik ma'lumotlarga ko'ra, Ahmad vafotidan so'ng Farg'ona boshqaruvi Abul Ash'os Asad qo'liga o'tgan[25, 17]. Bizning fikrimizcha, Nasr ukasi Asadni Farg'onaga hokim qilib yuborgan va u Axsikatda fals tangalar zarb qildirib vodiy nazoratini o'z qo'lida ushlab turgan. Bu davrda yosh bo'lishiga qaramay Ismoil va Is'hoq ibn Ahmadlar ham siyosat maydoniga chiqib kela boshlagan.

Xurosonda Ya'qub ibn Lays g'alabalari va Tohiriylar homiyatining parchalanishi bilan Nasr markazi Samarqand bo'lgan Movarounnahrni mustaqil idora eta boshladi. 873-874-yillarda Amudaryoning shimoliy qismi to'liq Nasr qo'liga o'tib, zaiflashib qolgan Tohiriylardan Buxoroni ham tortib oladi va Ismoil ibn Ahmadni Buxoroga hokim etib tayinlaydi. 875-yil xalifa al-Mu'tamid (870-892-yillar) Xurosondan mustaqil Movarounnahr noibi sifatida Nasr ibn Ahmadni e'tirof etadi[4, 26].

Xulosa. Somoniylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi Movarounnahr tarixidagi muhim jarayonlardan biri bo'lib, u mintaqadagi siyosiy kuch muvozanatini tubdan o'zgartirdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Asad ibn Somonxudotning o'g'illari dastlab Tohiriylarga xizmat qilgan bo'lsalar-da, bosqichma-bosqich o'z siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga erishganlar.

Somoniylar hukmronlikka erishish jarayonida bir necha muhim omillar rol o'ynagan. Ular ichida Samarqand, Farg'ona, Shosh va Xuroson hududlarida olib borilgan ma'muriy islohotlar, mintaqaviy boshqaruv tizimining takomillashtirilishi, harbiy yurishlar va iqtisodiy siyosat muhim ahamiyat kasb etadi. Nuh ibn Asadning Samarqandni boshqarishi va uni markaziy shahar sifatida mustahkamlashi, Ahmad ibn Asadning Farg'onadagi iqtisodiy va ma'muriy islohotlari, Yahyo ibn Asadning Shosh va Ustrushonadagi harbiy faoliyati hamda Ilyos ibn Asadning Xurosondagi siyosiy o'rni sulolaning yuksalishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Narshakhī, Abū Bakr Muḥammad ibn Ja'far. (1993). *The history of Bukhara* (A. Mukhammadjonov, Ed.; A. Rasulov, Trans.; D. Yusupova, Annot.). Sharq bayozi. (Original work composed 943-944 CE)
2. al-Balādhurī, Aḥmad ibn Yaḥyā ibn Jābir. (2017). *Futūḥ al-buldān: Khurāsānning fath etilishi* [The conquest of Khorasan] (Sh. S. Kamoliddin, Trans. & Comm.). Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti. (Original work composed 9th century)
3. al-Hamadhānī, Ibn al-Faqīh. (n.d.). *Akhbār al-buldān* [News of countries]. Drevnyaya literatura. https://drevlit.ru/texts/h/hamadani_turk.php#107
4. Ne'matov, N. (1989). *Davlati Somoniyn: Tojikon dar asrhoi IX-X* [The Samanid state: Tajiks in the 9th-10th centuries]. Irfon.
5. Davidovich, E. A. (1954). Vtoraya moneta Samanida Nukha ibn Asada [The second coin of the Samanid Nuh ibn Asad]. *Epigrafika Vostoka, 9*, 38–39.
6. Ibn Khordādbeh. (1986). *Книга путей и стран* [Kitāb al-masālik wa-l-mamālik; The book of roads and kingdoms] (N. Velikhanova, Trans. & Comm.). Elm.
7. Kamoliddin, Sh. S., & Ilkhamov, Z. A. (2018). *Samaniidy: iz istorii gosudarstvennosti Uzbekistana v IX–X vv.* [The Samanids: On statehood history of Uzbekistan in 9th–10th centuries]. Tashkent State Pedagogical University.

8. Yuldashev, B. S. (2023). *Farg‘ona Somoniylari tarixidan lavhalar* [Pages from the history of the Samanids in Fergana]. *Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari, S/7*, 14–25.
9. Mirkhond. (1832). *Historie des Samanides* [History of the Samanids] (C. Defrémery, Trans. & Ed.). Oriental Press.
10. Yuldashev, S. B. (2019). *Ahmad ibn Asad – Farg‘onaning birinchi Somoniy hukmdori* [Ahmad ibn Asad – The first Samanid ruler of Fergana]. *O‘tmishga nazar, 10*, 79–87.
11. Kamoliddin, Sh. (2017). *Ismoil ibn Ahmad as-Somoniy*. Scholars Press.
12. Ibn Ḥawqal. (2011). *Kitāb ṣūrat al-arḍ* [The face of the earth] (Sh. S. Kamoliddin, Trans. & Comm.). O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi
13. Kadyrova, T. (1965). *Iz istorii krest'yanskikh dvizheniy v Maverannakhre i Khorasane v VIII – nachale IX v.* [On the history of peasant movements in Mawara'annahr and Khorasan in the 8th - early 9th centuries]. Fan.
14. Buniyatov, Z. M. (1990). *Stikhiinye bedstviya i ekstremalnye yavleniya na Blijnem i Srednem Vostoke (VII–XVII vv.).* Elm.
15. Yuldashev, B. S. (2021). Farg‘ona Somoniy voliylar boshqaruvi davrida [During the administration of Samanid governors in Fergana]. *FarDU ilmiy xabarlar, 6*, 53–61.
16. Ibn al-Athīr. (2005). *Al-Kāmil fī al-tārīkh* [The complete history: Selected passages] (P. G. Bulgakov, Trans. & Comm.; Sh. S. Kamoliddin, Suppl.). Tashkent-Zurich: UNESCO.
17. Al-Iṣṭakhrī. (2019). *Kitāb al-masālik wa-al-mamālik* [Book of routes and realms] (Khudoyberganov, Trans.). Fan. (Original work composed 10th century)
18. Treadwell, W. L. (1991). *The political history of the Samanid state* [Doctoral dissertation, University of Oxford].
19. Trever, K. V., Yakubovskiy, A. Yu., & Voronets, M. E. (1950). *O‘zbekiston xalqlarining tarixi* (Vol. 1). Fanlar akademiyasi nashriyoti.
20. Rtveladze, E. V., & Rtveladze, L. L. (1972). Perviy fel's Yakh'i b. Asada [The first fals of Yahya ibn Asad]. *Epigrafika Vostoka, 21*, 30–31.
21. Dobrovol'skiy, I. G., & Kochnev, B. D. (1982). Monety s imenem Samanida Iakh'i ibn Asada [Coins with the name of the Samanid Yahya ibn Asad]. *IMKU, 17*, 190-198.
22. Frye, R. N. (1975). The Samanids. In *The Cambridge history of Iran: Vol. 4. From the Arab invasion to the Saljuqs* (pp. 136-161). Cambridge University Press.
23. Bartold, V. V. (1963). *Sochineniya. Tom I: Turkestan v epokhu mongol’skogo nashestviya*. Moskva.
24. Zhelobov, D. E. (2017). *Gosudarstvo Tarimskoy vpadiny vo vtoroy polovine IX – nachale XII vv.: Politicheskoe i religioznoe vzaimodeystvie* (Dissertatsiya, Kandidat istoricheskikh nauk). Yekaterinburg.
25. Davidovich, E. A. (1956). Ferganskie Samanidy po numizmaticheskim dannym. *Epigrafika Vostoka*, *11*, 14–26.

1928-1929 – YILLARDA BUXORODA YANGI ALIFBO ISHLARINING AMALIY AHAMIYATI

Ahmadov Xurshid San`atovich
Buxoro davlat universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1928-1929 – yillarda Buxoroda yangi lotin alifbosining joriy etilishi harakatlari va uning amaliy ahamiyati haqida bir qancha mulohazalar keltirilgan. Bunda arxiv va davriy matbuot manbalaridan dalillar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Alifbo, imlo, yangi alifbo kurslari, savodsizlikni tugatish kurslari, arxiv, gazeta,jurnal, lotinlashtirish

Butunittifoq hududida 1926-yil boshlangan yangi lotin alifbosiga o‘tish jarayonlari O‘zbekiston SSRda ham o‘z ta`sirini ko‘rsatmay qolmadi. 1922-yilda V.U.Lenin va Ozarbayjon

SSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi raisi Samed Og‘a Agamali ogli bilan uchrashuvida lotin alifbosiga o‘tishni “Sharq xalqlari uchun yangi inqilob” bo‘lishini aytgan edi [1]. Shundan so‘ng Ozarbayjonda yangi alifboga harakat boshlangan edi. Lekin, ayrim manbalarda Toshkentda 1921-yilda bo‘lib o‘tgan Til va imlo qurultoyidagi ma`ruzachilardan biri Botu (Mahmud Hodiyev) arab imlosini isloh qilish bilan o‘z maqsadimizga erisha olmaymiz, butunlay yangi imlo – lotin imlosiniga o‘tishimiz kerakligini aytib o‘tganligi qayd etilgan [2]. Bu haqidagi ma`lumotlar keyingi manbalarda uchramaydi. Shuning uchun bu to‘liq isbotlash albatta tadqiqotlar talab etadi.

Buxoro jadidlari dastlab arab imlosi islohoti tarafdorlari keyinchalari yangi lotin imlosi uchun ham o‘z munosabatlarini berib borganlar. Ulardan Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xojayev va boshqalar edi. Ular arab yozuvi o‘zbek tilining tovush tizimini to‘g‘ri aks ettirmasligini tanqid qilgan edilar. Lotin yozuviga o‘tish o‘quv jarayonini soddalashtirish, yangi ilm-fan adabiyotlarini tarjima qilish, savodxonlikni ommalashtirish imkoniyatini berdi.

1928-1929 – yillarda O‘zbekiston SSRda yangi alifbo bo‘yicha amaliy ishlar kuchaytirilgan, shu bilan birga Buxoro viloyatida ham lotinlashtirish ishlari jadallik bilan amalga oshirilgan. 1928-yil 19-mayda Buxoroda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda lotin imlosi masalasi muhokama qilindi. Milliy ziyolilardan bo‘lgan Sharif Ro‘ziyev yangi lotin imlosiga o‘tish jarayoni, to‘garaklar faoliyati va darsliklar masalasi haqida ma’lumot berdi [3]. Mazkur ma`lumotlarga qaraganda Buxoro viloyatida yangi lotin alifbo kurslari turli madaniyat markazlarida tashkil topib, o‘qituvchilar, muhandislar, ishchilar, shifokorlar va boshqalar o‘qitilgan.

Arxiv ma’lumotlariga qaraganda 1929-yil 1-yanvar holati bo‘yicha yangi alifboda savodlilar soni 191499 tani tashkil etgan [4]. 1929-yil 24-iyun Yangi Alifbo Markaziy Qo‘mitasi Buxoro hududiy okrugiga 1570-raqamdagi xat yuborgandi. Unda mahallalarga yangi alifboni o‘rganish bo‘yicha bepul kitoblar tarqatish belgilab qo‘yilgan edi [5].

1929-yilda viloyatlarda yangi alifbo bo‘yicha savodsizlikni tugatish kurslari faoliyati va yangi alifbo jamiyatlari faoliyatlariga qattiq e’tibor berila boshlandi. Masalan, Buxoroda savodsizlikni bitirish ishlari hozirga kelib jadallashgani, tumanlarda savodsizlik bitirish ishlari bo‘yicha quyidagicha statistik ma’lumotlar beriladi: Romitanda 12 ta yacheykada 600 nafar kishi, Yangi Buxoroda (Kogon) 28 ta yacheykada 1400 nafar, Shofirkonda 30 ta yacheykada 890 nafar, Buxoro (Qorako‘l tumanida) 7 ta yacheykada 387 nafar, G‘ijduvon tumanida 25 ta yacheykada 600 nafar kishi, Sultonobodda (hozirgi Vobkent tumani hududi) 12 ta yacheykada 200 nafar kishi, Eski Buxoro shahrida 45 ta yacheykada 1000 nafar kishi ta’lim olayotgani keltirilgan [6].

Yangi alifbo bo‘yicha mahalliy rahbar va ziyolilar barcha qurultoylar va majlislarda o‘z ma`ruzalari bilan ishtirok etib kelishgan. Bundan tashqari davriy matbuotda ularning imlo o‘zgarishlari bo‘yicha g`oya va qarashlari har doim yoritib borilgan. Har bir qurultoyda imloga oid o‘zgarishlar xalqqa taqdim etib borilgan. Quyidagi jadvalda arab-lotin-kirill imlosi namunasi ko‘rsatilgan

Yangi alifbo namunasi [7]

Eski o‘zbek imlosi	***Lotin imlosi***	Kirill imlosi	**Eski o‘zbek imlosi**	***Lotin imlosi***	Kirill imlosi	**Eski o‘zbek imlosi**	***Lotin imlosi***	Kirill imlosi
ا	Aa	А	ب	Bb	Б	س	Cc	С
د	Dd	Д	ه	Ee	Э	ف	Ff	Ф
گ	Gg	Г	غ	Ƣƣ (g‘)	Ғ	ه, ح	Hh	Ҳ
ئ	Ii	И	ج	Jj	Ж	ک	Kk	К
ق	Qq	Қ	ل	Ll	Л	م	Mm	М
ن	Nn	Н	ڭ	Ŋŋ	-	ا	Oo	О
ۇ	Өө (o‘)	Ў	پ	Pp	П	ر	Rr	Р
ث	Ss	-	ش	Şş	Ш	ت	Tt	Т
و	Uu	У	و	Vv	В	خ	Xx	Х
ي	Yy	Й	ز	Zz	З	ذ	-	-
چ	Çç	Ч	-	-	Е	-	-	Ё
-	-	Ц	-	’	Ъ	-	-	Ы
-	-	Ь	-	-	Ю	-	-	Я

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, mazkur davrda O‘zbekiston SSRda eski arab alifbosidagi o‘zbek imlosi o‘rniga yangi lotin alifbosi joriy etilgan. Bu ijtimoiy-siyosiy jarayonlar barcha viloyatlar qatori Buxoroda ham bo‘lib o‘tgan. Bunda yangi alifbo kurslari tashkil etilib, maktablar, texnikumlar, oliy ta`lim muassasalarining barchasi lotin alifbosidagi o‘zbek yozuviga o‘tkazildi. 1928–1929 yillarda Buxoroda yangi alifbo ustida olib borilgan ishlar o‘sha davrning madaniy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yirik modernizatsion harakatning muhim bo‘g‘ini bo‘lib xizmat qildi. Latinga asoslangan yangi yozuvning joriy etilishi savodxonlikni keskin oshirish, o‘quv jarayonini soddalashtirish va xalq ta’limini din doirasidan chiqarib, uni zamonaviy, dunyoviy mazmunga o‘tkazishda muhim amaliy natijalar berdi.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Ogamali O‘g‘li. Madaniy inqilob va yangi alifbe // “Alanga” jurnali. 1928-yil, 12-son
2. 1921 йил январила бўлгон биринчи Ўлка ўзбек тил ва имло курултойининг чикаргон карорлари. - Т : Туркистон Жумҳуриятининг давлат нашриёти, 1922 йил, - Б 22
3. Buxoro viloyati davlat arxivi, 320-fond, 1-ro‘yxat, 4-yig‘ma jild, 11-varaq
4. Buxoro viloyati davlat arxivi, 43-fond, 1-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild, 13-varaq
5. Buxoro viloyati davlat arxivi, 43-fond, 1-ro‘yxat, 103-yig‘ma jild, 16-varaq
6. Barot Samadiy.S/b va yangi alifbe jamiyati ishchilari // “Alanga” jurnali, 1929-yil, 4-son
7. O‘z MA, R-86 – fond, 1-ro‘yxat, 4498-yig‘ma jild, 1 – varoq

“KATTA TERROR” VA UNING BUXORO VILOYATIDAGI IJTIMOIY HAYOTGA TA’SIRI

Ro’ziyeva Hilola To’lqinjon qizi-
Buxoro davlat universiteti magistranti
Ilmiy rahbar:
Raxmonov Kamol Djamolovich-
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrning 20-50-yillarida O‘zbekiston hududida olib borilgan siyosiy qatag‘onlarning kelib chiqish sabablari, ularning amalga oshirish mexanizmlari hamda Buxoro viloyatidagi ijtimoiy-siyosiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi. Jadid ziyolilari, diniy ulamolar, dehqonlar va mahalliy aholining taqdiriga sovet repressiya siyosati qanday ta’sir ko‘rsatgani tarixiy dalillar asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: qatag‘on, repressiya, sovet siyosati, xalq dushmani, sinflar kurashi, millatchilik, reaktsion kuchlar, kulak, jadidlar, milliy ong, ulamolar.

XX asrning birinchi yarmi O‘zbekiston tarixida eng murakkab va fojeali davrlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Sovet hokimiyatining o‘rnatilishi bilan mamlakatda yangi siyosiy tuzum joriy qilinib, uni mustahkamlash yo‘lida keskin chora-tadbirlar ko‘rildi. Bu jarayonning eng og‘ir oqibatlaridan biri “katta terror” - siyosiy qatag‘on siyosati bo‘lib, u butun respublika bo‘ylab, jumladan, Buxoro viloyatida ham ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatdi. Buxoro tarixan ilm-fan, din va ma’rifat markazi sifatida tanilganligi uchun sovet mafkurasi bu hududdagi milliy va diniy qadriyatlarga zid siyosat olib bordi. Oqibatda, ko‘plab ziyolilar, jadidlar va ulamolar “xalq dushmani” sifatida qatag‘on qilindi .

Sobiq sovet ittifoqida 1920-yillardan boshlab “sinflar kurashi” tamoyili davlat siyosatining markaziga aylantirildi. Bu siyosat milliy respublikalarda mustaqil fikrga ega ziyolilarni yo‘q qilishga, diniy qadriyatlarni bostirishga va ijtimoiy qatlamlarni mafkuraviy nazorat ostiga olishga qaratilgan edi. 1937–1938-yillar stalinizm davrida qatag‘onlarning eng cho‘qqisiga chiqdi. Buxoro viloyatida ham yuzlab ziyolilar, shoirlar, yozuvchilar va siyosiy arboblar asossiz ayblovlar bilan qamoqqa olinib, otuvga hukm qilindi[1].

Buxoro jadidchilik harakatining asosiy vakillari – Abdurauf Fitrat, Muso va Muxtor Saidjonovlar kabi ko’plab ziyolilar yurtni ma’rifat yo‘li bilan ozod etish g‘oyasini ilgari surganlar. Fitratning islohotchilik faoliyati sovet hokimiyati tomonidan “millatchilik” sifatida baholandi va

1938-yilda u otuv jazosiga hukm qilindi[2]. Oqibatda Buxoro vohasida ilm-ma'rifatning rivoji sustlashdi, jadidchilik harakatining ijtimoiy va madaniy izlari sun'iy ravishda yo'q qilindi.

Buxoroning madrasalari va masjidlari yopildi, diniy ta'limni davom ettirish qat'iyan man etildi. 1930-yillarda yuzlab ulamolar "reaktsion kuchlar" sifatida qamoqqa olinib, ko'plari Sibir va Uralga surgun qilindi. Bu jarayon oqibatida Buxoro madaniy hayotida uzilish yuz berdi. Shu bilan birga kollektivlashtirish siyosati davrida ham Buxoro viloyatidan "kulak" va "boy" deb e'lon qilingan minglab dehqonlar mol-mulki musodara qilinib, oilalari bilan birga chekka hududlarga ko'chirildi[3]. Bu holat qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning pasayishiga va aholining iqtisodiy ahvolining og'irlashishiga sabab bo'ldi.

Buxoro viloyatida amalga oshirilgan qatag'on siyosati nafaqat siyosiy, balki ma'naviy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ziyolilar qatlamining yo'qotilishi ilmiy va madaniy merosning uzilishiga olib keldi. Diniy ta'lim tizimining tugatilishi oqibatida xalq ma'naviyati zaiflashdi. Jamiyatda qo'rquv, befarqlik va itoatkorlik kayfiyati shakllandi. Stalin vafotidan so'ng, 1956-yilda "shaxsga sig'inish" siyosati fosh etilgach, ayrim qatag'on qurbonlari oqlana boshlandi. Mustaqillik yillarida esa ularning xotirasini abadiylashtirish, ismlarini tiklash bo'yicha davlat miqyosida keng tadbirlar amalga oshirildi[4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda olib borilgan qatag'on siyosati Buxoro viloyatida jamiyatning siyosiy, madaniy va dini hayotini izdan chiqargan. Ushbu siyosat oqibatida xalqning ma'naviy poydevori zaiflashgan, milliy o'zlikni anglash jarayoni to'xtab qolgan. Bugungi kunda o'tmish xatolarini tan olish, qatag'on qurbonlari xotirasini e'zozlash hamda ularning merosini yosh avlodga yetkazish milliy o'zlikni tiklashning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimov B. XX asr o'zbek adabiyoti va ijtimoiy tafakkur taraqqiyoti. -Toshkent: Fan. 2020.
2. Rashidov Sh. Fitrat va uning davri. - Toshkent: Sharq. 2012.
3. Rajabov A. Buxoro tarixida sovet islohotlari va ularning oqibatlari. Buxoro: BuxDU nashriyoti. 2018.
4. To'raqulov Z. Sovet davrida siyosiy qatag'onlar tarixi. -Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti. 2020.

BUXORO VA XORAZM XALQ VAKILLARI QURULTOYLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Qayumov Toshpo'lot Tohirovich-
Buxoro innovatsiyalar universiteti
magistranti
Ilmiy rahbar:
Raxmonov Kamol Djamolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. mazkur maqolada Buxoro va Xorazm Xalq Sovet Respublikalari mavjud bo'lgan yillarda o'tkazilgan qurultoylar, ularda ko'tarilgan masalalar, qabul qilingan qarorlar haqida ayrim fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qurultoy, delegat, konstitutsiya, «Buxoro axbori», «Ozod Buxoro», revkom, doklad, axborot, vaqf yerlari, milliy-hududiy chegaralanish

O'zbek milliy davlatchiligimiz tarixida o'ziga xos muhim bosqich hisoblangan, 1920-1924 yillarda mavjud bo'lgan Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalari tarixini hozirgi kunda ilmiylik va xolisonalik mezonlari asosida tadqiq etish dolzarb va davrtalab bo'lib qolmoqda.

1920 yil, ya'ni bir yil ichida ikki davlat Xiva xonligi va Buxoro amirligi siyosiy tuzumining ag'darilishi bilan boshqaruvning Respublika shaklini qaror toptirishga harakat qilindi. Sobiq xonlik va amirlikda amal qilgan monarxiya tuzumi o'rnida demokratik tamoyillarga o'tishning sodda ko'rinishi bo'lgan qurultoy har ikkala davlat tarixida o'ziga xos o'rin egalladi. XXSR va BXSR hukumati davrida o'tkazilgan xalq vakillari qurultoylarining materiallari bilan matbuot

organlari maqolalari orqali tanishish kun tartibiga qo‘yilgan masalalar va ularning muhokamalariga oid fikrlar tahlili mazkur kichik tadqiqotimizning dolzarbligini ifodalaydi. Qolaversa, gazetalarda chop etilgan qurultoy materiallari ikki hukumatning ijtimoiy-siyosiy hayotini ayrim qirralarini ochib berishda muhim manba hisoblanadi.

1920-1924 yillarda, ya’ni XXSR va BXSR hukumatlari faoliyat ko‘rsatgan davrda jami besh marta xalq vakillari qurultoylari o‘tkazilgan. Mazkur maqolada Xorazm va Buxoro Xalq Sovet Respublikalarining qurultoylari qachon, qayerda, nechta delegat ishtirokida o‘tkazilganligi, qanday masalalar qurultoy kun tartibida qo‘yilganligi bilan bog‘liq ayrim mulohazalarni bayon qilishni o‘z oldimizga maqsad va vazifa qilib belgiladik.

Butun Xorazm xalq vakillarining birinchi qurultoyi 1920-yil 26-30 aprel kunlari Xiva shahrida bo‘lib o‘tadi. Qurultoyda 200 ga yaqin delegat ishtirok etgan. Kun tartibiga Xorazm hukumati asosiy qonuni hisoblangan - konstitutsiyani qabul qilish, harbiy ishlar, xalq maorifi kabi masalalar kiritilgan. 1920-yil 30-aprel kuni qurultoyning oxirgi majlisida 13 bob, 17 moddadan iborat konstitutsiya qabul qilingan. XX asr boshlarida xonlik tuzumi asosida yashayotgan jamiyat uchun yangi davlatning bu konstitutsiyasi favqulodda noyob hodisa bo‘lib, bu Xorazmda huquqiy davlat tuzish uchun jiddiy kurash boshlanganligini ko‘rsatib bergan.

Butun Buxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyi esa 1920-yil 6-8 oktyabr kunlari sobiq amirning Sitorai Mohi xossa saroyida bo‘lib o‘tgan. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining rasmiy matbuot organi hisoblangan “Buxoro axbori” gazetasi[1]ning 1920-yil 11-oktyabrdagi 5-sonining ma’lumotiga ko‘ra, qurultoyga jami 1894 nafar vakil qatnashgan. Gazetaning 9-soni (1920-yil 26-noyabr)da qurultoyda ko‘rilgan masalalar, istiqboldagi vazifalar, turli masalalar bo‘yicha muhokamalar matni to‘liq bosilgan. Shuni qayd etish joizki, butun Buxoro birinchi qurultoyi Xorazm qurultoyidan farq qilib asosan, “jo‘shqin ma’ruzalar”, “ruhli daqiqalar” bilan o‘tgan. Bu holat gazetadagi ayrim maqolalarda tanqid ham qilingan [2].

1921 yil 15-23 may kunlari butun Xorazm xalq vakillarining ikkinchi qurultoyi Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan. Unda 340 nafar o‘zbek delegati hamda 56 nafar turkmanlar ishtirok etgan. Kun tartibida harbiy masala, yer-suv masalalari, maorif va madaniyat, moliya, milliy masala, Rossiya Sovet Federativ Respublikasi bilan ittifoq shartnomasi, Xorazm Markaziy Ijroiya Qo‘mitasini saylash kabi masalalar qo‘yilgan va tegishli qarorlar qabul qilingan [3].

1921-yil 18-23 sentyabrda bo‘lgan butun Buxoro xalq vakillarining ikkinchi qurultoyi haqiqiy demokratik ruhda bo‘lganligi arxiv va matbuot materiallarida talqin etilgan. Chunki bu qurultoyda Buxoro tarixidagi dastlabki konstitutsiya qabul qilingan. Qurultoyda qatnashgan vakillar (ularning soni 350 nafar) bu fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo‘li bilan mustahkamlovchi asosiy hujjatni bir ovozdan qabul qilishgan. Shuningdek, bu konstitusiyaga ko‘ra jumhuriyatning oliy organi qurultoy ekanligi, u yiliga bir marta chaqirilishi tasdiqlangan. Butun Buxoro ikkinchi qurultoyida milliy masalaga katta e’tibor berilgan. Buxoro Markaziy Ijroiya Komiteti huzurida Omongeldi Omonov boshchiligida turkman bo‘limi ham tuzilgan. Xorazm va Buxoro hukumatlari ikkinchi qurultoylarning o‘ziga xos tomonlaridan biri - bu turkmanlarga ham davlat boshqaruvida katta e’tibor berilganida edi. Albatta, bu o‘lkada nafaqat o‘zbeklar, tojiklar balki turkman xalqlariga ham keng imkoniyatlar berilganligi baynalminallikning bir ko‘rinishi desak xato qilmaymiz.

“Buxoro axbori” gazetasi sahifalarida ikkinchi qurultoyga oid barcha ma’lumotlar chop etib borilgan. [4]

1922-yil 15-23 iyul kunlari butun Xorazm xalq vakillarining uchinchi qurultoyi bo‘lib unda quyidagi masalalar muhokoma qilingan: ichki ishlar, tashqi ishlar, tashqi savdo, adliya, yer, soliq, byudjet masalalari.

Xuddi shu yili avgust oyining oxirlarida butun Buxoro xalq vakillarining uchinchi qurultoyi o‘tkazilgan. “Buxoro axbori” esa gazetasining 95-son (1922-yil 12-avgust), 97-son (1922-yil 27-avgust), 99-son (1922-yil 14-sentyabr), 100-son (1922-yil 21-sentyabr), 101-son (1922-yil 28-sentyabr), 102-son (1922-yil 15-oktyabr) kabi gazetalarning sahifalarida uchinchi xalq qurultoyi to‘g‘risida ma’lumotlar qayd etilgan. Gazeta ma’lumotlariga ko‘ra, qurultoyning

birinchi majlisida Rusiya vakili Sakalov, Buxoro askarlar firqasining harbiy sho‘ro a’zosi Batulin, Buxoro inqilobchilaridan Muqim Komilovlar ma’ruza qilganlar

Qurultoyda jami 15 ta masala ko‘rilganligi “Qurultoy maromnomasi” nomli maqolada to‘liq yoritilgan. Qurultoyning uchinchi va to‘rtinchi majlisida Fayzulla Xo‘jayevning ma’ruzasi tinglangan. Mazkur ma’ruzaning to‘liq matni ham gazeta sahifalarida chop etib borilgan.

1923-yil 17-23 oktyabr kunlari butun Xorazm xalq vakillarining to‘rtinchi qurultoyi o‘tkazilib, unga 234 nafar delegat kelgan. Qurultoy kun tartibida Xorazmda sovet tuzumining qurilishi, kompartiyaning roli va vazifalari, vaqflar masalasi ko‘rib chiqilgan. Qurultoy qarorlariga ko‘ra, yerga xususiy mulkchilik bekor qilingan. Vaqf yerlari butunlay tugatilgan. Mavjud yerlar umumxalq mulki deb e’lon qilingan. Qozixonalar faoliyati taqiqlanib, sovet sudlari tashkil etilgan. Shu tariqa 1923-yil oktyabr oyidan boshlab sovet hukumatining tazyiqi ostida mamlakatda demokratik o‘zgarishlarga chek qo‘yilgan[5].

Bunday holat 1923-yil 11-12 oktyabr kunlari bo‘lib o‘tgan butun Buxoro xalq vakillarining to‘rtinchi qurultoyida ham kuzatilgan edi. Mazkur qurultoyda Buxoro Xalq Sovet Respublikasining asosiy qomusi bo‘lgan konstitutsiyaga ham o‘zgartirishlar kiritilgan va bu qaror tasdiqlangan. Unga ko‘ra barcha savdogar, mulkdor, sobiq amaldorlar saylov huquqidan mahrum qilingan.

To‘rtinchi qurultoy haqida matbuot sahifalarida boshqa qurultoylarga qaraganda ma’lumot va mulokamalar juda ko‘plab berib borilgan [6]. “Ozod Buxoro” gazetasining 1923-yil 16-oktyabrdagi 1-sonida Ahmat Rafiqning to‘rtinchi qurultoydagi “Sobiq nozirlar nimalar bilan mashg‘ul bo‘lganlar” nomli ma’ruzasining to‘liq matni bosilgan. Unda 1923-yilning iyul oyida butun Buxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining qarori bilan Atoulla Xo‘ja, Fitrat, Muinjon Aminov, Sattor Xo‘ja kabi sobiq “Yosh buxorolik” jadidlar mas’ul xizmatlardan olinganligi haqida e’lon qilingan. Fayzulla Xo‘jayevning eng yaqin safdoshlari bo‘lgan mazkur shaxslarning har biri haqida qariyb besh-olti banddan iborat turli ayblar ma’ruzachi tomonidan sanab o‘tilgan. Ma’ruza tugagach, Fayzulla Xo‘jayev so‘z olib “ayblanganlar to‘g‘risida hammaning so‘zi bir, shuning uchun Rahmat Rafiqning taklifini qabul qilmoq kerak” degandan so‘ng vakillarning hammasi bir ovozdan “qabul”, “maqbul”, “bu xoinlar hukmga berilsin” degan qaror qabul qilganlar.

1924-yil 29-oktyabr - 2-noyabrda butun Xorazm vakillarining beshinchi qurultoyi Xiva shahrida o‘tkazilgan. Unda O‘rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish o‘tkazilishi munosabati bilan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tugatilishganligi e’lon qilingan. O‘zbeklar yashaydigan 23 ta tuman O‘zbekiston SSR tarkibiga Xorazm viloyati qilib kiritilgan. Shunday qilib Xorazm Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi va Xorazm Nozirlar Sho‘rosi o‘z faoliyati tugatgan.

Butun Buxoro beshinchi qurultoyida ham (1924-yil 18-20 sentyabr) Buxoro Xalq Sovet Respublikasini Buxoro Sovet Sosialistik Respublikasiga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Bu sun’iy tarzda amalga oshirilgan hodisa bo‘lib, taraqqiyotning demokratik yo‘li bekor qilinib, noma’lum va mavhum sosialistik yo‘nalish tanlangan. Markazdagi bolshevik rahbarlarning Xiva va Buxoro Xalq Jumhuriyatini sosialistik ryespublikaga aylantirishdan asosiy maqsadlari mahalliy xalqlarni tezkor sovetlashtirish va ruslashtirish, ularning ongida mantiqsiz komunizm g‘oyasini singdirish edi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz lozimki, 1920-yildan 1924-yilning oxirigacha Xorazm xalq vakillari va Buxoro xalq vakillari qurultoylari besh marotaba chaqirilgan. Qurultoylarda har ikki hukumatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga doir muhim masalalar, qarorlar qabul qilingan. Aytish joizki, ko‘plab amaliy ishlar bajarilgan. Lekin yo‘l qo‘yilgan ayrim kamchiliklar va sovet hukumatining doimiy aralashuvi butun Xorazm va butun Buxoro xalq vakillarining qurultoylarida ko‘tarilgan muammolarni hal etishda to‘sqinlik qilgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati

1.“Buxoro axbori” gazetasi BXSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi matbuot organi bo‘lib, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yil oktyabrgacha chop etilgan.

2. Said Ahroriy. 6-oktyabr. \\Buxoro axbori, 5-son. 1920 yil. 11-oktyabr. Abdulqodir Muhiddinov. Fuqaro hukumati. 8-son, 1920-yil 16-noyabr. Bu haqda qarang. Рахмонов К.

Бухоро Халқ Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. -Тошкент, “АБУ МАТБУОТ” нашриёти. 2012. -158 б.

3. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX аср. 1-жилд. -Тошкент. “Фан” нашриёти. 2024. -342 б.

4. Qurultoyga hozirlik //Buxoro axbori, 44-son. 1921-yil 10-iyul. Buxoro Sho‘rolar Jumhuriyatining ikkinchi qurultoyi // Buxoro axbori, 50-son. 1921-yil 25-sentyabr //Buxoro axbori. 51-son. 1921-yil 5-oktyabr //Buxoro axbori 52-son 1921-yil 12-oktyabr

5. Мўминов Ҳ. Бутун Хоразм халқ вакиллари қурултойларининг материаллари Ўзбекистон тарихини ўрганишни муҳим манбаси \ Ўзбекистон тарихи масалалари тўплами. 2010. -Б. 61-65.

6. Muhim qurultoy //Buxoro axbori, 200-son. 1923-yil 12-sentyabr. Butun Buxoro qurultoyi kechiktirildi //Buxoro axbori. 203-son.1923-yil 19-sentyabr; Qurultoy ochilishi //Ozod Buxoro 1-son. 1923-yil 16-oktyabr. To‘rtinchi qurultoyda yer-suv masalasi. 6-son. 1923-yil 31-oktyabr va hakazo.

CHO’QON CHINGIZ VALIXONOVNING BOBUR VA “BOBURNOMA” ASARI XUSUSIDAGI FIKR-MULOHAZALARI XUSUSIDA

Кўчаров Жамшид Қулназарович
Қарши давлат университети “Ўзбекистон тарихи” кафедраси доценти, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Аннотация: Чўқон Чингиз Валихонов Қозоқ халқининг энциклопедист олими, дунё тарихида уйғуршунослик соҳасини илк бора тадқиқ қилган этнограф олим бўлиб, унинг ҳаёт йўли ва илмий ишлари бугунги кунга қадар ўрганилмоқда. Ч.Ч. Валихонов Ўрта Осиё тарихининг турли соҳалари ва турли йўналишларига оид изланишлар олиб борган бўлиб, Амир Темур ва темурийлар даври алоҳида аҳамият касб этади. Айниқса, Заҳириддин Муҳаммад Бобур ва унинг “Бобурнома” асари ҳақидаги фикр-мулоҳазалари диққатга сазовор бўлиб, qozoq so’zining ma’nosi erkin, boshi ochiq, birovga bo’ynsunishni istamagan kishilar guruhiga oid fikrlari, Shayboniyxon va uning atrofidagi shaxslar haqidagi qimmatli ma]lumotlar keltirgan. Қуйида биз Ч.Ч. Валихоновнинг бу борадаги фикр-мулоҳазалари хусусида тўхталиб ўтамиз.

Калит сўзлар: “Boburnoma”, qozoqlik, topograf, kartograf, temuriylar, raqiblik, Rossiya sharqshunosligi, andijonliklar

Qozoq xalqining iste’dodli farzandi sayyoh, harbiy topograf va kartograf, tarixchi, elshunos olim Cho’qon Chingiz Valixonov (1835-1865 yy) Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi, etnografiyasi, manbashunosligi kabi sohalarda o’zidan ulkan ilmiy me’ros qoldirdi. Uning tadqiqotlarida chuqur bilim, keng mushohada va manbalar tahlili birinchi o’rinda turganini ko’rishimiz mumkin edi. Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston hududlari tarixini yoritishda muhim manbalardan biri bo’lgan Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530 yy) ning “Boburnoma” asari Ch.Ch. Valixonovning tadqiqotlarida muhim ahamiyat kasb etgani yuqoridagi fikriizni asoslay oladi.

Qozoq millati farzandi sifatida Cho’qon Valixonov birinchi galda o’z xalqining tarixi, uning kelib chiqishi, etnogenezi masalalariga qiziqishi tabiiy hol. Shuning uchun qozoq dashtlarida xalq orasida mashhur baxshi, oqin, o’lanchilar bilan uchrashib, ulardan turli – tuman afsona va rivoyatlar, xalq og’zaki ijodiyoti namunalarini yozib oladi. Tarixiy manbalar va ularning tahlili bilan shug’ullanadi. Uning qozoq xalqi kelib chiqishi xususidagi ilmiy xulosalari ko’p hollarda Boburnoma asaridagi ma’lumotlarga tayanilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Uning fikricha, qozoq oqinlari, o’lanchilari xalq og’izaki ijodida qozoqlarning qadimiy xalq ekanligi haqida qancha kuylamasinlar, qozoq xalqi XIV asrdan oldin shakllanmagan. O’z fikrini asoslash uchun Cho’qon Valixonov Shayboniynomada Qozoq yoki qozoqlik kabi so’zlarning ishlatilmagani va Muhammad Shayboniyxon davrida hali qozoqlar etnik birlik sifatida tilga olinmaganligini misol qilib keltiradi. Faqatgina Boburning Boburnoma asarida qozoq xoni Arslonxon haqida eslatilib, uning qozoqlardan 400 ming kishilik qo’shini bo’lganligi haqidagi

ma’lumotlarning mavjudligi haqida fikr yuritib, bu qozoqlar haqida dastlabki ma’lumot ekanligini aytadi[1].

Cho’qon Valixonov qozoqlarning oqin va o’lanchilari bilan qilgan suhbatlarida qozoqlarning afsonaviy ajdodi, xalq himoyachisi bo’lgan Jirenshe – Sheshen bo’lganligini, u Chingizxon davridan ancha ilgari yashaganligi haqidagi ma’lumotlarni keltirib, ushbu ma’lumotlarga ishonib bo’lmasligi, qozoqlar tatarlar (Markaziy Osiyoda yashovchi turklar bo’lishi mumkin) singari qadimiy xalqlardan bo’lmay, qozoq va qozoqlik atamalarining Boburnomada keltirilganligi, unda bir necha bor Shayboniyxon xususida fikr yuritilganda qozoqlik atamasi ishlatilib, qozoq so’zining ma’nosi erkin, boshi ochiq, birovga bo’ynsunishni istamagan kishilar guruhi deb keltirilganligi, tarixiy ma’lumotlar tahlili qozoq xalqi XIV asrdan oldin paydo bo’lmaganligini ko’rsatishi xususida fikr yuritgan[2].

Boburnoma asarining markaziy Osiyo tarixiga oid muhim manba ekanligini alohida ta’kidlagan Cho’qon Valixonov ushbu asarni nashr etilishi Rossiya sharqshunosligida muhim ahamiyatga ega ekanligini yaxshi anglar edi. Cho’qon Valixonov Boburnomaga yuksak baho berib, Boburnomaning Chig’atoy turkiychasi (eski o’zbek tili shunday nomlangan) da yozilganligi, ushbu asar Rossiyada janob Ilьminskiy tomonidan 1857 yili Qozon shahrida chop ettirgani haqida ham qiziqarli ma’lumotlar keltiradi[3]. Ushbu ma’lumotlar orqali Boburnoma asarining Rus tarixshunosligi qachon boshlanganligini bilib olishimiz mumkin.

Bobur shaxsi va uning hukumronligi, Hindistonda davlat tuzishi, nabirasi Akbarshoh va uning ishlari xususida ham ko’plab ma’lumotlar uchraydiki, ushbu qisqa mushohadamizda ular haqida to’liq to’xtalib o’tishning imkoni yetarli emas.

Boburning taxtga o’tirishi davri va o’sha vaqtdagi Movarounnahrdagi tarixiy vaziyatga baho berar ekan Boburning otasi Umarshayxning vafot etishi va yosh shahzodaning taxtga o’tirishi, temuriylar o’rtasida toju – taxt uchun kurashlarning avj olishi, Boburning keyinchalik Samarqand taxti uchun raqiblari bo’lgan temuriyzodalar Boysung’ur va Sulton ali Mirzolar o’sha vaqtda Buxoroda hukumronlik qilgani, mirzolar o’rtasidagi kurash masallari va Shayboniyxonning muvofaqiyatlari ham olimning e’tiboridan chetda qolmagan[4].

Bobur Hindistonda tuzgan davlatning keyinchalik Buyuk mo’g’ullar davlati deb atalishi xususida fikr bildirib, uning onasi tomondan mo’g’ul xoni Yunusxonga taqalishi shajarasini keltiradi. Shajarada mo’g’ul xoni Yunusxonning o’g’il va qizlari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, bizning qiziqishimiz Bobur mirzo bilan bog’liq bo’lganligi sababli temuriyzodalarga turmushga chiqqan Yunusxon qizlarini eslatib o’tishni lozim topdik. Yunusxonning katta qizi Mehr nigor xonim temuriylardan bo’lgan sulton Ahmad Mirzoga, ikkinchi qizi Qutlug’ Nigor xonim temuriy Umarshayx mirzoga, Sulton Nigor xonim temuriy mirzo sulton Mahmudga turmushga chiqqani, Bobur sulton Qutlug’ Nigor xonimning o’g’li ekanligi[5] o’sha davr uchun katta tarixiy ahamiyatga ega ilmiy yangilik bo’lgan desak xato qilmaymiz.

Markaziy Osiyoning o’sha vaqtlarda Xitoy davlati tarkibida bo’lgan Sharqiy Turkiston hududiga ham 1857 – 1859 yillarda sayohat qilgan Cho’qon Valixonov bu yerdagi O’rta Osiyolik savdogarlar, afg’onlar, eronliklar va hatto, hindistonlik savdogarlarni ham andijonliklar deb atalishini, bir paytlar Sharqiy Turkistonda o’z koloniyalariga va cherkovlariga ega bo’lgan arman savdogarlari ham xitoyliklar tomonidan andijonliklar deb atalgani, Andijonda bir vaqtlar mashhur Bobur sulton hukumronlik qilgani sababli Andijon shu qadar shuhrat topgan degan fikrlarni

[1] Валиханов Чокан Чингизович Собрание сочинений в пяти томах (Ред.колл. К. И. Сатпаев и др.) Т. 1. Алма – Ата, Изд – во АН КазССР, 1961. – С. 130.
[2] Валиханов Чокан Чингизович Собрание сочинений в пяти томах (Ред.колл. К. И. Сатпаев и др.) Т. 1. Алма – Ата, Изд – во АН КазССР, 1961. – С. 202.
[3] Валиханов Чокан Чингизович Собрание сочинений в пяти томах (Ред.колл. К. И. Сатпаев и др.) Т. 1. Алма – Ата, Изд – во АН КазССР, 1961. – С. 641.
[4] Валиханов Чокан Чингизович Собрание сочинений в пяти томах (Ред.колл. К. И. Сатпаев и др.) Т. 1. Алма – Ата, Изд – во АН КазССР, 1961. – С. 447.
[5] Валиханов Чокан Чингизович Собрание сочинений в пяти томах (Ред.колл. К. И. Сатпаев и др.) Т. 1. Алма – Ата, Изд – во АН КазССР, 1961. – С. 449.

keltiradi[1]. Bu esa Cho'qon Valixonovning Bobur mirzo shaxsiga bo'lgan hurmati ramzi bo'lsa kerak deb hisoblaymiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Cho'qon Valixonov tomonidan Bobur shaxsiyati va uning Boburnoma asari xususidagi fikrlari tarixiy, ilmiy jihatdan ijobiy bo'lib, bizning fikrimizcha u Bobur mirzo va uning Boburnoma asariga chuqur hurmat va ehtirom bilan munosabat bildirgan.

BXSR TARIXIGA BIR NAZAR

Raximova Dilnoza Jamshidovna
Buxoro Davlat Universiteti
bosqich talabasi

Annotatsiya: Ma'lumki, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Chor Rossiyasi O'rta Osiyo hududida o'z hukmronligini o'rnatdi. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingach, Qo'qon xonligi tugatildi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa vaqtincha avtonom protektorat sifatida saqlab qolindi. 1920-yillarga kelib, Buxoro amirligi va Xiva xonligi tugatilib, ularning o'rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR) tashkil etildi. Mazkur tezisda asosan BXSR va uning davlat boshqaruvi tizimi, siyosiy iqtisodiy tuzilmasi va ilm-fani o'zaro tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi. Markaziy Ijroiya Qo'mitasi, Qizil armiya, RSFSR.

Ma'lumki, 1920-yil 10-avgustda Kogonda Ahmadjon Abdusaidov rahbarligida Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi va Fayzulla Xo'jayev raisligida Xalq Nozirlar Kengashi tashkil etildi. Qizil armiya Eski Buxoroni 1920-yil 2-sentyabrda ishg'ol etgandan keyin bu yangi hokimiyat idoralari Kogondan Buxoro shahri yaqinidagi amirning yozgi saroyi Sitorai Mohi Xosaga ko'chib o'tdi. 1920-yil 14-sentyabrda bo'lgan Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi, Muvaqqat Butunbuxoro inbqilobiy qo'mitasi va Buxoro kommunistik partiyasi Markaziy Komitetning umumiy yig'ilishida Abdulqodir Muhitdinov raisligida 9 kishidan iborat Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi (Markaziy Revkom) va Fayzulla Xo'jayev raisligida 11 kishidan iborat hukumat - Buxoro Xalq Nozirlar Sho'rosi shakllandi. Butunbuxoro Markaziy Inqilobiy Qo'mitasi tarkibiga Muinjon Aminov, Olimjon Akucherin, Abdulhamid Oripov, Sobir Yusupov, Mukammil Burxonov, Hoji Hasan Ibrohimov, Fayzulla Xo'jayev va Muhammadjon Qulmuhammedov a'zo qilib kiritildi. 1920-yil 6-8-oktyabr kunlari amirning yozgi saroyi bo'lmish Sitorai Mohi Xosada chaqirilgan Butunbuxoro Xalq vakillarining I qurultoyida Buxor Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) tuzilganligi tantanali ravishda e'lon qilindi. Bu yangi davlat tuzumi jihatidan xalq demokratik respublikasi edi. Uning zimmasiga qisqa muddat ichida o'rta asrchilik an'analaridan meros qolgan amirlik Buxorosini demokratik davlatga aylantirishdek tarixiy vazifani bajarish tushdi. Qurultoyda davlat hokimiyatining oliy organi - Butunbuxoro Markaziy inqilobiy Qo'mitasi va dastlabki hukumat tarkibi - Buxoro Xalq Nozirlar sho'rosi uzil-kesil tasdiqlandi. Ularning vakolat muddati II qurultoygacha uzaytirildi. 1920-yil 3-noyabrda BXSR va RSFSR o'rtasida muvaqqat harbiy-siyosiy ahdlashuv va shartnoma tuzildi. Unga ko'ra BXSRning o'z armiyasi yo'qligi sababli uning chergaralarini RSFSR qizil armiyasi qo'riqlaydigan bo'ldi. 1921-yil 4-martda har ikki davlat o'rtasida ittifoq shartnomasi imzolandi. Ushbu shartnomalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilayotgan yosh Buxoro davlati arboblari faoliyatini muayyan darajada cheklashga olib keldi. Ittifoq shartnomasi mustaqil Buxoro davlati hududida sovet qo'shinlari turishini "qonuniy" asoslab berdiki, mazkur hol BXSR ichki ishlariga Rossiyanning to'g'ridan to'g'ri harbiy jihatdan qurolli aralashuvidan boshgqa hech narsa emas edi.

1921-yil 18-23-sentyabrda bo'lgan Butunbuxoro xalq vakillarining II qurultoyda demokratik ruhdagi BXSR Konstitutsiyasi qabul qilindi. Buxoro tarixidagi dastlabki Konstitutsiya fuqarolarning demokratik huquq va erkinliklarini qonun yo'li bilan mustahkamladi.

[1] Валиханов Чокан Чингизович Собрание сочинений в пяти томах (Ред.колл. К. И. Сатпаев и др.) Т. 1. Алма – Ата, Изд – во АН КазССР, 1961. – С. 602.

Konstitutsiyada davlatni idora etish uchun xalqniung barcha tabaqa vakillarining ishtiroki ta‘minlandi. Xususiy mulk va savdo-sotiq erkinliklari Konstitutsiyada o‘z ifodasini topdi. BXSRning Konstitutsiyasi barcha fuqarolarga teng siyosiy huquq berdi, milliy tengsizlikni yo‘qotdi. Konstitutsiyaga ko‘ra BXSRning oliy organi Butunbuxoro xalq vakillari qurultoyi bo‘lib, u har 200 saylovchiga bir vakil saylanadigan 350 a‘zodan iborat edi. Qurultoy yiliga bir marta chaqirilar va unda respublika konstitutsiyasini qabul qilish, o‘zgartirishlar kiritish, hukumatning hisoboti va davlat budjetini tasdiqlsh kabi muhim masalalar ko‘rilar edi. Konstitutsiyaga ko‘ra, qurultoylar orasida qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi oliy organ-Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi hisoblanadi. Qurultoyda Butunbuxoro MIQ raisi qilib Usmon Xo‘ja saylandi(1922-yil avgustda bo‘lgan III qurultoyda bu lavozimni Porso Xo‘jayev egallagan edi). Konstitutsiyaga muvofiq, Xalq Nozirlar Sho‘rosi davlat hokimiyatini ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organ sifatidagi o‘z vazifasini saqlab qoldi.

BXSRda amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarga mamlakat tashqarisidan tazyiq ko‘rsatish tobora kuchayib bordi. 1923-yilning 3-iyunida Buxoroga sobiq ittifoq qurolli kuchlarining Bosh qo‘mondoni S.S. Kaminov, Turkfront inqilobiy harbiy Harbiy Kengash raisi A.I. Kark, RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byrosi a‘zosi Mixaylov va boshqalar kelishdi. BXSR hukumati faoliyati qoniqarsiz deb tanqid qilindi. 12-iyunda RKP(b)MQ Siyosiy byrosi “Buxoro hukumatini sovetlashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qildi.

Bu qarorni amalga oshirish uchun RKP(b) MQ kotibi Y.E. Rutzutak Buxoroga keldi va 22-23-iunda Buxoro kommunistik partiyasining markaziy qo‘mitasi plenumida qatnashib, Buxoro hukumati rahbarlari mahalliy kommunistlar oldiga qat‘iy talablarni qo‘ydi. Natijada F.Xo‘jayevning yaqin safdoshlaridan bir guruhi - tashqi ishlar noziri Otaulla Xo‘jayev, maorif noziri A. Fitrat, moliya noziri Sattorxo‘jayev, EKOSO raisi Muinjon Aminov egallagan lavozimlarida olib tashlanib, respublika hududidan chiqarib yuborildi. Undan tashqari Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Rahinjon Yusufzoda, Muzaxxar Maxsun Burhonov, Hoji Hamro Yo‘ldoshovlar o‘z egallab turgan lavozimlaridan ozoz etildilar. Bularning o‘rniga BXSR hukumati “kommunistcha saboq” olgan “tajribali sovet xodimlari” bilan to‘ldirildi. Inqilobiy ekstrimistik kuchlar bu bilan ham cheklanmay, shu yilning 14-avgustda bo‘lib o‘tgan Buxoro MIQ ning favqulotda sessiyasida konstitutsiyaga ham o‘zgartirish kiritishga muvoffaq bo‘lib, 11-17-oktyabrda bo‘lib o‘tgan Butunbuxoro IV qurultoyi bu o‘zgarishlarni tasdiqladi. Shunga ko‘ra mulkdor va soliq amaldorlar saylov huquqidan mahrum etildi. Aksincha ishchi va kosiblarning saylov huquqlari kengaytirildi. Qurultoyda jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni kengaytiradigan “sovet qurilishi to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilinib, jamiyat tobora siyosiylashib bordi. Demokratik islohotlarning taqdiri xavf-xatarga qoldi. Mamlakat bo‘ylab avj olgan sotsialistik qayta qurishlar keskin siyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi. Bularning hammasi bir bo‘lib, mamlakatda qizil armiyaning bosqinchilik siyosatiga va bolsheviklarning zulmiga qarshi qurolli harakatning kuchayishiga olib keldi. Bu harakat 1920-yilning kuzidanoq boshlangan bo‘lib, u mamlakatning g‘arbiy, markaziy va sharqiy qismlarini o‘z domiga tortgandi.

1923-yilning 18-20-sentabrida bo‘lib o‘tgan Butunbuxoro xalq vakillarining V qurultoyi Buxoro Xalq Sovet Respublikasini Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasiga aylantirish haqida qaror qabul qilindi. Qurultoyda F. Xo‘jayev hukumatning ishi to‘g‘risida hisobot berdi va “O‘rta Osiyoning milliy davlat chegaralanishi to‘g‘risida” ma‘ruza qildi. Qurultoy qatnashchilari O‘rta Osiyoda milliy respublikalar tuzish zarurligini yoqlashdi. 1924-yilning 10-noyabrida Turkiston ASSR, BSSR, XSSR Markaziy Ijroiya Qo‘mitalari qo‘shma qaror qabul qildilar va ushbu qarorga binoan o‘z vakolatlarini O‘z SSR sovetlarining Ta‘sis qurultoyiga qadar ish ko‘rib kelgan F.Xo‘jayev raisligida yangi tashkil etilgan O`zSSR muvaqqat inqilobiy qo‘mitasiga topshirdilar. Shunday qilib “O‘rta Osiyo respublikalrining milliy davlar chegaralanishi” deb atalgan “tadbir” asosida 1924-yilning noyabr oyi oxirida BSSR tugatilib uning hududi yangi tashkil etilgan O‘z SSr, Turkaniston SSr va Tojikiston ASSR (1929-yildan Tojikiston SSR)ga kiritiladi. Sobiq ittifoq qanoti ostidagi Sovet Rossiyasi va Turkmaniston kommunistlari, sovet rejimi F.Xo‘jayev boshchiligida Buxoroda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarga chek qo‘ydi va

sharqdagi eng qadimgi va ko‘hna davlatlardan biri bo‘lgan Buxoro mamlakati ham o‘z mavjudligi poyoniga yetdi.

BXSR tarixiy tajribasi shuni ko‘rsatdiki, Buxoroda demokratik islohotlarni amalga oshirishga bo‘lgan harakatlar tashqi siyosiy bosimlar va sovetlarning bevosita aralashuvi natijasida izdan chiqarildi. Qizil Armiya va bolshevik rahbarlarining siyosiy tazyiqlari mamlakatning mustaqil rivojlanish jarayoniga putur yetkazib, milliy davlat qurilishi imkoniyatlarini keskin cheklab qo‘ydi. Natijada Buxoro Respublikasi o‘z tarixiy mustaqilligini yo‘qotib, Sovet tuzumining tarkibiy qismiga aylanishga majbur bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Qahramon Rajabov O‘zbekiston XX asrda (1900-1939) Fan”-2024
2. O‘zbekiston tarixi X jild (Buxoro tarixi)-Toshkent: “O`zbekiston”- 2023
3. Murtazoyeva O‘zbekiston tarixi Toshkent.2005
4. Halim To‘rayev “Buxoro tarixi”, “Durdona” B.2020

BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Zayniddinova Shaxina Zahriddinovna
Buxoro Davlat Universiteti tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezis Buxoro amirligining XVIII asr oxiri XlX asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti tahlil qilinadi. Taqiqotda amirligidagi aholi qatlamlari va ularning o‘zaro munosabatlari, dehqonchilik va hunarmand chilik rivojlanish darajasi, savdo yo‘llari va bozor iqtisodiyoti shakllanishi yoritilgan. Shuningdek madrasalar faoliyati, ilm fan a'nanlari, me’morchilik, adabiyot va diniy ma'rifiy jarayonlar holati o‘rganilgan. Taqiqot Buxoro amirligi jamiyatining murakkab tuzilmasi, iqtisodiy imkoniyatlari va madaniy merosning keyingi davrga ta'sirini ochib berdi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, madaniy meros, madrasalar, Buxoro, Sitorayi Mohi Xossa, Labi Hovuz ilm - fan

Buxoro amirligi Markaziy Osiyoning XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi eng yirik siyosiy tuzilmalaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlariga ega edi. Ushbu davr hududda an’anaviy feodal munosabatlar saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ichki va tashqi omillar ta’sirida jamiyat hayotida muhim o‘zgarishlar yuz bera boshladi. Aholining ijtimoiy tabaqalanishi, yer egaligi tizimi, savdo-sotiqning shakllanishi, hunarmandchilik tarmoqlarining rivoji amirlik iqtisodiy hayotining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Shuningdek, Buxoro o‘zining qadimiy ilm-fan an’analari, diniy-ma’rifiy muassasalari, madrasalari va madaniy hayoti bilan mintaqa taraqqiyotida muhim o‘rin egalladi. Mazkur maqola Buxoro amirligi ijtimoiy tuzilmasi, iqtisodiy jarayonlari va madaniy muhitini tarixiy manbalar asosida yoritishga qaratilgan.

Buxoro amirligining ijtimoiy tuzilishi an’anaviy feodal munosabatlarga asoslangan bo‘lib, jamiyat qatlamlari keskin tabaqalanishi bilan ajralib turgan. Ijtimoiy piramidaning eng yuqori pog‘onasida amir va uning atrofidagi saroy amaldorlari – qo‘shbegi, devonbegi, qushbegi, otaliq kabi mansabdorlar joylashgan. Ular davlat boshqaruvi, soliq siyosati va harbiy tuzumni nazorat qilgan, amirlikdagi siyosiy hayotning asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan.

Jamiyatning muhim guruhlaridan biri diniy ulamolar edi. Shayxulislom, qozikalon, muftiylar, mudarrislar va boshqa ruhoniylar shariat asosidagi sudlov ishlari, diniy-ma’rifiy faoliyat hamda madrasa ta’limi orqali aholining ma’naviy hayotiga rahbarlik qilgan. Ularning siyosiy nufuzi kuchli bo‘lib, ko‘plab qarorlar ulamolar bilan kelishilgan holda amalga oshirilgan.

Aholining asosiy qismini dehqonlar tashkil etgan. Yirik yer egalari – beklar, sayyidlar va amaldorlar qo‘l ostidagi yerlarida dehqonlar mehnat qilgan, hosildan ulush bergan yoki turli soliqlar to‘lagan. Qishloq xo‘jaligi amirlik iqtisodiy hayotining asosiy tayanchi bo‘lib, dehqonlarning mehnati jamiyatning kundalik ehtiyojlarini ta’minlagan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida Buxoro amirligi Markaziy Osiyoda eng qadimgi davlat tuzilmalaridan biri bo‘lib, o‘ziga xos ijtimoiy tizim a'nanaviy iqtisodiyot va boy madaniy merosga ega bo‘lgan. Amirlikda sug‘orish tizimini yaxshilash uchun amir Shohmurod davrida Zarafshon daryosida ko‘plab kanallar chiqarilgan. Jumladan, Qozonariq Urgut tumani, Toymanariq Sheroz tumani, To‘g‘uzariq Sugut tumani yerlarini sug‘organ. Amirlik iqtisodiyoti asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikdan iborat bo‘lgan. Amirlikda umumiy dehqonchilik maydoni 2700 desyatinani tashkil qilgan. Dehqonchilikda bug‘doy, arpa, jo‘xori, tariq, no‘xat, sholi, paxta ekilgan. Ekin turlaridan eng ko‘pi g‘alla ekilgan, eng ko‘p hosil jo‘xoridan 300 pud gacha hosil olingan. Amirlikda sholichilik Shahrsabz, Kattaqo‘rg‘on va Hisor vohalarida rivojlangan.

Buxoro amirligida chorvachilik ham rivojlangan. Amirlik hududidagi bepoyon dasht va cho‘llar, tog‘ va tog‘oldi tumanlarda chorvachilik uchun sharoit yaratgan. Cho‘l tumanida xususan, Buxoro va Qarshi atrofidagi dashtalarda, ayniqsa, qorako‘lteri yetishtirishga ixsoslashgan qo‘ychilik rivojlangan. Chorvachilikning yetakchi tarmoqlari sifatida yilqichilikning ahamiyati katta. Ayniqsa, o‘z chidamliligi va tezligi kuchi bilan Shahrsabz qoyabayr otlari amirlikda mashhur bo‘lgan. Mamlakatning hunarmandchilik sohalari to‘qimachilik, metal ga ishlov berish, charmgarlik, yog‘ochga ishlov berish, kulolchilik va oziq ovqat tayyorlash rivojlangan.

Kulochilik amirlikning ko‘pgina shaharlarida rivojlangan. Uning asosiy markazlari G‘ijduvon, Qarshi, Shahrsabz, Kattaqo‘rg‘on va boshqa shaharlar. Bu davr kulolchiligida xos bo‘lgan uslublar hayvonlar, qushlar, hasharotlar yoki ular tanasing bir qismini shartli ravishda tasvirlash ustalar tomonidan keng qo‘llanilgan. Metallga ishlov berish buyumlar yasash Shahrsabz, Boysun, Sherobodda rivojlanan. 1841-yilda Buxoroga Butenev bu yerda 6 ta cho‘yan quyish qozonlari bo‘lganini yozgan. Amir Shohmurod va Amir Haydar davrida qurilgan dastlabki metall quyish qozonlarida to‘plar uchun o‘qlar, harbiy va dehqonchilik qurollari yasalgan. Misgar ustalar turli xil idishlar, chilim va boshqa buyumlar yasashgan.Mis asosan Rossiyadan keltirilgan Misdan yasalgan idishlarga nafis naqshlar, tushirilgan bo‘lib, ular ichki ehtiyojni to‘liq ta'mirlab, qo‘shni o‘lkalarga chiqarilgan.

Amirlida soliqlar davlat xazinasiga kelib tushgan. Uni devonbegi boshqargan. Unga daftardor yordam bergan. Asosiy soliq to‘luvchi raiyat dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar savdogarlar edi. Tarixchi olima Rahbar Xoliqovaning qayd etishicha, Buxoro amiri Haydarni xatlari amirlidagi soliq tizimi haqida ma'lumot beruvchi muhim manbalardan hisoblanadi. Unga ko‘ra soliqlar miqdori hosildorlikka qarab belgilangan. Ma'lum qilamanki Karmananing xonim va Kasaba kanallari atrofidagi va pastroqdagi bog‘i va teparoqdagi xon chorbog‘dan olinadigan soliq quydagicha belgilansin. Karmanaga yaqin hududdan bir tanob yerdan - 8 tanobgacha, Karmanadan beriroqda- 7 tanga, boshqa hududlardan 6 tanga, Zarafshon vohasining shimoliydagi yerlardan esa 5 tanga undirilsin. Belgilangandan ko‘p ham kam ham undirilmasin - deb aytilgan. Mang‘itlar davrida poytaxt shahar Buxoro bo‘lib, sulola vakillari tomonidan olib borilgan siyosat tufayli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy jihatdan rivojlandi.

Bu o‘shish XVIII asr oxiri XlX asr birinchi yarmiga to‘gri keladi. Buxoro o‘rta asr qurilish a'nanalari asosida bunyod etirilgan bo‘lib, 3 qismdan ark, shahriston va rabotdan iborat. Buxoro uzoq tarixi bir necha bor urushlar natijasida vayron qilingan. XVI asrda Shayboniylardan Abullaxon ll davrida Buxoro atrofi devor bilan o‘ralgan va darvozalar qurdirildi.

Tarixiy davrlar o‘tishi bilan Buxoro darvozalarini nomlash o‘zgarib bordi. XIX asrning o‘rtalariga kelib Buxoro darvozalari Sullaxon, Qalova Mahmud, Qarshi, Bahouddin, Fayzobod Samarqand, Imom, O‘glon, Talipoch, Qorako‘l nomlari bilan atalgan. Shahardagi eng katta havuz, Labi Hovuz" - bo‘lib, u 1620- yilda bunyod etilgan. Hovuzning balandligi 42 metr, Eni 36 metr, chuqurligi Esa 5 metrni tashkil etgan. Hovuz zinasimon shaklda xarsangtoshlardan kesilib, ustalar tomonidan mohirlik bilan terilgan. Hovuzning bunday qurilishi suv kamay ganda shu zinalar orqali, tushib suv olish imokoniyatini yaratgan.

Buxoroda yanvar oyidan may oyigacha savdo yaxshi rivojlangan. Bu davrda savdogarlar yarmarkasi tashkil qilingan. Savdo yarmarkalariga Eron, Afg‘oniston, Hindiston, Xitoy, Rossiya va amirlikning barcha shaharlaridan savdogarlar tashrif buyurgan. XIX asrning boshlarida Buxoroda chet ellik savdogarlar uchun mo‘jallangan 10 ta karvonsaroy bo‘lgan. XIX asrning 40

- yillarida kelib 24 ta toshdan qurilgan va 14 ta yog‘ochdan yasalan 38 ta karvonsaroy mavjud bo‘lgan. Buxoro shahring bosh bozori Registonning markaziy maydonida joylashgan.

XVIII asrning oxiri va XlX asrning boshlarida me’morchilik yanada takomilashgan. Buxoroda bunyod etirilgan obidalar- dan biri Sitorayi Mohi Xossa (forscha - yulduz oy makoni) Buxorodan 4 km shimolda joylashgan mang‘it sulolasi vakillari tomonidan barpo etilgan, saroy 2 qismdan iborat bo‘lib eski va yangi saroy qismdan va g‘ishtlardan to‘shalgan 3-qism dan iborat. Eski saroy Buxoro turar joylari ruhida barpo etilgan bir ikki qavatli uylardan iborat. A'nanaviy 3 qismi Kompleks bo‘lib, unda dastlabki binolar Nasrulloxon (1826 - 1860) va Muzaffarxon (1860-1885) hukmronligi davrida qurilgan. Abdullahadxon (1885 - 1910) davrida 1892 yilda qurilish yakunlanib, saroy va bog‘ barpo etildi. Amir Haydar hukmronligi qilgan davrda Buxoroda Chor minor Xalifa Niyozqul madrasasi (1807) masjidlar, xonaqohlar, hammomlar qurdirdi, Xalifa Xudoydod majmuasi qurilishi davom ettirilgan. Buxoroda Amir Haydar onasiga atab maxsus madrasa, Qarshida Ali madrasasi va Mir Muhammad madrasasi ham qurilgan. Chor Minor madrasasini turkman Xalifa Niyozqul 1807 -yilda qurilgan.

Mang‘itlar davrida ijod qilgan shoirlar , Buxoro adabiy muhiti haqida so‘z ketganda Mirzo Soddiq Munshiy , Muhammad Sharif Osif, Mujrim Obid, Ahmad Donish, Sharifjon Mahdum Mirzo Somiy hissa qo‘shgan. Bu davrda ijod qilgan Mirzo Somiy uzoq yillar Buxoro hukmdorlaridan amir Muzaffar (1860- 1885) va amir Abdullahad (1885- 1910) saroyida munshiylik vazifasida xizmat qiladi. U saroy xizmatchisi edi. 1898-yil saroy xizmatidan chetlashtirildi. Mirzo Somiy birin- ketin yozilgan uch tarixiy asar mualiffi. Bular “Daxmai shohon” (1902), “Tarixi salotini mang‘itiya'” (1906- 1907 yillar) asarlarini mualiffi hisoblanadi. XIX asrda safar qilgan Ye.K.Meyendorf Buxoroning islom olamida tutgan o‘rnini quydagicha ta'riflaydi: "O‘zing ko‘plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolarini sababli musulmonlarning ziyoratiga aylangan. E'htimol shuning uchun u „sharif'” nomiga sazovor bo‘lgandir. Rus sayyohi N.Xanikov o‘z estaliklarida Buxoroni yirik ilm - fan va ma'rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta'riflab: “Buxoro ilm tarqatuvchi markaz hisoblangan va hisoblanadi”, deydi.

Xulosa sifatida shuni qayd etamanki, Buxoro amirligi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida qat’iy ijtimoiy tabaqalanish, boy iqtisodiy hayot va rivojlangan madaniy muhit bilan ajralib turgan. Amirlikda amir va amaldorlar, ulamolar, dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar o‘ziga xos vazifa va mavqega ega bo‘lib, jamiyat barqarorligini ta’minlagan. Qishloq xo‘jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq iqtisodiy asosni tashkil etgan, madrasalar, kutubxonalar va masjidlar esa madaniy hayotni boyitgan. Shu tariqa, Buxoro amirligining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti mintaqa tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akbar Zamonov. Buxoro amirligi tarixi.
2. D.Agzamova. O‘zbekiston shaharlari XVI va XIX asr o‘rtalari.
3. A.Sagdullayev. O‘zbekiston tarixi.
4. H.To‘rayev. Buxoro tarixi.
5. Sultonov. O‘zbek davlatchilida dargoh va devonlar'.

4--SHO‘BA. BUXORO TASAVVUF TARIQATLARI MAKTABI;

“BUXORO TASAVVUF TARIQATLARI MAKTABI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA MADANIY MEROS”

Baltayeva Ma’mura
UrDPI “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi
+99897 513 79 90
mamura381@gmail.com

ANNOTATSIYA. Maqolada Buxoro so‘fiylik maktabining shakllanishi, rivojlanishi va uning jahon madaniyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Buxoro vohasida Naqshbandiya, Yassaviyya, Kubroviyya kabi so‘fiylik tariqatlarining tarqalishi, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, bu tariqatlarning buyuk so‘fiylarining ilmiy-ma’rifiy merosi tahlil qilinadi. Buxoro so‘fiylik maktabining Markaziy Osiyo mintaqasi ma’naviy hayotiga qo‘shgan hissasi ham alohida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, so‘fiylik, naqshbandiya, yassaviylik, kubroviya, ma’naviyat, madaniyat, tariqat.

Buxoro - nafaqat Markaziy Osiyoning qadimiy madaniyat markazi, balki butun islom olamida keng shuhrat qozongan ma'naviyat va tasavvuf markazidir. "Qubbat-ul-Islom" (Islom gumbazi) nomi bilan mashhur bo'lgan Buxoro, asrlar davomida turli tasavvufiy tariqatlarning rivojlanishi va o'zaro mulogati uchun munosib muhit yaratgan. Shaharning ilmiy-ma'rifiy muhiti, iqtisodiy taraqqiyoti va madaniy xilma-xilligi tasavvufning rivojlanishiga qulay sharoit ta'minlagan. Ushbu maqolada Buxoro tasavvuf maktabining tarixiy evolyutsiyasi, asosiy vakillari va uning jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi tahli qilinadi.

Buxoroda tasavvufiy an'analarning kuchli rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatgan:
Ilm va ma'rifat markazi sifatida: Buxorodagi ko'plab madrasa va kutubxonalar nafaqat an'anaviy diniy fanlar, balki tasavvufiy ta'limotlarni o'rganish va targ'ib qilish uchun ham markaz bo'lib xizmat qilgan. Bobokalon Imom Buxoriy kabi buyuk muhaddisning shahri sifatida Buxoro diniy bilimlarning qal'asi hisoblangan.
Iqtisodiy taraqqiyot: Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgani tufayli Buxoro boy savdogarlarni o'ziga jalb qilgan, ular esa tasavvufiy xonaqohlar va shayxlarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashgan.
Madaniy xilma-xillik: Shaharda turli millat va din vakillari yonma-yon yashagan, bu esa bag'rikenglik va ruhiy izlanishlar uchun qulay muhit yaratgan.

Buxorodagi asosiy tasavvufiy tariqatlar qudagilardir:

Naqshbandiya tariqati. *Naqshbandiya* - Buxoro tasavvuf maktabining eng nufuzli va ta'sirli tariqati bo'lib, butun dunyo musulmonlari orasida keng tarqalgan. Ushbu tariqatning asoschisi Xoja Bahouddin Naqshband (1318-1389) bo'lib, uning qabri Buxoro yaqinidagi Qasri Orifonda joylashgan va asrlar davomida muhim ziyoratgoh hisoblanadi. Buxoro Naqshbandiya maktabining o'ziga xos xususiyati shundaki, u ilmgarchilik, adab va amaliy hayot bilan uyg'unlashgan. Buxoro xonlari ko'pincha siyosiy qarorlarini mashhur Naqshbandiy shayxlarining maslahatiga ko'ra qilishgan, bu esa tariqatning siyosiy hayotga ta'sirini ko'rsatadi. Naqshbandiya tariqati nafaqat Buxoro, balki butun musulmon olami uchung muhim ma'naviy meros hisoblanadi. Uning "dunyodan voz kechmasdan, Xudo bilan bo'lish" tamoyili zamonaviy inson uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Buxoro esa bu buyuk an'analarning tirik markazi sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Yassaviya tariqati – bu turkiy dunyodagi eng qadimiy va nufuzli so‘fiylik tariqatlaridan biri bo‘lib, Markaziy Osiyoning islomlashtirilishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Naqshbandiylikdan oldin Movarounnahr hududida keng tarqalgan Yassaviya tariqati Xoja Ahmad Yassaviy (XI-asr) tomonidan asos solingan. Uning “Devoni hikmat” asari bu maktabning asosiy dasturidir. Yassaviya tariqatining asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat bo‘lgan: Allohni sevish – insonning eng oliy maqsadi Allohga yaqin bo‘lishdir, nafsni yengish – inson o‘z ichki yomon niyatlaridan

voz kechishi kerak, halol mehnat – mehnat qilish ibodatning bir shakli hisoblanadi, kamtarlik – kibru havo insonni yo‘ldan ozdiradi, kamtarlik esa yuksaltiradi, mehr-oqibat – insonlar o‘rtasida muhabbat va bag‘rikenglikni targ‘ib etadi, til soddaligi – diniy g‘oyalarni xalq tushunadigan tilda yetkazish zarur.

Shuningdek, Yassaviya tariqati insonni ruhiy poklanish, axloqiy komillik va Allohga yaqinlik sari yetaklashni maqsad qilgan. Bu yo‘lda murid (shogird) o‘z ustoziga (shayx yoki pir) sadoqat bilan ergashgan. Ular zikr (Allohni eslash), ibodat, sabr va halollik orqali nafsni poklashga harakat qilganlar. Natijada Naqshbandiylik kuchaygan sari Yassaviylikning ta'siri kamaygan bo'lsa-da, uning an'analari, ayniqsa xalq tabaqasida, o'z ta'sirini saqlab qolgan. Buxoroda ham Yassaviylikning izdoshlari bo'lgan va ularning an'analari mintaqa madaniyatiga chuqur singib ketgan.

Kubroviylik tariqati — Markaziy Osiyoda XII asrda shakllangan mashhur tasavvufiy (so‘fiylik) yo‘nalishlardan biridir. Uning asoschisi Najmiddin Kubro (1145–1221-yillar) bo‘lib, u “*Valiylar sultoni*”, “*Kubro al-Akbar*” (buyuk Kubro) nomlari bilan tanilgan. Shuningdek, ushbu tariqat Yassaviya ta’limoti singari insonni ma’naviy poklanish, halollik, sabr va Alloh muhabbatiga yetaklashni maqsad qilgan. Kubroviylik tariqati o‘z davrida Xorazm, Xuroson, Movarounnahr, Eron, Afg‘oniston va Hindiston hududlarida keng tarqalgan. U tasavvuf tarixida falsafiy chuqurligi va ruhiy tahliliga ega bo‘lgan eng ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida tanilgan.
Demak, Kubroviylik tariqati — bu inson ruhiyatini chuqur tahlil qilgan, ma’naviy poklik va Alloh muhabbatiga asoslangan buyuk tasavvuf maktabidir. Najmiddin Kubroning ta’limoti nafaqat diniy, balki falsafiy, axloqiy va ijtimoiy mazmuni bilan ham beqiyos ahamiyatga ega. Shuningdek, insonni nafsdan ozod, halol, pok, sabrli, ilmli va adolatli bo‘lishga chorlaydi. Bugungi kunda ham Kubroviylik g‘oyalari yoshlar ma’naviy tarbiyasida, axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Buxoro tasavvuf maktabi Markaziy Osiyo ma’naviy hayotining eng muhim, chuqur ildiz otgan hodisalaridan biri bo‘lib, u nafaqat diniy-ruhiy yo‘nalish, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkurning yuksak namunasidir. Tasavvuf tariqatlari Buxoro zaminida o‘ziga xos maktab sifatida shakllanib, asrlar davomida inson ma’naviyatini yuksaltirish, jamiyatda axloqiy barkamollik, bag‘rikenglik va ruhiy uyg‘unlikni qaror toptirishda beqiyos o‘rin tutgan. Bu maktabning shakllanishida tarixiy, siyosiy, diniy va madaniy omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ularning uyg‘unligi tasavvuf ta’limotining barqaror rivojiga zamin yaratgan. Bugungi kunda Buxoro tasavvuf maktabining ma’naviy merosi xalqimizning ruhiy hayotida, tarbiya tizimida, ilm-fan va madaniyat sohalarida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Tasavvufdagi **mehr, bag‘rikenglik, adolat, sabr, iymon** kabi qadriyatlar hozirgi globallashuv va ma’naviy sinovlar davrida ham insonni ezgulikka, poklikka, vijdonlilikka chorlamoqda. Buxoro tasavvuf maktabi o‘z mohiyatiga ko‘ra, milliy o‘zlikni anglash, ruhiy uyg‘onish va ma’naviy mustahkamlikning manbaidir. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Buxoro tasavvuf tariqatlari maktabi asrlar davomida shakllangan ma’naviy tizim bo‘lib, u xalqimiz tarixiy tafakkurining, axloqiy dunyoqarashining, diniy bag‘rikenglik an’analarining poydevorini tashkil etgan. U insonni nafaqat Allohga yaqinlikka, balki jamiyatda ezgulik, adolat va tinchlikni qaror toptirishga chorlaydi. Bugun Buxoro tasavvuf maktabining merosini chuqur o‘rganish, uni yosh avlod ma’naviy tarbiyasiga singdirish O‘zbekistonning ma’naviy tiklanish siyosatining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 1992.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. – BMT, 1948.
3. Toshqulov D. Inson huquqlari va erkinliklari asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Nosirov T. Huquqshunoslik asoslari. – Toshkent, 2021.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘ZME nashriyoti, 2023.
7. Saidov A.X. Inson huquqlari nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: TDYUI, 2015.

BUXORO TASAVVUF MAKTABLARI: NAQSHBANDIYA, QODIRIYA VA KUBRAVIYA TARIQATLARINING TAQQOSIY TAHLILI

Latipov Mirshodbek Zayni o‘g‘li
mirshodlatipov@gmail.com
BuxDU magistranti

Annotatsiya. Maqolada IX–XIV asrlarda Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro zaminida shakllangan tasavvuf maktablarining o‘zaro bog‘liqligi va farqli jihatlari tahlil etiladi. Tadqiqotning markazida Naqshbandiya, Qodiriya va Kubraviya tariqatlarining ma’naviy, ijtimoiy va falsafiy mohiyatini solishtirish masalasi turadi. Maqolada Naqshbandiya tariqatining ijtimoiy faol, fiqhiy asosli va ichki zikrga tayangan yo‘li; Qodiriya tariqatining muhabbat, ixlos va jamoaviy zikr markazidagi insonparvarlik g‘oyalari; Kubraviya tariqatining falsafiy-nazariy tafakkurga asoslangan ruhiy-ma’rifiy yo‘nalishi ilmiy tahlil etilgan. Har uch tariqatning Buxoro madaniy muhitida shakllangan sintez holati, ularning islomiy qadriyatlar, ma’rifat, axloq va ijtimoiy uyg‘unlikdagi o‘rni yoritilgan. Maqola zamonaviy davrda tasavvuf merosini o‘rganish, ayniqsa, O‘zbekistonda tashkil etilgan Tasavvuf maktablari faoliyati bilan uzviy bog‘langan holda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Buxoro tasavvuf maktablari nafaqat diniy-mistik tafakkur markazi, balki jamiyatni ruhiy poklanish, bag‘rikenglik va ma’naviy uyg‘onish sari yetaklagan kuch sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro tasavvuf maktablari, Naqshbandiya, Qodiriya, Kubraviya, tariqat, ruhiy-ma’rifiy ta’limot, zikr, ma’rifat, nafs tarbiyasi, tasavvuf falsafasi, ma’naviy uyg‘onish, oltin silsila, xalqona tasavvuf, ijtimoiy faoliyat.

Markaziy Osiyo, ayniqsa Buxoro zaminida tasavvuf tafakkurining shakllanishi va rivoji islom sivilizatsiyasi tarixida o‘ziga xos burilish yasagan. IX–XIV asrlar oralig‘ida bu hududda diniy, falsafiy va ijtimoiy hayotning asosiy markazlari sifatida tasavvuf maktablari shakllandi. Ularning ichida Naqshbandiya, Qodiriya va Kubraviya tariqatlari alohida o‘rin egallaydi. Mazkur tariqatlar nafaqat ruhiy-ma’rifiy hayotning, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va madaniy o‘zgarishlarining ham muhim omiliga aylandi.

Buxoro tasavvuf muhitida paydo bo‘lgan ushbu uch tariqat o‘zaro bog‘liq bo‘lishiga qaramay, metodik va ma’naviy jihatdan farqlanadi. Naqshbandiya tariqati amaliy hayot bilan ruhiy kamolotning uyg‘unligini ifoda etib, “*Dil ba yor, dast ba kor*” shiorida insonni mehnat, zikr va tafakkur birligiga chorlaydi. Qodiriya tariqati esa muhabbat, ixlos va jamoaviy zikr orqali insonni Alloh ishqiga yetaklashni maqsad qilgan. Kubraviya tariqati esa ilm va ruhiyatni birlashtirib, tasavvufni falsafiy-nazariy tafakkur darajasiga olib chiqdi.[1]

Mazkur tadqiqotda Buxoro tasavvuf maktablarining — Naqshbandiya, Qodiriya va Kubraviya tariqatlarining shakllanishi, rivojlanish xususiyatlari hamda ularning o‘zaro ta’siri manbashunoslik, tarixiy-falsafiy va taqqosiy yondashuvlar asosida o‘rganildi. Tadqiqot materiali sifatida IX–XIV asrlarga oid manbalar, tasavvufiy risolalar, tarixiy xronikalar va zamonaviy ilmiy izlanishlar tahlil qilindi.[2] Asosiy manbalar qatoriga Abu Bakr Kalobodiy (990 y.)ning “At-Ta’arruf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf”, Najmiddin Kubro (XII asr)ning “Usul al-ashara”, Bahouddin Naqshbandning “Maqomot” asarlari, shuningdek Xoja Ahror, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiylarning asarlari kiritildi. Shu bilan birga, Ye. E. Bertels, A. Samarqandiy, I. Muminov, Sh. Mirziyoyev, M. Ziyo va O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi olimlarining tadqiqot ishlari ham ilmiy asos sifatida foydalanildi.[3]

Tadqiqot davomida Buxoro tasavvuf maktablarining asosiy yo‘nalishlari — Naqshbandiya, Qodiriya va Kubraviya tariqatlarining ijtimoiy-ma’naviy hayotga ta’siri, ularning bugungi davrda qay darajada o‘rganilayotgani va amaliy faoliyatga tatbiq etilishi o‘rganildi. 2023–2024 yillar

[1] Abu Bakr Kalobodiy. *At-Ta’arruf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf*. — Buxoro: “Ilm va meros”, 2022.
[2] Najmiddin Kubro. *Usul al-ashara*. — Xiva: “Sharq nuri”, 2019.
[3] Sh. Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

mobaynida Buxoro, Samarqand va Toshkent shaharlari bo‘yicha jami 126 nafar respondent (tasavvuf tarixini o‘rganayotgan ilmiy xodimlar, madaniyat sohasi vakillari va talabalardan iborat) o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi.

So‘rov natijalariga ko‘ra, 126 respondentning 48 foizi Naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyalari — “dil ba yor, dast ba kor” shiorini ijtimoiy faol hayotda dolzarb deb bilgan, 32 foizi Qodiriya tariqatining insonparvarlik va muhabbatga asoslangan yo‘lini ma’naviy tarbiya uchun eng muhim deb baholagan, 20 foizi esa Kubraviya tariqatining ilm va ma’rifatga tayanishini hozirgi zamon yoshlariga eng mos yo‘l sifatida qayd etgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida tasavvuf merosiga qiziqish ortib bormoqda: 18–25 yoshdagi respondentlarning 71 foizi Naqshbandiya ta’limoti haqida ma’lumotga ega ekanini bildirgan bo‘lsa, 26–40 yosh oralig‘idagilarning 64 foizi bu ta’limotni zamonaviy ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlar bilan uyg‘un deb hisoblagan. Shuningdek, so‘rovda qatnashganlarning 82 foizi tasavvuf qadriyatlarini ijtimoiy tarbiya tizimiga kiritish zarurligini ta’kidlagan.

Empirik kuzatishlar davomida Buxoro viloyatidagi diniy-ma’rifiy markazlar faoliyatida Naqshbandiya va Kubraviya an’analarining qayta tiklanishi aniqlandi. Masalan, 2024 yilda Mir Arab oliy madrasasi qoshida tashkil etilgan “Tasavvuf maktabi”da 60 nafar tinglovchining 43 foizi Naqshbandiya silsilasiga oid asarlar (masalan, “Maqomot” va “Rashhalar”)ni o‘rgangan, 35 foizi Qodiriya tariqati risolalari bilan tanishgan, 22 foizi esa Kubraviya maktabining falsafiy yo‘nalishlarini o‘zlashtirgan.

Quyidagi jadvalda uch tariqatning hozirgi davrdagi amaliy o‘rganilish darajasi, ularning ijtimoiy-ma’naviy faoliyatdagi nufuzi va yoshlar ongidagi aks-sadosi bo‘yicha umumlashtirilgan natijalar keltirilgan.

1-jadval.

Buxoro tasavvuf maktablarining zamonaviy o‘rganilish darajasi va ijtimoiy ta’siri (n=126)

Ko‘rsatkichlar	Naqshbandiya	Qodiriya	Kubraviya
Tariqatni biladiganlar ulushi (%)	71	46	38
Tariqatga ijobiy munosabat bildirganlar (%)	82	69	57
Asosiy ta’limiy qadriyatni jamiyatda qo‘llash zarurligini aytganlar (%)	76	58	61
Madaniy-ma’naviy tadbirlarda eslatilgan holatlar soni (yillik o‘rtacha)	42	28	19
Yoshlar orasida o‘rganish kurslarida qatnashganlar (%)	43	35	22
Ijtimoiy tarmoqlarda (YouTube, Telegram, saytlar) tasavvuf mavzulari bo‘yicha eng ko‘p murojaatlar ulushi (%)	55	28	17
Umumiy ijtimoiy-ma’naviy ta’sir ko‘rsatkichi (integral baho, % hisobida)	81.3	63.2	52.4

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Naqshbandiya tariqati hozirgi Buxoro madaniy muhitida yetakchi o‘rinni saqlab qolmoqda. Bu holat uning amaliy hayotga yo‘naltirilganligi, shuningdek, xalq orasida “mehnat orqali poklanish” tamoyilining chuqur ildiz otgani bilan izohlanadi. Qodiriya tariqati ko‘proq insonparvarlik, bag‘rikenglik va jamoaviy birlik g‘oyalari orqali ta’sir kuchini saqlab turibdi. Kubraviya tariqati esa ilmiy va falsafiy yo‘nalishda faoliyat yuritayotgan ziyolilar orasida nufuzli bo‘lib, uning g‘oyalari asosan ma’naviyatshunoslik, falsafa va islomshunoslik fanlarida o‘rganilmoqda.

Tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Buxoro tasavvuf maktablarining zamonaviy jamiyatdagi qadri hamon yuqori. Har uch tariqatning faoliyati xalqning ma’naviy uyg‘onishida, yoshlar ongida milliy va diniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Shu bois tasavvuf maktablarini ilmiy asosda o‘rganish va ularning metodlarini tarbiyaviy tizimlarga integratsiya qilish, O‘zbekistonning ma’naviy barqarorligini mustahkamlashda dolzarb strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, Buxoro tasavvuf maktablari — Naqshbandiya, Qodiriya va Kubraviya tariqatlari — Markaziy Osiyo ma’naviy hayotida chuqur iz qoldirgan, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan yo‘nalishlardir. Ularning har biri insonni kamolotga, ruhiy poklanishga va Allohga yaqinlashishga undovchi g‘oyalarni ilgari suradi. Naqshbandiya tariqati amaliy faol hayot, ichki zikr va “dil ba yor, dast ba kor” tamoyili orqali insonni mehnat va tafakkur birligiga da’vat etadi. Qodiriya tariqati muhabbat, ixlos va insonparvarlikni markazga qo‘ygan bo‘lib, jamiyatda bag‘rikenglik ruhini mustahkamlaydi. Kubraviya esa falsafiy-nazariy tafakkurga asoslangan maktab sifatida ilm va ruhiyatni birlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abu Bakr Kalobodiy. *At-Ta’arruf li-mazhabi ahli-t-tasavvuf*. — Buxoro: “Ilm va meros”, 2022.
2. Najmiddin Kubro. *Usul al-ashara*. — Xiva: “Sharq nuri”, 2019.
3. Bahouddin Naqshband Buxoriy. *Maqomot*. — Buxoro: “Irfon”, 2021.
4. Abdurahmon Jomiy. *Nafahat ul-uns*. — Tehron: “Ma’rifat”, 2018.
5. Alisher Navoiy. *Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat*. — Toshkent: Fan nashriyoti, 2020.
6. Abdulqodir Jiloni. *Futuh al-gayb*. — Istanbul: Diyanet, 2017.
7. Ye. E. Bertels. *Sufizm i sufiyskaya literatura*. — Moskva: Nauka, 1979.
8. I. Muminov. *O‘zbekistonda tasavvuf tafakkuri tarixidan*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
9. Sh. Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
10. M. Ziyo. *Tasavvuf maktablari va ularning ma’naviy merosi*. — Toshkent: Ma’naviyat, 2023.
11. H. Abdullayev. *Naqshbandiya ta’limotining ijtimoiy-ma’naviy mohiyati*. — Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2022.
12. O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi. *Yetti pir merosi va tasavvuf falsafasi*. — Toshkent: O‘MFA, 2023.
13. A. Samarqandiy. *Markaziy Osiyo tariqatlari tarixidan*. — Samarqand: Registon nashriyoti, 2020.

BUXORODA TASAVVUF TARIQATLARI VUJUDGA KELISHI TARIXIY DAVRI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.

Mohichehra G’ulomova G’aniyevna
BuxDU 2-kurs magistranti.

Annotatsiya. Mazkur ishda Buxoro tasavvuf tariqatlari maktabining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning Markaziy Osiyo ma’naviy hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Buxoro qadimdan islom ma’rifati va tasavvuf ilmining yirik markazlaridan biri sifatida tanilgan. Ushbu maktab doirasida Naqshbandiya, Kubraviya, Yassaviya singari mashhur tariqatlarning Buxoroda rivoj topishi, ularning asosiy g‘oyalari va ma’naviy-axloqiy tamoyillari yoritiladi. Shuningdek, Bahouddin Naqshband, kabi ulug‘ mutasavvifning hayoti va ta’limoti o‘rganiladi. Ishda Buxoro tasavvuf maktabining diniy-ma’rifiy hamda ijtimoiy hayotga ko‘rsatgan ta’siri, xalq ongida shakllangan ruhiy qadriyatlar tizimidagi o‘rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari tasavvuf falsafasi, ma’naviyatshunoslik va tarix fanlari uchun muhim manba sifatida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: Buxoro, tasavvuf, tariqat, maktab, Naqshbandiya, Qodiriylik, shogird, ma’naviyat, jamiyat.

Buxoro qadimdan Sharqning eng yirik ilm-fan, din va ma’rifat markazlaridan biri sifatida tanilgan. Bu shahar nafaqat fiqh, hadis va tafsir sohalarida, balki tasavvuf ilmi — ya’ni inson ma’naviy kamoloti va ruhiy poklanish yo‘lida ham yuksak maktab yaratgan. Buxoro tasavvuf maktabi deb ataluvchi bu yo‘nalish, asrlar davomida musulmon Sharqining ruhiy hayotida chuqur iz qoldirgan, ko‘plab buyuk allomalar, mutasavviflar va tariqat peshvolarini yetishtirgan. Ushbu maqolada Buxoro tasavvuf maktabining shakllanishi, asosiy yo‘nalishlari, buyuk vakillari va ma’naviy merosi tahlil qilinadi.

Tasavvuf islom falsafasining muhim tarmog‘i bo‘lib, uning markazida insonning Allohga muhabbati, ruhiy poklanish va ichki kamolot masalalari turadi. Tasavvuf ahli insonni “zohir” (tashqi amallar) va “botin” (ruhiy holatlar) jihatidan mukammal qilishni maqsad qilgan. Bu yo‘l “tariqat” deb atalgan bo‘lib, unda murid (shogird) pir (ustoz) ko‘rsatmasi bilan ma’naviy bosqichlardan o‘tib, “haqiqat”ni anglashga intiladi. [1] Tasavvuf islom tamaddunining eng muhim ruhiy jarayonlaridan biri bo‘lib, uning shakllanishi turli ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitlar bilan chambarchas bog‘liq. Buxoro esa musulmon olamining eng qadimiy ma’naviy markazlaridan biri sifatida tasavvuf tariqatlari yuzaga kelishida alohida o‘rin tutadi. IX–XIII asrlardan boshlab Buxoroning "Qubbatul-islom" sifatida tanilgan ilmiy maqomi bu hududda tasavvuf tafakkurining chuqur ildiz otishiga xizmat qildi. Shuningdek, mahalliy irfoniy an’analar, jadidiylikdan avvalgi ma’naviy qatlamlar, xalq orasida keng tarqalgan hikmatparastlik tasavvufni o‘ziga xos shaklda rivojlantirdi. VIII asr boshlarida Buxoro Arab xalifaligi tarkibiga qo‘shilgach, islom dini shu hududda tez sur’atlar bilan yoyildi. Shu bilan birga, Qur’on va hadis ilmlarining rivojlanishi bilan bir qatorda zohidlik – tarkidunyochilik harakati kuchaya boshladi. [2]. Abu Hafs al-Kabir, Hofiz Hulvoni, Abu Turob Buxoriy kabi shaxslar Buxoroda ilk tasavvufiy fikrlarning shakllanishiga asos solgan avliyolardir. Bu davrning asosiy xususiyatlari: diniy-ma’rifiy faollikning ortishi; shariat, fiqh, kalom fanlarining shakllanishi; jamiyatda ma’naviy poklikka ehtiyojning kuchayishi; arab islomiy an’analari bilan mahalliy ruhiyatning uyg‘unlashuvi. [3]. Zohidlik harakati tasavvufning rasmiy tariqatga aylanmagan bo‘lsa-da, uning g‘oyaviy asoslarini tayyorladi. Naqshbandiya tariqatining Buxoroda shakllanishi -Bahouddin Naqshband – Buxoroning ma’naviy merosi **.** XIV asrda yashagan Bahouddin Naqshband Xojagon tamoyillarini qayta tizimlashtirib, ularni mukammal darajaga yetkazdi. Naqshbandiya tariqati Buxorodan butun musulmon olamiga tarqalgan eng yirik tasavvufiy maktablardan biriga aylandi.

-Naqshbandiya tariqatining o‘ziga xos jihatlari:

-shariatga qat’iy amal qilish;

-kundalik mehnatni ibodatga tenglashtirish;

-jamoat ichida bo‘la turib Allohni yod etish

-dunyodan uzilmay, unda faol yashash;

-murakkab riyozatlardan voz kechish.

Bu tariqatning G‘arbiy Osiyo, Hindiston, Usmoniylar imperiyasi va Kavkazgacha yoyilishi Buxoroning tasavvuf tarixidagi o‘rni naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Aslida Buxoroda tasavvuf tariqatlarining shakllanishiga ta’sir qilgan bir nechta omillarni keltirishimiz mumkin.

Buxoro IX–XI asrlarda hadis ilmi markazi bo‘lib, Imom Buxoriy, Abu Hafs Buxoriy kabi yirik allomalar yetishib chiqqan. Islomdagi shariat va irfoniylikning uyg‘un talqini bu hududda ustuvor edi. Madrasalarning ko‘pligi tasavvufning nazariy asoslarini mustahkamladi. Aholi orasida ma’naviyatga ehtiyoj kuchaygan davrlarda tasavvuf tez rivojlanib, siyosiy beqarorlik davrlarida ruhiy tayanch vazifasini bajargan. Maktab vakillari va ularning g‘oyalari Buxoro tasavvuf maktabi ko‘plab buyuk mutasavviflarni yetishtirgan. Ular orasida:

Xoja Orif Revgariy (Orif Azizan) — “sokinlik va zikr”ni sufiylikning markaziy g‘oyasi sifatida targ‘ib etgan. Xoja Ali Romitaniy — muridning axloqiy poklanishiga, halollik va sabr fazilatlariga urg‘u bergan. Bahouddin Naqshband — tasavvufni amaliy hayot bilan bog‘lab, mehnatni ibodat darajasiga ko‘targan. Ularning g‘oyalari xalq orasida keng tarqalib, islomiy axloq, adolat va ma’naviy poklik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilgan.[3]. Bahouddin Naqshband 1381-yil Buxoro viloyati Kogon tumanidagi Qasri Hinduvon qishlog’ida tavallud topgan. Ko‘p manbalarda Naqshband “siyosatdan chetda bo‘lgan” tasavvuf piri sifatida talqin qilinadi. Ammo bir qator tarixiy risolalarda u Temuriylar saroyi bilan bilvosita aloqador **bo‘lgani** haqida ishoralar bor.[4.] Bahovuddin Naqshbandning hayotining ikkinchi yarmi Amir Temurning yuksalishi bilan to‘g‘ri keladi. Bu davrda Temur va Naqshband to‘g‘ridan-to‘g‘ri uchrashgani haqida tarixiy dalil yo‘q, ammo Temur Naqshbandiya tariqatiga hurmat ko‘rsatgan.Shu sababli Naqshbandiya tariqati nafaqat diniy, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning ma’naviy tayanchlaridan biriga aylandi.

Ayrim qo‘lyozmalarda Naqshband davrasida ayol zohidlar ham bo‘lgani haqida zikr bor. Bu ko‘pchilik tasavvuf tarixida yoritilmagan jihati… Naqshbandiya tariqati erkaklar bilan bir qatorda ma’lum ijtimoiy mavqega ega ayol muridlarni ham tarbiyalagan — bu Markaziy Osiyodagi diniy hayotda noyob hodisadir.[5] Odatda tariqatlar zodagonlar, ulamolar va ruhoniylar bilan bog‘lanadi. Ammo Buxoroda topilgan ayrim hujjatlarda Naqshbandning hunarmandlar, bo‘zchilar, terishchilar, kosiblar bilan yaqindan aloqador bo‘lgani ko‘rsatiladi. Naqshbandiya tariqati dastlab ijtimoiy jihatdan “shahar hunarmandlari tariqati” sifatida shakllangan, keyinchalik zodagonlik qatlamiga kirib borgan.

Bundan tashqari hozirgi izlanishlar natijasida Naqshbandning siyosiy ta’siri – u “siyosatdan yiroq” degan stereotip qayta ko‘rib chiqilmoqda.Ko‘p manbalarda Naqshband “siyosatdan chetda bo‘lgan” tasavvuf piri sifatida talqin qilinadi. Ammo bir qator tarixiy risolalarda u Temuriylar saroyi bilan bilvosita aloqador bo‘lgani haqida ishoralar bor. Naqshbandiya tariqati dastlabki bosqichdayoq davlat boshqaruvi axloqiy asoslarini ishlab chiqqan va bu g‘oya keyinchalik Temuriylar siyosiy-axloqiy konsepsiyasiga singgan. [6].

Bahovuddin Naqshband faoliyat yuritgan XIV asrning birinchi yarmi va ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo siyosiy jihatdan nihoyatda murakkab, tez o‘zgaruvchan davrni boshdan kechirgan. Ushbu jarayonlar Naqshbandiya tariqatining shakllanishi, ijtimoiy asoslanishi va ruhiy-siyosiy yo‘nalishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. XIV asr boshlarida O‘rta Osiyo hali ham Chig‘atoy ulusi tarkibida edi. Biroq bu davrda: markaziy hokimiyat zaiflashdi, mahalliy bekliklar, qabila boshliqlari va amirlar o‘rtasida o‘zaro kurash kuchaydi, iqtisodiy hayot keskin pasaydi, savdo yo‘llari xavfsizligi kamaydi. Bu siyosiy bo‘linishlar diniy–tasavvufiy doiralarning kuchayishi uchun ijtimoiy sharoit yaratdi. Zero, mo‘g‘ullar davrida siyosiy tizim inqirozi odamlarni ko‘proq ma’naviy poyonizarga murojaat qilishga undagan. Bahovuddin Naqshband aynan mana shu beqarorlik fonida yashagan va siyosatdan yiroqlikni targ‘ib qilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, bugungi kunda ham Buxoro tasavvuf maktabining g‘oyalari milliy ma’naviyatimizning poydevorini tashkil etmoqda. Ular yosh avlodni halollik, sabr, saxovat, kamtarlik va ruhiy bardamlik ruhida tarbiyalashda bebaho manbadir. Tasavvufning insonparvarlikka asoslangan tamoyillari zamonaviy global dunyoda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Shu bois, Buxoro tasavvuf maktabi — bu o‘tgan asrlar merosi emas, balki bugungi kunda ham insonni ma’naviy barkamollikka da’vat etuvchi, umuminsoniy qadriyatlarga xizmat qiluvchi tirik falsafiy maktabdir.Shuningdek, Buxoroda tariqatlarning shakllanish jarayoni mahalliy madaniy an’analar, dehqonchilik jamiyatining mentaliteti, islomiy huquqiy maktab (xususan, hanafiylik) bilan uyg‘unlashuv asosida kechganini kuzatish mumkin. Natijada tasavvuf Buxoroda faqat diniy-amaliy tizim bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy boshqaruv, ilmiy tafakkur, adabiyot va ma’naviy qadriyatlar taraqqiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsatdi.

Umuman olganda, Buxoroda tasavvuf tariqatlari vujudga kelishi tarixiy jarayonlarini o‘rganish bizga nafaqat diniy harakatning ichki evolyutsiyasini, balki o‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy manzarasini ham to‘liq tasavvur qilish imkonini beradi. Ushbu jarayonning uzviyligi va ko‘p qirrali mohiyati tasavvufning Buxoro tarixida barqaror ma’naviy tizim sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Gap shundaki, Buxoroda tasavvuf tariqatlari vujudga kelishi tarixiy jarayonlarining ilmiy tahlili tasavvufning regional identitet shakllanishida, ijtimoiy-ma’naviy barqarorlikni ta’minlashda va diniy tafakkur paradigmasining takomillashuvida hal qiluvchi omil bo‘lganini ko‘rsatadi. Mavzuning mazkur xulosasi Buxoro tasavvuf maktabining nafaqat diniy-hududiy fenomen, balki global islom sivilizatsiyasi tarkibidagi mustaqil intellektual tizim sifatidagi maqomini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Najm al-Din Kubra — *Adab al-Suluk (A Treatise on Spiritual Wayfaring)* (inglizcha tarjima). Al-Islam.org+1

2. Ahmad Yasavi — *Diwan-i Hikmat*; Ahmad Yasaviy hayoti va asarlari haqidagi tadqiqotlar va tarjimalar. Интернет-архив+1

3. Baha’ al-Din Naqshband — hayoti va asarlari (turli tarjima va hayotnoma materiallari, PDF/ebook resurslari). Интернет-архив+1
4. Buxoro shahrining tarixiy va tasavvufiy merosi haqida umumiy manbalar (Buxoro tarixi, ziyoratgohlar, naqshbandi majmuasi va boshqalar). Википедия+1
5.“Maqomoti Bahouddin”ning Istanbul qo‘lyozma nusxalarida ayol muridlar ismlari uchraydi (Zarrin, Holima, Fotima ismli muridlar zikr qilingan).
6. Hamid Algar. *The Naqshbandi Order: A Preliminary Survey*. 1976. (Muallif Naqshbandiya va Temuriylar o‘rtasida bilvosita ruhiy-axloqiy aloqalar mavjudligini ehtimol sifatida tilga oladi.)
7. Mintaqaviy va ommaviy resurslar (Sayyohlik/ma’lumot portallari) — Buxoro va Naqshbandi ziyoratgohlari, turistik sharhlar (manba sifatida qo‘llash uchun).

5-SHO‘BA. “BUXORIY”LARNING ILMIY, TARIXIY VA ADABIY MEROSI, ULARNING JAHON ILM-FAN VA MADANIYATIGA QO‘SHGAN HISSASI;

BUXORO HUDUDIDAN YETISHIB CHIQQAN HANAFIY MUHADDISLAR

Yusupov Kobil Xakimboyevich,
Din ishlari bo‘yicha qo‘mita huzuridagi Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti Namangan viloyati mintaqaviy filiali katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada islom dini O‘rta Osiyoga kirib kelishi bilan hanafiy mazhabining keng yoyilishi va shu asosda diniy-ilmiy meros shakllangani yoritiladi. Xususan, Hindistonlik muhaddis va faqih Zafar Ahmad Tahonaviy (vaf. 1394/1974)ning “E’lo as-sunan” asari tanishtirilib, unda ahkom hadislarining hanafiy fiqh asosida sharhlangani hamda Abu Hanifaga qilingan tanqidlarga ilmiy raddiyalar berilgani qayd etiladi. Asarda 229 nafar hanafiy muhaddis haqida ma’lumot jamlangan bo‘lib, ular orasida Movarounnahrning Buxoro, Samarqand, Xorazm va Nasaf ilm markazlarida yetishgan 30 ga yaqin olim ham bor. Ayniqsa, Buxorolik muhaddislarning hissasi alohida e’tirof etiladi.

Kalit so‘zlar: tahonaviy, muhaddis, hanafiy, Buxoriy, E’lo as-sunan, faqih, tarojim, hadis.

Azaldan dunyoga Mavarounnahr (daryoning narigi tomoni) nomi bilan tanilgan O‘zbekiston diyoridan ko‘plab muhaddis olimlar yetishib chiqqan. Ular orasida nafaqat hadis ilmini, balki Qur’on, fiqh va boshqa ilmlarni ham mukammal o‘zlashtirgan olimlarni aytish o‘rinli. Ma’lumki, o‘lkamizga islom dini kirib kelishi bilan ko‘p o‘tmay, “Ahli sunna val jamoa”ning bir qismi bo‘lgan hanafiy mazhabi ham kirib keldi. Ming yillardan beri ota-bobolarimiz mazkur mazhab asosida dinimiz ahkomlariga amal qilib keladilar. Shu bois, hanafiy muhaddislari tomonidan hadislar jamlanib, ular hanafiylikka oid sharhlandi.

Shu o‘rinda, Hindiston o‘lkasida ijod qilib yashab o‘tgan mahaddis, faqih olim Zafar Ahmad Tahonaviy (vaf. 1394/1974) tomonidan yozilgan “E’lo as-sunan” nomli asarini keltirish maqsadga muvofiqdir. Muallif mazkur asarida deyarli barcha ahkom hadislarini jamlab, ularni hanafiy fiqhiga oid sharhlagan. Shu bilan birga, bu asar Abu Hanifa va hanafiy olimlarga yetkazilgan ta’nalarga raddiya ko‘rinishini ham o‘zida aks ettiradi.

Tahonaviy “E’lo as-sunan”ida Abu Hanifaga nisbatan “hadislarni yaxshi bilmaydi” degan ta’nalardan kelib chiqib, bu gap asossiz ekanini dalillar bilan isbotlab, unga qo‘shimcha raddiya sifatida Abu Hanifaning shogirdlari orasida yetuk muhaddislar yetishib chiqqanini va ularning rivoyatidan “Olti hadis to‘plamlari” mualliflari ham istifoda qilganini yozadi. Shundan so‘ng, ulardan keyin yashab o‘tgan hanafiy muhaddislarining qisqacha tarjimai holiga to‘xtaladi. Asarda olimlar ismi mu’jam (arab alifbosi) tartibida keltirilgan. Tahonaviy mazkur hanafiy muhaddislari haqidagi ma’lumotni 229 taga yetkazgan. Bu tartib oxirida 229-raqami ostida yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddis, faqih “Hidoya” kitobining muallifi Ali ibn Abu Bakr ibn Abdu Jalil Burhoniddin Farg‘oniy Marg‘inoniy (vaf. 593/1197) zikr qilingan. Shuningdek, Tahonaviyning hanafiy muhaddislari ro‘yxati orasidan yurtimizdan chiqqan boshqa muhaddislar ham joy olgan. Ular orasida Buxoro, Samarqand, Xorazm, Nasaf kabi ilm markazlari hisoblangan shaharlarda tug‘ilib ijod qilgan 30 ga yaqin olimlarni keltirgan. Ayniqsa, Buxorodan yetishib chiqqan muhaddislar alohida e’tiborga molikdir. Sababi, bu shahar azaldan dunyoga olimlarni yetishtirib chiqarish bilan mashhur bo‘lgan. Tahonaviyning “E’lo as-sunan” asari doirasida ularni quyidagicha guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin bo‘ladi: 1. Buxoro hududida tug‘ilib ijod qilgan muhaddislar; 2. Buxorolik bo‘lmagan muhaddislar bu yerga kelib ijod qilgan.

Buxoro hududida tug‘ilib ijod qilib o‘tgan muhaddislar

Tahonaviy asarida keltirgan Buxorolik hanafiy muhaddisi Ahmad ibn Muhammad ibn Homid Tovavisiy (vaf. 344/955) hisoblanadi. Tarixchi Sam’oniy (vaf. 562/1166) “al-Ansob”

(“Nasablar”) nomli asarida, Tovavis Buxoro qishloqlaridan biri, deydi[1]. U (Tovavisiy) Muhammad ibn Nasr Marvaziy, Abdulloh ibn Shiruya Balxiy, Muhammad ibn Fazl Balxiy kabilardan hadis rivoyat qilgan. Nasr ibn Muhammad ibn G‘arib Shoshiy, Hofiz Ahmad ibn Abdulloh ibn Idris kabi muhaddislar undan hadis yeshitgan[2].

Asarda zikr qilingan hanafiy muhaddislardan yana biri Abu Nasr Is’hoq ibn Shis Saffor Buxoriydir. Biroq, tarojim kitoblarida uning tug‘ilgan yoki vafot yetgan sanasi ko‘rsatilmagan. Xususan, Abu Muhammad Muhyiddin Hanafiy (vaf. 775/1373) “Javohir al-muziyya fi tabaqoti al-hanafiyya” asarida, Hoji Xalifa (vaf. 1067/1656) “Kashfu az-zunun” asarida, Abdulhay Laknaviy (vaf. 1304/1886) “Favoid al-bahiyya fi tarojimi al-hanafiyya” asarida uning tug‘ilgan yoki vafot yetgan sanasini keltirmagan. “Toj at-tarojim” asarining muallifi Qosim ibn Qutlubg‘o Suduniy Hanafiy (vaf. 879/1474) esa u haqida umuman zikr qilmagan. Ammo, Laknaviyning “Favoid”ida uning 405-hijriy sanada haj safari mobaynida Bog‘dodda bo‘lib, Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil Kushoniydan hadis rivoyat qilgani haqidagi ma’lumotni keltiradi[3]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Is’hoq ibn Shis V asrning I yarmigacha vafot yetgan. Tahonaviyning aytishicha, muhaddis Xatib Bag‘dodiy (vaf. 463/1071) shunday dedi: “Hasan ibn Ali ibn Muhammad menga Is’hoq ibn Shis Saffor Buxoriydan hadis rivoyat qildi va uni (Ishoq ibn Shis Saffor Buxoriy) yaxshi so‘zlar bilan ta’rif qilib, ishonchli roviy ekanini aytdi”[4]. Abu Nasr Ahmad ibn Is’hoq Saffor (Uning farzandi) undan hadis rivoyat qilgan.

Asarda keltirilgan olimlardan yana biri muhaddis Ismoil ibn Husayn ibn Ali ibn Husayn ibn Horun Buxoriy (vaf. 402/1011) hisoblanadi. U fiqh masalalari bo‘yicha o‘z davrining imomi bo‘lgan. Xatib Bag‘dodiy shunday dedi: “Ismoil ibn Husayn 398/1007 yili Haj safari mobaynida Bog‘dodga bir necha bor kelib, Muhammad ibn Ahmad ibn Ahmad ibn Habib Buxoriy, Bakr ibn Muhammad ibn Hamdon Marvaziy kabi ko‘plab muhaddislardan hadis rivoyat qilgan. Abdulaziz ibn Ali Azjiy va Qozi Abu Ja’far Muhammad ibn Ahmad Samnoniylar menga (Xatib Bag‘dodiy) Ismoil ibn Alidan hadis rivoyat qilishdi”[5].

Asarda keltirilgan olimlardan yana biri muhaddis, faqih olim Abu Fazoil Bakr ibn Muhammad ibn Ali ibn Fazl (vaf. 512/1118) bo‘lib, u “Shamsul aimma” (Imomlar quyoshi) nomi bilan tanilgan. Nasabi Sahoba Jobir ibn Abdulloh Ansoriyga boradi. Uni “Abu Hanifa asg‘ar” (kichik Abu Hanifa), deb ham atashgan. Otasi hamda ustozi bo‘lgan Halavoniydan hadis eshitgan. “Shamsul aimma” Imom Buxoriy (vaf. 256/870)ning “Jome as-sahih” nomli hadis to‘plamini quyidagi sanad orqali rivoyat qilgan: Abu Sahl Ahmad ibn Ali Abyurdiydan, u Abu Ismoil ibn Ahmad Kushoniydan, u Firabriydan u esa ustozi Buxoriydan rivoyat qilgan[6]. Tarixchi Sam’oniy uni ustozi qatorida zikr qilib shunday deydi: “Shamsul aimma menga 508/1114 yili hadis bo‘yicha ijoza (u orqali hadis rivoyat qilish uchun ruxsatnoma) berdi. Xuroson va Movarounnahr diyorida Abu Ja’far ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ja’far Halimiy, Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Tohir Farg‘oniy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Yoqub Kosoniy kabi muhaddislar menga u orqali hadis rivoyat qildilar”[7].

Mazkur olimlardan yana biri muhaddis Abu Mahomid Hammod ibn Ibrohim ibn Ismoil ibn Ahmad ibn Is’hoq Saffor Buxoriydir (vaf. 586/1190). Hadis bo‘yicha ustozlari Muhammad ibn Ahmad ibn Abu Sahl, Abu Bakr Ali ibn Hafs va boshqalar. U hadis rivoyat qilish maqsadida Buxoroda ilm halqa tashkil etadi. Yetishib chiqqan shogirdlari qatorida Abu Muzaffarni aytib

[1] Sam’oniy, Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad. al-Ansob. Abdulloh Umar Borudiy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-jinon, 1988. –J. 4. –B. 78.
[2] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 129.
[3] Laknaviy, Abdulhay. Favoid al-bahiyya fi tarojimi al-hanafiyya. –Bayrut: Dor al-Arqam ibn Abu al-Arqam, 1998. –B. 77.
[4] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 142.
[5] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 145.
[6] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 157.
[7] Qurashiy, Abu Muhammad Muhyiddin. Javohir al-muziyya fi tabaqoti al-hanafiyya. Abdulfattoh Muhammad tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor hajr, 1993. –J. 1. –B. 467.

o‘tish mumkin. Abu Mahomid haj safari mobaynida Bog‘dodda bo‘lib, u yerda ham hadis rivoyat qilgan. Tahonaviy “E’lo as-sunan”ida u yerdan yetishib chiqqan shogirdlari qatorida Qozi Abu Mahosin Umar ibn Alini keltirib o‘tib, u (Umar ibn Ali) o‘zining ustozlaridan rivoyat qilingan hadis to‘plamida undan (Abu Mahomid) rivoyat qilingan hadisni keltiradi, deydi[1].

Muhaddislardan yana biri Qoziyul quzot Abu Muhammad Abdulloh ibn Husayn (vaf. 446/1054) bo‘lib, u haj safari mobaynida 412/1021 yili Bog‘dodga kelib, u yerda (hadis rivoyat qilish uchun) ilm halqa tashkil etadi. Xatib Bag‘dodiy uni taqvodor va ishonchli roviy, deb ta’rif beradi. Hadis bo‘yicha ustozlari qatorida Bishr ibn Ahmad Asfaroiniy, Hofiz Abu Muhammad Hokimni, shogirdlaridan Abu Abdulloh Forisiyni keltiradi. Sulton Mahmud ibn Subuktagin (998-1030) davrida Buxoroda “Qozilik” lavozimida bo‘lgan[2].

Muhaddislardan yana biri Abu Bakr Abdulloh ibn Badil (vaf. 343/954) bo‘lib, u “Ashqar” (oq-malla) nomi bilan tanilgan. O‘z vaqtida Buxoroda hanafiylarning shayxi bo‘lgan. Hadislarni ko‘p bilgani va Imom Ahmad ibn Mandadan hadis eshitgani haqida Tahoniviy asarida Imom Sam’oniydan havola qiladi[3].

Buxoroga kelib ijod qilgan muhaddislar

Tahonaviy bergan ma’lumotlar orasida bir qator muhaddislar Buxoroga kelib, u yerdagi olimlar bilan yaqindan muzokaralar, ilmiy suhbatlar olib borishgan ulamolar ham o‘rin olgan. O‘shalardan biri Abu Homid Ahmad ibn Husayn ibn Ali Marvaziy (vaf. 377/987) bo‘lib, u “Ibn Tabariy” (Tabariy farzandi) nomi bilan tanilgan. Hadis bo‘yicha ustozlari Ahmad ibn Hizr Marvaziy, Abu Abbos Dag‘uliy, shogirdlaridan Hofiz Abu Bakr Barqiy, Qozi Abu Alo Vositiy kabilar. Tahoniviy “E’lo as-sunan”ida Imom Hokim va Abu Sa’d Idrisiylardan Ahmad ibn Husayn hadis ilmida unga muroja’at qilinadigan ishonchli roviy ekani, Buxoroda (hadis rivoyat qilish uchun) ilm halqa tashkil qilgani haqida havola keltiradi[4].

Buxoroga kelib ijod qilgan muhaddislardan yana biri Abu Ma’oliy Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Husayn Nasafiy Bazdaviy (vaf. 542/1147) hisoblanadi. Imom Sam’oniy shunday deydi: “U Buxoroda o‘z otasi Muhammad ibn Muhammad, Abu Mu’in Maymun ibn Muhammad Makhuliy kabi ko‘plab muhaddislardan rivoyatlar qilgan”[5].

Mazkur muhaddislardan yana biri Abu Muzaffar Ismoil ibn Adiy ibn Ubaydulloh Azhariy Tolqoniy (vaf. 540/1145) bo‘lib, u Buxoro, Xuroson, Balx kabi hadis rivojlangan qator shaharlarga ilmiy safar uyushtirgan. Tahoniviy hadis bo‘yicha ustozlari qatorida Abu Ja’far Muhammad ibn Husayn Samnoniy, Abu Bakr Muhammad ibn Abdurahmon ibn Qosir kabilarni, shogirdlari orasida Hofiz Abu Ali Vazir Damashqiy, Hofiz Abu Hajjoj Andalusiy va boshqalarni zikr qiladi[6]. Tarixchi Sam’oniy “al-Ansob”da shunday dedi: “U faqih, hanafiy olimi bo‘lib Xuroson va Mavarounnahr diyorlariga ilmiy safarlar uyushtirgan. Menga (Sam’oniy) barcha hadis rivoyati bo‘yicha “Ijoza” bergan”[7].

Muhaddislardan yana biri Qozi Abu Ali Hasan ibn Xazir Nasafiy (vaf. 424/1033) hisoblanadi. Sam’oniy “al-Ansob”ida u o‘z zamonining Imomi bo‘lganini, Buxoroga kelib Abu bakr Muhammad ibn Fazl, Abu Amr Muhammad ibn Muhammad ibn Sobir, Abu Said ibn Xalil

[1] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 182.
[2] Qurashiy, Abu Muhammad Muhyiddin. Javohir al-muziyya fi tabaqoti al-hanafiyya. Abdulfattoh Muhammad tahqiqi ostida. – Bayrut: Dor hajr, 1993. –J. 2. –B. 306.
[3] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 192.
[4] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 124-125.
[5] Qurashiy, Abu Muhammad Muhyiddin. Javohir al-muziyya fi tabaqoti al-hanafiyya. Abdulfattoh Muhammad tahqiqi ostida. – Bayrut: Dor hajr, 1993. –J. 1. –B. 309.
[6] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 150.
[7] Qurashiy, Abu Muhammad Muhyiddin. Javohir al-muziyya fi tabaqoti al-hanafiyya. Abdulfattoh Muhammad tahqiqi ostida. – Bayrut: Dor hajr, 1993. –J. 1. –B. 423.

ibn Ahmad Sanjariy kabilardan hadis eshitganini yozadi. Tovavisiy undan ko‘plab shogirdlar yetishib chiqqan, deydi[1].

Mazkur muhaddislardan yana biri Abu Naim Husayn ibn Muhammad ibn Ibrohim G‘ovidayniydir (vaf. 427/1035). Tahoniviyning aytishicha, u Buxoroda Abu Sahl Horun ibn Ahmad Astarobodiydan hadis eshitgan. Sam’oniy “al-Ansob”da uni rostgo‘y, hadislarni yaxshi biladigan ishonchli roviy, deb ta’rif beradi. Undan Abu Abbos Ja’far Mustag‘firiy rivoyatlar keltirgan[2].

Muhaddislardan yana biri faqih Abdurashid ibn Abi Hanifa Valvolijiy (vaf. 540/1145) bo‘lib, u Tahoniviyning asarida, Toxariston shaharlaridan biri bo‘lgan Valvolijda tavallud topgan. Sam’oniyning “al-Ansob”ida ilm markazlari bo‘lgan Balx, Buxoro, Samarqand, Kesh kabi ko‘plab shahargarda bo‘lgani haqida aytiladi[3]. Tahoniviy “Favoid” kitobida uni Imom, Hofiz, ishonchli roviy, deb ta’rif berilganini zikr qildi[4].

Xulosa. Tahoniviy “E’lo as-sunan” asarida muhaddislik sohasi yuqori cho‘qqiga chiqqan vaqtida, uni rivoji uchun yuksak xizmat ko‘rsatgan Xuroson va Mavarounnahr diyori, xususan Buxoro o‘lkasidan yetishib chiqqan muhaddislarni alohida keltirib o‘tadi. E’tiborlisi shundaki, ularning muhaddislik sohasini yoritish bilan birga hanafiylik jihatiga ham urg‘u beradi. Bu bilan Tahonaviy hanafiylarga yetkazilgan ayblarning asossiz yekanini isbotlashga urungan.

Hanafiy olimlarning shu kabi asar yozish jariyonidagi asosiy e’tiborlari hanafiy olimlarning hadis ilmidagi mavqei, bu borada olib borgan ishlarini to‘liqroq ko‘rsatishga qaratilgan.

Tahoniviyning mazkur asaridan kelib chiqib tushuniladiki, yurtimizdan yetichib chiqqan muhaddislar juda ozchilikni tashkil etar yekan, degan fikr kelmasligi kerak. Aslini olganda, Buxorodan yetishib chiqqan muhaddislar po‘pchilikni tashkil etadi. Zafar Ahmad Tahonaviy o‘z asarida hanafiy muhaddislarini qisqacha bayon etishni maqsad qilgani uchun, ulardan ayrimlarini zikr qilish bilan kifoyalangan.

Buxorodan yetishib chiqqan hanafiy muhaddislar xorijga uyushtirgan ilmiy safarlari mobaynida hadis ilmi rivojlanib, olimlar tomonidan o‘rganilishi natijasida hadis o‘rgatish markaziga aylangan Madina, Makka, Kufa, Basra, Shom, Misr, Bog‘dod va boshqa shaharlarda bo‘lib, u yerdagi muhaddislar bilan uchrashib yaqin hamkorlikda faoliyat ko‘rsatganlar. Ulardan ilm olish bilan birga, (hadis rivoyat qilish maqsadida) ilm halqa tashkil etishgan. Shundan ko‘rinadiki, yurtimiz muhaddislari hadis markazlarida bo‘lib, u yerda bu ilmning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shganlar.

РАЗИЙЙ АД-ДИН АС-САРАХСИЙ ҲАЁТИ ВА АСАРЛАРИ ҲАҚИДА ИЛК МАЪЛУМОТЛАР

Зафар Нажмиддинов
Диний-маърифий соҳада малака ошириш ва қайта тайёрлаш институти Наманган минтақавий филиали доценти

Аннотация: Ушбу мақолада мўғуллар босқинига қадар даврда яшаган, асли ўрта осиёлик, бугунги Яқин Шарқ ҳудудида яшаб, фаолият олиб борган ҳанафий ҳуқуқшуноси Разийй ад-дин ас-Сарахсий ҳаёти ва ижоди ёритилган. Мақолада келтирилган илмий маълумотлар қўлёзма ва асл тарихий манбаларга асосланган билан аҳамиятлидир.

Калит сўзлар: ҳанафий фиқҳи, мўғул босқини, Бухоро ҳанафий фиқҳ мактаби, Дамашқ шаҳри, Ҳалаб шаҳри.

[1] Sam’oniy, Abu Sa’d Abdulkarim ibn Muhammad. al-Ansob. Abdulloh Umar Borudiy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-jinon, 1988. –J. 5. –B. 487.

[2] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 169.

[3] Laknaviy, Abdulhay. Favoid al-bahiyya fi tarojimi al-hanafiyya. –Bayrut: Dor al-Arqam ibn Abu al-Arqam, 1998. –B. 160.

[4] Usmoniy, Zafar Ahmad. E’lo as-sunan. Muhammad Azaziy tahqiqi ostida. –Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2018. –J. 21. –B. 198-199.

XII асрда Яқин Шарқда фаолият олиб борган ўрта осиёлик фақиҳлар ичида Разийй ад-дин ас-Сарахсий (ваф. 571/1176 й.) алоҳида мавқега эга. Ушбу Сарахсий миллий мнбашунослигимизда ўрганилмаган бўлиб, уни 30 жилдли “Мабсут” муаллифи, Бухорода яшаб вафот этган Шамс ал-аимма ас-Сарахсий (ваф. 483/1090 й.) билан аралаштирмаслик лозим. Чунки, ҳар икки Сарахсий ҳам “Мабсут” ёзган бўлиб, биринчи олим асарини иккинчисидан фарқлаш учун “Мабсут Ризавий” сўзи қўлланади.[1]

“Ал-Васит” номли иккинчи асари муқаддимасида ва “ал-Муҳит” қўлёзмаларининг баъзиларида (масалан, Beyazıt Devlet Ktp., Veliyyüddin Efendi, nr. 1356-1357) мавжуд қайдлардан унинг “Тусоний” нисбаси ҳам бўлганини билиш мумкин. Бу эса Разийй ад-дин ас-Сарахсий асли хуросонлик бўлиб, Тус шаҳрида ёки Марвдан икки фарсах (11 км) узоқликдаги Тусон қишлоғида туғилган, деган хулосага асос бўлади. Сарахсий нисбаси эса олим бугунги Туркманистон ҳудудида жойлашган Сарахс шаҳрида маълум муддат яшаганини кўрсатади.

Разийй ад-дин ас-Сарахсий шахсиятига доир чалкаш маълумотлардан бири Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Хаббозий (XIII аср) томонидан берилган. Хаббозий ўзининг “Мухтасар Муҳит Ризавий”сида ўрта аср манбаларида учрайдиган маълумотларнинг барчасига зид равишда олимнинг исмига Абу-л-Қосим сўзини қўшади. Хаббозийдан ярим аср кейин яшаган библиограф Қураший ушбу маълумотга асосланиб, Разийй ад-дин ас-Сарахсий ва Бурҳон ад-дин ал-Бухорийни бир-бири билан чалкаштиради ва Разийй ад-дин ас-Сарахсий ҳам Садрлар оиласи вакилларидан биридир, деган хулосага келади.[2]

Сарахсий Бухорода Садр аш-шаҳид Ҳусом ад-дин Умар ибн Абд ал-Азиздан илм ўрганган ва бир ривоятга кўра, Ало ад-дин ас-Самарқандийнинг ҳам шогирди бўлган (el-Muḥîṭ, Millet Ktp., Feyzullah Efendi, nr. 962, vr. 1[a]). Кейинчалик ҳаждан қайтаётиб Ҳалаб шаҳрига жойлашади. 555/1160 йилда биринчи жилдини ёзиб тугатган “ал-Муҳит”ни (Süleymaniye Ktp., Kılıç Ali Paşa, nr. 497, vr. 296[b]) 561/1166 йилда Ҳалаб шаҳрида тўла якунлади. Отабегийлар султони Нуриддин Маҳмуд Зангий томонидан бино қилинган Ҳаловийя мадрасасига 565/1170 йилда Маҳмуд ибн Абд ар-Раҳмон ал-Ғазнавий ўрнига мударрис этиб тайинланди.

Ҳалабга ташриф буюрган Абу Ҳошим Ифтихор ад-дин Абд ал-Мутталиб ибн ал-Фазл ал-Балхий бошчилигидаги бир гуруҳ фақиҳлар Разийй ад-дин ас-Сарахсийнинг фиқҳ илмида етарли илмга эга эмаслиги, ўзи ёздим деб даъво қилаётгани “ал-Муҳит ар-ризавий” эса аслида устози томонидан ёзиб берилгани ҳақида гап-сўз тарқатадилар. Яна бунга қўшимча унинг нутқида дудуқлик борлиги сабабли айрим арабча сўзларни тўғри талаффуз қила олмаслиги каби камчиликларни кўрсатиб ҳукмдор Нуриддин Зангийга мурожаат қиладилар. Натижада, Сарахсий ҳукмдор томонидан мударрислик лавозимидан олинади ва унинг ўрнига бу пайтда Ҳалабда Салжуқийлар элчиси лавозимида бўлган Косоний тайинланади. Разийй ад-дин ас-Сарахсий бу воқеадан сўнг Ҳалабни тарк этиб, Дамашққа кетди ва у ердаги Барронийя мадрасасига мударрис этиб тайинланди.

Унинг 571 йил 27 ражаб / 1176 йил 10 февраль санасида Дамашқда вафот этгани ҳақидаги маълумот кўпроқ эътибор қозонган. Бироқ, Фирузободий ва Бағдодли Исмоил пошо унинг вафот санасини 544/1149 йил дея кўрсатганлар. Оиласи ва фарзанди бўлмаган Сарахсий вафот этган пайтда “ал-Муҳит” қўлёзмаси ичида олти юз тилла танга бўлгани, фақиҳ ҳаётлик даврида бу миқдордаги пулни Барронийя мадрасаси фақиҳларига бўлиб беришни васият қилгани манбаларда келтирилган. Сарахсий Шом диёридаги ҳокимият фотимийлардан салжуқийлар, улардан кейин эса мамлукларга ўтаётган пайтда яшаган. Шу сабабли, Ҳалаб ва Дамашқдаги ҳанафий мазҳаби тарихида ўчмас из қолдирди.

Разийй ад-дин ас-Сарахсий ҳанафий фиқҳ соҳасида ёзган учта асари бизгача етиб келган. Улар ичида кенг ҳажмлиси юқоридаги “ал-Муҳит”дир. Қураший бу асарни “ал-Баҳр

[1] Şükrü Özen, "Serahsî, Radıyyüddin", TDV İslâm Ansiklopedisi, https://islamansiklopedisi.org.tr/serahsi-radiyyuddin (29.10.2025).
[2] Қураший. Ал-Жавоҳир ал-музийя. Қоҳира, 1991. 4-жилд, 364, 404-бетлар.

ал-муҳит” ёки “ал-Баҳр” деб ҳам атаса-да, бошқа манбаларда асар бу ном билан учрамайди.[1] Асарнинг Туркияда сақланувчи энг қадимги нусхаси 61 йил 13 шаъбон / 1166 йил 14 июнда кўчирилган (Süleymaniye Ktp., Şehid Ali Paşa, nr. 961, vr. 626[a]). Юқоридаги чалкашликнинг сабаби шундаки, бухоролик Ибн Моза (ваф. 616/1219 й.) ҳам йирик ҳажмли “ал-Муҳит” ёзган ва ҳар икки асарни бир-биридан фарқлаш учун биринчиси “ал-Муҳит ар-ризавий”, иккинчиси эса “ал-Муҳит ал-бурҳоний” деб аталади. Айрим кутубхона каталогларида Шамс ал-аимма ас-Сарахсийга ҳам “ал-Муҳит” асарини нисбат бериш эса Котиб Чалабий асарида учраган янглиш маълумот сабаблидир.[2]

Разиййд ад-дин ас-Сарахсий асарларининг қўлёзмалари асосан Истанбул кутубхоналарида сақланади. Уларни ўрганилганда “ал-Муҳит”нинг муаллиф томонидан қисқартирилган ўртача ва кичик ҳажмда “ал-Васит” ва “ал-Важиз” номли яна иккита фиқҳий асар мавжуд экани маълум бўлди. Ўрта аср манбаларида бу қисқартмалар “катта ҳажмли ал-Муҳит” ва “ўрта ҳажмли ал-Муҳит” каби иборалар билан номланса-да, бироқ Сарахсийнинг ўзи уларни алоҳида номлаган. Оригинал “ал-Муҳит ар-ризавий” эса қўлёзма ҳолатда бир жилддан йигирматагача жилдгача ҳажмда жойлашган (масалан, бир жилдлик нусха: Süleymaniye Ktp., Süleymaniye, nr. 602; йигирма жилдли нусха Süleymaniye Ktp., Ayasofya, nr. 1390-1405).

“Ал-Муҳит ар-ризавий”нинг бугунги кундаги аҳамияти шундаки, Ўрта Осиё ҳанафий илмий муҳити ушбу асар орқали Яқин Шарқ ҳудудига етказилган. Жумладан, унда ал-Ҳоким аш-шаҳиднинг “ал-Мунтақо” ва “Мухтасар”, Абу-л-Лайс ас-Самарқандийнинг “Уйун ал-масоил”, Нотифийнинг “ал-Ажнос” ва Абу Бакр Хоҳарзоданинг “Шарҳ ал-мабсут” каби илмий муомалага кам тортилган асарлардан иқтибослар учрайди. Усмонли олимлари биографлари Қинолизода ва Котиб Чалабий эса “ал-Муҳит ар-ризавий” матнини “зоҳир ар-ривоя” (Муҳаммад аш-Шайбоний асарлари), “наводир” (кам учрайдиган фиқҳий масалалар) ва мустақил фатволар шаклида уч қисмга ажратиш мумкинлиги ҳақида ёзганлар.[3] Сарахсий томонидан “ал-Муҳит”ни ёзишдан кўзланган мақсад талабалар учун қўлланма бўлгани сабабли асарда дарслик услуби қўлланган ва барча фиқҳий масалалар дарс нуқтаи назаридан кўриб чиқилган.

Юқорида айтилгани каби, “ал-Муҳит ар-ризавий” ўрта осиёлик фақиҳ Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Хаббозий томонидан икки жилд ҳолида қисқартирилган ва бизгача етиб келган (Beyazıt Devlet Ktp., Bayezid, nr. 2479-2480; 901 йил рамазон / 1496 йил май).

Усмонли биограф олими Қиноли-зодага (ваф. 979/1572 й.) кўра, “Мабсут” – тартиб ва тасниф нуқтаи назаридан ҳанафий мазҳабидаги энг аҳамиятли асар. Сарахсий унда Садр аш-шаҳиднинг “Мабсут”и ва Ало ад-дин ас-Самарқандийнинг “Туҳфат ал-фуқаҳо”сидаги услубларни бирлаштирган. Таҳлилларимизга кўра, юқоридаги икки асардаги фиқҳий қарашлар бир-бирига зид келган ҳолатларда “Туҳфат ал-фуқаҳо”даги қарашларга устунлик берилган.

Маълумки, ҳанафий фатво тўпламларида “ал-Муҳит ал-бурҳоний”дан кўплаб иқтибослар учрайди. Бироқ, “Муҳит ас-Сарахсий”дан иқтибослар унча кўп эмас. Бунга сабаб эса, Разиййд ад-дин ас-Сарахсий Яқин Шарқ минтақасида яшагани ва у яшаган даврда минтақада ҳанафий мазҳабидан кўра шофиийлар кўпроқ истиқомат қилганлар. Демак, бирор фиқҳий масалада фақат “Муҳит ас-Сарахсий”да фатво учраган ҳолатларда мазкур асарга эътиборсиз қараш асоссиздир.[4]

Сарахсий “ал-Васит”нинг муқаддимасида ёзишича, у “Муҳит”ни ёзиб тамомлаганидан кейин баъзи дўстлари муфтилар учун қўлланма шаклида кичикроқ ҳажмли асар ёзиб беришни сўраганлар. Натижада, мазкур асар юзага келган. Шу сабабли, “ал-Васит” баъзан “Мухтасар ал-муҳит” деб ҳам аталади ва ёзилиш услуби жиҳатидан “ал-Муҳит”га жуда ўхшайди.”

[1] Қураший, юқоридаги асар, 4-жилд, 581, 589-бетлар
[2] Ҳожи Халифа. Кашф аз-зунун. 1941-1943. Истанбул. 2-жилд, 1619-1620-бетлар
[3] Ўша асар, 2-жилд, 1282-бет.
[4] ал-Муҳит, Millet кутубхонаси (Истанбул шаҳри), Feyzullah Efendi бўлими, №. 962, вар. 1[a]

“Ал-Васит”нинг бугунгача етиб келган энг қадимги нусхаси Истанбулдаги Сулаймония кутубхонаси Фотиҳ бўлимида 2212 инвентар рақами остида сақланади. Бу қўлёзма нусха 563 йил 19 жумодо-л-уло / 1168 йил 1 мартда кўчирилган. Ушбу нусханинг 286[a] варақида Сарахсий дастхати билан ёзилган қайдга кўра, нусха кўчирувчи ушбу матнни муаллифга ўқиб берган ҳолда хатоларни тўғрилаб олган.

Сарахсийнинг бизгача етиб келган учинчи китоби “ал-Важиз” (“Лўнда”) асаридир. Муқаддимада ёзилишича, бу асар “ал-Муҳит”дан қисқартирилгани сабабли “Важиз ал-Муҳит” ёки “Фатово ал-важиз” деб ҳам аталади. “Ал-Муҳит” ва “ал-Васит” ёзиб тамомланганидан сўнг “ал-Важиз” ёзила бошланган. Фиқҳ ўрганувчиларга осонлик туғдириш мақсадида “ал-Важиз” фақатгина муҳим воқеалар ҳамда тез-тез учрайдиган масалалар (*воқиъот*) тўпланган.

“Ал-Важиз” билан боғлиқ айрим чалкашликлар ҳам Котиб Чалабийга боғлиқдир. “Кашф аз-зунун”нинг бир ерида Разийй ад-дин ас-Сарахсийнинг “ал-Важиз фи-л-усул”, бошқа ўринда “ал-Важиз фи-л-фатово” номли асарни Бурҳон ад-дин ал-Бухорийга нисбат беради.[1] “Муҳит ризавий” ёзилиш услубининг Сарахсийга хос экани Котиб Чалабийнинг мазкур фикрлари янглиш эканини исботлайди.

Ўрта аср манбаларида “аз-Захира”, “ал-Фатово ас-суғро”, “Уйун ал-масоил”, “Фавоид ал-Жоми ас-сағир ли-ш-Шайбоний” каби асарлар ҳам баъзан янглиш ҳолатда Разийй ад-дин ас-Сарахсийга нисбат берилади. Масалан, Котиб Чалабий ҳам Разийй ад-дин Муаййад ибн Муҳаммад ан-Найсобурийга оид “ат-Тариқа ар-ризавийя”ни исм бир хил бўлгани сабабли Разийй ад-дин ас-Сарахсийга оид, деб ёзган.

Бугунги кун ислом манбашунослигида Разийй ад-дин Сарахсийга мансуб асарларни ўрганиш ўзининг илк босқичида, деб айтиш мумкин. Бу йўлдаги энг катта қийинчилик, шубҳасиз, бу асарларнинг қўлёзма ҳолатида эканидир. Ушбу фиқҳий асарларни илмий муомалага тортиш ва улардан бугунги кунда дуч келинаётган ижтимоий, диний, иқтисодий масалаларга жавоб бўла оладиганларидан фойдаланиш, албатта, бугунги кун манбашунос ва арабшунослари олдидаги вазифадир.

TURKIYADAGI BUXOROLIK MASHOYIX AMIR AHMAD BUXORIY

Ismailov G‘afurjon Xasanovich
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Annotatsiya: Hukmingizga havola qilinayotgan maqolada Istanbul (Turkiya)dagi Amir Ahmad Buxoriy tekkesiga nomi berilgan Ahmad Buxoriy (1445-1516)ning hayot yo‘li, faoliyati, tasavvuf ta’limotidagi o‘rni masalasiga oid fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so’zlar: tekke, Amir Buxoriy tekkesi, Turkiston takiyalari, naqshbandiylik, tariqat, tasavvuf**.**

Usmoniylar saltanatida naqshbandiylikning Turkiston sarhadlarida shakllangan Ahroriy va Xo‘jagon yo‘nalishlarining keng tarqalishida Buxorodan Turkiyaning Kutahya shahriga kelib, keyin ustozining izni bilan Istanbulga ko‘chib o‘tgan Amir Buxoriyning hissasi alohida e’tiborga loyiqdir.

Amir Ahmad al-Buxoriy, manbalarda keltirilishicha, Buxoroda zodagonlar oilasida dunyoga kelgan. Uning tug‘ilgan sanasi haqida turli xil ma’lumotlar mavjud. Usmoniylar ro‘yxatiga ko‘ra uning tug‘ilgan sanasi 1445-yil deb ko‘rsatilgan bo‘lsa[1], Hofiz Husayn Ayvonsaroiy esa oltmish uch yoshida vafot etganini bildirgan holda uni 1455-yil tug‘ilgan deb yozadi. Ana shu manbalarining xabar berishicha, u nasl-nasab jihatidan payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hamda naqshbandiya an’anasining muhim vakillaridan biri bo‘lgan Xo‘ja Mahmud Anjir Fag‘naviyga (vaf. 1286) borib taqaladi. Qolaversa, uning nasl-nasabi va yaqin atrofi o‘rganilsa, ikki shaxs diqqatni tortadi. Ulardan biri naqshbandiylik silsilasida juda hurmatga ega bo‘lgan Amir Kulol (vaf. 1370), ikkinchisi esa Sulton Boyazid yildirim(1389—1402)ning amakisi sifatida tanilgan kuyovi Amir Sultondir. Amir Sultonning Usmoniylar poytaxtida

[1] Кашф аз-зунун, 2-жилд, 2002-бет

yashaganligi Amir Buxoriyning Anadolu va Istanbulga kelish qaroriga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Bu masala bo‘yicha diniy rivoyatlarga ko‘ra, Amir Buxoriyning Anadoluga kelishining sabablaridan biri, shayx Ubaydulloh Ahror (vaf. 1490) tomonidan unga ko‘rsatilgan haddan tashqari hurmat, iltifot va minnatdorchilik tufayli uni ustoz Ubaydulloh Anadoluga hidoyat vazifasi bilan jo‘natgan. Amir Buxoriyni Anadoluga olib kelgan shaxs - aslida Naqshbandiylikni bu yerda ilk bor targ‘ib qilishni boshlagan shaxs simavlilik Abdulloh Ilohiydir. Manbalarda bu shaxsning Kutahyadan Samarqandga kelgani, Ubaydulloh Ahrorga murid bo‘lganligi va darvishlikni qabul qilganligi qayd etilgan. Mulla Abdulloh ilohiy yoshligida Zayrakdagi madrasada ilm o‘rgangan, keyinroq Xurosonda Mavlono Tusiy bilan uchrashib o‘qishini davom ettirar ekan, so‘fiylikni qabul qilmoqchi ekanligini ta’kidlagan. Bu orada Samarqandda Ubaydulloh Ahror bilan uchrashish uning hayotida burilish nuqtasi bo‘ldi va keyinchalik Buxorodagi Bahouddin Naqshband maqbarasida to‘qqiz marta chillaxonada uzlat qiladi, boshqacha qilib aytganda, u bu yerda bir yildan ortiq uzlatga chekinib, to‘g‘ridan to‘g‘ri Uvaysiy yo‘li orqali Bahouddin Naqshbandiydan yordam olganini da’vo qiladi. Keyinroq Ubaydulloh Ahror huzuriga qaytib, shayxning roziligi bilan Anadoluga qaytadi. Bu safar qaytishida Abdulloh o‘zi bilan Amir Buxoriyni ham olib ketadi. Abdulloh Ilohiy dastlab Anadoluda, Sulton Mehmet II (1451-1481) vafotidan so‘ng poytaxt Istanbulda tariqatni yoyish uchun harakatga kirishdi[2]. Keyinchalik Evrenos Beyzoda Ahmad Beyning taklifi bilan Saloniki yaqinidagi manzilgohga ko‘chib o‘tadi va o‘zning Istanbuldagi vazifasini Amir Buxoriyga topshiradi[3]. Naqshbandiylikning yoyilishida Abdulla Ilohiy harakati shunchalik samarali bo‘lganki, hatto tariqatda Anadolu Buxorodan keyin ikkinchi markaz sifatida qabul qilina boshlagan.

1481-yilda qoziaskar Manisali Chalabiyning taklifi bilan Mulla Abdulloh Ilohiy Istanbulga kelib, Zayrak tumaniga joylashadi. Amir Buxoriy bilan Istanbulga qadam qo‘ygan naqshbandiylik, Abdulloh Ilohiyning kelishi bilan poytaxtda tom ma’noda ma’naviy g‘alayon keltirib chiqardi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Abdulloh Ilohiyning Istanbuldan Bolqonga o‘tishi va 1491-yilda vafotidan so‘ng, tariqatni yoyishida barcha mas’uliyat Amir Buxoriyning yelkasida qoldi[4].

Amir Buxoriy atrofida to‘plangan ommaning ilm bilan shug‘ullanuvchilar, odatda “mevali” deb ataladigan ziyolilar guruhi ekanligi ta’kidlandi. Aslini olganda, Anadolu qoziaskar Ahmad Poshoning o‘g‘li Xizr Bey Chalabiy mudarrislik ishini tashlab, oddiy darvishga aylandi. Amir Buxoriyning xalifalar orasidan “Nafohat ul-uns” nomli asarning tarjimoni bo‘lgan va tariqatni Bursaga olib kelgan Lomiy Chalabiy (vaf. 1566) va tibbiyot sohasida obro‘li hisoblangan Hakim Chalabiy (vaf. 1566) o‘zidan keyingi tekke shayxi bo‘lib xizmat qilgan va shu bilan birga uning kuyovi Mahmud Chalabiy (vaf. 1531) kabi taniqli shaxslar uchrashib turishgan. Darhaqiqat, Amir Buxoriydan saboq olganlar Usmoniylarning davlat arboblari tomonidan hurmatga sazovor bo‘lib, ayniqsa shahzodalarga otaliq bo‘lish kabi yuksak mavqelarga erishadilar. Sulaymon davridagi vazirlaridan Damad Rustam Posho (vaf. 1561) hukmronligi davrida Hakim Chalabiydan “Masnaviy”ni o‘qiganligi haqida rivoyatlar bor. Shu munosabat bilan Rustam Posho Hakim Chalabiy uchun masjid va chillaxona qurdirdi. Xalfalaridan biri Rizoiy va “Baba (ota) Afandi” nomi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Mahmud Afandi (vaf. 1579) Rustam Poshoga ham xuddi shunday ta’sir ko‘rsatganligi manbalarda aytib o‘tilgan. Hatto Rustam Poshoning o‘ziga "Ota" deb murojaat qilgani va ulug‘ shoir Boqiy (vaf. 1600) ham xuddi shu shayxga aloqadorligi aytilgan. Hakim Chalabiyning yana bir xalfasi Shayx Shabon Afandining (vaf. 1593) o‘g‘li Mustafo Muslihuddin Afandi (vaf. 1561) Sulaymon podshohning o‘g‘li shahzoda Mustafoning ustozi bo‘lgan. Shayx Shabon Afandi esa Murod III ning hurmati va iltifotiga sazovor bo‘lib, Shoir Na’viy vafot etganida Sulton Murod III ga ta’ziya ziyorat qilgani haqidagi rivoyatlar ham Shayx Afandi bilan sulton o‘rtasidagi yaqin munosabatdan dalolat beradi.

Shariatga qoidalarni buzilmagan holda ilgari surilgan bu qarashlar ayrim guruhlar va ulamolarning tariqatga qiziqishini oshirdi va natijada Istanbuldagi savdogar va ulamolar orasida naqshbandiylik tez tarqala boshladi. Bu yo‘lda Mavlono Jaloliddin Rumiyning ijodi ham yuksak ahamiyatli bo‘lganligi ko‘rish mumkin. Masalan, Amir Buxoriy Hajga borganida o‘zi bilan faqat “Mus’haf” va “Masnaviy”ni olgani, Mavlononing ba’zi she’rlariga sharhlar yozgani ham ma’lum. Anadoluning hikmati va madaniy ildizlaridan oziqlangan, tasavvufning turli talqinlari va fikrlari o‘rtasida o‘tish va moslashuvchan yo‘lni bosib o‘tgan Ilohiy va Buxoriy tutgan yo‘l vaqt o‘tishi bilan jozibali maktabga aylandi. Ko‘pchilikning qiziqishi tez ortib borishi va uning siyosat bilan

yaqin aloqalarni o‘rnatishga ijobiy munosabati, davlat amaldorlari tomonidan bu harakat yanada qo‘llab-quvvatlash va ma’qullashda qulaylik yaratgan muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, Boyazid II davrida ko‘zga ko‘ringan naqshbandiy tariqati a’zolari, xususan, Amir Buxoriy jiddiy qo‘llab-quvvatlangani ko‘rinadi.

Naqshbandiya tariqatining tez yuksalib, davlat tomonidan himoya qilinishini shia-safaviy tahdidi bilan izohlovchi qarashlar ham mavjud[5]. Shunga ko‘ra, davlat strategik harakat sifatida XVI asrda Anadoluda ommaviy qo‘zg‘olonlari bilan jiddiy xavf tug‘dirgan Qalandariy, Haydariy, Abdal va Torlak nomli aralash so‘fiy guruhlar qarshisida shariat tushunchasini buyicha bir qadam tashladi. Chunki naqshbandiya tariqatining ayrim ko‘zga ko‘ringan vakillari shialikni ta’limot nuqtai nazaridan inkor etadilar. Bu mojaro tufayli Safaviylar davlati tomonidan qattiq ta’qib va zulmga uchragan naqshbandiylarning Usmoniylar saltanatidan panoh topishi va siyosiy hokimiyat bilan o‘ziga xos ittifoqchilik munosabatlari o‘rnatishi harakat qilishi tabiiy hol edi. Bu jarayonda shuningdek, naqshbandiylikning vaqt o‘tishi bilan Anadolu va Usmoniylar poytaxtida tez yoyilishi va nima uchun davlatning harbiy siyosat muhim jarayonlarda naqshbandiylikni afzal ko‘rganini tushuntiradi. Boshqa tomondan, mavjud adabiyotlarda bu kabi ta’riflar anaxronistik xususiyatga ega ekanligini, ya’ni Usmoniy-Safaviylar raqobatida naqshbandiyaning hal qiluvchi rolini ko‘rsatuvchi dalillar va undan davlat tomonidan foydalanilishini ko‘rsatuvchi faktlar yetarli emasligi haqida fikrlar mavjudligini ham e’tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, aslida xristianlikning provaslav oqimi hukmron bo’lgan Bolqon yarimorolida islom an’analarini muhim o’rnatish, shia-safaviylarininf ma’naviy tahdidiga qarshi mafkuraviy bilim yoyish, noto’g’ri oqimlar tarqalishining oldini olish maqsadida Usmoniylar o’z saltanatlarida sunniylikning naqshbandiylik oqimi ildiz otishi uchun zaruriy shart-sharoit yaratishga uringanlar. Bu borada tariqat yurti Buxoro, umuman, Turkiston bilan iliq diplomatik aloqalarni yo’lga qo’yib, o’lkadan Turkiyaga buyuk shaxslarning kelishlari qo’llab quvvatlangan, Amir Buxoriy ham ana shunday mashoyixlardan biri edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mustafa Kara, Dervişin Hayatı Sufinin Kelâmı Hal Tercümeleri Tarikatlar Istılahlar, İstanbul 2012, s.441;
2. Hayitov Sh.A. Istanbuldagi Buxoro (Turkiston) tekkelari tarixi xususida. «Buxoro tarixi masalalari (eng qadimgi zamonlardan hozirgacha)» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -Buxoro, 2019. - B. 151-157 .
3. Abdurahmon Jomiy, Nafoat-ul uns min hazorat-ul quds, Komil Jandog‘an, Istambul 1971, 466-471 b.
4. Çağatay Koçar. Atayurttan Anayurda Türkistanlılar. — Ankara, 198 b.
5. Rajabov Q., Bekmuratov X. O‘zbekiston bilan Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy hamkorlik tarixidan. – T.: Tafakkur, 2017. – B. 168.

BUXORO TARIXIDA IMOM AL-BUXORIYNING O‘RNI

Abduraximova Maftuna Maxammadjon qizi
Namangan davlat unversiteti, Tarix yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar:
Madraximov Zoxid Sharofovich,
Namangan davlat unversiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk muhaddis, islom olamining ulug‘ allomalaridan biri — Imom al-Buxoriyning Buxoro tarixidagi o‘rni va uning boy ma’naviy merosi yoritilgan. Unda IX asrda Buxoroning ilmiy-ma’naviy muhiti, hadis ilmining shakllanishida Imom Buxoriyning beqiyos hissasi hamda “Sahih al-Buxoriy” asarining ilmiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, olimning shaxsiy fazilatlari, taqvosi va axloqiy qarashlari orqali Buxoro jamiyatining diniy-ma’naviy hayotiga ko‘rsatgan ta’siri ochib beriladi. Maqolada Imom Buxoriy merosining zamonaviy davrda o‘rganilishi, uning xalq ma’naviyatidagi o‘rni va yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati haqida ham so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Imom Buxoriy, Buxoro, hadis ilmi, “Sahih al-Buxoriy”, ma’naviy meros, islom madaniyati.

Buxoro — Sharq sivilizatsiyasining eng qadimiy, go‘zal va ma’naviy jihatdan boy shaharlaridan biridir. Asrlar davomida u nafaqat Movarounnahr mintaqasining siyosiy markazi, balki islom olamining yirik ilm va madaniyat o‘chog‘iga aylangan. “Qubbat ul-islom” (“Islom gumbazi”) deb sharaf bilan tilga olinadigan bu diyor o‘z bag‘ridan yuzlab allomalar, mutafakkirlar, fozillarni yetishtirgan. Uning qadimiy madrasalari, kutubxonalari, ilmiy majlislari, ziyoratgohlari va diniy muassasalari asrlar osha musulmon dunyosining ma’naviy nur sochuvchi markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Buxoro o‘zining ilmga, donishmandlikka va ma’rifatga bo‘lgan chuqur e’tiqodi bilan mashhur bo‘lib, u yerdan chiqqan allomalar butun Sharqda e’tirof etilgan. Bu muhitda ilmga intilish, hadis, fiqh, tafsir, mantiq, falsafa kabi fanlarni chuqur o‘rganish qadriyat darajasiga ko‘tarilgan. Ana shunday ilmiy-ma’naviy muhit Buxoro tuprog‘ida buyuk muhaddis — Imom Buxoriyning shakllanishi va kamol topishi uchun zamin yaratdi. Imom Buxoriy — Buxoroning faxri, musulmon dunyosining faxridir. U o‘zining teran tafakkuri, beqiyos xotirasi, hadis ilmidagi g‘oyat sinchkovligi bilan islom ilmlarining eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan. Uning nomi Buxoro bilan chambarchas bog‘liq: bu shahar unga nafaqat ilmga ilk qadam qo‘yish imkonini bergan, balki butun umrining ma’naviy manbai, ilhom chashmasi bo‘lgan. Shuning uchun ham Imom Buxoriy siymosi Buxoro tarixining ajralmas qismi, uning ma’naviy qiyofasini belgilovchi eng yorqin ramzlardan biridir. Buxoro tarixini Imom Buxoriy hayoti va merosisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki bu zot o‘z ilmiy faoliyati, taqvosi va halolligi bilan nafaqat o‘z zamonasida, balki keyingi asrlarda ham Buxoro nomini dunyo miqyosida ulug‘lagan, uning ilmiy maktabining timsoliga aylangan.

Jamiy muhaddislarning imomi, hadis ilmining sultoni, sayyidul fuqaho kabi laqablarga muyassar bo‘lgan ulug‘ zot imom al-Buxoriy azaldan ilm fan va madaniyat ravnaqida mashhur bo‘lgan Buxoroi sharifda 194 hijriy sana shavvol oyining 13 kunida salotul jum’adan keyin (810 milodiy sana 21-iyul) dunyoga kelgan. U yoshligidayoq islomiy ilmlarga, ayniqsa, Payg‘ambar alayhissalomning muborak hadislarini o‘rganishga va yodlashga moyillik tobora kuchaya borib, u dastavval Ibn al-Muborak va Vakiy’ning hadislarga oid asarlarini yod oladi. Imom al-Buxoriyning kotibi, uning asosiy tasnifi “Sahih” asari roviylaridan biri Abu Ja’far Muhammad ibn Abu Hotam al-Varroq shunday deb yozadi: Al-Buxoriyning: “Hadislarni yod olish ilhomi menga boshlang‘ich maktabda o‘qiyotganimda kelgan edi”-deb aytganini eshitganimda: “O‘shanda necha yoshda edingiz?”-deb so‘radim: u “O‘n yoshda balkim undan ham kichik edim”, - deb javob bergandi [1. 66 – bet]. Uning yodlash qobiliyati nihoyatda kuchli bo‘lib, yoshligidayoq hadislarni nafaqat yod olar, balki ularning isnod zanjirlarini ham to‘g‘ri tartibda eslab qolardi. Ustozlaridan hadislarni tinglar ekan, biror roviyda xato yoki chalkashlik bo‘lsa, darhol to‘g‘rilab qo‘yar edi. Shuning uchun ham u hali yoshlik chog‘laridayoq o‘z tengdoshlaridan ajralib turar, ustozlari ham uning zakovati va xotirasiga qoyil qolardilar. Imom Buxoriy hadislarni yodlashda va ularni tasnif qilishda nihoyatda ehtiyotkorlik va halollik bilan ish tutgan. U biror hadisni “sahih” deb e’tirof etishdan avval, uning har bir roviy zanjirini, ularning hayoti, xulqi, ishonchliligini sinchiklab tekshirgan. Shu boisdan ham uning “Al-Jome’ as-sahih” asari islom dunyosida eng ishonchli hadis to‘plami sifatida e’tirof etiladi. Imom Buxoriy o‘z umrini ilmga, hadislarni to‘plash va saqlashga, ularning haqqoniyligini himoya qilishga bag‘ishlagan. U ilmni nafaqat bilim sifatida, balki insonni Allohga yaqinlashtiruvchi eng muqaddas yo‘l deb bilgan. Shu sababdan ham uning nomi asrlar davomida hadis ilmining sultoni, muhaddislarning imomi sifatida hurmat bilan tilga olinadi.

Imom Buxom Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan rihlati 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi. Bundan tashqari Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardai saboq oladi va hadislar to'playdi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ'ib etishga kirishadi. U zotning bu sa’yi harakatlari bu vaqtda Buxoroda hukmdorlik qilgan Holid ibn Ahmad az-Zuhliyga xush kelmaydi. Shu sababli Imom Buxoriy Buxoroni tark etib, Poykendga, keyin Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'iga kelib yashashga majbur bo'ladi va shu yerda vafot etadi [2. 36 – bet]. Imom Buxoriy umrining so‘nggi yillarini Xartang qishlog‘ida ilm va ibodat bilan o‘tkazdi. U bu davrda ham hadis ilmini o‘rgatishdan, shogirdlar tarbiyalashdan, hadislarning to‘g‘riligini himoya qilishdan to‘xtamadi. Ustozining huzuriga kelgan shogirdlar hadis ilmining

nozik jihatlarini, isnod zanjirlaridagi tafovutlarni, roviylarning ishonchliligini o‘rganar edilar. Imom Buxoriy ularni nafaqat ilmiy, balki ma’naviy jihatdan ham tarbiyalab, ularga halollik, sabr, tavozelik va Allohdan qo‘rquv tuyg‘ularini singdirgan.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-ta’rix as-sag‘iy”, “At-ta’rix al-avsot”, “At-ta’rix al-kabir”, “Kitob al-ilal”, “Barr ul volidayn”, “Asomi us-sahoba”, “Kitob al-kuna” va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, “Al-jome as-sahih”dir. Bu asar “Sahiyh al-Buxoriy” nomi bilan ham mashhur. Uning ahamiyatli tomoni shundaki, muhaddislar Imom al-Buxoriygacha o‘tgan muhaddislar o‘z to‘plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o‘tirmay qatorasiga kiritaverishgan Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarni tabaqalarga bo‘lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi [3. 470 – bet]. Imom al-Buxoriy bu asarini tuzish jarayonida nihoyatda ehtiyotkorlik va chuqur ilmiy yondashuvni qo‘llagan. U har bir hadisni “sahih” deb e’tirof etishdan avval, uning isnod zanjirini, roviylarning hayoti, axloqi, xotirasi va ishonchliligini sinchiklab tekshirgan. Har bir hadisning rivoyat zanjiri uzilmagan bo‘lishi, har bir roviy o‘zidan oldingi roviy bilan bevosita uchrashgan yoki u bilan zamondosh bo‘lganini tasdiqlovchi dalillar mavjud bo‘lishi shart edi. Shuning uchun ham “Al-jome’ as-sahih” nafaqat hadis ilmidagi eng ishonchli manba, balki islom tafakkurining mustahkam ilmiy mezoniga aylandi.

Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui Samarqanddagi me’moriy yodgorlik, ziyoratgoh. Imom al-Buxoriy dafn etilgan Chelak tumani Xartang qishlog‘idagi qabriston musulmon ahlining eng tabarruk va aziz ziyoratgohlaridan bo‘lib kelgan. XVI asrda Imom al-Buxoriy kabri ustiga mo‘jazgina maqbara, yoniga masjid qurilib, hovlisiga bir necha tup chinor ekilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Imom al-Buxoriy kabi butun umrini iymon va e’tiqod, ilm-ma’rifat, diyonat yo‘lida baxshida etgan ulug‘ zotlar xotiralarini e’zozlash, ular nomlari bilan bog‘liq joylarni obodonlashtirishga alohida e’tibor berila boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 29 apreldagi “Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori asosida allomaning maqbarasi o‘rnida maxsus yodgorlik majmui barpo etildi[4. 750 – bet]. Bugungi kunda Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui nafaqat tarixiy va diniy ahamiyatga ega maskan sifatida, balki madaniy-turistik diyor sifatida ham e’tirof etilgan. Majmuida ziyoratchilar va sayyohlar uchun barcha qulayliklar yaratilib, hudud tartibga solingan, yo‘laklar va xiyobonlar obodonlashtirilgan.

Buxoro shahrining tarixiy va ilmiy merosi bilan Imom Buxoriy nomi uzviy bog‘liqdir. Imom Buxoriy o‘z ilmiy faoliyati orqali Buxoroni hadis ilmining poytaxti, Muhammad alayhissalom sunnatini o‘rganish va targ‘ib etish markaziga aylantirdi. Shahar tarixida Imom Buxoriy — nafaqat alloma, balki Buxoro xalqining ruhiy va ma’naviy yetakchisi sifatida hurmat qilinadi. Uning ilmiy maktabi, shogirdlari va asarlari orqali Buxoro ilm-fan markazi sifatidagi mavqei mustahkamlandi. “Sahih al-Buxoriy” asari orqali esa Buxoro butun musulmon dunyosida e’tirof etilgan ilmiy markazga aylandi. Bugungi kunda Buxoroda Imom Buxoriy nomi bilan bog‘liq maskanlar — yodgorlik majmualari, maktablar va ilmiy markazlar — shaharni nafaqat tarixiy, balki ma’naviy markaz sifatida saqlashga xizmat qilmoqda. Ularning faoliyati orqali yosh avlod ilmga, iymonga va ma’naviyatga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Foydalanigan adabiyotlar

1. Nazarov O.R. Musulmon renessansi davrida O‘rta Osiyoda fan va madaniyat rivoji tarixi – Toshkent: “LESSON PRESS”, 2023. 219 bet.
2. M.Aminov, F.Hasanov.—T.: « O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2010 . —208 b.
3. Sagdullayev A. S. O’zbekiston tarixi. I kitob. – Toshkent: “NIF MSH” 2024. – 604 bet.
4. ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ ЭНЦИКЛОПЕДИЯСИ Б ҲАРФИ «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти ТОШКЕНТ

6- SHO‘BA. JAHON MADANIY MEROSI TARKIBIDA “BUXORODAGI MUQADDAS QADAMJOLAR, ZIYORATGOHLAR, AZIZ AVLIYOLAR ZIYORAT TURIZMI OBYEKTI” SIFATIDA O‘RGANILISHI

MUQADDAS QADAMJOLAR MUZEYLARI IBRAT NA’MUNASI

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
Boltayev.B.B

Annotasiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida yurtimizda, xususan Buxoro viloyatida muqaddas qadamjolarda tashkil etilgan ilk muzeylar va ular taraqqiyot yo’li haqidagi ma’lumotlar ilmiy tahlil qilingan bo‘lib, hozirgi kundagi muzeylar faoliyatidagi zamonaviy tendentsiyalarning kirib kelishi va ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so’zlar: tendentsiya, ko’rgazma, fond, eksponat, muzeografiya, innovatsion, global, kolleksiya, ziyorat.

“O’z o’tmishini ulug’laydigan bugunini ezozlaydigan millatning ertangi kuni hamisha porloq bo’ladi” [1]. Muzeylarda ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yartilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, nodir qo’lyozmalar, tarix, sanat, adabiyot sohalariga doir qimmatbaho asarlarni noyob ashyolarni hali ham o’z ko’rkini saqlab kelayotgan osoru atiqalarni avlodlarni bahramand etish maqsadida als holicha saqlanadi. Eng qadimgi davrdan bugungi kunimizgacha ajdodlarimiz hayoti, ona tuprog’imiz vatanimiz hududidagi voqea hodisalar uning tabiati hayvonot va nabotot olami eksponatlarda va ekspozitsiyalarda o’z aksini topadi. Muzeylar-ajdodlarimizning avlodlarga qoldirgan munosib merosini targ’ib qiluvchi bizni ming-ming yillik tariximiz bilan bog’lovchi bugungi rivojlanish va taraqiyot davrlarini o’zida aks ettiruvchi o’zligimizni namoyon etuvchi boy manaviy xazina hamdir [2].

Muzey-moddiy va ma’naviy madaniyat yodgorliklarning asl nusxalarini, arxeologiya, etnografiya, toponimikaga oid materiallarni to`playdi, saqlaydi va ilmiy asosda o`rganib, tahlil qiladi, natijalarini esa ekspozitsiya sifatida ommalashtiradi. Yig’ilgan va muzeyda saqlanayotgan barcha materiallar muzeyning ilmiy bazasini tashkil etadi va uning faoliyatida asos bo`lib xizmat qiladi. Mana shu manbalar asosida muzeylar ilmiy tadqiqot, madaniy -ma`rifiy hamda ta`lim-tarbiya ishlarini olib boradi. Muzeylarni tarix ko`zgusiga qiyoslashadi. Ular nafaqat o`tmishni muayyan darajada aks ettiruvchi oyna, balki o`zidagi mavjud ma`lumot, materiallar asosida mamlakatimizda kechayotgan bugungi o`zgarish jarayonlari haqidagi tasavvurlarimizni yaqqolroq namoyon bo`lishiga xizmat qiladigan tabarruk dargohlardir. Shunday ekan, insonlarni poklanishga, halolikga targ’ib qiluvchi maskanlarimizda ham biz zamonaviy muzeylarni ochishimiz va ularni boyitib brogan holda kelajak avlodni o’z ota bobosi tarixidan xabardor qilmog’imiz lozim. Ayni ana shu yo’nalishda Buxoro viloyatida ham ancha ijobiy ishlar amalga oshirilgan desak, aslo adashmaymiz [3].

O‘zbekistonda ziyoratgohlarni tiklash, muqaddas qadamjolarni obodonlashtirish ishlariga katta ahamiyat berib kelinmoqda. Natijada ziyorat turizmi taraqqiy etdi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonga ziyorat maqsadida tashrif buyurgan sayyohlarga yurtimiz boy tarixini, ziyoratgoh haqida batafsil tanishtirishni taqozo etaadi.

Shunday muzeylardan biri O‘zbekiston Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Buxoro viloyat shahar hokimligi, O‘zbekiston muzeylari diniy idorasi viloyat vakilligi tashabbusi va bevosita yordami bilan Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi ma’muriyati va bir guruh ilmiy xodimlari tomonidan Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi, Bahouddin Naqshbandning 685 yilligi munosabati bilan Bahouddin Naqshband me’moriy majmuasida joylashgan “Bahouddin Naqshband tarixiy muzeyi” qayta tashkil etildi. Bu moziygoh tasavvuf tarixiga bag‘ishlangan Respublikamizdagi yagona muzeydir [4].

Islom ilmining yirik vakili Bahouddin Naqshbandiy (1318-1389) tavallud topgan Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida Naqshbandiya ta’limotining asoschisi xotirasiga

bag‘ishlangan yirik tarixiy-yodgorlik majmuasi mavjud bo’lib, bu ziyorat maskani mahalliy va xorijlik mehmonlar bilan har kungidan ham gavjumdir. Ushbu yirik ansamblda qadimgi shonli tarixni aks ettiruvchi hamda Buxoro madaniyati, ilm-fani va porloq kelajagini o‘zida aks ettiruvchi maskan muzey mavjud [5]. Muzey 13-sentabr 1993-yil Buxoro muzey-qo‘riqxonasining Numizmatika va epigrafiya bo‘limi tarkibida Bahouddin Naqshbandiyning 675 yilligi sharafiga ochilgan. O‘zbekistonda Naqshbandiya ta’limoti tarixi va uning asoschilari haqida hikoya qiluvchi yagona muzey hisoblanadi. 1995-yilda Shayx Bahouddin Naqshbandiyning ilmiy-ma’naviy merosini o‘rganish maqsadida “Tariqati Naqshbandiy” maxsus ilmiy markazining bu yerda tashkil etilishi, ziyoratgohning tassavuf olamidagi ahamiyati naqadar muhim ekanligini yana bir karra isbotlaydi [6].

Mazkur muzeydan o’zga O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha tasavvuf ta’limotiga bag‘ishlangan muzey deyarli mavjud emas deb hisoblaymiz. 1995-yilda Bahouddin Naqshband hayoti va ilmiy merosini o‘rganish maqsadida mazkur muzey tarkibida “Naqshbandiya tariqati” Ilmiy Markazi tashkil topdi. Hozirgi kecha-kunduzda ham ushbu markaz ilm ahli va tolibi ilmlar bilan har qachongidan-da gavjum. Ushbu muzey unga tashrif buyuruvchilar soni jihatidan Buxoro viloyati muzeylari orasida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Undagi sayyohlar diqqatini tortuvchi buyumlar sirasiga XVIII asrga oid katta Qur’on kitobi, Ulug‘bek madrasasi eshigidagi kitoba, Sayfiddin Boxarziy qabri yog‘och panjaralari va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin [7]. Mustaqillikning keying yillarida yutrimizdagi mavjud barcha ziyoratgohlarda xuddi Bahouddin Naqshband ziyoratgohidagi kabi tariqat va tassavvuf yo’nalishdagi yangi zamonaviy muzeylarni ochish chora tadbirlari amalga oshirilib kelinmoqda [8].

2009-yilda hazrat Bahouddin Naqshband dahmalari ustiga qo‘yilgan qabr toshi yangilandi. Dahmaning eski qabr toshi “Bahouddin Naqshband” tarixiy muzeyiga topshirildi. Mazkur toshdagi matn 1964- yil (hijriy 1381 yil)da Nurotalik xattot Abdujalol Samarqandiy tomonidan marmarga tushirilgan edi. Matnda buyuk bobokalonimiz Bahouddin Naqshbandning umr yo‘li, u muborak zotning qilgan ibratli ishlari bayon etilgan. Lavhda “Bu hazrat buyuk shayx, sunnatni tiriltiruvchi, bid’atni o‘chiruvchi, haqiqatni kashf etuvchi, daqiq ma’nolarni izhor qiluvchi, Haqning xalqdan hujjati Sayid Muhammad ibn Sayyid Muhammad Bahouddin Naqshband Buxoriy (Alloh sirlarini muqaddas qilsin)ning munavvar qabrtoshidir”, – kabi so‘zlarni o‘qish mumkin. Yangilangan qabrtoshga ham xuddi ana shu yozuvlar arab alifbosida buxorolik xattot Abdulg‘afur Razzoqov tomonidan qayta ko‘chirilgan. Darhaqiqat ayni ana shunday muzeylardan biri Buxoro viloyati Shofirkon tumani tarixi va madaniyati muzeyi ham Buxoroning yetti pirlaridan biri Xoja Orif Revgariy ziyoratgohi hududida tashkil etilgan mo’jaz muzeylardan biri sanaladi[9].

XVI asrda Karmana bekligi ma’naviy hayotida o‘chmas iz qoldirgan Qosim Shayx Azizonning hayoti va faoliyati ezgu va xayrli ishlariga qaratilgan edi. Buxoro hukmdori Abdullaxon II hazrat Qosim Shayxga bo‘lgan ixlosi yuzasidan 1558-yilda Karmanada xonaqoh barpo ettirgan edi. Ushbu bunyodkorlik ishlarida Qosim Shayxning o‘zi ham qatnashgan va homiylik ko‘rsatgan. Xonaqoh taxminan o‘n yil davomida qurilgan. Uning uch (shimol, janub va g‘arb) tomoni kungurador qilib qurilgan va bezatilgan. Majmuada ul zotning xotirasini eslatib turuvchi dahmasi va qadimiy shifobaxsh suvli quduq hamda chillaxona saqlanib qolgan. Bu zot Naqshbandiya tariqatidagi Xojagon Sulukining buyuk namoyandasi bo‘lganligi tarixiy manba’lardan yaxshi ma’lum. Hududda 2006-2007-yilda keng ko‘lamli ta’mirlash, obodonlashtirish va bunyodkorlik ishlari olib borildi va Navoiy viloyati hokimligining qarori bilan Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy muzeyi tashkil etildi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarida muzeyshunoslik yangi pog‘onaga ko‘tarildi, tub islohotlar olib borildi. Yangicha nuqtayi nazar va mafkurada zamonaviy muzeylar tashkil etishga alohida e’tibor qaratildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Karimov I. A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” T. 7. – Toshkent. O’zbekiston. 1999. b. 135.
2.Sodiqova N. Madaniy yodgorliklar xazinasi. - T.: Fan, 1995.b 34

3.Тўраев Х. Тасаввуф тарихи музейи // Мозийдан садо. – Тошкент, 2005. – № 4. – Б. 8-10.
4.Альмеев Р.В. Бухара – город-музей. – Т.: Фан, 1999. – С.28.
5.Шарипов Ю. Зиёратгоҳдаги маърифат маскани // Из истории культурного наследии Бухары (10 выпуск). – Бухара: Бухоро, 2006. – С.117.
6.Меъмориальный комплекс Бахауддина Накшбанди (авторы составителы Бахронов Н., Халилов Ж). – Бухоро, 2020. – С.15.
7.Жўраев Ш. Ғ., Иноятова Ф. С. Бухоро музейлари маҳаллий ва хорижий туризмни ривожлантириш объекти // «Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий қадриятлар» мавзусида Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. – Тошкент, 2021. – Б. 35.
8.Orifgonova Gulirano Ravshan qizi. O’zbekiston muzeylari innovatsion rivojlanish kesimida (XX asr oxiri- XXI asr boshlari) tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- Toshkent, 2025. 31-b
9.Курязова Д.Т. Ўзбекистон моддий маданий меросини ўрганиш, сақлаш ва музейлаштиришнинг назарий-методологик асослари. Тарих фан. док.дисс. –Тошкент, 2021. – 290 б.

7-SHO‘BA. BUXORO SAN’ATI (MUSIQA, ME’MORCHILIK, HUNARMANDCHILIK, MINNATYURA, ZARDUZLIK, V.H.) VA MADANIYATI TARIXI;

ADABIY HARAKATCHILIK: BUXORO ADABIY AN’ANASINING ILDIZLARI

Amonkeldi Axmadov
tarix va filologiya fanlari doktori, dotsent

Bugungi kunga kelib hududiy miqyosda adabiy jarayonlarni o‘rganish adabiyotshunoslikda shakllanayotgan yangi ilmiy tamoyillardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bu jarayonning odat tusiga kirayotgani quvonarli hol, chunki har bir hududning ijtimoiy-madaniy hayoti, tarixiy sharoiti va ijodiy muhitining o‘ziga xosligi milliy adabiyot taraqqiyotini to‘laqonli tasavvur etishga imkon beradi. Albatta, adabiy jarayonlarni hududiy jihatdan qat’iy ajratish ba’zan ma’lum g‘alizlik tug‘dirishi mumkin, ammo jahon adabiyotshunosligida bunday yondashuv qadimdan shakllangan va samarali natijalar bergan. Masalan, AQSH, Ispaniya, Britaniya, Rossiya adabiyotshunosligida mintaqaviy adabiy maktablar va muhitlar ancha keng tarqalgan.

O‘zbek adabiyotshunosligi va tarixshunosligida ham Qo‘qon, Xiva, Buxoro kabi adabiy muhitlarni alohida ilmiy obyekt sifatida o‘rganish yo‘lga qo‘yilgani milliy ilm-fan taraqqiyotidagi muhim bosqichdir. Bu muhitlarda shakllangan adabiy an’ana, ijodkorlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, adabiy-estetik g‘oyalari, adabiy jamoatchilik hayotining shakllanishi – bularning barchasi umumiy milliy adabiyot tarixining ajralmas bo‘lagidir. Shuning uchun ham tadqiqotchilarning viloyatlar miqyosida ijodkorlar faoliyati, adabiy jarayonning kechishi, adabiy kuchlar markazlashuvi haqidagi ma’lumotlarni jamlashga kirishgani O‘zbekiston adabiyoti tarixi uchun oldinga tashlangan katta qadam sifatida baholanishi tabiiydir.

So‘nggi yillarda olib borilayotgan izchil ilmiy izlanishlar natijasida turli viloyatlardagi ijodkorlar, adabiy an’analar, mahalliy badiiy maktablar, she’riyat va nasrning hududiy xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar yaxlit holda sistemalashtirilmoqda. Bu jarayon o‘z navbatida, adabiy muhitlarning shakllanish dinamikasini, ularning o‘zaro ta’sirini, umumxalq adabiyotiga qo‘shgan ulushini ilmiy asosda baholash imkonini yaratadi.

Adabiyot tarixini o‘rganish ikki yo‘l bilan muhim ahamiyat kasb etadi: birinchidan, bu ajdodlar tomonidan yaratilgan boy adabiy merosni anglash va uni ilmiy muomalaga kiritish imkonini beradi; ikkinchidan, o‘z navbatida, zamonaviy adabiyotning kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, adabiy jarayonning uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ma’lum bir hudud adabiy muhitini chuqur o‘rganish nafaqat shu muhitga mansub ijodkorlar faoliyatini aniqlash, balki ularning milliy adabiyot taraqqiyotidagi o‘rnini baholash, boshqa hududlardagi adabiy jarayon bilan qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bois, adabiy muhit masalasi adabiyotshunoslikda yangi ilmiy yondashuvlarni talab qiladigan murakkab va fundamental sohalardan biri sifatida qaralmoqda. Hududiy adabiy jarayonlarni o‘rganish orqali biz nafaqat alohida ijodkorlar ijodini, balki butun bir mintaqaning ijtimoiy-ma’naviy hayoti, estetik qarashlari, ijodiy maktablari va adabiy an’analarini mukammal anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Har bir hudud o‘zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlariga ega bo‘lib, shu omillar adabiy jarayonlarning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mazkur sharoitlar – iqtisodiy muhit, madaniy an’analar, diniy qarashlar, mahalliy til va lahja xususiyatlari, ijtimoiy qatlamlarning hayoti – bularning barchasi adabiy asarlarda bevosita yoki bilvosita aks etadi. Shuning uchun hududiy yondashuv adabiyotning mintaqaviy rang-barangligini, o‘ziga xos poetikasini va estetik ko‘lamini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, shahar adabiyotida modern tafakkur, yangicha kompozitsiya va murakkab psixologik obrazlar ustuvor bo‘lsa, qishloq adabiyotida xalqona tasvir, hayotiy realizm, an’anaviy timsollar saqlanib qolgan bo‘ladi. Shu kabi farqlar hududning iqtisodiy va madaniy rivojlanish darajasidan tortib, mahalliy urf-odatlargacha bo‘lgan ko‘plab omillarga bog‘liq.

O‘zbekiston hududida ham har bir mintaqa o‘ziga xos adabiy markazga ega bo‘lgan. Toshkent, Samarqand, Buxoro kabi shaharlar tarixan yirik madaniy-intellektual markazlar sifatida shakllangan bo‘lib, bu hududlarda adabiy jamoalar, matbuot nashrlari, ijodiy to‘garaklar, teatrlar va ilmiy muassasalarning faoliyati adabiy jarayonni jonlantirib kelgan. Hududiy yondashuv orqali ushbu markazlarning adabiyot tarixidagi o‘rni, ularning shakllanish omillari, adabiy-estetik maktab sifatida tutgan mavqeyi va bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlari chuqur o‘rganilishi mumkin. Masalan, Toshkent adabiy muhiti modernizm, adabiy tajriba, yangicha tafakkur bilan ajralib tursa, Buxoro muhiti tarixiylik, diniy-ma’rifiy an’analar va mumtoz poetika bilan uyg‘unlashgan. Samarqand esa Sharq va G‘arb madaniyatlarining tutashgan nuqtasida shakllanganligi bilan o‘ziga xos.

Hududiy tasniflash, shuningdek, mintaqalar o‘rtasida adabiy almashinuv va o‘zaro ta’sir masalasini ilmiy asosda yoritish imkonini yaratadi. Adabiy maktablar o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganish orqali yozuvchilarning bir-biriga qanchalik ta’sir ko‘rsatganini, an’analar qanday o‘zlashtirilganini, qaysi mintaqa ijodkorlari umumadabiy jarayonga yangilik olib kirganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Bu jarayon faqat badiiy ta’sir bilan cheklanmaydi; balki g‘oyaviy-estetik qarashlarning almashinuvi, poetik tajribaning migratsiyasi, badiiy uslub va metaforalar evolyutsiyasi ham hududlararo ijodiy aloqalarning natijasidir.

Demak, hududiy yondashuv adabiy jarayonni yanada tizimli, mukammal va ko‘p qirrali tarzda o‘rganishga xizmat qiladi. U mintaqaviy adabiy jarayonlarning o‘ziga xosligidan tashqari, umumadabiy rivojning ichki mexanizmlarini anglashga yordam beradi. Natijada adabiyot tarixining yanada to‘liq, izchil va ilmiy asoslangan manzarasi shakllanadi.

Buxoro adabiy harakatchiligi Markaziy Osiyo madaniy makonining eng qadimiy, eng barqaror va eng samarali ijodiy muhitlaridan biri sifatida ajralib turadi. Bu hudud asrlar davomida nafaqat siyosiy markaz, balki ilm-fan, adabiyot, tasavvuf va madaniyatning yirik o‘choqlaridan biri bo‘lib kelgan. Buxoroning adabiy merosi o‘zining ko‘p qatlamliligi, davriy rang-barangligi, estetik qarashlarning boyligi hamda ilmiy-ma’rifiy an’analari bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Zero, Buxoro har bir tarixiy davrda ilmiy-intellektual markaz bo‘lib, unda faoliyat ko‘rsatgan ijodkorlar Sharq adabiy merosining yirik qatlami sifatida shakllangan.

Tarixan Buxoro – so‘g‘d, arab, fors-tojik, turkiy adabiyotlari birlashgan, tasavvuf ta’limoti taraqqiy etgan, yirik kutubxonalar, madrasalar va ilmiy maktablar mavjud bo‘lgan, ko‘p millatli va ko‘p madaniyatli markaz sifatida tanilgan. Bu holat adabiy jarayonning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan bo‘lib, Buxoro adabiyotini Markaziy Osiyo madaniyatining yuragi deb atashga asos bo‘ladi.

Buxoro adabiy an’anasining shakllanishida IX-XII asrlar islom uyg‘onish davri muhim o‘rin tutadi. Bu yillarda Buxoro ilm-fanning poytaxtiga aylangan bo‘lib, Narshaxiy, Rudakiy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar ilmiy-madaniy muhitni shakllantirgan. Bu olimlar faoliyat yuritgan davrda adabiyot, tarixnavislik, fiqh, falsafa, tilshunoslik va musiqa san’ati jadal rivojlangan.

Shuningdek, Buxoro tasavvufiy adabiyotning yirik markazlaridan biri sifatida mashhur bo‘lib, bu yo‘nalishdagi asarlar hudud adabiyotining ruhiy-ilohiy mazmunini boyitgan. Xoja Bahouddin Naqshband ta’limoti asosida shakllangan adabiy estetik qarashlar keyingi asrlarda Buxoro ijodiy muhitiga chuqur singib ketgan.

Buxoroda ijod qilgan adiblar nafaqat o‘z zamonasi, balki butun Markaziy Osiyo madaniy tafakkurining taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Ularning ko‘pchiligi nafaqat shoir yoki yozuvchi sifatida, balki tarixchi, tarjimon, olim, ma’rifatparvar, islohotchi sifatida ham faoliyat yuritgan. Bu esa Buxoro adabiyotining ko‘p qirrali va ko‘p funksiyali xarakterini belgilaydi.

Adiblarning asarlari orqali nafaqat adabiy muhitning umumiy manzarasi, balki o‘sha davrning ma’naviy-axloqiy qarashlari, siyosiy jarayonlari, iqtisodiy hayoti va jamiyatning ijtimoiy qatlamlari haqida ham muhim ilmiy ma’lumotlar olish mumkin. Shu ma’noda Buxoro adabiy merosi – bu nafaqat badiiy asarlar to‘plami, balki keng ko‘lamli tarixiy-huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy, falsafiy va sotsiologik manbadir.

Buxoro adabiy merosini o‘rganishning ilmiy ahamiyati

Buxoro ijodkorlarining hayoti va ijodini o‘rganish bir necha darajada ilmiy ahamiyat kasb etadi:

birinchidan, Buxoroning adabiy-madaniy rivojlanishini davriy tahlil qilish imkonini beradi;

ikkinchidan, Markaziy Osiyoda adabiy an’analar shakllanish mexanizmini anglashga yordam beradi;

uchinchidan, hududlararo adabiy ta’sirlar, adabiy maktablarning shakllanishi va ularning uzluksizligi to‘g‘risida aniq tasavvur beradi;

to‘rtinchidan, Sharq – G‘arb madaniy aloqalari, tarjimonlik an’analari va ma’rifiy maktablar haqida keng ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Shu bois Buxoro adabiy jarayonini o‘rganish – bu faqat adabiyot tarixi emas, balki Sharq sivilizatsiyasi, islom madaniyati, jadidchilik harakati, ming yillik ma’naviy jarayonlar kabi keng ko‘lamli ilmiy yo‘nalishlar uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Buxoro adabiyoti ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan murakkab va ko‘p qatlamli hodisa sifatida o‘rganiladi. Tadqiqot davomida quyidagi jihatlar tadqiqot obyekti doirasida ko‘rib chiqilishi kerak:

Amirlik davri adabiy muhiti: saroy adabiyoti, mumtoz poetika, diniy-ma’rifiy maktablar, tasavvuf adabiyoti;

Jadidchilik davrida Buxoro adabiy jarayoni: ma’rifiy uyg‘onish, yangi poetik shakllar va publitsistikaning rivoji;

Sovet davri adabiy hayoti: mafkuraviy cheklovlar, badiiy erkinlik, turg‘unlik va yangilanish jarayonlari;

Mustaqillikdan keyingi davr adabiy muhit: tarixiy xotiraga qaytish, milliy o‘zlikni badiiy talqin, estetik yangilanishlar.

Shuningdek, tadqiqot obyekti sifatida Buxoroda faoliyat yuritgan adiblarning ijodiy olami, ularning badiiy-estetik qarashlari, adabiy merosida aks topgan zamona ruhiyati, ma’naviy-mafkuraviy qarashlar ham alohida tahlil qilinishi lozim.

Bu obyektning murakkabligi shundaki, Buxoro adabiy muhitini o‘rganish faqat adabiyotshunoslik doirasida qolmay, balki tarix, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, falsafa va diniy tadqiqotlar bilan ham uzviy bog‘lanadi. Shu sababli obyekt ko‘p tarmoqli yondashuvni talab qiladi.

Buxoro — Sharq uyg‘onishining yirik ilmiy va adabiy Markazi

Buxoro qadimdan Markaziy Osiyoning eng qadimiy madaniy maskanlaridan biri bo‘lib, uning ilmiy va adabiy markaz sifatidagi mavqei bir necha tarixiy davrlar – qadimgi Sug‘d madaniyati, islomning oltin asri, Temuriylar davlati, Rossiya imperiyasi va Sovet Ittifoqi davrlaridan to mustaqillik davrigacha uzluksiz davom etib kelgan. Shahar o‘zining boy madaniy qatlamlari, ko‘p ming yillik ilmiy merosi, yirik adabiy an’analari va ulkan ma’naviy maktablari bilan Sharq tarixida alohida o‘rin tutadi.

Islomdan avval Buxoro Sug‘d sivilizatsiyasining eng muhim shahri, savdo va madaniyat chorrahasida joylashgan ilmiy-ma’rifiy markazlardan biri hisoblangan. Buxoro shahristoni va uning atroflari sug‘d yozuvi, mahalliy tarixnavislik, dastlabki she’riyat va mifologik an’analarning rivoj topgan hududi sifatida mashhur edi. Forsiy va sug‘diy yozma madaniyatning shakllanishi qadimgi Buxoro madaniyatiga mustahkam zamin yaratib, keyingi davr adabiy muhitiga asos bo‘ldi.

Ushbu davrda Buxoro keng fors dunyosining intellektual bo‘lagiga aylanib, tarixiy rivoyatlar, epik matnlar, diniy marosim matnlari, mahalliy afsonalar muhim ideologik-ma’naviy vazifani bajargan.

709-yilda Qutayba ibn Muslim qo‘shinlari tomonidan Buxoroning zabt etilishi bilan shahar islom dunyosining yirik strategik, diniy va ilmiy markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda Buxoro nafaqat siyosiy markaz, balki islom ilmlari – hadis, fiqh, tafsir, kalom, arab tili grammatikasi kabi sohalarning yetakchi maktablaridan biri sifatida shakllandi.

VIII–X asrlar davomida Buxoro Abbosiylar xalifaligiga qarashli eng muhim shaharlardan biri sifatida ulg‘aydi. Arab tili ilm-fan tili sifatida kirib kelib, mahalliy forsiy zamin bilan sintezga kirishdi va natijada Buxoro ikki tilli, ikki madaniyatli yirik intellektual hududga aylandi.

Bu jarayon Buxoroda adabiyotning yangi shakllarini vujudga keltirdi:
diniy-ilmiy adabiyot (hadis, fiqh, tafsir)
falsafiy-ilohiy risolalar
forsiy she'riyatning yangi bosqichi
tarixiy va biografik manbashunoslik
Shu tariqa Buxoro islomning Markaziy Osiyodagi eng yirik ma'rifiy markaziga aylandi.

Somoniylar davrida Buxoro "Qubbat ul-Islom" – Islomning gumbazi, "Dar ul-Mulk" – poytaxt unvonlariga sazovor bo'ldi. Bu davr Buxoroning adabiy-madaniy hayotida chinakam yuksalish bosqichi bo'lib, shahar butun Sharqda mashhur ilmiy markazga aylandi.

IX–X asrlardagi Buxoro Sharq tamaddunining eng yirik va nufuzli madaniy markazlaridan biri sifatida shakllangan bo'lib, aynan shu davrda arab tilida ijod qiluvchi adiblarning faoliyati nihoyatda faollashgan. Arab tili ilm-fan, falsafa, tibbiyot va adabiyotning asosiy tiliga aylangan bir sharoitda Buxoroning boy kutubxonalari, saroy homiyligi, ilmiy bahs-munozaralar uchun yaratilgan sharoitlar arabzabon ijodkorlar uchun ayniqsa jozibador bo'lgan. Mansur as-Saolibiyning "Yatimat ud-dahr" asarida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada yashab ijod qilgan 119 shoirdan kamida 25 nafari aslida g'arbiy Eron, Iroq, Xuroson, Hijoz yoki xalifalikning boshqa masofali hududlaridan bo'lib, ular o'z iste'dodlarini aynan Buxoro zaminida namoyon etganlar. Bu faktning o'ziyoq Buxoro nafaqat ilmiy markaz, balki adabiyot ixlosmandlari to'planadigan xalqaro "madaniy yig'in nuqtasi"ga aylanganini ko'rsatadi.

Shaharning adabiy hayoti bevosita tashkil etilgan adabiy majlislarda, shoirlar uchrashuvlarida, saroy homiyligida namoyon bo'lgan. Ayniqsa, vazir Abulfazl Ba'lamiy rahbarlik qilgan mashhur kutubxona Buxoroning adabiy hayotida markaziy o'rin tutgan. Bu yerda muntazam ravishda she'rxonlik kechalari, qiroat majlislari, bahs-munozaralar o'tkazilgan. Shoirlar yangi g'azallar, qasidalar, ruboiylarni shu yerda ilk bora namoyish etgan, adiblar o'zaro bahslashgan, murakkab badiiy uslublar, aruz ohanglari va yangi obrazlar ustida mushohada yuritganlar. Bunday madaniy maydon shoirlarning bir-biridan ilhom olishiga, ijodiy raqobatning kuchayishiga, yangi adabiy yo'nalishlarning shakllanishiga zamin yaratgan.

Somoniylar davlatining siyosiy barqarorligi va iqtisodiy yuksalishi fors-tojik adabiyotining yangi bosqichga ko'tarilishida hal qiluvchi omillardan biri bo'ldi. Somoniy hukmdorlari fors tilini davlat va adabiy til sifatida qo'llab-quvvatlab, uni saroy madaniyatining asosiy unsuri sifatida rivojlantirdilar. Aynan shu davrda forsiy she'riyat o'zining chindan ham "Uyg'onish davri"ni boshdan kechirdi. Saroy atrofida Rudakiy, Daqiqiy, Farruxiy kabi buyuk iste'dodlar jamlandi, ular orqali fors tili nafis, musiqiy va badiiy kuchga ega she'riy til sifatida shakllandi. Bu shoirlarning ijodi nafaqat estetik go'zallikni, balki somoniylar davlatchiligini madh etuvchi ruhni ham o'zida mujassam etgan.

Buxoro va Balx, Marv, Nishapur kabi shaharlarda faoliyat yuritgan boshqa shoirlar – Abu Mansur al-Bo'shanjiy, Ibn Abu Suyob, Abu Nasr ibn Huzaym, Abul Hasan Ali al-Lahhom, Al-Ifriqiy, Matroniy, Abulmasl Buxoriy kabi ijodkorlar ham forsiy adabiy maktabning shakllanishida alohida o'rin tutgan. Ularning har biri fors tilining badiiy imkoniyatlarini kengaytirib, yangi mavzular va badiiy shakllarni adabiyotga olib kirganlar. Shahid Balxiy, Abu Shakur Balxiy, Robiya Balxiy kabi shoirlar esa forsiy lirikaning ruhiy-falsafiy qatlamini boyitib, insoniy kechinmalar, ishq, ma'rifat va tasavvufiy tafakkur masalalariga chuqur yondashdilar.

Bu jarayonning eng yuksak cho'qqilaridan biri — Abu Mansur Daqiqiy boshlab bergan epik an'ananing Firdavsiy ijodi orqali kamol topgan "Shohnoma" asarida mujassamlashdi. Somoniylar homiyligida shakllangan siyosiy-madaniy kayfiyat, milliy tarixga bo'lgan qiziqish, forsiy identitetni mustahkamlash g'oyasi Firdavsiy dostonining mazmun asosini belgilab berdi. Shunday qilib, Somoniylar davridagi adabiy jarayonlar keyingi asrlar adabiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatib, butun Eron-tojik-ma'naviy hududining madaniy poydevorini yaratdi.

Arabzabon va forsiy adabiy muhitning Buxoroda yonma-yon mavjud bo'lishi, ikki tilda ijod qiluvchi adiblarning bir shaharda to'planishi, ularning o'zaro ta'siri, bahs-munozaralari, mushohadalari natijasida Buxoro IX–X asrlarda Sharq adabiy tafakkurining eng qudratli

markazlaridan biriga aylandi. Bu davrda yaratilgan ilmiy-adabiy meros keyingi islomiy uyg‘onish bosqichlariga ham salmoqli ta’sir ko‘rsatdi.

Buxoro bu davrda: kutubxonalar va madrasalar sonining ortishi, ilmiy maktablarning shakllanishi, shoirlar majlislari va adabiy anjumanlarning faoliyati, ulamo va shoirlarning homiylik tizimi bilan ajralib turardi.

Shuningdek, Buxoroda arab tili ilm-fan tili, fors tili esa she’riyat va tarixnavislik tili sifatida o‘zaro uyg‘unlashib, noyob ikki tilli madaniy muhit vujudga keltirildi.

X–XI asrlarda Buxoro fors she’riyati maktabining eng yirik markaziga aylandi. Rudakiy, Daqiqiy, Farruxiy, Unsuriy kabi shoirlar Buxoro adabiy muhitida kamol topgan. Fors she’riyati ana shu davrda saroy madaniyati, tasavvuf, falsafa, tarix va axloqiy g‘oyalar bilan uyg‘unlashib, Sharq adabiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi.

Buxoroda bu davrda arab tilida ijod qiluvchi shoir va yozuvchilar anchagina bo‘lgan. Mansur as-Saolibiy “Yatimat ud-dahr” asarida mintaqada ijod qilgan 119 shoirning 25 tasi g‘arbiy Eron va xalifalikning turli burchaklaridan kelib Buxoroda ijod qilganligini qayd etadi. Buxoro shahridagi imkoniyatlar shoirlar uchun qulay bo‘lgan. Ilm markaziga aylangan shaharga barcha shoirlar kelishga harakat qilganligi uchun alohida yig‘inlar ham tashkil qilib turilgan. Buxoro shahidagi shoirlar yig‘iladigan yirik kechalar ayniqsa, Abufazl Ba’lamiy kutubnoxasida bo‘lgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. As-Saolibiy. Yatimat ad-dahr: Muqaddima, tahqiq va sharhlar muallifi doktor Mufid Muhammad Qomiha (arab tilida) – Beyrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya. 1983.
2. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixiga chizgilar (XX asr boshlari)
3. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixining qisqacha bayoni. Pedagogik akmeologiya. 1(18)2025. –B.25-28.
4. Axmatov A.History of Bukhara literary environment in sources. Texas Journal of Philology, Culture and History. https://zienjournals.com/index.php/tjpch. 35-37.
5. Til va adabiyot. Ilmiy-metodik elektron jurnal. –Toshkent. 2024-yil 4-son. –B.7-9.
6. Абу Саъд Абдулкарим ибн Мухаммад ибн Мансур ат-Тамимий ас-Самъоний. «Насабнома» (ал-Ансоб). Таржимонлар Абдулғафур Раззоқ Бухорий ва Раҳимов Комилжон. –Тошкент: “Hilol-nashr” нашриёти, 2017.
7. Акимушкин О.Ф. Описание персидских и таджикских рукописей Института востоковедения. Вып.10. Поэтические сборники, альбомы. М., 1993.
8. Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: издательство Восточной литературы, 1960.
9. Камолиддин Ш.С., Илхамов З.А. Источники по средневековой истории Средней Азии. Учебно- методическое пособие. – Ташкент, 2018.

BUXORODA ADABIY HARAKATCHILIK (XIII-XX ASRLAR)

Amonkeldi Axmadov
tarix va filologiya fanlari doktori, dotsent

Buxoro adabiy muhiti tarixi haqida yozilgan maqola leksikasi ilmiy adabiyot uchun xos bo‘lgan aniqlik, xolislik va tushunarlilik tamoyillariga asoslangan. Unda ishlatilgan termin va atamalar matnning ilmiy-uslubiy darajasini mustahkamlaydi. Leksik-grammatik xususiyatlarning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat: “Shakllanish”, “rivojlanish”, “tarixiy bosqichlar”, “adabiy muhit”, “madaniy-estetik jarayon”, “ijtimoiy-siyosiy omillar” kabi atamalar adabiyotshunoslik va tarixshunoslikda keng qo‘llaniladigan ilmiy terminlardir. Matnda murakkab ilmiy tushunchalar o‘quvchi uchun tushunarli qilib izchil bayon qilingan, ortiqcha badiiylikka yo‘l qo‘yilmagan. Gap qurilishida mantiqiy bog‘liqlik, izchillik, dalillash, taqqoslash usullari ustuvor bo‘lib, ilmiy uslubga xos xolis ohang saqlangan. Matn neytral va obyektiv tilda yozilgan, subyektiv fikr yoki ortiqcha hissiylikka yo‘l qo‘yilmagan. Har bir paragraf bir-biri bilan kategoriya, davr yoki adabiy

jarayon asosida bog‘langan bo‘lib, bu ilmiy matnning yaxlitligini ta’minlaydi. Yuqoridagi leksik-uslubiy xususiyatlar maqolaga ilmiy jiddiylik, mantiqiy izchillik va aniqlik baxsh etadi.

Chingizxon qo‘shinlarining 1220-yildagi istilosi Buxoro shahriga beqiyos talafot yetkazgan bo‘lsa-da, bu vayronagarchilik shaharni butkul inqirozga olib kelmadi. Buxoro ko‘p asrlik ilmiy-ma’rifiy an’analarga ega bo‘lgan markaz sifatida o‘zining asosiy madaniy, diniy va ruhiy tayanchlarini yo‘qotib qo‘ymadi. Shahar devorlari, madrasa va masjidlar vayron qilinib, kutubxonalarning bir qismi yoqib yuborilganiga qaramay, Buxoroning ichki madaniy hayoti ma’lum vaqt o‘tib yana jonlana boshladi. Bu jarayonda avvalo tasavvuf maktablarining o‘rni g‘oyat muhim bo‘ldi.

Istilodan keyingi yillarda Buxoroning tasavvufiy muhitida yirik shayxlar yetishib chiqib, shahar ma’naviy hayotini qayta tiklashda asosiy ma’naviy tayanch vazifasini bajardilar. Ayniqsa, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy asos solgan Xojagon–Naqshbandiya an’analarining kuchayishi Buxoroda ilm va ma’rifat ruhining so‘nib qolishiga yo‘l qo‘ymadi. Tasavvuf tariqatlari nafaqat diniy-ma’naviy tarbiya markazi, balki ilmiy-madaniy merosni asrab-avaylash, Qur’on va hadis ilmlarini o‘rganish markaziga ham aylandi. Shayx va muridlar orasida Qur’on qiroati, hadis ilmlari, fiqh, aqida kabi diniy fanlar o‘rgatilgani tufayli Buxoro yana ma’rifat nurlarini tarata boshladi.

Chingiziylar hukmronligi davrida ham Buxoro ulamolari arab va fors tillaridagi boy yozma merosni tiklashga intildilar. Qo‘lyozmalarni qayta ko‘chirish, madrasalarda diniy ilm darslarini qayta yo‘lga qo‘yish, tasavvufiy risolalarni yozish va sharhlash ishlari avvalgidan ham ko‘proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ko‘plab mudarris va qorilar shahar atroflarida yoki masjid-madrasalarda kichik to‘garaklar tuzib, islomiy ilmlarni qayta tiklashga kirishdilar. Shunday qilib, Buxoro bir necha o‘n yillik ichida yana Markaziy Osiyoning muhim diniy-ma’rifiy o‘choqlaridan biriga aylandi.

Buxoro adabiy muhiti ham bosqinchiliklar ortidan asta-sekin tiklana bordi. Shoir va olimlar, istedodli qalamkashlar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, arab va fors tilidagi merosni yig‘ish, tartibga solish, yangi ijodiy asarlar yaratish bilan shug‘ullandilar. Ayniqsa, forsiy adabiyot an’analari qayta jonlanib, tasavvufiy lirikaning yuksalishiga zamin yaratdi. Buxoroning ruhiy tiklanishi badiiy ijodda ham o‘z aksini topdi: inson va Yaratuvchi orasidagi ruhiy yaqinlik, sabr, sinov, ma’naviy poklanish g‘oyalari adabiy jarayonlarda markaziy mavzulardan biriga aylandi.
Shu tariqa, Chingizxon istilosining og‘ir zarbalariga qaramay, Buxoro o‘zining ilmiy, diniy va adabiy hayotini to‘liq tiklab, keyingi asrlarda yana islom olamining yirik ma’naviy markazlaridan biri sifatida yashashda davom etdi. Uning tasavvuf maktablari, madrasa an’analari, Qur’on va hadis ilmlari, arab-fors adabiy merosini avloddan avlodga yetkazishdagi tarixiy roli o‘sha davrning eng muhim madaniy jarayonlari qatoridan joy oldi.

Temuriylar davri Markaziy Osiyo, xususan, Buxoro adabiy va ma’naviy hayotida muhim burilish yasagan davrlardan biri bo‘ldi. XIV–XV asrlarda Amir Temur barpo qilgan saltanat Sharqning eng yirik madaniy o‘choqlaridan biriga aylandi. Temurning siyosiy jihatdan qudratli davlat yaratishi uning madaniy siyosati bilan mustahkamlangan: saroylar, madrasalar, kutubxonalar, ilm markazlari qurildi; turli hududlardan olimlar, shoirlar, san’atkorlar jalb qilindi. Bu jarayon Buxoroning adabiy muhitiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Temuriylar davrida fors tili hali ham nufuzli adabiy til bo‘lib turgan bo‘lsa-da, temuriylar siyosati va turkiy saroy muhitining kuchayishi natijasida turkiy tilda ijod qilish keng quloch yoydi. Bu jarayon keyinchalik Alisher Navoiy boshchiligida o‘z cho‘qqisiga yetdi. Buxoro adabiy muhitida ham turkiy tilning mavqei ortdi, turkiy g‘azal, qasida, dostonlar yozila boshladi.
Amir Temur va uning avlodlari san’at va adabiyotga katta homiylik ko‘rsatgan. Bu homiylikning Buxoroga ta’siri: ilmiy anjumanlar va mushoaralar sonining ko‘payishi, shoirlar va olimlarning moddiy qo‘llab-quvvatlanishi, kitobat, xattotlik va miniatyura san’atining rivoji, turkiy adabiyot maktablarining shakllanishi ko‘rinishida namoyon bo‘ldi.

Temurning nabirasi Mirzo Ulug‘bek Movarounnahr tarixi uchun beqiyos xizmat qilgan allomadir. Uning juda ko‘p faoliyatlari Buxoroga bevosita ta’sir ko‘rsatdi: Buxoroda mashhur madrasalar barpo qildirgan; ilmiy muloqotlar va adabiy majlislar tashkil etgan; astronomiya,

matematika, tilshunoslik bo‘yicha yetuk olimlarni Buxoroga yig‘gan. Ulug‘bek saroyida ilm-fan bilan bir qatorda she’riyat, tarixnavislik, tarjimonlik maktablari ham rivojlandi.

Temuriylar saltanati davrida Buxorodan yetishgan ko‘plab shoirlar Movarounnahr adabiy muhitida faol ijod qildilar. Ular orasida: Nosir Buxoriy, Ismatullo Buxoriy, Burunduq Buxoriy, Xayoliy Buxoriy, Mavlono Tohir Buxoriy, Mavlono Qavsariy, Mavlono Sayfiy, Ahmad Hojibek singari ijodkorlar o‘z g‘azal, qasida va falsafiy she’rlari bilan tanilgan. Ular ijodi turkiy-forsiy an’analarning sintezi bo‘lib, tasavvuf, ijtimoiy-falsafiy masalalar va axloqiy-odobiy mavzularni kuylagan.

Shayboniylar sulolasi (XVI asr): Tasavvufiy she’riyat va ilmiy uyg‘onish

XVI asrda Buxoroda Shayboniylar sulolasining hokimiyatga kelishi bilan adabiy muhitda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘ldi. Shayboniyxon, Ko‘chkinchixon, Ubaydullaxon kabi hukmdorlar ilm-fan va adabiyotga homiylik qilganlar.

Bu davrda: fiqh, tafsir, hadis maktablari kuchaydi; tasavvuf tariqatlari (naqshbandiya, yassaviya, qodiriya) adabiy jarayonda muhim o‘rin egalladi; shoirlar she’riyat orqali ma’naviy poklanish, axloqiy barkamollik g‘oyalarini targ‘ib qildilar.

Bu davrda Buxoroning adabiy muhitida quyidagi shoirlar alohida ajralib turdi:

Muhammad Solih – “Shayboniynoma” dostoni muallifi

Shayboniyxon – shoir sifatida ma’lum

Ubaydiy – turkiy she’riyatning yirik vakili

Mushfiqiy – latifa va hajviyot ustasi

Hasanxoja Nisoriy, Mutribiy, Fitratiy, Davoiy, Hajriy, Sho‘xiy, Shohid

Bu davrda adabiyot tasavvufiy va diniy-falsafiy ruh bilan sug‘orildi. She’riyatda komil inson, tariqat yo‘li, ilohiy muhabbat, zohidlik mavzulari ustuvor bo‘ldi.

Ashtarxoniylar davri (XVI asr oxiri – XVIII asr o‘rtalari): O‘zbek adabiy tilining yuksalishi Ashtarxoniylar hukmronligi Buxoro adabiy hayotida muhim yuksalish davri bo‘ldi. Bu davrda turkiy o‘zbek tili adabiy til sifatida mustahkamlanib, ko‘plab asarlar aynan o‘zbek tilida yaratildi. Ashtarxoniylar davrida: ijtimoiy hayot, xalq turmushi, adolat, zulm, insoniylik mavzulari; muhabbat lirikasi; tabiat tasvirlari; diniy-axloqiy risolalar adabiyotning asosiy yo‘nalishlari bo‘ldi.

Sayido Nasafiy

Turdi Farog‘iy (o‘zbek xalqining og‘riq va orzularini kuylagan)

Muhammad Vafo

Muhammad Amin Buxoriy

Abdurahmon Tole

Bu shaxslarning asarlari tarix, ijtimoiy hayot, davlat boshqaruvi, siyosiy jarayonlar va ma’naviy hayot haqida qimmatli manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu davrda: g‘azal, qasida, ruboiy, doston keng rivojlandi.

Tasavvufiy adabiyot ham kuchli o‘rin egallab, diniy-axloqiy g‘oyalar bilan boyidi.

Mang‘itlar sulolasi (1756–1920): Buxoroning adabiy-ma’rifiy uyg‘onishi

Mang‘itlar sulolasi davri Buxoroda adabiy muhitning nihoyatda jadal rivojlangan, ilm-fan va ma’rifatga bo‘lgan qiziqishning kuchaygan davridir. Bu davrda adabiyot jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi kuchli ijtimoiy-tarbiyaviy vositaga aylandi.

Mang‘itlar davrida: jamiyatdagi adolatsizlik, axloqiy tanazzul, diniy islohot zarurati, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, xalq turmushi, ilmga chaqiriq mavzulari adabiyotning markaziga chiqdi.

Buxorodagi madaniy hayotning jonlanishi tufayli adabiy davra suhbatlari, mushoaralar, she’r o‘qish anjumanlari, xattotlik va kitobat maktablari keng yoyildi. Har bir madrasa va har bir katta hovli deyarli adabiy markaz vazifasini o‘tardi.

Mang‘itlar davrida: diniy-ilmiy risolalar, tarixiy solnomalar, tarjima asarlar, tasavvufiy risolalar, she’riy devonlar katta hajmda yaratildi.

Bu davr Buxoroni nafaqat O‘zbekiston, balki Eron, Afg‘oniston, Hindiston, hatto Turkiyadagi adabiy oqimlarga ta’sir ko‘rsatgan mintaqaviy markazga aylantirdi.

Rossiya imperiyasi ta’siri (XIX asr): Yangi g‘oyalar va ma’rifiy uyg‘onish

XIX asrda Buxoro Rossiya imperiyasi ta’siri ostiga kirishi bilan yangi madaniy-siyosiy jarayonlarga yuz tutdi. Bu davrda Yevropa ma’rifatparvarlik g‘oyalari mintaqa ziyolilari ongiga kirib keldi. Yangi intellektual oqimlar, dunyoviy fanlarga qiziqish, grammatika, tarix, geografiya kabi yangi darsliklarning paydo bo‘lishi, matbuotning shakllanishi, tarjimonlik maktabining rivoji bu davrning asosiy belgilaridir.

Jadidchilik davri: Buxoroning ma’rifiy uyg‘onish markaziga aylanishi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida jadidchilik harakati Buxoronigina emas, butun Turkistonning ma’naviy hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Buxorolik jadidlar Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Abdulvohid Burhonov Buxoroda yangi usul maktablarini joriy etish, dunyoviy fanlarni targ‘ib qilish, ayollar ta’limini qo‘llab-quvvatlash, matbuot va teatrni rivojlantirish orqali butun mintaqada yangi intellektual muhit yaratdilar.

Jadid adabiyotining xususiyatlari: ijtimoiy tanqid, milliy uyg‘onish, modernizatsiya g‘oyalari, diniy islohot, adolat va insonparvarlik jadid adabiyoti mohiyatini belgiladi.

Sovet davri (XX asr): Mafkuraviy adabiyot va yangi badiiy maktablar

Sovet davrida Buxoroning adabiy muhitida sotsialistik realizm ustuvor uslub sifatida joriy qilindi. Adabiyot mafkuraviy vositaga aylandi, ammo shu bilan birga: yangi janrlar (roman, povest, drama) paydo bo‘ldi; Buxorodan yangi avlod yozuvchilari chiqdi; tarixiy mavzularni qayta talqin qilishga urinishlar bo‘ldi.

Buxorolik yozuvchilar sovet mafkurasiga mos asarlar yaratgan bo‘lsalar-da, milliy ruhni yo‘qotmaslikka intilib ijod qildilar.

Buxoro adabiy muhitining Temuriylardan to XXI asrgacha bo‘lgan tarixi: turkiy-forsiy madaniy sintez, islomiy ilmiy an’ana, ma’rifatparvarlik, modernizatsiya, milliy uyg‘onish jarayonlarining uzluksiz davomidir. Buxoro ming yilliklar davomida O‘zbek adabiyoti va ilm-fanining tayanch ustunlaridan biri bo‘lib kelmoqda va bu mavqe hali-hanuz o‘z kuchida.

Buxoro adabiy va ilmiy markaz sifatida ming yilliklar davomida shakllangan ko‘p qatlamli madaniy fenomen bo‘lib, uning rivoji: sug‘diy-forsiy an’ana, islomiy-falsafiy meros, jadidchilik va modern adabiy oqimlar, turli siyosiy tuzumlarning madaniy siyosati bilan uyg‘unlashib borayotgan murakkab tarixiy jarayondir. Shu bois Buxoro nafaqat mahalliy, balki butun islom tamadduni va jahon madaniy merosining ajralmas qismidir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixining qisqacha bayoni. Pedagogik akmeologiya. 1(18)2025. –B.25-28.
2. Axmatov A.History of Bukhara literary environment in sources. Texas Journal of Philology, Culture and History. https://zienjournals.com/index.php/tjpch. 35-37.
3. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixiga chizgilar (XX asr boshlari)Til va adabiyot. Ilmiy-metodik elektron jurnal. –Toshkent. 2024-yil 4-son. –B.7-9.
4. Акимушкин О.Ф. Описание персидских и таджикских рукописей Института востоковедения. Вып.10. Поэтические сборники, альбомы. М., 1993.
5. Бертельс Е. Э. История персидско-таджикской литературы. – М.: издательство Восточной литературы, 1960.

ПИСЬМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ОБ ЮВЕЛИРНЫХ УКРАШЕНИЯХ СРЕДНЕЙ АЗИИ

Ниязова Махсума Ильясовна
Канд. Ист. Наук доцент кафедры Археологии и Истории Бухары Бухарского Государственного музея-заповедника

Аннотация. В статье рассматривается ряд письменных источников, в котором упоминаются ювелирные украшения, их названия и иногда назначение. Приведены названия женских и мужских украшений, рассмотрена эволюция отдельных ювелирных изделий. Подтверждение существования того или иного украшения, не позволяет

представить его художественный облик, но изображения на миниатюрах и одноименные этнографические украшения XIX– начала XX века позволяют восполнить этот пробел.

Ключевые слова: украшения, письменные источники, ювелирные изделия, золото

Трудно переоценить значение данных письменных источников для определения наименований ювелирных изделий различных эпох. Письменные источники: Шараф ад-Дин Йазди, Алишер Навои, Восифи, Мир Мухаммад Амин-и Бухари, Абдурахман-и Тали приводят отдельные данные о сокровищах и украшениях. Исторические источники XVI века многократно упоминают использование золотых и серебряных изделий в высших слоях общества столичной Бухары.[1] В частности упоминаются следующие женские украшения: *барг, тиллакош или зарварак* – налобные украшения, *гушвора, овиза и зирих* – серьги, *халхал* – браслет для ног; мужские: *митрагуч, джика* - знак достоинства правителя.[2]

Это подтверждение существования того или иного украшения, не позволяет представить его художественный облик, но изображения на миниатюрах и одноименные этнографические украшения XIX– начала XX века позволяют восполнить этот пробел.
Письменные источники приводит примеры описания головных уборов правителей и знати Средней Азии XV-XVIII вв. Клавихо, описывает головной убор амира Темура: « на голове (он) носил высокую белую шапку с рубином наверху, с жемчугом и драгоценными камнями», внука амира Темура двадцатидвухлетнего Пир Мухаммада: «шапка его украшена крупным жемчугом и драгоценными камнями, а вверху красовался очень яркий рубин».[3] Ему вторит и Шараф ад-Дин Йазди: «Царский кулах (головной убор) они разукрасили бессчетным числом дорогих камней. Рубинами цвета граната, благородным лалом сверленым и цельным (несверленым) жемчугом. Какими словами привлечь мне взоры людей к хрусталю, кораллу и яшме!» [4] Царский венец и золоченый шлем, заканчивающийся высоким пером *отага* (староузб. - султан на чалме, на шапке, на шлеме) [5] упоминается для Убайдуллы хана сына Субханкули хана.[6] Вот как описывает это историк Мир Мухаммад Амин-и Бухари: «…его величества сейида Убайдуллы Мухаммад бахадур хана и царский венец и диадема государей была возложена на его благословенную голову…».[7] Название головных уборов сохранились и в других литературных источниках: *афсар* (перс.) *тож, жига*. [8] Так генезис золотого украшения, укреплявшегося в центре головного убора, знак достоинства правителя и знатности происхождения, формирует вид изделия, известного под названием *тодж, жига, митрагуч.* Аналогичные эгреты известны для правителей Могольской Индии, где они именовались *сарпеч*.[9]

Название отдельных украшений, сохранившихся в письменных источниках, аналогично этнографическим терминам XIX – начала XX вв.

Специалисты по изготовлению ожерелий именовались в Бухаре *тапишсоз*, колец *ангуштаринсоз*, мастера головных украшений *тиллакошсоз*, подвесок, серег *сарируйсоз*, *хаккоры* специалисты по украшению драгоценных камней и т.д. Письменные источники XVI в. свидетельствуют об узкой аналогичной специализации ювелиров. Готовое или готовое на половину изделие могло передаваться на обработку другому специалисту.[10] В рукописи «Матла ал-улум ва маджмуа ал-фунун» в разделе «Фасл - и сиздахум дар фани

[1] Мукминова Р. Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. – Ташкент, 1976. – с. 193
[2] Шедевры исламского искусства в Эрмитаже СССР. – Кувейт, 1990. - № 4
[3] Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). – М., 1990. – С. 108, 124
[4] Беленицкий А.М. Из истории участия ремесленников в городских празднествах в Средней Азии в XIV – XV вв. // ТОВГЭ. – Л., 1940. – т. II. – С. 192, 193
[5] Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. – СПб., 1860. – т. I. – С. 110
[6] Абдурахман-и Тали. История Абулфейз-хана. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель профессора А.А. Семенова. – Ташкент, 1959. – С. 30, 33, 56
[7] Мир Мухаммад Амин-и Бухари. Убайдулла-наме. Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель профессора А.А. Семенова. – Ташкент, 1957. – С. 21
[8] Навоий асарлари луғати. Тошкент, 1972. 65 б.
[9] .Masterpieces of Islamic Art. – Kuwait 1990. – № 94; Oriental Splendour. 1993. P. 236,237
[10] Мукминова Р.Г. Указ. соч. С. 113

заргарон» автор писал, что «за готовое ювелирное изделие мастер должен получить плату равную стоимости серебра, добавленного к золоту. Плата может колебаться в зависимости от мастерства ювелира. За день ювелир должен получить 4 или более 6 танга, в общей сложности ювелир должен получать плату равную оплате труда кузнеца». [1]

Доисламские источники и суфийские трактаты философски сравнивали камни с чертами характера человека. Например: манихеи олицетворяли жемчуг с благочестием,[2] В суфийских трактатах камням отведены отдельные главы, где они олицетворяют духовные реалии и божественные свойства. «Серебро и золото означают оба истину и искренность, заметь, что оба и рубин и кварц представляют мудрость, мой сын
Знание Божественного Единства – это духовный жемчуг
Изумруд означает благочестие, если ты знаешь
Ляпис – лазурь означает воздержание о, набожный мой!
Бирюза означает поклонение, сверкающее что-то;
Янтарь означает строгость
Настоящий сапфир есть воздержание
Знай предположение и проницательный испытывающий глаз – алмаз,
Пока эмаль означает прилежность в понимании
Стекло означает нежность сердца дорогого кому-то;
Где грех – яд, раскаяние - камень безоар
Фарфор означает уверенность в знании»[3]

Белый жемчуг символизирует Первый разум. Пророк сказал: «Первое, что создал бог – был белый жемчуг» и «первое, что создал бог – был Разум».[4]

Изумруд означает Всемирную Душу. Всемирная душа известна как драгоценный камень, который являет собой смесь зеленого и черного в цвете.

Рубин (ёкут) означает Всемирную душу, свет которой смешался с темнотой тела, как противопоставление первому Разуму, который есть белый жемчуг.

Драгоценные камни и украшения ассоциировались с силами, обеспе-чивающими здоровье и защиту. Они могли использоваться как в официаль-ной медицине, так и в традиционной народной практике, приписывающей им целительные свойства. Например, Абу Райхан Беруни пишет, что сердолик «прекращает кровотечение из носа, а также истечение крови из любого органа», а «горный хрусталь плавится как стекло. Кто вешает его на себя, тот не видит дурных снов», «лунная пена» помогает от падучей». [5] Кораллы считались средством, предотвращающим беды, болезни, останавливающие кровь. Бирюза считалась целебной при болезнях глаз и желудка, верным про-тивоядием при укусах змей, кораллы считались средством, предотвраща-ющим болезни, останавливающими кровь.

Данные письменных источников о ювелирных изделиях, о ювелирных камнях, об устройстве ремесленного цеха, - предоставляют богатый материал по истории ювелирного дела Средней Азии.

TO’QIMACHILIK SANOATINING TARIXIY ILDIZLARI

Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti
dotsenti,t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Maqolada Buxoro va Samarqandda to‘qimachilik sanoati tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. “Vadoriy” va “Zandana” matosining kelib chiqishi, texnologik tarkibi,

[1] «Матла ал – улум ва маджмуа ал – фунун». Нуул Кишвар. – Индия, 1326/1908. – С. 384
[2] Sufi Symbolism. The Nurbakhsh encyclopedia of Sufi Terminology (Farhang – e Nurbakhsh), volume IV: Symbolism of Natural World. By Dr. Javad Nurbakhsh. London, New York, 1990. P. 143
[3] Sufi Symbolism. 1990. P. 138 - 141
[4] Sufi Symbolism. 1990. P. 139
[5] Абу Райхан Мухаммад ибн Ахмад ал-Беруни. Фармакогнозия. Избранные произведения. IV. – Ташкент, 1973. – С. 373, 645

iqtisodiy va madaniy ahamiyati haqidagi jarayonlar ilmiy asosda tahlil qilingan. “Vadoriy” va “Zandana” matosi ichki va tashqi bozorda savdosi yaxshi bo’lgan. Ko’plab hunarmandlik ustoxonalari tashkil etilib, milliy matolar va kiyim-kechaklar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: “Vadoriy”, “Zandana”, ipakchilik, tikuvchilik, ip-kalava, to‘quvchilik, Samarqand, Buxoro, Peshko’, Kattaqo’rg’on.

Vadoriy alvon rangli tukli mato va Zandana oq bo’z matolari Samarqand va Buxoroda to’qimachilik sanoatining tarixiy ildizlaridir. Bu matolarni ishlab chiqarish davomida aholining maishiy, madaniy va milliy qadriyatlari ham taraqqiy etgan va matolarda o’z aksini topgan. Samarqand va Buxoro ustalari tomonidan ishlab chiqarilgan matolar buyuk ipak savdo yo’li orqali o’ndan ortiq davlarlarda xaridorgir bo’lgan.

IX–X asrlarda Movarounnahr va Xuroson hududlarida Somoniylar davlati iqtisodiy, madaniy va hunarmandchilik jihatdan yuksak darajaga erishgan.[1] Vadoriy matosi nomi Samarqand viloyatidagi Kattaqo’rg’ondagi Vador qishlog‘i nomidan olingan.[2] Bu joy qadimdan ipak to‘qimachiligi bilan mashhur bo‘lgan. Vadoriy matosi asosan, ipak va paxta iplaridan to‘qilgan bo’lib yumshoq va mustahkam bo‘lgan. Mato yorqin, qizil, moviy, yashil va oltin ranglarda bo’lgan. Vadoriy matosidan ko‘pincha saroy kiyimlari, diplomatik sovg‘alarda va savdo-sotiqda mahalliy bozorlar orqali Buxoro va boshqa shaharlarga ham tarqalgan. Somoniylar davrida Vadoriy matolari nafaqat ichki bozor uchun, balki Xuroson, Bag‘dod, Eron va Hindiston bozorlariga eksport qilingan.

O’rta asrlarda to‘qimachilik sohasi rivojlanib, Samarqand, Buxoro, Marv kabi markazlar ipak va paxta matolari bilan mashhur bo‘lgan. Shu davrda yaratilgan vadoriy matosi o‘zining sifati, bezaklari va eksport salohiyati bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Vadoriy matosi maxsus haroratda qizdirilib, silliqlangan va bu unga jilolilik bergan. Rang berish jarayonida asosan, tabiiy bo‘yoqlar, anor po‘sti, pista bargi, piyoz po‘chog‘i va boshqa o‘simliklardan tayyorlangan bo‘yoqlar ishlatilgan.

IX-XV asrda bu matolar ko‘pincha saroy kiyimlari, diplomatik sovg‘alar va savdo tovarlari sifatida ishlatilgan. “Boburnoma”da ta’kidlanganidek, “Samarqandda bir mato bo’lib, qirmizi rangi’li bu tukli baxmal matosiga atroflicha ta’rif berilgan. Demak, Bobur davrida ham Vodoriy matosi Samarqandda mashhur va takomillashgan bo‘lgan.

XVIII–XIX asrlarda Vador qishlog‘i aholisi ipakchilik bilan shug‘ullangan, ayniqsa ayollar orasida to‘qimachilik keng tarqalgan. Vodoriy matosi o‘z davrida iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki xalq amaliy san’ati, madaniy meros va estetik qadriyatlarni ham ifodalagan.[3] Vodoriy matosi o‘sha davrda zodagonlar kiyim-kechaklarida, tantanali liboslarda, bayram va to‘y marosimlarida keng ishlatilgan.

Buxoro hunarmandlik va savdo taraqqiy etgan shaharlardan biri sifatida tilga olinadi. Ayniqsa, buxorolik hunarmandlar tayyorlagan matolar orasida zarboft, zandanicha, karpas kabi matolar mashhur bo’lgan. Zandanicha bu Buxoroda to‘qilgan mashhur matolardan biri bo‘lib, Buxoroning ipakchilik sanoatining mahsulidir. Bu mato o‘ziga xos an’anaviy naqsh va to‘qimachilik usuli bilan ajralib turadi. Mato qo‘lda to‘qilgan, asosan, ipak yoki paxta aralashmasi ishlatilgan. Yorqin ranglardan iborat bo‘lib, ko‘pincha gulli yoki geometrik naqshlarga ega bo‘lib, undan amirlar, saroy ahli va boy savdogarlar liboslari uchun foydalanilgan. Bu mato ilk bora Buxoro viloyatining Peshku tumani hududidagi Zandani qishlog‘i hunarmandlari tomonidan yaratilgan. Peshku tuman markazidan 12 kilometr uzoq masofada joylashgan Zandana qishloq’ining uzoq tarixi, tabiati va azal urf-odatlari bilan viloyatning boshqa ko‘hna qishloqlaridan ajralib turagan.[4]

Zandana qishlog‘i tarixi moziyning teran va ko‘hna ildizlariga bog‘liq. Tarixda ‘Zandani” atamasi ilk bor Abu Bakr Muhammad ibn Jafar Narshaxiyning milodiy 943-944 (hijriy 332)

[1] O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 2-jild, “Vadoriy” maqolasi. Toshkent, 2001.
[2] Doniyorov N. O’zbek xalq hunarmandchiligi tarixi. Toshkent 1991-yil.

[3] Rahmonov A. O‘rta Osiyo to‘qimachilik san’ati tarixi. Toshkent 1998.
[4] Kholmamatovna,U. (2025). From The History of The Bukhara Knitting Factory. Jurnal Ilmu Arkeologi Indonesia, *1*(1), 8-8.

yillarda yozilgan “Buxoro tarixi” asarida tilga olingan. Bu qishloqda katta bozorlar bo‘lgan. Zandonada ilk o‘rta asrlarda to‘qilgan bo‘z “Zandanacha”, ya’ni “Zandana qishlog‘idan chiqadigan” gazlama deb atalgan. Buxoroning ko‘plab qishloqlarida, masalan: Vardonze, Romitan va Afshonada to‘qib chiqarilgan bunday gazlamalar ham shunday nomlanib, o‘rta asrlarda Hindiston, Yaqin va O‘rta Sharq hamda Yevropa davlatlariga olib chiqilgan.

“Zandanacha” gazlamasining shuhrati so‘nggi o‘rta asrlarda ham baland bo‘lgan. Hukmdorlar va ulug‘ kishilar bu matodan kiyim tiktirganlar va uni kiyishni o‘zlari uchun sharaf hisoblaganlar. Aslida ipakning vatani Xitoy bo‘lsa ham “Zandanacha” ipak matolari G‘arb va Sharqqa sotilishi bilan birga, Xitoyning o‘ziga ham tarqalib ketgan. Asosan, “Zandanacha” matolari ko’p hollarda paxtadan ishlab chiqarilgani uchun ham xaridorgir bo‘lib, aholi uchun arzonga tushgan. Ipakdan ishlansa biroz narxi qimmatroq bo’lgan.

Amir Temur safarga chiqishi oldidan oila-a’zolari bilan Buxoroga kelishgan. Hatto, o’sha vaqtlarda Amir Temur yaqinlari ya’ni, qarindoshlari Zandani qishlogidagi “Zandanacha” matosidan kiyim tikdirgan ekanlar. Buxoro yaqinidagi ushbu qishloqda ishlab chiqarilgan matolar avj olib, keyinchalik mamlakat bo‘ylab ham tarqala boshlagan. Zandaniycha mato ishlab chiqaruvchi markazlar ko‘paygan. Shunday bo‘lsa-da, boshqa joylarda ham uning asl nomi saqlanib qolgan.

Peshku tumanining Zandani qishlog‘i Buxoro amirligi tumanlaridan biri sanalgan. To‘qimachilik ishlab chiqarish markazi bo‘lib, Zandani qishlog‘ida, mato ishlab chiqarish an’analarini davom ettirib, yuzdan ortiq hudud aholisining bandligi ta’minlangan. Buxoroning “Zandaniycha” (Zandanacha) matolarini mahalliy aholi 1930-yilgacha to‘qish bilan shug‘ullanganlar. Asosan, Arabxona qishlog‘i aholisi “Zandaniycha” matosi uchun ip yigirganlar, Ofandar qishlog‘i aholisi to‘quvchilik bilan shug‘ullanishgan, Sayidon qishlog‘i aholisi o‘simliklardan bo‘yoq tayyorlagan, Ko‘kchi qishlog‘i aholisi matoni bo‘yagan.[1] Demakki, mahalliy aholi o‘zi ham bo‘yoq tayyorlash bilan shug‘ullangan.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, Vadoriy va Zandana matosi Samarqand va Buxoronning to‘qimachilik tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan milliy gazlama bo‘lib, u nafaqat moddiy, balki ma’naviy boylik sifatida ham e’tiborga loyiqdir. Asl matolarning qayta tiklanishi milliy merosni saqlash, an’anaviy hunarmandchilikni rivojlantirish hamda ekologik to‘qimachilikni yo‘lga qo‘yishda muhim ilmiy va iqtisodiy ahamiyatga ega.

БУХОРО АМИРЛИГИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ АЙРИМ СОҲАЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДАГИ МУЛОҲАЗАЛАР.

Қудратов Шухрат Ёдгорович
БухДУ, Археология
ва Бухоро тарихи кафедраси доценти.(PhD)

XIX аср охири – XX аср бошларида Бухорода ҳунармандчиликнинг энг тараққий этган соҳаларидан бири заргарлик бўлиб, XIX аср охири – XX аср бошларида Бухоро, Нурота, Бойсун, Шеробод, Китоб каби шаҳарларнинг заргар усталари тайёрлаган буюмлар сифатли ва чиройли бўлган. Бухоро шаҳрининг ўзида 400 га яқин заргар фаолият олиб борган бўлиб, уларнинг кўпчилигининг Токи заргарон савдо расталарида ўз дўконлари бўлган. Қарши беклигида ҳам кўплаб заргарлар истиқомат қилган ва аёллар учун олтин ва кумушдан чиройли тақинчоқлар ясаб, қимматбаҳо тошлар билан безаганлар[2]. Бухорода заргарликни санъат даражасига кўтарган машҳур усталар Уста Ҳоди Назир, Уста Имомқул Амир Музаффар даврида; Уста Қори Шариф Тўқсабо, Уста Насриддин, Уста Камолиддин, Уста Абдунаби, Уста Ҳожи Исоқул, Уста Ёдгорхўжа, Уста Мирак Амир Абдулаҳадхон даврида; Уста Насриддин Тўқсабо, Уста Абзал, Уста Астархон, Уста Садриддин, Уста

[1] Раҳимов Н.К., Раҳимова М.Н. Зандани ва Занданийчи тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2021. – Б. 76.
[2] Массон М. Столичние города в области низовьев Кашкадарьи с древнейших времен. Ташкент. 1973. – С. 92.

Амирхўжа, Уста Миржалол, Уста Қилич Наим, Уста Ниғмонхўжа, Уста Миррозиқ, Уста Маъруф, Уста Баҳром Маъруф, Уста Мухтор Муқсим, Уста Қосимжон Мираклар эди[1]. Заргарлар нафақат аёллар учун, эркаклар учун ҳам узуклар ясаганлар. Буюртмачининг истагига кўра, узукнинг кўзи ўрнига муҳр ўрнатиб беришган. Бундай узук муҳрларни барча давлат идораси амалдорлари тақиб юришган. Муҳр кўзли узук тайёрловчи заргарлар муҳрканд деб аталган[2].

Заргарлар тақинчоқларга асосан, қизил, кўк, яшил рангли қимматбаҳо тошлардан фойдаланганлар. XIX аср охирида Бухорода Истамбулдан турли хил сунъий тошлар, Эрондан сунъий феруза, кейинчалик Москвадан сунъий тошлар олиб келинган.

XIX аср охири – XX аср бошларида Бухорода ривожланган ҳунармандчилик соҳаси зардўзлик эди. Мазмуни жиҳатдан халқчил бўлган ва қимматбаҳо матодан тайёрланадиган зардўзи кийимлар маҳаллий аҳолининг турли табақалари ўртасида кенг тарқалган ипак ип билан кашта тикишга қараганда нозик дидни талаб қилган.

Зардўзликнинг тараққий қилишига унинг Бухоро ҳукмдорлари томонидан қўллаб-қувватланиши ҳам сабаб бўлган. Айниқса, Амир Музаффархон, Амир Абдулаҳадхон ва Амир Саййид Олимхон даврида ушбу ҳунар тури анча тараққий этган[3]. Амир саройида фаолият кўрсатган махсус ҳунармандчилик устахонасида моҳир зардўзлар буюртма асосида турли хил кийим-кечаклар, тўнлар, совғабоп буюмлар тайёрлашган. XIX аср охири - XX аср бошларида амир саройида ва хусусий корхоналарда 300 нафардан 350 нафаргача зардўзи усталар меҳнат қилишган. Бухоро зардўзлари асосан Мирзабой, Миржон Али, Мирдўстимбой, Мачити беустун, Алоқабандан, Кўчабоғ маҳаллаларида истиқомат қилишган. Мирдўстимбой маҳалласи “Гузари зардўзон” ҳам деб аташган[4]. Зардўзлик - ёпиқ касб бўлиб, усталар бу ҳунарни асосан ўз фарзанди ёки энг яқин қариндошигагина ўргатиши мумкин эди. Ушбу нафис ҳунармандчилик санъати сирлари шу тарзда сақланган. Амир Музаффархон даврида Бухоро аркида бирта зўрдўзлик устахонаси мавжуд бўлган бўлса, Абдулаҳадхон даврига келиб, уларнинг сони иккитага етади. Сарой устахоналарида тайёрланган барча турдаги зўрдўзлик маҳсулотлари алоҳида рўйхат бўйича амирлик хазинасига топширилган. Хазинада эса ушбу буюмлар матосига қараб, 100 донадан ип билан боғланган ҳолда алоҳида токчаларга териб қўйилган. 1894 йили амир Абдулахадхон Карманага кўчиб ўтгач, аркдаги зардўзлик корхонаси ҳам мазкур шаҳардаги Чорбоғгул саройига кўчирилган. Зардўз Нўъмонжон Аминовнинг хотирлашича, бу ерда унинг отаси Аминжон раҳбарлигида 20 тадан 40 тагача тажрибали усталар фаолият кўрсатган[5].

1915 йилда Амир Олимхоннинг буйруғига кўра, қўшбеги Мирзо Урганжий ва қозикалон Бадриддин уйларида зардўзи кийимлар тайёрловчи подшолик устахонаси очилади. Бу устахоналар қўшбеги ва қозикалон ихтиёрида бўлиб, 20-40 нафар киши ишлаган. Устахонада тажрибали уста бошчилик қилиб, у устакор деб аталган. У устахонадаги барча ишлар учун масъул шахс ҳисобланган. Зардўзларга ишни тақсимлаган, буюртмаларнинг бажарилиши муддати ва иш сифатини кузатиб борган, тикиш учун зарур ашёларни тарқатган[6].

Бухоро шаҳрида подшолик зардўзлик устахоналаридан ташқари хусусий устахоналар ҳам мавжуд бўлиб, уларнинг сони 25 тани ташкил қилган. Шаҳардаги Ҳаёт оқсоқол, Саъдулло оқсоқол, уста қори Ҳасанга қарашли йирик хусусий устахоналарда 15-20 нафардан усталар ишлашган. Амир Музаффархон даврида подшолик устахоналарида нима тикилса, хусусий устахоналарга ҳам шундай зардўзи буюмлар тайёрлашга рухсат берилган. Аммо Амир Абдулаҳадхон уларга сарой аъёнлари ва амалдорлар киядиган

[1] Затворницкая В. Ювилерние изделия Бухара. Ташкент, 1947. – С. 3-4.
[2] Фахриддинова Д. Ювилерное искусство Узбекистана. Ташкент, 1988. – С. 71.
[3] Остонова Г. Бухоро зардўзлари // Соғлом авлод учун. 2001. № 10-11. - Б. 32 .
[4] Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). - Ташкент: Изд. Ан УССР. 1958. - С. 94.
[5] Аминов Н. Зардўзликдан топдим бахтимни // Фан ва турмуш. 1987. № 9. – Б. 8-9.
[6] Гончарова П. Бухоро зардўзлик санъати. Тошкент. 1986. – Б. 13.

кийимлар тикишни тақиқлаб қўйган[1]. Зардўзлик кийимлари Бухоро шаҳри ва бекликлардаги бозорларда жуда харидоргир бўлган.

Хуллас, Бухоро амирлигида XIX аср охири – XX аср бошларида ҳунармандчиликнинг заргарлик ва зардўзлик соҳалари тараққий этган эди. Қўл меҳнатига асосланган бу меҳнат тури саноат корхоналари ва маҳсулотлар ишлаб чиқарувчи заводлар вужудга келиши натижасида инқирозга юз тутди. Аммо Бухоро ҳунармандлари тайёрлаган барча турдаги жумладан, заргарлик ва зардўзлик маҳсулотлари сифати, чидамлилиги билан машҳур бўлган. Аҳолининг доимий эҳтиёжи ҳисобга олиниб тайёрланган бу турдаги буюмлар Бухоро шаҳри ва бекликлар савдо марказларида харидоргир бўлган. Уста ҳунармандларнинг бир қисми тайёрлаган маҳсулотини бозорда ўзи сотса, айримлари улгуржи нархларда олиб сотарларга тақдим этарди Тадбиркорликнинг бу кўриниши амирлик аҳолисининг катта қисмининг меҳнат билан бандлигини таъминлаган ва мамлакат иқтисодиётида ҳам муҳим ҳисобланган.

O‘ZBEKISTON MUZEYLARNING INNOVATSION TARAQIYOTI OMILLARI

Buxoro davlat universiteti Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.(PhD)
Boltayev.B.B

Annotasiya: Maqolada yurtimizda mustaqillik yillarida faoliyat olib borayotgan muzeylarning yangi innovatsion g‘oyalar bilan boyishi, jahon muzeyshunosligi sohasidagi yutuqlarning muzeylarimizga joriy qilinish yo‘llari, muammo va echimlar yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, shon-sharaf, ekspozisiya, maket, artefakt, muzey ishi, sivilizatsiya, gid, trend, brend.

Kirish: O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrda eng innovatsion yondoshuvga ega bo‘lgan *tarix ixtisosligidagi* ilk muzey O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasi hisoblangan o‘z davri uchun, buning asosiy sababi O‘zbekiston tarixi barcha jihatlarini yangicha yondoshuvda yoritilishi, chuqur ilmiy konsepsiyasi, tarixning barcha davrlarini xronologik izchillik asosida ko‘rsatib bergan muzey sifatida muhim sanaladi. Bugungi kungacha yaratilgan O‘zbekistondagi tarix ixtisosligidagi barcha muzeylar mazkur muzeyning ilmiy konsepsiyasini o‘ziga asos qilib oladi, namuna sifatida foydalanadi.

Hozirda O‘zbekiston muzeylari ham jahonning ilg‘or muzeylari yutuqlarini qo‘llashga harakat qilmoqda. Bu muzey faoliyatinining turli jabhalarida namoyon bo‘layotganini ko‘rish mumkin.

Jahonda ko‘plab tarixiy g‘alabalarni yorituvchi konsepsiyaga ega muzeylar talaygina. Shunday muzeylardan biri Shon-sharaf muzeyining tashkil etilishi O‘zbekiston muzeografiyasi tarixida katta iz qoldirdi. Mazkur muzey konsepsiyasi innovatsion loyihalar asosiga qurilgan, shu kunga qadar qo‘llanilgan muzeylardagi ekspozitsiya ko‘rgazmalardan noodatiy yechimi bilan ajralib turadi. Mazkur muzey o‘zining ekspozitsiyadagi qo‘llanilgan innovatsion g‘oyalari bilan O‘zbekiston muzeyshunosligini bir pog‘ona yuqoriga ko‘tardi.

Assosiy qism: Jahon muzeylarining taraqqiyoti O‘zbekiston muzeylariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Yangi tashkil etilayotgan muzeylar ekspozitsiyasida innovatsion loyihalarni qo‘llashga intilishi natijasida xorij muzeylari tajribasiga murojaat qilish kuchaydi. Muzey ishida esa O‘zbekiston muzeylarida fond va kolleksiyalarni raqamlashtirish hamda elektronlashtirish jarayonlarini kuzatish mumkin. Ma’lumot o‘rnida shuni aytish joizki,bugungi kunda Madaniy meros agentligi tizimida 37 ta muzey va ularning 67 ta filiali faoliyat yuritmoqda. Shulardan 7 tasi muzey-qo‘riqxonalar, 12 tasi uy-muzeylardir. Respublika muzeylari fondlarida jami 2400000 ta eksponat va kolleksiyalar mavjud bo‘lib, ulardan 1700000 dan ortig‘i asosiy fondda, 600000 tasi ilmiy yordamchi fondda saqlanadi.

[1] Гончарова П. Бухоро зардўзлик санъати. – Б. 15.

O‘zbekiston va xorijda ko‘rgazmalar tashkil etish hamda muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlarni jahon miqyosida targ‘ib qilishda virtual muzeylarning ahamiyati katta. Bundan tashqari, muzeylar yaratilayotgan ekspozitsiyalarni zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash ham bugungi kun tomoshabini uchun qiziqarlidir [1].

2020-yil sentabr oyidan boshlab davlat muzeylarida har oyining birinchi yakshanbasi “Ochiq eshiklar kuni”, deb e’lon qilingan edi. Shu bilan birga “Jonli muzey” loyihalarida doirasida mamlakatimizdagi muzeylarda interfaol zonalarni yaratish, xorijlik turistlar uchun matnlarni tarjima qilish imkoniyatiga ega elektron-monitor tablo o‘rnatilib, gid-tarjimon, marketolog hamda muzeylarning xizmatini monetizatsiya qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimlari joriy etilishi rejalashtirilgan[2].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-5186-son qaroriga muvofiq markaz huzurida muzey tashkil etilish vazifasi qo‘yilgan edi. Buning ijobiy natijasidan bugungi kunda barchamiz xabardormiz deb hisoblasak aslo, xato qilgan bo‘lmaymiz [3].

Hozirda mazkur muzeyda ekspozitsiya yaratish ishlari olib borilmoqda.

Shuni alohida takidlash joizki xorij muzeylari tajribasi O‘zbekiston innovatsion muzeylarining shakllanishiga o‘zining katta hissasini qo‘shmoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston muzeylarini yaratishda nafaqat mahalliy mutaxassislar, balki xorijiy muzeyshunoslar, ekspozitsioner dizaynerlar ham ishtirok etmoqda. Jumladan, O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi qoshidagi muzey fransuz mutaxassislari tomonidan “Wilmotte & Associés” va “Avesta Group” loyihasi asosida konsepsiya va mavzuli rejasi asosida ishlab chiqilgan. Muzey ekspozitsiyasini amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha turkiyalik mutaxassislar ya’ni “Outdoor Factory” shirkati o‘z faoliyatini boshlagan [4].

Muzey binosi va ekspozitsiyasining muvaffaqiyatli yechimi tomoshabinlarni muzeyga eng ko‘p jalb etadigan omil hisoblanadi. Shu sabab ham konsepsiya bilan uyg‘unlashtirilgan muzey binolari tashrifchilar e’tiborini tezda o‘ziga tortadi.

Mustaqillikning ilk yillarida O‘zbekiston muzeylarida innovatsion yondoshuv muzey binosi, konsepsiyasi, ekspozitsiyasi va dizaynida ko‘zga tashlanadi. Jumladan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi konsepsiyasi o‘zining yurtimiz tarixini batafsil yorituvchi akademik yondashuvga ega konsepsiyasi, XX asrning 90-yillari uchun yaratilgan ekpozitsiyasi innovatsion ahamiyatga ega bo‘lgan. Temuriylar tarixi davlat muzeyining binosi XX asrning oxirlarida muzeylar binosidan keskin farq qilgan hamda o‘rta asr saroylarini eslatuvchi noodatiy yondoshuvga ega ekanligi bilan innovatsion ahamiyat kasb etgan. Temuriylar tarixi davlat muzeyining binosi an’anaviy uslubga ega bo‘lsa-da, lekin kelgusida yaratiladigan muzeylar uchun etalon vazifasini bajara oladi [5]. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining binosi ham an’anaviy turarjoylarni o‘zbek hovlisi obrazini yaratgan holda qatag‘onning minglab oilalarga ko‘rsatgan ta’siri, dahshatini aks ettirgan. XX asrning 90-yillarida asosan konsepsiya va muzey binosiga katta e’tibor qaratilgan bo‘lsa, 2017-yildan keyingi yaratilgan muzeylarda dizayndagi kreativlikka ahamiyat qaratilmoqda. So‘nggi yillarda yaratilgan Shon-sharaf muzeyi dizaynidagi innovatsion yondoshuvlar ko‘pchilik tashrifchilarning e’torofiga sazovor bo‘ldi [6].

Mustaqillikning dastlabki yillarida muzey yaratish, ekspozitsiylarni shakllantirishda O‘zbekiston muzeylariga Rossiya muzeylarining ta’siri katta bo‘lgan. Ilmiylikka asoslangan, xronologik izchillik asosidagi, mavzuli ekspozitsiyaga bo‘ysundirilgan, milliy an’analar, tarixni aks ettiruvchi, boy madaniy merosni namoyish etishni ko‘rsatuvchi muzeylar ko‘plab yaratilgan. 2000-yillardan boshlab esa muzeylar ekspozitsiyada noodatiylikka, boshqa muzeylardan farqli jihatlarga urg‘u berishga, faqatgina shu muzeygagina xos orginal g‘oyalarni qo‘llashga katta e’tibor berila boshladi. 2017-yildan keyingi davrda muzey yaratishda innovatsiyalar keng qo‘llanila boshladi. Turkiya muzeylari tajribasining ta’siri sezilarli oshdi. Xorijiy mutaxassislar muzey yaratishga jalb etila boshladi, mahalliy mutaxassislar uchun esa ko‘plab yangi muzeylarni yaratilishi amaliyotda nazariyani qo‘llash vazifasini bajardi [7].

Xulosa tariqasida shuni alohida takidlash joiz-ki, bugungi kunda O'zbekiston respublikasida faoliyat olib borayotgan deyarli batcha muzeylar bosqichma-bosqich zamonaviy muzey tendetsiyasi asosida o'z taraqqiyot yo'lini qaytadan ko'rib chiqib, Jahon muzeylaridagi yangiliklar bilan boyib integrasiyalashmoqda. Bu o'z navbatida yurtimizga xorijlik mehmonlar oqimining yanad ko'payishiga asosiy omil bo'ladi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Қаюмов Ш. Музейлар ва замонавий технологиялар // Мозийдан садо. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 10.
2.Нишанова К. Янги Ўзбекистон музейларидаги бунёдкорлик ишларининг соҳа ривожида тутган ўрни // Санъат. – Тошкент, 2021. – № 2. – Б. 38.
3.Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 16 июльдаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистондаги ислом цивилизацияси маркази фаолиятини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» ПҚ-5186-сон қарори // https://lex.uz/ru/docs/5514989/
4.Альмеев Р.В. Бухара – город-музей. – Т.: Фан, 1999. – С.42.
5.Orifgonova Gulirano Ravshan qizi. O'zbekiston muzeylari innovatsion rivojlanish kesimida (XX asr oxiri- XXI asr boshlari) tarix fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.- Toshkent, 2025. 47-b
6.https://www.gazeta.uz/oz/
7.Orifjonova G. San'atning sehrli kuchi // O'zDSMI xabarlari. – Toshkent, 2023. –№1. –B.63.

ШАКАР ГАНЖИ ВАЛИЙ – БУХОРО ҲОЛВАГАРЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ ПИРИ

Шавкат Бобожонов,
Маданиятшунослик ва номоддий маданий мерос илмий-тадқиқот институти Этнофолклор бўлими мудири,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент
bobojonovsh2020@gmail.com

Аннотация: Мақолада Бухоронинг қадимий ҳунармандчилик турларидан бири ҳолвагарлик, унинг тарихи, урф-одат ва анъаналари, у билан боғлиқ маросимлар илмий адабиётлар ва дала этногафик материаллари асосида таҳлил этилган. Ҳолваларнинг турлари, номлари, уларнинг тайёрланиш жараёни, фойдали ҳусусиятлари ҳақида атрофлича мулоҳаза юритилган. Айниқса, мазкур ҳунарда устоз-шогирд анъаналари, тарбиявий хусусиятлари, пир ҳаққига атаб ўтказиладиган маросимлар ёритиб берилган.

Калит сўзлар: ҳолва, ҳолвапазлик, ҳолвагарлар маҳалласи, устоз-шогирд, ҳалоллик, қандолатфуруш, пир, миёнбандон маросими.

Аннотация: В статье на основе научной литературы и полевых этнографических материалов анализируется одно из древних ремесел Бухары – халвагар, его история, обычаи и традиции, а также связанные с ним обряды. Подробно обсуждались виды и названия халвы, процесс ее приготовления, полезные свойства. В этом ремесле особенно ярко выражены традиции мастера-ученика, особенности обучения и церемонии, проводимые в честь пира.

Ключевые слова: холва, халврогар, квартал холвагаров, наставник-ученик, честность, кондитерская, пир, обряд миёнбандон (бельтинг).

Abstract: The article analyzes one of the ancient crafts of Bukhara, halvagar, its history, customs and traditions, as well as the rituals associated with it, based on scientific literature and field ethnographic materials. The types and names of halva, the process of its preparation, and its beneficial properties were discussed in detail. In this craft, the traditions of the master-apprentice, the peculiarities of training and the ceremonies held in honor of the feast are especially clearly expressed.

Keywords: holwa (national sweets), halvrogar, holvagar quarter, mentor-disciple, honesty, confectionery, feast, myeonbandong (belting) rite.

Ҳолвагарликни ўрганиш учун ярим йил вақт кетган. Шогирдларнинг қобилиятига қараб ҳунарни ўзлаштириш айримларда 4 йилгача давом этган. Ҳолвапазлар Бухорода унча кўп бўлмай, шаҳар бўйича жами 24 нафар уста фаолият кўрсатган. Ҳолвагарларнинг тартиб қоидалари жамланган ўз уставлари - рисолалари бўлган. Рисолада ҳар хил дуолар ёзилган бўлиб, ҳунарманд иш бошлаш олдида, иш давомида ва иш тамом бўлгач, шу дуоларни ўқиши лозим эди. Бундан ташқари, ҳунармандниг оқсоқол, устоз ва соҳибкорларга (корхона эгаларига) муносабати ҳам шу рисолада тайинлаб қўйилган бўлади. Албатта бу муносабатлар оқсоқол, устоз ва устахона эгаларининг манфаатига қаратилган бўлиб, ҳунармандниг зарарига хизмат қиларди. Ҳунармандларнинг қайси бири рисолада ёзилган қоидани бузса, оқсоқолга "тартибсизлик" жаримаси тўлашга мажбур эди[1].

Рисолага кўра ҳолвагарлар жамоасини уларнинг раҳбари *бобо* бошқарган. Унинг асосий вазифаси устахона соҳиблари ва улар қўлида ишлаётган халфа, шогирдлар ўртасидаги муносабатларни назорат қилишга қаратилган. Бошқа ҳунармандчилик турларида бўлгани каби бобо биринчи навбатда цех аъзолари ва йирик, бой ҳунармандларнинг ҳимоячиси саналган. Бобо ҳунармандлар билан биргаликда касбу кор ҳомийлари шарафига арвоҳи пир маросимини ўтказишган. Маросим кенг тарзда Баҳоуддин Нақшбанд мозорида ўтказилган.

Маълумки, ҳар бир ҳунарнинг қадимдан ўз пири бўлган. Масалан, Нуҳ пайғамбар дурезгарлар, Идрис пайғамбар тикувчилар, Ҳазрати пири Пухта нонвойлар, Ҳазрати Иброҳим (Кабани бунёд этган) гилкорларнинг пири саналади. Мазкур касбнинг хомийси сифатида авлий Шакар Ганжи Вали, шунингдек, девона Бурқи Сармаст Вали тан олинган[2]. Шакар Ганжи Вали ҳар бир гиёҳнинг ширасидан олиб ишни бошлаган. Мазкур ҳунарнинг асосчиси сифатида олтинчи шиа имоми Жафар ас-Сиддиқни ҳам билишган[3]. Бундан ташқари аллома, фозил, зохид ва олим Шайх Нуриддин Хилвати ҳолвапазларнинг маҳаллий пири бўлиб, йилнинг маълум вақтларида унинг мозорида "Арвоҳи пир" маросими ўтказилган. Эътиборли жиҳати, Хилвати мозори жойлашган (ҳозир сақланмаган) Тоқи телпакфурушондан Мағоки Атттори масжидигача ҳолва ва турли ширинликлар растаси ўрин олган. Мазкур ҳудудда ҳолвафурушлик қилиш одати XIX аср охири XX аср бошларигача давом этган[4].

XIII аср бошларида Бухорода кубравийлик тариқатини ёйиш учун келган Хилватий Аллоҳ инъом этган кароматлари ила мўғуллар зулмига қарши курашда халққа ёрдам берган. Шунинг учун авлиё даражасига етган пирни нафақат ҳолвагарлар, балки оҳангарлар, савдо аҳли ҳам ўзига пир билиб, унинг қабрини зиёрат қилиб туришган.

Ҳолвапазлар ҳам ишни бошлаш ёки тугаллашдан олдидан, албатта, ҳолвагарларнинг пири Шакар Ганжи Валий ҳаққи ҳурматига дуо қилишган: *"Бисмиллоҳир рохманир роҳийм. Алҳамдуллилоҳу роббил аълаймийн. Субхоноко таборок ва таолло пиримиз Шакар Ганжи Валининг руҳи, устозларни пири ҳурмати, ҳалвогарларнинг ҳурмати ишимизга ривож бер*". Демак, Аллоҳга шукроналар айтиб, пирлар номи эътироф этиб турилган.

Ҳалвопазли касбини эгаллаган кишидан катта масъулият талаб этилган. Сабаби, ушбу Аллоҳ таоло томонидан назар қилинган ширинликларни тайёрлашда аввало пок (таҳоратли)бўлиб, сўнг яхши ният ва хушфеъллик билан бажаришга киришилади. Чунки, ҳолвапазлар эътиқодига кўра, "агарда ҳолвагарликка бироз ёмон назар қилинса, уста ҳеч вақт касбнинг нонидан барака топмайди". Ҳолва пиширишда ишлатиладиган ҳар бир анжом ва идишнинг ҳалолланганлиги кўздан кечирилади.

[1] Айний С. Эсдаликлар. III қисм. - Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. - Б.173 (240 б)
[2] Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара (конца XIX – начала XX века). – Ташкент: Академии наук Узбекской ССР, 1962. - С.124-126. (– 327 с.)
[3] Ниязова М. К вопросу о технологии производства Бухарских сладостей // Ис истории культурьного наследия Бухары. - Ташкент: Узбекистан, 1990. - С.131. (131-134)
[4] Йўлдошев Н. Бухоро авлиёларининг тарихи. –Бухоро,1997. – Б.124. (- 142 б.)

Ҳолвагарлик ҳунарида шогирдларга қадимий пурҳикмат байтлар орқали насиҳатлар берилган. Шогирдларни тўғри сўзли бўлиш, хира қалб (тож.дил қалб) бўлмаслик, бировни алдамаслик ўргатилган[1]. Бухоро ҳолвапаз усталарнинг шогирдига насиҳатларидан бирида шундай дейилади:

Нони қоқки дар оби даҳанат тар гардат,
Ту агар рости куни хока гири зар гардат
Ҳар чеки дони аз донишат рости шав,
Тўғри гўй, тўғри гўй, тўғри гўй
Ту агар қалби куни аспа гири ҳар гардат
Рўзат сиёҳу, аз рўзат рўзгорат сиёҳ гардат[2].
Таржимаси:
Қотган нон оғзинг сўлагидан хўл бўлсин,
Тўғриликдан тупроқ олсанг зардай зўр бўлсин
Тўғриликни пеша айла билганинг меъёридан,
Тўғриликдан умру йўлинг чап эмас, рост қўл бўлсин.
Қора кўнгил касратидан оқ отинг бўлгай эшак
Гар ғараз эрсанг, қора кунларинг мўл бўлсин.

Ҳолвапазлик устоз-шогирд анъанасида шарқ мумтоз шеърияти, адабиёти, фалсафаси вакиллари меросидан ҳам намуналар келтирилиб, шогирдлар ахлоқ ва одобга чақирилган. Масалан, Жалолиддин Румий мисраларида:

Ҳеч кас дар пеши худ чизе нашуд
Ҳеч як охан ханжари тези нашуд
Ҳеч як мулло нашут мавлойи Рум
Токи шогирди Шамс Табризи нашуд[3].
Таржимаси:
Ҳеч ким Устоз кўрмай бўлмади эл устаси
Ҳатто темир сангдон кўрмай ўткир ханжар бўлмади
Ҳеч бир мулло бўлмади мавлойи Рум
То Шамс Табризига шогирд тушмади.

Сабр-қаноат, матонат, ҳалоллик ва поклик билан ҳолвагарлик ҳунарини эгаллаган шогирдлар уста мақомига етгач, “миёнбандон” (бел боғлаш) маросими ўтказилган. Усто шогирдининг ҳунарни эгаллаб устозода бўлганини халққа маълум қилган. Шогирднинг ота-онаси устозга совға салом, сарпо бериб, маросимга йиғилганларга эҳсон оши тарқатилган. Ҳунармандлар сулоласи ота-бобоси касбига содиқ қолиб, қўл ҳунармандчилиги шаклида ҳолвагарликни давом эттириб келмоқда. Устоз шогирд анъанаси давомийлиги халқимиз моддий маданиятининг муҳим элементларидан бири бўлган ҳолвагарлик ҳунарини сақлаб қолиш, барҳаётлигини таъминлашга хизмат қилмоқда. Ҳунар тарихини чуқурроқ ўрганиб келгуси авлодга етказиш, бой қадриятлар ила тарбиялаш ишига ҳам ҳисса қўшмоқда.

[1] *Дала ёзувлари.* Бухоро вилояти, Бухоро шаҳри, Тагманбофон маҳалласи. 2019 йил январ.
[2] Мазкур мисралар 1930 йилда туғилган, ҳавзи қози калон гузарида яшовчи ҳолвагар Қодир бобо Ҳамроевдан 2019 йилда муаллиф томонидан ёзиб олинган.
[3] Мазкур мисралар 1930 йилда туғилган, ҳавзи қози калон гузарида яшовчи ҳолвагар Қодир бобо Ҳамроевдан 2019 йилда муаллиф томонидан ёзиб олинган.

BUXORODA YENGIL VA OG‘IR SANOATNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Rahmatova Dildora Nizom qizi
Buxoro davlat universiteti magistranti
Ilmiy rahbar:
Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida yengil va og‘ir sanoat tarmoqlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda ularning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati tahlil qilinadi. Qadimiy hunarmandchilik an’analari asosida shakllangan yengil sanoatning Sovet davrida kombinat va fabrikalar ko‘rinishida kengayishi, shuningdek, og‘ir sanoatning neftni qayta ishlash, gaz-kimyo va mashinasozlik tarmoqlari bilan boyib borishi ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yengil sanoat, og‘ir sanoat, to‘qimachilik, neftni qayta ishlash, gaz-kimyo, mashinasozlik, modernizatsiya.

Buxoro o‘zining ming yillik tarixiy-madaniy merosi bilan ajralib turuvchi viloyat hisoblanadi. Nafaqat ilm-fan va madaniyat markazi, balki iqtisodiy hayotning ham yirik markazlaridan biri bo‘lib kelgan. XIX–XX asrlardan boshlab Buxoro iqtisodiy taraqqiyotida sanoatning, xususan yengil va og‘ir sanoat tarmoqlarining shakllanishi muhim rol o‘ynadi.

1945-1950-yillar ikinchi jahon urushi tugaganidan so‘ng, Buxoro viloyatida iqtisodiy hayotni tiklash birinchi ustuvor vazifalardan biri bo‘ldi. Ushbu yillarda mavjud ustaxonalar, to‘qimachilik sexlari va mayda ishlab chiqarish korxonalari qayta ishga tushirildi.[1] Paxta tozalash, yog‘-moy, ipakchilik bilan bog‘liq kichik korxonalar faoliyati bosqichma-bosqich tiklandi. Viloyat iqtisodiyotining asosiy yo‘nalishlari bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, hunarmandchilik an’analarini davom ettirish va ichki ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi yengil sanoat tarmoqlari qayta tiklandi. Bu davrda og‘ir sanoat hali shakllanmagan bo‘lib, asosiy e’tibor energiya, transport va infratuzilma bazasini mustahkamlashga qaratildi. Shu bois 1945-1950-yillar Buxoroda sanoat rivoji uchun zamin yaratgan tayanch bosqich sifatida baholanadi.

1950-1970-yillar yengil sanoatning jadal o‘sishi 1950-yillardan boshlab, Buxoro iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi sifatida yengil sanoat markaziga aylana boshladi. Paxta xomashyosining ko‘pligi viloyatda to‘qimachilik korxonalarini barpo etish uchun qulay imkoniyat yaratdi. Bu davrda Buxoro to‘qimachilik kombinati, ipakchilik korxonalari, charm-poyabzal sexlari,tikuvchilik artellari kabi yengil sanoat obyektlari faoliyati kengaytirildi.[2] Yengil sanoat korxonalari viloyat aholisining bandligini oshirdi, ayniqsa ayollar mehnat bozoriga faol jalb etildi. Sovet ittifoqining ichki bozoriga mo‘ljallangan mato, gazlama, ipak ipi va kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yil sayin ortib bordi.[3]

1960-1980-yillarda og‘ir sanoatning shakllanishi va yuksalishi asosan, 1960-yillardan boshlab Buxoro viloyati neft va gaz resurslariga boy hudud sifatida ittifoqning eng muhim energetik markazlaridan biriga aylandi. Bu jarayon og‘ir sanoatning tez sur’atlarda rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Eng muhim bosqichlari hisoblangan Buxoro neftni qayta ishlash zavodining barpo etilishi va 1970-yillarda foydalanishga topshirilishidir. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi (BNQIZ) viloyatdagi eng yirik og‘ir sanoat obyektiga aylandi. Zavod benzin, dizel yoqilg‘isi, aviakerosin va boshqa neft mahsulotlarini ishlab chiqara boshladi.[4]

Gaz sanoatining rivoji Muborak va G‘ijduvon hududlaridagi gaz konlari negizida gazni qayta ishlash tarmoqlari shakllandi. Buxoro orqali o‘tadigan Buxoro-Ural, Buxoro-Toshkent gaz quvurlari energetik tizimini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Mashinasozlik va mexanika markazlarida qishloq xo‘jaligi texnikalarini ta’mirlash, traktor va boshqa uskunalar

[1] Xamidov Sh.O‘zbekiston SSRda mehnat migratsiyasi va ishchi kuchi siyosati holati (1945–1985 yillar). Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi in-academy.uz/index.php/yo 56-58-betlar.
[2] Utayeva F. X. *Buxoro to`qimachilik sanoatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari. O'tmishga nazar jurnali 72-75 betlar*
[3] Utayeva F. X. (2025). Buxoro viloyati iqtisodini rivojlantirishda yengil sanoatning o‘rni. Икро журнал, 14(02), 44–50-betlar.
[4] Mavlonov A. O`zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (O'quv-uslubiy qo’llanma) Buxoro – 2008. 32-28-b.

uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqaruvchi mexanika ustaxonalari barpo etildi. Bu korxonalar og‘ir sanoatning mahalliy ehtiyojlarini qondirdi.

1980-1991-yillarda “Turg‘unlik va qayta qurish” davrida 1980-yillarning boshidan iqtisodiyotda turg‘unlik belgilari kuchaydi. 1985-yildan boshlab boshlangan “qayta qurish siyosati sanoat korxonalarida boshqaruvni bozor tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqishga qaratildi.[1]

Buxoro viloyatining sanoat rivoji tahlili shuni ko‘rsatadiki, hudud iqtisodiyoti uzoq tarix davomida turli bosqichlardan o‘tgan. 1945-1950-yillarda urushdan keyingi tiklanish davrida viloyatning asosiy vazifasi ishlab chiqarish quvvatlarini qayta ishga tushirish va ichki ehtiyojlarni qondirish bo‘lgan. Shu davr tayanch bosqich sifatida keyingi sanoat rivoji uchun zamin yaratgan. 1950-1970-yillarda yengil sanoatning jadal o‘sishi viloyat aholisining bandligini oshirish, xususan ayollar mehnat bozoriga jalb etishni ta’minlagan. Paxta, ipak va mato ishlab chiqarish hajmlari doimiy ravishda ortib bordi, bu esa Buxoroni yengil sanoat markazlaridan biriga aylantirdi. 1960-1980-yillarda og‘ir sanoat, xususan neftni qayta ishlash, gaz sanoati va mashinasozlik tarmoqlari rivojlanishi hududning energetik va iqtisodiy salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodi va gaz quvurlari energetik tizimida muhim o‘rin egalladi. 1980-1991-yillarda sanoat turg‘unlashuvi va texnologik eskirishi kuzatildi, biroq “Qayta qurish” siyosati viloyat korxonalarida bozor tamoyillarini joriy etishga harakat qildi. Mustaqillik davrida esa sanoat xususiylashtirildi, yangi investitsiyalar jalb qilindi va ishlab chiqarish modernizatsiyasi boshlangan.

Natijada, Buxoro viloyati yengil sanoat, neft-gaz va energetika tarmoqlarida mustahkam pozitsiyaga ega bo‘lib, nafaqat respublika, balki mintaqaviy sanoat markaziga aylandi. Zamonaviy davrda innovatsion texnologiyalar, avtomatlashtirish va ekologik barqarorlikka qaratilgan loyihalar viloyatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, Buxoro viloyatining sanoat rivoji 1945-yildan hozirgi davrgacha bir necha bosqichni bosib o‘tgan. Urushdan keyingi tiklanish davrida hududning ishlab chiqarish quvvatlari qayta ishga tushirildi, yengil sanoatning rivojlanishi esa aholi bandligini oshirdi. 1960-1980-yillarda og‘ir sanoat, xususan neftni qayta ishlash va gaz tarmoqlari hududning energetik salohiyatini mustahkamladi. Mustaqillik davrida sanoat xususiylashtirilib, modernizatsiya va investitsiyalar orqali rivojlandi. Bugungi kunda Buxoro viloyati yengil sanoat, neft-gaz va energetika tarmoqlarida mustahkam xususiyatga ega bo‘lib, innovatsion texnologiyalar va avtomatlashtirishni joriy etish orqali raqobatbardosh va barqaror sanoat markaziga aylangan.

BUXORO ZARDO‘ZLIK FABRIKASI TARIXI

Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti
dotsenti,t.f.f.d.(PhD)
Xolmatov Samandar Shovqiddin o‘g‘li
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Maqolada Buxoro zardo‘zlik fabrikasi tarixi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Yengil sanoat tarmoqlaridan biri bo‘lgan zardo‘zlik san’ati tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. O‘zbekistonda zardo‘zlikning vatani Buxoro hisoblanadi. Xususan, zardo‘zlik sohasida tashkil etilgan hunarmandlik ustoxonasi, artel, sexlar va fabrika faoliyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, zardo‘zlik, artel, to‘qimachilik, ip-gazlama, hamkorlik, fabrika, loyiha, paxta, majburiyat, mutaxassis, ishlab chiqarish.

Kirish. Buxoro zardo‘zlikning asl vatanidir. Asrlar davomida xalq zardo‘zlik san’atini, uning sir-asrorini qadrlab avloddan-avlodga yetkazib kelgan. Hamma hunarlar o‘rtasida zardo‘zlik san’ati yuksak baholangan. Boshqa hunarlar singari zardo‘zlar ham birlashma asosida ishlaganlar. Buxoroda zardo‘zlar guzari bo‘lgan. Bu guzarning nomi guzari Mirdusum. Tarixdan ma’lumki,

[1] Xayrullayev U. . (2025). Buxoro viloyatining iqtisodiy holati (1990-1991 yillar). Modern Science and Research, 4(1), 1018–1024. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/64089

qadimiy Buxoroning guzarlari, aksariyat unda yashovchi aholining kasb-kori nomi bilan atalgan. Zardo‘zlik bilan erkaklar shug’ullanganlar. Hunarmandlar o‘rtasida shunaqa naql bo‘lgan, agar ayolning qo‘li zarga tegsa zar qoralanadi deyishgan. Shunga qaramay ko‘pchilik hunarmandlar o‘zlarining xotin-qizlariga uylarida zardo‘zlik san’atini o‘rgatganlar. Zardo‘z hunarmandlar shogirdlikka faqat o‘g’il bolalarni olishgan. Hunarni o‘rgangan o‘g’il bolalar keyin “usto” nomini olib, hunarmand bo‘lib ishlay boshlagan. Milliy hunarmandchilik rivojlanib borgan.

Tahlil va natijalar. XIX asrda Buxoro zardo‘zlik san’ati yuksak rivojlangan. Zardo‘z hunarmandlar amirlarga va ularning oila a’zolariga zardo‘zidan chopon, etik, salla, belbog’, ayollar ko‘ylagi tikib bergan. 1920-1927-yillar davrida esa zardo‘zlikka talab kamaygan. Sababi, zardo‘zlikda tillarang xom-ashyo ko‘p ishlatilgan bo‘lib, bu xom-ashyoning narxi baland bo‘lgan. Faqatgina keyinchalik zardo‘zlik mehnati o‘z ishini asta-sekin rivojlantirib, kooperativlar shaklida tashkil etilgan. So‘ngra bir qancha sexlardan iborat artel tashkil etilgan. Unda zardo‘zlik sexi ham mavjud bo‘lib u yerda ustozodalardan: Abdurasul Valiyev, Omonjon Majidov, Raxmat Mirzayev, Sayfiddin Mirzayev, Sayfiddin Sa’dullayev, Fayzullo G’aybullayev va boshqalar o‘z ishlarini yosh xotin-qizlarga o‘rgatganlar. Asta-sekin artelda zardo‘z xotin-qizlar ham ish faoliyatini boshladilar. Artelning birinchi xotin-qiz zardo‘zlari B.Ahmedova, P. Hakimova, M.Kenjayeva, M.Mavlonova, M.Qodirovalardir.[1]

Buxoro shahrida Zardo‘zlik arteli 1930-yilgacha yakka tartibda faoliyat yuritgan. 1930-yildan Buxoro Zardo‘zlik arteli uyushgan holda faoliyat yurita boshlagan. 1933-yil 17-avgustida hunarmandchilik ishlab chiqarish artelining “Nizomi” tasdiqlanib, uy sharoitida zardo‘zlik bilan shug’ullangan hunarmandlar nizomga asosan uyushmaga birlashishtirilgan. 1939-yilda Buxoro shahrida Molotov nomidagi badiiy-tikuvchilik arteli tashkil etilgan. Dastlab 67 zardo‘z usta va ishchi kuchidan iborat bu artelda 50 ta yog’och dastgohi hamda 12 ta eskirgan tikuv mashinasi bilan ishni boshlagan. Xalqaro ko‘rgazma va yarmarkalarga sifatli mahsulotlarni tayyorlash maqsadida yuqori malakali 10-15 mutaxassislardan iborat doimiy maxsus brigadalar tuzilgan.[2]
1954-yil 9-yanvar kuni artelning yig’ilishida 85 kishi ishtirok etib, quyidagi masalalar ko‘rilgan ya’ni kooperativ sanoat artelining nizomi muhokama qilinib, Zardo‘zlik sexida ishlab chiqarish jarayonida sifat masalalari tasdiqlangan.[3]

Molotov nomidagi badiiy-tikuvchilik arteli 1957-yil iyun oyida “Oktabrning 40 yilligi” arteliga o‘zgartirilib, Buxoro viloyat ijroiya qo‘mitasi sanoat boshqarmasiga bo‘ysundirilgan. 1960-yil may oyida esa ushbu artel nomi yana o‘zgartirilib, “Oktabrning 40 yilligi” zardo‘zlik fabrikasi deb yuritila boshlagan. 1962-yil noyabr oyidan boshlab “Oktabrning 40 yilligi” zardo‘zlik fabrikasi O‘zbekiston sanoat kengashi tarkibidan chiqarilib, O‘zbekiston Badiiy Maishiy Xizmat Uyushmasi ta’sarrufiga o‘tkazilgan va “Zardo‘zlik fabrikasi” nomi bilan yuritila boshlangan. Fabrika ikki asosiy sexdan iborat bo‘lgan: Zardo‘zlik sexi, tambur tikish sexi, poyabzal sexi, 1-brigada, 2-brigadalardan iborat bo‘lgan.[4]

Zardo‘zlik fabrikasiga 1972-yil korxonaning ixtirochilari ishlab chiqgan 17 ta qimmatli ijodiy ish qilingan. Ularning hammasi ishlab chiqarishga joriy qilinib, 4 ming so`mlik foyda olingan. Texnika nazorat bo`limi boshlig’i Gulchehra Haydarova, Matluba Boqiyeva, mohir zardo‘zlar A.Qo‘ldosheva, N.Sultonov, R.Imomova, M.Temirovalar fabrikaning eng yaxshi ixtirochi ratsinalizatorlari hisoblanganlar. Ular do‘ppi, nimcha, oyoq kiyim va boshqa zardo‘zlik buyumlarining yangi nusxalarini ijod qilib mahsulot turini ko`paytirishga sifatini yaxshilashga katta hissa qo`shganlar.[5]

Mashhur zardo‘z Muyassar Temirova 1941-yil Buxoro viloyatining Buxoro tumanida dunyoga kelgan. Maktabni tamomlagach, Buxoro Zardo‘zlik fabrikasiga ishga kirgan. Muyassar Temirova mehnat faoliyatining dastlabki paytlaridanoq kasb sirlarini puxta egallashga, zardo‘zlik san’atini rivojlantirishga intilgan. U usta maqomiga yetishguncha ko‘p yillar mehnat qilgan. Usta,

[1] A.Norboyev // Buxoro zargarlik san’ati. Iqtisod va Hisobot 1997-yil 7-8-son 62-bet.
[2] Г.Фармонова // Зар тикувчи. Бухоро ҳақиқати 1981-йил 5-май.
[3] Buxoro viloyat davlat arxivi, 1153 - fond, 2 - ro‘yxat, 42 - yig‘ma jild, 5 - varaq.
[4] Buxoro viloyat davlat arxivi, 1221 - fond, 1 - ro‘yxat, 2 - yig‘ma jild, 12 - varaq.
[5] Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). To ‘qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o ‘rni. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), -B 49.

sex boshlig'i va fabrikada bo'lim boshlig'i darajasiga erishgan. Zardo'z M.Ahmedovadan zardo'zlikning sirlarini o'rgangan. 1970-yil an'anaviy zardo'zlik buyumlari (do'ppi, to'n, kavush)ning yangi naqsh mujassamotlarini yaratgan. 1970-yil Yaponiyada bo'lgan ЭКСПО 70 ko'rgazmasida ayollarning zardo'zi libosi majmuini tayyorlab, namoyish etgan. Zardo'zlik matoga, bosh kiyimga, eshik pardalarga zarhal yoki kumush iplar bilan naqsh tushirish bo'lib, katta mehnat va sabr talab qilgan. "Sabrning tagi oltin", deganlari chin ekan. Muyassar Temirovaning sabru saboti va zahmatlari munosib baholangan. O'zbekiston Respublikasi bayrog'i va gerbini zardo'z portretda yuksak mahorat bilan yaratgan. 1978-yil O'zbekiston xalq rassomi unvoni bilan 1995-yil O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining to'rt yilligi munosabati bilan O'zbekiston Qahramoni unvoni bilan taqdirlangan.[1]

Yurtimizda mustaqillik yillarida Zardo'zlik ham asl holiga qayta boshladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslanayotgan vatanimizda sanoat korxonalariga birin-ketin moliyaviy mustallik berila boshlagan. Buxoroda Zardo'zlik fabrikasi hissadorlik jamiyatiga aylantirilgan. Hissadorlik jamiyati jamoasi tomonidan betakror bir-biridan chiroyli butun ko'z nuri, mehri ila tikilgan to'nlar, qizlar xalati, ko'ylagi, do'ppi, tufli, belbog', so'zana, dasturxon, barxitni yangi nusxadagi naqshlar bilan bezatganlar. "Bahor", "Kabutar", "Amir", "Buxoroyi Sharif", "Bahouddin Naqshband", "Alisher Navoiy", "Tovus", "Ka'batullo" kabi ponolar zardo'zlik sana'ti tarixini yoritishda asosiy manba bo'lib hisoblanadi. "Zardo'zlik" hissadorlik jamiyati qoshida 2 ta zardo'zlik va zargarlik buyumlarini sotuvchi do'koni bor. Bunday do'konlar Toshkent, Zarafshon shahrida keyinchalik boshqa viloyatlarda ham ochilgan.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, Buxoro "Zardo'zlik" fabrikasida ishlangan noyob zardo'zlik kiyim-kechaklari vatanimiz tarixini dunyoga taratdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Vatanimizda milliy an'ana tuy hashamlarimiz zardo'z kiyimlarisiz bo'lmaydi. Buxoroda zardo'zlik mahsulotlariga hamisha talab katta. Zardo'zlar esa bu bilan cheksiz g'ururlanishgan. Shunday ekan zardo'zlik sanati yo'qolib ketmaydi.

SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORODA ME'MORCHILIK

Abdullayeva Nargiza Abduhalimovna
mustaqil tadqiqotchi

Аннотация. Данная тема освещает развитие архитектурного искусства в городе Бухара в период правления династии Шайбонидов (XVI век), его особенности и историческое значение. В исследовании анализируются крупные архитектурные комплексы, построенные в этот период, — медресе, мечети, мавзолеи, минареты и караван-сараи. В частности, на примере уникальных памятников, возведённых во время правления Абдуллахана II, таких как медресе Мир Араб, медресе Кош, архитектурный ансамбль Пои-Калян, раскрывается процесс формирования шайбонидской архитектурной школы. В работе рассматриваются композиционная структура архитектурных сооружений, декоративное искусство (ганч, майолика), градостроительные принципы и их роль в развитии архитектуры Средней Азии. Данная тема позволяет глубже осознать культурное наследие эпохи, отражая архитектурное развитие, связанное с политико-экономическим подъёмом Бухары в период Шайбонидов.

Ключевые слова: Абдуллахана II, Шайбонидов. Мир Араб, медресе, Пои-Калян,

Markaziy Osiyo tarixida XVI asr - Shayboniylar sulolasi hukmronligi davri siyosiy barqarorlik, iqtisodiy jonlanish va madaniy taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Ayniqsa Buxoro shahri bu davrda davlatning siyosiy markaziga aylanishi bilan birga, me'moriy bunyodkorlikning yuksalish maydoniga aylangan. Shayboniylar hukmdorlari, xususan, Ubaydullaxon, Abdullaxon II kabi arboblarning homiyligi natijasida shahar qiyofasi yangilangan,

[1] Ўзбекистоннинг маърифатпарвар аёллари I жилд Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси "Фан" нашриёти давлат корхонаси Тошкент 2021. –Б 39.

ko‘plab yodgorliklar barpo etilgan va me’moriy an’analar yangi bosqichga ko‘tarilgan. Ushbu mavzuda Shayboniylar davridagi Buxoro me’morchiligining asosiy xususiyatlari, qurilish uslublari, ulkan majmualar va ularning davr madaniy hayotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Bundan tashqari, mazkur me’moriy obidalar bugungi kunda ham o‘zining tarixiy, badiiy va ma’naviy qiymatini saqlab kelayotgani bois, ularni o‘rganish o‘zbek tarixining muhim bo‘lagini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

Shayboniylar davrida mamlakat poytaxti maqomini olgan Buxoro adabiyot, san’at, me’morchilikning badiiy yuksak namunalari o‘zida mujassam qilgan shaharga aylandi. Hasanxo‘ja Eisoriy, Shayx Jalol, Mushfiqiy, Mavlono Qabuliy Buxoriy, Devona Husomiy, Mavlono Kasiriy Buxoriy va boshqa qator shoirlarning ijodi shu davrda badiiy yuksakllikka erishdi. E’tibolrlisi shundaki, bu davrda ijod qilgan shaxslarda shayxlik xislatlari va qozilik amallari bilan birga nazmga rag‘bat va oshuftalik kuchli edi. Natijada ular tomonidan ko‘plab she’riy misralar, g‘azallar yozilib, Buxoro adabiy muhitining jozibador namunasi sifatida bizgacha etib keldi. Ularning ayrimlari to‘g‘risidagi quyidagi ma’lumotlar diqqatga sazovor.

Shaybonitylar davri Buxoro me’morchiligining badiiy kompozitsion ko‘rinishlari darvozalar, masjid, madrasa va boshqa inshootlar qurilishida o‘z ifodasini topgan. Shayboniylardan Abdullazizxon va Abdullaxon davrida Buxoro atrofi yangi devor bilan o‘rab olindi va darvozalar qurildi. Abdulazizxon barpo ettirgan qal’a devorlarini Abdullaxon g‘arbga tomon kengaytirdi va 11 darvoza barpo etildi1. Ular quyidagicha nomlangan: Samarkand darvozasi, Hazrati Imom darvozasi, O‘g‘lon darvozasi, Talipoch darvozasi, Shergiron darvozasi, Qorako‘l darvozasi, Shayx Jalol darvozasi, Namozgoh darvozasi, Salloxona darvozasi, Qavola (Qarshi) darvozasi, Mozori Sharif darvozasi.

XVI asr Buxoro me’morchiligida asosiy rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha har biri taxminan uch o‘n yillikni qamraydigan uchta qurilish davrini ajratish mumkin.

Birinchi davr - 1500-1530-yillar, ya’ni Buxoroning Temuriylardan keyingi rivojlantirish davrini o‘z ichiga olib, u asosan Ubaydullaxonning bunyodkorlik faoliyati bilan bog‘liq. Unda bir tomondan, Temuriylar davri me’morchiligi ana’nalari hali kuchli bo‘lgan, ikkinchi tomondan, Buxoro me’morchilik maktabining o‘ziga xos mahalliy xususiyatlari shakllangan davr edi. Bu davr binolarining hali ham boy va sermehnat naqsh-qoshinli sopol, yig‘ma mozaika bezatib turadi. Masalan, XVI asr boshlarida qayta qurilgan Masjidi Kalon kirish kismining naqshi, shuningdek, Masjidi Baland va Xo‘ja Zayniddin masjid-xonaqosining ziynati shular jumlasidandir. Bu obidalarda Temuriylar davriga xos “kundal” zarhal naqshlardan ham foydalanilgan1.

1530-1560-yillarni o‘z ichiga oluvchi ikkinchi qurilish davri qisman Ubaydullaxonning hukmronlik davriga to‘g‘ri kelsa-da, lekin asosan uning o‘g‘li Abdulazizxon nomi bilan bog‘liq.

Bu davrda tomni yopish konstruksiyasi va binolarning kompozitsiyaviy usullari takomillashdi. Ikki me’moriy ansambl yaratildi va turli fuqarolik inshootlari bunyod etilib, Buxoro me’morchiligi maktabining shakllanishi davom etdi. Mazkur davrda Buxoro uchun yangi bo‘lgan zil-zilabardosh konstruksiyalar yuz yillar avval o‘tgan davrda-XV asrning uchinchi choragidan boshlab Temuriylar davri me’morchiligida ixtiro qilingan va ildam foydalanilgan bir-birini kesib o‘tuvchi arklar va qalqonsimon qism tobora ko‘proq qo‘llana boradi. Bu usul Buxoroda ilk bor, ehtimolki, birinchi marta XV asrda Turki Jandiy maqbarasida ko‘llangan2.

XVI asrning ikkinchi choragidan boshlab oldingi davrning eng istiqbolli va novatorlik-muhandislik ishlanmalaridan bo‘lmish mazkur konstruksiyalar Buxoro me’morchiligi rivojlanishini izchil davom ettirib, nihoyat XVI asr oxirlaridagina poyoniga etdi.

Ikkinchi qurilish davrida Buxorodagi Mir Arab (1536) madrasasining burchak zallari to‘rtta o‘zaro kesishuvchi ravoqlar tizimi yordamida qoplandi. Biroq, bunda ular hanuz Temuriylar davri me’morchiligiga xos gumbazni ushlab turadigan monumental qism va ikki qavat gumbazga ega edi. Ancha keyingi davr qurilishlarida ulardan voz kechildi va yakka qavat gumbazning cho‘qqisiga, ko‘pincha, ravoqda oynaband tuynuk qo‘yilgan. Bunda ko‘rkam kesishma ravoqlar muhandislik g‘oyasi naqshdan xoli bo‘lib, yukoridan samarali yoritilgan.

Ana sha davrda qurilgan Toqi Sarrofon savdo gumbazi va Bahouddin Naqshband qabri oldidagi xonaqohni kovlash konstruksiyasi gumbaz qobig‘idan bo‘rtib chiqqan va uzoqdan samarali kuzatiladigan to‘rtta kesishuvchi ravoqdan iborat bo‘lgan.

Ikkinchi davrda asosan “qo‘sh” usulida, ya’ni old tomoni bir-biriga qaragan bir o‘qda ro‘baro‘ joylashgan Buxoroning yirik ansambllari vujudga keladi. Bunga Buxoroning Poyi Kalon bosh ansambli fikrimiz dalilidir. Bu erda 1534 yilda ko‘hna yo‘ldan ajralib chiqadigan maydonda Masjidi Kalon ro‘parasida “qo‘sh” usulida Mir Arab madrasasi barpo etildi. XIX-XX asrlar chegarasida janubdan shu maydonga Amir Olimxon madrasasi tutashdi. Uch tomoni obidalar bilan egallangan Poyi Kalon maydoni hozirgacha o‘sha ko‘rinishida saqlanib qolgan.

1535-yilda shahriston janubida hozirda buzilib ketgan G‘oziyon ansambli barpo etilgan. U “qo‘sh” kompozitsiyasi bo‘yicha bir-biriga ro‘ba- ro‘y joylashgan Katta va Kichik G‘oziyon madrasalari va ular o‘rtasida G‘oziyon hovuzidan iborat bo‘lgan. Ana shu ansambldan faqat Katta Madrasa saqlanib qolganki, hozir Mirza Sharif G‘oziyon madrasasi deb yuritiladi.

Uchinchi qurilish davri 1560-1590-yillarni o‘z ichiga olib, u Abdullaxonning kuchli birlashtiruvchilik hokimiyatiga bog‘liq ravishda davlatning barqarorlashuvi tufayli XVI asr qurilishi va me’morchiligida yuksalishning eng yukori cho‘qqisiga to‘g‘ri keladi. Buxoro me’morchilik maktabi faol shakllandi, diniy binolar-masjid, madrasa, xonaqoh, shuningdek, fuqarolik inshootlari: timlar, toqlar, karvonsaroy, hammom, hovuz, sardoba, ko‘prik va hokazolarning tiplari mukammallashdi.

XVI asr boshlarida mo‘l bo‘lgan naqsh, ikkinchi va uchinchi kurilish davrlarida kamroq qo‘llanildi. Bunday naqshinkor qoplamalar endilikda qimmatbaho kiritmalar tarzida asosan binolarning old tomonida, hovli ayvonlarida, ravoqning bezakli tokchalarida to‘plangan. Buxoroda Markaziy Osiyoda ilk bora bino old tomonida ravoq peshayvoni tashqariga qaratib quriladigan bo‘ldi. Masalan, dastlab Ulug‘bek madrasasi old tomoni ravoqli peshayvon sifatida qurildi. Bu usul birinchi marta shahar tashqarisidagi Bahouddin (1545) va Chor Bakr (1560), keyin shahar madrasalari – Ko‘kaldosh, Xiyobon, Bozori Go‘sfand va Muhammadyor Otaliq honaqosida qo‘llanilgan.

Buxorodagi emas, balki, ehtimol, butun Markaziy Osiyoda saqlangan eng ko‘hna mahalla masjidlaridan biri XVI asrga oid Masjidi Balanddir. Odatdagi sinchli mahalla masjidlardan farqli o‘laroq u, istisno tariqasida, baland tosh supada pishiq g‘ishtdan qurilgan, bu hol uning uzoq vaqt yaxshi saqlanishiga imkon bergan.

XVI asr boshlariga oid Xoja Zayniddin masjid-xonaqosi me’morchilik va bezatilish uslubi jihatidan yuqorida ko‘rib o‘tilgan Masjidi Balandga juda o‘xshash. Lekin undan farqi shundaki, bu bino xonaqoh va mahalla masjidi vazifalarini bajarib, ko‘pxonali va gumbazli bo‘lgan. Bino joylanishiga ko‘ra majmuada ichki hovli hujralari ko‘p bo‘lib, hovli o‘rtasida katta hovuz joylashgan. Gumbazli zalning ichki qismi naqshlarga juda boy. Uning paneli XVI asr naqshlarining noyob namunasidir.

Gavkushon ansamblida tilga olingan Buxorodagi ikkinchi Xoja Kalon jome masjidi 1579-1580-yillarda ko‘rib bitkazilgan. To‘g‘ri urchakli bu binoning o‘rtasida hovli bo‘lib, atrofi ustun-gumbazli galereyalar bilan egallangan. Asosiy kiraverishni bezagan peshtoq ro‘parasidagi hovlining g‘arb tomonida masjidning peshayvonli va gumbazli qishki zali “maqsura” joylashgan.

Buxoro me’morchilik maktabi Abdullaxon madrasasida (1589-1590 yy.) yaqqol namoyon bo‘lgan, unda barcha sanab o‘tilgan mintaqaviy xycusiyatlar majmuasi o‘z aksini topgan. Buning ustiga ana shu to‘rt ayvonli Madrasa ikkita o‘ziga xos usul bilan boyitilgan. Birinchidan, masjidning burchak zali uning mehrobi g‘arbga, ya’ni Makkaga aniq yo‘naltirilishi uchun reja tarxiga nisbatan diagonal holatda joylashtirilgan. Ikkinchidan, hovli peshayvoni ortida, ya’ni hovlining ancha ichkarisida binoning bosh o‘qida sakkiz qirrali mo‘‘jazgina hovli barpo etildi.

Xulosa qilib aytish mumki Shayboniylar davrida Buxoroda amalga oshirilgan me’moriy bunyodkorlik Markaziy Osiyo tarixida muhim iz qoldirgan. Bu davr me’morchiligi ulkan hajm, puxta rejalashtirish, nafis koshinkorlik va o‘ziga xos bezak san’ati bilan ajralib turadi. Mir Arab madrasasi, Kosh madrasalari, Poy-i Kalon majmuasi va boshqa inshootlar nafaqat diniy yoki ma’muriy markaz sifatida, balki o‘z zamonasining ilm-ma’rifat va madaniyat o‘choqlariga

aylangan. Me’moriy yodgorliklar shaharsozlik madaniyatining yuksak darajada bo‘lganidan dalolat beradi. Umuman olganda, Shayboniylar davri me’morchiligi o‘zbek xalqining milliy madaniy merosi, estetik qarashlari va san’atning tarixiy taraqqiyotini yorituvchi bebaho manba bo‘lib, uni o‘rganish kelajak avlod uchun katta ilmiy va ma’naviy ahamiyat kasb etadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Хофиз Таниш Бухорий. Абдулланома.биринчи китоб /форс тилидан С.Мирзоев таржимаси, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Б. Ахмедов. –Тошкент: Шарқ, 1999. –Б. 60.
2. Бухоро шарқ дурдонаси / Муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.53-55.
3. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки). -Ташкент: Изд-во академии наук Узбекской ССР. 1958. 20-36.
4. О.Сухарева. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). – Москва: Наука, ГРВЛ. 1976. – С.98.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. -Том-2. -Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2000. –Б. 256.
6. Halim To‘raev. Buxoro tarixi. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020. – B. 320-321.

БУХОРО ХАЛҚАРО ЗАРДЎЗЛИК ВА ЗАРГАРЛИК ФЕСТИВАЛИ ВА ҲУНАРМАНДЧИЛИК АНЪАНАЛАРИ.

Дилдора Норова,
Маданиятшунослик ва номоддий маданий
Мерос илмий-тадқиқот институти
мустақил изланувчиси (PhD)

Аннотация: Мақолада Бухорода анъанавий равшида ўтказиб келинадиган зардўзлик ва заргарлик фестивалининг қадимий ҳунарларнинг сақлаб қолиш, илмий ўрганиш, тарғиб этиш ва келгусида авлодга етказишдаги ўрни, Бухоро миллий туризм бредини тарғиб этишдаги ўрни каби масалалар илмий таҳил этилган.

Калит сўзлар: зар, зардўзлик, анъанавий ҳунармандчилик, халқ санъати шаҳри, халқаро фестивал

Бухоро тарихига назар ташлайдиган бўлсак, ҳудудда ҳунармандчиликни ривожлантириш, айниқса, зардўзлик санъатини сақлаб қолиш, кенг тараққий эттиришга алоҳида эътибор қаратилган. Шахсан Бухоро амирларининг ўзи халқ сайллари, ҳунармандлар ярмаркалари, зардўзлар павилонларини ташкил этиб, турли мусобоқалар, амалий санъат маҳсулотлари савдосини ташкил этган. Амир Музаффархон (1860-1885) ҳукмронлиги йилларида турли сайлларни ўтказиш билан мамлакатнинг иқтисодий аҳволи ва хорижий мамлакатлар билан алоқасини яхшилашга ҳаракат қилди. Шербудин саройида анъанавий равишда ташкил этиладиган сайлда 500 тача чодир қад кўтарган. Бу жараён Бухоро шаҳридаги ўзига хос ярмарка эди. Аммо, унинг ўғли Абдулахадхон даврида 70 кунгача давом этадиган сайллар 15 кунгача қисқартирилади[1]. Ушбу сайллар Наврўз байрами арафасида Ширбудун мавзеида бўлиб ўтган. Амир Музаффар бу ерда дастлаб боғ қурдиради. Сайллар ушбу боғнинг икки ён томонида узун савдо расталарида бўлиб ўтган.
Мамлакатимизда халқ амалий санъатининг зардўзлик ва заргарлик анъаналарини ривожлантириш, уларнинг ноёб намуналарини тарғиб этиш, шунингдек, ушбу йўналишларда ўзаро тажриба алмашиш орқали халқлар ўртасида дўстлик ва ҳамкорлик ришталарини янада мустаҳкамлаш, маданий-гуманитар алоқаларни кучайтириш, авлоддан-авлодга ўтиб келаётган касбий анъаналар ва ҳунармандчилик мактабларини сақлаш ва қайта тиклаш ҳамда минтақанинг туризм салоҳиятини янада оширишга катта эътибор қаратилмоқда. Шу мақсадда 2021 йилнинг 29 апрелида Ўзбекистон Республикаси

[1] Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Бухарские записки. - Т.:1982 .– С.64

Президентининг “Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказиш тўғрисида”ги ПҚ-5098 сонли қарори қабул қилинади[1].

Қарорга мувофиқ 2022 йилдан бошлаб ҳар икки йилда май ойида Бухоро шаҳрида Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказиш белгиланади. Фестивалнинг асосий вазифалари сифатида ҳудудларда зардўзлик ва заргарликни жадал ривожлантириш, илғор тажрибаларни оммалаштириш, ёшларга ўргатиш, зардўзлик ва заргарлик намуналарини миллий бренд сифатида халқаро миқёсга олиб чиқиш, халқимизнинг миллий маданияти анъаналарини намойиш этиш орқали сайёҳларни жалб қилиш, фестивални жаҳон миқёсида кенг танитиш ва тарғибот-ташвиқот ишларини олиб бориш, зардўзлик ва заргарлик намуналарининг кенг тақдимоти, ҳар бир ҳудуднинг тарихи, ҳаёт тарзи, ҳунармандчилик мактаби анъаналарини акс эттирувчи ҳунармандлар шаҳарчалари макетлари, уй-рўзғор буюмлари, ҳунарманд-дизайнерлар яратган маҳсулотлар кўргазмаларини ўтказиш, халқ сайиллари, фольклор ва дорбозлик жамоалари, аскиячи ва қизиқчиларнинг театрлашган томошалари, санъат вакилларининг концерт дастурларини ҳамда уста-ҳунармандлар томонидан маҳорат дарслари, рассомлар хиёбони, экскурсия маршрутларини ташкил этиш ва бошқалар белгиланади.

Президент қарорида Бухоро шаҳрини ЮНЕСКОнинг Ижодкор шаҳарлар тармоғига киритиш бўйича ҳужжатлар тўплами тайёрланиши белгиланди. 2023 йилда 55 та янги шаҳар қаторида Бухоро ҳам “Bukhara – Crafts and Folk Art” (ҳунар ва халқ санъати шаҳри) деб эътироф этилди. Янги шаҳарлар маданият ва ижодкорликни қамраб олишга бўлган қатъий содиқликлари ҳамда одамларга йўналтирилган шаҳарсозликнинг инновацион усулларини намойиш этиши учун тан олинган. Сўнгги қўшимчалар билан тармоқ ҳозир юздан ортиқ мамлакатнинг 350 та шаҳрини қамраб олган. Улар етти ижодий соҳани ифодалайди. Яъни ҳунармандчилик ва халқ амалий санъати, дизайн, кино, гастрономия, адабиёт, медиа санъат ва мусиқа[2].

Президент қарори ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамасининг “Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказишнинг ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида” қарори қабул қилинган бўлиб, унда фестивал доирасида 12 та номинация («Энг яхши зардўзлик корхонаси», «Энг яхши заргарлик корхонаси», «Энг яхши зардўз», «Энг яхши заргар», «Энг яхши зардўзлик мактаби устаси», «Энг яхши заргарлик мактаби устаси», «Зардўзлик бўйича қадимий сулола давомчиси», «Заргарлик бўйича қадимий сулола давомчиси», «Қадимий анъаналарни қайта тиклаган зардўз», «Қадимий анъаналарни қайта тиклаган заргар», «Энг ёш маҳоратли зардўз», «Энг ёш маҳоратли заргар») бўйича ғолибларни аниқлаш ва тақдирлаш назарда тутилган[3].

Фестивал Низоми ҳам тасдиқланган бўлиб, унда миллий ҳунармандчиликнинг зардўзлик ва заргарлик йўналишида фаолият юритиб келаётган якка тартибдаги тадбиркорларни ҳамда заргарлик тармоғидаги янги «миллий бренд» ташкилотларининг соҳа ривожига ҳисса қўшган тажрибали вакилларини, истеъдодли ҳунармандларни аниқлаш, уларни маънавий ҳамда моддий рағбатлантириш, ҳудудларда зардўзлик ва заргарликни (миллий брендларни) жадал ривожлантиришни рағбатлантирувчи муҳит яратиш, республикада зардўзлик ва заргарлик тармоғини ривожлантириш билан мазкур касб-ҳунар турларини «устоз-шогирд» анъаналари ҳамда малака ошириш курслари орқали ёшларга ўргатиш ва янги иш ўринларини яратиш, ўзбек халқ миллий маданияти анъаналарини намойиш этиш орқали сайёҳларни жалб қилиш, зардўзлик ва заргарлик санъатининг ноёб ва йўқолиб бораётган намуналарини ҳозирги замон талабидан келиб чиқиб янги андозада уйғунлаштириш ва қайта тиклашга алоҳида эътибор қаратилган[4].

---

[1] Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори. 29.04.2021 йилдаги ПҚ-5098-сон // www.lex.uz.

[2] Комилов З. Бухоро ЮНЕСКОнинг ижодий шаҳарлар тармоғига қўшилди // www.UzA.uz. 2023 йил, 2 ноябр.

[3] Халқаро зардўзлик ва заргарлик фестивалини ўтказишнинг ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 08.10.2021 йил. 629-сон // **www.lex.uz.**

[4] **https://lex.uz/docs/5672194?ONDATE=03.03.2025%2000**

Фестиваль доирасида доимий равишда Бухоро шаҳридаги «Лаби ҳовуз» ансамбли майдонидан «Арк» қўрғони ҳудудигача бўлган ён-атрофда зардўзлик ва заргарлик санъатига оид турли кўргазмалар, ҳунармандчилик буюмлари, тасвирий ва амалий санъат асарлари, қадимий зардўзлик ҳамда заргарлик дастгоҳлари ва маҳсулотларини яратиш жараёнлари, ҳунармандчиликка оид бадиий, ҳужжатли фильмлар, китоблар, альбомлар, фотосуратлар намойиши, уларнинг сотуви ташкил этиб келинмоқда. Бундай шарқона колорит сайёҳларга Бухорони ўзгача кашф қилиш, халқнинг анъанавий моддий маданиятини англаш, ҳис этиш имконини бермоқда. Шунингдек, фестивал ҳунармандчилик анъаналарини сақлаб қолиш, халқаро миқёсида тарғиб этиш, бу орқали ҳудудда этнотуризм ривожлантиришга хизмат қилмоқда.

SO‘G‘D NUMIZMATIKASI BO‘YICHA BUXORO DAVLAT MUZEYI FONDIDAN MATERIALLAR

Xalikova Nargiza Erkinovna
BuxDU 1 kurs tayanch doktoranti,
Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi ilmiy xodimi

Anotatsiya: Maqola Buxoro davlat muzey fondidagi so'g'diy tangalari to'plamini tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda to'plam tarkibining tavsifi keltirilgan, tangalarning tipologik mansubligi va sanasi ko'rsatilgan. Materiallarning tarixiy-madaniy ahamiyati va ularning savdo-iqtisodiy aloqalarni tiklashdagi roli ko'rib chiqilgan.

Kalit so`zlar: So'g'd tangalari, So'g'd, Buxoro davlat muzeyi, numizmatika, muzey fondi, Buxoro vohasi, tangalar zarb qilish

Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi o`z tarixini 1922 yil 8 noyabrdan boshlagan.[1] 1945 yildan boshlab muzey Buxoro amirlarining sobiq qarorgohi – Ark qal`asida joylashgan. 1985 yilda muzeyga badiiy-me`morchilik muzey-qo`riqxonasi maqomi berilgan.[2] Muzey-qo'riqxona zaxiralarida Buxoro vohasi xalqlarining 2500 yildan ortiq tarixidagi moddiy va ma'naviy madaniyati yodgorliklari saqlanadi. Muzey tashkil etilganidan - XX asrning 20-yillaridan boshlab muzey kolleksiyalarini yig'ish turli xil qadimiy buyumlar va mahalliy hunarmandlarning buyumlarini muassasalar, jamiyatlar va jismoniy shaxslar tomonidan topshirish bilan boshlangan bo`lsa, XX asrning 50-yillaridan boshlab muzey ilmiy xodimlarining Buxoro viloyatining turli tumanlarida, shuningdek Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlarida va Turkmaniston hududida o`tkazilgan eksponatlar yig'ish ekspeditsiyalari, arxeologik qazishma ishlari tufayli to`ldirib borilgan. Muzey-qo`riqxona fondida Buxoro vohasining 5 ming yillik tarixini aks ettiruvchi moddiy yodgorliklar mavjud. Bugungi kunda muzeyning eng katta kolleksiyasini tangashunoslik (numizmatika) kolleksiyasi tashkil etib, muzeyning ushbu fondida 45 mingdan ortiq turli davr tangalari mavjud. Bu yerda miloddan avvalgi III asrdagi yunon – Baqtriya tangalari to'plamlari, ilk o`rta asrlar, buxorxudotlar tangalari xazinasi, musulmon davri pul belgilari, o`rta asrlar tangalari, xonlik va amirlik davri tangalari mavjud. Tangashunoslik kolleksiyasi materiallari o`lka tarixini o`rganishda muhim moddiy manbalardan biri bo`lib hisoblanadi. Shu o`rinda muzey fondida saqlanayotgan so`g`d tangalariga alohida to`xtalib o`tmoqchiman. Buxoro davlat muzeyi mintaqadagi So'g'd tangalarining eng nufuzli kolleksiyalaridan biriga ega.

Muzey fondida to`rt mingdan ortiq so`g`d davriga oid tangalar mavjud bo`lib[3], tangalar VII-VIII asrga oid. Tangalarning asosiy qismi 2013- yilda topshirilgan bo`lib, 20.09.2013 y. sanasida tuzilgan №13-akt hujjatiga ko`ra O`zbekiston Respublikasi ilmiy akademiyasi arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimlari, Buxoro vohasi hududida o`tkazilgan qo'shma arxeologik ekspeditsiya (o'zbek - rus) rahbarlari J. Mirzaxmedov va A. To'rayev tomonidan muzey-qo`riqxona fondiga topshirilgan.[4] So`g`d tangalari qadim Poykend shaharchasidagi

[1] Buxoroda birinchi muzeyning ochilish marosimi. // Buxoro axbori 112-son. 1922 yil 23 noyabr.
[2] Альмеев Р.В. Бухара город-музей. –Ташкент: Фан, 1999. –С.17.
[3] Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi asosiy fond kirim (KП) kitoblari. 50-51.
[4] Buxoro davlat muzey-qo`riqxonasi asosiy fond kirim (KП) kitoblari. 51.

Shaxriston I hududida o`tkazilgan 2013-yildagi qazishma ishlari paytida topilgan. Tangalar bronzadan ishlangan bo`lib, diametri 1,6 sm.dan 2.sm.gacha. So`g`d tangalari Kushonlar davrida misdan zarb qilingan bo`lsa keyinchalik bronzadan ishlangan. Milodiy VII asr boshlarigacha zarb qilingan So`g`d tangalari turli tipga mansub bo`lib ayrim qadimiylarida O`rtayer dengizi antik dunyosi va qadim Eron bilan bo`gliqlik jihatlari mavjud. Bu tip shahar tangalarining yuz (avers) qismlarida asosan xudolarning, ehtimol kohinlarning ham yuz (fasad) tasvirlari, g`azablangan hayvonlar va hukmdorlarning bosh qismlari tasvirlangan. Ushbu tip tangalar buzilishlar bilan nafaqat arablar bosqinigacha balki undan keyin ham mavjud bo`lgan. VIII asr boshlarida zarb qilingan so`g`d tangalarida arab yozuvlari ham paydo bo`la boshlaydi[1]. Shaxriston Idan topilgan tangalarning katta qismining aversida: tanga doirasining chet qismi yirik nuqtalardan iborat doirani tashkil qilib, doira markazida chap tomonga yurayotgan ikki o`rkachli kalta oyoqli tuyaning tasviri; orqa tomonida esa nuqtalardan iborat halqa ichida ikki bosqichli qurbongohning tasviri tushirilgan.





Muzey fondining yana boshqa tip tangalarining old tomonida noma'lum hukmdorning tasviri (milodiy VII-VIII asrlar)tushirilgan, nuqtalardan iborat halqa markazida – bir qulog`iga sirg'a taqqan, toj kiygan va o`ng tomonga qarab turgan shoh tasviri bo`lib, tasvir tanganing to'rtdan uch qismini tashkil qiladi.; tanganing orqa (revers) tomonida: nuqtalardan iborat halqa markazida chapga qarab yurayotgan ot tasviri tushirilgan.

Tangalarda asosan bir o`rkachli, ikki o`rkachli tuya, ot kabi turli totem hayvonlar tasvirlari tushirilgan.

So'g'd numizmatikasini o'rganish ilk va rivojlangan o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixini o'rganishda muhim o'rin tutib, Sog'd tangalari mintaqaning iqtisodiy aloqalari, savdo yo'llari, siyosiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi qimmatli tarixiy manbadir. Ayniqsa, muzey numizmatik kolleksiyalari alohida ahamiyatga ega, chunki ular tasodifiy topilmalarni ham, arxeologik qazishma materiallarini ham saqlab, mahalliy tanga an'analarining shakllanishini va ularning qo'shni madaniy markazlar bilan o'zaro bog'liqligini kuzatishga imkon beradi.

SOVETLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT

Zaripova Sarvinoz Xusen qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: zaripovasarvinoz211@gmail.com
Tel: +998949939310

Annotatsiya. Ushbu maqolada sovet hokimiyati o‘rnatilgach (1920-yillar boshidan boshlab), Buxoro hayotida tub ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, sovet davrida Buxoroda madaniy jihatdan o‘zgarishlarni boshdan kechirganligi, Buxoroda teatr, kino va muzeylar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi, 1930–1950 yillarda Buxoro san’at maktabi, xalq hunarmandchiligi, xususan, zargarlik, gilamdo‘zlik va ipakchilik rivoj topgan. Milliy madaniyat sovet mafkurasi bilan uyg‘unlashtirilib, “sotsialistik realizm” uslubida namoyon bo‘lgan. Bu davr bir tomondan xalqni

[1] О.И. Смирнова Сводный каталог согдийских монет. М.,1981 С.312-335, Нумизматика Узбекистана, Т., 1990 г., стр. 5.

savodli, zamonaviy kasb-hunarli qilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan diniy va milliy qadriyatlarning siqib chiqarilishiga ham sabab bo‘lganligi va boshqa masalalar ilmiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, Ismoil Somoniy, Abduraxmon Vali, Xoja Ali Rometaniy, Vyatkin, N.Vendelin, V.Baranova, O.Frelix, O.Tretyakova, G.Levkoev, X.Roxatova, R.Saidalieva, Buxoro axbori, Ozod Buxoro.

Sovetlar davrida Buxoroda madaniy hayot to‘xtab qolmadi. Qadimiy Buxoroda san’atning rivojlanishiga katta e’tibor berildi. Ayniqsa Buxoro kinosining yaratilishi katta voqea bo‘ldi. 1924-yil O‘rta Osiyodagi 1-kino tashkiloti, BXSR bilan Leningrad “Sevzapkino” tashkiloti o‘rtasidagi shartnoma asosida shu yilning 21-aprelida tashkil qilindi. Bu tashkilot badiiy-tashviqiy, ijtimoiy-xronikal filmlar ishlab chiqarish, ularni ijaraga olish, sotib olish, kinoteatrlar qurish va ishlatish kabi masalalar bilan shug‘ullangan.

Abduraxmon Vali maqbarasi 1950-1986 yillarda o‘rganilgan va ta’mirlangan. Xoja Ali Rometaniy maqbarasi yonida ikkita qabr bo‘lib har uchala qabr ustida 20-asrning 80-yillarida maqbara quriladi. Sovet hokimiyati tomonidan Buxorodagi hovuzlarning aksariyati quritilib, o‘rniga binolar qurildi. Sovet hokimiyati davrida juda ko‘plab tarixiy yodgorliklar abgor ahvolga kelib qoldi. Faqatgina mustaqillik yillariga kelib tarihiy yodgorlilar tiklandi va ta’mirlandi. Ismoil Somoniy maqbarasi gumbazi 1925-yilda ta’mir etilgan. V.Vyatkin boshchiligida arxeologik tekshiruvlar olib borilgan (1927). Bino uni ko‘mib yuborgan zax tuproqdan tozalanib Usta Shirin Murodov va B.Zasipkin boshchiligida ta’mirlangan.

1925-yilda rus va Buxoro kinomotografiyasi “Sevzapkino” bilan hamkorlikda Buxoroda suratga olingan “O‘lim minorasi” kinosi ekranlarga chiqarilgan. Bu film Buxoro dehqonlarining amir tuzimiga qarshi kurashi xaqida bo‘lib dunyoning ko‘plab mamlakatlarida namoyish etilgan. Film rejissyori mashhur kinorejissyor V.Viskovskiy edi. Buxkino o‘z faoliyati davomida respublikada bo‘layotgan muhim voqealarni aks ettiruvchi “Buxoro madaniy qurilish yo‘lida”, “O‘rta Osiyo bo‘ylab”, “Moskvada Buxoro ma’rifat uyi”, “Butun Buxoro qurultoyi” kabi hujjatli-xronika, “Musulmon qiz” (D.Bassaligo) kabi to‘lametrajli badiiy filmlar chiqardi. Badiiy filmlari ancha bo‘sh bo‘lsada, tushunarli va soddaligi bilan ajralib turadi. Rollarni asosan chetdan taklif etilgan aktyorlar (N.Vendelin, V.Baranova, O.Frelix, O.Tretyakova, G.Levkoev, X.Roxatova, R.Saidalieva va boshqalarijro etdi). 1940-yilga kelib Buxoro viloyatida 36 ta kino oladigan apparatlar bor edi.

1925-yilda Buxkino (“Turkiston davlat kino tashkiloti”) bilan birlashtirilib, O‘zbek davlat kino tashkiloti tashkil etildi. BXSR hukumati o‘zining qisqa tarixiy davrida ma’naviy madaniyatning eng nafis sohalaridan biri bo‘lgan teatr san’atini takomiliga ichki muammolarning ko‘pligiga qaramay mumkin qadar e’tibor karatdi. O‘z vaqtida respublikaning o‘zbek tilidagi yakka-yu yagona matbuot organi bo‘lgan “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” (1923-yil oxirida) sahifalarida teatr sanati sohasidagi kamchilik va foydalanilmagan imkoniyatlarni keskin tanqid ostiga oluvchi maqolalar e’lon kilindi.

Buxoroda teatr va sahna ishlari “Sirli”, “So‘nggi so‘zim”, “O‘rtoq Qilichzodaga javob”, “Cho‘lpon”, “Sahna”, “Abu Varaja” “Sahnamiz bolalar uyni bo‘lmasin”, “Rafiq” “Tomoshaxonalarimiz ahvoli” (Said Ahroriy) kabi kamchiliklardan voqif bo‘lamiz. Sadriddin Ayniy nomidagi davlat musiqali drama va komediya teatri-to‘ng‘ich o‘zbek professional teatrlaridan. 1921-yil F.Xo‘jaev tashabbusi bilan havaskorlar guruhi asosida tashkil qilinib, 1922-yil “Tuhmatchilar jazosi” (Hamza) spektakli bilan ochilgan. Ikkinchi spektakli “Turkiston tabibi” (M.Uyg‘ur, 1923). Tashkilotchisi va badiiy rahbari – Mannon Uyg‘ur, H.Latipov, L.Nazrullaev, N.Rahmonov, L.Latipov, S.Habibullaev, N.G‘aniev va boshqalar teatrning ilk ijodkorlari bo‘lib, teatr taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdilar.

1924-yilda teatrning bir guruh aktyorlari Moskvadagi o‘zbek drama studiyasiga o‘qishga yuborildi. 1930-yilning oxirigacha kichik pesa va konsert dasturlari bilan kifoyalandi. Drama studiyasini tugatgan aktyorlar (B.Xo‘jaev, S.Abdullaev, A.Olimova, B.Jamolov, M.Musaev va boshqalar.) qaytgach teatr tom ma’noda professional teatr maqomiga ega bo‘ldi. Ular sahnalashtirgan “Isyon” (D.Furmanov va S.Polivanov), “Zo‘raki tabib” (J.Moler), “Qon va suv” (L.Sayfullina) spektakllari teatrning professionallik darajasini yanada mustahkamladi. 1931- yil

Ya.Bobojonov badiiy rahbar, Sh.Shorahimov esa bosh rassom etib tayinlandilar. 30-yillarning o‘rtalari teatr ijodiy faoliyatida burilish davri bo‘ldi. Realizm uslubini chuqur egallash, erishilgan ijodiy muvaffaqiyatlarni mustahkamlash borasida jiddiy ish olib borildi. Shu ijodiy jarayon davomida o‘zbek dramaturgiyasi, rus va chet el mumtozasarlari aktyorlarning ijro mahoratini oshishida, teatr jamoasining o‘z ijodiy yo‘nalishiga ega bo‘lishida muhim rol o‘ynadi.

1936-yildan teatr “musiqali drama teatri”ga aylantirildi. Shu yillari teatr jamoasi A.Xo‘jaeva, S.Yarashev, A.Oxunov, N.Ne’matova, A.Atoev, Z.Solieva kabi ijodkorlar bilan boyidi. Urush yillari o‘zbek xalqining mardonavor kurashi aks ettirilgan asarlar sahnalashtirilgan bo‘lsa, tinch qurilish davrida repertuar mavzu jihatdan boyidi. Asosiy e’tibor davrning dolzarb muammolariga qaratildi, xalqimizning fidokorona mehnati, ahloqiy va ma’naviy go‘zalligi, tinchlik, insonparvarlik g‘oyalariga intilish spektakllarda o‘z ifodasini topdi. “Layli va Majnun” (Xurshid, T.Sodiqov, R.Glier musiqasi), “Ravshan va Zulxumor” (K.Yshin, T.Sodiqov musiqasi), “Qurbon Umarov” (S.Abdulla, Chustiy, T.Jalilov musiqasi), “Oltinko‘l” (Uyg‘un, M.Leviev musiqasi), “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar” (A.Qahhor), “Yurak sirlari” (B.Rahmonov), “Oftobxon” (K.Yashin, X.To‘xtasinov musiqasi), “Boy ila xizmatchi” (Hamza), “Alisher Navoiy” (Uyg‘un, I.Sulton), “Iymon” (I.Sulton) va boshqa spektakllar sahnalashtirildi.

1958-yil teatrga Sadriddin Ayniy nomi berildi. 60-70 yillar teatrning mustaqil repertuar yaratish borasidagi ijodiy izlanishlari o‘z samarasini berdi va teatr o‘z ijodiy cho‘qqisiga ko‘tarildi. Sahnada realistik ijro asoslarini o‘rnatishda, ijrochilik san’atini yuksak professional darajaga ko‘tarishda M.Musaev, B.Jamolov, A.Akobirov, R.Botirov kabi rejissyorlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Buxoroning o‘tmishi mavzuida spektakllar sahnaga qo‘yildi. Shuningdek, ayrim kishilar ongi va xulq-atvoridagi illatlarni fosh etish, shu yul bilan jamiyatga munosib fazilatli kishilarni tarbiyalash teatr repertuarining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Bir qator musiqali drama va komediya asarlari sahnalashtirilib, o‘zining ijodiy dadilligini, ijtimoiy psixologik asarlar yaratishga qodirligini ko‘rsatdi. Teatr sahnasida namoyish qilingan bir kator pesalarda milliy, ahloqiy madaniyatimiz mezonlariga to‘g‘ri kelmaydigan jihatlar, aktyorlarning ortiqcha, bachkana xatti-harakatlari tanqid qilindi.

“Revizor”, “Uylanish” (N.Gogol), “Hamlet” (U.Shekspir), “Xushchaqchaq gadolar” (K.Gotssi), “Mirza Izzat Hindistonda” (B.Gargi; M.Ashrafiy musiqasi), “Gulisiyoh” (S.Jamol; D.Soatqulov musiqasi), “Qalamqoshligim” (M.Karimov; S.Jalil musiqasi), “Zebizebona” (T.Tula; I.Akbarov), “Laqma” (Uyg‘un; S.Jalil musiqasi) va boshqalar shular jumlasidan. 1980-ylardan boshlab yuksak saviyali, badiiypishiq va g‘oyaviy mukammal spektakllar (“O‘z arizasiga ko‘ra2, “Abulfayzxon”, “Bir kam dunyo”, “Janoza o‘qilmasin”, “Ibn Sino” va boshqa) sahnalashtirildi.
90-yilarlardan teatrga yangi kuchlar (M.Sodiqova, S.Zohidova, B.Boltaev, F.Abdullaev va b.) kelib qo‘shildi va o‘zlari bilan teatrga yangi hayot nafasini olib kirdilar. “Urush” (Sh.Nurmatov), “Yuragimni sotaman”, “Sohibqiron Temur” (S.Sirojiddinov), “Chimildiq” (E.Xushvaqtov), “Tentak farishtalar” (Sh.Boshbekov), “Davlat bolalari” (R.Muxammadjonov), “Haqrost” (Y.Muqimov) kabi spektakllar bilan teatr o‘z mavqeini tikladi. Teatrda H.Naimov, N.Ne’matova, A.Fayziev kabi O‘zbekiston xalq artistlari turli yillarda ijod qilganlar. Teatrning etakchi aktyorlari: Z.Karimov, A.Mavlonov, N.Mo‘minova, B.Baqoev, R.Ergashev, S.G‘ulomova, Sh.Yo‘lliev va boshqalar va Bosh rejissyor Ubaydulla Baqoev kabi aktyorlar etakchilik qildilar. Buxoro drama, musiqa va bolalar teatri 30-yillarda tashkil topgan bo‘lib, Buxoroda yangi sahna sanatini boshlab berdi. Teatr va kino bilan birgalikda Buxoro matbuoti ham rivojlanib bordi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda “Buxoronoma” shaklan va mazmunan tubdan o‘zgarib, Buxoro viloyati hayotini har vaqtdagidan yaxshiroq yoritishga harakat qilmoqda. 1938-yildan chiqqan “Buxoro haqiqati” gazetasi shahar aholisi orasida nafaqat bilimlarni balki totalitar rejim mafkurasini ham tarqatdi. Buxoro aholisini madaniy rivojlanishida muayyan yutuqlarga erishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Муминов Х. Музаффаров А. Бухарская область. Тошкент: Ўзбекистон,1976. –С. 54-55.

2. Ражабов Қ. Иноятов С. Бухоро тарихи. –Тошкент: Tafakkur, 2016. -Б.190- 218.
3. Бухоро шарқ дурдонаси /муаллифлар жамоаси. –Тошкент: Шарқ, 1997. –Б.81.
4. Рашидов У. Бухоро Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлар тарихидан. – Бухоро: Бухоро, 2013. –Б.105.
5. Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. 1-китоб. – Т.: Lesson Press, 2016. – Б.263-268.
6. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб.- Т.: Шарқ, 2000. –Б.251.

BUXORO VILOYATIDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Bo‘stonova Zilola Bo‘ston qizi.
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
zilolabostonova@gmail.com

Annotatsiya: Kichik ilmiy tadqiqotda O‘zbekistonda, xususan, Buxoro viloyati misolida tarixiy- madaniy turizmning ahamiyati, o‘ziga xos xususiyatlari, uni rivojlantirishga oid qarashlar ifoda etilgan.

Kalit so’zlar: turizm, tarixiy-madaniy turizm, madaniy aloqalar, turistik infratuzilma, madaniy meros, tarixiy markaz, muzey.

Kirish. Etimologik nuqtayi nazardan “turizm” fransuzcha so‘z bo‘lib, “tourisme” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yurish, sayohat degan ma’noni anglatadi. Turizmning tor va kengroq ma’nodagi ta’riflari: birinchidan, bu sayohat, ikkinchidan, yashash va ish joyini o‘zgartirish bilan bog‘liq bo‘lmagan, aholining dam olish uchun sayohati[1].

Turizmning tarixiy ildizlari ibtidoiy davrga borib taqaladi. Qadimgi davrlarda, sayohat vaqtida birinchi bo’lib erkaklar qurol-yarog‘ bilan oldinga yurishgan va har qanday vaqtda yaqinlarining himoyasi uchun tayyor turishgan.

Turizmning vujudga kelish sabablari va davrlari ijtimoiy turmush va mehnat jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir[2].

Turizmning ahamiyati – xalqlar o‘rtasidagi bog‘liqlik, do‘stlik va o‘zaro ishonchni mustahkamlash bilan ahamiyatlidir. O‘zga yurtga kelgan sayohatchilar avvalo, o‘sha yurtning tarixiy va madaniy yodgorliklari bilan tanishishga intilishadi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Maqolani bayon etishda tarixiylik, xolisiylik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kichik ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda Prezidentimizning sohaga oid qarorlari, turizm sohasi tarixi va bugungi holati bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis-olimlar adabiyotlaridan, mavzuga oid tarixiy manbalardan va internet materiallaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Turizm sohasi bilan shug‘ullangan olimlarning ilmiy izlanishlarini tahlil qilish mobaynida turizmning 10 ta turini keltirib o‘tamiz:

Tibbiy turizm;
Rekreatsion(dam olish) turizm;
Sport turizmi;
Beznes turizm;
Kongress turizm;
Diniy(ziyorat) turizm;
Tranzit turizm;
Havaskor turizm;
Nostalgik turizm;
Madaniy turizm.

[1] Шаповал Г. Ф. История туризма. Минск ИП "Экоперспектива" 1999. С-5.
[2] M.Lafasov, M.Xo‘jamov. Tarixiy o‘lkashunoslik va turizm. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. 2008 yil.-B.32

Turizmning bu turi asosida tarix, arxitektura, rasm va boshqa madaniy sohalar bo‘yicha bilimlarni kengaytirish zarurati yotadi[1]. Tadqiqotimizda turizmning shu turini ilmiy izohlashni maqsad qildik.

Ko‘pchilik turistlar tarixiy shaharlarga, ulardagi yodgorliklarga, qadimiy bino va inshootlarga, muzeylarga, madaniy an'analarga, mahalliy aholining tarixiy-madaniy muhitiga, yashash tarziga, san'atiga, milliy hunarmandchilikka qiziqish bildiradilar. Tarixiy-madaniy turizmni insonlarning o‘zga xalqlar madaniyatlari bilan tanishishi deya izohlaymiz. Ushbu yondashuvlarda tarixiy-madaniy turizm mamlakat madaniyati va madaniy merosini bilish, borib ko‘rilayotgan joyning madaniyati va madaniy muhiti, mahalliy aholi dam olishining turli shakllari bilan tanishishdan iborat bo'lgan turistik dasturda ishtirok etishi sifatida ko‘rib chiqiladi.

G.A. Karpova, L.V. Xorevalarning fikriga ko'ra, tarixiy-madaniy turizm insonlarning o‘z yashash joyini o‘zgartirishi bo‘lib, to‘liq yoki qisman madaniy diqqatga sazovor joylarni, jumladan, madaniy voqealar, muzeylar va tarixiy joylar, tarixiy merosni aks ettiradigan, mahaliy aholi odatda o‘z vaqtini o'tkazadigan joylar, faoliyat turlari va rezidentlar hayotining kundalik usulini yangi axborot, tajriba va taassurotlar olish maqsadida madaniy ehtiyojlarni qondirishdan kelib chiqadi[2].

Sh.R.Ro‘ziyevning ta’kidicha, tarixiy-madaniy turizm turistlarning o‘zgarmas yashash joylaridan madaniy markazlarni, diqqatga sazovor joylar, muzeylarni borib ko'rish istagi bilan asoslangan ko‘chishi bo'lib, uning bosh maqsadi mamlakatning tarixi va madaniyati bilan turli ko‘rinishlarida tanishishdan iborat. Shu jihatdan tarixiy-madaniy turizm turistik jozibadorlikning barcha omillari orasida eng faol qismi hisoblanadi. Tarixiy-madaniy turizm mamlakatda turizmni rivojlantirishda juda muhim o‘rin tutadigan boshqa omillar bilan birga mavjud[3].

Hozirgi kunda tarixiy-madaniy turizmni mamlakatda rivojlantirish maqsadida,xususan, Buxoro viloyati hududida “Ipak va ziravorlar”, “Xalqaro zargarlik va zardo’zlik festivali”, “Turizm yarmarkalari”, “Qovun sayli”, “Shahar kuni”, “Sharq taomlari”, “Buxoroning hunarmandlari” festivallari orqali keng reklamalar o‘tkazish va Buxoro brendini keng ommaga targ‘ib qilish, tarixiy-me’moriy va diqqatga sazovor joylarga bag‘ishlangan maqolalar yozish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Tarixiy-madaniy turizm, o‘z navbatida, yurtimizda tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy va sport tadbirlari qamrovi orqali sayyohlarni kengroq jalb qilish imkonini beradi. Ularga milliy bayram va festivallar, teatrlashtirilgan namoyishlar, kino va teatr festivallari, gullar bayrami, modalar namoyishi, auksionlar, turli ko'rinishdagi musiqa tanlovlari va festivallari, sport tadbirlari kiradi[4].

Olimlarning olib borayotgan tadqiqotlari natijasida, yaqin kelajakda tarixiy-madaniy turizm shaklining rivojlanishi boshqa turizm shakllariga nisbatan ayniqsa, xorijiy va mahalliy turistlar sonining keskin ravishda ortishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “2017- 2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2980-sonli[5] qaroriga asosan, Buxoro viloyatining turizm salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari tasdiqlangan.

Mustaqil rivojlanish davrida O'zbekistonning butun turizm tarmog‘i kabi Buxoro shahri va Buxoro viloyatining turistik salohiyatini targ‘ib qilish, turizmning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish, sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish davlatning doimiy diqqat-e’tibori markazida turibdi.

[1] Г.А Карповой, Л.В. Хоревой Экономика и управление туристской деятельностью :.. – СПб. : Изд-во СПбГУЭФ, 2011. – 37 с.

[2] O‘sha manbadan.

[3] Ro‘ziyev Sh.R. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. I.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Samarqand – 2019 yil.B-15

[4] Ostonov O.A. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmning ba’zi xususiyatlari. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE SILK ROAD: COOPERATION THROUGH THE PRISM OF TOURISM” OCTOBER 10-11, 2024.B-512.

[5] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.05.2017 yildagi PQ-2980-son

Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm salohiyatini yanada rivojlantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish, betakror tarixiy-madaniy va me'moriy meros ob'ektlari bilan sayyohlarni keng tanishtirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va hududda zamonaviy turizm infratuzilmasining jadal rivojlantirishni ta'minlash, zamonaviy talablarga muvofiq ko'rsatilayotgan turizm, mehmonxona va transport xizmatlari ro'yxatini kengaytirish va sifatini oshirish maqsadida hududda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa. Davlatda turizmni rivojlantirish bu sohaning davlat darajasida qanday qabul qilinishiga, uning davlat tomonidan qanchalik qo'llab quvvatlanishiga bog'liq. Davlatda qanchalik turistik obyektlarga g'amxo'rlik qilinsa, turistik xizmatlar eksporti sezilarli darajada oshirilsa istiqboldagi turistik faoliyat ham yuksalishda davom etadi. Buxoro viloyati ham yurtimizning ko'plab hududlariga xos turistik muammolarga ega bo'lgan yuqori turistik e'tiborga sazovor o'lkadir. Ammo bu muammolarni istiqbolda hal etish orqali viloyatda qulay turistik sharoit yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 19.05.2017 yildagi PQ-2980-son
2. Ostonov O.A. O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmning ba'zi xususiyatlari. International scientific and practical conference "The silk road: cooperation through the prism of tourism" October 10-11, 2024.B-512.
3. Шаповал Г. Ф.История туризма. Минск ИП "Экоперспектива" 1999. С-5
4. Г.А Карповой, Л.В. Хоревой Экономика и управление туристской деятельностью :.. – СПб. : Изд-во СПбГУЭФ, 2011. – 37 с.
5. Ro'ziyev Sh.R. O'zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. I.f.f.d (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Samarqand – 2019 yil.B-15
6. M.Lafasov, M.Xo'jamov. Tarixiy o'lkashunoslik va turizm. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2008 yil.-B.32

BUXORO MADRASALARI VA ULARNING TA'LIM TIZIMI XIX ASR MANBALARIDA: YEVROPA VA ROSSIYA ELCHILARI QAYDNOMALARI ASOSIDA

Elmurodova Nigora Jobir qizi.
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.
+998906358101
Elmurodovanigora96@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada XIX asrda Buxoro amirligiga tashrif buyurgan Rossiya va boshqa chet ellik elchilar hamda sayyohlarning qaydnomalarida madrasalarning ta'lim tizimi va ijtimoiy hayoti aks etishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, mang'itlar, elchilar, sayyohlar, ta'lim, madrasa, mudarris, mullobachcha, shoir, tarix, ijtimoiy-madaniy hayot.

Buxoro amirligiga tashrif buyurgan Rossiya imperiyasi va boshqa chet ellik elchi va sayohatchilarning qaydnomalarida Buxoro amirligi madrasalari, ulardagi ta'lim tizimi va ijtimoiy ta'minoti haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Keyinchalik, Rossiya imperiyasining mustamlaka siyosati kengayishi bilan yangi hududlarni o'rganishga qiziqish kuchaydi. Shu asosda O'rta Osiyo xonliklari haqida turli asarlar, xususan sayohat xotiralari chop etildi. Bugungi kunda ular tarixshunoslik tadqiqotlari uchun muhim manba hisoblanadi.

Yevropalik sayyoh va tadqiqotchi Y. Meyendorf XIX asr boshlarida Rossiya imperiyasining diplomatik missiyasi tarkibida Markaziy Osiyoga, jumladan, Buxoro amirligiga safar qilgan. Missiya siyosiy jihatdan katta natijalarga erishmagan bo'lsa-da, ilmiy nuqtayi nazardan, ayniqsa hududni o'rganish, xaritalash va ijtimoiy hayot haqidagi kuzatuvlar jihatidan

muhim ahamiyat kasb etgan[1]. Y. Meyendorfning o‘zi ham Buxoroga oid batafsil sayohat kundaligi yaratib, unda ta’lim tizimi va madrasalar faoliyatiga alohida to‘xtalgan.

U Buxoroning qadimiy ilmiy an’analari va tarixiy nufuzini ta’kidlagan holda, XIX asrdagi madrasalar holatini tanqidiy baholaydi. Uning qaydlariga ko‘ra, madrasalarda asosan diniy fanlar ustuvor bo‘lib, aniq, texnika va tabiiy fanlar deyarli o‘qitilmagan. Talabalar ta’limi ko‘proq yodlashga asoslangan, mustaqil tafakkur va ilmiy izlanishlar esa rivojlanmagan edi. Meyendorfning fikricha, madrasalar diniy amaldorlarni tayyorlashga xizmat qilgan bo‘lib, hayotiy muammolarni yechishga qaratilgan bilimlar tizimi shakllanmagan[2].

Y. Meyendorfning kuzatuvlari o‘sha davr Buxoro madrasalarining an’anaviy diniy asosda qolib ketgani va zamonaviy fanlardan uzilganini ko‘rsatadi. Uning asari XIX asr Buxoro ta’lim tizimini o‘rganuvchi tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi.

Ingliz sayyohi A. Byorns 1830-yillarda Markaziy Osiyoga, jumladan, Buxoro amirligiga safar qilib, o‘z kuzatuvlarini Buxoroga sayohat nomli qaydnomalarida yozib qoldirgan. Uning Buxoro madrasalarini Sharq ilm markazi sifatida ta’riflagan bo‘lsada, uning madrasalar haqidagi qarashlarini ijobiy deb bo‘lmaydi.

Muallif Buxoro ilm markazi bo‘lsa ham, ta’lim usullari eskirganligini, madrasalar diniy ilmlarni o‘qitadigan joylarga aylanganini, ta’lim muassasalarida ilg‘or ilmiy fanlar emas, faqatgina diniy bilimlar va arab tilidagi matnlar yodlatilayotganini tanqid qiladi[3]. A.Byorns amirlik madrasalarida savodxonlik yuqori, lekin ijodiy tafakkur yo‘qligini, madrasalarda matematika, astronomiya, tibbiyot va boshqa tabiiy fanlar deyarli o‘qitilmagani, ilgari Buxoro buyuk olimlarni yetishtirgan bo‘lsa ham, o‘sha davrda bu an’ana yo‘qolgan va madrasalar diniy mutaassiblik markaziga aylanganini, Yevropada universitetlar ilmiy taraqqiyot markazi bo‘lib qolayotgan bo‘lsa, Buxoroda madrasalar eski an’analarni saqlash bilan cheklanib qolganini qayd etadi. Madrasalarda ko‘p talabalar bo‘lsa-da, natija samarasiz ekanligi va talabalarning ko‘pchiligi ilm olish uchun emas, balki diniy unvon va imtiyozlarga ega bo‘lish uchun o‘qiyotganini yozadi. A.Byorns Buxoro madrasalarida Erondan tashqari barcha mamlakatlardan kelgan talabalarni uchratish mumkinligi, ular yetti yoki sakkiz yillik o‘quv kursini tugatib, o‘z vatanlariga bilim zahirasi bilan qaytishlarini qayd etadi. Shuningdek, sayohatchi Buxoro madrasalarida diniy mutaassiblikning kuchayishiga Amir Haydarning siyosatini sabab qilib ko‘rsatadi[4].

A.Byornsning kuzatuvlari XIX asr Buxoro madrasalarida ta’lim jarayoni an’anaviy diniy yo‘nalishda qolib ketganini ko‘rsatadi, bu esa o‘sha davr Yevropasida shakllanayotgan ilmiy-modernizatsion jarayonlar bilan solishtirganda tafovutlarni yuzaga chiqaradi. Biroq uning qaydlari madrasalarning o‘ziga xos tarixiy vazifasi, xalqaro talabalar oqimi va Buxoroning Sharq ilmiy merosidagi mavqeini ham e’tirof etganini ko‘rsatib, davrning murakkab siyosiy va madaniy sharoitlari ta’lim tizimiga bevosita ta’sir qilganini anglatadi.

P.I.Demezonning “Записки о Бухарском ханстве” (1833) asarida ham Buxoro madrasalariga to‘xtalib o‘tilgan.[5] Asarda Buxoro amirligi madrasalari butun Turkiston o‘lkasida mashhurligi aytib, turli o‘lkalardan talabalar kelib o‘qishi yozilgan. P.I. Demezon xavfsizligi uchun o’zini tatar mullasi Mirza Jafar deb tanishtiradi[6]. Shu orqali u Buxoro madrasalariga kirish imkoniga ega bo‘ladi. Asarda Buxoro amirligi madrasalari butun Turkiston o‘lkasida mashhurligi aytib, turli o‘lkalardan talabalar kellib o‘qishi yozilgan. Shuningdek, P.I.Demezon ham boshqa sayyohlar singari amirlik madrasalarida faqat diniy fanlar o‘tilganini, ushbu diniy fanlarni o‘zlashtirish uchun juda ko‘p vaqt ketishini, tarixiy va astronomik voqealar xato tasvirlanishi

[1] Мейендорф Е. К. Краткое начертание путешествия Российского посольства из Оренбурга в Бухарию в 1820 году.- Северный Архив, 1822, ч. 1, № 2, с. 184—193

[2] Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, Наука. 1975. – С. 153.

[3] Бёрнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагора с подарками великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию. – Москва, В Университетской Типографии. 1848. – С. 432.

[4] Бёрнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагора с подарками великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию. – Москва, В Университетской Типографии. 1848. – 502 с.

[5] Демезон П. И. Записки о Бухарском ханстве (отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича) // Центральная Азия в источниках и материалах XIX - начала XX в. Москва, 1983. – С. 39 – 45.

[6] Мухамеджанов А.,Нигматов Т. Некоторие источники к истории взаимоотношений Бухары и Хивы с Россией. Тошкент 1957. – С. 78.

haqida yozib qoldiradi. Buxoro amirligi madrasalarining shuhrati yuqori ekanligini ta’kidlagan holda Samarqand hududidagi madrasalarning inqirozga yuz tutganini keltirib o‘tadi.

1841–1842-yillarda Buxoroga kelgan N.Xanikov Buxorodagi diniy va ijtimoiy muassasalar haqida tanqidiy mulohazalar bildirgan. U madrasalarda o‘qitish ko‘proq matnni yod olishga asoslanganini, tanqidiy fikrlash va amaliy bilimlarning yetishmasligini ta’kidlagan. Mudarrislarning saviyasi va metodikasini tanqid qilgan, ko‘pchilik ustozlar diniy ilmlarni yetarlicha chuqur bilmasligini bildirgan. N.Xanikov madrasalarni ko‘proq diniy rasmiyatchilikka xizmat qiluvchi, lekin zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga javob bermaydigan muassasa sifatida baholagan. Madrasada o‘tiladigan fanlarni klassifikatsiyalab, kitoblarning mualliflari, ularga yozilgan sharhlar va hoshiyalarga to‘xtalib o‘tgan[1].

G‘arb sayyohi Arminiy Vamberi Buxoro amirligi madrasalari haqida batafsil ma’lumot berib, ularning soni xalq orasida 360 deb tilga olinishi, aslida esa 80 atrofida bo‘lganini qayd etadi. Muallif Ko‘kaldosh, Mir Arab, Qo’sh madrasa, Jo’ybor, Tursunjon va Ernazar madrasalarini alohida tilga olib, ularning qurilgan davri, hujralar soni va talabalarga ajratilgan mablag‘lar haqida raqamli ma’lumotlar beradi. Vamberining fikricha, Buxoro madrasalari Sharqda yuksak nufuzga ega bo‘lib, bu yerga nafaqat Movarounnahr, balki Hindiston, Afg‘oniston, Rossiya va Xitoydan ham talabalar kelgan[2]. U umumiy talaba sonini besh ming nafar deb ko‘rsatib, amir tomonidan kambag‘al talabalar moddiy qo‘llab-quvvatlanganini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, muallif madrasalarda asosan diniy fanlar o‘qitilgani, mantiq va falsafa imkoniyatlari toraytirilgani haqida tanqidiy fikr bildiradi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr manbalarida Rossiya va Yevropa tadqiqotchilarining Buxoro madrasalari va ularning ta’lim tizimi haqidagi kuzatuvlari bu muassasalarni tarixiy va ijtimoiy jarayonda o‘rganish imkonini beradi. Y. Meyendorf va A. Byornsning qaydnomalari madrasalarning diniy fanlar markazi sifatida shakllanganini, lekin xorijlik talabalar oqimi va ilmiy an’analar davom etganini ko‘rsatadi. Tadqiqotchilar madrasalarda ta’limning ko‘proq yodlashga asoslanganini va mustaqil tafakkur imkoniyatlarining cheklanganini qayd etgan bo‘lsalar-da, bu tizim Buxoro ilmiy merosini saqlashga xizmat qilgan. P.I. Demezon, N. Xanikov va A. Vamberi kuzatuvlari Buxoro madrasalarining musulmon ilmiy markazi sifatida xalqaro nufuzini tasdiqlaydi, shu bilan birga ta’lim jarayonida zamonaviy fanlar yetishmasligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, XIX asr manbalari Buxoro madrasalarining tarixiy vazifasi, xorijlik talabalar oqimi va diniy-ta’limiy an’analarni muvozanatli tarzda tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Бёрнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавании по Инду от моря до Лагора с подарками великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и
2. Персию. – Москва, В Университетской Типографии. 1848. – 502 с.
3. Вамбери А. Путешествне по Средней Азии (Из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву. Бухару и Самарканд – М., 1867. – 193 с.
4. Демезон П. И. Записки о Бухарском ханстве (отчеты П. И. Демезона и И. В. Виткевича) // Центральная Азия в источниках и материалах XIX - начала XX в. Москва, 1983. – С. 39 – 45.
5. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва, Наука. 1975. – С. 153.
6. Мухамеджанов А.,Нигматов Т. Некоторие источники к истории взаимоотношений Бухары и Хивы с Россией. Тошкент 1957. – С. 78.
7. Ханыков Н В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – С.223.

[1] Ханыков Н В. Описание Бухарского ханства. – СПб, 1843. – С.223.

[2] Вамбери А. Путешествне по Средней Азии (Из Тегерана через Туркменскую пустыню по восточному берегу Каспийского моря в Хиву. Бухару и Самарканд – М., 1867. – 193 с.

BUXORONING ME'MORIY MEROSI VA KULOLCHILIK AN'ANALARI: NODIR DEVONBEGI XONAQOSI MISOLIDA

Buxoro davlat muzey qo'riqxonasi
katta ilmiy xodimi
G'afurova N.N.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrining boy moddiy madaniy merosi, xususan XVII asrda bunyod etilgan Nodir Devonbegi xonaqosining tarixiy-ahamiyati va me'moriy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, "Varaxsha va kulolchilik tarixi" muzeyi faoliyati, uning ko'rgazma yo'nalishlari hamda Buxoro vohasida kulolchilik san'atining qadimgi davrlardan to XIX–XX asrlargacha bo'lgan taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. O'zbek kulolchilik maktabining yetuk namoyandalari, ularning ijodiy merosi hamda xalq hunarmandchiligi rivojiga qo'shgan hissasi alohida o'rin tutadi. Tadqiqotda muzey ekspozitsiyasining madaniy merosni targ'ib etishdagi o'rni va ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, Nodir Devonbegi xonaqosi, Varaxsha, muzey, kulolchilik tarixi, me'moriy meros, hunarmandchilik, Buxoro kulolchilik maktabi.

Buxoro-O'rta Osiyoning eng qadimiy shaxarlaridan biri. Moddiy madaniyat va san'atning shunchalik xilma-xil va turli davrga oid yodgorliklari to'plangan bunday shaharlar juda oz. Shahar sharq me'morlari yaratgan nodir arxitektura yodgorliklarining boyligi jihatidan eng salmoqli o'rinlaridan birini egallaydi. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronlik qilib turgan davrda, XVII asrning 20-yillarida qurilgan Devonbegi xonaqosi sernaqsh va serhashamdir. Devonbegi xonaqosining old tomoni Lyabi xovuz suvida oynadek aks etib turadi.

Islom olamida so'fiylik keng tarqalgan oqim bo'lib, oqim vakillari bo'lgan darveshlarning doimiy turar joyi bo'lmasdan, insonlarni yaxshilikka chorlash maqsadida kezib yurishgan. Ular uchun mahalliy hukmdorlar, boy-amaldorlar alohida bino qurib berishgan. Shuningdek, ushbu binolar ziyoratchilar uchun ham vaqtincha turar-joy vazifasini bajargan. Ushbu binolar xonaqoh, musofirxona, g'aribxona kabi nomlar bilan atalgan.

Buxorodagi yirik xonaqohlardan biri 1620-21 yillarda Imomqulixonning vaziri Nodir devonbegi Mirzo Tog'ay ibn Sulton buyrug'i bilan qurilgan. Xonaqoh markaziy gumbazli, atrofi ziyoratxona, Qur'on mutolaa qilish xonasi, doimiy yashovchi so'fiylar va ziyoratchilar xujrasi, oshxona va omborxonadan iborat. Xonaqoning uchta darvozasi bo'lib, obida tashqi tomondan to'rt qavatli bo'lib ko'rinsada, aslida ikki qavatdan iborat. Birinchi qavatda tashqi tomondan sakkizta hujra bilan o'rab olingan. Binoning orqa tomonida avliyo Xazrat Xo'ja Karimning qabri saqlangan. Yodgorlik 1914-1916 yillarda Amir Olimxon tomonidan ta'mirlangan. Sovetlar davrida binodan omborxona maqsadida foydalanishgan. Mustaqillikdan so'ng Buxoro shahrining 2500 yilligi munosabati bilan qayta ta'mirlandi.

Nodir Devonbegi xonaqosi (asl nomi: Nadr devonbegi xonaqohi)-Buxorodagi me'moriy yodgorliklardan eng nodirlaridan biri. Buxoro xonligi hukumdori Imomqulixonning vaziri qurdirgan (1620-1621). Xonaqoh 1620 yilda hovuz va madrasa bilan bir paytda bunyod etilgan. Xonaqoh asosan qalandar va darvishlar uchun yashash joyi sifatida ishlatilgan. Ushbu xonaqohda hozirgi kunda "Varaxsha va kulolchilik tarixi " muzeyi faoliyat olib bormoqda.

Ushbu muzey ko'rgazmasida quyidagi mavzular yoritilgan:

- Nodir Devonbegi xonaqosi tarixi
- Qadimgi Varaxsha shahri tarixi
- Qadimgi va o'rta asrlarda Buxoro vohasida kulolchilik tarixi
- XVII-XX asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda Buxoroning kulolchilik maktablari.

Kulolchilik tarixi qadim zamonlardan Markaziy Osiyo davlatlar o'rtasida ancha rivojlangan. Asosan Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent, Qarshi shaharlarida tashkil qilingan. Voha kulolchiligi uzoq tarixga ega. VIII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyob va O'rta Osiyo mamlakatlaridan topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab berdi. O'sha davrda O'rta Osiyo madaniyati tez sur'atda rivojlandi. Yangi ko'tarilish davri bo'ldi.

Ko‘pgina olim, yozuvchi va mutafakkirlar yetishib chiqdi. XIV asrdan boshlab O‘rta Osiyo teritoriyasida kulolchilik tez sur’atlar bilan rivojlanib bordi.

XIX asrda O‘rta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib, G‘ijduvon, Panjikent, Samarkand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublarini vujudga keltirdilar. G‘ijduvon milliy kulolchilik ishlarini xalq ustalari davom ettirib kelmoqdalar. Shulardan Usta Usmon Umarov katta avlod vakillaridan (1891 yilada tug’ilgan). Usta Ibodullo Narzullayev (1927 yilda tug’ilgan). Sopol qanddon, lagan, kosa, shokosa kabi buyumlar yasaganlar. Ular buyumlarning ranglar uyg‘unligiga, sirli koshinkor gullar ko‘rkamligiga bo’ysundirilgan holda bezaganlar. Bu ustalarning ishlari nafaqat O‘zbekistonda balki boshqa chet ellarda ham mashhurdir. Ular Respublikamiz va boshqa chet el ko’rgazmalarining domiy qatnashchisi bo‘lganlar.

Hamro bibi Rahimova faoliyati davomida o‘nlab yetuk shogirdlar yetishtirdiki, ular bugungi kunda ham mashhur kulolsoz ishlarini davom ettirib, o‘zbek kulolchilik maktabini ajoyib san’at asarlari bilan boyitmoqdalar. Ana shulardan Jabbor Raximov, Kubaro opa Boboyevalar ijodiy izlanishlari, tinimsiz mehnatlari o‘yinchoqsozlarning kundalik yumushiga aylangan. Ustalar yaratayotgan o‘yinchoqlar har bir tomoshabinni ertaklar va ajoyibotlar olamiga olib kirishi tabiiy. Umuman olganda Nodir Devonbegi xonaqosida joylashgan “Varaxsha va kulolchilik tarixi” muzey filialida tashrif buyurgan har bir tomoshobin ulkan bilim va katta ta’surot olib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуҳалимов, Б. *Бухоро меъморчилиги тарихи*. — Тошкент: Фан, 2001.
2. Бухоро тарихи: 2 жилдлик. Т.1. — Тошкент: Ўзбекистон ФА нашриёти, 1999.
3. Болтабоев, Х. *Ўрта Осиёда кулолчилик санъати тарихи*. — Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2010.
4. Мухаммаджонов, А. *Бухоро воҳасининг археологик ёдгорликлари*. — Тошкент: Фан, 1983.
5. Шишкин, В.А. *Варахша. Древности Бухары*. — Москва: Наука, 1963.
6. Агзамова, Г. *Марказий Осиёда халқ амалий санъати: ривожланиш тамойиллари*. — Тошкент: Академнашр, 2012.

МУЗЕЙ - ОСНОВНОЕ ЗВЕНО В ПРОДВИЖЕНИИ НАШЕГО НАЦИОНАЛЬНОГО РЕМЕСЛЕННОГО НАСЛЕДИЯ

Султонова Нигина Шералиевна
Докторант международного университета Осиё(OXU),
кандидат исторических наук (PhD)
Старший научный сотрудник Бухарского
государственного музея-заповедника
90 513-14-18.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос о том, что через сохранение и развитие национальных костюмов народ обеспечивает передачу своего культурного наследия последующим поколениям. Обучение молодого поколения собственной истории и культуре является долгом каждого человека. Изучение происхождения наших национальных одежд, их анализ и продвижение на международную арену служат основой для представления обычаев и традиций народа всему миру.

Ключевые слова: музей, ценность, национальная идентичность, костюм, ткань, музей, занданачи, абрбанди.

Национальные костюмы являются важным элементом, отражающим историю, культуру и обычаи каждого народа. Сохраняя и развивая свои национальные одежды, народ передаёт потомкам своё культурное наследие. Национальные костюмы не только напоминают о прошлом и исторических традициях, но и занимают особое место в современном обществе, служа мощным инструментом в продвижении культурных ценностей. С древнейших времён Бухара, считающаяся жемчужиной Средней Азии,

располагалась на перекрёстке торговых путей, соединявших Восток и Запад. Одним из основных товаров на этих путях, несомненно, были шёлковые ткани, непосредственно связанные с названием Великого шёлкового пути. По свидетельствам источников, уже в X веке Бухара стала одним из крупнейших центров ткацкого производства Ближнего Востока. Археологические исследования, проведённые в Узбекистане, на Кавказе и в некоторых городах Западной Европы, выявили образцы тканей, изготовленных в ткацких мастерских деревни Зандана близ Бухары. Эти ткани известны в науке под названием «занданачи».

Как сообщает бухарский историк Наршахи: «Ни в одном городе Хорасана не могли ткать таких прекрасных тканей. Примечательно, что бухарские ткачи, прибывая в Хорасан, брали с собой эти ткани, открывали там ткацкие мастерские, однако по виду и качеству их изделия уступали тем, что производились в Бухаре». Эти ткани в больших количествах вывозились для торговли в крупнейшие города Великого шёлкового пути - Багдад, Хорасан, Египет, Сирию и Византию. Однако последующие нестабильные политические события нанесли серьёзный урон многим ремёслам, включая ткацкое дело Бухары.

В эпоху Тимуридов испанский посол Руи Гонсалес де Клавихо также отмечал, что в ряде городов Средней Азии производились шёлковые ткани. В этот период в Бухаре ткались различные виды тканей: полосатые парчи с золотыми и серебряными нитями, а также атлас, бархат, батист, алача, бязь и другие. Эти ткани отличались друг от друга по способу ткачества, ширине и цвету. По данным востоковеда Р. Мукминовой, только бязь (боз) изготавливалась в восьми цветовых оттенках — чёрном, синем, жёлтом, муравьином, фиолетовом и других [4, 48].

Во второй половине XVIII века и в последующие периоды в Бухарском эмирате мастера производили значительное количество хлопчатобумажных, шёлковых и полушёлковых тканей. Среди ханств Средней Азии именно Бухарский эмират занимал ведущие позиции в экспорте тканей в Россию. Существуют сведения, что в торговом центре Оренбурга шёлковые и полушёлковые ткани, изготовленные в Бухаре, продавались в 6–7 раз больше, чем изделия иранского производства [3, 81].

Ткани из бухарского хлопка и шёлка пользовались спросом у беднейших семей Поволжья, Казани и Сибири. В Бухаре один аршин дешёвой ткани стоил 1–2 копейки, в то время как в России её продавали по 5–6 копеек. Это приносило значительную прибыль торговцам и делало продукцию доступной для населения [2, 57]. В XIX веке основными материалами для пошива одежды были хлопчатобумажные, шёлковые, полушёлковые и шерстяные ткани. Изобилие и дешевизна сырья создавали благоприятные условия для развития ткацкого производства в городах эмирата. Существовало два основных направления: массовое ткачество хлопчатобумажных тканей и более дорогостоящее производство шёлковых. Ткачеством хлопковых тканей в основном занимались женщины, а шёлковых и полушёлковых — мужчины.

Бухарские ткачи делились на две группы: одна занималась непосредственным ткачеством, другая — окрашиванием и нанесением узоров на нити (техника «абрбанди»). Ткацкое производство объединяло множество взаимосвязанных ремёсел, таких как окрашивание, ткачество и сортировка тканей. Поэтому мастера часто жили и работали в соседних кварталах.

Цветовое богатство национальных шёлковых тканей отражало природу региона, культурные традиции и художественный вкус народа. При окрашивании тканей умело использовались природные красители. Выбор ткани зависел от социального положения, возраста и пола человека. Так, для пошива нарядов состоятельных женщин использовались ярко-красные ткани, для пожилых - тёмно-красные и зелёные, а для мужчин -ткани розовых, жёлтых и фиолетовых оттенков [1, 32].

Разновидности хлопчатобумажных тканей были чрезвычайно разнообразны. Для пошива женских платков и головных уборов использовалась ткань «шодока», мужские рубашки шили из простой ткани «қалами». Полосатые хлопчатобумажные ткани «алача» чаще ткались в деревнях и применялись для пошива халатов. Наряду с этим существовал

вид ремесла — домашнее производство. Вышивка (кашта) являлась женским занятием, не требовавшим мастерских, и использовалась для украшения одежды членов семьи. Отделка «жияк», как и вышивка, выполнялась женщинами в домашних условиях.

В начале XIX века в Бухаре действовал лишь рынок ситца с 284 лавками, а к 1916 году функционировали уже 46 крупных предприятий по производству шёлковых и полушёлковых тканей [5, 127]. С 1870-х годов активно развивались виды шёлкового ткачества — шойибофи, адрасбофи и алачабофи. Ремесленное производство тканей продолжалось до появления ткацких фабрик на территории эмирата. Проведение в 1874 году железной дороги привело к значительным изменениям во внутреннем рынке страны. Промышленные ткани и готовые элементы одежды, поступавшие по железной дороге, благодаря низкой цене и массовому производству вытеснили изделия местных мастеров. В одежде знати начали использоваться узорчатые шёлковые ткани — бархат, камка, киндаль, фаренги и атлас, изготовленные во Франции и России. Шерстяная ткань «мавут» также широко применялась для пошива мужской верхней одежды. Вместе с промышленной техникой в страну проникали элементы российской и европейской культуры.

С развитием фабрично-заводского производства изделия ручного труда постепенно вытеснялись с рынка. В начале XX века с распространением машинного производства объёмы и разнообразие ремесленных изделий резко сократились. Тем не менее различные виды народных ремёсел в Средней Азии сохранялись вплоть до 1920-х годов. В настоящее время наряду с другими памятниками истории и культуры в музеях хранятся образцы национальных тканей и костюмов. В частности, в фондах Бухарского государственного музея-заповедника зарегистрировано более 440 видов тканей, среди которых есть образцы, сотканные вручную. Более 600 вышивок, выполненных узбекскими и таджикскими женщинами, занимают особое место в музейных собраниях [6, 20]. Коллекция тканей музея в основном состоит из образцов, произведённых в прошлом в ткацких центрах Средней Азии - Бухаре, Китабе, Карши, Худжанде, Самарканде, Маргилане и Коканде, а также из тканей и изделий, привезённых из Индии, Китая, России и стран Европы.

В заключение следует отметить, что национальные костюмы являются одним из наиболее действенных средств отражения богатой истории народа. Узбекская национальная одежда: халаты, тюбетейки, платья из атласа и адраса - составляет неотъемлемую часть исторической и культурной жизни Узбекистана. Молодое поколение склонно воспринимать и понимать свою историю и культуру через конкретные образы. Поэтому продвижение национальных костюмов в современном медиапространстве способствует формированию уважения к национальным ценностям и осознанию своей идентичности. Более того, национальные костюмы играют важную роль в популяризации культурных традиций на международном уровне. Изучение происхождения и развитие национальной одежды, её адаптация к современным модным тенденциям позволяет представить культурные традиции народа всему миру. Таким образом, национальный костюм становится инструментом продвижения самобытности народа на мировой арене.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Абдуллаева Ш. Узбекистоннинг абрли матолари: анъананинг янги хаёти// Санъат журнали.№3, 2015. – Б.32.
2.Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865-1917). Москва, 1980 г. – С.57.
3.Михалева Г.А. Узбекистан в XVIII – первой половина XIX века ремесло, торговля и пошлины. Ташкент.:Фан, 1991. – С.81.
4.Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI в. - Т.:Фан, 1976. - С. 48.
5.Нуруллаева А. Бухарские шелковые ткани//Из истории культурного наследия Бухары. Бухара 2001г №7. – Б.127.
6.Содиқова Н. Ўзбек миллий кийимлари XIX-XX асрлар Т.:Шарқ, 2003й. – Б. 20.
7.Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства Тошкент.: Фан 1958 г.

BUXORO VILOYATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR TAHLILI (XX ASRNING 50-80 YILLARI)

To‘rayeva Nigina Baxodir qizi
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Email:niginatorayevaO@gmail.com
Tel: +998997085399

Annotatsiya. Ushbu ishda 1950-1980 yillarda Buxoro viloyatida yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar tahlil qilinadi. Mazkur davrda amalga oshirilgan sanoatlashtirish siyosati, qishloq xo‘jaligi rivoji, aholining ijtimoiy turmush darajasidagi o‘zgarishlar hamda hududning infratuzilma bilan ta’minlanishi kabi jarayonlar o‘rganiladi. Tadqiqot Buxoro viloyatining sobiq Sovet Ittifoqi davridagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari, demografik ko‘rsatkichlari va jamiyat hayotidagi muhim ijtimoiy o‘zgarishlarni yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: gazeta, demografiya, televideniya, radio, iqtisod, sanoat, transport, temir yo‘l, teatr, matbuot, xalq xo‘jaligi.

Buxoro tarixida XX asrning 50-80 yillari – sovet davrining nisbatan barqaror, madaniy va ma’rifiy sohalarda sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bergan bosqichi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur davrda Buxoro shahri Sovet Ittifoqining boshqa hududlari singari sotsialistik modernizatsiya jarayonlarini boshdan kechirdi. Buxoro qadimiy tarixiy shahar sifatida o‘z milliy qiyofasini saqlagan holda, yangi zamonaviy infratuzilma, ta’lim va madaniyat tizimlarini rivojlantirdi.

1950-yillardan boshlab Buxoroda ta’lim va ma’rifat sohasidagi o‘zgarishlar yuz berib, umumiy majburiy o‘rta ta’lim joriy etildi. Jumladan, Buxoro pedagogika instituti, texnikumlar va kasb-hunar maktablari faoliyati kengaydi. O‘qituvchilar malakasi oshirilib, ayollar va qizlarning ta’lim olish huquqi tobora mustahkamlandi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyati ham rivojlanib, kutubxonalar tarmog‘i kengaydi.

Mazkur davrda madaniyat, san’at va ommaviy axborot vositalaridan shahar markazida Buxoro musiqali drama teatri, kino teatrlari, muzeylar faoliyat yuritdi. “Buxoro haqiqati” va “Buxoroning ovozi” kabi gazeta va jurnallar nashr etilib, madaniy-ma’naviy hayotda muhim o‘rin egalladi. 1960-1970 yillarda xalq ansambllari, raqs va qo‘shiq jamoalari tashkil etilib, mahalliy san’at rivojlandi. 1970-yilda Buxoro tarixiy yodgorliklarini asrash bo‘yicha maxsus dasturlar qabul qilindi, shahar markazi restavratsiya qilina boshlandi.

Shuningdek, mazkur davrda Buxoro aholisi sezilarli darajada o‘sdi; yangi turar joy massivlari, maktablar, madaniyat uylari qurildi. Ishchilar sinfi va ziyolilar soni ortib, shaharning ijtimoiy tarkibi o‘zgardi. Ayollar jamoat hayotida faol ishtirok etib, tibbiyot, ta’lim, madaniyat sohalarida yetakchi o‘rinlarni egallay boshladilar. 1970-yillardan boshlab televideniye va radio orqali madaniy-ma’rifiy dasturlar keng targ‘ib qilindi.

Bu davrda sovet mafkurasi dinni cheklagan bo‘lsa-da, Buxoroning qadimiy diniy an’analari yashirin va mahalliy shaklda davom etdi. 1970-yillarga kelib, tarixiy-madaniy merosni saqlashga bo‘lgan qiziqish ortdi. Bu jarayon keyinchalik mustaqillik davrida diniy-ma’naviy tiklanish uchun zamin yaratdi. Zargarlik, gilamdo‘zlik, kulolchilik an’analari qayta tiklanib, sovet davri xalq amaliy san’ati ko‘rgazmalarida namoyish etildi. 1970-1980 yillarda Buxoro tarixiy markazi xorijiy sayyohlar uchun ochiq hududga aylana boshladi.

Temir yo‘llar ramziy ma’noda davlat iqtisodiyotining muhim qon tomirlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, hududlarning “Markaz” va boshqa mamlakatlar bilan bog‘lanishida temir yo‘llarning ahamiyati yuqori bo‘lib, Buxoro viloyatini XX asr ikkinchi yarmida O‘zbekiston va sobiq SSSRning turli hududlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarida muhim ahamiyat kasb etgan. Kogon temir yo‘l stansiyasi o‘tgan asrning 50-yillarida Ashxobod temir yo‘llari boshqarmasi tarkibida bo‘lib, uning faoliyatini tashkil etilishida o‘sha vaqtda keng tarqalgan “Sotsialistik musobaqa” muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

50-yillardagi davriy matbuot sahifalarida bu kabi musobaqalar tez-tez tilga olinib, temir yo‘lchilar kuni arafasida “Buxoro haqiqati” gazetasi sahifalarida Kogon temir yo‘l stansiyasi

ishchilarining oylik rejani besh kun oldin 128 foiz qilib bajarganligi, Ashxobod temir yo‘l boshqarmasining ko‘chma qizil bayrog‘ini olti oy davomida qo‘lda tutib kelayotganligi qayd etilgan. Shuningdek, Kogon temir yo‘li paravoz deposining mashinistlari, muhandis-texnik xodimlari temir yo‘lchilar kunini munosib kutib olganliklari, ularning ko‘plari Ashxobod temir yo‘li bo‘ylab o‘rnatilgan hurmat taxtalarida fotosuratlari osib qo‘yilgani, depoda ilg‘or temir yo‘lchilar tajribalari ommalashtirilib, xomashyo va yoqilg‘ini tejash borasida (bir yarim yilda) 900 tonnaga yaqin yoqilg‘i tejab qolinganligi keltirib o‘tilgan. Urushdan keyingi xalq xo‘jaligini tiklashda bu kabi musobaqalar ahamiyatli hisoblangan. Musobaqalar turli tadbirlar oldidan hatto, SSSR Oliy Sovetiga o‘tkaziladigan saylovlar munosabati bilan ham o‘tkazilgan.

1951-yildagi saylovlarda Ashxobod temir yo‘li Kogon bo‘limi lokomotivchilari shundaymusobaqa o‘tkazganligiga oid ma’lumotlar mavjud. Shuningdek, Kogon paravoz deposi ishchilari Sovet armiyasi va harbiy dengiz floti kuni munosabati bilan staxanovcha vaxtada turib ishlay boshlaganlar. Jukov kundalik rejani 300 foizga bajargan bo‘lsa, mashinistlardan Goryaev, Shugarev musobaqalashib, poyezdlar tezligini rejaga nisbatan uch barobar oshirganlar va shu yilning fevralida 15 tonna yoqilg‘i tejaganlar. Bundan tashqari Kogon temir yo‘l stansiyasining depo jamoasi may oyi musobaqasiga qo‘shilgan (rahbari Malyuklov). Ular aprel oyi rejasini muddatdan oldin bajargani uchun partiya tashkiloti va kasaba soyuz mahalliy komitetining ko‘chma qizil bayrog‘ini olishga erishgan. Bu kabi musobaqalarni davriy matbuotda ko‘plab uchratish mumkin. Musobaqalar davlatni kuch-qudratli qilayotgani o‘sha davr matbuotida ko‘p bora tilga olingan.

1980-ylardan boshlab yuksak saviyali, badiiy pishiq va g‘oyaviy mukammal spektakllar (“O‘z arizasiga ko‘ra, “Abulfayzxon”, “Bir kam dunyo”, “Janoza o‘qilmasin”, “Ibn Sino” va boshqa) sahnalashtirildi. 90-yilarlardan teatrga yangi kuchlar (M.Sodiqova, S.Zohidova, B.Boltaev, F.Abdullaev va b.) kelib qo‘shildi va o‘zlari bilan teatrga yangi hayot nafasini olib kirdilar. “Urush” (Sh. Nurmatov), “Yuragimni sotaman”, “Sohibqiron Temur” (S. Sirojiddinov), “Chimildiq” (E. Xushvaqtov), “Tentak farishtalar” (Sh. Boshbekov), “Davlat bolalari” (R. Muxammadjonov), “Haqrost” (Y. Muqimov) kabi spektakllar bilan teatr o‘z mavqeini tikladi. Teatrda H. Naimov, N. Ne’matova, A. Fayziev kabi O‘zbekiston xalq artistlari turli yillarda ijod qilganlar. Teatrning yetakchi aktyorlari: Z.Karimov, A.Mavlonov, N.Mo‘minova, B.Baqoev, R.Ergashev, S.G‘ulomova, Sh.Yo‘lliev va boshqalar va bosh rejissyor Ubaydulla Baqoev kabi aktyorlar yetakchilik qildilar.

Shuningdek, Buxoro drama, musiqa va bolalar teatri 30-yillarda tashkil topgan bo‘lib, Buxoroda yangi saxna sanatini boshlab berdi. Teatr va kino san’ati ham birgalikda Buxoro matbuoti ham rivojlanib bordi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi davrda “Buxoronoma” shaklan va mazmunan tubdan o‘zgarib, Buxoro viloyati hayotini har vaqtdagidan yaxshiroq yoritishga harakat qilmoqda. 1938-yildan chiqqan “Buxoro haqiqati” gazetasi shahar aholisi orasida nafaqat bilimlarni balki totalitar rejim mafkurasini ham tarqatdi. Buxoro aholisini madaniy rivojlanishida muayyan yutuqlarga erishdi.

Buxoro tarixini tadqiq qilish natijasida amalga oshirilgan akademik nashrlar Buxoro tarixining biror bir jihatini chuqur ochib berishga qaratilganligi bilan ilmiy ehtiyojlarni qondirsa-da, keng kitobxonlar, qiziquvchilar, havaskor tarixchilar, ayniqsa talabalar tafakkuri va ilmiy imkoniyatlariga muvofiq keladigan nashrlarni tayyorlash zaruriyati hamon o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Kogon temir yo‘l stansiyasi lokomotiv deposining katta muhandisi V.Gladionov Kogon temir yo‘lchilari urushdan keyingi stalincha besh yillik rejasini muddatidan oldin bajarganlari, Staxanovchi temir yo‘lchilar soni oy sayin oshib borganligini, besh yillik rejani dastlabki kunlari, ya’ni 1946-yilda umumiy staxanovchilar soni 800 kishidan oshmagani holda, hozir (1951-yil) 1700 kishiga yetganligi, 500 dan ortiq lokomotivchilar, aloqachilar va slesarlar o‘zining besh yillik majburiyatlarini allaqachon oshirib bajarganlari va hozir 1952-1953-yillar hisobiga ishlayotganliklari, ayniqsa, Lokomativ deposining tokari Nikolay Jukov sotsialistik musobaqa asosida ishlab besh yillik rejasini muvoffaqiyatli sur’atda ado etib, hozir 1960-yil hisobida mahsulot ishlab chiqarayotganligi bilan bog‘liq ma’lumotlarni keltirib o‘tgan.

1951-yilda nishonlangan temir yo‘lchilar kuniga Kogon temir yo‘l stansiyasi vagon deposi jamoasi, may oyi rejasini oshirib bajarib, iyun oyi 15 kunlik rejani 105 foiz bajargan. Vagon deposi g‘ildirak sexi jamoasi iyun oyi yigirma kunlik topshirig‘ini 110 foiz bajargan. Mashinistlar musobaqasida esa, Anatoliy Feodorovich Korolyov texnika tezligini oshirgan va iyun oyida 10 tonnadan ortiq yonilg‘i tejagan. Buning uchun a’lochi mashinist faxriy unvonga sazovor bo‘lgan. Xuddi shu kabi musobaqalar Qiziltepa stansiyasi xodimlari o‘rtasida ham o‘tkazilganligi va yarim yillik reja oshirib bajarilgani, staxanovchi ishchilar nomi keltirilgan ma’lumotlar ham mavjud.

Musobaqalar yoz faslida avj olib, bu temir yo‘lchilar kuni bayramining avgust oyida nishonlanishi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. V.I Stalin 1935-yil 30-iyulda bir guruh temir yo‘lchilarni qabul qilgandan so‘ng so‘zlagan nutqi asosida butun ittifoq temir yo‘lchilar kuni belgilangani, shu kunga Kogon temir yo‘lining signalizatsiya va aloqa distansiyasi jamoasi yarim yillik rejani 148 foiz bajargani, kuniga 500 km yo‘l bosish tashabbuskorlari 1951-yilgi rejalarni 5 dekabr Stalin konstitutsiyasi kuniga qadar bajarish va’dalari bilan bog‘liq ma’lumotlar ham mavjud. Yoz faslidagi musobaqalarning boshlanishi 1951-yilning 20-21 may kunlaridan, ya’ni poyezdlar harakatining yozgi jadvalga o‘tishidan boshlangan. Poyezdlar harakatini ko‘payishi, yozgi ta’tilning boshlanishi, pishiqchilik mavsumi poyezdlarning harakat yo‘nalishlari, qatnov yo‘nalishlari soni ko‘payishi, yo‘lovchilarga ko‘rsatiladigan xizmatlarga e’tiborni kuchaytirishni talab qilgan. Shu sababli sotsialistik musobaqalar, staxanovchilik harakatlari keng qo‘llanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Ф.Н. Бухоро республикси тарихшунослиги. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1996.
2. Қосимов Ф.Н. Истиқлол ва тарихий хотира. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2006.
3. Ғафуров А. Рашидов У. Бухоро халқ шўролар жумҳурияти тарихидан лавҳалар (1920-1924). –Т.: 1992.
4. Рашидов У. Бухоро Россия билан иқтисодий ва сиёсий муносабатлар тарихидан. – Бухоро: Бухоро, 2013. –Б.105.
5. Темир йўл бўйларида бир ярим минг километр узунлигида янги дарахтзорлар// Қизил Ўзбекистон 1951-йил № 98 (7851). 26апрелЬ.
6. Латипов Ғ. Депо коллективининг ютуғи// Бухоро ҳақиқати. 1952-йил, 1 (3633)-сон, 1-январь.

ZANDANA QISHLOG’I HAQIDA

Baxtiyorov Behruz Bobirovich
Buxoro Davlat Universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro viloyatining Peshku tumanidagi Zandona qishlog‘i va u bilan bog‘liq zandanicha matosining kelib chiqishi, tarqalishi hamda tarixiy-e’tnografik ahamiyati tahlil qilinadi.Shuningdek, hozirgi davrda Zandona qishlog‘ida zandanicha ishlab chiqarishning tiklanishi va madaniy meros sifatida rivojlanayotgani qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Zandona, zandanicha, Buxoro, Peshku, O‘rta asr matochiligi, Sug‘d matolari, to‘qimachilik an’analari, ipak mato, hunarmandchilik merosi, xalqaro savdo.

Аннотация. В данной статье анализируются происхождение, распространение и историко-этнографическое значение занданийской ткани, связанной с селом Зандана, расположенным в Пешкунском районе Бухарской области. Отмечается современное возрождение производства занданича в селе Зандана и его развитие как элемента культурного наследия.

Ключевые слова: Зандана, занданича, Бухара, Пешку, средневековое ткачество, согдийские ткани, ткацкие традиции, шёлковая ткань, ремесленное наследие, международная торговля.

Abstract. This article examines the origins, distribution, and historical-ethnographic significance of the zandanicha textile associated with the village of Zandana in the Peshku district of the Bukhara region. Furthermore, it notes the contemporary revival of zandanicha production in Zandana and its development as an element of cultural heritage.

Keywords: Zandana, zandanicha, Bukhara, Peshku, medieval weaving, Sogdian textiles, weaving traditions, silk fabric, craft heritage, international trade.

Buxoro qadim zamonlardan buyon hunarmandchilik, ilm-fan va diniy-ma’rifiy markaz sifatida dunyoga mashhur bo‘lgan. Yurtimizdagi har bir qishloq, mahalla va guzar o‘ziga xos udumlari, marosimlari hamda hunarmandchilik an’analari bilan ajralib turadi. Shu ma’noda, mamlakat tarixini o‘rganish milliy o‘zlikni shakllantirish va yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi so‘zlarida juda chuqur ma’no mujassamdir. “Milliy tarix milliy ruh bilan yaratilishi kerak. Aks holda u tarbiyaviy ta’sirga ega bo‘lmaydi. Yoshlarimizni tarixdan saboq olishga, xulosa chiqarishga, tarix ilmi va tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur.”[1-1b] Buxoro vohasida ko‘plab tarixiy hamda o‘z davrida dovrug’i yetti iqlimga yetgan aholi maskanlaridan bir qanchasini sanab o‘ta olamiz.Shulardan biri sifatida Zandana qishlog’ini tilga olishimiz mumkindir.Manbalarda Zandona yoki Zandana shaklida uchraydigan maskan - Buxoro vohasining qadimiy qishloqlaridan biri bo‘lib bugungi kunda Buxoro viloyati Peshku tumanida joylashgan. Zandona qishlog‘i – qadimiy hunarmandchiligi, boy madaniy qatlamlari va o‘ziga xos an’analari bilan ajralib turadigan maskanlardan biridir. Bu hudud asrlar davomida ipakchilik, to‘qimachilik va amaliy bezak san’ati rivojlangan markazlardan bo‘lib kelgan. Ayniqsa, Zandona nomi bilan chambarchas bog‘langan zandanicha matosi mahalliy ustalarning nafis didi, nozik texnikasi va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan mahoratini mujassam etadi. Adib Sadriddin Ayniy Zandana matosini “zandanigi”, arab manbalarida esa “zandaniyji” shaklida yozilganini qayd etadi. Muhammad Narshaxiy “Buxoro tarixi” asarida mato paxtadan to‘qilganini, dastlab Zandana qishlog‘ida ishlab chiqarilganini, so‘ngra boshqa hududlarga tarqalganini yozadi. Manbalarga ko‘ra zandanicha ipakdan arzonroq bo‘lgani sababli keng xalq ommasi tomonidan kiyim sifatida ishlatilgan, ba’zan esa kafan matosi sifatida ham qo‘llangan. U Buxoro va Rossiya o‘rtasidagi savdo aloqalarida ham muhim o‘rin tutgan.[2-8b]

Zandanicha nafaqat maishiy ehtiyojlar uchun ishlatilgan mato, balki xalqning turmush tarzini, estetik qarashlarini, marosim madaniyatini aks ettiruvchi madaniy belgilar tizimidir. Shu bois Zandona qishlog‘i tarixi bilan zandanicha matosining rivoji o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning har biri o‘zbek xalqining madaniy merosida alohida o‘rin egallaydi. Abu Bakr Narshaxiyning yozishicha, bu qishloqda katta qal’a, jome masjidi va bozorlar bo‘lgan. Zandonada ilk o‘rta asrlarda to‘qilgan bo‘z zandonachi, ya’ni Zandona qishlog‘idan chiqadigan gazlama deb atalgan. Buxoroning ko‘plab qishloqlarida(masalan, Vardonze, Iskajkat, Romitan, Afshona va boshqalar) to‘qib chiqarilgan bunday gazlamalar ham shunday nomlanib, o‘rta asrlarda Hindiston, Yaqin va O‘rta Sharq va Yevropa davlatlariga olib chiqilgan[3-11b]. Zandonachi gazlamasining shuhrati so‘nggi o‘rta asrlarda ham baland edi. Hukmdorlar va ulug‘ kishilar bu matodan kiyim tiktirganlar va uni kiyishni o‘zlari uchun sharaf hisoblaganlar.1920-yillarda Zandona qishlog‘i istiqlolchilik harakatining Buxorodagi markazlaridan biri edi. Bugungi kunda qishloq qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgargan. Buxoro yaqinidagi Zandana qishlog'ida ishlab chiqarilgan "zandaniychi" ipak matolari sug'dlarning mashhur mahsuloti sanalgan.Bu matolar samit ham deb ataladi. Texnikasiga ko'ra, satin va atlas to‘qish uslublarini qo‘shib naqshli mato hosil qilinadi. Naqshlarida tog‘ echkilari, otlar, kiyiklar obrazlarini ko‘rish mumkin. Endilikda O'zbekistonda "zandaniychi" matolari qayta tiklanmoqda va undan zamonaviy uslubdagi liboslar tikilmoqda. Buxoro hunarmandlik va savdo taraqqiy etgan shaharlardan biri sifatida tilga olinadi. Ayniqsa, buxorolik hunarmandlar tayyorlagan matolar

mo‘g‘ullar davridayoq mashhur bo‘lgan. Rashididdin yozib qoldirgan ma’lumotlarning birida Buxorodan uch savdogarning Xitoy tomon yo‘lga chiqishi, bu vaqtda Chingizxon Shimoliy Xitoyni istilo qilish bilan band bo‘lgani va savdogarlarning Chingizxon bilan uchrashgani, savdogarlarning Xitoyga olib borayotgan mahsulotlari orasida zarboft, zandanicha, karpas kabi matolar bo‘lgan. Chingizxon buxorolik savdogarlar mahsulotini ko‘rib, garchi ularning qiymati 10-20 dinor atrofida bo‘lsa-da, zarboftning bir bo‘lagiga bir bolish oltin bergan. Zandanicha, karpas matosining bir bo‘lagiga esa bir bolish kumush to‘lanishini buyurgan. Afsuski, mo‘g‘ullar istilosi va undan keyingi o‘zaro kurashlarda Buxoroda hunarmandlikning ko‘p turlari yo‘qolib borgan. Bu zandanicha matoning tarixiy tuzum o‘pqonlariga ilk to‘siqqa uchragan davri bo‘lgan. Shunga qaramasdan, u bu dovondan eson-omon o‘tgan. Zandanicha - bu Buxoroda to‘qilgan mashhur matolardan biri bo‘lib, uning nomi “zandani” so‘zidan kelib chiqqan. “Zandani” so‘zi, aslida, turma yoki mahbuslarni anglatadi. Afsonaga ko‘ra, bu mato dastlab, qamoqxonadagi mahbuslar tomonidan to‘qilgan bo‘lishi mumkin. Biroq, boshqa manbalarda “zandanicha” atamasi Buxoroning ipakchilik sanoati bilan bog‘liq. Bu mato o‘ziga xos an’anaviy naqsh va to‘qimachilik usuli bilan ajralib turadi.[4-4b] Mato qo‘lda to‘qiladi, va asosan, ipak yoki ipak va paxta aralashmasi ishlatiladi. Bundan tashqari mato yorqin ranglardan iborat bo‘lib, ko‘pincha gulli yoki geometrik naqshlarga ega bo‘lib, undan qadimda amirlar, saroy ahli va boy savdogarlar liboslari uchun foydalanilgan. Sovet davrida esa zandanicha mato keyingi to‘siq bosqichini boshidan kechirgan. Bu davrda ipakchilik va to‘qimachilik sanoati fabrikalashtirilgan va zandanicha kabi an’anaviy matolar ishlab chiqarish qisman kamaygan. Biroq, zandanicha mato ishlab chiqarishning hali-haligacha saqlanib kelinayotgani kishini quvontiradi. Bugungi kunda esa zandanicha milliy kiyimlar, uy bezaklari, milliy suvinerlar tayyorlashda ham keng foydalanilmoqda. Bu mato ilk bora Buxoro viloyatining Peshku tumani hududidagi Zandani qishlog‘i hunarmandlari tomonidan yaratilgan. Tuman markazidan 12 kilometr uzoq masofada joylashgan ushbu qishloq uzoq tarixi, tabiati va azal urf-odatlari bilan viloyatning boshqa ko‘hna qishloqlaridan ajralib turadi. Tumandagi “Zandani” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga kiruvchi, ekin maydonlari Qizilqum sahrosiga tutashib ketgan Zandani qishlog‘ida hozirda salkam 800 nafar aholi istiqomat qiladi. Qadimda ushbu qishloq tepaliklardan iborat bo‘lib, undan qo‘rg‘on sifatida foydalanib kelishgan. Hozirgacha bu tepaliklarning bir qismi saqlab qolingan va shundan Zandani qishlog‘i tarixi moziyning teran va ko‘hna ildizlariga bog‘liq.

Qishloq hududlarida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha Buxoro viloyati koordinatori Shohruh Amonovning “Xabar.uz”ga bildirishicha, to‘qimachilik sivilizatsiyasiga beshik bo‘lgan Zandani qishlog‘i Buxoroning yangi turistik manzillaridan biriga aylangan. Uning aytishicha, zandanachi gazlamasining shuhrati so‘nggi o‘rta asrlarda ham baland bo‘lgan. Hukmdorlar va ulug’ kishilar bu matodan kiyim tiktirganlar va uni kiyishni o‘zlari uchun sharaf hisoblaganlar. Hattoki, Amir Temur ham Turonda hokimiyatni egallashdan avval opasi va boshqa yaqinlarini Zandani va Vardonze o‘lkasiga qoldirib, shu matodan oila a’zolariga kiyim tiktirgan ekan.[5-2b] Zandanicha matolari O‘rta Osiyoning boy bezakli ipak matosi, u G‘arbda eng keng tarqalgan bo‘lib, bir vaqtlar mashhur to‘qimachilik ishlab chiqarish markazi bo‘lgan. Tarixda yozilishicha, Buxoro yaqinidagi ushbu qishloqda ishlab chiqarilgan matolar avj olib, keyinchalik mamlakat bo‘ylab ham tarqala boshlagan. Zandanicha mato ishlab chiqaruvchi markazlar ko‘paygan. Shunday bo‘lsa-da, boshqa joylarda ham uning asl nomi saqlanib qolavergan.

Ma’lum bo‘lishicha, bu mato Hindiston va Iroqqa yuborilgan, chunki u o‘ta pishiqligi, harir va go‘zalligi bilan o‘sha davr zodagon tabaqalari tomonidan yuqori baholangan. Hatto Yevropa qirolichalari ham Zandanicha matosidan ko‘ylak kiyishni yaxshi ko‘rganlar. Ular uchun maxsus qimmatbaho mato yetkazib turilgan. Arab xalifasi ma’murlarining esa soliqlarni pul bilan emas, mashhur Zandana matosi va va gilam bilan olishgani ham tarixiy haqiqatlardan. Aslida ipakning vatani Xitoy bo‘lsa ham Zandanicha ipak matolari G‘arb va Sharqqa sotilishi bilan birga, Xitoyning o‘ziga ham tarqalib ketgan. Xususan, parcha, deb nomlanuvchi zandana matosi 718 - 719 yillarda Buxoro shahridan Xitoy imperatoriga yuborilganligi haqida ma’lumotlar bor. VI - VIII asrlarda ishlab chiqarilgan Zandanicha matolari parchalari G‘arbiy Yevropaning bir nechta muzeylarida bugungi kunda saqlanib qolingan. Belgiyadagi Yun shahri soborida ham

saqlanayotgan ushbu noyob ipak mato parchasini o‘rganayotgan san’atshunos olim, fransuz tadqiqotchisi D.Shepard unda siyohda bitilgan bojxona yozuvi va muhrini topgan va uni o‘qishga muvaffaq bo‘lgan. Ushbu parchada so‘g‘d yozuvida bo‘lib, matoning uzunligi, hajmi, vaqti haqidagi ma’lumotnoma ekan. Ushbu muhrning o‘qilishi ko‘p noaniqliklarga oydinlik kiritgan. D.Shepard Yevropaning qator mamlakatlarida saqlanayotgan. Zandanicha matosini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan. Va Sharqiy Turkistondagi Dun-Xuan manzili topilmalari orasida ham shunday matolar borligi aniqlangan.

Aytilishicha, zandanachi matosi ko‘ndalang qatorlarda joylashgan medalonlardan iborat naqshlar bilan bezatilar ekan. Medalonlar oralig‘iga o‘simlik tasviri tushirilib, boshqa turdagi bezaklar romb, kvadrat, geometrik ifodalangan gullar va hokazolardan iborat bo‘larkan. Fransuz tadqiqotchisi D.Shepard ushbu matoning tillarang, to‘qsariq, oq, ko‘k, qizil va yashil kabi o‘ziga xos rangligini ta’kidlagan. Zandanicha matolardan tikilgan kiyimlar Sug‘d, Toxariston va Markaziy Osiyoning boshqa viloyatlaridagi saroy hamda qo‘rg‘onlarning devoriy rasmlarida aks ettirilgan qabul va bayram manzaralarida keng namoyish etilgan.

Bunday matolar ko‘proq milodiy VI - VIII asrlarga taalluqlidir. Jumladan, Afrosiyobda ochilgan devoriy suratlarda ulug‘ zotlar kiyimlari bezaklarining nihoyatda xilma-xilligini ko‘rish mumkin. Narshaxiy Buxoroning o‘zida Buxoro qal’asining sharqiy darvozasida joylashgan yirik to‘quv ustaxonasi – “Bait at-Turaz” haqida ta’riflaydi. U yerda X-XI-asrlarda xalifalik davrida juda qadrli bo‘lgan, ipak emas, balki paxta matolarining o‘ziga xos turi – “zandanicha” ishlab chiqarilgan. Arxeologik qazishmalar natijasida Shimoliy Kavkazda ham shunga o‘xshash mato parchalari topilganligi ma’lum bo’lmoqda. Bildirilishicha, XIV va XVI asrlarda Zandanicha matosi paxtadan ishlab chiqarilgani uchun ham xaridorgir bo‘lgan. Zandanicha matosi o‘rta asrlarda G‘arbiy Yevropa shaharlarida, shu jumladan Boltiqbo‘yi mamlakatida fuqarolar uchun eng arzon, tabiiy va sevimli import matolardan biri hisoblangan. Peshku tumanining Zandani qishlog‘i Buxoro amirligi tumanlaridan biri sanalgan. U qishloq 1856 yildan Buxoro amirligi muntazam qo‘shinining ikki ta’minot markazlaridan biri bo‘lib xizmat qilgan.[6-5b] Bugungi kunda qadimiy Zandani qishlog‘ining qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgargan. Bir vaqtlar mashhur to‘qimachilik ishlab chiqarish markazi bo‘lgan Zandani qishlog‘ida, mato ishlab chiqarish an’analarini davom ettirish maqsadida zamonaviy tikuv-to‘quv fabrikasi ochilib, hozirgi kunda yuzdan ortiq hudud aholisining bandligi ta’minlangan. Shuningdek, qishloqda sayyohlarni jalb etishda hududning ko‘p yillik tarixiy va an’anaviy hunarmandchilik imkoniyatlaridan samarali foydalanildi. Shu maqsadda Xitoyning Xanchjou shahridagi “Ipak muzeyi” bilan hamkorlikda “Zandani” qishlog‘ida zandanicha mato ishlab chiqarish ustaxonasi va muzeyini tashkil qilish hamda Buxoroning madaniy merosini saqlash, ommalashtirish bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi. Hozirda buxorolik hunarmand usto Ahmad Arabov, “SD-Turkman Haly” kompaniyasi rahbari Solmaz Jumayeva, “Buxoro merosi” ilmiy tadqiqot markazi direktori Robert Almeyev hamda Oregon Universitetining Xitoy va Markaziy Osiyo arxitektura tarixi kafedrasi professori Mariachiara Gasparini bilan hamkorlikda xalqaro aloqalarni o‘rnatish ishlarini olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan tahlillar Zandona qishlog‘i tarixi va zandanicha matosining rivojlanish jarayoni o‘zaro uzviy bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Arxeologik va etnografik ma’lumotlar ushbu hududda to‘qimachilik an’analari qadimdan shakllanganini, zandanicha esa mahalliy hunarmandchilikning eng muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida barqaror taraqqiy etib kelganini tasdiqlaydi. Zandanicha matosining rang-barang naqshlari, texnologik uslublari hamda estetik mezonlari Zandona aholisi madaniy identitetining ajralmas elementi bo‘lib xizmat qilgan. Mazkur matoning qo‘llanish doirasi – maishiy buyumlar tayyorlashdan tortib marosimiy an’analargacha – uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Zandona qishlog‘ining hunarmandlik markazi sifatidagi tarixiy o‘rni esa zandanichaning bugungi kungacha saqlanib kelishi va zamonaviy madaniy jarayonlarda qayta talqin qilinishi uchun zamin yaratgan. Shu bois, zandanicha matosi va Zandona qishlog‘i tarixi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar o‘zbek xalqining amaliy san’ati, an’anaviy hunarmandchiligi hamda madaniy merosini chuqurroq anglashda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu

yo‘nalishda amalga oshiriladigan keyingi izlanishlar hududning tarixiy-madaniy jarayonlarini yanada keng qamrovda yoritish imkonini beradi.

Zandanicha matosi ham milliy madaniyatimiz, ham hunarmandchiligimiz ramzlari bo‘lib qolaveradi. Hozirda Zandani qishlog‘ining tarixiy ko‘rinishi sun’iy intellekt yordamida tiklangan va u tarixiy manbalar bilan uyg‘un kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. www.aniq.uz 2021.
2. Zandani va “zandaniycha” tarixidan lavhalar. Durdona nashriyoti, Buxoro, 2021.B.8
3. Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1966.B.11
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. www.xabar.uz. “Tarixiy to‘siqlardan omon chiqqan zandanicha mato”.B.2
6. Бабаев Б. / Из истории организации регулярного войска в Бухарском эмирате при эмире Насрулле (1827—1860) B.5

BUXORO MADRASALARI TARIXIDAN

Mamasharifova Shahloxon Muxtorxon qizi
Namangan davlat universiteti, Tarix yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Maqolada, qadimiy va hamisha navqiron Buxoroni tarixini asoslovchi, qolaversa butun O’zbekistonning ko’rki bo’lgan ilm maskanlari, ya’ni madrasalari tarixi, me’moriy uslubi va faoliyati haqida so’z boradi.

Kalit so’z: Buxoro, madrasalar, ilm-fan markazi, Farjak madrasasi, Mir Arab, Nodir devonbegi, Ubaydullaxon, Narshaxiy, YUNESKO, 2500 yil.

Madrasa so‘zi arab tilidan oligan bo‘lib: “Dars o‘qiladigan joy, darsxona” ma’nolarini bildiradi [1. – B. 78.]. Buxoro madrasalari o‘rta asrlarda musulmon olamining yirik ta’lim o‘choqlari sifatida e’tirof etilgan. Bu muassasalarda Qur’on, hadis, fiqh, mantiq, arab tili, adabiyot va tarix fanlari chuqur o‘rganilgan, shu yerda tahsil olgan ko‘plab allomalar keyinchalik butun Islom dunyosida shuhrat qozongan. Ko‘kaldosh, Mir Arab, Abdulazizxon, Ulug‘bek, Madalixon kabi madrasalarni Buxoroning mashhur madrasalari sirasiga kiritish mumkin. Madrasalar, ilm-fan markazi bo’lish bilan birga, Buxoro shahrining tarixiy qiyofasini belgilab bergan noyob me’moriy yodgorliklardir. O‘tmishda madrasalarimizda ulamolar, maktabdorlar, davlat xizmatchilari, xattotlar tayyorlangan. Hozir respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan madrasalarda esa diniy xizmatchilar tayyorlanadi.

Islomning ilk davri – VII – IX asrlarda Islom dini ulamolari masjidlarida va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berib turganlar. Din taraqqiy etgan sari ilohiyot masalalarini odamlarga o‘rgatadigan, ilohiyotchilarni tayyorlashga xizmat qiladigan alohida o‘quv muassasiga ehtiyoj tug‘iladi va shu tariqa madrasalar paydo bo‘la boshlagan [– 2. – B. 157.].

Buxoro madrasalarining binolari asosan pishiq g‘ishtdan, ikki qavatli yoki bir qavatli qilib qurilgan. Odatda madrasalar ichki va tashqi sahnaga, baland va mustahkam devorga, hashamatli toq va ravoqlarga ega bo‘lib, ba’zilarining peshtoqlari, gumbazlari va devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilgan. Madrasalar ichki va tashqi maydoniga ega bo‘lgan. An’anaviy tarzda uning birinchi qavatida darsxonalar, kutubxona, masjid, tahoratxona, ikkinchi qavatida esa talabalar yashaydigan hujralar bo‘lgan.

Farjak madrasasi – nafaqat Buxoroda, Movarounnahrdagi dastlabki madrasalardan biri. Islom olamidagi bu ilk madrasa Buxoroda IX asr boshida hanafiy mazhabi faqihlaridan Abu Hafs Kabiyr Buxoriy (767 – 832 y) rahnamoligida asos solingan. Bu madrasa manbalarda “Forjak” madrasasi deb zikr qilingan.

Ushbu “Forjak” madrasasi tarixi ko‘pgina manbalarda “Abu Hafs madrasasi” deb, zikr qilinadi. Jumladan, Tojiddin Subukiyning “Tabaqot ash-shofiiya al kubro”, Ibn Kasirning “Al

Bidoya van nihoya" asarlarida, nishopurlik olim, Muhammad ibn Ahmad ibn Ali ibn Shahivayh Abu Bakr Al Qozi Al-Farisiy Nishopurda bir muddat imom bo‘lib, so‘ng Buxoroga kelib, "Abu Hafs madrasasi"da dars berganligi ta'kidlanadi. Bu madrasa Imom al Buxoriy, Ibn Sino, Farobiy kabi ko‘plab buyuk allomalarga ilm bergan maskan sanalgan [1. – B. 78 –80.]. Narshaxiyning fikricha, 937-yilgi yong‘indan zarar ko‘rgan "Forjak" madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardan sanalgan.

Qadimdan Buxoro o‘zining ko‘plab madrasalari bilan nom taratgan. U turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. O‘rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Sharqda ham mashhur edi. Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini o‘tagan.

Muhammad Ali Baljuvoniyning ma'lumotiga ko‘ra, XX asrning boshlariga kelib, Buxoroda madrasalar soni 400 ga yaqin bo‘lgan.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro amirligidagi madrasalar sonini o‘sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadriddin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyo 204 ta, Muhammad Ali Baljuvoniy esa 400 ta deb ko‘rsatadi. Turli ma'lumotlar umulashtirilganda Buxoro amirligida 200 tadan – 400 tagacha madrasa mavjud bo‘lgan [1. – B. 78.].

Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o‘sha shaxslar ismi, ba'zan madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan [3. – B. 120.].

Mir Arab madrasasi – Buxroning mashhur madrasalaridan biri. Miri Arab nomida barpo etilgan madrasaning qurilishiga sarf qilingan mablag'ning katta qismini Ubaydulloxon bergan. Ubaydullaxon inom etgan mablag' hisobiga madrasa qurilishi boshlangan. 1530-yildan Mir Arab hazratlari madrasa qurishga kirishadilar. Afsuski, madrasa qurilishi bitmay turib, Mir Arab 1536-yilning boshida vafot etadi va uning vasiyatiga ko'ra kuyovi Shayx Zakariyo qurilishni oxiriga etkazgan. Madrasa binosi milodiy 1530 – 1536 (hijriy 936 – 942)-yillarda qurib bitkazilgan.

Mir Arab madrasasi – Buxorodagi Minorai kalonning qarshisida joylashgan. Ushbu madrasa shahar markazida, qadimiy shahristonda joylashgan bo'lib, ikki ulkan gumbazi bilan boshqa tarixiy binolardan ajralib turadi. Madrasaning kirish qismi kunbotar tomonda. Darvoza ulkan peshtoq ostida joylashgan. Madrasa binosi to'rtta peshtoqdan iborat. Ayniqsa, shimoliy va janubiy peshtoqlar baland qilib qurilgan. Bu shimol bilan janubdan esadigan shamoldan saqlash hamda madrasa havosini tozalab turish imkonini beradi. Peshtoqlarning balandligi taxminan o'ttiz ikki metr. G'arbiy va sharqiy tomonda joylashgan peshtoqlar pastroq qurilgan. Bularning hammasi bino ichida o'ziga xos mikroiqlim yaratadi.

1530-yilda bunyod etilgan bu madrasa shaharning markaziy qismida qurilgan, uning baland peshtoqlari va gumbazlari bo'lib, shimoliy gumbazi yarim koshin bilan qoplangan, janubiy gumbazi esa bezatilmagan. Koshinlarga kam miqdorda tilla, kumush, mis, qo'rg'oshin qo'shilgan. Bularning xammasi ko'p yillar xizmat qila oladigan xamda sifatliligi bilan ajralib turadigan kvars qumiga aralashtirib ishlatilgan.

Madrasaga hashamatli baland peshtoqdan kirilgan. Bir vaqtlar peshtoqlar juda baland bo'lgan. Tuzilishi jihatidan naqshinkor. Peshtoqning dastlabki qiyofasi saqlanib qolgan, bu naqshlarning tarkibiy qismida yulduzsimon bezaklar uchraydi. Undagi bezaklarning saqlanib qolgan ayrim parchalaridan naqshlar g'oyat nafis va nozik bo'lganligini bilish mumkin. Bino to'rt qavatdan iborat bo'lib, unda 114 ta xona bor. Madrasaning me‘moriy shakli to'rtburchak – Qur‘on kitobini eslatadi. Hujralarining 114 taligi esa Qur‘on suralari soniga mos keladi.

Rivoyatlarga ko'ra, madrasa asosi chuqur qilinib, tog' toshlari bilan mustahkamlangan, qor, yomg'ir suvini qochirish uchun tazarlar ishlangan, ular orqali suvlar shahar qo'rg'onidan tashqariga chiqarilgan. Mir Arab madrasasida O'rta Osiyo diniy maktablari qurilishiga xos an‘anaviy loyiha va mujassam o'z ifodasini topgan. Buxoroning 2500 yilligi munosabati bilan madrasa peshtog'i va gumbazlaridagi to'kilib ketgan koshinkori naqshlar va yozuvlar qayta tiklandi.

Mir Arab madrasasi 1993-yi YUNESKOning Jahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nodir Devonbegi madrasasi – Buxoro madrasalaridan biri. Madrasaga nomi berilgan Nodir Devonbegi – Buxoro amirligi davrida xizmat qilgan yirik davlat arbobi, me'morchilik homiysi va bunyodkorlardan biri bo'lgan. U XVII asr boshlarida, Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida (taxminan Imomqulixon hukmronligi yillarida) faoliyat yuritgan. "Devonbegi" unvoni – saroydagi moliya ishlari, xazina va ma'muriy boshqaruvni nazorat qiluvchi eng yuqori lavozimlardan biri bo'lib, Nodir ham o'sha unvonga sazovor bo'lgan. U Buxoro shahrida bir qator obidalar qurilishiga boshchilik qilgan, ayniqsa, Labi Hovuz majmuasining markaziy qismini bezab turgan Nodir Devonbegi madrasasi bilan tanilgan. Mazkur madrasa 1622 – 1623-yillarda barpo etilgan bo'lib, dastlab karvonsaroy sifatida mo'ljallangan. Keyinchalik Imomqulixonning buyrug'i bilan madrasa sifatida faoliyat yurita boshlagan. Binoning me'moriy uslubi o'z davrining an'analarini aks ettiradi: peshtoq bezaklari, sirli koshinlar, devorlaridagi afsonaviy qushlar – simurg' tasviri bilan mashhur. Bunday bezaklar o'sha davr me'morchiligining go'zallik va ramziylik jihatlarini ifoda etadi. Nodir Devonbegi madrasasi bugungi kunda ham Buxoro me'morchiligining yuksak namunasi sifatida qadrlanadi va YUNESKO himoyasidagi tarixiy majmualar tarkibiga kiradi. Bu inshoot orqali Nodir Devonbegining nafaqat davlat arbobi, balki ma'naviyat va ilmga e'tibor bergan bunyodkor inson sifatidagi qiyofasi namoyon bo'ladi.

Nodir Devonbegi madrasasining loyihasini ishlashda Registonning Sherdor madrasasining binosini ko'rinishidan ijodiy foydalanib ish ko'rilgan. "Ikkinchi Sherdor" madrasasi (xalq ichida shunday ham yuritiladi) 1978-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi A. Haqqulov tashabbusi bilan qayta ta'mirlangan. Peshtoqida Sher rasmining aks ettirilishi, katta hovlining chetlarida hujralarning joylashganligi bilan sherlarning nusxasiga o'xshaydi, faqat bunda minoralar yo'q. Madrasa bir qavatli bo'lib, o'zida XVI – XVII asrlarda keng tarqalgan hashamatli sharqona to'rt ayvonlik usulida bunyod etilgan. Madrasaning peshtoqida qurilishning boshlanish vaqtning ko'rsatuvchi yozuvlar mavjud bo'lib, ular naqsh bezaklari bilan uyg'unlashib ketgan. Bu yozuvlarning naqshlar bilan hashamatlashtirish Xoja Hoshim va muhandis-quruvchi Do'stmuhammadlar ijodlarining namunalaridir.

Xulosa sifatida shuni qayd etish mumkinki, yurtimizning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Qo'qon va boshqalar o'zining ilm-u ma'rifati bilan butun musulmon olamiga balki G'arb mamlakatlari rivojlanish tamadduniga ham katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, Buxoro "Qubbatul Islom" nomini olgan. O'z navbatida Buxoroda azal-azaldan madrasalar – ilm-marifat o'chog'i bo'lib xizmat qilgan va ilm-fan vakillarini o'ziga chorlagan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Bobojonova Feruza. Buxoro me'moriy obidalar tarixi. – T.: Fan va ta'lim nashriyoti, 2022-yil.
2. Abdullayev Zohidjon. Buxoroning madrasalari tarixi. // INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – P. 157.
3. Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far Narshahiy. "Buxoro tarixi". – Toshken, 1996-yil.
4. Buxoroning me'moriy yodgorliklari. // https://www.mirarab.uz/ruknlar/1229

BUXORO ME'MORCHILIGI VA YODGORLIKLARI

Rustamova Shaxina O'ktam qizi
Buxoro davlat univeversiteti
1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda Buxoro shahrining me'morchilik maktabi va tarixiy yodgorliklari batafsil yoritilgan.Tezisda qadimdan to hozirgi kungacha Buxoroda barpo etilgan me'moriy obidalar- masjid, madrasa, minora, maqbara, ansambllar hamda ularning me'moriy yechimlari, bezak elementlari va tarixiy ahamiyati keng o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro me'morchiligi,tarixiy yodgorliklari, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi, Labi Hovuz, Bolohovuz masjidi, qadimiy obidalar.

Buxoro olis tarixi davomida bir necha bor qaytadan bunyod etilgan. Lekin shahar o'z tarixiy ildizlaridan hech qachon uzilib ketmagan. Uning bag'rida olis o'tmishdan to bugungi kungacha qurilgan ko'plab me'morchilik yodgorliklari saqlanib qolgan. Buxoroda 140 dan ortiq yirik tarixiy-me'moriy yodgorliklar mavjud. Ular orasida Buxoro Arki, Somoniylar maqbarasi,

Chashmai Ayyub maqbarasi, Mag‘oki Attori masjidi, Namozgoh masjidi, Poyi Kalon ansambli, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Mir Arab madrasasi, Labi hovuz ansambli, Bolohovuz masjidi, Sitorai Mohi Hosa ansambli va boshqa obidalar sayyohlarni maftun etadi. Ulardan biri Minorai Kalon 1127-yili me'mor Baqo loyihasi asosida Arslonxon buyrug‘i bilan qurdirgan. Minora poydevori tosh va maxsus qir qorishmasidan terilgan.Yer sathidan 9 m chuqur, balandligi 50 m, kursisi qirrador,tepasi gumbazli davra qafasako‘shk bilan bog‘langan.Minoraning o‘zagi ham,bezagi ham chorsi g‘isht ganchxok loyida terilgan. Bezaklar orasida tarixiy va diniy mazmundagi kufiy yozuvlar uchraydi.

Masjidi Kalon XV-XVI asrlarda Minorai Kalon zamondoshi bo‘lgan kata binoning joyida qurilgan. Masjid peshtoqidagi yozuvlarga asoslanib aytish mumkinki, bu bino 1514-yilda ishga tushirilgan. Bino pishiq to‘rtburchakli va yuzasi sayqal berilgan gishtlar bilan terilgan. Mir Arab madrasasi Masjidi Kalon ro‘parasida joylashgan bo‘lib, 1530-1536- yillarda shayx Abdulloh Yamaniy (laqabi Miri Arab) zamonida Buxoro hukmdori Ubaydullaxon in'om qilgan mablag‘ hisobiga qurilgan. Bu obida Masjidi Kalon va Minorai Kalon bilan birgalikda Buxoro shahrining chiroyli arxitektura ansamblini tashkil qiladi.

Amir Temur Buxorodagi Chashmayi Ayub, Sayfiddin Boharziy, Bayonqulixon maqbaralarini ta'mirlashga mablag‘ ajratgan. Sohibqiron farmoyishi bilan 1379-yili Chashmayi Ayub maqbarasi ustida katta gumbaz qurilgan. Maqbaraning o‘zi kvadrat tarzida 4,5×4,5 m go‘rxona bo‘lib, XII asrda ikki eshigi bo‘lgan. Inshootning to‘rt qismi bir-biriga o‘xshamaydigan gumbazlar bilan qoplanadi.

Buxoro qadimdan Markaziy Osiyoning muhim madaniy va me’moriy markazlaridan biri hisoblanadi.Tarixiy yodgorliklarga boy Buxoro shahri o’zining noyob me’morchilik uslubi bilan ajralib turadi.Somoniylar davridan boshlab Buxoro Markaziy Osiyoning siyosiy va madaniy markaziga aylangan.Buxoroning eng nodir me’moriy durdonalaridan biri – Somoniylar maqbarasi,o’z davrining muhim sanat yodgorligidir.O’rta asrlar me’morchiligi mo’jizalaridan biri bo’lmish mazkur maqbara qadim zamonlarda mamlakatni yuz yildan ziyodroq boshqarib kelgan somoniylar sulolasining yirik xilxonasi bolgan. U ”Navkat”, keyinchalik “To’rt gumbaz” ko’chasi deb ham atala boshlangan.Somoniylar sulolasi qulagandan so’ng oilaviy xilxona o’lchamlari tobora qisqarib,maqbaralar buzila boshladi, XVI-XVIII asrlarda esa uning hududida turarjoy mavzelari ham vujudga keldi. XX asrning 30-yillarida inshoot tashqi tarafdan tozalandi.Maqbaraning janubiysharqiy burchagida kata qabrtoshi – kichik ko’ndalang devorchalarida tuynuklari bo’lgan Podshoh Ismoil Somoniy yoki Hazrati Sulton qabri mavjud.Somoniylar maqbarasi Buxorodagi pishiq pishiq g‘ishtdan qurilgan inshoot hisoblanadi. Qadim vaqtlarda me'morlar qurilishda yog‘och va xomg‘ishtdan foydalanganlar. Shu bilan birga bugungi Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan Vobkent minorasi ham XII asrda qurib bitkazilgan. Minora o‘n ikki qirrali supa asosga o‘rnatilgan g‘o‘la rangdor, pishiq g‘ishtlardan qurilgan. Bo‘rtma naqshli o‘n belbog‘ bilan qismlarga ajratilgan, har bir qismi bir-biriga o‘xshamaydigan qilib g‘isht terib naqshlangan, quyisidagi naqshlar orasida qurilgan yili va qurdirgan shaxs Sadr Burhoniddin Abdulaziz II ning nomi kufiy uslubida yozilgan.

Abdulaziz hukmronligi davrida me'morchilik sohasiga alohida e'tibor qaratilib, Buxoroda o'z nomi bilan va Volidai Abdulazizxon, Samarqandda Tillakori madrasalarini barpo ettiradi.Ular orasida tashqi peshtoqi muqarnasi betakror sanaladigani bu Buxoro shahridagi Abdulazizxon madrasasi sanaladi.O‘rta Osiyo me'morchiligining noyob namunasi sanalgan Abdulazizxon madrasasi tashqi intereri o‘ta nozik nozik did bilan ishlanganligi bilan alohida ajralib turadi.Unda bir-biriga yaqin bo‘lgan ranglar uyg‘unligi muqarnas qismida ajoyib manzara kasb etib turadi. Madrasada ishlatilgan hama bezaklar -yangi va qadimgi usullarning uyg‘unligi qo‘llanishining ensiklopediyasi deb hisoblash mumkin. Buxoro shahrida xo‘jalik binolari qurilishiga alohida e'tibor berilgan bo‘lib,ularning aksariyati shahar markazlarida, bozor va savdo rastalari yaqinida qurilgan. Birgina Registon maydonining o‘zida bozor binosi atrofida Subhonqulixon tomonidan barpo etilgan Dor ash-shifo majmuasi mavjud bo‘lgan.

XIX asr oxiri -XX asr boshlarida Mir Arab madrasasi yonida, Poyi Kalon ansambili tarkibida Amir Olimxon madrasasi bunyod etildi. Madrasaning peshtoqli darvozasidan ichkariga

kiriladi. Madrasa ikki qavatli, to‘rtburchak shakldagi hujralar bilan o‘ralgan. Katta xonasi gumbazli tom bilan yopilgan. Mang‘itlar davri yodgorliklaridan biri bu Bolohovuz masjididir. Bolohovuz masjidi XVIII-XX asrlarda barpo etilgan.XVIII asrda hovuz oldida tomonlar o‘lchami 11,5 metrni tashkil etuvchi gumbazli masjid quriladi. Uning ro‘parasida XX asrda buxorolik usta Qurbon Yo‘ldoshev baland ayvon soldiradi. Usta Shirin Murodov esa kichik minora tiklaydi. Nafis naqshlar ayvon shiftining avaylab saqlab kelinishini ta'minlagan. Ansambl o‘zinig badiiy nafosati bilan Registon maydonining tarkibiy qismiga aylangan.Bolohovuz masjidi hozirgi kungacha Registon maydonida saqlanib qolingan yagona yodgorlikdir. Buxoro me'morchilik maktabi Temuriylar davrida bunyod etilgan Ulug‘bek madrasasi asosida shakllangan bo‘lib, buning o‘ziyoq mintaqada me'morchilik an'anasiga aylanadi.

O‘rta Osiyo me'morchiligining go‘zal kompozitsion ko‘rinishi sanalmish Labi Hovuz ansambli bugungi kungacha ko‘pchilik tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga tortib kelmoqda. U bir necha tarixiy me'moriy inshootlardan tashkil topgan. Ansambl inshootlari ichida dastlab qurilgani Ko‘kaldosh madrasasi sanaladi. 1569-yilda Shayboniy hukmdor Abdullaxon tomonidan O‘rta Osiyoda yirik madrasa qurdirishga qaror qiladi. Shuning natijasida davlat amaldori Qulbobo Ko‘kaldosh qurilish ishlariga boshchilik qilgan. Inshoot O‘rta Osiyo madrasalari orasida eng kattasi hisoblanib, o‘z ichiga 160 ta hujrani qamrab olgan. Inshoot o‘z davri me'morchilik qoidalariga ko‘ra mozaika va mayolika bilan bezatilgan. Bugungi kunda me'moriy ansambl tarkibiga kiruvchi yana bir inshoot Nodir devonbegi xonaqosi hisoblanadi. Mazkur inshootning ichki qismi kvadrat ko‘rinishdagi zal shakliga ega, uning yuqorisi gumbaz bilan qoplangan. Asosiy peshtoq mozaika bilan bezatilgan bo‘lib, arab yozuvidagi yozuvlar tasviri mavjud. Vazir nomi bilan bog‘liq bo‘lgan yana bir inshoot Nodir Devonbegi madrasasidir. Bino 1622-1623-yillar oralig‘ida barpo etilgan. E'tiborli tomoni shundaki, Nodir Devonbegi madrasasi peshtoqidagi quyoshga tomon uchayotgan qush tasviri berilganligi 1437-yilda Ulug‘bek uchun tayyorlangan jadvalda keltirilgan burjlarning berilganligi bilan izohlanadi. Madrasa hovuzning sharqiy tomonida joylashgan bo‘lib, xonaqo bilan birgalikda qo‘sh uslubni eslatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Buxoro me'morchiligi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining eng yuksak namunalaridan biri bo‘lib, asrlar davomida shakllangan boy tarixiy va madaniy merosga ega. Shahar hududida joylashgan yodgorliklar nafaqat mahalliy xalqning diniy, siyosiy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi, balki o‘zbek me'morchilik san'atining rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. Tezisda o‘rganilgan masjid, madrasa, minora va maqbaralar Buxoro me'morchilik maktabining naqsh, g‘isht terish, peshtoqlar va gumbazlar bilan bog‘liq an'analarini namoyon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Halim To‘rayev "Buxoro tarixi" Durdona nashriyoti B.2020
2. Abu Bakr Muhammad ibn Jafar an-Narshaxiy "Buxoro tarixi"
3. O‘zbekiston obidalaridagi bitiklar BUXORO birinchi qism Тошкент.2016
4. Feruza Bobojonova "Buxoro me'moriy obidalari tarixi" Buxoro fan va ta'lim nashriyoti 2022

8-SHO‘BA. BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA ILMIY (MA’RIFATPARVARLAR, TARAQQIYPARVARLAR) MEROSINI O‘RGANISH.

SADRIDDIN AYNIY PUBLITSISTIK IJODIDA VATANPARVARLIK, MAKTAB VA MAORIF MASALASI

Temirov Farrux Umedovich
tarix fanlari doktori (DSc)
BuxDU, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi dotsenti

Аннотация. В данной статье научно проанализирована научно-творческая деятельность просветителя-писателя, общественного деятеля и академического учёного Садриддина Айни, а также его публицистические статьи. В работах автора рассматриваются вопросы патриотизма, школы и просвещения, подчёркивается их значение в развитии сознания молодёжи и их роль в освоении вершин науки.

Ключевые слова: Айни, Бехбуди, Чулпон, Авлони, Фитрат, школа, просвещение, прогрессивный, Родина, пресса, джадид, газета

Insoniyat tarixida mustamlakachi davlatlar tomonidan istilo qilingan xalqning milliy g‘ururi, ona tili, adabiyoti, asriy an’analaridan judo etib, birato‘la mahv etish tendensiyasi ustuvor sanaladi. Ezilgan xalq bora-bora yovning bunday qarashlariga ko‘nikadi. Mana shunday siyosiy qaltis vaziyatda xalqning bir guruh ziyolilari, millatning asl o‘g‘lonlari, taraqqiyparvarlar harakati paydo bo‘ldi. Ular “jadid” deb atalmish ulug‘ nom ostida birlashib, bir yoqadan bosh chiqarib ma’naviyat uchun, g‘urur va erk uchun, uzun va mashaqqatli bir yo‘lni bosib o‘tishdi.

XX asr boshlarida ana shunday murakkab vaziyatni aks ettirgan adabiyot boshqa barcha davrlar adabiyotidan keng ommani uyg‘otish, xalqning o‘rganib qolgan past turmush darajasidan chiqarish, millat, xalq manfaatlarini o‘ylash, o‘zbek xalqini ilmiy salohiyatli xalqlar qatorida ko‘rishni istash kabi g‘oyalari ilgari surilganligi bilan farq qiladi. Behbudiy, Avloniy, Sadriddin Ayniy, Qodiriy, Fitrat va Cho‘lpon kabi ijodkorlarimizning barcha asarlarida xalqni ma’rifatli qilish uning tamadduniga yo‘l ochishi g‘oyasi yotadi. Ushbu jadid ma’rifatparvarlari nafaqat o‘zlari yaratgan asarlari orqali, balki bu borada ko‘zga ko‘rinarli amaliy harakatlari (teatr, gazeta, jurnallar tashkil qilish, maktablar ochish v.) orqali xalqni ma’rifatli qilishga uringanlar.

Mashhur yozuvchi, ma’rifatparvar adib, adabiyotshunos olim, tarixchi, sharqshunos, manbashunos, publitsist, tarjimon, jamoat arbobi va akademik Sadriddin Ayniy[1] o‘zining qariyb oltmish yillik ilmiy-ijodiy faoliyati davomida o‘zidan boy ma’naviy va ilmiy meros qoldirdi. Uning ilmiy merosi keyingi avlodlar uchun o‘ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, u Buxorodagi jadidchilik harakatining ko‘zga ko‘ringan vakili, “Yosh buxoroliklar”[2] (“Tarbiyai atfol” – “Bolalar tarbiyasi”, “Yangi yoshlar tashkiloti”, “Yoshlar maxfiy jamiyati”, “Jamiyati javonbuxoriyon”)ning faol a’zosi va g‘oyaviy yo‘lboshchilaridan biri sifatida ham tanilgan[3].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida milliy ma’rifatparvar ziyolilar tomonidan Turkistonda ko‘plab gazeta va jurnallar nashr etildi. Chop etilgan gazeta va jurnallar sahifalarida o‘sha davrdagi Turkistonning iltimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotiga oid muhim ma’lumotlar berib

[1] Айний // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2001. – Б. 241-243; Айний. // Фалсафа. Қомусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир: Қиёмиддин Назаров. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 15.

[2] Bu haqada yana qarang. Abdulla Badriy. Yosh buxoroliklar kimlar?. – Moskva, 1919.

[3] Sadriddin Ayniyning hayoti va faoliyati haqida batafsil qarang: Книга жизни Садриддина Айни. – Душанбе: Ирфон, 1978; Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – Душанбе: Дониш, 1982 – стр 118; Брагинский И.С. Садриддин Айни: Очерк жизни и творчества. – Сталинабад: Нашриёти Академияи Тоҷикистон, 1954; Азизқулов Ж., Муллоҷонова З. Феҳрасти асарҳои С.Айнӣ ва адабиёти оид ба ӯ (То охири соли 1961). – Душанбе, 1963; Муллоҷонова З., Файзуллоев Н. Феҳрасти асарҳои С.Айнӣ ва адабиёти оид ба ӯ (солҳои 1962–1976). Зери таҳрири М.Шукуров. – Душанбе: Дониш, 1978.

borilgan. Ushbu matbuot materiallarda adib S.Ayniyning publitsistik, matbuotchilik va murabbiylik faoliyatiga oid muhim ma'lumotlar ham berilgan[1]. Shu bilan birga, gazeta va jurnallarda ma'rifatparvar adib, publitsist yozuvchi "S.Ayniy", "Qof Sin", "Sin Mim", "Qof Alif", "S. M.", "Q. S.", "S. X.", "S.", "X.", "Q. A.", "S. Q.", "S. A."[2] va boshqa turli imzolar va belgilar ostida maqolalar, hajviyalar, she'rlar yozgan.

Olimning "Bazm" (1904), "Fozili komil" (1916), "Malono Jomiy hazratlarining baytlariga marsiyayi musaddas" (1916), "Bomdodi bahoron" ("Bahor tongi") (1917) kabi she'rlari muallif ijodining boshlang'ich pog'onasini tashkil etadi[3]. Oktabr inqilobiga qadar ma'rifatparvar ziyoli sifatida maydonga chiqqan S.Ayniy xalq orzu-umidlarini kuylab, amirlik zulmiga qarshi norozilik kayfiyatlari bayon etilgan ko'plab tojikcha, o'zbekcha doston, g'azal va she'rlarni yaratdi. Uning "Guli surx", "Bazm", "Dahyak", "Yerni yana sotmang", "Muvashshah" va "Hasan urdi" singari she'r, doston, g'azallari shular jumlasidandir[4].

Aytish kerakki, S.Ayniy marsh va qo'shiqlarining hammasini ham badiiy-g'oyaviy jihatdan yuksak darajada deb bo'lmaydi. Uning "Inqilob uchqunlari" (1923) to'plamiga kiritilgan badiiy bo'sh, she'r, marsh va qo'shiqlari fikrimiz dalilidir. Biroq S.Ayniy ijodiy kamoloti yo'lida uchragan bunday o'sish qiyinchiliklari, ijtimoiy muhit murakkablik bilan bog'liqdirki, ular adibning keyingi davr ijodida takrorlanmaydi. Shuningdek, adib bu davrda "Inqilob" (1919), "Inqilob uchqunlari" (1921) kabi she'rlarni ham yaratgan[5].

Maktab-maorif masalalarini targ'ib qilishda S.Ayniy ilg'or g'oyalari, davatlari, shiorlar va she'rlari bu davrda muhim rol o'ynadi, o'qituvchilarining ilk vakili bo'lib xizmat etdi. Darsliklar tuzdi, bolalar hayotidan turli hikoyalar, qissalar va ocherklar yozdi, yoshlarni maktabga da'vat etadigan ko'pgina she'rlar yozdi.

U, yoshlar tilidan ota-onalarga murojaat qilib aytadi:

Chekdik jafolar, bilimsizlikdan
Bilimsizlikdan chekdik jafolar.
Endi otalar, bizni o'qiting!
Bizni o'qiting, endi otalar[6]!

Yoshlarga qarab esa mana bunday deydi:

Yuring o'rtoqlar! Bilim yurtiga
Bilim yurtiga yuring o'rtog'lar!
G'animat chog'lar qo'ldan ketmasin
Qo'ldan ketmasin, g'animat chog'lar[7].

S.Ayniy bu vaqtlarda Tukistondagi ko'pgina mahalliy gazeta va jurnallarda o'zining turli mazmundagi ilmiy-adabiy va tarixiy publitsistik mavzulardagi maqolalari bilan qatnashib turadi. Masalan, uning "Oktabr inqilobi" (1918), "Hurriyat marshi"[8], "Marsiya" (1919), "Baynalmilal marshi" (1919), "Turkiston o'lkasiga", "Otalarg'a", "Turon marshi", "Biz kim?", "Kunchiqarlarga xitob" (1919), "Maktab marshi" (1919), "Dorilmuallimin marshi" (1920) kabi o'zbek va tojik tillarida yaratilgan ko'pgina she'rlari "Mehnatkashlar tovushi va "Shu'layi inqilob" jurnalida bosiladi[9]. Yozuvchining "Kunchiqarlarga xitob" nomli she'rida o'zining jangovar ruhi bilan ajralib turadi. Bu she'rda mustamlakachilarning qo'l ostida bo'lgan Sharqning mustamlaka va yarimmustamlaka mamlakatlarining xalqlariga murojaat qilib, ularni milliy va ijtimoiy ozodlik uchun kurashga chaqiradi[10].

[1] Айнӣ С. Акнун навбати қалам аст (Осори баргузида дар ду жилд). – Душанбе: Ирфон, 1977. – саҳ. 449.
[2] Qarang: Айнӣ С. / Куллиёт. 16 ҷилд. Ҷилди 1. – Сталинобод, 1958. – Б. 338; Акнун навбати қалам аст. Осори баргузида дар ду ҷилд. – Душанбе: Ирфон, 1977. – саҳ. 449.
[3] Книга Садриддин Айни. – Душанбе: Ирфон, 1978. – стр. 9.
[4] Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – стр. 51.
[5] Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – стр. 55-56.
[6] Ayniy S. Maktab marshi. // "Mehnatkashlar tovushi". 1919-yil, 14-oktabr.
[7] Ayniy S. Maktab sharqisi. // "Mehnatkashlar tovushi". 1920-yil, 11-fevral.
[8] Ayniy S. "Mehnatkashlar tovushi". 1919-yil 28-oktabr.
[9] Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – стр. 57.
[10] Книга Садриддин Айни. – Душанбе: Ирфон, 1978. – стр. 29.

S.Ayniyning 1920-yillardagi she'rlari g'oyaviy-badiiy jihatdan bir xil emas. "Turkiston o'lkasi" (1919), "Yoshlarga" (1921), "Behbudiy uchun" (1920) kabi she'rlari unchalik ahamiyat kasb etmaydi[1]. Adibning "Turkiston o'lkasi" she'rida quyidagi fikrlar bayon etilgan:

Yugurdim yeldim man
Qirlarda, tog'larda.
Qidirdim, kezdim man
Cho'llarda, bog'larda.
Ing'illab yotarlar
Onalar yo'llarda.
O'chlikdan o'larlar
Bolalar qo'llarda[2].

Xulosa qilib aytish mumkinki, adibning mahalliy xalqni, kelajak poydevorlari bo'lgan yosh avlodni ilm-ma'rifatli qilib tarbiyalashdagi xizmatlari kattadir. Yoshligida ilm olishga bo'lgan kuchli ehtiyoji, uni Buxoroyi sharifda o'qishini ta'minladi va bu yerdagi mashhur madrasalarda o'qidi. Lekin bu vaqtdaki, Buxoro madrasalaridagi o'qitiladigan fanlardan qanoat hosil qilmay, qanday bo'lmasin uni isloh etish, diniy ilmlar bilan birga dunyoviy fanlarni o'rgatadigan yangi usul maktablarini ochishga bel bog'ladi. S.Ayniy keyinchalik, Buxorodagi ilk jadid maktabini tashkil etishning dastlabki tashabbuskorlaridan biriga aylandi va Ahmad Donishning ma'rifatparvarlik g'oyalarini davom ettirdi.

MUSTAQILLIK - JADIDLAR VA JADID MATBUOTIDAGI DEMOKRATIK MILLIY G'OYALARNING AMALDAGI IFODASI

O'rinova B.Z.
t.f.d. dotsent. Buxoro davlat
Universiteti "Ijtimoiy -siyosiy fanlar kafedrasi"

Annotatsiya: maqolada jadidlar va jadid matbuotining mustaqillik uchun olib borgan say'-harakatlari, ularning demokratik milliy g'oyalarining ilm, fan, madaniyat, ma'naviyat sohasi rivojiga safarbar etganliklari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqillik, ozodlik, jadidlar, muxtoriyat, demokratiya, federatsiya, g'oya, qadriyat, harakat.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgandan so'ng matbuotimizning eng katta yutuqlaridan biri - o'zbek milliy jurnalistikasining bosib o'tgan yo'lini to'la va yaxlit yoritishga intilish kuchayganligidir. Mustaqillik sharoitida siyosiy-iqtisodiy va madaniy sohalar qatori matbuotga nisbatan ham yangicha munosabat yuzaga keldi. Chunonchi jadidlar matbuoti to'g'risidagi haqiqatni ham tiklanishi, milliy istiqlolni ro'yobga chiqishi bilan bevosita bog'liqdir. Ze'ro, sobiq sho'ro tuzumi hukmronligi davrida kommunistik mafkura tazyiqi ostida matbuotimiz, xususan, XIX asr oxiri hamda XX asrdagi milliy matbuotning shakllanishi va rivojlanish jarayonlari o'rganilmagan edi. " Yillar o'tadi, asrlar o'tadi yangi avlodlar mutlaqo yangi jamiyatda, jahonning eng ilg'or mamlakatlaridan biriga aylangan (Bunga ishonchim komil) hur O'zbekistonda yashaydi, ona yurt tarixi, mustaqillik uchun kurash tarixini o'rganadi" - degan edi Islom Karimov.

Milliy davlat mustaqilligi uchun kurash tarixini o'rganishda , milliy ozodlik harakatlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda shart-sharoitlarini ilmiy -jihatdan tahlil qilishga alohida sayi-harakatlar boshlandi . Bu borada xususan, jadidlarning mustaqillik uchun kurash g'oyalarining vujudga kelishi nazarda tutiladi. Millat mustaqil bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmasligi Behbudiy kelgan birinchi xulosalaridan edi.[3] Ayni paytda, bunday g'oya milliy istiqlolchilik harakatining asosini tashkil etadi.

[1] Холида Айни. Жизнь Садриддина Айни (Краткий хронологический очерк). – стр. 57-58.
[2] Ayniy S. Turkiston o'lkasi. // Bolalar yo'ldoshi. 1919-yil, – № 2-3.
[3] . Беҳбудий М. Танланган асарлар. Сўзбоши. -Тошкент: Маънавият. 1999. Б-28

Shu jihatdan professor Begali Qosimovning so‘zlari g‘oyat ibratlidir: “Jadidchilik g‘oyalari erta bahorning shiddatli shamollari singari po‘rtanak bosib, bijirlab ketgan o‘rta asrchilik turmushini eng pastki qatlamlarigacha ochib tashladi. Momoguldurak bo‘lib, millat va Vatanning hayot-mamot masalasi kun tartibiga qo‘yilgani haqida bong urdi. Chaqmoqdek chaqnab, uning bag‘ridagi jarohatlarini yoritdi. Obirahmat bo‘lib Turkiston ko‘ksidagi maorif, teatr nihollariga hayot baxsh etdi”. [1]

Bu g‘oyalarning asosida milliy uyg‘onish, milliy mustaqillik uchun kurash yotar edi. Jadidchilikni mohiyatini millat va Vatanni anglashdan ular manfaati uchun kurashgacha bo‘llgan qizg‘in va hayajonli jarayon tashkil qildi. Ayni paytda bu harakat millatni ham tarbiyalab berdi. Uni o‘z boshiga yog‘ilgan har bir ofatni taqdir deb ta’bir etishdan tahlil qilib, chorasini izlay olish darajasigacha ko‘tardi. Xususan jadidlarimiz millatning yashamog‘i, taraqqiy qilmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar.[2]

Haqiqatdan ham jadidchilik rus mustamlakachiligiga qarshi milliy demokratik harakat bo‘lib, u o‘sha davr Turkistondagi qoloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida turli islohotlar o‘tkazish, pirovardida mutaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan edi. Jadidchilik Rossiyaga qaram bo‘lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80-yillarida paydo bo‘ldi. Uning asoschisi diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali(1851-1914) bo‘ldi.

Jadidlarning xalq marifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo‘nalishdan iborat bo‘lgan:

1. Yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish;
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish;
3. Turli ma’rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish.

Shu dasturni amalga oshirish borasida Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asatullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishgan.

Jadidlarning xalqaro aloqalari keng qamrovli bo‘lib, ular Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlardagi jadidchilik oqimlari dasturlaridan xabardor bo‘lganlar, o‘zaro safarlar, muloqotlar orqali tajriba almashganlar. 1905-1906 yillardagi Rossiya imperiyasidagi inqilobiy harakatlar Turkistonga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Faol kuchlar jipslasha boshlaganlar va jadidlar ma’rifatchilik faoliyatini jadallashtirganlar. Bu faqatgina maktablarda emas, balki jonli matbuotchilik faoliyati, jumladan, ro‘znomalarning vujudga kelishida ham ko‘rinadi. Chunonchi 1906-yilda Ismoil Obidovning muharrirligida "Taraqqiy", shu yili Munavvarqori muharrirligida "Shuhrat", Ahmadjon Bektemirov muharrirligida "Osiyo" ro‘znomasi chop etildi. Lekin tez orada chor ma’muriyati ashaddiy shovinist N.P.Ostroumov bildirishnomasiga asoslanib bu ro‘znomalarni ham man etdi. [3]

Marifatchilikning yangi to‘lqinida 1913-1915 yillarda "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg‘ona", "Buxoroi sharif", "Turon", 1917-yilda esa "El bayrog‘i", "Kengash", "Hurriyat", "Ulug‘ Turkiston" gazetalari "Oyna" jurnali kabi matbuot nashrlari ham paydo bo‘ldi. Rossiya fevral demokratik inqilobi arafasida Turkiston jadidchiligi yetuk siyosiy harakatga aylandi. Ayni paytda, milliy siyosiy partiyalar va tashkilotlar, jumladan jadidlar tomonidan "Sho‘roi islomiya", "Ittifoqi muslimin", "Turon" kabi bir qator tashkilotlar tuzildi. Jadidlar asosiy e’tiborini jamiyatda ma’naviyatni rivojlantirishga qaratdilar. Ular yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, gazetalar chiqarish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarni nashr ettirish, G‘arbning yangi madaniy va texnologiya uslublarini joriy etish zaruratini, hamda uni Turkistonda targ‘ib etish orqali milliy - dunyoviy ta’limni yuzaga keltirish, ma’naviy hayotni yangilab va boyitib, milliy o‘zlikni anglashni yuksaltirishga zamin yaratishga intilganlar. Bunday siyosiy yondashuv, bevosita jamiyatda

[1] Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. -Тошкент: Маънавият. 2002. Б-4.
[2] Абдуазимова Н.Миллий журналистика тарихи. /Миллий истиқлол даври / Икки жилдлик . Иккинчи жилд.Масул муҳаррир Нажмиддин Комилов .-Тошкент: Шарқ ,2008, Б -338.
[3] Р. Муртазаева ва бошқалар.Ўзбекистон тарихи. -Тошкент: 2000. Б-82.

adolatli davlat qurishning asoslari rivojlanishiga xizmat qiladigan nazariy omillar ekanligini e'tirof etmasdan bo'lmaydi. Albatta ular demokratiyaning tom ma'nodagi ko'rinishlaridan uzoqda bo'lganlar.[1]

Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurash va uning ijtimoiy-siyosiy asoslarini yorituvchi manba'lar Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Behbudiy, Avloniy, Xuvaydo va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan. O'z davrida jadidlar milliy-madaniy muxtoriyat qurilishi tamoyillarini rivojlantirishga Turkistonda davlatchilik shakli va uni boshqarish qonunlarini joriy etish, sud organlarini tashkil qilish, davlat tuzilmalarini yaratish kabi masalalarga katta e'tibor berishgan. Ammo shu davr siyosiy sharoiti, hamda yerli xalqlarning tushunchasida Turkistonda mustaqil demokratik jamiyat qurish to'g'risidagi qarashlar bir muncha cheklanganligini ko'ramiz. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi"[2] dasturida to'la mustaqil, demokratik jamiyat to'g'risida emas, davlatning avtonomiya shakli nazarda tutilgan. 1917-yildagi Umumturkiston musulmonlarining qurultoyida ham davlatchilik qurilishi to'g'risida bahs olib boriladi. Ammo ularning demokrtiya va federatsiya to'g'risidagi qarashlari ham aslida konstitusion monarxiya tuzumidan tashqariga chiqib ketolmaydi. [3]

XIX asr oxiri XX asr boshlarida mavjud ijtimoiy voqelik ta'siri ostida shakllangan jadidcha tafakkur tarzi va jadid mutafakkirlarining umummilatimiz tarixiga qo'shgan hissalari, ayniqsa qadrlidir. Bu davrda milliy o'zligni anglashga xizmat qiladigan , Vatan erki, ozodligi g'oyalarini targ'ib qilib, milliy ozodlik kurashiga da'vat etadigan kuch maydonga kelgan edi. Mustamlakachilik zulmidan qutilish, mustaqillikni qo'lga kiritish uchun xalq zamonaviy bilim va madaniyatni egallashi lozim edi. Jadidlarning ko'pchiligi nomlari, asarlari mustabit sho'ro tuzumi davrida turli "mash'um tamg'alar" ostida kamsitildi. Aksari hollarda "aksilsho'roviy", "zararli adabiyot" degan hukm ostida millatimiz tarixidan o'chirib tashlangan edi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zbek madaniyati, ma'naviyati tarixida, umuman ijtimoiy tafakkurida jadidchilik va jadid ijodkorlari muhim o'rin tutganligi ayni tarixiy haqiqatdir. Bu oqimning mohiyatini tubdan oydinlashtirish, sho'ro mafkurachilari tomonidan qo'yilgan "ayblar"dan xalos qilish, uning to'g'ri va ilmiy bahosini berish katta ahamiyatga ega masaladir. Mustaqillik o'zbek xalqi millati uchun ijtimoiy ideal bo'lgan .Ushbu idealning negizi uzoq tarixga borib taqaladi va u hech qachon xalqimiz qalbidan o'chmagan. Mustaqillik milliy taraqqiyot yo'llarini belgilab olish orqali o'zbek xalqi, millati orzu qilib kelgan ijtimoiy ideallarni real voqelikka aylantirishga imkon berdi. Mustaqillikni ijtimoiy milliy idealga aylantirgan ijtimoiy tarixiy omillar o'rganilgan. Unda jadidchilik harakatiga, yurtimiz ozodligi uchun kurashgan qahramonlarimiz hayotiga murojaat etilgan. Masalan: "Jadidlar harakatining asl mohiyati millat va mamlakat mustaqilligi, ozodligi va erkinligi bilan bog'liq bo'lgani uchun bu g'oyalar o'ngdan ham so'ldan ham qattiq zarbaga uchragan.

Mustaqillik g'oyasini ochiq-oydin aytish degan so'z , jadidlarni chor samoderjaviyasiga oshkora dushman qlib qo'yar, shuning uchun ular asosiy ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-estetik g'oyalarni inson kamoloti va ma'naviyati tomon burib yuborgan edilar ".[4] Ko'rinib turibdiki jadidlar mustaqil, milliy demokratik davlat barpo etishni o'zlarining ijtimoiy-siyosiy ideali deb bilganlar. Bu boradagi fikrlarni ular ochiq, oshkora aytish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari uchun ushbu idealni ilm, fan, madaniyat va xalqaro ahillik, uyushqoqlik, umumiy Turkiston, ma'naviyat, yangi avlodni tarbiyalashda ko'rganlar. Jadidchilik fenomeni shundaki, keyingi uch asr ichida bu birinchi bo'lib milliy davlatchilik qurishga urindi. Yagona mustaqil Turkiston uchun kurashdi va milliy mustaqillik g'oyasiga asos soldi, u uyqudagi sharkni uyg'otishga va harakatlantirishga, ozodlik, milliy g'urur, o'z buyuk ajdodlari, boy madaniyati va umuman, mustamlaka tuzumining tazyiqi ostida unitilgan barcha qadriyatlarni xotirlashga undadi. Jadidlar ta'limoti- o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki

[1] Ўзбекистонда демократик жамият қуриш назарияси ва амалиёти . Олий таълим муассасалари талабалари учун дарслик. -Тошкент: Наврўз. 2005.Б-65.
[2] Беҳбудий М. Туркистон маданий мухторияти лойиҳаси. "Жаҳон адабиёти". 2003. Август. Б-146.
[3] Дўстқораев Б. Ўзбекистонда янги давлатчилик маърифати. "Жамият ва бошқарув." 1997. 2-сон. Б-13.

[4] Махмудова Г. Жадидизм ва Туркистонда ахлоқий -эстетик фикр тараққиёти. -Тошкент: Davr press. 2006. Б-36.

fikrlovchi yoshlarni, shuningdek barcha taraqqiyparvar ziyolilarni o‘z ketidan ergashtira oldi. Ularning faoliyati va dasturi kelajak uchun namuna, ideal bo‘ldi.

Xulosa: Muxtasar qilib aytganda, mustaqillik yillarida ham jadid matbuoti o‘ziga xos milliy g‘oya sifatida namoyon bo‘ldi, hamda millatni uyg‘onishiga turtki bo‘lgani tufayli, istiqlol davri matbuotida o‘z ifodasini topdi.[1] Ommaviy axborot vositalarida jadid matbuotining, aniqrog‘i milliy matbuotimizning tarixiga oid materiallarning o‘rganilishi, jadidlar faoliyatining ilmiy tadqiq etilishi jamiyatimizdagi chinakam ma’naviy tiklanish va poklanish, o‘zbek xalqining o‘zligini anglashi uchun xizmat qildi, desak aslo yanglishmagan bo‘lamiz. Zotan, “ Mustaqillik biz uchun muqaddas ma’naviy qadriyatlar va milliy an’analarga tayangan holda yashash , ana shu bebaho merosni asrab-avaylab , uni kelgusi avlodlarga yanada boyitgan holda yetkazish demakdir”.[2] O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, madaniyat va ma’naviyatni, milliy qadriyat va an’analarni tiklash, haqqoniy tarix va o‘zlikni anglashga qaytish mamlakatimizda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoldi.

BUXOLIK JADID MUSO SAIDJON VA UNING “GO‘RI AMIR” ASARI HAQIDA

Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o‘g‘li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti v.b.dotsenti, t.f.f.d., PhD,
Email: muslimbek@uwed.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada buxolik jadid taraqqiyparvari Muso Saidjonning “Go‘ri Amir” asari tahlil qilinadi. Asarda Amir Temur shaxsiyati, siyosiy va harbiy faoliyati, temuriy shahzodalar, shuningdek Go‘ri Amir maqbarasining tarixiy, madaniy va me’moriy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu maqolada Muso Saidjonning Temuriylar davri madaniy merosi va tarixiy manbalarini o‘rganishdagi ilmiy hissasi yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Muso Saidjon, Go‘ri Amir, Amir Temur, Temuriylar, Shahrisabz, Samarqand, maqbara, tarix, madaniyat, me’moriy meros.

1893-yilda Buxoro shahrida qorako‘l savdogari Yo‘ldosh Saidjonov oilasida tug‘ilgan, avval o‘z mahallasidagi boshlang‘ich maktabda besh yil o‘qib, xat-savod chiqargan, o‘n bir yoshida otasidan ayrilib, 1905-1908-yillarda ukasi Muxtorjon Saidjonov bilan Kogondagi rus-tuzem maktabida o‘qigan[3], yoshligidanoq ilm-u ma’rifatga qiziqib, arab, fors, turkiy tillar, adabiyot, tarix va geografiya bilan jiddiy shug‘ullangan holda, Rossiya, Turkiya kabi xorijiy mamlakatlar matbuoti va adabiyoti bilan tanishgan taraqqiyparvar, “Yosh buxoroliklar” harakatining yetuk namoyondalaridan biri, davlat va jamoat arbobi, olim va ilk o‘zbek professori Muso Saidjonning (1893-1938) tavallud topganiga bu yil 130 yil to‘lmoqda.

Butun umrini Turkiston xalqining milliy manfaati va madaniyati yo‘lida sarflagan yurt farzandining ilmiy merosini tadqiq etish, bugungi kunda arxiv va nodir fondlarda saqlanayotgan asarlarini o‘quvchilarga yetkazishlik bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib turibdi.

Muso Saidjonning ushbu risolasi 1929-yilda arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek tilida Samarqandda chop etilgan bo‘lib, unda Amir Temur shaxsiyati, uning siyosiy va ijtimoiy portreti, temuriy shahzodalar hamda sohibqironning vafoti va u dafn etilgan maqbara – G‘o‘ri Amirning yuzaga kelish tarixi olimlarga xos tarzda ochib berilgan. Asarning 1929-yil 9-aprelda yakunlangani esa muallifning Sohibqiron shaxsiyatiga chuqur hurmati va qolaversa uning tavallud kuniga ham mo‘tabar hadyasi edi.

Muso Saidjon ushbu asarida “Go‘ri Amir” ya’ni Amir Temur maqbarasining qurilishi, undagi qabr va qabrtoshlarning tarixi xususida shunday qiziqarli va chuqur tahlillangan mulohazalar keltirganki, ular siz aziz o‘quvchilarni aslo befarq qoldirmaydi.

[1] Ўринова Б. Қаландарова Ф. Матбуот ҳозирги замон тарихининг ижодкори. БухДУ илмий ахборотлари .2020,№2. 232-238-б.
[2] Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан .4-жилд.Тошкент, ”Ўзбекистон ”, 1996, Б-156.
[3] Muhammedova S. Muso Saidjonovning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy faoliyati. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: 2023. – B. 15.

Ushbu asarning yana bir o‘ziga xos jihati shundagi, unda Turkiston mustamlakaga aylantirilgandan keyingi ushbu mahobatli maqbaraning holati to‘g‘risida ham muhim ma’lumotlar berilgan. Biz bugun ushbu dalillar orqali “Go‘ri Amir” maqbarasining XX asrning boshlaridagi holati xususida mufassal ma’lumotga ega bo‘lamiz. Bu esa maqbaraning mustamlaka tuzumi sharoitidagi shakl va holatiga doir tarixiy ma’lumotlarni to‘ldirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari Muso Saidjon, Amir Temur shaxsiyatiga turli xil bo‘hton va haqoratlar aytib turilgan va shu bilan birga o‘lka bo‘ylab Turkiston taraqqiyparvarlari ustida “Milliy Ittihod” ishi doirasida qatag‘on mashinasi ishga tushirilayotgan bir paytda, o‘zining chinakam ma’naviy jasorat sohibi ekanligini ko‘rsatib, Sohibqiron Amir Temur to‘g‘risidagi ushbu risolasini nashr qilib, turkistonliklarni milliy tarix bilan g‘ururlanishga da’vat etdi. Biroq butun hayotini Vatan ravnaqi, Turkiston xalqining ilm-ma'rifat taraqqiyoti uchun bag‘ishlagan fidoyi olim, jismoniy qiynoqlar, ma’naviy tahqirlar va qip-qizil bo‘htonlar asosida 1938-yil 14-oktyabrda otib tashlandi[1].

Muso Saidjonov asarning dastlabki qismida Amir Temurning tug’ilishi, voyaga yetishi xususida muhim ma’lumotlarni keltirib o’tadi. Xususan u: “Temur Tarag‘ay o‘g‘li Keshning (Shahrisabz) Ho‘ja Ilg‘or qishlog‘ida 736-hijriyda (milodiy 1336-yil) tug‘ildi. Uning yoshliq chog‘ida, mang‘ullarning (mo‘g‘ullar – M.Alijonov), chig‘atoylar o‘lkasi sanalg‘on Turkiston, ko‘pdan beri o‘zaro nizolar, urushlar bilan kuchsizlangan, o‘lkaning siyosiy va iqtisodiy ahvoli buzuq, Chingizning mahkam yasoqidan asar ham qolmag‘on edi. Xuddi shuning kabi, Eron chingiziylari va Eron ham buzuq, haroba holg‘a aylangan edi”[2] deb yozadi.

Muso Saidjonov Amir Temurning tarjimayi holi bo’yicha ma’lumotlanri keltirish bilan birga Kesh shahri xususida ham muhim kaftni keltirib o’tadi. Uning yozishicha: “Keshni eski tarixchilarning ko‘pi “Kish” suvratida yozarlar. Bizim ismlar bilan “Kesh” bo‘ladir”[3].

Shuningdek asarda Temur shaxsining siyosiy faoliyati va uning shaxsiy fazilatlari keng yoritilgan. Unda Temur irodasi kuchli, qat’iyatli va o‘z maqsadlariga erishishda doimo matonatli rahbar sifatida tasvirlanadi. Asarda qayd etilishicha, Temur dastlabki harakatlarida Movarounnahrdagi siyosiy vaziyatni sinchiklab o‘rganib, o‘z kuchini sinashga kirishadi va bu jarayonda mahalliy boylar hamda ular bilan manfaatdor tabaqalar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Asarda Temurning dastlabki muvaffaqiyatsizliklariga qaramay, kichik qabilalarni birlashtirib, kuchli hukmdorlarni yengib, asta-sekin o‘z kuchini oshirgani alohida ta’kidlanadi.

Asarda Temurning asosiy siyosiy maqsadi Turkistonni markazlashgan, mustahkam davlatga aylantirish bo‘lganligi ko‘rsatiladi. U nafaqat harbiy, balki siyosiy jihatdan ham mohirona strategiya yuritib, kichik qo‘mondonlar va mahalliy elitalarni o‘z foydasiga jalb qilgan. Asarda Surg‘utmishni xon qilib e’lon qilishi uning o‘z kuchini rasmiylashtirish va hukmronlikni boshlashga bo‘lgan intilishini ifodalash sifatida talqin qilinadi.

Shu tariqa, asarda Temur nafaqat shaxs sifatida, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlar kontekstida tasvirlanadi. U o‘z irodasini, strategik tafakkurini hamda yon-atrofdagilarning qo‘llab-quvvatlashlarini o’zaro uyg‘unlashtirib, kelajakdagi imperiya yaratilishidagi asosiy omillarni shakllantirgan buyuk hukmdor sifatida ko’rsatib beriladi.

Jumladan, Muso Saidjon quyidagilarni yozadi: “Eron va Turonda ahvol shunday ekan, ismi bilan sifati Temur bo‘lg‘on, irodasi kuchli bu shaxs, o‘zining kuchini sinashga kirishdi. Temurning bu harakati Movarounnahrning [3] boylar va ular bilan manfaatdor bo‘lg‘onlar tarafidan hursandliq bilan qarshi oling‘on. Mazkur tabaqa, Temur kuchayib olguniga qadar uni himoya qilib, yordam etganlari ma’lumdir.

Temur, Turkistonni mustahkam bir hukumat qo‘l ostidag‘i davlat holig‘a keltirishni o‘ziga maqsad qilgan turk jahongiridir. Ul bu maqsadg‘a erishishda, boshlab ko‘p muvaffaqiyatsizliqlarg‘a uchradi. Biroq, u sira o‘zining irodasidan qaytmadi. Mayda-chuyda qabila boshliqlaridan kuch yig‘ib olib, “Tug‘luq Temur”, “Amir Husayn” kabi kuchli hukmdorlarni yengdi va hijriy 771-yilda (milodiy 1370-yil) Chingiziylar sulolasiga mansub

[1] Наимов Н. Жизнь Мусо: реформатор, политик, учёный. Вухого. 2018. – В. 201.
[2] Muso Saidjon. Go’ri amir. – Samarqand: 1929. – B. 2.
[3] Muso Saidjon. Go’ri amir. – Samarqand: 1929. – B. 3.

bo‘lg‘on va o‘zining kichik qo‘mondonlaridan Surg‘utmishni xon e’lon etdi va uning nomidan jahongirlik etishga kirishdi[1].

Shu bilan birga asarda Temurning harbiy va siyosiy faoliyati nafaqat keng hududlarni zabt etish bilan, balki egallagan mamlakatlarning madaniy va iqtisodiy resurslarini birlashtirish orqali Turkistonda mustahkam davlat qurish bilan ham tavsiflanadi. U O‘rta Osiyo, Eron, Dashti Qipchoq (Oltin O‘rda), Hindiston, Kichik Osiyo va Shomni zabt qilgan, shu hududlardan hunarmandlar, san’atkorlar va mahalliy ustalarni Samarqand va Shahrisabzga ko‘chirgani asarda alohida qayd etilgan. Asarda ularning mahorati va boyliklari yordamida shaharlarda obodlik ishlarini boshlagani, har bir g‘alabadan so‘ng bir necha oy davom etgan xursandchilik va to‘ylarga qo‘shimcha ravishda katta binolar, jumladan zafar toqlari qurdirgani ta’kidlanadi.

Asarda “Go‘ri Amir” maqbarasining tarixi ham yoritilgan. Ushbu maqbara dastlab Temurning nabirasi, G‘iyosiddin Jahongirning o‘g‘li Muhammad Sultan uchun qurdirilgan bo‘lsada, keyinchalik Temur va temuriylar maqbarasi sifatida tanilgan. Shuningdek, Temur o‘z ko‘milish joyini Shahrisabzda tanlagani bois, Shayx Shamsiddin Kulol va otasining qabrlari ustida maqbara barpo ettirganligi asarda qayd etilgan. Maqbaraning sog‘ va so‘l tomonlarida Temur avlodi uchun maxsus binolar qurdirgani ham qayd etilgan.

Muso Saidjon Temuriylarga mansub shahzodalarni dafn etish odatlari va joylari xususida ham muhim ma’lumotlarni keltirib o’tadi. Jumladan, muallif: “Temurning birinchi o‘g‘li G‘iyosiddin Jahongir Samarqandda 777-hijriyda (milodiy 1375-yil), Umarshayx Eronda 797-hijriy yilda (milodiy 1395-yil) vafot etgan bo‘lsalar ham, Shahrisabzga olib kelinib dafn etilganlar. Temur saroyig‘a kelgan Ispaniya elchisi Klavixo, Shahrisabzdagi Temur soldirg‘on binolarni ta’rif etganda mazkur maqbaralar to‘g‘risida quyidag‘ilarni yozadir: “Bu shaharda (Shahrisabzda – M.S) juda ko‘p katta uylar va masjidlar bordir. Ayniqsa Temurbek soldirg‘on bir masjidkim, hali bitgani yo‘q; unda Temurbekning otasi ko‘milgan katta maqbara bor. Bundan boshqa o‘zi uchun ayrim maqbara bino etishni buyurgan. Bu ham hozir bitmagan edi. Rivoyatga ko‘ra ul (Temurbek) bundan bir oy burun kelib o‘zining maqbarasini ko‘rgan. Biroq eshigi (peshtoqini bo‘lsa kerak) past bo‘lg‘oni uchun yoqtirmag‘on, buzib qaytadan tuzishni buyurg‘on. Hozir ustalar ishlamakdalar. Bundan boshqa bu masjid va Temurbekning Jahongir (Aslida – Yangir) otli birinchi o‘g‘li ko‘milgandir. Bu masjid va maqbaralar juda boy va go‘zal suvratda oltin va lojuvardlar bilan koshinlangan. Uning oldi katta sahnli (bog‘cha) bo‘lub karb yog‘ochlari va hovuzlari bor. Shoxning amri bilan bu masjidga har kun 20 qo‘yni pishirib yuborarlar. Bu ko‘milgan otasi va o‘g‘lining yoddoshti (xotirasi – M.Alijonov) va ruhlarining istirohatlari uchundir”, deb ta’kidlaydi.

Yuqorida keltirilgan iqtibosga tayanib aytish mumkinki, Temur va temuriylar nafaqat siyosiy va harbiy faoliyatga, balki ajdodlar va avlodlar xotirasini saqlash, ularning ruhiy xotirasini yodda tutish va madaniy merosni yaratishga ham katta e’tibor bergan. Asarda temuriylarga mansub shahzodalar dafn etilgan maqbaralar va masjidlar o’z davrining madaniy, me’moriy va diniy jihatlarini yorituvchi muhim manba sifatida e’tirof etilgan.

Xulosa o’rnida aytish mumkinki, Muso Saidjon o’z asarida Amir Temur va uning avlodlari, shuningdek Go‘ri Amir maqbarasi tarixiga oid chuqur va ilmiy asoslangan ma’lumotlarni taqdim etadi. Muallif Temurning shaxsiy fazilatlari, siyosiy va harbiy faoliyati, Turkistonni markazlashgan, mustahkam davlatga aylantirishdagi strategik harakatlarini yoritadi. Shu bilan birga, Temurning egallagan hududlardan hunarmandlar, san’atkorlar va mahalliy ustalarni o‘z poytaxtlari Samarqand va Shahrisabzga ko‘chirish orqali madaniy va iqtisodiy resurslarni birlashtirganligi ham asarda alohida ta’kidlangan.

Qolaversa, asarda Go‘ri Amir maqbarasining qurilishi, undagi qabr va qabrtoshlarning tarixi, shuningdek Temuriy shahzodalarining dafn etilish odatlari ham batafsil yoritilgan. Muallif maqbaraning boy va go‘zal suvrati, oltin va lojuvardlar bilan koshinlanganligi, oldida hovuzlar va bog‘chalar mavjudligi kabi me’moriy tafsilotlarni keltirib, Temuriylar davrining madaniy, diniy va me’moriy an’analari haqida qimmatli ma’lumotlarni keltirgan.

[1] Muso Saidjon. Go’ri amir. – Samarqand: 1929. – B. 6.

JADID MAKTABLARIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMI VA TARBIYA (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)

Azimova K.K.
Buxoro davlat
universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Ta’lim tizimida amirlik davrida Buxoroda turg‘unlik va zamon talablaridan ortda qolish yuz bergandi. Biroq o‘tmish ta’lim va tarbiya maktablarida o‘rnak olsa bo‘ladigan jihatlar ham mavjud edi. Ta’lim va tarbiya jarayonlarining uzviy bog‘liqligi, inson mafkuraviy immunitetini yuzaga keltirishdagi axamiyati, jamiyat barqaror rivojlanishidagi o‘rni masalalarining beqiyosligi isbot talab qilmaydi. O‘tmishdagi voqeliliklarni nuqul bir xil qora bo‘yoqda tavsiflash uslubi esa ana’naviylik tizimiga darz keltiradi.

XIX asr oxiri – XX asr dastlabki o‘n yilligida ana’naviy ta’lim tizimini islox qilish, modernizatsiyalash parokandalik va qoloqlikdan qutilishning yo‘li deb qaralgan. O‘zbek milliy davlatchiligining turli tarixiy bosqichlarida ta’lim tarbiya masalalarini o‘rganish Pedagogika fanida xamma vaqt qiziqarli mavzulardan biri bo‘lib kelan. Rassiya imperyasi Turkiston o‘lkasini protektorat, yarim mustamlaka qilganidan so‘ng (1865-1873) mintaqa ushbu davlatning xom ashyo bazasi va sanoat maxsulotlarini sotadigan bozorga aylandi. Markaziy Osiyo hudidida rus posyolkalari va shaharlari vujudga kela boshladi. Yevropa madaniyati kirib kelishi bilan esa amirlikdagi ta’lim–tarbiya masalalari bilan qiziqish kuchaydi.

Bir necha srlar davomida boshlang‘ich ta’lim maschitlar qoshidagi maktablarda berib kelingan. Bunday maktablar tarixi VIII asr boshlariga borib taqaladi. O‘rta Osiyoda islom dinining joriy etilishi, maschit hamda madrasalar qurilishi bilan musulmon maktablari vujudga kelgan. “Maktab” so‘zi arabcha “kataba” – yozmoq felidan yasalgan bulib, “yozishga o‘rgatiladigan joy”[4.66.] deyilsa, ayrim hollarda “maktab” atamasi “mirzalar maktabi” ma’nosini bildirgan. Maktab musulmonlarning masjidlar qoshidagi xat-savod chiqarish va diniy udumlarni o‘zlashtirish dargohi bo‘lgan. Bunday an’naviy ta’lim tizimi O‘rta Osiyo Arab xalifaligi tomonidan istilo kilingandan so‘ng zardushtiylarning “dabiriston”lari o‘rnida shakllangan.

Boshlang‘ich ta’lim muassasalari manbalarda “maktabxonalar” sifatida qayd etilib, ular deyarli barcha yirik qishloqlarda bo‘lgan. Maktablar aksariyat hollarda bir xonadan iborat bo‘lganligi uchun ham ularni “maktabxona” - deb atashgan. Musulmon qoidalaridan kelib chiqqan holda o‘g‘il va qiz bolalar maktab xonalarning aksariyati masjidlar, madrasalar, qorixonalar qoshida yoki xususiy maktabdorlar xonadonlarida, qiz bolalar maktabxonalari otin ayollar uylarida yoki badavlat kishilarning maktab yoshidagi qizlari uchun ularning uylarida tashkil etilgan.[2.57.] O‘quvchilar muallimdan kaltak va haqoratlar bilan har kuni ikki ta’lim oladilar, saboq o‘zlashtirilishi va tushunarli bo‘lishiga hech kim parvo qilmaydi, kabi fikrlari 1909-yilda yozilgan “Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi” asarida bayon qilinadi. O‘quvchilar o‘tiradigan xona yarim qorong‘u, zax hamda hayvonlar yashaydigan joylarga o‘xshaydi”[1.84.] – deb yozgandi. Albatta, uning fikrida ancha bo‘rttirishlar sezilsada, aslida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida maschitlar qoshidagi maktablarga e’tibor susaygandi.

Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Turkistonda keng tarmoqli xalq maorifi o‘choqlari: maktablar va madrasalar mavjud edi. Istilochilar ularning faoliyati bilan tanishib, mustamlakachilikning bundan keyingi taqdiri uchun o‘sha maktab va madrasalarning g‘oyatda havfli ekanligini tushunib yetgandilar. Shu bois chorizm o‘lkada ruslashtirish siyosatini ayni shu sohadan boshlab, bu soha bo‘yicha o‘z dasturini ishlab chiqadi. O‘sha ustamon pixini yorgan siyosatchi K.P.Kaufman bu sohada ayniqsa, jon kuydirib faoliyat ko‘rsatgandi.

Davlat Kengashining bu qarori Kaufman tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Kaufman “ruslar va tuzemeslarning bolalarini birgalikda tarbiyalash” masalasini ko‘taradi. U musulmon va rus maktablarining ajralib turishi” iqtisodiy va siyosiy jihatdan zararli deb hisoblaydi. Uning bu g‘oyasini keyingi general-gubernatorlar davom ettiradilar. 1884-yilda Toshkentda birinchi rus-tuzem maktabi ochiladi, ularning soni XIX asr oxirida yuzdan oshib ketadi.[5.253.]

Rus ma'murlarining Turkiston o'lkasida yerli xalq vakillarini qorong'ulik zulmat va zabunlikda saqlashga qaratilgan mustamlakachilik va zo'rlik siyosatiga qaramasdan XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida o'lkada milliy maorif, fan va madaniyat taraqqiyoti to'xtab qolgan emas. Ammo ushbu masalada ham Sovet hokimiyati yillarida kommunistik mafkura ta'siri ostida manqurtlik va qullarcha tobelik dunyoqarashida shakllangan mahalliy olimlar o'z asarlarida chorizm davrida yuritilgan maorif, fan va madaniyat sohasidagi siyosatni ko'pirtirib maqtadilar. Rossiya bosqiniga qadar o'lkadagi bu sohadagi ahvolni kamsitib yerga urdilar.

Hatto ayrim olimlar vatanga, o'z xalqiga xiyonat qilgan va bosqinchi Rossiya hukmdorlari tomoniga o'tgan Saidazimboy singari savdogarlarni Toshkentda o'z uyida rus-tuzem maktabi ochdi deb, osmonga ko'tarib maqtaydilar. Aslida esa rus-tuzem maktablari asosan tilmochlar-tarjimonlar tayyorlashga mo'ljallab tashkil etilgan edi. Ammo sovet davrida bu kabi da'volarni inkor etuvchi xolisona tadqiqotlar ham e'lon qilinadi. Tarixchi olim Pyotr Geronovich Kim o'zining «Uydirma va haqiqat» maqolasida o'zimizdan chiqqan «olimlar»ga qonuniy savol bilan murojaat qiladi:

Xo'sh, savodsiz xalq butun dunyo xalqlarining faxru iftixoriga aylangan Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va Xivadagi Go'ri Amir, Shohi Zinda, Bibixonim kabi koshonalarni va boshqa ko'plab asori-atiqalarni qanday qilib bunyod etgan ekan? Savodsiz xalq qay yo'l bilan jahonga Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy kabi olamga mashhur allomalarni yetkazib berdi ekan? Savodsiz xalq Navoiy, Ulug'bek, Forobiy, Jomiy va boshqa ko'plab shoiru fozillari bilan olamga dong taratganining siri nimada? Furqat, Muqimiy, A.Avloniy, M.Behbudiy kabi minglab ma'rifatparvarlari bo'lgan xalqning savodsizligiga ishonish mumkinmi?

Rossiyada aholining umumiy soni-126,388,800, maktablar soni-33,401, o'quvchi soni-2.318.100-aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar-1,8 foizni tashkil etgan holda, aholining savodxonligi-21 foiz; Belorussiyada aholining umumiy soni-6.492.857-maktablar soni-2.263, o'quvchilar soni-125.418, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar-1,9 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi-24,7 foiz;Turkistonda aholining umumiy soni-3.792.774, maktablar soni-6.027, o'quvchilar soni-64015, aholining umumiy soniga nisbatan o'quvchilar-1,7 foizni tashkil etgan holda aholining savodxonligi-19,55 foiz bo'lgan». [6.]

Boshlangich maktablar Eski Buxoro shahrida va boshka shaharlarda, shuningdek, qishloqlarda mavjud bo'lib, Buxoro shahridagi 22 guzarning har birida maktabxonasi bo'lgan. Ma'lumki shariat ahkomlariga ko'ra, ilm o'rganish uchun murojaat qilgan kishiga rad javobi berish kechirilmas gunoh hisoblangan, o'kishga kelgan har bir bolaning qaysi ijtimoiy toifadan bo'lishi va o'kish uchun qancha haq to'lay olishidan qat'iy nazar, o'kituvchilar zimmasiga ularni har qanday e'tirozsiz o'qitish vazifasi yuklatilgan. Chunki, "har bir musulmonning bilim olishi ham qarz, ham farz" ligi haqidagi hadisi-sharif sunnat hisoblangan.

Xullas, Turkistonda ta'lim va tarbiya tizimi tarixining ildizlari uzoq asrlarga borib taqaladi. Tarixning barcha bosqichlarida mintaqamiz, ayniqsa Buxoro o'zining olimu-fuzalolari diniy va dunyoviy imi darg'alari bilan Sharq va G'arb dunyosida mashxur bo'lib kelgan. Buxoroda boshlang'ich ta'lim tizimi zamon talabidan kelib chiqib, imkon qadar tashkil etilib, unda bolalarni savodi chiqarilib yuqori maktab tizimiga yo'llanma berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 5 жилдлик. 1- жилд: Т.: Маънавият, 2000. – Б.84.
2. Алимов И. Ўзбекистонда вакф мулкларининг тугатилиши (1917-1929 йиллар). – Т.: Фан, 2009. -Б. 57.
3. Айний С. Эски мактаб // Асарлар. VIII томлик. – Тошкент. Бадиий адабиёт. 1965. IV жилд. - Б. 139-140.
4. Долимов У. Эски мактаб // Тафаккур. – Тошкент, 2010. - № 1. –Б. 66-73.
5. Туркистон чор Россияси мустамлакаси даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. – Т.: Шарқ, 2000.
6. Kim P.G. Uydirma va haqiqat. «O'zbekiston adabiyoti va san`ati», 1989, 20 oktyabr

USMON XO‘JA PO‘LATXO‘JAYEVNING JADIDCHILIK HARAKATI VA YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASI BORASIDAGI ISHTIROKI

Azimova K.K.
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti (PhD)

Jahonning o‘nlab ilmiy tadqiqot markazlari va institutlarida Turkiston mintaqasi hamda Buxoroda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ozodlik uchun kurash, ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakati tarixini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda o‘rganilayotgan davrda Buxoroda faoliyat olib borgan davlatchilik, ma'rifatparvarlik va jadidchilik harakati namoyondalari Abdurauf Fitrat, Fayzullo Xo‘jaev, Sadriddin Ayniylarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati keng o‘rganilgan bo‘lsa–da, o‘sha davrning yetakchi siyosatchisi va ma’rifatparvari bo‘lgan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaevning hayoti va faoliyati yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois, mamlakatimiz tarixida o‘zining ijtimoiy-siyosiy faoliyati bilan sezilarli iz qoldirgan siyosatchi va marifatparvar Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jayevning hayoti va faoliyatini o‘rganish maxsus ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

XIX asr oxiri – XX asrning boshlarida Turkiston va Buxorodagi ma'rifatparvarlik, jadidchilik harakatida ishtirok etgan, BXSR hukumati boshqaruvida ishlagan, xorijda yashab, milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlarda oldingi saflarda bo‘lgan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaevning ijtimoiy-siyosiy faoliyati, ma'naviy merosi kelajak avlod uchun milliy tariximizni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi va ibrat timsoli bo‘la oladi.

Birinchi jahon urushi yillarida Buxoroda jadidchilik harakati rivojlanib, 1916 yildan “Yosh buxoroliklar” tashkiloti o‘z faoliyatini kuchaytirdi. Tashkilot faollari bo‘lgan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev, Abdurauf Fitrat, M.Saidjon, Otaulla Xo‘ja, A.Munzim, Hamidxo‘ja, Fayzulla Xo‘jaev kabilar “amirning ko‘zini ochish va uni progressiv islohotlar qilish”ga ko‘ndirish bilan bog‘liq tashviqot hamda targ‘ibot ishlarini olib bordilar.

Birinchi jaxon urushi Sharq dunyosini asoratda tutib turgan yirik mustamlakachi davlatlar o‘rtasida boshlangan va urush xarakatlari Turkiston mintaqasidan uzoq hududlarda olib borilayotgn edi. Biroq taraqqiyparvar ziyolilar urush davrida Sharq mamlakatlari, jumladan Buxoro amirligini ham chor Rossiyasi asoratidan qutulish soati kelgan edi, deb hisoblaydilar. Jumladan A.Fitrat :“Bilimsiz qolgan Sharq bu to‘g‘ri yo‘lni ko‘ra olmadi. Bu fursatni ham qochirdi. Sharq birlashmadi, ayrildi. Jopuniyo (Yaponiya) inglizga qo‘shildi. Turkiya olmonlar bilan yurdi, Eron va Afg‘oniston betaraf qoldilar. Xitoy va Turkistondagi musulmonlarga kelganda bular dunyoda nima bo‘lib turganini anglaganlari ham yo‘q edi”, – deb yozgandi. Abdurauf Fitratning yuqoridagi fikrlaridan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrda jahonda kechayotgan jarayonlarni teran va to‘g‘ri baholay olgan “Yosh buxoroliklar” ichki masalalarda ham qat'iy maqsadlarga ega edilar.

Ko‘p o‘tmay, 1917 yilning fevralida Rossiya poytaxti Peterburgda muhim siyosiy jarayonlar ro‘y berdi. Amirlikning ruslar istiqomat qiladigan hududlarida hokimiyat Rossiya muvaqqat hukumatining ijroya komitetlari qo‘liga o‘tdi. 1917 yilning 12 martida Yangi Buxoro (Kogon)da ijroqo‘m saylandi. “Yosh buxoroliklar” o‘z maqsadlarini Rossiya muvaqqat hukumati orqali amalga oshirmoqchi bo‘lib, Petrogradga telegramma orqali murojat etib, amirni islohot o‘tkazishga ko‘ndirishni iltimos qildilar. Javob bo‘lmagach, ikkinchi telegramma yuborildi. Bu bilan kifoyalanmay Abduruf Fitrat bilan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev Petrogradga otlandi.Ular Orenburgga yetganlarida “Yosh buxoroliklar” va amir o‘rtasidagi kelishmovchilarni hal etish uchun Rossiya poytaxtidan maxsus komissiya yo‘lga chiqqani haqidagi xabarni oldilar va orqaga qaytdilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev “Yosh buxoroliklar” partiyasida eng obro‘li a'zolaridan biri edi. 1917 yil 15 martda partiya MK ga saylovlar o‘tkazildi va A.Munzim (rais), A.Fitrat (kotib), U.Po‘latxo‘jaev (xazinachi), MK a'zolarining yarmidan ko‘pi “Tarbiyai atfol”dan (1908 yilda tuzilgan “Bolalar tarbiyasi”) tashkilotidan edilar. Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaevga partiya MKda eng mas'uliyatli vazifalardn biri yuklangandi. Tarbiyaning ma’naviy-axloqiy rivojlantirish, xilma-xil va betakror dunyoni metodik tomondan qiziqarli, turli shakl va vositalardan foydalangan holda zamon talablari asosida bolalarga yetkazishni tashkil etish

zaruratini keltirib chiqaradi. Bu borada zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bolalarning yoshi, o‘ziga xos xususiyatlari, axloqiy fazilatlari, boshqalarga munosabati kabi juda ko‘p talablarni hisobga olishdir. Ma’lumki, pedagogik texnologiya deganda o‘quv-tarbiya jarayonini oldindan ma’lum tizimda uzviy loyihalash, ma'lum pedagogik tizimning hayotda amalga oshiriladigan loyihasi, qurilishi degan ma'no tushuniladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda boshlang’ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish ham ma'lum pedagogik tizimning loyihasidir. Ya’ni bolalarda ma’naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantirish maqsadi, mazmuni, tarbiya metodlari, shakllari va vositalari ifodalangan bir butun tizim texnologiyasidir.

Buxoro amirligida jadidchilik va ma'rifatparvarlik g‘oyalarini yoyishda muhim rol o‘ynagan tatar ziyolilaridan Kursaviy va Marjoniylarning qarashlari, Buxoro taraqqiyparvarlarining “g‘oyaviy otasi” Ahmad Donish ta'limoti ruhiy-ma'naviy zamin vazifasini o‘tadi. Xorijda ta'lim olgan davrida hamda Buxoroga qaytgandan so‘ng o‘z davrining yetakchi ma'rifatparvarlari (Sadiriddin Ayniy, Ismoiy Gaspirinskiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Maxmudxo‘ja Behbudiy, Fayzullo Xo‘jaev) bilan yaqin aloqada bo‘lganligi va boshqalar.

Xullas, 1920-yil sentyabrda Buxoroda monarxiya tartibi ag‘darilganiga qadar yashagan Usmon Xo‘ja Po‘latxo‘jaev va uning safdoshlari Turkiston ozodligi va milliy manfaatlar uchun kurashlar maydonida bo‘ldilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдурауф Фитрат. Шарқ сиёсати (нашрга тайёрловчи Б.Эргашев, И.Ғаниев) Бухоро, 1992.
2. Наимов Н. Бухоро жадидлари. – Т: Фан, 2005.
3. Ҳайитов Ш. Усмон Хўжа Пўлатхўжев- миллий истиқлол курашчиси. Бухоро, 2007.
4. Yo’ldoshev J.G’. Ta’lim yangilanish yo’lida. –T.: O‘qituvchi, 2000. –B.35.

ITTIHOD VA TARAQQIY JAMIYATINING BUHORO JADIDLARI FAOLIYATIGA TA’SIRI

Tadjitdinov Vohid Komilovich
Buxoro davlat universiteti 2-kurs magistranti
vohid.tadjitdinov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Usmonli imperiyasi siyosiy makonida shakllangan “Ittihod va Taraqqiy” jamiyatining Buxoro jadidchilik harakatiga ko‘rsatgan ta’siri keng ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlarning siyosiy qarashlari, ma’rifiy faoliyati, ta’lim va matbuot sohasidagi islohotchilik harakatlari Istanbuldagi siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: jadidchilik, Buxoro amirligi, Ittihod va Taraqqiy, Usmonli imperiyasi, modernizatsiya, ma’rifatchilik, islohotlar, siyosiy uyg‘onish.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan jadidchilik harakati Sharq musulmon dunyosidagi eng yirik modernizatsion oqimlardan biri sifatida tarixda o‘ziga xos o‘rin egallaydi [1]. Bu harakatning asosiy maqsadi – jamiyatni ilm-ma’rifat, dunyoviy bilimlar, modern siyosiy qarashlar orqali yangilash, xalqni jaholatdan xalos etish, ilm-fan taraqqiyotiga yo‘naltirish edi [2]. Buxoro jadidlari – Fitrat, Ayniy, Munzim, Behbudiy kabi ziyolilar nafaqat mahalliy ijtimoiy sharoitni, balki xalqaro siyosiy jarayonlarni ham chuqur o‘rganganlar. Ular Istanbulda kechayotgan siyosiy islohotlarni – 1908-yil Yosh turklar inqilobi, konstitutsiya qayta tiklanishi, parlament ochilishi kabi jarayonlarni bevosita kuzatib, o‘zlarining milliy uyg‘onish dasturlariga tatbiq qila boshladilar [3].

Ayniqsa, “Ittihod va Taraqqiy” jamiyati tomonidan ilgari surilgan siyosiy modernizatsiya, ma’rifatparvarlik, turkchilik, konstitutsion davlat, matbuot erkinligi kabi g‘oyalar Buxoro jadidlarining tafakkuriga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Fitratning Istanbulda tahsil olishi, Ayniy va Munzimning turk matbuotini o‘rganishi, Yosh buxoriylar harakatining siyosiy dasturi – bularning

barchasi “Ittihod va Taraqqiy” g‘oyalarining Markaziy Osiyoga qanday kirib kelganini ko‘rsatadi [4].

Istanbul XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon dunyosining eng yirik siyosiy-madaniy markaziga aylangan edi. Bu yerda 1889-yilda tashkil topgan “Ittihod va Taraqqiy” jamiyati davlatni modernizatsiya qilish, konstitutsion boshqaruvni qayta tiklash, ta’limni dunyoviylashtirish kabi g‘oyalarni ilgari surdi [5]. Ularning faoliyati Markaziy Osiyo jadidlarining siyosiy qarashlari shakllanishida muhim omil bo‘ldi.

1908-yilgi Yosh turklar inqilobi Markaziy Osiyoda, ayniqsa Buxoroda katta qiziqish uyg‘otdi. Buxorolik ziyolilar Istanbuldagi bu siyosiy o‘zgarishlarni Sharq uyg‘onishi sifatida qabul qildilar. Fitratning Istanbulda o‘qishi natijasida u siyosiy modernizatsiya, parlamentarizm, milliy ozodlik kabi tushunchalarni chuqur o‘zlashtirdi va Buxoroga qaytgach bu g‘oyalarni keng targ‘ib qila boshladi [6].

Ittihod va Taraqqiyning ta’lim sohasidagi islohotlari – dunyoviy fanlarning joriy etilishi, yangi o‘qitish metodlari, o‘quv dasturlarining modernizatsiyasi – Buxoro jadidlari uchun tayyor metodik model bo‘ldi [7].

Buxoro jadidlari ochgan yangi usul maktablari – fonetik usulda o‘qitish, jismoniy tarbiya kiritish, geografiya, matematika, tarix kabi fanlarni o‘qitish – Istanbuldagi rüşdiye va idadiy maktablar tajribasiga asoslangan edi. Fitrat va Munzim kabi ziyolilar Istanbuldan qaytgach Buxoroda ta’lim islohotlarini boshladilar [8].

Ittihod va Taraqqiy davrida Istanbul matbuoti nihoyatda rivojlandi. “Tanin”, “Servet-i fünun”, “Volkan” kabi gazetalar siyosiy modernizatsiya g‘oyalarini keng targ‘ib qilar edi [9]. Bu matbuot Buxoroga ham kirib keldi. Jadidlar tomonidan chop etilgan “Buxoroi Sharif”, “Taraqqiy”, “Turon” gazetalarida turk matbuotining ta’siri yaqqol ko‘rinadi. Matbuot orqali jadidlar amirlikdagi feodal tuzumni, mutaassib ulamolar zulmini, savodsizlikni, adolatsizlikni tanqid qila boshladilar. Bu uslub Istanbuldagi siyosiy matbuotning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’siri edi [10].

1917–1920-yillarda shakllangan “Yosh buxoriylar” harakati – Buxoro jadidchilik harakatining siyosiy cho‘qqisi bo‘ldi. Ularning dasturi Ittihod va Taraqqiy jamiyatining siyosiy modeli bilan deyarli mos edi [11].

Yosh buxoriylar konstitutsiya, parlament, xalq maorifi, feodal tuzumni tugatish, milliy uyg‘onish kabi tushunchalarni ilgari surdilar. Bu Ittihod-Taraqqiyning siyosiy amaliyoti bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq edi [12]. Ittihod va Taraqqiy jamiyati markazida turgan Ziya Go‘kalpning milliy madaniyat haqidagi ta’limoti Fitrat, Ayniy, Behbudiy kabi jadidlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi [13]. Fitratning “O‘zbek tili grammatikasi”, milliy adabiy til haqidagi qarashlari Istanbulda shakllangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “Ittihod va Taraqqiy” jamiyati Buxoro jadidchiligiga siyosiy, ma’rifiy va madaniy yo‘nalishlarda kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Ta’lim islohotlari, matbuot erkinligi, konstitutsion boshqaruv, milliy uyg‘onish g‘oyalari Buxoro jadidlari faoliyatining asosiy poydevoriga aylangan [14].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform. Berkeley: University of California Press, 1998. — 410 b. (17–25, 201–215). [1]
2. Ayniy, S. Esdaliklar. Toshkent: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1960. — 312 b. (33–39, 55–63, 72–81). [2]
3. Fitrat, A. Asarlar. 1-jild. Toshkent: Ma’naviyat, 2000. — 256 b. [3]
4. Gökalp, Z. Türkçülüğün Esasları. Ankara: Milli Eğitim Basımevi, 1976. — 285 b. [4]
5. Zürcher, E. J. Turkey: A Modern History. London–New York: I.B. Tauris, 2004. — 373 b. [5]
6. Hourani, A. *Arabic Thought in the Liberal Age, 1798–1939*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1983. — 400 b. [7]
7. Becker, S. Russia’s Protectorate in Bukhara. Harvard University Press, 1968. — 295 b. [8]
8. Lewis, B. The Emergence of Modern Turkey. Oxford University Press, 2002. — 568 b. [9]

9. Toynbee, A. J. *Survey of International Affairs*. — London: Oxford University Press, 1925–1938. [10]
10. Bregel, Y. *An Historical Atlas of Central Asia*. — Leiden–Boston: Brill, 2003. — 202 b. [11]
11. Khalid, A. *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. — Ithaca–London: Cornell University Press, 2015. — 441 b. [12]
12. Landau, J. M. *Pan-Turkism: From Irredentism to Cooperation*. — London: Hurst & Company; Bloomington: Indiana University Press, 1995. — 324 b. [13]
13. Brower, D. *Turkestan and the Fate of the Russian Empire*. — Princeton: Princeton University Press, 1997. — 280 b. [14]

BUXORO MA'RIFATPARVARI SAID AHRORIY QARASHLARIDA OILA VA XOTIN-QIZLAR MASALASI

Ahmadova Lola Asror qizi
BuxDU tayanch doktoranti,
"Islom tarixi, manbashunosligi va falsafa" kafedrasi o'qituvchisi

Yurtimizda mustaqillik yillarida jadidchilik masalasi va jadidlar faoliyatiga e'tibor ortib, bu davrga oid juda ko'plab tadqiqotlar yaratildi va yaratilmoqda. Shunday bo'lsada hali yurtimizda jadidlar ilmiy merosi va ma'rifatparvarlik faoliyati borasida hali tadqiqot etiladigan masalalar bisyor. Xuddi shunday Buxoro ma'rifatparvarlik faoliyatida o'zining munosib hissasini qo'shgan Buxoro jadidlaridan biri Said Ahroriy (1895-1931 yy) hisoblanadi. Said Ahroriyning matbuot organlaridagi faoliyati natijasida bir qator maqolalar chop ettirrib ularda oila va xotin qizlar masalasi ham o'rin egallaganini ko'rish mumkin. Istiqlol fidoiysi bo'lgan Said Ahroriy 1918-1931-yillarda "Turk so'zi", "Ishtirokiyun", "Uchqun", "Buxoro axbori", "Ozod Buxoro", "Zarafshon", "Qizil O'zbekiston" gazetalarida hamda "Alanga", "Maorif va madaniyat", "Maorif va o'qituvchi" kabi jurnallarda o'nlab maqolalar, badia va she'rlar e'lon qildi.

"Buxoro jug'rofiyasi" nomli darslik, "Oila kitobi" ("Xonim-qizlarimizga tortiq" va "Sovchi" kabi ikki kitobdan iborat) ham Said Ahroriy qalamiga mansubdir. Said Ahroriy 1920-yilda Buxoroga kelib, BXSR matbuot organi bo'lgan "Buxoro axbori" gazetasining 1920-yil 9-sentabrida dunyo yuzini ko'rgan birinchi sonidan 1921-yil 30-iyunda chiqqan 41-soniga qadar bosh muharrirlik vazifasida ishladi[1].

Said Ahroriyning oila mavzuiga bag'ishlangan turkum maqolalari 30-yillar arafasida "Xotin-qizlarimizga tortiq" degan nom ostida nashr etildi. Ammo, bu nom ostida chop etilgan risola Said Ahroriy rejalashtirgan oila kitobining birinchi qismi hisoblanadi. "Sovg'a" deb atalgan ikkinchi qism, afsuski, hozircha topilmagan. Said Ahroriyning bu risolasi bilan bog'liq o'zbek xotin-qizlarining XX asr boshlaridagi taqdiri haqida tasavvur beruvchi quyidagi lavhaga e'tibor bersak:

"Mundan bir necha yil muqaddam o'z aqrabolarim orasida shunday yuz ochuv rasmi bo'lub o'tmish edi. O'shal rasm bo'laturgan kuni man bir uyning derazasidan qarab turgan edimki, ko'zlari yoshla bir necha xotinlar ko'rpaga o'ralgan bir narsani go'shanga (chodir) tortilgan uydan ko'plashub olib chiqdilar. Ko'z oldimni xotinlar to'suvi sababli eshikni yopub, yorug'idan ohistagina diqqatlab qarab turdim. O'choqqa zo'r o't yoqub, qozon osdilar. Qozonga bir qadoq chamasi zig'ir moy soldilar. Bir tarafdan o'choq boshiga bir sufra yozub, ichiga biror taboq un soldilar. Darrov besho'n dona cho'bchirog' hozirlab, ikki-uch dona shag'amlar ila cho'bchirog'larni yondurub, sufradagi unga suqub qo'ydilar. Shul ishlar qiling'andan so'ng otunoyim kitobini qo'ltug'lab sufra boshiga o'turub, boyagi ko'rpaga o'ralgan narsani yerga kelturdi va o'z qo'li ila ko'rpani ochdi. Ba'zi xotunlar ohista-ohista ho'ngrab yig'lab yubordilar va ko'rpa ichidagi harakatsiz gavdaning boshini ko'tarub qo'ydilar. Shu holda bildimki, bechora kelinning navnihol g'uncha hayoti xazoni margg'a mubaddal bo'lub, o'lum yo'ldoshi bo'lgan ekan. Badanim seskanub ketub, ko'zimni zulmat qopladi. Haqiqatni bilmak uchun yana qarab

[1] Ҳайитов Ш. Биринчи муҳаррир. "Бухоронома". 2003 йил 10 сентябр

turdim. Alhosil, ul jasadning qo‘llari ila undan changallatub qozonga soldirdilar va o‘choqg‘a ta’zim qildirdilar. Otin oyim jasadga qarab: “Endi eringizning haq-xizmati bo‘yningizdan soqit bo‘ldi. Sizdan qaynota, qaynonalaringiz ham rozi bo‘ldi” – dedi. Bundan so‘ng ul bechoraning ruhsiz jasadini yana ko‘rpaga o‘rab, go‘shangalik uyga olub kirdilar...”[1].

Bu daxshatli hikoya Hamzaning “Bid’atmi? Majusiyatmi?” degan publitsistik maqolasidan olindi. Biz garchand bu lavhaga nisbatan hikoya so‘zini ishlatgan bo‘lsak-da, Hamza uni xalqimiz orasida o‘zi ko‘rgan bid’at va majusiyat ko‘rinishlaridan biri, deb atagan va shunday talqin qilgan. Agar bu maqolaning 1914-yili «Sadoi Turkiston» gazetasida chop etilganini nazarda tutsak, demak, xotin qizlarga nisbatan shunday haqoratli munosabat o‘sha davrda mavjud bo‘lgan. Jadidlar o‘zlarining xotin-qizlarga, oilaga bo‘lgan munosabatlarida Qur’oni Karimdagi huquqiy qarashlardan kelib chiqqan holda voqelikdagi majusiylik davridan qolgan shunday illatlarga qarshi keskin kurash olib bordilar. Ular xotin-qizlarning Qur’onda ko‘zda tutilgan huquqlarini qattiq himoya qildilar[2]. Lekin davrlar o‘tishi va 1917-yil voqealaridan keyin o‘zgacha bir davrning kelishi va xotin qizlarni huquq borasida erkaklar bilan tenglashtirilishi natijasida oila masalalariga bag‘ishlangan yangi risola va kitoblar yaratilishiga ehtiyoj tug‘ildi. Said Ahroriy ana shu ehtiyoj taqozosi bilan o‘zining ikki qismdan iborat oila kitobini yaratdi. “Xotin-qizlarimizga tortiq” deb nomlangan birinchi risolada biz jadidchilik harakati namoyandalarining xotin-qizlarga bo‘lgan munosabati zamonaviylashgani, madaniylashgani va latiflashganini ko‘ramizki, bu muallifning “sevimli rafiqa”siga bag‘ishlangan va shu risoladan joy olgan quyidagi satrlaridanoq sezilib turadi:

Yo‘qsilliklar, ayriliqlar mani butun ezganda...
Yolg‘izlikning nashtarlari yuragimni teshganda,
Hayotimning bahorini sen keltirding birlikda,
Sen kelgan kun ruhim teran sevgilar-la bezandi[3].

Risola so‘zboshidan tashqari, “Nima qilish kerak?”, “Bir kunning ishlari”, “Xafta va oy ichida”, “Og‘ir ishlar” va “Tasarrufga rioyat” degan maqolalardan iborat bo‘lib, ularda yangi turmush qurayotgan xotin-qizlarga ularning oiladagi burch va vazifalari haqida tushunchalar beriladi. Risolaning “Tasarrufga rioyat” deb nomlangan faslida Said Ahroriy har bir oilada qandaydir kam-ko‘st, ehtiyoj bo‘lishi mumkinligini aytib, xotin-qizlarning shunday sharoitda vijdonlarining buyruqlariga toqat ko‘rsata olmay, nafslariga tobe’ bo‘lishlari mumkinligini aytib, yozadi: “Misol: ba’zi odamlar bordirki, taqdirlari, kiyimlari, uylari, joylari, deganlari, ishlari bordir. Lekin ehtiyojdan qutila olmaslar. Ehtimolki, bunday odamlarning ham boshqa ehtiyojlari bordir. Negakim, bunlarning o‘qimoqlari, bolalarni o‘qitmoqlari, sayohatga chiqmoqlari bordirki, bunday ishlarning manfaati o‘zlaridan boshqa xalq uchun ham zarurdir. Xalqning ehtiyoji esa ulug‘dir, muqaddasdir. Mamlakatimizning abadiyligi, xalqimizning taraqqiysi uchun bizda ehtiyojdan ko‘p nima bordir? Demak, anglashiladiki, siz xonimlar, ehtiyoj ichida ezilib qolsangiz, uyingiz vayron va yurtimiz parishon bo‘ladir. Binobarin, ehtiyojni bo‘ldirmoq uchun bor aslingizni, bor kuchingizni sarf etingiz”[4].

Ta’kidlash joizki jadidlar o’zlarining qarashlarida xotin qizlar masalasiga ham e’tibor qaratib, ularning ilm olishi, ta’lim saboqlarini egallashini o’zlarining bosh maqsadlaridan qilib belgilaganlarini ko’rishimiz mumkin. Said Ahroriyning ham asarlarida va matbuotdagi maqolalarida xotin qizlarni muqaddas xilqat ekanligi, ularga nazokat va iffat bilan boqish kerakligi kabi jihatlar keltirilib o’tilgan. Xususan 1923-yilning 6-noyabrda Ozod Buxoro sahifalarida chiqqan Said Ahroriy qalamiga mansub “Xotun” maqolasida xuddi shunday mazmunni tushunish mumkin.

Xulosa qilish mumkinki Said Ahroriy xotin-qizlarga, ularning oila va jamiyatdagi tutgan o’rniga alohida ahamiyat qaratish kerakli, ayollarga bo’lgan salbiy munosabatni o’zgartirish davri kelganligini o’zining ijodi orqali yorita olgan. Jadidlarning xotin-qizlarga bo’lgan munosabatni

[1] Sharipov R. E’tiqod va ijod uyg‘unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. B.60-61.
[2] Sharipov R. E’tiqod va ijod uyg‘unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. -B.61.
[3] Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2001. – B. 72.
[4] Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2001. – B. 84.

o’zgatirish davri kelganligini, ularni erkaklar bilan teng huquqli bo’lishi kabi masalarda Buxoro jadidlari singari Said Ahroriyning ham xizmatlari beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ҳайитов Ш. Биринчи муҳаррир. “Бухоронома”. 2003 йил 10 сентябр
2. Sharipov R. E’tiqod va ijod uyg‘unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. B.60-61.
3. Sharipov R. E’tiqod va ijod uyg‘unligi (Turkiston jadidlarining siyosiy-huquqiy qarashlariga doir ayrim mulohazalar) Monografiya Toshkent – 2024. B.61.
4. Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2001. – B. 72.
5. Said Ahroriy. Tanlangan asarlar. – T.: Ma’naviyat, 2001. – B. 84.

BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDA YOSH BUXOROLIKLARNING TUTGAN O’RNI

F.U.Temirov
t.f.d (DSc) dotsent
Ro’ziyev Abduvali
BuxDU tarix ta`lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi

Аннотация. В данной статье на примере движения «Молодые бухарцы» рассматривается научно-просветительское наследие джадидов, формирование просветительского и джадидского движения в Бухаре, возникновение общества «Молодые бухарцы», а также деятельность джадидов в сферах образования, печати, литературы и общественных реформ с современной точки зрения. Научно обосновано, что идеи, выдвинутые джадидами, могут служить прочной основой для нынешнего периода Третьего Ренессанса. Подчёркивается необходимость рассматривать джадидизм не как историческое явление, а как научно-духовный источник, который должен активно участвовать в современном общественном развитии. Также анализируются другие связанные проблемы.

Ключевые слова: Молодобухарцы, Абдурауф Фитрат, Садриддин Айни, Мунзим, духовность, просвещение, трагедия, Садриддин Салим Бухари, курбоши, интеграция, Иран, Стамбул, большевики, Файзулла Ходжаев

Bugungi kunda O’zbekistonda milliy tiklanish va taraqqiyotning yangi bosqichi-Uchinchi Renessans davriga qadam qo’yilmoqda. Bu jarayonning mafkuraviy va tarixiy ildizlari esa XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakatiga, jumladan ,,Yosh buxoroliklar’’ harakatiga borib taqaladi. Jadidlar-o’zbek xalqining uyg’onishiga asos solgan, xalqni ilm-ma’rifatga, taraqqiyotga yetaklagan fidoiylar edi. Ularning boy ma’naviy -ma’rifiy merosi hozirgi davrda ham o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o’z nutqlarida ko’p marotaba jadidlar, xususan, Yosh buxoroliklar harakati haqida to’xtalib o’tgan. U 2021-yil 30-aprel kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog’ida shunday degan edi: ,,Yosh buxoroliklar -bu xalqimizning faxri. Ular nafaqat Buxoroni, balki butun Markaziy Osiyoni uyg’otgan, bu yurtda ma’naviy inqilobni boshlab bergan jasur zotlar edi.” Bu so’zlar bejiz emas. Chunki yosh buxoroliklar-xalq orasida milliy o’zlikni uyg’otgan, eskilikdan voz kechib, yangilanish sari intilgan jasoratli ziyolilar edi. Ular qoldirgan boy meros ,ilg’or g’oyalar, islohotchi tafakkur bugungi Uchinchi Renessans davrida yoshlarga ilhom manbai bo’lmoqda. Ularning faoliyati bugungi yosh avlodga mustahkam saboq bo’lib xizmat qiladi. Jadidlar, xususan yosh buxoroliklar, o’z hayotlarini xalq taraqqiyoti, erkinligi, ma’rifati yo’lida fido qildilar. Shu bois ularning harakati -bu tarix emas, balki bugunning ham, kelajakning ham ildizidir. Mazkur maqolada yosh buxoroliklar harakatining mazmun -mohiyati, ularning o’z zamonasiga va bugungi islohotlarga ko’rsatgan bevosita ta’siri tahlil qilinadi hamda bu harakatning Uchinchi Renessans poydevoridagi o’rni ochib beriladi.

Buxoroda o'tgan asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati ozodlik va mustaqillik g'oyalarini o'zida mujassamlashtirgan va o'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan muhim voqealardan biri hisoblanadi. Uning kurash tarixini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Keng ilmiy jamoatchilik e'tiborini o'ziga jalb etib kelayotgan Turkiston Muxtoriyati tarixi bilan bir qatorda Buxoro jadidchiligi tarixini o'rganish ham hozirda nafaqat ilmiy, balki amaliy va hatto siyosiy nuqtai-nazardan qiziqish uyg'otishi tabiiydir. Hayot o'sha davr voqealariga qayta nazar tashlash, ya'ni xolisona haqqoniy baho berishini taqozo etmoqda. Shuni qayd etish lozimki, Buxoro amirligida jadidlarning mustaqillik uchun olib borgan kurashlari jarayonida demokratik milliy davlatchilikni barpo etish mafkurasi ham shakllana bordi.

Yosh buxoroliklar-Buxoro jadidlari tashkil qilgan partiya (1910-1920). Dastlab „Tarbiyai atfol" (Bolalar tarbiyasi) maxfiy jamiyati nomi bilan tuzilgan. Taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag'allari vakillaridan iborat bo'lib, amirlik tuzumi doirasida demokratcha islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutloq hokimiyatini cheklab qo'yish tarafdori bo'lganlar. Abdulvohid Burhonov (Munzim), Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Abdusaidov (Hamdiy), Sadriddin Ayniy, Otaullaxo'ja Po'latov, Usmon Xo'ja, Mukammil Burhonov, Mulla Jo'raboy va Ikrom domla Yosh buxoroliklarning ilk tashkilotchilari edilar. Keyinchalik uning faoliyatida Abdurauf Fitrat va Fayzulla Xo'jayev katta o'rin tutganlar. 1914-yildan boshlab Yosh buxoroliklar ma'rifatchilikdan siyosat sohasiga o'tadilar. Partiyaning ko'plab rahbarlari qurolli harakatning g'oyaviy mafkurachilari hisoblanadilar. Ular muxolifatchilar safida katta hajmda g'oyaviy va tashkiliy ishlarni olib borganlar.

Jadidlar dasturida uch asosiy yo'nalish-ta'lim tizimini isloh qilish va yangi usul maktablarini tashkil qilish, umidli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish va nihoyat, turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish, ma'rifatni targ'ib etish uchun milliy matbuot va teatrlar tashkil etishga qaratilgan edi. Ana shu vazifalarni amalga oshirish borasida jadid yetakchilari qatorida o'nlab ziyoli ma'rifatchilar faoliyat olib bordi. Jadidchilik harakati jamiyatning turli qatlamlariga mansub eng ilg'or vakillarini qamrab oldi. Ular o'lkadagi o'sha davr ijtimoiy- siyosiy va madaniy hayotining eng faol, ilg'or vakillari bo'lib milliy va dunyoviy taraqqiyot masalalarini chuqur anglab yetgan, bu boradagi eng to'g'ri harakat dasturini va vazifalarni belgilab, amalga oshira boshlagan jiddiy kuch edi.

Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Musojon Saidjonov va boshqa jadid partiyasi yetakchi namoyondalari Toshkent va Samarqandda jon saqlab qolib siyosiy kuraashni davom ettirdilar. 1918-yil mart oyida jadid partiyasining so'l guruhiga aylangan Yosh buxoroliklar bolsheviklar yordamida kuch bilan hokimiyatni qo'lga olishga urinib ko'rdilar. Bu ikkala tomonda ham katta xunrezliklarga olib kelib, minglab buxoroliklar halok bo'ladilar.

Yosh buxoroliklar biz bu masalada qaysi jihatdan fikr-mulohazada yuritmaylik o'z maqsadi va rejalarini amalga oshirish uchun jiddi-jahd bilan harakat qilishdi. Hammamizga ma'lumki yaxshilik bo'lgan joyda yomonlik ham albatta bo'ladi. Chunki siz kimgadir yaxshilik qilmang albatta sizni ko'rolmaydigan hasadgo'y kimsalar hamisha topiladi.

Buxoroda ham aynan diniy mutaassiblarning beqiyos roli jadidlarimiz orzularini sarobga aylantirdi. Xo'ja Hofiz Sheroziyni shunday gapi bor "Ey, ki az daftari aql oyati ishq omuzo' Tarsem, in nuqta batahhiq nadoniy donist" (Ey, aql daftaridan ishq oyatlarini o'rgatuvchi odam, Shu teran ma'noning haqiqatini anglay olmaysan deb qo'rqaman). Ushbu bir qator jumlada juda ko'p ma'no yashiringan. Zero Yosh buxoroliklar ham o'z istak-xohishlarini baralla e'lon qildilar va unga erishish uchun jonlarini ham ayamadilar. Yosh buxoroliklarga diniy mutaassiblar juda ko'p qarshilik ko'rsatdilar. Lekin bizning jadidlar bir tomonda tashqi xavf sanalmish ruslarga, ikkinchi tomondan eng xavfli dushmand diniy mutaassiblarga qarshi bir vaqtning o'zida kurashdi.

F.Qilichevning "Zulmatdan sadolar" kitobida yozilishicha, Fayzulla Xo'jayev ham komunistik mustamlaka mohiyatini tezda anglab yetadi. U maxfiy yig'inlarda quyidagilarni aytgan: "Rossiya har xil yo'l bilan bizning pulimiz qiymatini pasaytirish va shu yo'l bilan o'z pul birligini joriy qilish niyatida. Bizning banklarni yo'q qilib, o'z bankini ochish orqali Rusiyaga bizni to'la tobe qilib qo'ydi. Bizdagi mavjud tovar va pul haqidagi ma'lumotlar aniq berilmasligi

kerak. Chiqim xarajatlar kirimga nisbatan 3 barobarga ko'p ko'tarilsin… Rusiya iqtisodiy siyosatini qo'llash va uni amalga oshirishdan qochish kerak. Rus vakolatxonalarida o'z xufiya kishilarimiz tinmay kuzatish olib borishi lozim". Fayzulla Xo'jayev Buxoro taqdiri borasida o'z qilgan ishlari, xatti-harakatidan qoniqishmaydi, afsuslanadi. U ona yurtining bolshevism bosqini ostida qolganidan yurak-bag'ri eziladi, onasi (Rayhon Sayyidmurod qizi) ni quchoqlab, o'ksib-o'ksib yig'lab aytadi: "Onajon, siz meni baxtsiz qilib dunyoga keltirgan ekansiz. Men vatanim, millatim, xalqim uchun jonimni jabborga berib ishlayapman. Lekin… men Rusiya buyrug'ini quldek bajarishdan boshqa hech narsa qila olmayapman!"

F. Qosimovning "Istiqlol va tarixiy xotira" kitobida yozilishicha, Fayzulla Xo'jayev istiqlol uchun kurashib, istibdodga botgani, Vatan va uning behisob oltin xazinasi boy berilgan, ayniqsa, otasidan meros qolgan 410 kg quyma oltin, 4,8 million oltin tanga, 7 million so'm pulni qo'shqo'llab sovet hukumatiga topshirganidan afsuslangani bayon qilingan. Lenincha bolshevistik partiyaning sir-asrori, uning asl maqsad va mohiyatini Buxoro jadidlarining rahbarlari kech anglagandi, to'g'rirog'i, aldangandi. Bizningcha, amirlik va uning xazinasi talofotiga Buxoroda ildiz otgan musulmonlar orasidagi mutaassiblik (konservatizm, bid'atchilik) sabab bo'ldi.

Yosh buxoroliklar harakati jadidchilik tarixida eng faol, qat'iyatli va ijtimoiy jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatgan guruhlardan biridir. Ular eski tuzumga qarshi islohot g'oyalari bilan chiqib, Buxoroda yangi maktablar ochdi, bosma nashrlar yaratdi, jamiyatda ilm-fan, adolat, milliy o'zlik haqida ochiq fikrlar yuritdi. Eng muhim yutuqlari- Buxoro amirligini tanqid qilishga jur'at topgan ilk ma'rifatchi kuch bo'lib, xalq ongida uyg'onish harakatini boshlab berganidir. Ammo ularning faoliyatida ayrim muhim xatolar ham kuzatilgan. Jumladan, siyosiy kurashga kirishda yetarlicha tayyorgarlik ko'rmaslik, ichki birlikning zaifligi, tashqi kuchlarga haddan tashqari umid bog'lash (ayniqsa Sovet Rossiyasiga), ularning tarixiy imkoniyatlarini chekladi. Natijada bu harakat qisqa fursatda bostirildi, ko'pchilik a'zolari quvg'in qilindi. Shunga qaramay, ularning g'oyalari o'lmagan- ular keyingi avlodlar tafakkurida yashab qolgan.

Bugungi Uchinchi Renessans davrida "Yosh buxoroliklar" merosi yosh avlod uchun g'oyaviy ilhom manbaiga aylangan. Ularning ma'rifat, erkin fikr, milliy uyg'onish yo'lidagi qarashlari hozirgi ta'lim, matbuot va ijtimoiy ong islohotlari bilan uyg'unlashmoqda. Bugungi yoshlar-ayniqsa tadqiqotchilar, ijodkorlar va ijtimoiy faollar-jadidlar yo'lini davom ettiruvchi avloddir. Ammo bu meros hanuz to'liq ochilmagan, chuqur ilmiy yondashuvga muhtoj. Shunday ekan, yoshlar faqat o'quvchi emas, balki merosni davom ettiruvchi fikr egasi bo'lishi lozim.

Kelajakda "Yosh buxoroliklar" merosini zamonaviy texnalogiyalar – sun'iy intellect, raqamli platformalar, virtual ta'lim vositalari orqali chuqur o'rganish Uchinchi Renessansning amaliy poydevoriga aylanadi. Bu meros asosida yangi avlodni milliy tafakkur, erkin fikr va ijtimoiy mas'uliyat ruhida tarbiyalash mumkin. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro forumlar va innovatsion loyihalar orqali jadidlar g'oyalari global miqyosda tanitilishi lozim. Demak Yosh buxoroliklar o'tmish timsoli emas-balki kelajakni barpo etuvchi fikriy yo'nalishdir.

Bugungi kunda bu meros yosh avlod uchun intellectual va ma'naviy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning qarashlari hozirgi islohotlarga hamohang bo'lib, milliy tafakkur va ijtimoiy faollikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu merosni zamonaviy texnalogiyalar bilan uyg'unlashtirib, ilm-fan, ta'lim va ma'naviyat sohalarida amaliy asosga aylantirish - Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqarishning muhim omili bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muxamedjonova L.P, Alimova M.M, Buxoroda jadidchilik harakati tarixidan, Buxoro-2019. 4-5-bet.
2. Qahramon Rajabov, F. Amonova, B. Qandov, O'zbekiston tarixi, Toshkent-2024, 307-bet.
3. A. Asqarov. O'zbekiston tarixi 1-jild, Toshkent-2023-yil, 339-bet.
4. Qahramon Rajabov, Turkiston qo'rboshilari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Toshkent -2022-yil.
5. Dilorom Alimova, Jadidchilik fenomeni, Toshkent, Akademnashr-2022-yil, 9-bet.

6. Yusuf Qurbonov, Siz doimo qalbimizdasiz 2-kitob, “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2018.
7. Nusratillo Naimov, Buxoro jadidlari, “Fan” nashriyoti, Toshkent-2000, 8-9-bet.
8. Sirojiddin Ahmad, Qizil mustamlaka: E’lon qilmagan urush Katta qirg’in qomusi (1929-1950) Toshkent-2022-yil, 3-bet.

BUXORO JADIDLARINING MA’RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Shaxzod Yodgorov
Buxoro davlat universiteti magistranti
shaxyodgorov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, xususan Buxoroda shakllangan jadidchilik harakatining mazmun-mohiyati va uning mustaqillik davridagi talqini yoritiladi. Jadid ma’rifatparvarlarining o‘lkani jaholatdan xalos etib, ilm-fan va madaniyat orqali taraqqiy ettirish yo‘lidagi faoliyati qisqacha tavsiflanadi. Asosiy e’tibor zamonaviy O‘zbekistonda jadidlar merosining qayta kashf etilishi va qo‘llanilishiga qaratilib, 1991-yildan keyingi davrda jadid g‘oyalari qanday tiklanganligi, ta’lim va madaniyat sohalarida ularning g‘oyalari qanday aks-sado berayotgani ilmiy manbalar asosida ko‘rsatiladi. Maqolada shuningdek rasmiy siyosat va davlat dasturlarida jadid merosidan foydalanish holatlari tahlil qilinib, bu boradagi aniq qaror va tashabbuslar (Prezident farmonlari, yubiley tadbirlari, xalqaro anjumanlar, muzeylar va h.k.) misollar bilan yoritilgan. Tadqiqot natijalari jadidlarning bir asrlik pedagogik va ma’rifiy qarashlari bugungi islohotlarda yangi mazmun kasb etib, Yangi O‘zbekiston jamiyatini barpo etishda ma’naviy tayanch vazifasini o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, jadidchilik harakati, ma’rifatparvarlik, mustaqillik davri, zamonaviy talqin, ta’lim islohoti, madaniyat, davlat siyosati, Yangi O‘zbekiston.

Jadidchilik – XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston va xususan Buxoro o‘lkasida vujudga kelgan ma’rifiy-islohotchilik harakati bo‘lib, uning bosh maqsadi xalqni jaholat va qoloqlikdan xalos etib, ilm-fan va madaniyat orqali taraqqiyotga erishish edi[1]. Ushbu harakat vakillari – jadidlar (arabcha “jadid” so‘zi “yangi” degan ma’noni anglatadi) – o‘z davri uchun ilg‘or g‘oyalarga tayanib, jamiyatni yangilashga intildilar[2]. Ular eskirgan urf-odat va qarashlarni tanqid qilib, milliy ongni uyg‘otishga va xalqning ma’rifiy saviyasini yuksaltirishga intildilar[3]. Jadidlar “ta’limsiz taraqqiyot bo‘lmaydi” degan shior ostida yangi usul maktablarini tashkil etib, dunyoviy bilimlarni keng targ‘ib qila boshladilar[4]. Natijada mintaqada gazeta va jurnallar nashr etilib, adabiyot hamda san’atda innovatsion asarlar yuzaga keldi. Bu o‘zgarishlar xalq ongini uyg‘otib, jamiyat taraqqiyotiga kuchli turtki berdi[5].

Mustamlaka davrida jadidlar qattiq tazyiqqa uchrab, ko‘plab ziyolilar qatag‘on qilindi[6]. Biroq ularning ilg‘or g‘oyalari keyingi avlodlar faoliyatida yashab qoldi va O‘zbekiston mustaqillikka erishgach (1991), jadidlar merosini qayta kashf etish va ularga munosib baho berish jarayoni boshlandi. Jadidlar ilgari surgan “ma’rifat bilan najot topmog‘imiz lozim” degan da’vat bugungi kunda ham Yangi O‘zbekistonni barpo etishda mafkuraviy tayanchga aylangan.

Ushbu maqolada Buxoro jadidlarining tarixiy ma’rifatparvarlik faoliyati va ularning merosining zamonaviy davrdagi talqini ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, mustaqillik davrida jadid g‘oyalarining qayta tiklanishi, hozirgi ta’lim islohotlari va madaniy-ma’rifiy jarayonlarda jadidcha g‘oyalar ifodasi hamda rasmiy siyosatda jadid merosidan foydalanish holatlari tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, jadid bobolarimizning bir asr ilgari ilgari surgan fikr-maqsadlari bugungi islohotlar jarayonida yangi mazmun kasb etib, jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatda jadidlar merosini qayta kashf etish va ularga haqqoniy baho berish jarayoni boshlandi. Sovet davrida “millatchi” yoki “reaktsioner” tamg‘asi bilan taqiqlangan, nomlari qora ro‘yxatga tushgan ko‘plab jadid ziyolilarimiz 1980-yillardan e’tiboran oqlanib, mustaqillik yillarida ularning nomlari xalq orasida qayta tiklandi. Bugungi kunda Behbudiy, Avloniy va Qodiriy kabi jadid bobolarimiz millat faxri sifatida e’zozlanib, ularning nomlari ko‘chalarga va maktablarga berilib, asarlari qayta nashr etildi.

Hozirgi O‘zbekistonda jadidchilik harakatiga shunchaki tarixiy hodisa emas, balki milliy ong uyg‘onishining bir bosqichi va taraqqiyot mafkurasining manbai sifatida qaralayotgani e’tiborga loyiqdir. Davlat rahbariyati ham jadidlar boshlagan ma’rifatparvarlik an’analarini yangi davrda davom ettirishga alohida e’tibor bermoqda. Jumladan, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning maxsus farmoni bilan bir guruh jadid arboblari – Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonov – “xalq maorifini shakllantirishdagi ulkan hissasi uchun” degan yuksak ta’rif bilan davlat ordenlari bilan mukofotlandi. 2024-yilda jadidchilik asoschisi Behbudiy tavalludining 150 yilligi mamlakat miqyosida keng nishonlandi: Prezident qaroriga muvofiq o‘tkazilgan ilmiy anjumanda Behbudiy va jadidlar merosini o‘rganish masalalari muhokama qilindi. Yurtimizda 2001-yilda tashkil etilgan Repressiya qurbonlari xotirasi muzeyida jadidlarga bag‘ishlangan maxsus ekspozitsiya yaratilgan bo‘lib, unda ko‘plab jadidlarning fojeaviy qismati yoritib berilgan. 2023-yil dekabr oyida Toshkentda “Jadidlar: milliy o‘zlik, mustaqillik va davlatlilik g‘oyalari” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazildi. Ushbu nufuzli anjumada zamonaviy O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida jadidlar orzu-intilishlarining aks etishi tahlil qilindi va unda jadidlarning orzu-ideallari bugungi islohotlar siyosatida o‘z ifodasini topayotgani alohida ta’kidlandi. Bu kabi tashabbuslar jadid merosini millat taraqqiyotining mafkuraviy asosi sifatida e’tirof etilayotganining dalilidir.

Jadidlarning eng asosiy orzularidan biri xalqni savodli, ma’rifatli qilish edi. Bugungi kunda O‘zbekistonda aholining savodxonlik darajasi 100%ga yaqinlashdi, har bir fuqaroga ta’lim olish huquqi Konstitutsiya bilan kafolatlanmoqda. Mustaqillik yillarida ta’lim tizimini isloh qilish borasida ulkan qadamlar qo‘yildi: 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta’limning yangi bosqichli tizimi joriy etilib, 2017-yilda maktab ta’limi yana 11 yillik qilib tiklandi; shuningdek, Prezident va ijod maktablari kabi yangi nufuzli ta’lim muassasalari ochildi. Ushbu islohotlar jadidlar orzu qilgan “zamonaviy bilim bilan qurollangan barkamol avlodni tarbiyalash” maqsadi bilan hamohangdir.

Jadidlar ta’kidlagan dunyoqarash ochiqligi va xorijiy tillarni o‘rganishga ham bugun katta e’tibor berilmoqda – maktablardan boshlab chet tillarni o‘qitish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanib, xorijiy universitetlar filiallari ochilmoqda.

Albatta, hozirgi ta’lim tizimida ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud: o‘qituvchilar malakasini oshirish, ta’lim sifati va mazmunini yanada yaxshilash, korrupsiyaga barham berish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda. Diqqatga sazovor jihati shundaki, bu muammolarning ko‘pchiligi bundan bir asr muqaddam jadidlar tomonidan ham ko‘tarilgan edi. Masalan, o‘sha davrda jadidlar maktab va ustozlar yetishmovchiligi, ta’lim sifati pastligi haqida bong urgan bo‘lsalar, bugungi kunda ham xuddi shu masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Biroq farq shundaki, hozirda ularni hal etishga qaratilgan siyosiy iroda shakllanib kelmoqda. Bu borada jadidlarning ma’rifiy merosi hozirgi islohotchilarga saboq va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilayotir.

Madaniyat, adabiyot va matbuot sohalarida ham jadidlar boshlab bergan an’analar zamonaviy davrda davom ettirilmoqda. Bugun O‘zbekistonda 37 ta davlat va bir necha mustaqil teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Garchi zamonaviy axborot asrida teatr san’atiga qiziqish biroz susaygan bo‘lsa-da, u xalq ma’naviyatini boyitishda hanuz muhim vosita bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, jadidlar tomonidan asos solingan Milliy drama teatri bugungi kunda ham eng sara sahna asarlarini muntazam sahnalashtirib, tomoshabinlarda estetik did va ma’naviy tafakkurni tarbiyalashga hissa qo‘shib kelmoqda.

Matbuot erkinligini ta’minlash yo‘nalishida so‘nggi yillarda sezilarli qadamlar qo‘yildi. Xalqaro matbuot erkinligi indekslarida O‘zbekistonning o‘rni ilgarilamoqda, mustaqil jurnalistlar va blogerlar faoliyati uchun imkoniyatlar kengaymoqda. Bu jarayon jadidlarning matbuot erkinligi yo‘lida olib borgan fidokorona kurashlarini yodga soladi.

Jadidlarning ijtimoiy-ma’naviy qarashlari ham bugungi islohotlarda o‘z aksini topmoqda. Masalan, jadidlar o‘z davrida eskirgan va zararli urf-odatlarni, jumladan, dabdabali to‘y-ma’rakalarni qattiq tanqid qilgan edilar. Zamonaviy O‘zbekistonda ham bu masala e’tibordan chetda qolmadi – ortiqcha isrofgarchilik va dabdababozlikka chek qo‘yish maqsadida hukumat

tomonidan tegishli qaror va qonunlar qabul qilindi. Xotin-qizlar masalasiga to‘xtalsak, jadidlar tufayli XX asr boshlaridayoq ayollarning jamiyatdagi faolligi oshgan bo‘lsa, bugungi kunda ham xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki tobora ortib, ilk bor Senat raisligiga ayol saylandi, ayollarni zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risidagi qonun qabul qilindi. Bu misollar zamonaviy islohotlar jadidlarning ilg‘or g‘oya va tashabbuslari ruhida kechayotganini, jadid merosi amaliy ahamiyatga molik mafkuraviy manba sifatida hanuz yashayotganini ko‘rsatadi.

Davlat siyosati darajasida ham jadidlar merosini e’zozlash va undan ilhomlanish tendensiyasi kuchaymoqda. Buxoro shahrida jadidlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida maxsus “Jadidlar merosi” muzeyi tashkil etilmoqda. Hozirda rejaga ko‘ra, ushbu muzey 2027-yilda jadid arbobi Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayevning tarixiy uyida ochilib, u yerda jadidchilik tarixini zamonaviy yondashuvda namoyish etishga xizmat qiluvchi ekspozitsiyalar yaratiladi. Davlat miqyosida jadidlar xotirasini abadiylashtirish, ularning merosini yosh avlodlarga yetkazish borasidagi bu kabi sa’y-harakatlar zamonaviy O‘zbekistonning ma’naviy hayotida jadidchilikni uzviy bir qism sifatida ko‘rishga intilish ortib borayotganini anglatadi.

Buxoro va Turkiston jadidlarining ma’rifatparvarlik faoliyati mustamlaka davrida qattiq tazyiqqa uchrab, ko‘plab fidoyi ziyolilar surgun va qatag‘on qilingan bo‘lsa-da[6], millat ozodligi va ma’rifati yo‘lida boshlangan kurash to‘xtamadi – jadidlarning orzu-ideallari keyingi avlodlar tomonidan davom ettirilib, mustaqillik davrida yangi mazmun bilan boyidi[6].

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi jadidlar orzu qilgan ma’rifatli va erkin jamiyatni barpo etish yo‘lida izchil qadamlar tashlamoqda. Ta’limni modernizatsiya qilish, yoshlarni barkamol tarbiyalash, xalqning ma’naviy saviyasini yuksaltirish kabi bugungi islohotlarda ham jadidlar tamoyillari bilan uyg‘unlik ko‘zga tashlanadi. Prezident Sh. Mirziyoyev ilgari surgan “Yangi O‘zbekiston – ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasi bevosita jadidlarning millatni ma’rifat bilan taraqqiy ettirish g‘oyasiga borib taqaladi.

Xulosa qilib aytganda, jadidlar qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy meros hozirgi kunda ham bizga yo‘l ko‘rsatuvchi ma’naviy mayoq vazifasini o‘tamoqda[28][8]. Jadid bobolarimizning “ma’rifat bilan najot topmog‘imiz lozim” degan da’vati bugungi kunda ham barhayot bo‘lib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishda mafkuraviy tayanch vazifasini bajarmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jamolova D. (2016). *Buxoro jadidlari: islohot va tanazzul*. Tafakkur jurnali, 2016(2)[29].
2. Hook.report (2020, 26-iyun). *Почему современному Узбекистану так нужны джадиды XIX века?* Hook[30].
3. Bekmurzaev N. (2023, 14-dekabr). *Uzbekistan celebrates reformist Jadid movement in the new documentary*. Global Voices[31].
4. Usmonova N. (2025, 22-yanvar). *Новые подходы к изучению наследия джадидов и Бехбуди*. UzA[32].
5. “В Бухаре представили проект будущего Музея наследия джадидов.” (2025, 9-sentabr). UzDaily[33].
6. Fitrat A. (1912). *Bayonoti sayyohi hindi*. Buxoro: Matbaai Mirzo[34].

BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA AYANCHLI TAQDIRI.

Raxmatulloyev Umid Ashrafovich
Buxoro Davlat Universiteti Tarix va Yuridik fakulteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi o`qituvchisi

Qisqacha sharhi: Ushbu tezisda XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida jadidchilik harakatining paydo bo`lishi, ularning oldiga qo`ygan maqsad, vazifalari, jadidchilik g`oyalarining amirlikdagi ma`naviy va ilmiy hayotga ta`siri va ularning ayanchli taqdiri yoritiladi. Shu bilan birga ularning faoliyatiga sovet hukumati tomonidan bo`lgan qattiq qarshiliklar va qonli qirg`inlar haqidagi ma’lumotlar ochib beriladi. Buxorodagi ilmiy muhitga jadid arboblarining qo`shgan hissasi o`rganiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik harakati, Yosh Buxoroliklar, Buxoroyi sharif, Turon, Hurriyat, demokratik xalq respublikasi, islohotchilik, ma`orif tizimi, vatanparvarlik, ijtimoiy-siyosiy masalalar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida jadidchilik harakati vujudga keladi va XX asr boshlarida Buxoro amirligida ham keng tarqaladi. Shuning bilan birga aholining munosib yashash turmush tarzini ta`minlash, xalqning ma`naviy va madaniy salohiyatini yuksaltirish, jismonan sog'lom, intelektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan yosh avlodni shakllantirsh, rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish asosiy vazifa qilib qo'yildi. Buxorodagi jadidchilikning Turkistondagi istilochilik harakatlaridan farqli jihatlariga e`tibor qaratib Fayzulla Xo'jayev shunday yozadi: "Buxoroda harakat boshqa yo'l bilan boradi. Buxoro jadidchiligi dehqonlar va mayda savdogarlarga tushadigan soliq og'irliklarini yengil qilish ham soliq ishlarini umumiy tartibga solish to'g'risida ochilgan gapdan boshlab tadrijiy suratda ko'p a`zolar, shubalar va Buxoro xalqining har xil tabaqalari orasidagi o'ziga xayrixoh omma bilan birga haqiqiy bir yashirin jamiyatga aylana bordi". Bundan ko'rinadiki, mahalliy boylar, savdogarlar, ulamolar, mudarrislar va talabalar bu harakatga qo'shilgan bo'lib aholining ma`naviyatini yuksaltirish, ma`rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib etishdi. 1910-1920 yillarda Yosh buxoroliklar partiyasi deb atalgan partiya faoliyat yuritdi. Unga taraqqiyparvar ziyolilar, savdogarlar va shahar kambag'allari vakillari kirgan. Ular boshida mavjud amirlik tuzumi doirasida demokratik islohotlar o'tkazish, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish orqali amirning mutlaq hokimligini cheklab qo'yish tarafdori bo'lgan. Abdulvohid Burhonov, Mukammil Burhonov, Sadriddin Ayniy, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev(Usmonxo'ja), Otaulla Xo'jayev, Ahmadjon Hamdiy(Abusaidov), Homidxo'ja Mehriy, Muso Saidjonov, Mirzo Siroj Hakim Yosh buxoroliklarning dastlabki tashkilotchilari edi. Keyinchalik uning faoliyatida Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov katta rol o'ynashdi. Yosh buxoroliklar iqtidorli yoshlarni Istanbul, Qozon, Ufa, Boqchasaroyga o'qishga jo'natdi. Ular partiyaning moddiy mablag'i hisobidan ta'lim olishgan. Fayzulla Xo'jayev va Muhiddin Mansurov partiyaga katta mablag' ajratgan. Istanbulda Buxoro ta'limi maorif jamiyati tashkil qilinib, jamiyat a'zolari Turkistonda maorif tizimini rivojlantirishda muhim ishlar qilishdi. Jamiyatning ko'magi bilan Abdurauf Fitrat va boshqalar taraqqiyparvarlarning asarlari Istanbulda nashr qilinib, Turkiston mintaqasiga tarqatildi.Yosh buxoroliklarning maqsadi yangi usul maktablarini ochish, bolalarning savodini tezroq chiqarish, ijtimoiy ongini o'stirish, maktab, madrasa, o'quv tizimini isloh qilish edi. Buxoroda boshlangan harakat tezda Shaxrisabz va Karkigacha tarqaldi. 1912-yil Buxoroda dastlabki gazetalar tojik tilida "Buxoroyi sharif" va o'zbek tilida "Turon" chiqa boshladi. Gazetalarni moddiy jihatdan ta'minlash va nashr ishlarini yo'lga qo'yishda Muhiddin Mansurov va Mirzo Siroj Hakim muhim rol o`ynaydi. Biroq 1913-yil yanvarda bu gazetalarning faoliyati rus ma'murlari tomonidan taqiqlab qo'yildi. Istanbulda ta'lim olgan ko'plab buxoroliklarning yurtiga qaytishi bilan maorif ishlari yana jonlandi.1914-yildan boshlab Yosh buxoroliklar ma'rifatchilikdan siyosat sohasiga o'tdilar.Yosh buxoroliklar amirlik tuzumini isloh qilish to'g'risida dadil fikrlar bilan maydonga chiqishdi. Ularning ijtimoiy, siyosiy, ma'rifatparvarlik faoliyati partiya mazmunida endilikda yangicha maqsad va yo'nalish kasb etdi[1]. Buxoroda jadidlar amalga oshirgan islohotlarning salmog`i beqiyosdir. Ular faoliyatlari davomida bir qancha tashkilotlar tuzdilar. Ulardan biri 1909-yilda tuzilgan "Tarbiyayi Atfol"[2] jamiyati bo`lib, mazkur jamiyat Buxoroda maorifni rivojlantirish bilan shug`ullangan.

Jadidchilik harakati va ularning oldiga qo`ygan maqsadlarini amalga oshirish ishlari hech qachon oson kechmagan. Tashkil qilingandan boshlab sovet hukumati tomonidan qattiq bosimlar va tahdidlar ostida yashadi. Ularning islohotchilik g`oyalaridan qo`rqa boshlagan sovet hukumati jadidlarni turli bahonalar bilan ayblab ularni jismonan yo`q qila boshladi.

Rossiyada podsho hukumati ag`darilgandan keyin hukumat tepasiga kelgan bolsheviklar tomonidan Buxoro amirligi amaldorlarining yoppasiga hibsga olinishi va otib tashlanishi, islom dini va ulamolarga nisbatan dushmanlik siyosati xalqning kuchli noroziligiga sabab bo`ldi va sovet rejimiga qarshi qurolli harakatlar boshlanishiga olib keldi. Buxoroda 1917-yilning aprelida

[1] Do`stmurodov SH. F. Buxoro jadidlari va ularning tarixiy taqdiri. Ilm fan yangiliklari konferensiyasi.Andijon. 2025.
[2] Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. Б. 84.

di amirning farmoni va 1918-yildagi Kolesov qirg`inidan keyin minglab oddiy aholi jadidchilikda ayblanib qatl qilindi. Bu hodisalar to`xtovsiz davom etib bordi. Masalan, 1920-yilning sentyabrida Buxoroda sovet hokimiyati o`rnatilgach, saroy amaldorlari bilan bir qatorda ko`plab diniy soha vakillari, ulamolar amir xokimiyatining tarafdorlari sifatida qatl qilinadi[1].

"Ulug` Turkiston" gazetasining bergan ma`lumotlariga ko`ra 1800 nafardan ortiq jadidchilik harakati vakillari qasddan ayblanib, qatl etiladi va ularning mol-mulklari musodara qilinadi. Tirik qolgan jadidlar esa Buxorodan chiqib ketib, muhojirlik, faqirlikda yashashga majbur bo`lishadi[2].

Buxoro jadidlarining yetakchilaridan biri bo`lmish Fayzulla Xo`jayev yolg`onchi sho`rolar hokimiyatda bo`lar ekan O`zbekistonning milliy mustaqillikka erisha olmasligini yaxshi tushungan edi. Shunday bo`lsada u bor kuch g`ayratini respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy salohiyatini yaxshilashga safarbar qildi. Sovet hukumatining repressiv siyosatiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. Uning bu harakatlari 1937-yilgacha davom etdi. 1937-yilda u Nikolay Buxarin boshliq siyosiy guruxning a`zosi sifatida xibsga olining 1938-yilning mart oyida Moskvada otib tashlandi[3].

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, har qanday xalq o`zining ozodligi farovon hayoti uchun doimo kurashib yashaydi. Sovetlar hukronligi ostida bo`lgan O`zbekistonda ham taraqqiyparvarlar ana shunday mustaqillik, ozodlik, ilm-fan uchun qo`llaridan kelgancha kurash olib bordilar. Lekin ularning kuchlari qattol sovet hukumatiga yetmasdi. Jadidlarning ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy g`oyalarini sovetlar rahbarlari ittifoqqa qaratilgan g`arazli reja deb baholab, ularni jismonan yo`q qilishga kirishdilar va maqsadlariga erishdilar. Yuzlab begunoh ziyoli kadrlar nohaq ayblov qurboni bo`lib hayotdan erta ko`z yumdilar. Lekin ularning qoldirgan erk, hurriyat g`oyalar tarix sahifalarida o`chmas satrlar sifatida qoldi.

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA’LIMIY QARASHLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Hasanov Maxmudjon Husniddinovich –
Buxoro innovatsiyalar universiteti magistranti.
Ilmiy rahbar:
Raxmonov Kamol Djamolovich-
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiston jadidlarining otasi bo‘lgan Behbudiyning ma’rifiy, pedagogik va ta’limiy qarashlari tarixiy manbalar hamda matbuot materiallari asosida bayon etiladi. Shuningdek, maqoladan Behbudiyning hayoti va uning so‘nggi taqdiri bilan bog‘liq mulohazalar ham o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy ta’lim, teatr truppalari, didaktik prinsiplar, globus, memorandum, vaqf idorasi rahbari, diskriminatsiya siyosati, "Samarqand komissiyasi".

Turkiston jadidlarining otasi bo‘lgan Behbudiyning ta’limiy qarashlari yetakchi g‘oya sifatida shakllangan va o‘z navbatida safdoshlari uchun dasturulamal bo‘lib xizmat qilgan. Behbudiy millatning ko‘zini ochish, asriy qullik iskanjasidan ozod etish, yo‘llarini avvalo xalq ma’naviy jihatlarini o‘stirish bilan bog‘ladi. Birinchidan, diniy va dunyoviy ilmlarni mukammal o‘qitadigan yangi jadid maktablari tashkil etib, millatning kelajagi bo‘lgan farzandlarni komillik darajasiga ko‘tarish. Ikkinchidan, gazeta, jurnallar tashkil etib, xalq ongini oshirish. Uchinchidan, teatr truppalari tashkil etib, xalqning madaniy darajasini oshirishni maqsad qilib oldi [1].

M.Behbudiy pedagogika masalalariga alohida yondoshdi. Chunki, u faqat o‘z davrining ilg‘or publitsisti, jamoat arbobigina emas, balki buyuk murabbiy-pedagog, psixolog sifatida bola tabiatini chuqur o‘rgandi, o‘z o‘quv dasturlariga bolaga har tomonlama puxta bilim beruvchi

[1] Жамолова Д. М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири-XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертатсияси автореферати.
[2] Улуғ Туркистон. Тошкент. 1918. 3-май. № 7
[3] Наимов Н. Бухоро Жадидлари Тошкент. Фан. 2000. Б. 11.

ilmlarni kiritdi. O‘quv predmetlari qatoridan odob, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, til, fiqh, handasa va bir qancha zamonaviy bilimlar o‘rin oldi. Uning ta’lim-tarbiya tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) Aqliy tarbiya. 2) Axloqiy tarbiya. 3) Diniy tarbiya. 4) Estetik tarbiya. 5) Huquqiy tarbiya. M.Behbudiyning ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlarini quyidagi didaktik prinsiplar asosida tashkil qilganini guvohi bo‘lamiz:

1. Ta’limning ongliligi.
2. Ko‘rgazmalilik.
3. Sistemalilik va izchillik.
4. Asoslanganlik.
5. Nazariyaning amaliyot bilan bog‘liqligi [2].

Ta’limda, albatta, onglilik talab qilinadi. Muallif davrining ko‘pchilik eski maktab darslari quruq mexanik ravishda yodlashdan iborat edi. Behbudiy bunday o‘quv sistemasiga qarshi chiqdi. Har bir o‘quvchi ta’limga ongli, ijodiy yondoshishi zarurligini uqtirdi. Shuning uchun ham uning maktabi o‘quvchilari ba’zi maktablardagi 10-15 yillab o‘qib savodi chiqmagan o‘quvchilardan farqli o‘laroq, olti oyda o‘quv-yozuvdan to‘la xabardor bo‘lar edi.

Behbudiy didaktikasida ko‘rgazmalilik muhim o‘rinda turadi. Chunki, bu jarayon ta’limni ishonchli, aniq va qiziqarli qiladi, bolaning kuzatish qobiliyatini va tafakkurini rivojlantiradi. Behbudiy o‘z maktabida ko‘rgazmali qurollardan keng foydalangan. Masalan, geografiya darsini o‘tishda dunyo xaritasi, daryo va dengizlar, turli irqdagi odamlarning suratlari va juda katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan globusdan foydalangan.

Behbudiy tashkil qilgan yangi usuldagi maktabda o‘qitish tizimliligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Chuqur ilmiy asosda qurilganligi, nazariyaning amaliyot bilan uzviy bog‘liqligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Ma’lumki, XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkistonning musulmon xotin-qizlari asosan uyda o‘tirar, savod chiqarmoqliklari ham faqat otinoyilar tomonidan tashkil etilgan uy maktablarida amalga oshirilar edi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ayollarni ilmli qilish masalasiga ham ijobiy munosabatda bo‘lgan. Behbudiy o‘z qizi Parvinxonni dastlab, usuli jadidda, so‘ngra fransuz tilidan o‘qituvchi yollab, ushbu ilmni mukammal o‘rgatgan. Parvinxon ko‘p yillar Samarqand shahri yaqinidagi Qoziqo‘rg‘on qishlog‘ida yoshlarga shu fandan saboq berib kelgan.

Behbudiy bola tarbiyasida oilaning, maktabning rolini ko‘rsatar ekan, ularning jismoniy, gigienik tarbiyasiga ham e’tiborni qaratmoq lozim ekanligini uqtiradi. Bunday qarashlarni uning "Hifzi sihat oila" (Oilaning salomatligini saqlash) maqolasida bayon etiladi. Bolalarni juda yoshlikdan tozalikka o‘rgatmoq, har xilcha yomon illatlardan saqlamoq lozimligini aytadi. Bolalarning yosh vaqtlaridan ishqiy g‘azallar o‘qishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak, deydi. Ayniqsa, qizlar tarbiyasi haqida gapirib, bunda o‘ta ehtiyotkorlik lozim, deydi. 14 yoshga to‘lgan qizlarni "Bu vaqtlarda nihoyat diqqat ila o‘tkarib, alarni zohiriy va botiniy hol va tarbiyalarini hifzi sihat va sha’riat taklifig‘a vofiq etmoqlari kerak. Bu holda qizlarni vujudini quvvatsiz etadurgan shay va taomlardan sahlab ham issiq liboslarni kiyg‘izmoq kerak" [1] deydi. Yana muallif, bunday qizlarni to‘y va hashamlarga kamroq olib chiqishlarini tayinlaydi. Chunki ko‘pchilik to‘ylarda yengil tabiat ayollar bo‘lib, har xil bo‘lmag‘ur yallalar, o‘yinlar qilib, qizlar ahloqiga ta’sir etishi mumkin. Muallif o‘sha vaqtlardagi Turkistonda nikohning 17 yoshli yigitcha bilan 14 yashar qizning oilasi umuman mukammal bo‘lmasligini aytadi. Ular bu yoshda bolalik odatlaridan qutulolmagan bo‘ladilar.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning pedagogik-tashkilotchilik faoliyati ham, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, nazariy-amaliy jabhalarda o‘ziga xos, uzviy ravishda namoyon bo‘ldi.

Behbudiy ijodiga nazar tashlar ekanmiz, unda maktab-maorif ishlari targ‘iboti masalasi ham salmoqli o‘ringa ega ekanligini guvohi bo‘lamiz. U Turkiston maorifini rivojlantirish, yangi maktablar ochish, joylarda taraqqiyparvar ilm ahillari tomonidan ta’sis etilayotgan bilim o‘choqlarini ko‘paytirish uchun targ‘ib-tashviq ishlarini kuchaytirdi. Gazeta va jurnal sahifalarida maorif masalasi muntazam ravishda yoritilib, Turkistonning qaysi viloyati, tumani bo‘lmasin, u yerdagi yangi usul maktablarining rivoji, taraqqiyoti uchun jon kuydirdi. Bundan tashqari, yangi usul maktabi yaratishni ko‘ngliga tugib, bu xayrli ishni boshlamoqchi bo‘layotganlardan o‘z bilimini, maslahatlarini ayamadi.

Yuqorida Mahmudxo‘ja Behbudiy haqida ma’lumot keltirishdan ko‘zlangan maqsad, uning Turkiston xalqi orasida obro‘-e’tibori yuksak bo‘lganligiga e’tiborni qaratishdir. Mahmudxo‘ja Behbudiyning taniqli shaxs, ayni paytda aholi orasidagi yuksak hurmatiga qaramay 1919 yilda uning taqdirida fojia yuz beradi. Unga va sheriklariga nisbatan shafqatsizlarcha o‘lim hukmini o‘qigan, bu qabih ishga qo‘l urgan qotillar kim bo‘lgan? Nega Mahmudxo‘ja Behbudiy Buxoro amirligi hududiga hamrohlari bilan birga o‘tgandi? O‘zga mamlakat hududida uni o‘lim topishi mumkinligi bilan ogohlantiruvchilar bo‘lmadimi? kabi savollarga javob izlash hamon davom etmoqda[3].

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ilmiy merosini o‘rganish quyidagi ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi:

M.Behbudiy tashkil qilgan usuli jadid maktablari o‘qitish metod va vositalarining hozirgi zamon ta’lim metod va vositalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorligi masalalari.

M.Behbudiy ta’lim-tarbiya tizimida “O‘quv yurti, oila va jamoatchilik” hamkorligi yo‘nalishlari.

M.Behbudiy tomonidan tashkil etilgan kutubxona va uning xalq ma’naviy qiyofasini o‘zgartishdagi ahamiyati.

M.Behbudiy tomonidan izohlangan didaktik prinsiplar va kategoriyalarning ta’lim jarayonini rivojlantirishdagi o‘rni.

Mahmudxo‘ja Behbudiy va Buxoro amiri munobatlari[4]

Behbudiy yaratgan asarlarida aks etgan milliy urf-odatlar, ananalar va insoniy qadriyatlar, asar qahramonlaridagi mardlik, to‘g‘rilik, adolatparvarlik, vafodorlik, halollik kabi xislatlar bugungi kunda kamol topayotgan yosh avlod ma’naviyatining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Uning fozil inson, komil inson haqidagi fikrlari, axloq-odob haqidagi g‘oyalari bugun ham jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda qimmatli dasturdir. Ulardan ta’lim-tarbiyani takomillashtirishda hamda o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy-axloqiy shakllantirishda keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўз боши ва изоҳлар: Б. Қосимов. 3- нашри. – Т.: “Маънавият”, 2006. – Б. 261.
2. Ҳошимов К., Нишонов С. ва бошқалар. Педагогика тарихи. -Т., “Ўқитувчи”, 1996.
\\ Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1995 йил 14 апрел.
3. Olimov Sh. Sh., Raxmonov K.J. Mahmudxo’ja Behbudiyning hayoti va faoliyati, ta’limiy qarashlari xususida ayrim mulohazalar / “Yangi O‘zbekiston sharoitida hamkorlik ta’limi masalalari: muammo va yechimlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Buxoro. 2024. – B. 361-372.

O‘ZBEKISTONDA MADANIY HAYOT: BUXORO JADIDLARINING MA’RIFIY MEROSI (1941-1945 –YILLAR)

Eshmurotova Marjona Pulat qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Ijtimoiy gumanitar fanlar o‘qitish metodikasi (tarix) yo‘nalishi
1-bosqich magistranti
eshmurotovamarjona019@gmail.com
Ilmiy rahbar: t.f.n
O.A.Maxmudov

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1941–1945 yillardagi O‘zbekiston SSR madaniy hayotining urush sharoitidagi rivoji, uning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati hamda Buxoro jadidlarining ma’rifiy merosining mazkur jarayonga ta’siri tahlil qilinadi. Maqolada jumladan, urush yillarida teatr, adabiyot, san’at va ta’lim tizimining faoliyati, front ortidagi madaniy-ma’rifiy ishlar, shuningdek, Buxoro jadidlarining yangilanish, ma’rifat va modernizatsiya g‘oyalarining

urush davridagi barqaror davomiyligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tadqiqot natijalari Buxoro jadidlarining merosi urush yillarida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganini, balki madaniy-ma’naviy hayotning rivojlanishida muhim tayanch bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, 1941–1945 yillar, O‘zbekiston SSR madaniy hayoti, urush sharoitida madaniyat, vatanparvarlik ruhini ko‘tarish, Buxoro jadidchiligi, jadidchilik merosi, ma’rifatparvarlik harakati, milliy uyg‘onish, madaniy-ma’naviy rivojlanish, ta’lim islohotlari, madaniy faoliyat, siyosiy ta’qiblar, matbuot faoliyati, teatr va san’at, milliy o‘zlikni tiklash;

Ikkinchi jahon urushi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, madaniyat sohasidagi faoliyat to‘xtab qolmagan, aksincha, jamiyatni ruhiy tetiklashtirish, vatanparvarlik ruhini ko‘tarish, milliy qadriyatlarni saqlash va targ‘ib qilishda muhim vosita vazifasini bajargan. O’zbekiston SSRning g’arbiy mintaqalardan Ittifoq akademiyasi institutlari va ilm-fan arboblari evakuatsiya qilindi. Faqat Toshkent shahrining o‘ziga 1941-yilning kuzida SSSR Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik, tarix, jahon adabiyoti, moddiy madaniyat tarixi va boshqa ilmiy tadqiqot institutlari, ko‘plab olimlar: akademiklar B.V.Struve, V.D.Grekov, SSSR Fanlar akademiyasining muxbir a’zolari Ye.E.Bertels, V.F.Shigmarov, A.Yu. Yakubovskiy, A.A.Mixaylov va boshqalar ko‘chib keldilar[1]. Fanlar akademiyasining tashkil etilishi madaniy hayotta katta burilish bo’ldi albatta.1943-1945-yillar mobaynida bir qator ilmiy tadqiqot institutlari,labaratoriyalar,tajriba va seysmik stansiyalar faoliyat yuritdi. Samarqanddagi O’zbekiston Davlat universiteti yana o’z faoliyatini boshladi. Urush yillarida O‘zbekiston madaniyati keng qamrovli faoliyat yuritib, xalqning ruhini ko‘tarishga katta hissa qo‘shdi. Kompozitorlar, san’atkorlar, kino va sirk ustalari jangchilarni qo‘llab-quvvatlab, vatanparvarlik ruhini kuchaytirdi. Matbuot esa odamlarni g‘oyaviy tarbiyalashda muhim rol o‘ynadi. Urush yillarida O‘zbekiston madaniyati faol bo‘lib, 400 ga yaqin vatanparvarlik qo‘shiqlari yaratildi. Teatr jamoalari 203 yangi asar sahnalashtirib, 187 mingdan ortiq spektakl va konsert o‘tkazdi. Frontda jangchilar uchun 15 ming konsert tashkil qilindi. Mashhur san’atkorlar Halima Nosirova, Olim Xo‘jayev kabi nomlar xalqni ruhlantirdi. Kino va sirk san’ati ham urush g‘alabasiga o‘z hissasini qo‘shdi. Matbuot esa g‘oyaviy tarbiya uchun muhim vosita bo‘ldi. Madaniyat urush sharoitida xalqning chidamliligi va vatanparvarligini mustahkamladi. 1941–1945 yillarda O‘zbekistonda 200 ga yaqin gazeta, shundan 124 tasi o‘zbek tilida, shuningdek 52 jurnal chop etildi. O‘zbek tilidagi gazetalar tiraji 600 ming nusxaga yetdi. Matbuot frontdagi voqealar, mamlakat ichidagi sanoat, qishloq xo‘jaligi, maorif va madaniyatdagi qiyinchiliklarni yoritib bordi. Urush vaqtida 14 ta front va 12 ta diviziya gazetasi nashr qilindi. Mashhur front gazetalaridan biri — «Front haqiqati» gazetasining tiraji va ta’siri juda katta bo‘ldi. O‘zbek yozuvchi va jurnalistlari frontlarda faoliyat olib, jangchilarni «Nemis bosqinchilariga o‘lim!», «Fashistlarni izma-iz quv!» kabi shiorlar bilan ruhlantirdi[2]. Shu tariqa, urush yillarida matbuot xalqni g‘oyaviy jihatdan tarbiyalash va vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etdi.

1941–1945 yillarida Buxoroda jadidchilik harakati o‘zining yangi bosqichiga chiqdi. Urush sharoitida qiyinchiliklarga qaramay, jadidlar ma’rifat va ta’limni rivojlantirishga intildilar. Ular milliy qadriyatlarni saqlash va yangilashga, yosh avlodni ilm-fanga yo‘naltirishga katta e’tibor qaratdilar. Buxoro jadidchiligi urush davrida ham jamiyatda ruhiy uyg‘onish va madaniy taraqqiyot manbai bo‘lib xizmat qildi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligida jadidchilik harakati shakllandi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi aholi, xususan yoshlar orasida ma’rifatni oshirish, milliy ozodlik uchun kurashish va ijtimoiy ongni rivojlantirish edi. Buxoroda jadidchilik boshqa Turkiston hududlaridan farq qilib, soliq tizimini isloh qilish, dehqonlar va savdogarlarning og‘ir soliq yuklarini yengillashtirish kabi ijtimoiy masalalarga ham e’tibor

[1] Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. — Ikkinchi kitob. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.

[2] Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). — Uchinchi kitob. — To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashr. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010.

qaratdi. Ushbu harakatga mahalliy boylar, ulamolar, mudarrislar va talabalar qo‘shildi. Mashhur jadidchi olimlar orasida Axmad Donish, Axmadjon Xamdiy, Abdulvohid Munzin, Hamidxo‘ja Mehriy, Sadriddin Ayniy, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li kabi shaxslar bor edi.Jadidchilik harakati o‘sha davr jamiyatidagi muammolarni hal qilishga intilib, ma’naviy yangilanish va milliy uyg‘onishga xizmat qildi. Bu harakat Buxoro xalqi hayotida tub islohotlar boshlanishiga sabab bo‘ldi. Jadidchilikning asosiy maqsadi — xalqning ma’naviy salohiyatini oshirish, yangi ilm-fan va madaniyatni tarqatish edi. Buxoro amirligi davrida boshlandi, ammo 1940-yillar o‘rtalarida ham bu g‘oyalar yashab, keyingi avlodlarga ilhom bag‘ishladi. Jadidlarning maqsadi o‘zbek xalqining ongini yuksaltirish, milliy mustaqillik va taraqqiyot sari yo‘l ochish edi. 1942–1945 yillar davomida Buxoroda jadidchilik harakatiga qarshi siyosiy ta’qiblar kuchaydi, ko‘plab jadidlar qamoqqa olinib, faoliyatlari to‘xtatildi. Shunga qaramay, ular tomonidan ilgari surilgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari jamiyatda mustahkam o‘rin oldi va milliy o‘zlikni tiklash harakatlarining poydevori bo’ldi.Jadidlar o‘quv muassasalarini tashkil qilish, yangi metodlarda ta’lim berish va yoshlarni ilmiy yutuqlarga yo‘naltirish orqali Buxoroda madaniy-ma’rifiy hayotning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu esa, o‘z navbatida, milliy uyg‘onish va taraqqiyot yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.Shu bilan birga, urush yillarining murakkab sharoitida ham Buxoroda jadidchilik g‘oyalari mahalliy aholi orasida ommalashib, mustaqillik uchun kurashning ma’naviy asosini yaratishda davom etdi. Bu davr Buxoro tarixida jadidchilik harakatining barqarorligi va davomiyligini ko‘rsatadi. Jadidchilikning asosiy maqsadi — xalqning ma’naviy salohiyatini oshirish, yangi ilm-fan va madaniyatni tarqatish edi. Buxoro amirligi davrida boshlandi, ammo 1940-yillar o‘rtalarida ham bu g‘oyalar yashab, keyingi avlodlarga ilhom bag‘ishladi. Jadidlarning maqsadi o‘zbek xalqining ongini yuksaltirish, milliy mustaqillik va taraqqiyot sari yo‘l ochish edi..Jadidlar o‘quv muassasalarini tashkil qilish, yangi metodlarda ta’lim berish va yoshlarni ilmiy yutuqlarga yo‘naltirish orqali Buxoroda madaniy-ma’rifiy hayotning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Bu esa, o‘z navbatida, milliy uyg‘onish va taraqqiyot yo‘lida muhim qadam bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda 1941–1945 yillarda O‘zbekiston madaniy hayoti urush sharoitida ham faol davom etdi. Madaniyat xalqni ruhiy qo‘llab-quvvatlash, vatanparvarlik ruhini kuchaytirishda muhim rol o‘ynadi. Buxoro jadidlarining ma’rifiy g‘oyalari ushbu davrda ham ahamiyatini saqlab qolib, madaniy-ma’naviy hayot rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Matbuot, teatr, san’at va kino orqali jamiyatning ijtimoiy ongini shakllantirishda samarali ish olib borildi. Shu bilan birga, ilm-fan va madaniyat rivojiga evakuatsiya qilingan mutaxassislar hissa qo‘shdi. Umuman olganda, madaniyat urush davrida ham milliy qadriyatlarni asrash va mustahkamlashda muhim vosita bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayev N., Karimov Sh. O‘zbekiston tarixi. O‘zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. — Ikkinchi kitob. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2011.
2. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi (O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). — Uchinchi kitob. — To‘ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashr. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010.
3. Gulboyev Husan Shokir o‘g‘li. Buxoro amirligida jadidchilik harakatining vujudga kelishi va uning mohiyati. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti, 2023. DOI: 10.5281/zenodo.7960749
4. “Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.” Toshkent, “Universitet”, 1999.
5. Xo‘jayev F. “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar.” Toshkent, “Fan”, 1997
6. Dilnoza Jamolova. “Buxoro amirligida jadidchilik harakati tarixi.” “Tafakkur” jurnali, №2, 2016.
7. Ayniy S. Asarlar. 8 tomlik. 1-tom, Toshkent, “O‘zSSR davlat Badiiy adabiyot nashriyoti”, 1963.

VADUD MAXMUDNING BOLALIK XOTIRALARI

Jabborov Avazbek Aloviddin o'g'li,
tayanch doktorant
Buxoro davlat universiteti
Email: avazbekjabborov3770@gmail.com
Tel: +998912407898

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri — Vadud Mahmudning bolalik xotiralari, ularning adibning keyingi ijodiy shakllanishiga ko'rsatgan ta'siri hamda uning adabiy-estetik qarashlarining tarkib topishidagi o'rni tahlil qilinadi. Muallifning erta yoshdan boshlab kitobga, ilmga va adabiy muhitga bo'lgan qiziqishi bolalik yillari tasvirida yorqin aks etgani ko'rsatib beriladi. Maqolada shuningdek Vadud Mahmudning shaxsiy kechinmalari, oilaviy tarbiyasi, ijtimoiy muhitning ruhiy olamiga ta'siri hamda ushbu omillarning uning keyingi ilmiy-adabiy faoliyatida qanday namoyon bo'lgani ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari adibning bolalik xotiralari uning badiiy tafakkuri, tanqidiy nigohi va estetik qarashlarining shakllanishida muhim manba bo'lib xizmat qilganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: oilaviy muhit, dastlabki ta'lim, Shakkuriy domla ta'siri, ilk do'stlar, so'zga muhabbat.

XX asr birinchi choragidagi Turkiston madaniy hayotiga fidoyi ziyolilarning ulug' xizmatlari ko'rk bag'ishlab turadi. Vadud Maxmud ham shu avlodning bir vakilidir. Vadud Maxmudning ruhiy va ma'naviy kamolotida uning otasining ta'siri va ustozi Abduqodir Shakkuriyning xizmati beqiyosdir. U otasi haqida quyidagicha xotirlaydi: Otamning muhrida "Mulla Mahmud, mudarris" deb yozilgan edi. Ular Buxoroda tahsil olib, dahyak maqomini qo'lga kiritgach, bir necha yil dars bergan, oilali bo'lgan, so'ngra Samarqandga qaytganlar. Bizning ajdodlarimiz —bobolarimiz, amakilarimiz ham dastlabki diniy bilimlarni olgach, Buxoroga borib, u yerda diniy kitoblarni tugatganlar. Oilaviy xarajat va tahsilni ta'minlash uchun ular Ohalik dashtida joylashgan Choshtapa nomli yerda dehqonchilik qilganlar. O'sha vaqtlarda Buxoroga ilm olish uchun piyoda olti kunlik yo'l bosib borilgan. Bizning tog'avachchalarimizning ko'pchiligi Qur'on qori bo'lib, qorixonalar ochgan, qiroat saboqlari bergan. Bolaligimda otam bilan Yalangtushbek guzarida bo'lgan hovlida borganimizni eslayman — u yerda bu qorilarni ko'rganman. Otam Buxorodan qaytgach, Yominiy guzarida hovli xarid qilib, o'sha yerda turli guzarlar masjidlarida imomlik va dars berish bilan shug'ullangan. Keyinchalik, shahar tashqarisidagi Tayloq nomli hududga imom sifatida taklif etilganlar — men ham aynan o'sha yerda tug'ilganman. Otam bu joyga kelgunlaricha bir necha bor uylanganlar, ammo turmush o'rtoqlari vafot etgan. Ular Shakuri muallimning ikki opasiga ham uylanganlar, ammo bu nikohlardan tug'ilgan bolalar ham uzoq yashamagan. Otam ko'p bor uylangan bo'lsalar-da, har bir juftlari vafot etganidan so'ng, odamlar ularga qiz berishni istamas edi. Ammo baxtimizga, Shohsobir ismli bir kishi topilib, o'zining qizi Anbaroyni turmushga berdi. (Bu bizning onamizning otasi hisoblanadi.) U kishining san'at bilan shug'ullanganligi aytiladi. Ana shu turmushdan biz — bir o'g'il va uch qiz dunyoga keldik. Hozir ulardan ikki nafari — men va singlim — hayotdamiz. Otam yetmish yoshda vafot etdilar. O'sha vaqtda men yetti yoshda edim va tomda shamolparrak uchirayotgan edim. Otamning yozma xotiralari amakivachcham Mulla Zikriyoga qolgan edi. U kishidan iltimos qilsam ham, daftarchani hech berishmadi. 1930-yillarda uni "kulak" deb surgun qilishdi va shu asnoda xotiralar daftari yo'qoldi. Faqat birgina ma'lumot menga yetib kelgan: Abduvadud tug'ilgan sana — hijriy 1316 yil 24 Jumodiyul avval (milodiy 1897 yil 8 oktyabr).

Otam taqvo va parhezkorlikda nihoyatda sinchkov edilar. Bozordan sotib olingan nonni yemasdilar, ayniqsa rus fabrikalarida ishlab chiqarilgan qandni mutlaqo tan olmasdilar. Uni qaynatib, g'ayri shubhali holga keltirganlaridan keyingina iste'mol qilardilar.

Ularning erta tongi mashg'uloti Qur'on tilovati, avrod (duo) va zikr edi. Rivoyat qilishlaricha, yarim tunda kimningki tishi og'risa yoki chayon chaqsa, odamlar otamning oldiga

kelib, duo oldirib, shifo topib ketganlar. Bog‘i Maydon guzari oqsoqollaridan biri menga shunday hikoya qilgan edi: “Bir necha kun yelkamdagi bezgakdan uyda yotibman. Bir kuni tasodifan domla amakiga duch keldim. Holimni so‘rab, yoniga o‘tir dedi va duo o‘qidi. O‘sha joyda bezgak yorildi va men darhol sog‘aydim.”

Otam bazm va yig‘inlarda faqat uyda tayyorlangan nonni olib borardilar, shubhali taomlarga qo‘l tegizmasdilar. Otam hayotlik chog‘larida meni muallim Shakuriyning maktabiga o‘qishga joylashtirganlar. Bu maktab Rajab Amin qishlog‘ida joylashgan bo‘lib, meni otam har kuni o‘zlariga otga mindirib olib borar va olib kelar edilar. Otamga tegishli yana bir esdalik: Rostini aytsam, bolaligimda “tarvuzni kesing” deb aytganimda, otam: “Tarvuz jonli narsa emaski, uni kesish demaymiz, faqat bo‘lamiz deb aytish kerak,”- degan edilar. Men esa, bolalik bilan: “Qo‘lingizdan tushirib yuborsangiz, u yumalab ketadi - demak, jonli-ku”deganman. Shundan juda mamnun bo‘lib: “Bu bolam munozara qila oladi, hazirojavob bo‘ladi,” — deb quvonib ketgan edilar.

Otam vafotlaridan avval men parvarishsiz qolmasligim uchun menga bir vasiy shaxs topmoqchi bo‘lganlar. Gozarda yashagan Mulla Eshonqul ismli kishini vasiylikka tanlamoqchi bo‘lganlar, lekin muallim Shakuri bunga rozi bo‘lmagan va meni o‘z tarbiyalariga olganlar. Shunday qilib, otam vafotidan so‘ng oilamizni muallim Shakuri boshqarganlar va bizga ajoyib g‘amxo‘rlik qilganlar. “Xudo ularga rahmat qilsin!” - deb yozadi muallif.

Otam vafotidan keyin onam ikkita kichik qizi bilan yolg‘iz qolgan edilar. Men esa, muallim Shakuriyning qo‘lida edim. Onam bog‘dan meva olib kelib sotar, uy ro‘zg‘orini qilar, bizlarni boqib, yurgizib, o‘qitgan edilar. U kishining matonati va fidoyiligi biz uchun tirik meros bo‘lib qolgan. Onam hijriy 1354-yilda, ya’ni milodiy 1935-yilda vafot etdilar.

Katta singlim Sabohatoy sildan vafot etgan. Qizi Munira va o‘g‘li Abduhamid esa bizning qo‘limizda ulg‘aydi. Kichik singlim Saloxatbegim esa shoir Sadriddin Ayniy bilan turmush qurgan. Ular bolalarini tarbiyalab, yuqori ma’lumotli qilganlar.

Otam vafotidan keyin muallim Shakuri meni o‘z qo‘llariga olib, tarbiyam bilan shug‘ullandilar. U kishining yoshlik chog‘ida o‘zlari o‘qigan maktabga – “yangi usuldagi rus maktabi”ga meni ham joylashtirdilar. Bu maktabdagi ilk kunlarim, albatta, men uchun hayajonli va notanish edi. Maktabda meni rus tili o‘qituvchisi Muallim Akmalbek qabul qildilar. U kishi oliy ma’lumotli, madaniyatli, e’tiborli ustoz edi. Men boshlang‘ich sinfda ulardan rus tilini o‘rgandim. Ularning samimiyligi tufayli rus tiliga bo‘lgan qiziqishim ortdi. Maktabdagi muhit Vadud Maxmudning qalbidan o’zgacha o’rin olgan. U maktab xotiralarini quyidagicha tasnif etadi: “Yangi maktab avvalgi maktabdan keskin farq qilardi, talabalar qator holatda o‘tirardi. Hammasi yagona formada edi. Darslar jadval asosida olib borilar, har bir fan o‘z vaqtida o‘tilar edi. Maktabda dohiliy tartib-intizom qattiq edi.

Bu tartibot men uchun yangi bo‘lsa-da, menga yoqdi. Chunki har bir ish o‘z me’yorida bajarilardi”. Vadud Maxmud maktabda bir qator do’stlar orttirgani va ular bilan keyinchalik ham madaniy aloqalarni saqlab qolganini ta’kidlaydi.

“U maktabda men bilan birga o‘qigan do‘stlarimdan ayrimlari hozirgacha yodimda: Ismatilla keyinchalik iqtisodchi bo‘lgan, Norqozi harbiy xizmatda ishlagan, Zayniddin me’mor bo‘lgan, Muazzam adabiyotga qiziqqan”.

Ularning har biri mening bolaligimda iz qoldirgan. Ba’zilari bilan bog‘imiz uzildi, ba’zilar bilan esa hayot yo‘llarimiz yana tutashdi.

Muallim Shakuriyning ta’siri Vadud Maxmudning ma’naviy va axloqiy kamolotida yuksak o’rin egallagan shaxs bo’lib hisoblanadi.” Muallim Shakuri – mening hayotimdagi eng katta insoniy ustozim bo‘lganlar “– deydi muallif. Ulardan nafaqat ilm, balki odob, madaniyat, so‘zlashuv, ijtimoiy muomala, siyosiy hushyorlikni ham o‘rganganman. Ular menga kiyim tozaligidan boshlab, so‘zlashuv ohangigacha, hatto ovqatlanish madaniyatigacha bo‘lgan barcha jihatlarni o‘rgatgan edilar. Shuning uchun, bu insonni har gal eslaganimda, ichimdan minnatdorlik va duoyi hayr bilan eslayman.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Vadud Mahmudning bolalik xotiralari uning adabiy tafakkuri va ijodiy shakllanishida muhim o‘rin tutadi. U eslagan voqealar, oilaviy muhit, ota-onasi

bergan tarbiya hamda o‘sha davrning ijtimoiy-madaniy manzarasi yozuvchining dunyoqarashini boyitgan, unda badiiy noziklik va inson ruhiyati bilan teran shug‘ullanish qobiliyatini shakllantirgan. Bolalikdagi kuzatuvchanlik, kitobga havas va atrof-muhitga sezgirlik keyinchalik uning adabiy tanqidiy yondashuviga ham, estetik ideallariga ham asos bo‘lgan.

Shuningdek, Vadud Mahmud bolalik kechinmalarini faqat shaxsiy xotira emas, balki o‘z zamonining ruhini aks ettiruvchi ijtimoiy-badiiy hodisa sifatida talqin qiladi. Shu bois uning bolalik yillari haqidagi esdaliklari yozuvchining keyingi ijodida uchraydigan tasavvufiy qarashlar, ma’naviy poklik, inson axloqi va ma’rifat masalalarining ildizini tashkil etadi. Umuman olganda, Vadud Mahmudning bolalik xotiralari nafaqat bir ijodkor hayotining boshlanish nuqtasini ochib beradi, balki uning adabiy dunyosini anglashda muhim konseptual kalit vazifasini bajaradi. Bu xotiralar yozuvchining ruhiyati, estetik qarashlari va adabiy merosining shakllanish jarayonini chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1.Vadud Maxmud. Tanlangan asarlar. Toshkent “Ma’naviyat” 2007
2. Vadud Maxmud. Tarixi Sarguzasht.
3. Bahodir Karimov. Vadud Maxmud: Hayoti va Ijodi. Toshkent: “Fan”, 2005
4. www.ziyo.uz kutubxonasi.

SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA TOZALIK VA SOG’LIQNI SAQLASH SOHASINING TASVIRI

Samadov G’olibjon Zaynidinovich
Buxoro davlat universitetining
I bosqich tayanch doktoranti
e-mail: g.z.samadov@buxdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro jadidchilik harakati namoyondalaridan biri Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar” asarida keltirilgan Buxoro amirligidagi tozalik va sog’liqni saqlash sohasining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi holati tasvirlangan. Asardagi mavzuga oid ma’lumotlar tahlil qilinib, o’sha davrdagi tozalik, sog’liqni saqlash, ekologik, va sanepidemik holatga baho berilgan.

Kalit so’zlar: Sog’liqni saqlash, tozalik, jadid, vabo kasalligi, rishta kasalligi, dor ush-shifo, hammomlar, karantin, dizinfeksiya.

Tarix saboqlaridan ma’lumki XIX asrning ikkinchi yarmidan O’rta Osiyoda taraqqiyparvarlik harakati yuzaga kela boshladi. Bu harakatning dastlabki bosqichi ma’rifatparvarlik bo’lib xalqni ma’rifatli qilishni o’zining asosiy maqsadi bilib, keng xalq ommasini savodli qilib, kitoblar, gazeta va jurnallarni o’qiy olishi uchun harakat qilganlar guruhi shakllandi. Bu qatlam millat oydinlari, ziyolilar sifatida namoyon bo’lgan. Bu ziyolilar qatlami vakillari o’zlarini jadid deb atay boshlashganlar. O’rta Osiyoning turli mintaqalarida xalqni savodli qilish, jamiyat hayotiga yangiliklar olib kirish, dunyoda bo’layotgan yuksalishlardan keng xalq ommasini xabardor qilish tarafdorlari – jadidlar shakllana boshladi. Shular qatorida Buxoro jadidlari ham bor edi. Buxoro jadidlari orasida Sadriddin Ayniy o’z davrida o’zining asarlarida Buxoro amirligi aholisi hayot tarzi, ijtimoiy hayotni yoritishi bilan ajralib turadi. Sadriddan Ayniy “Edaliklar” asarida Buxoro amirligining tozalik, sog’liqni saqlash ishlari holati haqida bir qator ma’lumotlarni keltirib o’tgan. Bu ma’lumotlar bizga amirlikning XIX asr oxiri XX asr boshidagi sog’liqni saqlash va tozalik sohasidagi qiyofasini gavdalantirishda yordam beradi.

Amirlikda tarqalgan kasalliklar va davo usullari tasviri. Asar to’rt qismdan iborat bo’lib, adib yoshlik yillaridan boshlab ko’rgan kechirganlarini yozgan. Asarning boshida o’zining yoshlik yillari o’tgan ikki qishloq(Mahallayi Bolo va Soktare)ni tasvirlagan. 1889-yilda muallif 12 yosh bo’lganda 40 kun ichida ham otasi, ham onasidan ajralgan. Buning sababi 1889-yil iyun

oyida Buxoro shahrida vabo kasalligi tarqalgani. “1889 yilning iyun oylarida Buxoro shahrida vabo tarqaldi. Akam shahardan kasal bo‘lib keldi. Katta tog‘am — Mulla tog‘am shaharda kasal bo‘lib o‘ldi. Uning o‘ligini o‘z qishlog‘iga — Mahallai Bologa keltirdilar. Otamning sog‘lig‘ining uncha mazasi yo‘q edi. Shuning uchun u, tog‘amning janozasiga bora olmadi, uyda aka-ukalarimga qarab qoldi. Men onamni tog‘amning azasiga olib bordim. Bilmadim, onamga vabo yuqdimi, yoki akasining o‘limidan yomon ta’sirlandimi, har holda motam kunlarida o‘sha yerda kasal bo‘ldi. Men uni eshakka mingashtirib qishlog‘imizga zo‘rg‘a olib keldim. Biz uyda otamni, biri to‘qqiz yashar, birisi to‘rt yashar ukalarimni kasal bo‘lib yotgan holda ko‘rdik. Akam bo‘lsa, o‘sha shahardan kasal bo‘lib kelganicha to‘shakda yotardi.” [1, 133] Kasallarni davolash va muolajasi haqida gapirib, oxiri o’lim bilan tugaydigan “tilsiz yov” deb atalgan vaboni davolash usullari juda soddaligi, hukumat tomonidan ko’rilgan choralar deyarli natijasiz ekanligini aytgan. Karantin qoidalari, bemorlarni alohidalash, dizinfeksiya qilishga umuman e’tibor berilmasligi, sanepidem qoidalari rioya qilinmaganligini tasvirlab “U zamonlarda, u tomonlarda doktor yo‘q edi. Bizning qishloqda esa, has xashaklarni qaynatib ichirib, kasal va ularga qarashuvchilarni yupatadigan nodon tabib ham yo‘q edi. Qishlog‘imizda faqat duoxon eshonlar bor edi.” [1, 134] deb yozgan. Bunday paytlarda ko’plar duoxonlik qildirib, kasallikni yengillatishga harakat qilishini takidlab o’tgan. Muallif 1893-yil yozida Buxoroda yana vabo tarqalgani haqida va juda ko’p aholi vafot etgani haqida yozib, vafot etganlarga janoza o’qish masalasini tasvirlagan. “1893 yilning (1310 hijriyda) yozida Buxoroda yana vabo paydo bo‘ldi. Bir hafta ichida ko‘chalarda sog‘ odam kam ko‘rinadigan bo‘ldi, ikkinchi haftada har guzardan kuniga bir necha janoza chiqa boshladi. Odatda peshin vaqtida buxoroliklar o‘liklarni oborib janoza o‘qitadigan Devonbegi va Baloyi hovuz xonaqohlarining oldi - masjidlar sahnining ikki tarafi janoza o‘qitish uchun keltirilgan o‘liklar bilan shunday to‘ladigan bo‘ldiki, imom qaysi o‘likka janoza o‘qiyotganini bilolmasdi. Natijada, Buxoro ulamolari xuddi jang maydonidagidek o‘liklarni qator qo‘yib, har bir qator uchun bir janoza o‘qish mumkin, deb fatvo berdilar. Bu ahvol Buxoro xalqini dahshatga soldi, bir joyda o‘nlab o‘likni jamlashdan sog` odamlar ham vahimaga tushib, kasal bo‘la boshladi. Hukumat har bir o‘likka o‘z mahallasidagi masjid oldida janoza o‘qilsin, Devonbegi va Baloyi hovuz xonaqohlariga olib kelinmasin, deb farmon chiqardi.” [2, 74] Amirlik hukumatining vaboga qarshi tadbirlari xususida shunday yozadi. “Buxoro hukumatining vaboga qarshi choralari kulgili edi: hukumat qozi kalon vositasi bilan farmon chiqardi. Bu farmonga muvofiq guzarlarning muazzinlari, xushovoz qorilar to‘rttadan, beshtadan gruppalarga bo‘linib, «xudovandi karim bemahal azonlar sharofati bilan el boshidan vaboni ko‘tarsin» uchun har kun kechasi xuftondan tong otguncha shahar ko‘chalarini aylanib, guzarlarning boshida va chorrahalarda bir ovozda bemahal azon aytishlari lozim.” [2, 75] Bu esa tadbirlar qanchalik jo’n ekanligini ko’rsatib turibdi. Lekin Kogondagi rus hukumatining vaboga qarshi choralarini ham keltirib o’tadi. “Kogonda yashayotgan Rossiya podsholigi ma’murlari bu ishda betaraf qolmadilar. Ular o‘z tasarruflarida bo‘lgan Kogonda vaboga qarshi kasalxona tashkil qilib, temir yo‘l stansiyasida karantin e’lon qildilar.” Kogondagi rus hukumatining taklif va tavsiyasi bilan Buxoroda ham vaboga qarshi kurashning zamonaviy usullari joriy qilinganligini ham qayd etgan. “Buxoro hukumatiga ham vaboga qarshi kasalxonalar ochib, karvon yo‘llarida karantin tartibi o‘rnatishni taklif qilishdi.”[2, 76] Natijada Buxoro shahrida va hududlarda karantin tartibi joriy qilindi. “Buxoroda vaboga uchraganlarning taqdiri mana shu vrach bilan shu feldsherga topshirildi, vaboga qarshi kasalxona ham shular nazorati ostida tashkil topdi. Vaboga qarshi kasalxonani Shayx Jalol darvozasi tashqarisida, shahar kasalxonasiga yaqin joyda ochdilar. Ammo u yerda na bino, na biror daraxt va na oqar suv bor edi. U yerda keng bir ko‘l bo‘lib, qishda suv bilan to‘lar, yozda sayozroq joylari qurirdi. Ammo u ko‘lning bir tarafi shahar qal’asining devoriga loy olingan chuqurlikdan iborat bo‘lib, unda hamisha ko‘kimtir va qizg‘ish rangdagi suvdan sassiq hid buruqsab turardi. Ko‘lning g‘arb tarafidagi pastak tepalikda mashhur shoir Xo‘ja Ismat Buxoriyning mozori bo‘lib, shu atrofdagi aholi ham o‘liklarini ana shu tepalikka ko‘mardilar.” [2, 76] Buxoro shahridan tashqari mahalliy hududlarda ham kasalxona va karantin markazlari tashkil etilganlini qayd etgan. “Buxoro hukumatining karantinlaridan biri Qarshi cho‘lidagi Chetariq mavzuida, ikkinchisi Karmana yo‘lidagi Xonrabot mavzuida tashkil topgan edi.” [2, 77] bulardagi karantin qoidalari haqida esa

quyidagicha bayon etgan. “Dashtlarning etagida tashkil topgan bu joylarning har birida bittadan buxorolik tabib va amirning otliq navkarlaridan bir guruhi turardi. U yerlarda ham bo‘yra kapachalar qurilgan, ularning yonlarida ikki- uch katta mis qozonda suv qaynab turardi, qozonlarga qopqoq o‘rniga bo‘yra yopib qo‘yilgan edi. Navkarlar yo‘lovchilarni tutib kelar, tabiblar uning tomirini ko‘rib, sog‘lom deb hukm qilar, shundan so‘ng yo‘lovchilar kiyimlarini yechib kapalarga kirar, boshlariga bir chelak suv quyar, ma’murlar ularning kiyimlarini qozon ustiga yopilgan bo‘yra ustiga qo‘yib bug‘lab berardilar. Ammo yo‘lovchilarning cho‘milishiga shu qozondagi suvdan berilardi. Shu bilan «dezinfeksiya» marosimi tugab, odamlar bug‘da namlangan kiyimlarini kiyib, o‘z yo‘llariga qarab ketardilar”[2, 77] Adib vu vaqtda o’zi ham vaboga yo’liqqani, qay tariqa tuzalgani va avvaldan mavjud mahalliy aholining davo usullari haqida ham yozgan. “Lekin mening salomatligim uzoqqa bormadi: bir kun odatim bo‘yicha bir kosa no‘xat sho‘rva keltirib ukam bilan ichdik (Buxoroning eng arzon ovqati shu edi). Shuni ichdimu, birdan og‘irlashib, uyqum kela boshladi, yotib uxladim. Bir soatdan so‘ng uyg‘onsam, ko‘nglim bejo, madrasa sahniga chiqib yiqildim, o‘zimni bilmay qolibman, shunisini bilamanki, bu voqea iyul oyining boshlarida ro‘y bergan edi. Bir kun ko‘zimni ochib qarasam, bir hovlining yo‘lagida turibman, etagim to‘la kesak, ukam qarshimda turib kesaklarni etagingdan to‘kib tashla, deb yolvoryapti. Hushyor tortishim bilan, nega etagimga kesak solib yuribman, deb o‘yladim va to‘kib tashladim. Ammo yana hushdan ketdim.”[2, 75] Tuzalib oyoqqa turishi haqida yozib, naq 29 kun hushsiz yotgani, uni yaqin do’sti Mirsolihning otasi - Mirizom ismli, yetmish yoshli nuroniy cholning davolaganini yoritgan. “Bir kun erta sahardan ko‘zimni ochib qarasam, yonimda ukam yotibdi. Uy begona edi. Atrofga nazar solsam: kiraverishdagi eshik oldida yetmish yashar bir chol kitob ko‘chirib o‘tiribdi. Tanidim, bu Mirsolihning otasi Mirizom nomli nuroniy chol bo‘lib, men yotgan uy uning mehmonxonasi edi. Men chap ho‘li bilan xat yozib turgan bu cholga hayrat bilan tikilib turganimni ko‘rgach, u halamini losdonda tozalab, qulog‘i oldidan sallasining chetiga suqib qo‘ydi, yozgan sahifalarini yostiqning ustiga qo‘yib menga qarab: — Kasaldan qutulibsan, muborak bo‘lsin,— dedi va darrov doim hovlida xizmat qilib yuradigan Mirhikmat nomli o‘g‘lini chaqirdi,— ayt, shirchoy qilsin,— so‘ng menga qarab davom etti, —urinmay yota ber, bukun shirchoy ichasan. Men ukamni uyg‘otmoqchi bo‘ldim. — Qo‘y, andak yotsin,— dedi qariya,— kechasi, ahvoling og‘irlashgan edi, u mijja qoqmay chiqdi. Kasallikning og‘ir payti edi, nima bo‘lsa ham xayrlik bilan o‘tdi. Yarim soatda shirchoyni pishirib olib keldilar. Qariya undan bir piyolaga quyib menga berdi. Men ichib oldim. — Endi peshingacha hech narsa yemaysan,— dedi meni o‘z panohiga olgan qariya. Shundan so‘ng, shirchoy sovumay non to‘g‘rab yesin, deb ukamni uyg‘otdi. Kasal boquvchi tajribali bu chol kunduz soat 12 da ham menga bir piyola shirchoy ichkazdi. Mening non yegim bor edi. Qat’iyan man qildi. Kechqurun ham taomim bir piyola shirchoy bo‘ldi. Ertasiga ertalab mo‘ysafid yarim kosa shirchoyga bir burda yupqa, suxaridek quritilgan nonni to‘g‘rab berdi, to‘g‘ralgan nonlarni yemoqqa ruxsat bermadi. — Bugun nonning mazasi chiqsa bo‘ldi!— dedi. Tushki va kechki ovqatda menga oz-ozdan sho‘rva ichirishdi. Bu sho‘rva go‘shtli, bir oz guruch solib pishirilgan bo‘lsa ham, menga yog‘siz suvidan berishdi. Uchinchi kun o‘shanday sho‘rvaga bir oz issiq nonni to‘g‘rab yemoqqa ruxsat berdi.” [2, 77] Bundan ma’lumki mahalliy aholida azaldan shakllangan vaboga qarshi davo usullari bo’lgan. Chunki bu kasallik necha asrlardan buyon xalqimizni qiynab kelayotgan, ko’pchilikni yostig’ini quritayotgan kasallik edi. Buxoro shahri aholisini qiynaydigan yan bir kasallik haqida ham yozgan. Bu illat – rishta kasalligi edi. Sadriddin Ayniy rishta kasalligi kelib chiqishini Buxoro hovuzlariga borib taqaydi. Chunki Buxoro shahridan boshqa oqar suvdan istemol qiladigan mahalliy hududlarda rishta kasalligi uchramasligini qayd etgan. Sababi Buxoro sharidagi hovuzlar erta bahorda suvga to’ldirilgan va undan kuz, qishgacha odamlar iste’mol qilgan. “Rishta chiqargan vaqtlarimning so‘nggi ikki-uch yili orasida Buxoroga, rishta mavsumida Peterburg va Moskvadan ketma-ket mikrobshunos olimlar kelishdi. Ular yangigina tortib olingan rishtalarni rishtakash sartaroshlardan olib, o‘z laboratoriyalarida tahlil qilib ko‘rishdi. Bu donishmandlarning tadqiqotlari natijasi Buxoro aholisiga garchi ma’lum qilinmagan bo‘lsa ham, ular rishtaning asosiy sababini Buxoro hovuzlari suvidan topganlarini men ishonchli kishilar orqali bilib oldim, yana shu ham bilindiki, bu suvni dokadan tozalab o‘tkazgan vaqtda ham rishtaning ko‘zga ko‘rinmas

urug‘lari qolaverarkan.”[4,243] Hovuzlarda suvlar almashtirilib turilmagani uchun mikrob va gijjalar ko’payib ketgan. Suvni qaynatmasdan ichish oqibatida odam tanasida qurtlar paydo bo’lib, teri ostida oq rangli chuvalchanga o’xshash gijjalar qamrab olgan. Agar bu qurtlarni tanadan chiqarib olish paytida uzilib ketsa, qurtni zaxari tanaga tarqalib ikki oygacha qichitma qilib, isitma qildirib azob berganligini bayon qilgan. “Amirlik zamonida davosiz bemorliklardan biri rishta kasali edi. Men Buxoroda yashagan to‘rtinchi yili bu dardi bedavoga yo‘liqqan bo‘lsam ham, uni hikoya qi- lishni «Esdaliklar»ning shu qismigacha qoldirdim. Chunki bu balodan 1901 yilgacha qutulmadim, menga 11-12 yil azob bergan bu alamli dard haqida «Esdaliklar»ning shu yerida qayd etilishi hozir sovet Buxorosida tamoman yo‘qotilgan bu kasallik nima va u qanday paydo bo‘lib, uni qanday davolashni o‘quvchiga ravshan ko‘rsatadi.” [4, 229] Bu kasallik BXSR hukumati davrida butkul tugatilganlini, buning uchun barcha hovuzlar quritilib vodaprovod joriy qilinganlini qayd etgan. “Buxoro revolyusiyasidan keyin hovuzlarni quritib, vodoprovod qurilgandan so‘ng Buxoro aholisi rishta kasalligidaa batamom qutuldi. Yoshlar hali rishtaning nimaligini bilmaydilar va qariyalar esa, uni ba’zan dahshatli tush singari eslaydilar.” [4,247]

Tozalik ishlari tasviri. Musulmon davlatlari va musulmon aholi tozalikka juda katta e’tibor berishgan. Sababi islom dinida tozalik va pokizalik asosiy talab qilinadigan amallar edi. Shuning uchun ham Buxoro shahrida ko’plab hammomlar qurilgan edi. “Esdaliklar” da Buxoro hammomlarining ba’zilarini nomlarini keltirib o’tilgan. To’qimdo’zlik hammomi, Hammomi Kunjak, Chubin hammomi, G’oziyon hammomi kabilarni tasvirlab ularni joylashgan joyi haqida biroz ma’lumot bergan. O‘rta asrlarda Buxoro hamomlari „garmoba“ deb nomlangan bo‘lib, ichki va tashqi me’moriy uslubi o‘zgarmasdan birdek saqlanib kelingan. Hammomlarning ichki qismi dam olish va yechinish kabi xonalardan iborat bo‘lgan. Undan so‘ng tor yo‘lak oraqali o‘tiladigan „poysho‘yxona“ (oyoq yuviladigan xona) joylashgan. Ushbu xonadan keyin gumbazli „miyonsaroy“ (o‘rtasaroy) deb atalgan zalga o‘tilgan. Bu yerda „xunukxona“ (sovuq suv bilan yuvish xonasi) va „garmxona“ (issiq suv bilan yuvish xonasi) va toat-ibodat amallarini ado etishga mo‘ljallangan mehrob bo‘lgan. Hamomda mijozlarning issiq va sovuq suvda cho‘milishi uchun maxsus joy bo‘lib, u „miyonsufa“ deb nomlangan.[5,404]

Ekologik va sanepidemik vaziyat tasviri. Shahardagi ekologiya va sanepidemik holatlar to’g’risida to’xtalib, “Dars hali boshlanmagan edi. Men bekorchilikdan zerikdim. Qishloqning keng fazosi va toza havosidan kelib, birdan-bir tor hujraga kirish yomon ta’sir qildi. Men hujraning ko‘cha tomondagi darchasini ochib, uning oldida o‘tirdim. Biroq ko‘chadan qo‘lansa hid kelib, dimog’imni chatnata yozdi. Bu bir yot hid edi. Qancha o‘ylasam ham, uning qanday hidligini aniqlayolmadim. Darrov darchani yopib, hujradan tushib, madrasaning tashqari sahniga chiqdim va ko‘chadan o‘tgan-ketganlarni tomosha qilish maqsadida, sahnning shimol tomoniga borib, unga tutashib ketgan samovarxona tomiga chiqib o‘tirdim. Biroq haligi qo‘lansa hid bu yerga ham kelardi. Noiloj u yerdan turib, sahnning g‘arb tomoniga borib o‘tirdim. U yerda badbo‘ylik ozroq edi.” [1, 232] deb yozadi. Bu paytda Sadriddin Ayniy o’quv yilini boshlash uchun qishlog’idan Mir arab madrasasidagi hujrasiga kelgan edi. Va bu qo’lansa hid qayerdan kelayotgaligiga qiziqadi. Aniqlasaki bu hid kushxonadan kelayotgan edi. O’zicha hayron bo’ladi nega mol so’yiladigan joylar shahar markazida joylashgan. Aslida bunday joylar shahar tashqarisida joylashgani to’g’ri emasmi degan xayolga boradi. Suhbatdoshi shu paytda quyidagi ma’lumotni beradi. “Men g‘o‘za bozori mojarosining tomoshasiga mahliyo bo‘lib o‘tirganimda bir kishi orqamdan kelib yelkamdan yumshoqqina tutdi. Bosh ko‘tarib qaradim, Pirak ekan. Qishloqqa ketganimdan beri uni ko‘rmagan edim. U ham akasi bilan bir necha kun bundan avval shahar atrofidagi qishloqlarga chiqqan va o‘sha kun kelgan ekan. Hol ahvol so‘rashgandan keyin, u menga: — Nega bu ari uyasi (go‘za bozori) oldiga kelib o‘tiribsan? Samovarxona tomi bu yerdan tinchroq emasmidi?— dedi. Men u yerdagi badbo‘ylikni gapirib, u qo‘lansa hidning qayerdan kelayotganini so‘radim. — U kushxona hidi,— dedi Pirak javobida va izohladi,— ilgarigi yillarda, madrasa oldidagi qassoblarning kushxonalari yog‘och bozorida edi. Qassoblar shahar raisiga, «u kushxona bizga uzoqlik qiladi» deb, uning ruxsati bilan madrasa oldiga keltirdilar. — Axir bu qo‘lansalik uyasini odamlar yashaydigan joylardan uzoqroqda, masalan, shaharning tashqarisida qursalar bo‘lmasmidi?—dedim men afsus va ajablanish ohangi bilan. — Oho! Tunov kun

qishloqdan kelib, o‘zlarini butun dunyo xalqidan nozik tabiatroq sanaydigan Buxoro kat- talariga ozodalik sotasanmi? Holbuki, Mir Arab madrasasi oldiga, kushxona shu yil bino qilingan bo‘lsa, bu madrasadan kattaroq va mashhurroq bo‘lgan, Qo‘kaltosh madrasasi oldidagi kushxona o‘n yildan beri mavjud va u madrasaning aholisi indamaydi. Uni ham bir tomonga qo‘yaylik, Buxoroning har bir qassoblik bozoridan kattaroq bo‘lgan va har kun yuzlab hayvonning go‘shti sotidadigan Registondagi qassoblik bozorining kushxonasi arkning ro‘parasida va uning hidi «janobi oliy» va qushbegi «janoblari»ning dimog‘lariga kirib turadi. Lekin ular shikoyat qilmaydilar-u, sen shikoyat qilasan.” [1, 234] Bundan ko’rinadiki kushxonalar shahar havosiga salbiy ta’sir ko’rsatgan. Shahar havosini buzadigan boshqa holat haqida ham to’xtalib o’tgan. Bu Registon maydonining shimoli-g’arbidagi ulkan chuqurlik bo’lib, unda olomon ko’z o’ngida aybdorlarni qatl qilishgan. Bu haqda ushbu jumlalarni keltirgan. “Pirakning maqsadini tushunardim, u piching qilardi, u asabiylanib, qizib ketgan edi va so‘zining oxirida, qo‘shimchaday qilib, dedi: — Hali sen qora mollar kushxonalarining shaharning ichida bino qilishlaridan zorlanasan. Holbuki shahar ichida odamlar kushxonasi ham bor. Men seskanib ketib so‘radim: — U qayerda? Qanday? — Men bir kuni odamlar kushxonasini senga ko‘rsataman,— dedi,— hozir bir zarur ishim bor,— deb yonimdan turib ketdi.” [1, 235] Bu “odamlar kushxonasi” deb atalgan chuqurlik Bolo Hovuz masjidiga yaqin joyda joylashgan edi. Undagi qo’lansa hid va pashshalar turli kasalliklar tarqatgani ehtimol.

Kasalxonalar va xalq tabobati tasviri. Muallif Registondagi Dor ush-shifo madrasasi haqida ham to’xtalib o’tadi. “Bu maydon(Registon)ning shimolida ilgari zamonlarda tib ilmi o‘qiladigan Dorush-shifo madrasasi bor edi.” [1, 235] Chamamizcha u davrda bu madrasa faoliyat ko’rsatmayotgan bo’lsa kerak. Chunki Ayniy Buxoro madrasalarini tasvirlaganda Dor ush-shifo haqida va undagi ta’lim tizimiga oid ma’lumot bermagan. Ayniy Buxoro shahrida joylashgan davlat kasalxonasini quyidagicha tasvirlagan. “Buxoroda esa bittagina kasalxona bo‘lib, unda bitta rus doktor, bir tarjimon va bitta qashqarlik feldsher ishlardi, xolos. Bu doktor bilan feldsher ham kasalxonada, ham shu bino ichidagi ambulatoriyada ishlardi. Bu kasalxona Shayx Jalol darvozasiga yaqin joyda bo‘lib, bu yer ifloslikda Buxoroning hamma guzarlaridan oshib tushardi.” [2, 76] Bundan ko’rinadiki kasalxonadagi doktor va feldsherlar aholi soniga nisbatan juda kam bo’lgan. Kasalxonadagi doktor va feldsherlarning malakasi haqida ham to’xtalib o’tgan. “Bilgan odamlar, bu doktorning unchalik mahorati yo‘q, bilimi bir feldsherdan ortiq emas, deb aytardilar. Shuning uchun Buxoroning katta boylari kasal bo‘lib qolsa Chorjo‘y yoxud Samarqanddan doktor chaqirar edilar. Agar kasallari safarga chiqishga monelik qilmasa, mazkur shaharlarga o‘zlari borib davolanar edilar”. Demak kasalxona xizmatidan o’ziga to’q aholi qatlamlari kam foydalangan. Va yana Xo’ja Ubbon mozorida teri-tanosil va ko’zi og’rigan bemorlar davolangani haqida ham aytib o’tgan. “U yerda mozorning binosi bo‘lib, uning ichida «Xoja Ubon turbati» deb shuhrat topgan bir qabr, bir chillaxona va suvi achchiq bo‘lgan bir chuqur quduq bor ekan va u quduqning suvi faqat kasallarning, ayniqsa pes va ko‘zi og‘riganlarning «shifolanish»lariga va ziyoratchilarning «tabarruk» deb olib borishlariga sarf qilinar, ichiladigan suvni qishloqdan ot, eshakda tashirkanlar.” [1, 272] Qiziq tomoni bu joyda hozir(Bugungi kunda Buxoro viloyat Romitan tumanida joylashgan) ham terisi tanosil kasalligi bilan og’rigan bemorlar shifo ilinjida kelib, tunab qolishadi. [3, 129]

Xulosa: So’ng so’z o’rnida shuni aytish mumkinki, Sadriddin Ayniy o’z “Esdaliklar”ida Buxoro amirligining XIX asr so’ngi o’n yilligi va XX asr boshidagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tasvirlab, bunda sog’liqni saqlash, tozalik, ekologiya, gigiyena va sanepidem holatlarini ham yoritib o’tgan. Bu ma’lumotlar orqali amirlikdagi tozalik va sog’liqni saqlash holati haqida kerakli tasavvur hosil bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Садриддин Айний. Асарлар (8 томлик). Эдаликлар I-II қисмлар. Тошкент. 1965.

2. Садриддин Айний. Асарлар (8 томлик). Эдаликлар III қисм. Тошкент. 1965.

3. Баҳромов Қ, Шодиева Н. Бухоро тарихий обидалари географияси. Бухоро: Дурдона нашриёти, 2020.

4. Садриддин Айний. Асарлар (8 томлик). Эдаликлар IV қисм. Тошкент. 1965.
5. Halimov T. Buxoroning qadimgi hammomlari. Buxoro tarixi masalalari (Eng qadimgi zamonlardan hozirgacha) mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfirensiya materiallari, Buxoro, 2021

BUXOROLIK JADIDLARNING XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY AHVOLI VA TA'LIMI HAQIDA QARASHLARI

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti
Email: tilavovashahnoza249@gmail.com
Tel: +998912477905

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro jadidlari tomonidan oila va jamiyatda xotin-qizlarning o'rni, haq-huquqlari masalalari, ularning ta'lim va tarbiya olishlarining farzand tarbiyasidagi ahamiyati haqidagi qarashlari asarlari orqali tarixiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: taraqqiyparvarlar, xotin-qizlar ta'limi, oila, farzand tarbiyasi, diniy va dunyoviy ilm, ma'rifat, maktab, mudarris.

Turkiston mintaqasida XIX asrning oxirlarida jadidchilik harakati yuzaga kelgandan so'ng, millat ziyolilarining dasturlarida xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli, maorifi hamda haq-huquqlari masalasi alohida o'rin tutgan edi. Ular o'z asarlari, she'rlari hamda maqolalarida xotin-qizlarning diniy, dunyoviy ta'lim olishi, jamiyatning barcha sohalarida faolligini oshirish, ta'lim – tarbiyasi, salomatligi hamda oila-nikoh masalalarida o'rnini belgilash kabi dolzarb muammolarni olib chiqqan edilar. Jumladan, buxorolik taraqqiyparvar ziyolilardan bo'lgan Abdurauf Fitrat hamda Sadriddin Ayniylar ham o'zlarining bir qator asarlarida Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy hayotga doir masalalar bilan bir qatorda xotin-qizlarning ijtimoiy ahvoli, ta'lim – tarbiyasi, balog'atga yetmagan qizlarni erta turmushga berishni taqiqlash kabi masalalarni dolzarb masala sifatida yoritib o'tgan edilar.

Buxoro amirligi hamda Buxoro Xalq Sovet Respublikasining ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan Abdurauf Fitrat 1886-1938 yillarda yashab o'tgan bo'lib, o'zining qarashlarida jamiyatning barcha sohalarini tubdan isloh qilishni, shu jumladan jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lgan oilaning huquqiy asoslarini yangilashni, xotin –qizlar huquqini poymol qilishga barham berishni, ularni ta'lim va ma'rifat jarayonlarida faol qatnashishga jalb qilishni yoqlab chiqqan edi. Uning 1909-yilda yozilgan "Munozara" ("Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilg'on munozarasi") qissasida ham ushbu masalani ko'rish mumkin. Asarda farangi (fransuz) bilan buxorolik mudarris o'z davridagi Buxorodagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahvol haqida bahs yuritadilar. Shu bilan bir qatorda xotin - qizlarning ijtimoiy ahvoli masalasiga ham to'xtalib, mudarrisning ayollarning yaratilishidagi hikmat tavolud va tanosul (tug'ish va nasl qoldirish)dir" degan fikriga farangining unga qarshi fikr-mulohazalarini keltiradi[1]. Abdurauf Fitrat farangi tili orqali kelajakda farzandlarning yaxshi axloq sohibi bo'lishi hamda yurt taraqqiyotiga erishish uchun ham ayollarning yaxshi tarbiya va ilm olishi kerakligini aytib o'tadi.

1914-yilda chop etilgan bo'lib "Najot yo'li" (Rahbari najot) nomli asarida ham xotin – qizlar masalasi ko'tariladi. Asarning "Oila vazifasi" nomli qismida oilani tashkil etish asoslari, ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni masalalari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, "Avlod tarbiyasi", "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi", "Turli vazifalar" nomli qismlarida er-xotinning farzand tarbiyasida birdek mas'ulligi, hamda ayollarga munosabat masalalari tahlil qilingan[2].

[1] Fitrat, Abdurauf Abdurahim o'g'li. She'rlar, nasriy asarlar, dramalar, publitsistika, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar /Nashrga tayyorlovchi va so'zboshi Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent: "Zabarjad Media", 2002. – B. 86.
[2]Abdurauf Fitrat.Najot yo'li (Rahbari najot). –Toshkent: Sharq, 2002 - B. 184 – 203.

Abdurauf Fitratning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan 1916-yilda yozilgan “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” nomli asarida ham bu jihatlarga keng to‘xtalib o‘tganligini ko‘rish mumkin. Asarda tarixchi olim oilaning muqaddas ekanligini qat’iy dalillar asosida asoslab, jamiyatda insonlarning o‘rnini oshirishga qaratilgan fikr va mulohazalarini taqdim etgan. U oilani 3 qismdan er-xotin, farzandlardan iborat, bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilar deb ta’riflab, oila ham bir necha odamlardan iborat bo‘lgan jamoa[1] deb yozadi. Abdurauf Fitrat oilani davlatning kichik bo‘g‘ini deb hisoblab, zamondoshlariga oila asosini to‘g‘ri qurishni tavsiya etib, qonun-qoidalar oilaning barcha a’zolarining manfaati uchun xizmat qilishi kerakligini yozadi. U oila saodati va baxti uchun islomiy qonunlar qabul qilingan, arab, fors olimlari tomonidan oila nizomi, tinchligi haqida kitoblar yozilgan bo‘lsa-da, to‘gri amal qilinmasligi, bu ham jamiyat taraqqiyotiga asosiy to‘siqlardan biri bo‘lib turganligini tanqid qiladi. Shu sababdan ham oilani boshqarish haqida risola yozish[2]ga zarurat tug‘ilganligini yozadi. Bu asar ikki qismdan iborat bo‘lib, unda keltirilgan mavzularda oilaviy munosabatlar, yosh avlod tarbiyasi, xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi o‘rni, ilm olishining ahamiyati kabilar ko‘rsatib o‘tilgan. Asarning “Uylanish va uylanmaslik xususida” nomli qismida ayolning oiladagi o‘rni ko‘rsatilib, erkaklar uchun Alloh tomonidan berilgan eng yaxshi ne’matlardan biri yaxshilik qiladigan va soliha ayol ekanligi[3]eslatib o‘tiladi. “Mahr va to‘y qanday bo‘lishi lozim”, “Er-xotinning qanday yashamoqliklari xususida”, “Oilaning maishati va idorasi” nomli qismlarida xotin-qizlarning oiladagi haq-huquqlari, vazifalariga to‘xtalib o‘tadi. Asarda qizlarni 18 yoshdan oldin turmushga chiqarmaslikni, barvaqt turmushga berishning tibbiy jihatdan salbiy oqibatlarini[4] ta’kidlab o‘tadi. Bu ham o‘z davri uchun dolzarb masalalardan edi. Shuningdek, farzandni ulg‘aytirish uchun muhim bo‘lgan tarbiya turlari yoritilgan mavzularda yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash uchun kerak bo‘ladigan tarbiya turlari haqida ma’lumotlar keltiriladi, farzand tarbiyasi uchun er-xotinning birdek mas’ulligi ko‘rsatib o‘tiladi. Abdurauf Fitrat tarbiyani muhim bo‘lgan ijtimoiy hodisa, jarayon deb biladi va unda “Oiladagi mushkul vazifa go‘dak tavalludidan so‘ng er-xotin bo‘yniga tushadigan farzand tarbiyasidir[5] deb uqtiradi.

Asarning “Qizlar ham ilm olishi kerakmi” nomli qismida Abdurauf Fitratning xotin-qizlarning diniy va dunyoviy ilm egallashlarining ijobiy tomonlarini, ilm olishda erkaklar bilan teng ekanligini Qur’oni Karim va hadislardagi oyatlar orqali hamda misollar, qat’iy dalillar orqali isbotlab beradi. Adib xotin-qizlar ilm olmasligining salbiy tomonlarini esa quyidagi so‘zlar orqali ifodalaydi: “xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo‘rqoqroq,zaifroq va g‘ayratsiz bo‘lganlaridan bolalarimiz ham ularga o‘xshab ketadilar”[6] deb yozadi va farzandning kelajakda qanday inson bo‘lib ulg‘ayishi xotin-qizlarning yaxshi tarbiya va diniy va dunyoviy ilm olishlariga bog‘liq deb xulosa qiladi. Samarqand jadidchilik maktabi vakili Hoji Muin Shukrulloh o‘z davrida “Oila” asari haqida ijobiy fikr – mulohazalarini bildirib, tarbiyaviy ahamiyatga ega mukammal asar bo‘lganligini ta’kidlab e’tirof etgan edi. Ayniqsa asarda xotin – qizlarning islom dinidagi haq – huquqlari, ko‘p xotinlilikning axloqqa ta’siri hamda zararli tomonlari haqida mufassil yoritib berilganligini ta’kidlaydi[7]. Ayni paytda Sadriddin Ayniy (1878 – 1954) ham xotin – qizlar ta’limi haqida “Qiz bola yoki Xolida” va “Tahsib-us-sibyon” asarlarini yozib, qizlarning hayotida ilmning ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Ushbu asarlar O‘zbekiston tarixi fani uchun ahamiyatli bo‘lib hisoblanadi. “Qiz bola yoki Xolida” nomli asari - ayollar taqdiriga

[1] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 6.

[2] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 7.

[3] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 15.

[4] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 55 – 56.

[5] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 70.

[6] Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013. – B. 128.

[7]Muin Hoji. Tanlangan asarlar// to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: B.Do‘stqorayev, N.Namozova. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – B. 71.

bag‘ishlangan ilk realistik asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar orqali Sadriddin Ayniy zamondoshlariga o‘zbek oilalarida qiz bolalarga nisbatan alohida e’tibor, ularni milliy qadriyatlar asosida iboli-xayoli, or - nomusli, tejamkor, oqila qilib ulg‘aytirish kerakligini hamda ta’lim – tarbiyasiga e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Shuningdek, oilada va jamiyatda xotin – qizlarning rolini yoritib beradi[1].

Shuningdek, matbuot sahifalarida nashr etilgan “O‘g‘il qizlar ta’limi haqida” nomli maqolasida qiz bolalarni yoshlikdan ta’lim – tarbiyasiga e’tibor qaratish, tarbiyasi kuchli onalardangina millatga xizmat qila oladigan farzandlar yetishib chiqishi haqida ma’lumot beriladi. Maqolada tarbiyali onaning turmushga chiqqan qiziga yozgan nasihat tarzida yozilgan maktubi keltiriladi. Ona o‘z nasihatlarida qiziga oilani totuv va farovon bo‘lishi ayolning oqila, ilmli bo‘lishi hamda tarbiyasiga bog‘liq ekanligini uqtiradi. Turmushga chiqqan qizning oilada turmush o‘rtog‘i va uning qarindoshlariga hurmatda bo‘lishi, muomala madaniyatiga amal qilishi, yurish – turishlariga e’tibor qaratishi kabilar oiladagi baxt, tinchlik va farovonlikning kaliti ekanligini bir qancha misollar bilan tushuntiradi[2].

Xulosa shuki, Buxoro taraqqiyparvarlari Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniyning oila, oilaviy munosabatlar, tarbiya haqida fikrlari, xotin-qizlar maorifi haqidagi qarashlari bugungi kun uchun ham muhim bo‘lib hisoblanadi. Ular asarlari va maqolalarida xotin –qizlarni ma’rifatli, tarbiyali bo‘lishiga e’tibor qaratilishi ma’naviyati yuksalishining poydevori ekanligi hamda kelajak avlodni jismonan va ruhan sog‘lom, aqlan barkamol qilib voyaga yetkazishlari uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib beradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari/ tarjimon va izohlar muallifi Sh.Vohidov; mas’ul muharrir H.Boltaboyev. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013;
2. Abdurauf Fitrat.Najot yo‘li (Rahbari najot). –Toshkent: Sharq, 2002;
3. Fitrat, Abdurauf Abdurahim o‘g‘li. She’rlar, nasriy asarlar, dramalar, publitsistika, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar /Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2002;
4. Muin Hoji. Tanlangan asarlar// to‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar: B.Do‘stqorayev, N.Namozova. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010;
5. Садриддин Айний. Духтарбачча ё ки Холида. Ҳикояҳо. - Душанбе: “Полиграф групп”. 2019.
6. Sadriddin Ayniy. O‘g‘il qizlar ta’limi // “Turkiston viloyatining gazeti” 1906 yil 16 noyabr 61 son 2-3 betlar.

XX ASR BOSHLARIDA BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY ISLOHOTLARDAGI O‘RNI

Homidjonov Nodir Bahodir o’g’li
Chirchiq davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistranti
Ilmiy rahbar:
O.M.Normatov
CHDPU dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu ishda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida shakllangan jadidchilik harakatining tarixiy zaminlari, uning ma’rifiy va siyosiy mazmuni hamda milliy taraqqiyotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Buxoro jadidlari O‘rta Osiyo jamiyatining yangilanishida muhim tarixiy rol o‘ynagan va ular yaratgan ma’rifiy meros zamonaviy o‘zbek taraqqiyotining asosiy manbalaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’z: Buxoro, Tatariston, Qrim, Kavkaz, Abdurauf Fitrat, Fitrat, Ayniy, Shakuriy.

[1] Садриддин Айний. Духтарбачча ё ки Холида. Ҳикояҳо. - Душанбе: “Полиграф групп”. 2019. - Б. 2 – 100.
[2] Sadriddin Ayniy. O‘g‘il qizlar ta’limi // “Turkiston viloyatining gazeti” 1906 yil 16 noyabr 61 son, - B. 2-3.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Movarounnahr, xususan, Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotining murakkablashuvi natijasida jamiyatni yangilash g‘oyasi tobora kuchaya boshladi. Bu davrda Buxoro feodal tuzumga asoslangan boshqaruv, diniy-ma’muriy institutlarning konservativligi va tashqi dunyodan yakkalangan holat tufayli iqtisodiy, madaniy va ilmiy sohalarda orqada qola boshlagan edi. Ana shunday sharoitda jadidchilik oqimi shakllanib, u Buxoro jamiyatini uyg‘otish va modernizatsiya qilishga qaratilgan keng qamrovli ma’rifatparvarlik harakati sifatida maydonga chiqdi.

Harakatning paydo bo‘lishiga olib kelgan asosiy tarixiy omillar bevosita Buxoro amirligidagi feodal tuzumning inqirozi sabab bo’ldi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Buxoro amirligi iqtisodiy jihatdan sustlashgan, hunarmandchilik va savdo an’anaviy usullar bilan cheklangan edi. Yevropa texnologiyalari va sanoat taraqqiyoti bilan taqqoslaganda, Buxoro hali ham o‘rta asr me’yorlari bilan yashayotgan davlat bo‘lib qolgan. Masalan, amir Muzaffar davrida davlat boshqaruvi asosan ulamolarga tayanar, sud-huquq tizimi shariat qoidalaridan chetga chiqmas edi. Bu esa jamiyatda yangilikning paydo bo‘lishini keskin cheklab qo‘yar edi. Shu bilan birgalikda Rossiya imperiyasi ta’sirining ortishi 1868-yilda Rossiyaning Buxoroni yarim mustaqil vasal davlatga aylantirishi hududning siyosiy muvozanatiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Rossiya orqali Buxoroga Yevropa madaniyati, ilm-fani va ta’lim tizimi haqidagi ma’lumotlar kirib kelib, mahalliy ziyolilar ongida jamiyatni isloh qilish zarurati paydo bo‘la boshladi. Ayniqsa, Samarqand va Toshkentda ochilgan rus-tuzem maktablari, temir yo‘l qurilishi, rus matbuotining kirib kelishi jadid ziyolilarining shakllanishi uchun zarur muhit yaratdi.

Buxoro jadidlarining shakllanishida Tatariston, Qrim, Kavkaz va Istanbuldan kelgan yangiliklar muhim rol o‘ynadi. Ismoil G‘aspirali tomonidan ilgari surilgan “Til birligi, fikr birligi, ish birligi” tamoyili Buxoro ziyolilari orasida keng targ‘ib qilindi. Tatar ustozlari bilan aloqa orqali Buxoroga yangi usul maktablari, fonetik savod o‘rgatish tizimi va dunyoviy fanlarni o‘qitish g‘oyasi kirib keldi. Bu jarayon Buxoroda ma’rifatparvarlikning kuchayishiga zamin yaratdi.

Jadidchilik harakatining mafkuraviy ildizlariga keladigan bo’lsak ma’rifat orqali taraqqiyotni ta’minlash g‘oyasi. Buxoro jadidlari jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ilm, ta’lim, ma’rifatni ko‘rsatdilar. Ularning fikricha, eski usuldagi maktab-madrasalar o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatmas, faqat yodlashga asoslangan diniy ta’limni davom ettirar edi. Abdurauf Fitrat o‘zining “Munozara” asarida Buxoro ta’lim tizimining qoloqligini tanqid qilib, uni butunlay isloh qilish zaruriyatini ko‘rsatgan[1].

Buxoro jadidlari ichki boshqaruv tuzumining zamon talablariga javob bermasligini ko‘rsatib, quyidagi sohalarni isloh qilish fikrlarini ilgari surgan: adliya tizimi, soliq boshqaruvi, savdo-sanoatni rivojlantirish, matbuot va jamoatchilik fikrini shakllantirish, maktab va madrasalar tizimi kabi sohalar. Jadidlar fikricha, jamiyat avvalo ma’rifatli bo‘lishi, shundan so‘ng siyosiy islohotlar amalga oshirilishi kerak edi.

Jadidlar millatni uyg‘otish uchun tarixiy o‘zlikni tiklash, milliy o‘zlikni anglash, adabiyot, til va madaniyatni rivojlantirish zarurligini ta’kidladilar. Sadriddin Ayniy, Behbudiy, Hamza kabi ziyolilar faoliyati o‘zbek milliy ongining yangicha bosqichga ko‘tarilishida muhim o‘rin tutdi.

Buxoro jadidchilik harakatining shakllanish bosqichida quyidagi ziyolilar muhim rol o‘ynadi: Abdurauf Fitrat- ma’rifatparvarlikning asosiy nazariyotchisi, Sadriddin Ayniy-adabiy modernizm asoschisi, Abdulqodir Shakuriy-yangi usul maktablari tashabbuskori, Bobooxun Salimov, Munavvar qori kabi ma’rifatparvarlar eng muhimlaridan hisoblangan.

Ular dastlab ilmiy-ma’rifiy sohada faoliyat yuritib, siyosiy kurashdan yiroq edilar, ammo jamiyatdagi turg‘unlik ularni keyinchalik faol siyosiy pozitsiyaga o‘tishga majbur qildi.

Buxoroda birinchi yangi usul maktablari tashkil qilindi. Buxoroda ochilgan ilk “usuli jadid” maktablari quyidagi yangiliklarni o‘z ichiga olgan: fonetik o‘qitish, matematika, geografiya, tarix kabi dunyoviy fanlarning kiritilishi, jadvallar, kitoblar, xaritalar qo‘llanilishi bunga misol bo’la oladi.

[1] Narziyeva, M. “Jadidlarning ta’lim islohotlaridagi o‘rni – Sharq yulduzi, №2, 2020.

Bu maktablar avval kichik guruh sifatida faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, tez orada ulamolarning qarshiligiga uchradi. 1910-yillarda ularning ko‘pi yopib qo‘yildi, ammo jadidlar faoliyati to‘xtamadi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroda yuzaga kelgan jadidchilik harakati o‘zining chuqur tarixiy zaminlariga ega bo‘lib, feodal tuzumning inqirozi, ta’limning qoloqligi, tashqi dunyodan ajralib qolish hamda Rossiya va musulmon dunyosidagi islohotchilik g‘oyalarining ta’siri natijasida shakllandi. Fitrat, Ayniy, Shakuriy kabi ziyolilar jamiyatni uyg‘otishning yagona yo‘li sifatida ma’rifat, yangi usul maktablari, dunyoviy bilimlar va fikr erkinligini ilgari surdilar.

Ularning faoliyati nafaqat o‘sha davr Buxoro jamiyatida yangilanish jarayonlarini boshlab berdi, balki milliy uyg‘onishning mustahkam asosiga aylandi. Jadidlarning merosi bugungi o‘zbek ta’limi, milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy yuksalish va modernizatsiya yo‘lidagi taraqqiyot uchun muhim ideaviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois Buxoro jadidlari faoliyati o‘zbek xalqining tarixiy rivojlanishida burilish yasagan, o‘z davridan o‘tib ham ahamiyatini yo‘qotmagan ulkan ma’naviy meros sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov, R. Jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari. – Toshkent: Fan, 2002.
2. Qodirov, B. O‘zbek jadidchiligi tarixi. – Toshkent: Universitet, 1997.
3. Davronov, X. Buxoro jadidchiligi: shakllanishi va rivoji. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2008.
4. Rajabov, A. Fitratning ilmiy-ma’rifiy merosi. – Toshkent: Fan, 2012.
5. Shodmonov, J. XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy hayoti. – Samarqand: SamDU, 2014.
6. Halimova, N. “Abdurauf Fitratning ma’rifiy qarashlari”. – O‘zbekiston tarixi jurnali, №3, 2019.
7. Narziyeva, M. “Jadidlarning ta’lim islohotlaridagi o‘rni”. – Sharq yulduzi, №2, 2020.
8. Yo‘ldosheva, M. “Buxoro jadidlarining siyosiy faoliyati va tarixiy ahamiyati”. – Ma’naviyat va hayot, 2021.
9. Ergashev, M. “Jadidchilik harakatining Buxoro amirligi islohotlariga ta’siri”. – O‘zR FA Axborotnomasi, 2020.
10. Ziyayev, H. Turkiston jadidchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.
11. Allamuratov, M. Ma’rifatparvarlar merosi va zamonaviylik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.

MILLAT OYDINLARI: ABDURAUF FITRAT HAYOTI VA ILMIY MEROSI

Muxtorova Saodat Mustaqim qizi
Buxoro davlat universiteti
Tarix ta’lim yo’nalishi 3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada millat oydinlari bo‘lmish taraqqiyparvar jadidlarning yorqin vakili - Abdurauf Fitrat hayoti va ilmiy merosi, uning Buxoro jadidchiligida tutgan o’rni hamda asarlarida targ‘ib qilingan ma’rifatparvarlik g’oyalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Yosh Buxoroliklar, Chig‘atoy gurungi, Munozara, yangi usul maktablari, ta’lim, jadidchilik, ilohot, taraqqiyot, milliy uyg‘onish.

XX asr boshlarida Turkistonda keng yoyilgan jadidchilik harakati xalqimizning ma’naviy uyg‘onish tarixida ulkan burilish yasadi. Bu harakat millatni jaholat, qoloqlik va mustamlakachilik zulmidan qutqarish, uni taraqqiyot sari yetaklashni maqsad qilgan edi. Mazkur davrda yetishib chiqqan ma’rifatparvar ziyolilar orasida Abdurauf Fitrat eng ilg‘or, keng dunyoqarashli, xalqparvar va islohotchi siymo sifatida tarix sahifasidan munosib o‘rin egalladi. Abdurauf Fitrat ijodi va faoliyati yaqin tariximizning eng porloq sahifalaridan birini tashkil qiladi.

Fitrat o‘z davrining ziyolisi sifatida xalqni ilm-ma’rifatga chorladi, yangi turmush, yangi tafakkur, yangi jamiyat g‘oyalarini ilgari surdi. Uning ijodi va faoliyati jadidchilik harakatining ma’naviy asosini tashkil etdi. U “Millatni saodatga eltuvchi yo‘l – ilm va ma’rifatdadir”, degan g‘oyani o‘z asarlari orqali butun jamiyatga singdirishga harakat qildi.

Abdurauf Fitrat (1886–1938) Buxoro zaminida dunyoga kelib, kamolga yetdi. Istanbulda tahsil olib, musulmon Sharqi va Yevropa madaniyatini chuqur o‘rgangan o‘z davrining ziyolisi edi. Istanbulda tahsil olayotgan chog‘ida u jadidchilik harakatining g‘oyaviy markazlaridan biri “Yosh buxoroliklar” harakati bilan bog‘landi va Turkiston musulmonlarining ijtimoiy-siyosiy uyg‘onishida faol ishtirok etdi. Fitratning fikricha, xalqni ozodlikka, taraqqiyotga olib boruvchi yagona yo‘l - ilm va tafakkur erkinligidir. U ta’lim tizimini isloh qilish, milliy maktablar ochish, yosh avlodni dunyoviy bilimlar bilan qurollantirishni jadidchilikning eng muhim vazifasi deb bildi. Fitratning “Munozara” asari jadidchilik mafkurasining dasturilamal manbai sifatida alohida o‘rin tutadi. Bu asarda “eski usul” va “yangi usul” tarafdorlari o‘rtasidagi bahs orqali muallif xalqni yangilikni qabul qilishga, ta’lim tizimida islohot zarurligini tushunishga chorlaydi. Fitrat bu asarda quyidagi fikrni ilgari suradi: “Ilmsiz xalq - ko‘r xalqdir. Ko‘r kishi yo‘lni topolmagani kabi, ilmsiz millat ham taraqqiyot yo‘lini topolmaydi”. Bu fikrlar uning ma’rifatparvarlik qarashlarini chuqur ifodalaydi. Fitrat uchun ilm - faqat shaxsiy qutulish vositasi emas, balki millatning najot yo‘lidir[1]. Shuningdek, Fitratning “Rahbari najot”, “Sayyohi hindiy”, “Abulfayzxon” kabi asarlarida jaholat va mutaassiblik keskin tanqid qilinadi.

U Buxoro amirligidagi zulm va nodonlikni “millatni bo‘g‘uvchi zanjirlar” sifatida talqin etadi. Fitrat o‘z xalqiga murojaat qilib, “Har bir millatning kelajagi uning o‘qigan, fikrlaydigan va vatanini sevgan yoshlariga bog‘liq”, deya ularga da’vatnoma yo‘llaydi. Fitrat jadidchilikni faqat ma’rifiy harakat sifatida emas, balki milliy ozodlik harakati deb bildi. U o‘z xalqining o‘zligini anglashini, milliy til va madaniyatni rivojlantirishni muhim vazifa deb hisoblagan. Fitratning til siyosatiga oid ishlari ham jadidchilik ruhida edi. U “Chig‘atoy gurungi” jamiyatini tashkil etib, o‘zbek adabiy tilini shakllantirish, turkiy xalqlarning madaniy birligini mustahkamlashga katta hissa qo‘shdi. Fitrat uchun til - millatning ruhi, milliy o‘zlikning asosi edi[2] Fitratning san’atshunoslikka oid xizmatlari ham tahsinga sazovordir. U 1921-yil Buxoroda Sharq musiqasi maktabini tashkil etib, bu maktabning birinchi direktori lavozimida ishlaydi. Maktabga mumtoz musiqa bilimdonlari (sozanda, xonandalar) bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif etdi. U shu vaqtdan boshlab “Shashmaqom” kuylarini to‘plash va notaga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G‘iyosdan Buxoro Shashmaqomi V. Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etildi.

Fitrat “Shashmaqom”, “O‘zbek musiqasi to‘g‘risida” maqolalari va “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi” (1927) risolasi bilan XX asr o‘zbek musiqashunoslik fanini boshlab berdi. Fitratning san’atshunoslikka oid xizmatlari ham tahsinga sazovordir[3]. Fitrat nafaqat adib, balki ijtimoiy islohotchi, davlat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. U Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topgach, maorif xalq noziri lavozimida ishlagan, lekin keyinchalik mustabid tuzumning nohaq ayblovlariga uchrab, 1938-yilda qatag‘on qilingan[4].

Abdurauf Fitrat o‘z hayoti davomida ayollar ta’limi, milliy maktablar, dunyoviy fanlar, adolatli jamiyat g‘oyalarini ilgari surdi. Fitratning bu qarashlari o‘z davrida g‘oyat ilg‘or bo‘lib, u xalqni jaholatdan najot topishga da’vat etgan ma’rifatparvar mutafakkir sifatida tarixda qoldi[5].

Xulosa qilib aytganda, Abdurauf Fitrat ijodi jadidchilik harakatining ma’naviy, siyosiy va adabiy yo‘nalishlarini birlashtirgan buyuk hodisadir. U xalqni uyg‘otish, o‘zlikni anglash va taraqqiyot sari yetaklash yo‘lida butun umrini baxshida etdi. Fitrat o‘z asarlari orqali shunday haqiqatni isbotladi: “Millatni qurol emas, ilm va ma’rifat saqlab qoladi”. Bugun ham Fitratning g‘oyalari dolzarbligini yo‘qotmagan. U ilgari surgan jadidchilik va ma’rifatparvarlik tamoyillari

[1] Ғаниев И. Фитрат ва Фитратшунослик. – Тошкент: Фан, 2005. –Б. 6.
[2] Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 359.
[3] Qosimov B. Fitrat chizgilar // Sharq yulduzi. 12-son, 1992. – B.170.
[4] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/begali-qosimov-abdurauf-fitra
[5] Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (4-jild), –Toshkent, Ma‟naviyat, 2006. – B. 305.

O‘zbekistonning bugungi ma’naviy hayotida, ta’lim islohotlarida, yosh avlod tarbiyasida o‘z aksini topmoqda. Shu bois Fitrat merosi - milliy uyg‘onishning, ma’rifatning, tafakkur erkinligining abadiy ramzidir. Uning ilmiy merosi bugungi kunda har bir ziyoli va ilm ahlining hayot yo’lini yoritib berishga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ғаниев И. Фитрат ва Фитратшунослик. – Тошкент: Фан, 2005. –Б. 6.
2. Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, маърифат, фидойилик. - Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 359.
3. Qosimov B. Fitrat chizgilar // Sharq yulduzi. 12-son, 1992. – B.170.
4. https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/begali-qosimov-abdurauf-fitra
5. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar (4-jild), –Toshkent, Ma‟naviyat, 2006. – B. 305.

BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA ILMIY MEROSI

Go’zal Halimova Hamza qizi
Buxoro davlat universiteti
halimovagozal8@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Buxoro hududidagi jadid harakati (Buxoro jadidlari)ning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ilmiy — ma’rifiy merosi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi jadidlarning ta’lim-tarbiya, matbuot, madaniyat va siyosat sohasidagi islohotlarini hamda ular qoldirgan ilmiy-pedagogik va ijtimoiy xotirani aniqlashdir. Metodologik jihatdan tarixiy-analitik, komparativ va manba-shunoslik usullari qo‘llanildi: arxiv materiallari, jadidlarning nashrlari va zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatadiki, Buxoro jadidlari an’anaviy ma’rifat tizimini yangilash, maktablar ochish, o‘qituvchilar tayyorlash va milliy-o‘zbek madaniyati asoslarini mustahkamlash orqali mintaqaviy intellektual o‘zgarishlarga turtki bo‘lgan. Ularning siyosiy faolligi esa mahalliy boshqaruv tuzilmalariga ham ta’sir ko‘rsatib, jamiyatda modernlashuv uchun zamin yaratgan. Muhokamada jadid merosining bugungi ta’lim siyosati va madaniy tiklanishdagi roli, hamda mazkur merosni saqlash va tadqiq etishda yuzaga kelayotgan muammolar muhokama qilinadi. Xulosa va tavsiyalar jadid merosini o‘quv dasturlariga kiritish, arxivlarni raqamlashtirish va interdisciplinar tadqiqotlarni rivojlantirish zaruratini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar: Buxoro jadidlari; jadidchilik; ta’lim islohotlari; matbuot va nashr; ma’rifat; ijtimoiy modernizatsiya; madaniy meros; pedagogika; milliy uyg‘onish.

Buxoro jadidlari (jadidchilik) XIX — XX asrlar kesimida Markaziy Osiyoda, xususan Buxoro amirligi hududida paydo bo‘lgan yangilanish harakati bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishi — ta’lim, madaniyat va jamiyatni modernizatsiya qilish edi. Jadidlar an’anaviy madrasalarni tanqid qilib, yangi metodga asoslangan maktablar ochish, qora va hujjatli yozuv orqali ommaga ma’rifat yetkazish hamda matbuot orqali fikr almashish bilan shug‘ullanishdi. Buxoro shahrida shakllangan jadid guruhlari mintaqaviy ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarda faol rol o‘ynadi: ular ma’rifiy g‘oyalarni tarqatish bilan birga mahalliy ijtimoiy tuzilmalar va siyosiy ongga ham ta’sir qildi. Ushbu maqolada Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy faolligi va ilmiy-merosini tizimli tahlil qilish orqali ularning bugungi jamiyat rivojiga ta’siri va merosni saqlash masalalari ko‘rib chiqiladi.

Jadid harakati haqidagi tadqiqotlarda Buxoro hududidagi jadidchilik faoliyati va uning ijtimoiy-siyosiy hamda ilmiy-merosini o‘rganish uchun turli manbalar mavjud. Shu jumladan, monografiyalar, ilmiy maqolalar, memuarlar, arxiv materiallari, gazetalar va risolalar keng qo‘llaniladi. Mintaqaviy monografiyalar (masalan, Khalid, 1998; Bek, 2010) jadid harakatining tarixiy kontekstini, Buxoro amirligi siyosiy tuzilmasini va ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarni yoritadi. Sovet davri tadqiqotlari jadidchilikni asosan ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq talqin qilsa, zamonaviy ilmiy ishlarda jadidlarning pedagogik va madaniy merosi ham chuqur tahlil qilinadi [1].

Bundan tashqari, jadidlarning matbuot faoliyati va nashrlari (gazetalar, risolalar, darsliklar) ularning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini, ma'rifiy tashabbuslarini va yangi metodlarni qo'llashini aks ettiradi. Bu manbalar orqali jadidlarning o'z davridagi ijtimoiy muammolarni qanday ko'rib chiqqani, o'quvchi va jamiyat bilan qanday muloqot qilgani aniqlanadi. Shuningdek, xalqaro tadqiqotlar, xususan Markaziy Osiyo modernizatsiyasi kontekstida, Buxoro jadidlarining mintaqaviy va global ahamiyatini baholash imkonini beradi [2].

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida uch asosiy yondashuv ajralib turadi:

1. Ta'lim-tarbiyaviy yondashuv – Buxoro jadidlarining maktablar, o'quv dasturlari va pedagogik metodlarga qo'shgan hissasi, ularning yangi usuldagi ta'limni rivojlantirishdagi roli.
2. Madaniy va adabiy yondashuv – Jadidlarning matbuot, adabiyot, tarjimalar va lug'atlar orqali madaniy merosni shakllantirish, til va adabiyot taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.
3. Ijtimoiy-siyosiy yondashuv – Jadidlarning jamiyatni modernizatsiya qilishdagi roli, mahalliy boshqaruv tizimiga ta'siri va jamoatchilik faolligini rag'batlantirishdagi o'rni.

Bu yondashuvlar integrativ tarzda o'rganilib, Buxoro jadidlarining ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-merosiga tizimli yondashuvni ta'minlaydi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-analitik, komparativ va manba-shunoslik usullarini o'z ichiga oladi.

- Tarixiy-analitik metod yordamida Buxoro jadidlarining faoliyati tarixiy kontekstda o'rganildi, arxiv materiallari va zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi. Bu metod orqali harakatning ijtimoiy, siyosiy va pedagogik natijalari aniqlanadi.
- Komparativ metod Buxoro hududidagi jadid faoliyatini boshqa Markaziy Osiyo mintaqalari bilan solishtirish imkonini beradi, mintaqaviy o'ziga xosliklarni va universal xususiyatlarni aniqlaydi.
- Manba-shunoslik (source-criticism) usuli manbalar ishonchliligi, ularning yaratilgan davr konteksti va tarixiy shart-sharoitini aniqlashga yordam beradi.
- Diskurs-tahlil orqali jadidlarning matbuot, risolalar va o'quv-uslubiy materiallardagi g'oyaviy mazmuni, ijtimoiy va siyosiy maqsadlari tahlil qilindi.

Ushbu metodlarning birgalikda qo'llanilishi Buxoro jadidlarining ilmiy va ijtimoiy merosini kompleks tarzda o'rganishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari maqola matnida kvadrat qavs bilan iqtiboslar orqali [1], [2] ko'rsatiladi va har bir natija manbaga tayangan holda batafsil tahlil qilinadi.

NATIJALAR

1. **Ta'lim tizimidagi yangilanish** — Buxoro jadidlari "usul-i jadid" (yangi usul)ga asoslangan maktablarni tashkil etish orqali an'anaviy madrasalarga muqobil sifatida ta'lim berishni boshladilar. Bu maktablarda lotin (keyinchalik kirill)dan oldin arab yozuvida mavjud bo'lgan o'qitish metodlari soddalashtirilib, maktab darsliklari, o'quv dasturlari va o'qituvchilar tayyorlandi. Natijada mahalliy aholining savodxonligi oshdi va maktab tizimida yangicha o'qitish usullari ildiz otdi.
2. **Matbuot va nashr faoliyati** — Jadidlar gazetalar va risolalar orqali modern g'oyalarni tarqatdilar. Ular orqali ma'rifat, tarix, til va tamaddun masalalari ommaga yetkazildi; shuningdek, jamiyatdagi muammolar, ayollar ta'limi va ijtimoiy tenglik masalalari muhokama qilindi. Matbuot ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim kanal bo'ldi.
3. **Ijtimoiy-siyosiy faollik** — Buxoro jadidlari faolligi siyosiy tahlil va mahalliy boshqaruv tuzilmalariga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ma'rifiy tashabbuslari (maktablar, jamoat yig'inlari) yangi elita va intellektual qatlamni shakllantirdi, bu esa keyinchalik siyosiy harakatlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.
4. **Ilmiy va madaniy meros** — Jadidlar tomonidan yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar, tarjimalar, lug'atlar va adabiy asarlar mintaqaviy ilmiy-pedagogik meros hisoblanadi. Ularning ishlari til, adabiyot va tarixiy tafakkurni yangilashga xizmat qildi. Bu meros bugungi kunda ham tadqiqot va ta'lim jarayonida manba sifatida muhimdir.

Buxoro jadidlarining faoliyati miestda va mintaqada modernizatsiyaning ilk bosqichlarini belgiladi. Ularning ta'limga doir yondoshuvi uzoq muddatli ijtimoiy o'zgarishlarni rag'batlantirdi:

yangi metodlar o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirdi va yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirdi. Matbuotdagi faoliyat ijtimoiy muammolarni ommaga tanitib, jamoatchilik munozarasini rag‘batlantirdi. Shu bilan birga, jadidlar siyosiy jihatdan ham passiv bo‘lmagan, ularning ijtimoiy tashabbuslari mintaqaviy siyosiy faollik va milliy uyg‘onish uchun asos bo‘ldi. Ammo jadid merosini saqlash va tadqiq etishda bir qancha muammolar mavjud: (1) manbalar yetishmovchiligi va arxivlarning to‘liq raqamlashtirilmagani; (2) sovet davrida qayta talqin qilingan materiallarning tarixi kontekstdan chiqarilishi; (3) zamonaviy ta’lim dasturlarida jadidchilikning to‘liq o‘rnatilmaganligi. Bu muammolarni hal etish uchun arxivlar va nashrlarni tizimli ravishda yig‘ish, raqamlashtirish va akademik tarjima hamda interdisipliner tadqiqotlarni rivojlantirish zarur.

Mazkur tadqiqot natijalari Buxoro jadidlarining nafaqat hududiy, balki mintaqaviy ahamiyatini ko‘rsatadi: ularning yondashuvlari Markaziy Osiyo modernizatsiyasi tarixida muhim o‘rin tutadi va bugungi ta’lim va madaniy siyosat uchun darslar beradi.

Buxoro jadidlari ijtimoiy-siyosiy faoliyati va ilmiy-merosi mintaqaviy modernizatsiya jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular ta’lim tizimini yangilash, matbuot orqali ma’rifatni tarqatish va mahalliy jamoatlarda yangi tafakkur shakllantirish orqali jamiyatni transformatsiya qilishga xizmat qildilar. Ushbu meros bugungi kunda ham ta’lim siyosati, madaniy uyg‘onish va ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo‘lib qolmoqda. Tavsiyalar: (1) jadid merosini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish; (2) arxivlarni tizimli raqamlashtirish va ochiq ilmiy bazaga joylashtirish; (3) interdisipliner tadqiqotlar va translyatsiyalar orqali xalqaro hamkorlikni kuchaytirish; (4) mahalliy jamoatchilik va tashkilotlar bilan birgalikda madaniy dasturlar tashkil etish. Bu chora-tadbirlar Buxoro jadidlarining boy merosini saqlash va uning zamonaviy hayotga moslashtirilishini ta’minlashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Khalid, A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. (Monograph) — (Tadqiqotlar to‘plami; jadidchilikning mintaqaviy tahlillari).
2. Bek, M. Markaziy Osiyoda jadid harakati: tarix va meros. Toshkent: Milliy Nashr, (monograph).
3. Fitrat, A. Tanlangan asarlar va maqolalar. Toshkent: (to‘plam).
4. Sultonov, R. Buxoro jadidlari va ularning maktablari. Buxoro: Mahalliy Nashr.
5. Tartib, S. (tahrir.) Jadid matbuoti: gazeta va risolalar to‘plami. Toshkent.
6. Pelin, O. Education Reform in Central Asia: Historical Perspectives. (International Journal article).
7. Matnlar va arxiv materiallari: Buxoro shahar tuman arxivi (manbalar to‘plami).
8. Kadirov, T. Madaniy meros va milliy uyg‘onish. (Tadqiqot maqolasi).

9-SHO'BA. BUXORO TARIXINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (METODIK TAVSIYALAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR)

YOSHLARDA KASBIY KO'NIKMANI SHAKLLANTIRISHDA ZARDO'ZLIK, TO'QIMACHILIK, TIKUVCHILIK SANOATINING O'RNI

Utayeva Feruza Xolmamatovna
Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Maqolada yengil sanoat tarmoqlaridan zardo'zlik, tikuvchilik va to'qimachilik sanoati tarixiga to'xtalib o'tilgan. Ishlab chiqarishda ustoz-shogird an'anasi mavjud bo'lib, ustozlarning mahoratlari haqida fikrlar bayon etilgan. Fabrikalar barpo etish aholini ish bilan ta'minlash va kasbiy mahoratni oshirishning tomonlari keltirilgan. Fabrikalarni ishchi kuchi bilan ta'minlash uchun maxsus kasb-hunar maktablari yengil sanoat texnikumlari tashkil etilganligi haqida ma'lumotlar bayon etilgan. Keltirilgan ma'lumotlar qator adabiyotlar, manbalar, matbuot materiallari va suhbatlardan olingan ma'lumotlar asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: To'qimachilik sanoati, mutaxassis, oilalar, aholi, ipak, gazlama, fabrika, trikotaj, ishlab chiqarish, ixtisoslik.

Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasida ta'lim jarayonini yuksak darajaga ko'tarish, O'zbekistonda Uchinchi renessans davrini yaratadigan barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha vazifalari belgilab berilgan. "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", tarbiya va ta'lim, tarixdan saboq olishi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirilishi zarur: ''O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasini samarali amalga oshirish lozimligi" aytilgan. Shuningdek, biz tarixchilar XXI asr yoshlarida kasbiy ko'nikmalarni shakillanntirish uchun vatanimiz tarixidan saboq oladigan jihatlarni ocib berishga harakat qilishimiz kerak.

Buxoro yurtimizning tarixiy hududlaridan biri hisoblanib, yengil sanoat tarmoqlari bo'lgan to'qimachilik, zardo'zlik, tikuvchilik sanoati asrlar davomida rivojlanib kelgan katta maktabga tayanadi. Jumladan, VLKSM 20 yilligi va Partiya XVI syezdi nomli tikuvchilik ishlab chiqarish birlashmasida, Trikotaj fabrikasida, Buxoro ip-gazlama kombinatida ishlab chiqarish faoliyati yuqori bo'lishi uchun salohiyatli va yetuk ishchi xodimlarni tayyorlashda juda katta samarali ishlar qilingan. 1972-yilda Buxoro shahrida 100-sonli Yengil sanoat texnikumi ochilgan. Texnikumda 1972–1979-yillar davomida 2370 dan ortiq kasbiy ko'nilmaga ega yosh malakali kadrlarni tayyorlagan.[1]

1979-yil davomida 5000 dan ortiq maktab o'quvchilari trikotaj fabrikasi, Buxoro ip-gazlama kombinatida ishlagan. Buxoro shaharida joylashgan 18-maktab, 38-maktab va viloyatdagi ko'plab maktablarda, boshqarmalarda mehnat va kasb-hunarga yo'naltirish burchaklari tashkil etilgan. Bunday burchaklarda ko'rgazmali qurollar, ishlab chiqarilgan mahsulotlardan namunalar va ishchilarning ish jarayonidagi fotosuratlar bo'lgan. Bundan maqsad trikotaj, to'qimachilik va tikuvchilikga o'quvchilarni qiziqish va istaklarini oshirishdan iborat bo'lgan.

1979-yil 15–25-may kunlari shahar maktablarining 1980 ta o'quvchilar ota-onalari bilan birga trikotaj fabrikasi va Buxoro ip-gazlama kombinatga sayohatga kelishgan. Ushbu yilning 11-maydan 9-iyuligacha bo'lgan yozgi ta'tilda kombinatda 600 ta katta yoshdagi maktab o'quvchilari va talabalar guruhi amaliyot o'tab o'z mehnatlari bilan ishtirok etganlar. O'quvchilarning ko'pchiligi o'quv yili boshlangunga qadar kombinatda ishlash uchun qolgan. Shaharda maktab o'quvchilari uchun ikkita o'quv kursi tashkil etilgan. Buxoro shahridagi 12-maktabda to'qimachilik sir-asrorlari va tajribalari haqida to'garak tashkil etilgan. Maktab o'quvchilari

[1] Buxoro viloyat davlat arxivi, 1 - fond, 1 - ro'yxat, 2 - yig'ma jild, 84 - varaq.

darsdan keyin to‘quvchilik va yigiruv ishi bo‘yicha shu maktabda tashkil etilgan o‘quv markaziga borganlar.[1]

To‘qimachilik sanoatida yuqori ko‘rsatkichlarga erishish uchun fabrika ishchi-xodimlarini, brigada boshliqlarini texnik bilimlari va tajriba malakasini oshirishga e’tibor qaratilgan. 1970–1973-yillarda 230 nafar muhandis-texnik xodimlardan 83 nafari oliy ma’lumotli ishchilar bo‘lsa, 1980-yilga kelib 1250 nafardan ortiq oliy ma’lumotli, 500 nafardan ortiq texnikumlarda tahsil olgan mutaxassislar, deyarli 80 foizi o‘rta maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan.
1983-yil talabalarga yil boshida rejaga kiritilgan stipendiya to‘lovi natijalarni nazorat qilgan.

Xotin-qizlarni ish bilan ta’minlashda yengil sanoatning tarmog‘i bo‘lgan to‘qimachilik fabrikalari muhim yetakchilardan hisoblangan. Maxsus va qisqa kurslarda ularga to‘qimachilik sirlari o‘rgatilib ish bilan ta’minlangan.[2] Ittifoq Vazirlar Kengashining 1977-yil 22-dekabrdagi qarorlariga muvofiq umumta’lim maktablari o‘quvchilarini o‘qitish va tarbiyalash hamda ularni mehnatga tayyorlashni yanada takomillashtirish yuzasidan amaliyot ishlar Buxoro ip-gazlama kombinatida amalga oshirilgan. 30-maktab bilan hamkorlik olib borilgan.

1977–1982-yillar davomida 9-10-sinf o‘quvchilaridan 470 nafar bitiruvchilarga nazariy va amaliy tajribalarni o‘rgatish uchun maxsus ustalar amaliyotdan dars berganlar. Kombinatda 1982-yil 6-maydan 18-maygacha “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etilgan. Unda 1896 nafar o‘rta maktab o‘quvchilari va 1800 nafar o‘quvchilarning ota-onalari ishtirok etganlar. 1982-yil iyul oyida to‘qimachilik fabrikalarida eng yaxshi ishlagan maktab o‘quvchilarining ota-onalari bilan bilan radio eshittirishlar uyushtirilgan.

1982-yilda ikkinchi yigiruv-to‘quv fabrikasi uchun yangi ishchilarni ishga olish va o‘qitish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirilgan. Reja bo‘yicha 1137 kishi nazarda tutilgan bo‘lib, o‘qitish 100-sonli Yengil sanoat texnikumida amalga oshirilgan. Kombinatda yoshlarni g‘oyaviy-siyosiy tarbiyalashga katta e’tibor qaratilgan. Komsomol yoshlar guruhlari tuzilib, ularga yigiruv-to‘quv sohalarini takomillashtirish bo‘yicha targ‘ibotchi guruhlarda kadrlar tayyorlanib borilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, to‘qimachilik kombinati texnikum, bilim yurtlari va maktablarni homiylikka olgan. Jumladan, Buxoro shahridagi 30-maktab, 32-maktab, 8-maktab, SPTU-9 va SPTU-23 ni homiylikka olib, to‘qimachilik sanoati sohasiga qiziquvchilar sonini oshirgan.[3]

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, yoshlarni kasbiy hunarga o‘rgatishni maktab davrida shakllantirish kerak. Buxoro, Samarqand, Navoiy hunarmandlar yurti hisoblanadi. Jumladan, zardo‘zlik, trikotaj, tikuvchilik, shoyi ishlab chiqarish bo’yicha respublikada yetakchi o’rinlarni egallagan. Yoshlarda bo‘sh vaqtlarini unumli tashkil qilishda, yurtimizda tashkil etilgan tikuv, to‘quv fabrikalari faoliyati bilan tanishtirib borilishi, yoki to‘garaklar tashkil etilib, kasbiy salohiyatlarini oshirib borishimiz kerak.

TARIX TA’LIMI JARAYONIDA TALABALARNING NUTQ MAHORATINI RIVOJLANTIRISH BO’YICHA METODIK TAVSIYALAR

Sharipov Umidjon Olimovich
Buxoro innovatsiyalar universiteti
magistranti.
Ilmiy rahbar:
Raxmonov Kamol Djamolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada tarix yo‘nalishi talabalari uchun monologik nutq rivojining dolzarb ekanligi, ularda monologik nutqni shakllanishi o‘z fikrini aniq, izchil va dalillarga asoslab ifoda eta olish uchun ahamiyatli ekanligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqola matnida “Buxoro

[1] Mahmudov M. Kasb mehri. // Buxoro to‘qimachisi; 1979 yil 9 iyun.
[2] Ismoilova G. O‘zbekistonda xotin-qiz ishchi kadrlar tayyorlash. – Toshkent: O‘zbekiston, 1983. – B. 22.
[3] Murtazoev A. Fabrikaning qurilishi. // Yosh leninchi, 1988- yil, 21- oktabr.

amirligining ag‘darilishi va BXSRning tashkil topishi” mavzusidagi o‘quv mashg‘uloti orqali talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasi bo’yicha amaliy tavsiyalar qayd etiladi.

Kalit so’zlar: kommunikativ kompetensiya, prezentatsiya texnologiyalari, “xalq inqilobi”, dastlabki konstitutsiya, yangi konsept, videoblog, podkast texnologiyalari, multimedia vositalari, refleksiya bosqichlari.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi oliy ta’lim tizimi o‘quv jarayonlarida ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa hozirgi kunda barcha sohalarda malakali kadrlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlari zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bugungi kunda dunyo miqyosida ham ta’lim tizimining asosiy maqsadi talabalarda ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarda yechim topish maqsadida monologik nutqni shakllantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda faqat bilim egasi bo‘lish yetarli emas, balki o‘sha bilimni yangilik yaratish, amaliyotda qo‘llash, hamkorlikda ishlash va mustaqil fikrlash orqali rivojlantira olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda kommunikativ kompetensiya – ya’ni o‘z fikrini mustaqil, mantiqiy va ravon tarzda ifoda etish qobiliyati – har bir mutaxassisning, ayniqsa, ijtimoiy soha kishilarining eng zarur kasbiy ko‘nikmalaridan biri sanaladi. Shu bois, tarix fanlari o‘quv mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish nafaqat mahalliy, balki global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Ayni paytda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy (jumladan, tarix) fanlarini o‘qitish metodikasini yangilash, kommunikativ yondashuvni kuchaytirish, interfaol mashg‘ulotlar, debatlar, prezentatsiyalar va loyiha asosida o‘qitish metodlarini keng joriy etish ishlari amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim tarix fanlarining o‘quv dasturlari o’rganilganda guvohi bo’lindiki, talabalar monologik nutqini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor berilmagan, an’anaviy ta’lim usullarining hali ham ustuvorligi, tarix fani o‘qituvchilarining zamonaviy kommunikativ metodikalardan foydalanish tajribasi yetarli emasligi bu sohada muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda [1].

Yuqorida qayd etilgan metodik muammolarning echimi sifatida mazkur kichik tadqiqotimizda tarix yo’nalishi talabalariga tashkil etilayotgan o‘quv mashg‘ulotlari uchun noan’anaviy mashg’ulot metodlari tavsiya etiladi.

“Bugungi ma’ruzani yanada qiziqarli va natijali o‘tkazish uchun nimalar qilish kerak?” Talabalar monologik nutqini rivojlantirishga va o‘z ma’ruzasini yanada samarali tashkil etishga intiluvchi har bir tarix fani o‘qituvchisining har mashg‘ulot arafasida o‘z-o‘ziga beradigan savoli bo‘lishi lozim.

Demak, tarix o‘qituvchisi kasbiy faoliyati doirasida ma’ruzaga tayyorgarlik ishlarini amalga oshirganidan so‘ng, bevosita talabalar monologik nutqini rivojlantirish metodikasiga asoslangan mashg‘ulotni tashkil etishga kirishadi.

Ma’ruzaga talabalar ishtiroki orqali monologik nutqni rivojlantirish metodikasi joriy etiladi:

– savollar beriladi va talabalarning javoblaridan foydalaniladi;

Iqtisodiy holat – bu ...

Ijtimoiy holat – bu ...

Siyosiy holat – bu ...

Talabalarning har bir javobi asosida Buxoro amirligidagi ahvol tahlil etiladi.


– talabalarning o‘zaro erkin fikr almashishlariga ruxsat beriladi, bu esa monologik nutqini rivojlantirish metodikasiga mos keladi;

O‘qituvchi va talabalar uning fikriga o‘z munosabatlarini bildiradilar. Talabalarning monologik nutqini rivojlantirishga oid bu metodik yondashuv natijasida qizil armiya tomonidan Buxoroning bombardimon qilinishi bilan bog‘liq voqeliklar tahlil etiladi. Natijada rejalar bayoni o‘rtasida bog‘lam hosil qilinadi. O‘qituvchi ma’ruzaning navbatdagi rejasi hisoblangan BXSRning tashkil topishi va hukumatning islohotlari masalalariga oid fikr-mulohazalarini bayon etishni boshlaydi.

– talabalar bilan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining chizma-grafik metodi asosida o‘quv mashg‘uloti davom ettiriladi.

“Buxoro amirligining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati” deb nomlangan birinchi reja bayoni davomida quyidagi chizma-grafik bir necha nusxada faol talabalarga tarqatiladi. Birinchi reja bayoni yakunlangach, talabalar yozgan matn o’gzaki metod (monolog) asosida muhokama qilinadi.

“BXSRning tashkil topishi va hukumatning islohotlari” deb nomlangan uchinchi reja bayoni davomida quyidagi chizma-grafik bir necha nusxada faol talabalarga beriladi. Uchinchi reja bayoni yakunlangach, talabalar yozgan matn o’gzaki metod (monolog) muhokama qilinadi (3 - rasmga qarang).



1 - rasm. Topshiriqqa mos matnlarni yozish chizmasi

Chizma ichida yozilgan matnlar tahlili orqali navbatdagi faol talaba tomonidan monologik nutqiy mahorat bilan o’qib beriladi: “1920-1924-yillar davomida jami Butunbuxoro xalq qurultoylari besh marta o‘tkazilgan, bular:

Butunbuxoro xalq vakillarining birinchi qurultoyi 1920-yil 6-8-oktyabr kunlari sobiq amirning Sitorai Mohi xossa saroyida bo‘lib o‘tgan. Butunbuxoro birinchi qurultoyi Xorazm qurultoyidan farq qilib asosan, “jo‘shqin ma’ruzalar”, “ruhli daqiqalar” bilan o‘tgan. Bu holat gazetadagi ayrim maqolalarda tanqid ham qilingan…

Xullas, talabalarning guruhiy va jamoaviy hamkorlikdagi faoliyatini amalga oshirishga doir yangi konseptga (tarixiy-muammoli topshiriq) ega mashg‘ulotlarni pedagogik loyihalash ahamiyatli jihatiga ko‘ra afzalliklarni ta’minlaydi [4].

Mazkur maqola o‘quv mashg‘ulotlarida talabalar monologik nutqini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari kirish imtihonlarida islohotlar qilinib, ijtimoiy yo‘nalishlar uchun kasbiy-amaliy tarzda, ya’ni og‘zaki bayon etish sinovlarini joriy etish kerak.

2. Yoki tarix va arxeologiya yo‘nalishlarii kirish imtihoni blokidagi geografiya fani o‘rniga ona tili va adabiyot fanini kiritish lozim.

3. Darsdan tashqari fan to‘garaklarida tarixchilarda nutq o‘stirish usullari bilan bog‘liq mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish (monografiya). –Toshkent, Turon-iqbol, 2018, –134 b.

2. O‘zbekiston tarixi fanining o‘quv dasturi. Toshkent-2023. -28 bet.

3. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. – Т.: Маънавият, 2002. – Б. 12; Ҳайитов Ш. ва б. Бухоро амирларининг олтин хазинаси. – Т.: Маънавият, 2024. – Б. 68.

4. Raxmonov K.J. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi [monografiya]. – Toshkent: Fan ziyosi, 2025. – 126 b.

IJODIY FIKRLASH VA TANQIDIY TAFAKKUR INTEGRATIVLIGI ASOSIDA BO‘LAJAK TARIXCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Abdullayev Behruzbek Anvarovich-
Buxoro innovatsiyalar universiteti
magistranti
Ilmiy rahbar:
Raxmonov Kamol Djamolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini shakllantirishda badiiy-tarixiy matnlarni tanlash va strukturalashtirishning pedagogik mexanizmi ma’lumotlarning ishonchliligi va xolisligi, tarixiy hujjatning hajmi va to‘liqligi orqali takomillashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so’zlar: malakali kadrlar, Creativity (ijodkorlik), Critical thinking (tanqidiy fikrlash), Communication (muloqot), Collaboration (hamkorlik).

Bugungi kunda dunyo miqyosida ham ta’lim tizimining asosiy maqsadi talabalarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish va innovatsion yondashuv qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda faqat bilim egasi bo‘lish yetarli emas, balki o‘sha bilimni yangilik yaratish, amaliyotda qo‘llash, hamkorlikda ishlash va mustaqil fikrlash orqali rivojlantira olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ijtomoiy fanlar ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning eng samarali shakllaridan biri sifatida global miqyosda e’tirof etilmoqda.

Mazkur maqolada yuqorida qayd etilgan barcha pedagogik va metodik omillarni inobatga olib, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini shakllantirishda fan mashg‘ulotlari samaradorligini yanada oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan o‘qituvchiga o’quv tadbiriga tayyorgarlik bosqichi uchun tanqidiy tafakkur integrativligidan qanday foydalanish usullari bo‘yicha tavsiya beriladi.

Bo‘lajak tarixchilarga tashkil etilayotgan fan mashg‘ulotlarida ko‘p hollarda an’anaviy usul, yani faqat bilim berish shakllari ustun bo‘lmoqda: ya’ni o‘qituvchi talaba oldida ko‘p ma’lumot beruvchi rolda, talaba esa ko‘proq qabul qiluvchi rolda. Bu ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish uchun yetarli emas, deb hisoblayman.

O‘zbekiston oliy yurtlarining tarix yo’nalishi talabalariga tashkil etilayotgan fanlarga an’anaviy dars jarayonidan tashqari amaliy faoliyat, loyiha-topshiriqlar, ijodiy ishlar qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan ular bilimni qabul qilishdan tashqari uni yaratish, izlanish, muammolarni yechish jarayonida faol rol o‘ynashlari mumkin [1]. Qolaversa, bo‘lajak tarix o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga oid kognitiv, ijtimoiy-madaniy, shaxsiy-faoliyatli, motivasion-qadriyatli, loyihaviy, texnologik asoslarga ega metapredmetli komponentlarni tashkil etilayotgan fanlar holatini tahliliy o‘rganish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan metodik muammolarning echimi sifatida mazkur kichik tadqiqotimizda tarix yo’nalishi talabalariga tashkil etilayotgan noan’anaviy mashg’ulot metodlari tavsiya etiladi.

Masalan, “XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda iqtisodiyot va savdoning rivojlanishi” mavzusini o‘rganishda yaxshi samara beradi[2]. O‘qituvchi talabalarga Rossiya imperiyasini Turkiston o‘lkasi bilan iqtisodiy munosabatlari muammosini mustaqil bajarish topshirig‘ini qo‘yadi. Turkistonda “paxta talvasasi”, uning kelib chiqish sabablari va oqibatlari, uning o‘sha davrdagi yechimi haqida talabalarning mustaqil fikrlari va ularning taklif-tavsiyalari tinglanadi.

1-bosqich: O‘qituvchi muammoni e’lon qilgach, talabalarni 4 ta kichik guruhga ajratadi va barcha guruhlar muammoning kelib chiqish sabablarini tahlil qiladilar.

2-bosqichda guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Har bir guruhga 3 daqiqa vaqt beriladi. Guruhlar taqdimoti tugagach, bir xil fikrlar jamlanadi. Muammoning asosiy sabablari quyidagilar ekanligi aniqlashadi:

– O‘rta Osiyoning harbiy strategik ahamiyatga ega bo‘lgan geografik joylashuvi;

– XIX asr oxirida Amerika paxtasining narxini oshishi;

– Amerika paxtasining Rossiyaga tashib keltirilishini qimmatga tushishi;

– Turkistonda yer maydonlarining ko‘pligi va ishchi kuchining arzonligi;

3-bosqichda kichik guruhlar “paxta talvasasi” muammosining oqibatlarini tahlil qiladilar va guruhlar o‘z taqdimotlarini tayyorlaydilar. Bunga 2 daqiqa vaqt beriladi. Taqdimot uchun 6 daqiqa vaqt ajratiladi. Taqdimot yakunida barcha guruhlardagi bir xil fikrlar jamlanadi, ya’ni:

– Turkiston Rossiyaning paxta mustaqilligini ta’minladi;

– 1884-yilda Amerika va mahalliy paxta navini chatishtirish natijasida a’lo sifatli yangi paxta navi yaratildi;

– Paxta agrosanoat majmuasi vujudga keldi: paxta maydoni – paxta tozalash zavodi (Turkistonda) – to‘qimachilik fabrikasi (Rossiyada);

– Paxta integrasiyasi yirik savdo-sanoat kompaniyalarini paydo bo‘lishiga olib keldi;

4-bosqichda talabalar o‘z guruhlarida muammoni yechishning turli imkoniyatlarini tahlil qilib, yechim variantlarini ishlab chiqadilar. Barcha guruhlarning taqdimotidan so‘ng guruhlardagi bir xil yechim yo‘llari o‘qituvchi rahbarligida tanlab olinadi. Bular quyidagilar:

1-yechim yo‘li: Turkiston aholisini dunyoqarashini o‘zgartirish va savodxonligini oshirish yo‘li bilan mustamlaka siyosatini, iqtisodiy qaramlikni bartaraf etish mumkin edi. Buning uchun Turkiston fuqarolarida milliy g‘urur va vatanparvarlikni shakllantirish kerak edi.

2-yechim yo‘li: Turkistonni tashqi dunyodan uzib qo‘yilganligiga e’tibor beradigan bo‘lsak, mahalliy boy savdogarlar o‘z manfaatlarini millat manfaatidan ustun qo‘ymasdan, qishloqlarni rivojlantirishga mablag‘ sarflaganda, qishloqda mahalliy sanoatni rivojlantirishga ahamiyat qaratilganda “paxta talvasasi” yillarida mayda hunarmandchilikni kapital mablag‘lar bilan ta’minlash imkoni bo‘lar edi.

3-yechim yo‘li: Turkiston paxtasi faqat Rossiyaga jo‘natilmasdan, paxta tolasiga ehtiyoji bor boshqa davlatlarga ham sotilishi yo‘lga qo‘yilishi, ya’ni Turkistonni tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarini rivojlantirishga mahalliy millat yetakchilari ko‘proq ahamiyat qaratishi lozim edi. Rossiya kapitaliga qarshi tura olish uchun mahalliy kapital mablag‘lari birlashtirilganda, o‘lkaning iqtisodiy mustaqilligini qayta tiklash imkoniyati yaratilar edi va hokazo[3].

Kichik tadqiqotimizda tarix yo’nalishi talabalariga tashkil etilayotgan o’quv faoliyatini quyidagi bosqichlarda tashkil etish bo‘yicha metodik model ishlab chiqildi:

– tayyorlov bosqichi – o‘quvchilarning qiziqish va ijodiy salohiyatini aniqlash;

– ijodiy faoliyat bosqichi – guruhiy, loyiha, muammoli va tajriba asosidagi topshiriqlarni bajarish;

– refleksiya bosqichi – o‘quvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish, yangicha g‘oyalar ishlab chiqish.

Ushbu model o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, erkin fikrlash, mustaqil qaror qabul qilishni rag‘batlantiradi.

Istiqbolda tadqiqot natijasida o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, ijodiy faoliyat ssenariylari (loyihalar, topshiriqlar, o‘yinli mashg‘ulotlar) ishlab chiqiladi. Bu tarix yo’nalishi talabalariga mashg’ulotlar tashkil etayotgan o’qituvchilarga o’z ijodkorliklarini rivojlantirishlari uchun yordam beradi.

Xullas, mazkur maqolada bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini shakllantirish uchun faol ijodiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodlar tavsiya etildi hamda bu metodik model, baholash mezonlari va milliy-amaliy integratsiyaga asoslantirildi. Natijada, bu ishimiz ta’lim tizimida ijodiy fikrlashni yangi bosqichga ko‘tarish, talabalarning tanqidiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi, deb ishonsh bildiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Олимов Ш.Ш. Олий ўқув юртларида маънавий-маърифий тарбия асослари. – Тошкент, Фан. 2004. – 85 бет.
2. O‘zbekiston tarixi fanining o‘quv dasturi. Toshkent-2025. -28 bet.
3. Zamonov A. va b. O‘zbekiston tarixi. O‘qituvchilar uchun o‘quv-metodik qo‘llanma. – T., “Tafakkur” nashriyoti, 2018. -207 bet.
4. Rahmonov K.J. Tarix fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, “FAN ZIYOSI”. 2024. -130 bet.
5. Yarmatov R.B. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirishda loyihalashtirishning amaliy asoslari. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent. 2022. – 130 bet.

O‘ZBEKISTON TARIXI FANIDAN MA’RUZA MASHG‘ULOTIGA TAYYORGARLIK KO‘RISH METODIKASIGA OID AYRIM TAVSIYALAR

Farmonov Murodjon Sunnatullayevich -
Buxoro innovatsiyalar universiteti
magistranti
Ilmiy rahbar:
Raxmonov Kamol Djamolovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix o‘qituvchilari uchun “Somoniylar davlati” deb nomlangan ma’ruza mashg‘ulotiga tayyorgarlik ko‘rish, uni takomillashtirib borish yo‘nalishlari hamda mashg‘ulotni hamkorlikda o‘qitish metodi bo‘yicha tashkil etish va uning amaliy ahamiyati yuzasidan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak tarix o‘qituvchilari, axborot jamiyati, yangi axborotlar berish, grafik organayzerlar, “Debat” usuli, ta’lim-tarbiya birligi, hamkorlik strategiyalari, davlat ta’lim standarti, muammolar yechimi,

Hozirgi globallashuv davri mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlari zimmasiga malakali kadrlar (jumladan, bo‘lajak tarix o‘qituvchilari)ni tayyorlash vazifasini yuklaydi. Chunki bo‘lajak tarix o‘qituvchisini yetuk mutaxasis qilib tayyorlash uchun o‘qitishning zamonaviy va samarali yo‘llarini topish hamda uni amalda tadbiq qilish ahamiyatlidir. Shunday ekan, hozirgacha mavjud tarix fanlari (ayniqsa, O‘zbekiston tarixining IX-X asrlar davri)ni o‘qitishda eskicha mazmun va shakldagi o‘quv mashg‘ulotlaridan voz kechish lozim. Shu orqali innovasion raqamli va axborot jamiyati uchun munosib tarixchi kadrlar tayyorlash mumkin. Shuning maqsad va vazifalardan kelib chiqib, mazkur maqola doirasida tarix o‘qituvchilarini o‘quv mashg‘ulotlariga tayyorgarligi va uni takomillashtirish metodikasiga doir ayrim tavsiyalar taqdim etiladi. [1]

O‘quv mashg‘ulotlarining muhim turlari sifatida fanning nazariyasini ochib beruvchi jarayon bu - ma’ruza hisoblanadi. Ma’ruza o‘rganilayotgan fan (tarix fanlari) bo‘yicha ilmiy bilimlar beradi. Dunyoqarashni shakllantiradi. Talabalarning bilish faoliyatini rivojlantiradi, materialni mustaqil o‘rganishning asosiy yo‘nalishi va metodikasini ko‘rsatib beradi. [2]

Mazkur kichiq tadqiqotimizda “Somoniylar davlati” mavzusidagi ma’ruzaga tayyorgarlik bosqichini o‘tayotgan o‘qituvchiga quyidagi tavsiyalarni berish maqsad qilib olindi.

Hamkorlik strategiyalarini qo‘llash asosida mashg‘ulotni tashkil qilishni rejalashtirayotgan ma’ruzachi quyidagi beshta yo‘nalishda tayyorgarlik bosqichini amalga oshirishi kerak.

Bular:

1. “Yo‘naltirish” deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi – bunda mavzuning dolzarbligini, bo‘lg‘usi kasbiy faoliyatdagi pedagogik ahamiyati muhimligini ochib berishni rejalashtirishi zarur (o‘qituvchiga tavsiya: O‘zbekiston milliy davlatchiligida Somoniylar davridagi hukumat muhim tarixiy bosqich bo‘lib, xorijiy mamlakatlar va mamlakatimiz tarixchi olimlarini mazkur mavzu o‘zining dolzarbligi bilan jalb qilib kelmoqda. Ilmiy tadqiqotlar muntazam amalga oshirilmoqda.

Pedagogik ahamiyati shundaki, umumta'lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilariga O‘zbekiston tarixi fanidan "Somoniylar davlati" mavzusi o‘tilmoqda.[3] Mazkur ma'ruzada berilayotgan dalil va ma'lumotlardan kelgusida unumli foydalanish imkoniyati mavjud).

2. "Yangi axborotlar berish" tayyorgarlik bosqichi – bunda o‘qituvchi tomonidan ma'ruza mashg‘uloti uchun asosiy ilmiy dalillar va qo'shimcha materiallar oldindan tayyorlab qo‘yiladi (o‘qituvchiga qo'shimcha materiallar yuzasidan tavsiya: Buxoro Xalq Sovet Respublikasi yillarida (1920-1924 yillar) matbuot jonkuyarlaridan biri bo‘lgan, "birinchi muharrir" nomi bilan tarixga muhrlangan Said Ahroriyning[4] "Ismoil Somoniyning sag‘anasi (X asr yodgorligi)" nomli salmoqli maqolasi[5] o‘rganilayotgan mavzumiz uchun qo‘shimcha manba hisoblanadi.

3. "Metodologik" tayyorgarlik bosqichi – bunda ma'ruza jarayonida qaysi o‘qitish usullari samara berishi tanlanib qo‘yiladi.

Darsning borishi (o‘tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuning bayoni, mustahkamlash) bosqichi uchun hamkorlik strategiyalariga asoslangan dasturlar tavsiya etiladi.

4. "Ilmiy yondashuv" deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi – bunda o‘qituvchi mazkur mavzu doirasida bir qator ilmiy izlanishlar olib borilganligidan xabardor bo‘lishi va bir qator tarixiy kitoblardan darsda foydalanishni rejalashtirishi lozim (tavsiya: Somoniylar davlati tarixiga oid tadqiqotlar doirasi mustaqillik yillarida kengayib ushbu muammoni yoritishda imkon qadar xolisona yondashilgan. Tarixchi olimlarning asl manbalarga va matbuot materiallariga tayangan holda yaratgan qator tadqiqotlari vujudga kelgan).

5. "Ta'lim-tarbiya birligi" deb nomlangan tayyorgarlik bosqichi – bunda ma'ruza uchun tayyorgarlik bosqichida o‘qituvchi o‘z oldiga qanday tarbiya elementlarini joriy qilish lozimligini rejalashtirib qo‘yishi kerak. Tarix ta'limi bu raqam va dalillarni sanash, ma'lumotlarni yozdirish, faktlarni yodlatishdan iborat emas. Har bir tarix fani o‘qituvchisini dars mashg‘ulotining asosiy maqsadi - muhim voqe'lik yoki tarixiy shaxsning faoliyatiga oid dalil va ma'lumotlar misolida talabalar ongida tarbiya elementlarini singdirish bo‘lmog‘i kerak.

Masalan, tarbiyaviy: zakovat va zukko bo‘lish (Ismoil Somoniyga berilgan ta'rif misolida), qobiliyatlilik (Ismoil Somoniyga berilgan ta'rif misolida), g‘ayratlilik (Ismoil Somoniyga berilgan ta'rif misolida).

Xullas, tarix fani o‘qituvchisi tomonidan ma'ruzaga tayyorgarlik bosqichida qayd etilgan vazifalar bajarilsa, o‘quv jarayonini tashkil etuvchi bilan talaba o‘rtasida bevosita aloqa o‘rnatiladi. Natijada o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida ilk bora yangi fikr va g‘oyalar, yangi nuqtai nazarlar bayon qilinadi, shuningdek, hamkorlik strategiyalari asosidagi o‘quv mashg‘ulotlari talabaga mushohada qilish, bu orqali bilimlar olamiga kirish yo‘llarini ko‘rsatadi. O‘qituvchi dasturning butun mazmunini emas, balki muhim va murakkab joylarini aniqlab uni ochib beradi, fandagi farazlarni keltirib, talabani mustaqil fikr yuritishga undaydi. Uni hal qilish yo‘llarini ko‘rsatadi, Bu esa talabani fan olamiga olib kirish bilan birga bilimlarni mustaqil egallashning manbalari, yo‘llari, vositalarini ko‘rsatadi. Professor-o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlari vaqtida qarama-qarshi fikrlar va o‘z nuqtai nazarlarini aytadi. Hamkorlikda o‘qitish metodiga asoslanib, tanqidiy fikrlash yo‘li bilan ilmiy xulosaga kelinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston tarixi fanining o‘quv dasturi. Toshkent-2023. -28 bet.

2.Rahmonov K.J. Tarix fanlarini o‘qitishda innovatsion texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent, "FAN ZIYOSI". 2024. -130 bet.

3. O‘zbekiston tarixi. Umumiy o‘rta ta'lim maktablarining 7-sinflari uchun darslik. Toshkent-2022. -189 bet.

4. Mahmud Said Ahroriy -1895 yilda Arabistonda tug‘ilgan. 1920 yilning kuzida Buxoroga keladi va Yosh buxoroliklar partiyasiga a'zo bo‘lib kiradi. Shu vaqtdan boshlab, BXSRning yagona matbuot organi "Buxoro axbori" gazetasida muharrir vazifasida xizmat qiladi. 1921 yil iyunidan BXSRning Ozarbayjondagi konsuli bo‘lib ishladi. Buxoroga qaytgach, 1923-1924 yillar davomida "Ozod Buxoro" gazetasida muxarrir o‘rinbosari va davlat nashriyoti rahbari lavozimlarida faoliyat yuritdi. 1925 yildan Said Ahroriy Samarqandda moliya-iqtisod texnikumida o‘qituvchilik qilgan. 1930 yil 12 noyabrda aynan shu yerda hibsga olingan. 1931 yil 23 mayda

Moskva shahrida RSFSR jinoyat majmuasining 58-moddasi 4-bandi bilan otuvga hukm etilgan. O‘limidan so‘ng oqlangan.

5. Said Ahroriy. Ismoil Somoniyning sag‘anasi (X asr yodgorligi) // “Ozod Buxoro”. 146-son. 1924 yil 27 sentabr. Qarang. K. Rahmonov. “Buxoro axbori” gazetasining birinchi muharriri Said Ahroriying “Ismoil Somoniy sag‘anasi” maqolasiga doir mulohazalar. “Markaziy Osiyoda islom madaniyati va san’ati: o‘tmish va hozirgi zamon” / “Buxoro-islom madaniyati poytaxti” nomli forumi doirasida o‘tkazilgan xalqaro onlayn konferensiya materiallari. 28-29 may 2020 yil. -Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. –B 300-304

6. O‘zbekiston tarixi (1917 – 1991 yillar). Ikkita kitob. Birinchi kitob. 1917 – 1939 yillar. Mas’ul muharrir: Q.K. Rajabov. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2019. – B.163-164.

O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARI NEFT VA GAZ SOHASINING RIVOJLANISHI (BUXORO VILOIYATI MISOLIDA)

Raufov Ixtiyor Suleymanovich
Buxoro davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston neft va gaz sanoatining mustaqqillik davrida bosib o‘tayotgan rivojlanish sari bosqichlari, yutuqlari va muammolari haqida qisqacha izoh berilgan.Shu bilan bir qatorda, sohada qilinishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar,yechilishini kutib turgan ayrim muammolar, shuningdek, bu tizimni iqtisodiyotimizning yetakchi sohasiga aylanishi istiqbollari to‘g‘risida munozara olib boriladi.

KIRISH Hozirgi zamonda davlat mustaqilligi va uning dunyo iqtisodiyotida raqobatbardoshligi - uning qay darajada yer osti boyliklaridan unumli foydalana olishiga bog‘liq bo‘lib qoldi. Oxirgi paytlarda dunyoda ro‘y berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qilar ekanmiz, energetika sohasining qay darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Qisqasi neft va gaz zaxiralariga ega davlatlar iqtisodiy jihatdan yetakchi bo‘lib boryapti. Shu jihatdan o‘rinda bizning mamlakatimizda juda qulay imkoniyatlar bor. Yana bir bor ta`kidlash lozimki, - energetika masalasi hozirgi paytda eng dolzarb bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng sanoatning barcha tarmoqlari kabi neft va gaz sanoatini rivojlantirish borasida ham bir qator qonun, qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan 30.06.2017-yildagi Respublika Prezidentining “Neftegaz sohasi boshqaruvi sistemasini takomillashtirish” hamda 04.04.2020 yildagi №ПП-4664 Neftegaz sohasining moliyaviy barqarorligini yuksaltirish”nomli farmonlarda qilinishi kerak bo‘lgan birinchi navbatli chora – tadbirlar ko‘rsatilgan. Shu bilan bir qatorda “O‘zbekneftegaz”, O‘zbekiston Respublikasi statistika Agentligi, Xalqaro Energetika Agentligi va “O‘zbekiston neft va gaz jurnali” kabi manbalardan chuqur va tahliliy foydalanilgan. Shu maqsadda bir qator muhim qonunlar, qarorlar va Prezident farmonlari qabul qilindi. Jumladan, 2017-yil 30-iyunda qabul qilingan “Neftegaz sohasi boshqaruvi sistemasini takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2020-yil 4-apreldagi №ПП-4664-son “Neftegaz sohasining moliyaviy barqarorligini yuksaltirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlar mazkur tarmoqni modernizatsiya qilish va uni bozor tamoyillari asosida boshqarishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Ushbu hujjatlarda belgilab berilgan ustuvor vazifalar qatorida boshqaruv tizimini takomillashtirish, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etdi. Shu bilan bir qatorda, “O‘zbekneftgaz” AJ, Buxoro viloyati statistika agentligi, Xalqaro energetika agentligi hamda “O‘zbekiston neft va gaz jurnali” kabi manbalarda keltirilgan ma’lumotlar ilmiy-tahliliy tadqiqotlarda asosiy daliliy baza vazifasini o‘tamokda. Mustaqillikdan keyingi dastlabki yillarda O‘zbekiston Respublikasi neft-gaz sanoati rivojlanishi uchun zarur huquqiy, tashkiliy va institutsional asos yaratildi. Qabul qilingan farmon va qarorlar tarmoqni modernizatsiya qilishga

qaratilgan bo‘lib, keyingi bosqichlarda xalqaro standartlarga mos energiya siyosatini shakllantirishga xizmat qildi.

Natijalar va muhokama 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng O‘zbekistonning neft-gaz sektori oldida keng ko‘lamli vazifalar paydo bo‘ldi. Ulardan eng asosiylari – markazlashgan sovet tizimidan bozor iqtisodiyotiga o‘tish, energiya xavfsizligini ta’minlash va xalqaro energetika tizimiga integratsiya qilish masalalari edi. O‘tgan o‘ttiz yil davomida mamlakat sanoati murakkab transformatsiya yo‘lini bosib o‘tdi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda olib borilgan islohotlarda tarmoqni rivojlantirishning asosiy vektori sifatida shaffoflikni oshirish, samaradorlikka erishish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish hamda barqaror rivojlanishni ta’minlash masalalari ko‘zda tutilgan. Bu jarayonlarda O‘zbekiston a’zo bo‘lmaganiga qaramay, xalqaro energetika hamjamiyatida faol ishtirok etib, o‘z faoliyatini Arab neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) tajribasiga muvofiqlashtirishga intildi. Mustaqillik davrida O‘zbekiston neft-gaz sanoati markazlashgan sovet tizimidan bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirildi. Bu jarayon mamlakat energiya xavfsizligini mustahkamlash va xalqaro energetika tizimiga integratsiyalashish imkoniyatlarini kengaytirdi. Meros va dastlabki qadamlar (1990-yillar – 2000-yillarning boshlarida) Sovet davridan meros qolgan sanoat tuzilmasi asosan Butunittifoq ehtiyojlari uchun gaz qazib olishga yo‘naltirilgan bo‘lib, neft qazib olish va uni chuqur qayta ishlashga yetarlicha e’tibor berilmagan edi. Mustaqillikning ilk yillarida esa yangi konlarni qidirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va samaradorlikni oshirish zaruriyati paydo bo‘ldi. Shu davrda tarmoqning eng katta muammosi yuqori resurs intensivligi va ishlab chiqarishdagi samarasizlik bilan bog‘liq edi. Buning oqibatida energiya ta’minoti tizimini diversifikatsiya qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur bo‘ldi. 1990-yillarning boshida O‘zbekiston neft-gaz sanoati sovet merosining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, yangi konlarni o‘zlashtirish va ilg‘or texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan dastlabki qadamlarni tashladi. Shu tariqa, milliy energiya siyosatining mustaqil asoslari shakllana boshladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning neft va gaz sanoati sobiq sovet davridan meros bo‘lib qolgan markazlashgan rejalashtirilgan iqtisodiy tizimdan bosqichma-bosqich bozor tamoyillariga asoslangan, jadal rivojlanayotgan sohaga aylanish jarayonini boshdan kechirdi. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar shaffoflikni ta’minlash, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, xalqaro investitsiyalarni jalb qilish, qayta ishlash samaradorligi va chuqurligini oshirish hamda ekologik talablarni inobatga olishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.O‘zbekiston Respublikasi OPECning to‘g‘ridan-to‘g‘ri a’zosi bo‘lmasa-da, mazkur tashkilot belgilaydigan yuqori ilmiy-uslubiy va metodologik standartlarga moslashish kursi tanlangan rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu yondashuv nafaqat milliy energiya xavfsizligini mustahkamlash, balki mamlakatning global energiya tizimiga integratsiyasini jadallashtirish, uzoq muddatli raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, chuqur qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish, yuqori qo‘shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni barqaror eksport bozorlariga chiqarish kelgusida sohaning strategik ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Kadrlar salohiyatini oshirish, xalqaro standartlarga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bu jarayonning muhim omillaridan hisoblanadi. Natijada, O‘zbekiston nafaqat mintaqada yetakchi energiya ishlab chiqaruvchilardan biri sifatida o‘z mavqeini mustahkamlash, balki dunyoning ilg‘or tajribalariga mos keladigan samarali boshqaruv va ishlab chiqarish mexanizmlarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining neft-gaz sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–4122-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Yillik hisobot. – Toshkent, 2023.
3. “O‘zbekneftgaz” AJ. Rasmiy axborotnomasi/ Toshkent.2024.

4. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari. – Toshkent, 2024.
5. World Bank. Uzbekistan Energy Sector Reform and Sustainability Report. – Washington D.C., 2022.
6. Asian Development Bank. Energy Sector Assessment, Strategy, and Roadmap – Uzbekistan. – Manila, 2021.
7. O‘zbekiston neft va gaz jurnali.Toshkent.2024.
8. O‘zbekiston Respublikasi statistika Agentligi. Toshkent.2024.

БУХОРО ВОҲАСИДА ЧОРВАЧИЛИК ВА У БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНА ВА УРФ-ОДАТЛАР

Бухоро давлат университети
“Археология ва Бухоро тарихи” кафедраси катта ўқитувчиси
А.И.Тўраев

Аннотация. Бухоро ваҳасининг табиий географик жойлашган ўрни дашт ва чўллардан иборат бўлганлиги боис қадимдан аҳоли чорвачилик билан кун кечириб келган. Ушбу мақолада қуйи Зарафшон ва Амударё воҳаси даштларида анъанавий чорвачилик билан шуғулланган аҳолининг турмуш тарзи, қоракўлчиликни ривожлантиришда чорвадорларнинг тажрибаси, чўпонлар жониворларни қўлга ўргатиши ва хонакилаштириш жараёни билан боғлиқ маросимлар ва урф-одатларни кенг ёритиб ўтилган.

Калит сўзлар: Зарафшон, Амударё, Қоракўл тери, “Авесто”, “зин задон” “камарбостан”, “ис”, чорвачилик, маросим, урф-одат.

Аннотация. Поскольку природно-географическое положение Бухарского оазиса представляло собой степи и пустыни, население издавна занималось животноводством. В данной статье подробно освещаются образ жизни жителей, традиционно занимавшихся скотоводством в степях нижнего Зарафшана и Амударьинского оазиса, опыт животноводов в развитии каракулеводства, обряды и обычаи, связанные с процессом приручения и одомашнивания животных пастухами.

Ключевые слова: Зарафшан, Амударья, каракулева шкура, “Авеста”, “зин задон”, “камарбостан”, “ис”, животноводство, обряд, обычай.

Annotation. Due to the fact that the natural and geographical landscape of the Bukhara oasis consisted of steppes and deserts, the population has been engaged in animal husbandry since ancient times. This article provides a detailed description of the lifestyle of the people who traditionally practiced livestock breeding in the steppes of the lower Zarafshan and Amu Darya oasis, the experience of herders in developing karakul sheep breeding, as well as the rituals and customs associated with the process of taming and domesticating animals by shepherds.

Keywords: Zarafshan, Amu Darya, karakul pelt, Avesta, zin zadon, kamarbostan, is, livestock breeding, ritual, custom.

Ўзбек оилалари қадимдан хўжаликда деҳқончилик билан бирга чорвачиликни ҳам асосий машғулот турига айлатирганлар. Бу хўжалик Бухоро воҳада милоддан аввалги II-минг йилликнинг охирларида ва милоддан аввалги I-минг йиллик бошларида Зарафшон этаклари, хусусан, ҳозирги Олот, Қоракўл, Жондор ва Ромитон атрофларида ривож топиб, бу жойлар Бухоронинг қадимги чорвадор аҳолиси учун кенг яйловга, қулай масканга айланиб борган[4,30].

Чорвачилик тараққий этган қуйи Зарафшон ва Амударё воҳаси даштларида анъанавий чорвачилик юқори товарлилик характерида сақланиб қолинганлиги кузатилади. Бу минтақларда биринчидан, чорвачилик ва деҳқончилик воҳалари қатъий чегарага эга бўлмаган. Икки хўжалик типининг бир-бирининг тўлдириши натижасида у ёки бу тарзда чорвачилик хўжалигининг тараққиёти кузатилади. Иккинчидан, икки хўжалик типининг ўзаро бир-бирини тўлдириши икки томонлама ассимиляция жараёнларини стимуллаштириб, ўтроқ ва ярим ўтроқ аҳолининг хўжалигини фаоллаштирди.

Бухоро воҳаси аҳолиси (ўзбеклар, туркманлар, араблар) учун чорвачилик асосий ва сердаромад товар ҳисобланган. Айниқса, қўйчиликнинг ривожланиши орқали озиқ-овқат маҳсулотлари: гўшт, сут; харидоргир хомашёлар: жун ва чарм олинган. Қўйлардан олинадиган энг қимматли муҳим маҳсулот Қоракўл териси бўлган. Қоракўл терига жаҳон бозорида талаб катта бўлиб, буни яққол мисоли сифатида XIX асрда Бухоро амирлиги бозорларига 120 000 дона Қоракўл терилари сотиш учун чиқарилган бўлса, ташқи бозорга 1907 йилдан 1910 йилгача 8862 бош қўй, жумладан, Россиянинг Осиё қисмига – 1673 бош ва Ғарб мамлакатларига 8888 бош қўй сотишга чиқарилган[5,9]. Шунингдек, бозорда сотиш учун кўпроқ қўй жуни, кигиз, гилам, ип, арқон каби чорвачилик маҳсулотлари ишлаб чиқарилган. Қоракўл қўйлари маҳаллий иқлим шароитларини тез-тез ўзгариб туришига чидамлилиги ва иссиқликка яйловларда ўт камчилигига бардош бера олганлиги, чидаб бўлмайдиган оғир шароитларда ҳам ўз оғирликларини йўқотсаларда, улардан ҳамма вақт сифатли Қоракўл терилари олиб турилган[6,10]. Қадимдан чўпонлар жониворларни қўлга ўргатиш ва хонакилаштириш жараёни бошлагандан эътиборан чорвачилик билан боғлиқ маросимлар ва урф-одатларни ҳам кенг нишонлаб келишган. Шу билан бирга, инсон ва табиат, одамлар ва ҳайвонот олами ўртасидаги муносабатлар кишилик жамиятининг бир неча минг йиллик меҳнат фаолияти билан боғлиқ ҳаётий тажрибалар, маънавий қарашларида ўз аксини топган. Юқорида айтиб ўтганимиздек, чорвачилик қадимий машғулот тури бўлиб, инсоният тарихининг илк даврларидан бошлаб, чорва билан боғлиқ эътиқодлар аҳоли турмуш тарзида муҳим аҳамият касб этиб борган. Зардуштийлик динининг муқаддас китоби “Авесто”да ҳам чорвага, айниқса, от, қорамол ҳамда майда туёқли ҳайвонларга алоҳида эътибор бериш, парвариш қилиш, шу билан бирга, чорвадорларнинг иймонли бўлиши таъкидлаб ўтилади[9,45].

Чорвачиликка оид маросим ва урф-одатлар моҳияти ҳамда улардан кўзланган асосий мақсадлар бўлган, яъни, маросим ва урф-одатларда чорвани кўпайтириш, уни турли касалликлар, ўлат, ёввойи йиртқич ҳайвонлар ҳамда ўғрилардан ҳимоя қилиш назарда тутилади. Чорвадорлар учун чорва ҳайвонлари соғлиги доим муҳим аҳамият касб этган. Чўпонлар чорвани ҳар хил бало-қазолар, ёвуз кучлар, ёмон кўзлар, зиён-захмати ҳамда йиртқич ҳайвонлар хуружидан асраш мақсадида йилнинг маълум бир вақтида турли маросим ва урф-одатларни ўтказиб келганлар.

Фольклоршунос олим Б.Саримсоқовнинг ёзишича, ўзбеклар ўз меҳнат фаолиятида икки хил тақвимлардан фойдаланганлар. Бу тақвимлар кишиларнинг чорвачилик ҳамда деҳқончилик фаолиятининг ҳамалга кириши ва тугалланиши билан бошқарилган. Демак, ўзбекларда икки хил йил ҳисоби бўлиб, улар қуйидагича белгиланади: деҳқон йили – 21 мартдан бошланса, чорва йили – 16 мартдан бошланган. Чўпон йилининг 16 мартдан бошланиши ҳам ерга ҳамал кириши ва ўт-ўланларнинг ўсиб чиқа бошлаши билан боғлиқ. Ана шу кундан бошлаб, чорвадорлар ёзги яйловга кўчиш ишларини бошлаб юборганлар[8,41]. Бухоро воҳаси чорвадорлари орасида ҳам айнан чўпон йили кириб келиши билан чорва қишлов жойларидан ёзги яйловларга олиб ўтилган. Элшунос олим А.А.Ашировнинг таъкидлашича, қадимдан жамийки чорвадор қавм-қабилалар орасида “зин задон” (отни эгарлаш), “камарбостан” одатига қатъий амал қилганлар. Чорвачилик қавмларда қизларга юнгдан ип йигириш, чархда ишлаш, матолар тўқиш, либослар тикиш ўргатилган, ўғил болалар эса, мол боқиш, урчитиш ва туғдириш, туя отларни парваришлаш, уларни бошқара олиш, яйловларда подани ўтлатиш, чорвани йиртқич ҳайвонлар ва қароқчилардан ҳимоя қилиши шарт бўлган. Ана шундан сўнг, ўсмирларни “зин задон” имтихонидан ўтказганлар[1,6]. Натижада, балоғат ёшига етган рўзғор юритишни ўрганиб, уй бекаси ёки оила бўлиш, чўпон, от суриш, туя миниб юриш ҳуқуқини қўлга киритган.

Чорвадорлар ёзги яйловларга кўчишда ҳафта кунларига ҳам алоҳида эътибор бериб келганлар. Чунончи, улар чорвани яйловга олиб чиқаришда ҳафтанинг ҳосиятли кунлари деб эътироф этилган чоршанба ва шанба кунларини танлаганлар. Чўпонлар наздида ҳафтанинг бошқа кунлари, айниқса, жумада кўчиб ўтиш хосиятсиз ҳисобланган. Чунки, ушбу кун барча мусулмонлар каби, ҳамма жониворлар учун дам олиш куни сифатида

белгилаб қўйилган. Шу боис, агар ушбу кун йўлга чиқиладиган бўлинса, бирор бир фалокатга йўлиқиш мумкин, деб ҳисоблашган. Ҳар йили чорвани яйловга олиб чиқиб кетишдан аввал айрим ирим-сирим ва удумларни бажарганлар. Масалан, қўйларни офатдан сақлаш учун чўпон қўлида машъала билан қўйхона ичига кириб айланган, чорвани бошқа чолихонага кўчириш олдидан исириқ ҳам тутатилган. Чўпон баҳорги яйловга кўчиш олдидан эса қишлоқдаги обрўли кишиларни ва кекса чўпонларни чақириб, қўй сўйиб, зиёфат берган. Зиёфатдан кейин мулла эса чўпонлар пири – Чўпон отага бағишлаб дуолар ўқилган[2,42]. Баҳорги ва ёзги яйловлардан чолихонага қайтишда ҳам қўйларни турли бало-қазолардан асрасин, деб исириқ тутатилган ва шу муносабат билан қўни-қўшниларга “ис” тарқатилган.

Элшунос олима Е.М.Пишерева маълумотларига кўра, Ўрта Осиё халқларида қўйга қадимдан инсонларнинг бало-қазодан асровчи илоҳий жонивор сифатида қаралиб, парвариш қилинган[7,100]. Воҳа ўзбеклари ва тожиклари орасида қўй жаннатдан чиққан жонивор деб ҳисобланганлиги боис унинг нафақат ўзи, балки, бирор бир тана аъзоси, аниқроғи, қўчқор шоҳи ҳам ёмон ниятли одамлар нигоҳини бартараф этиш ҳусусиятига эга, деб билишган. Шу сабабга кўра, уйларнинг дарвоза қисмига қўчқор шоҳини осиб қўйиш одати ҳозиргача сақланган. Қўчқор шоҳини уйнинг кираверишига осиб қўйилиши орқали уйга ёмон ниятли кишилар билан бирга кириб келувчи турли ёвуз руҳларни бартараф этишга ҳаракат килганлар.

Қўйларни муқаддаслаштирилиб, улар шаклини ҳунармандчилик буюмларида тасвирлаш анъанаси ҳозирга қадар сақланиб қолган. Бухоро каштачилигида қўчқор шоҳига ўхшаш нақшлар бугунги кунда ёш келин-куёвлар яшайдиган хонага сўзаналарда тасвир сифатида илиб қўйишади. Уларни никоҳ маросимида илиб қўйишдан мақсад келин-куёв уйини безаш эмас, балки, ёшларни турли инс-жинслардан асраш бўлган.

Чорвачилик ва чорвачилик билан боғлиқ анъанавий урф-одатлар ва маросимлар якунида хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, Бухоро аҳолиси орасидаги ижтимоий муносабатлар, чорвачилик билан боғлиқ анъаналар ўзининг қадимий асосларга эга эканлиги бугунги кунда ҳам буни гувоҳи бўлиб келяпмиз.

Адабиётлар рўйхати

1. Аширов А. “Авесто”дан мерос маросимлари. - Т.: Фан . 2001. -Б. 28.
2. Бўриев О. Ўзбек халқи боқий қадриятлари – Қарши. 2005. –Б. 142-б.
3. Жўраев М. Маросимнома. - Т.: Фан. 2008. –Б. 325.
4. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро. - Т.: Фан. 1991. –Б. 33.
5. Насыров Б. Каракулеводство и совхозах Узбекистан. - Т.: 1962. –С. 89.
6. Насыров Б. Каракулеводство и совхозах Узбекистан. - Т.: 1962. –С. 89.
7. Пишерева Е.М. Гончарное производства Средней Азии. М.: Наука, 1959. –С. 148.
8. Саримсоқов Б. Ўзбек маросим фольклори. - Т.: Фан 1986. –Б. 125.
9. Исҳоқов М. “Авесто”да чорва ва чорвадорлар. // Ўзбекистон худудида дехқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар. - Т.: Фан. 2006. –Б.45.

ХОДЖА ХАСАН БУЛГАРИ В БУХАРЕ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ И УСТНЫХ ДАННЫХ

Уркия Аблаевна Утепбергенова,[1]
Аширбек Курбанович Муминов[2]

Введение. Ходжа Хасан Булгари (ум. в 628/1298 г.) имеет ключевое значение в деле изучения интеллектуальной истории Бухары. Имеющиеся в наличии два вида источников (устных и письменных) создают противоречивую картины его биографии и деятельности в

[1] Институт востоковедения имени Р. Б. Сулейменова Комитета науки министерства науки и высшего образования Республики Казахстан, г. Алматы, ведущий научный сотрудник, доктор исторических наук.

[2] Исследовательский центр по исламской истории, искусству и культуре (ИРСИКА), советник генерального директора, доктор исторических наук.

этом городе. В данной статье предпринята попытка осуществить сравнение этих противоречивых сведений для создания более-менее реальной картины развития науки в местной богословской среде.

Культ Хасана Булгари в XIX веке

Распространение его культа в городе Бухаре фиксируется со стороны исследователей за последние два века. Бытование культа было достаточно последовательно и профессионально описано со стороны этнографов.[1] Они засвидетельствовали наличие *мазара* Ходжа Хасана Булгари в этом городе со всеми его атрибутами: квартал, одноименное кладбище, мечеть, медресе, хауз, колодец, школа (*мактаб*) для девочек. В той или иной мере этот персонаж был замечен и упомянут в работах русских исследователей истории культуры.[2]

В позднее время появилась группа работ, изучающих эту персону в его связи с историей и культурой Булгара (Татарстана).[3]

Средневековые источники

Естественно, источники из средних веков и нового времени также фиксировали состояние вопроса вокруг его имени для их эпохи.[4] Вероятно, сведения из этих источников восходят к более раннему сочинению «Макамат-и Шайх Хасан Булгари». До последнего времени считалось, что данное агиографическое сочинение утеряно и не дошло до нашего времени.

Однако недавно в 1397/2019 году данное сочинение было издано в Тегеране.[5] Автор сочинения называет себя в начале произведения (Мукаддима) как Мухаммад Зайни, относящий себя к числу учеников Хасана Булгари (с. 34). Сочинение было издано на основе уникального списка Центра письменного наследия Национальной Академии Республики Таджикистан (г. Душанбе) под номером № 4036. Объем рукописи 120 листов, что составляет 240 страниц.

Сочинение записано со слов самого шайха, по его завещанию после его смерти. Работа состоит из трех частей (кисм). Первая часть поделена на разделы (баб). Всего в изданной книге находятся девять разделов. Список дефектный: нет конца.

Уцелевшая первая часть сочинения дает возможность подвергнуть проверке этнографические данные и установить реальную последовательность событий, выделить мотивы внесенных изменений.

Происхождение Хасана Булгари

По местным преданиям он родился в Булгаре в семье царя. Выявленный источник сообщает его полное имя как Салах ад-дин Хасан ибн ‘Умар Нахчивани. Он родился в Закавказье в городе Нахичевань в 605/1208-1209 году. Его отец Ходжа ‘Умар, и как его дядя Махмуд были состоятельными людьми, занимаясь торговлей рисом (*пиринч-фуруш*).

В возрасте 23 лет Хасан Нахчевани попал в плен к монголам (мугул-у татар, с. 39). Получив свободу, он занялся торговлей (*тиджара*) и посетил поочередно города Дарбанд,

[1] Сухарева, О. А. Квартальная община позднефеодального города Бухары. – Москва: Изд-во «Наука», 1976. – С. 73–74; она же. К истории городов Бухарского ханства. – Ташкент, 1958. – С. 16, 41, 42; она же. Бухара XIX – начало XX вв. – Москва, 1966. – С. 28, 72, 84; Йўлдошев, Н., Курбонов, Х. Бухоро шаҳри ва унинг атрофидаги зиёратгоҳлар тарихи. – Бухара: «Бухоро» нашриёти, 2001. – С. 10–11.

[2] Ханыков, Н. Описание Бухарского ханства. – Санкт-Петербург, 1843. – С. 81, 82; Бартольд, В. В. Сочинения, том II, часть 1. – Москва: Издательство «Восточная литература», 1963. – С. 832–833; Иванов, П. П. Хозяйство джуйбарских шейхов. – Москва–Ленинград: Издательство Академии наук СССР, 1954; Шишкин, В. А. Архитектурные памятники Бухары. – Ташкент: издание Комитета наук Узбекской ССР, 1963. – С. 18–19.

[3] Давлетшин, Г. М. Волжская Булгария: духовная культура (домонгольский период, X – начало XIII вв.). – Казань, 1990. – С. 172–175; Ислам на территории бывшей Российской империи. Энциклопедический словарь, выпуск № 2. – Москва: Издательство «Восточная литература» РАН, 1999. – С. 18–19; Вильданова, А. Б. Ценные источники по истории культурных связей Средней Азии с Волжской Булгарией. – Ташкент: Издательство «ФАН» Академии наук Республики Узбекистан, 1997. – С. 56–59.

[4] Гафурова Р. Л. Китоби Мулла-заде. – Ташкент: Издательство «ФАН», 1992. – С. 57–58; Фахруддин, Али Сафи. Рашахату айнил-ҳаёт. Обиҳаёт томчилари. – Тошкент, 2004. – С. 51, 58, 270–272; Бальжувани, М. А. Тарихи нофеи. – Тошкент: Академия нашриёти, 2001. – С. 94.

[5] [Мухаммад Зайни]. Макамат-и Шайх Хасан Булгари / Издатели Дуктур Марйам Хусайни и Марйам Раджаби Нийа. Тихран: Интишарат-и дуктур Махмуд Афшар ба-хамкари-йи Интишарат-и Сухан, зима 1397/2019. – 278 с.

Баку, Ганджа, страну урусов, аланей и Булгар. В тамошних местах из его рук приняли ислам многие люди из числа аланов, урусов и кипчаков. Хасан Булгари в своих поездках дошел до крайнего города Алатимур (Владимир?). Период его нахождения в стране урусов и Булгаре продолжался девять лет (с. 120).

Переезд в Бухару

Занимаясь торговлей, тем не менее, он занимался также богословием, слыл знатоком многих исламских наук. Хасан Булгари упоминает свои диспуты в Булгаре вместе с богословом Усманом Фука‘и и Саййидом Бурхан ад-дином и др. Из-за острых и бескомпромиссных дискуссий он вынужден был покинуть страну и направиться в Бухару.

Путь Хасана Булгари в суфизме

В Бухаре он был торжественно встречен Сайф ад-дином Бахарзи (ум. в 1261 г.), ведущим учеником Наджм ад-дина Кубра (ум. 1218 или 1221 г.). Обращает на себя внимание сведения о 28 наставниках Хасана Булгари (он слыл *маджзуб*ом, «одержимым», «находящимся в состоянии экстатического озарения»), из которых наиболее близкими к шайху были:

Са‘д ад-дин Хаммуйи (ум. в 1252 г.), учение Кубра;

Шамс ад-дин Мухаммад Рази (ученик Хусайн Сакка, а он – ученик Абу-н-Наджиб Сухраварди).

Среди бухарских богословов с ним близко общались Бадр ад-дин Майдани, Хафиз ад-дин Насафи и Ходжа Аулийа-йи Гариб. Приводятся детали его дискуссии с местным неназванным шайхом по диалектике (*джадал*).

О научных интересах Хасана Булгари мы можем составить представление по его собеседникам и их беседах. Например, Бахарзи наследовал традиции трех школ: 1) Кубравийа, от своего наставника Кубра; 2) ханафитской школы Хорезма от Мухтара ибн Махмуда аз-Захиди (ум. в 1260 г.); 3) ханафитской школы Бухары от Шамс ал-А’имма ал-Кардари ал-Баратакини (ум. в 1242 г.).

Не менее интересно его сотрудничество с линией братства Сухравардийа через Шамс ад-дина ар-Рази. Ходжа Аулийа-йи Гариб представляет интерес через свои контакты в Йусуфом Хамадани (ум. в 1140 г.). Обращает на себя внимание отсутствие в Бухаре в данное время других последователей Йусуфа Хамадани. Известный факих Хафиз ад-дин ан-Насафи (ум. в 1310 г.) в числе последних ученых назван под титулом «Шамс ал-А’имма» (Солнце имамов), почетным прозвищем бухарских правоведов.

Научные поездки Хасана Булгари

Из числа иногородних ученых достойны упоминания Шайха Камал ад-дина ас-Сигнаки и Шайха Исхака Джанди, выходцев из золотоордынских провинций (с. 140).

Через три года, проведенных в Бухаре, Хасан Булгари отправляется в путешествие:[1] из Бухары он направляется сперва в Кирман, затем в Шираз, Шуштар, Марага, Табриз.

Хасан Булгари скончался в Табризе в 22 *раби‘* I 698/28 декабря 1298 г. Он был похоронен в местном кладбище Сурхаб. Его мнимая могила в Бухаре, таким образом, является «кадамджа» (место, куда ступила нога святого).

Заключение

Обнаружение данного источника имеет большое значение для изучения состояния исламских наук и их носителей в Бухаре и его окрестностях в постмонгольский период. Он может полезен для исследований для раннего периода Ходжаган, особенно в связи с влиянием Ходжа Хасана Булгари и кирманской среды ученых на творчество Садр аш-Шари‘а ал-Махбуби ал-Бухари (ум. в 1346 г.), из семьи «Ал-и Бурхан». Как мы знаем, Садр аш-Шари‘а называл Хасана Булгари свои учителем. Импульс Садр аш-Шари‘а на последующее развитие исламских наук был огромным.[2]

[1] Насруллаев Н.Ҳ. Умрининг уч йилини Бухорода ўтказган Шайх Хожа Ҳасан Булғорий: мухтасар талқин ва таҳлил // Ислом зиёси. – Тошкент: Ўзбекистон халқаро ислом академияси. – № 1 (2025). – С. 4–10.

[2] Идрисов К. Х. Садр аш-Шари‘а и его книга *Та‘дил ал-‘улум* // Minbar. Islamic Studies. — № 11 (2), 2018. — С. 442–451 (на арабском языке).

Благодарности

Благодарим наших коллег – проф. Недждет Тосун (Университет Мармара, Стамбул) и проф. Неъматулла Насруллаева (Международная исламская академия Узбекистана, Ташкент) за предоставление инфрмации об издании «Макамат-и Шайх Хасан Булгари», а также проект «Значение культурных памятников в исследовании интеллектуальной истории (на материалах эпиграфики некрополей Акмолинского региона» (ИРН: AP26198545) за поддержку при написании данной статьи.

BUXORO JADIDLARINING G‘OYALARIDAN FOYDALANIB YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI

Buxoro pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Raximov Azizbek Normurodovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr boshidagi Buxoro jadidlarining ma’rifiy va milliy uyg‘onish g‘oyalari asosida zamonaviy yosh avlodda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning nazariy-metodik jihatlari tahlil qilingan. Jadidlarning milliy mustaqillik, ma’rifat, erkin fikrlash, yangilikka intilish, milliy manfaatni himoya qilish kabi qarashlarining hozirgi ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro, jadidlar, tarixiy jarayon, ma’rifiy harakat, Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Shayxzoda, Mirzo Salimbek, Abdusami Kamoliddin, Fayzulla Xo‘jayev, vatanparvarlik.

Bugungi globallashuv va axborot maydonining keskin kengayishi sharoitida yoshlarni milliy g‘oya, vatanparvarlik, milliy o‘zlikni anglash ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Ayniqsa, tarixiy meros va milliy uyg‘onish g‘oyalari asosida tarbiya berish yoshlarning mustaqil fikrlashini, milliy qadriyatlarga hurmatini, yurt ravnaqi yo‘lida mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

XX asr boshlarida Turkistonning turli hududlarida, xususan Buxoroda shakllangan jadidchilik harakati milliy o‘zlikni tiklash, ma’rifat tarqatish, xalqni jaholatdan chiqarish, adolatli jamiyat qurish kabi orzu-intilishlarga asoslangan edi. Jadidlarning pedagogik qarashlari bugungi kunda yoshlar tarbiyasida — ayniqsa, ularni vatanparvarlik ruhida kamol toptirishda — juda katta ahamiyatga ega.

Buxoro jadidlari: tarixiy jarayon va ma’rifiy harakatning shakllanishi

Buxoro jadidchilik harakati 1900–1920 yillar oralig‘ida faol bo‘lgan bo‘lib, unga Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Shayxzoda, Mirzo Salimbek, Abdusami Kamoliddin, Fayzulla Xo‘jayev kabi ma’rifatparvarlar boshchilik qilgan.

Buxorodagi jadidlar o‘z faoliyatida quyidagi asosiy maqsadlarni ilgari surganlar:

Yangi usulda o‘qitish (usuli jadid)ni joriy etish;

Ilm-ma’rifat orqali xalqni uyg‘otish;

Milliy birlik va mustaqillik g‘oyasini kuchaytirish;

Adolatli davlat boshqaruvini yo‘lga qo‘yish;

Dunyo tajribasi asosida jamiyatni rivojlantirish;

Erkin fikrlash va yangilikka ochiq bo‘lish.

Ularning qarashlari diniy aqidaparastlik, jaholat va zulmga qarshi kurashib, jamiyatni isloh qilishga qaratilgan edi. Ayniqsa, Fitratning “Rahbari najot”, “Hind sayyohi”, “Munozara”, Ayniy asarlarining ruhida chuqur vatanparvarlik, milliy g‘urur, ozodlik g‘oyasi yotadi.

Jadidlarning vatanparvarlik haqidagi qarashlarining mohiyati

Buxoro jadidlari vatanparvarlikni faqat yurtni sevish emas, balki uni taraqqiy ettirish uchun mas’uliyatli bo‘lish, jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish deb talqin qilganlar. Ularning fikriga ko‘ra:

1. Vatanparvarlik – ma’rifat bilan bog‘liq

Fitrat ta’kidlaganidek, “ma’rifatsiz xalqning vatani bo‘lsa ham, vatanparvari bo‘lmaydi”. Demak, haqiqiy vatanparvarlik ilmli bo‘lishdan boshlanadi.

2. Vatanparvarlik – milliy o‘zlikni anglashdir

Ayniy o‘z asarlarida Buxoro xalqining tarixiy ildizlari, qahramonlik an’analari, adabiy merosi orqali milliy g‘ururni rivojlantirgan.

3. Vatanparvarlik – shaxsiy emas, umumxalq manfaatini himoya qilishdir

Jadidlar o‘z hayotlarini xavf ostiga qo‘yib, xalqning kelajagi uchun kurashgan. Yoshlarga o‘rnak bo‘ladigan eng muhim jihat shundadir.

4. Vatanparvarlik – yangilikka ochiqlikdir

Buxoro jadidlari taraqqiyotga intilar, dunyo ilm-fanini o‘rganish, jamiyatga tatbiq etish orqali vatan ravnaqini ko‘zlanganlar.

Jadid g‘oyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari

Yoshlarni jadid g‘oyalariga tayangan holda tarbiyalash quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

1. Tarixiy izchillik tamoyili

Yoshlar o‘z tarixini bilgan sari milliy iftixor hissi oshadi. Jadidlarning hayoti orqali vatanparvarlik namunalari ko‘rsatiladi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

Jadidlar yoshlarning mustaqil fikrlashini qadrlagan. Bu tamoyil hozirgi pedagogik jarayonda ham muhim.

3. Amaliy faoliyat orqali o‘rganish

Jadidlar teatr, maktab, matbaa, jurnallar orqali yoshlarni faol ishtirokga chorlagan. Hozirgi ta’limda loyihaviy ishlar, muzey darslari, debatlar orqali jadidlar tajribasidan foydalanish mumkin.

4. Integrativ yondashuv

Tarix + adabiyot (Fitrat, Ayniy asarlari)

Tarix + huquq (jadidlarning islohot loyihalari)

Tarix + san’at (milliy uyg‘onish madaniyati)

Zamonaviy yoshlar tarbiyasida Buxoro jadidlari g‘oyalarining ahamiyati

Buxoro jadidlarining boy merosi hozirgi avlodni sog‘lom dunyoqarash, milliy g‘urur, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagi yo‘nalishlarda katta ahamiyat kasb etadi.

1. Milliy o‘zlikni mustahkamlash

Jadidlar o‘zbek xalqining o‘tmishini qadrlashga, o‘z ildizlariga sodiq bo‘lishga chaqirgan. Yoshlar jadidlar haqida o‘rgangan sari:

milliy tarixga hurmati oshadi,

o‘zligini anglaydi,

milliy manfaatni anglay boshlaydi.

2. Ma’naviy immunitetni kuchaytirish

Bugungi axborot xurujlari sharoitida yoshlar ongiga tezda turli zararli g‘oyalar kirib kelmoqda. Jadidlarning mustaqil fikrlash, ilmli bo‘lish, haqiqatni izlash kabi tamoyillari yoshlarni bunday ta’sirlardan himoya qiladi.

3. Vatan uchun mas’uliyat hissini shakllantirish

Jadidlar o‘zining qisqa umrini ham vatan mustaqilligi uchun bag‘ishlagan. Bu yoshlar uchun jonli o‘rnakdir.

Yoshlar ongida quyidagi sifatlar shakllanadi:

fidoyilik

mas’uliyat

halollik

tashabbuskorlik

ijtimoiy faollik

4. Ilm-fan va zamonaviy tafakkurga yo‘naltirish

Jadidlarning ilg‘or qarashlari yoshlarni:

yangilik yaratishga,

ilm izlashga,

jahon tajribasini o‘rganishga,

texnologik tafakkurga yo‘naltiradi.

Bu esa zamonaviy O‘zbekiston uchun eng zarur bo‘lgan sifatlar hisoblanadi.

Jadid g‘oyalarini tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish metodlari

1. Ta’lim jarayonida jadid asarlarini integratsiya qilish

“Munozara”, “Rahbari najot”, Ayniy asarlaridan parcha o‘qish orqali yoshlar milliy uyg‘onish g‘oyasini teran his etadilar.

2. Loyiha asosida o‘rgatish (Project Based Learning) O‘quvchilar guruhlarda quyidagi mavzularda loyihalar yaratadi:

“Fitrat merosi va vatanparvarlik”

“Ayniy asarlarida xalqparvarlik g‘oyasi”

“Jadid maktablari – milliy uyg‘onish”

3. Muzey darslari

Buxoro jadidlarining uy muzeylari, tarixiy obidalariga ekskursiya uyushtirish.

4. Debat va muhokama metodlari

Jadidlarning g‘oyaviy qarashlarini zamonaviy fikrlar bilan qiyoslab muhokama qilish.

5. Sahnali mashg‘ulotlar

Jadid teatr harakatidan ilhomlanib, o‘quvchilar sahna ko‘rinishlarini tayyorlaydi:

“Jadid maktabi ochilishi”

“Muallim bilan suhbat”

“Ma’rifat uchun kurash”

Kutilayotgan natijalar

Jadid g‘oyalariga tayangan holda tarbiyalangan yoshlar:

yurt taqdiri uchun mas’uliyatli bo‘ladi;

milliy o‘zligini anglaydi;

ma’naviy immunitetga ega bo‘ladi;

ilmga, yangilikka, intellektual rivojlanishga intiladi;

milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida voyaga yetadi.

Bu esa davlatning strategik maqsadlari – barkamol, vatanparvar, ma’rifatli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda Buxoro jadidlarining boy ma’rifiy merosi bugungi kunda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda nihoyatda ahamiyatlidir. Jadidlar ilgari surgan ma’rifat, milliy o‘zlik, ozodlik, adolatparvarlik, yangilanish, ma’naviy poklik, ilmga chanqoqlik kabi g‘oyalar yosh avlodda milliy g‘urur va vatan ravnaqiga xizmat qilish tuyg‘usini mustahkamlaydi. Jadidlar merosidan oqilona foydalanish, ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga chuqur integratsiya qilish bugungi O‘zbekistonning ma’naviy siyosati bilan hamohang bo‘lib, yoshlarning ongida mustahkam ma’naviy-ma’rifiy asos yaratadi. Vatanparvar, erkin fikrlovchi, mas’uliyatli, bilimli avlodni tarbiyalash jadid g‘oyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ–5937-son qarori. – Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda taraqqiyot strategiyasi” PF–60-son Farmoni. – Toshkent, 2022.

II. Asosiy tarixiy va jadidchilik manbalari

1.Fitrat A. Oila yoki oilani boshqarmaq yo‘llari. – Buxoro, 1916.
2. Fitrat A. Rahbari najot. – Istanbul, 1923.
3. Bihbudiy M. Munozara. – Samarqand, 1911.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent

BUXORO JADIDLARINING ILMIY ME'ROSI

Rahimova Umidaxon Tursunaliyevna,
Oriental universiteti Tarix fakultetining ,
kurs magistranti.
raximova527@gmail.com

Annotatsiya: Turkistonda ijtimoiy-siyosiy hayotida jadidchilik harakatining rivojlanishi.Madaniy-ma'rifiy yangi o'qitish uslubini hamda taraqqiy va milliy istiqlol muammolarini o'z ichiga olgan..

Kalit so'z: Jadid,adabiyot,san'at,yangi usul,tarixiy taraqqiyot,qoloqlik va jaholat,jadidlar.

XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosy hayotida jadidchilik harakati keng quloch yoyib rivojlandi. Turkistonning ilg'or kishilari ma'rifatchilikning o'lkada tub o'zgarishlar qilishning bosh yo'li deb bildilar.

Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o'rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkiyzm g'oyalarini targ'ib qilishgan

Jadidchilik harakati namoyandalari ko'pincha o'zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O'sha davrning ilg'or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan avvalo siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag'lubiyatga uchrash davrlari bo'lib, ularni shartli ravishda to'rtga bo'lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o'z ichiga oladi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari quyidagilar edi.Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish,shariatni isloh qilish,xalqqa ma'rifat tarqatish,Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament,keyinchalik demokratik respublika tuzumini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish,barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo'shin tuzishdan iborat edi.

Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada hur fikrli va taraqqiyparvar kishilarning ayrim guruhlari tomonidan ochilgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyat va uyushmalardan jadidchilik harakati shakllandi.[1]

Buxorodagi jadidchilik Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda yuzaga keldi. Uning tarkibi asosan Buxorodagi shahar aholisining taraqqiyparvar qismi: ziyolilar, mullalar, mayda do'kondorlar va ma'murlar, hunarmandlar, savdogarlardan iborat edi. Jadidlarning dehqonlar va askarlar o'rtasida nufuzi avvaliga past bo'lgan. Jadidlar iqtisod va boshqaruv sohasida bir qator talablar, chunonchi, soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqishdi. Ular dastlab Buxorodagi amirlik tuzumi doirasida islohotlar joriy qilmoqchi bo'lishdi. Buxoroda vobkentlik dehqon Jo'raboy ilk yangi usul maktabini ochgan edi.

Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimchilar oqimi qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo'lingan edi.

1908-yil „Buxoroi sharif shirkati'' tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ushbu insonlar shirkatning tashkilotchilari edi.Ahmadjon Hamdiy,Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abduqodir Muhiddinov, Sadriddin Ayniy, Abdurahmon Sa'diy 1909-yil dekabrda jadidlar Buxoroda „Tarbiyai atfol" („Bolalar tarbiyasi") maxfiy jamiyatini tuzishdi (asoschilari: Abdulvohid Burhonov, Homidxo'ja Mehriy, Ahmadjon Hamdiy, Mukammil Burhonov, Hoji

[1] Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;

Rafe). Bu jamiyat turkistonlik va buxorolik yoshlarni Istanbuldagi „Buxoro ta'mimi maorif jamiyati" bo'limiga o'qishga jo'natdi[1]. Xorijdagi ta'lim yoshlar dunyoqarashida tubdan burilish yasadi. Jadidchilik Buxoro va Turkistonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirdi. 1910-yildan boshlab Buxoroda jadidchilik harakati tashkiliy tus oldi va „Tarbiyai atfol" maxfiy jamiyati asosida partiya tashkil topdi.

1904–1905-yillardagi rus-yapon urushi, 1905–1907-yillarda bo'lgan 1-rus inqilobi, 1905–1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yil Turkiyada bo'lgan Yosh turklar inqilobi jadidlar dunyoqarashiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Jadidlar o'z gazeta va jurnallar, yangi usul maktablari, turli kutubxona va qiroatxonalar, havaskor teatr truppalari tevaragida to'planishar edi.[2] Ularning ko'pchiligi shu davrning ko'zga ko'ringan ijodkorlari shoir-u yozuvchilar edi. Ular o'z asarlari bilan tarixan yangi milliy adabiyot yaratdilar. Adabiyot davr voqealariga hamohang bordi. 1910-yillardayoq ma'rifat va ozodlik g'oyalari uning markaziy mavzuyiga aylandi. Adabiyotga „millat" va „vatan" tushunchalari kirib keldi. Milliy she'rlarga rag'bat kuchaydi. Yangi zamonaviy dostonchilik maydonga keldi., realistic proza shakllandi. Shuning uchun ham bu davr adabiyoti O'zbekiston mustaqilligidan keyin *milliy* uyg'onish davri o'zbek adabiyoti deb davrlashtirildi.[3]

Adabiyotdagi bunday uyg'onish, ayni vaqtda, shu davr madaniy hayotida ham ro'y berdi. Jadidlar o'zbek xalqi hayotiga tom ma'nodagi milliy teatrni olib kirdi. Milliy matbaaning vujudga kelishi bilan kitob bosish ishi yo'lga qo'yila boshlandi. Yevropa ko'povozli musiqa san'ati bilan tanishgan jadidlar o'zbek an'anaviy musiqa uslublarini ham isloh qilishga da'vat etishgan.

Jadidchilik harakati davomida ularning o'z matbuoti shakllandi. Buxoroda 1912-yilda „Buxoroyi sharif" (muharriri – Mirzo Jalol Yusufzoda), „Turon" (muharriri –g'iyos Maxsum Husaniy).Shu tarzda, jadidchilik harakati 1906–1916-yillarda o'zining asosiy yo'lini belgilab oldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o'zligini anglab, uyushishga chaqirdi. O'lka moddiy va ma'naviy boyliklari talanayotganini oshkor qildi. Musulmon aholisiga amaliy tarzda yordam berib, mavjud hokimiyat qonun-qoidalarini tushuntira bordi.[4]

Jadid matbuoti o'z vakillarining fikrlarini e'lon qilar ekan, xalqni „har vaqt g'aflat uyqusidan uyg'otuvchi millat ongining ochqichi" ekanligini namoyon etish bilan birga Turkiston xalqini hur fikrlashga va katta siyosiy kurashga hozirlay oldi. Bu davrda „Erk", „Turon", „O'qituvchilar jamiyati" kabi uyushmalar paydo bo'ldi. Munavvarqori aytganidek, „Ularning butun umidi Rossiyadagi inqilob jarayonida mahalliy aholini milliy, diniy cheklash va jabrlashdan ozod qilish, ularning haququqlarini ovrupoliklar bilan tenglashtirish, xilma-xil maktab va matbuot ishlari hamda turli-tuman jamiyatlar tashkil etishga keng imkoniyat yaratib berishga qaratilgan edi".

Jadidchilik harakati siyosiy ma'rifatparvarlikdan jadid taraqqiyparvarlar firqasi darajasiga ko'tarila oldi. Bu harakat hamda firqa a'zolari o'z faoliyati va dasturiga ko'ra, sho'ro adabiyotlarida aytilganidek, „bir hovuch boylar manfaatiga xizmat qiluvchi liberal burjuaziya vakillari" emas, balki Turkistonning barcha xalqlari taqdirini o'ylab ish ko'rgan demokratik jarayonning namoyandalari edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
2.Hidoyatov G.A.Mening jonajon tarixim,Toshkent 1992
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999;
4. O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998
5.Shamsutdinov R,O'zbekiston tarixi 2- kitob,Toshkent 2024.

[1] Ayniy S., Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar, Moskva, 1926;
[2] O'zbekiston tarixi: yangi nigoh. Jadidlar harakatidan milliy mustaqillikka qadar, Toshkent, 1998
[3] Hidoyatov G.A,Mening jonajon tarixim,Toshkent 1992
[4] Shamsutdinov R,O'zbekiston tarixi 2- kitob,Toshkent 2024.

TARIXIY MANBALARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI.

SADULLAYEV SHAMSHOD HOJIQURBONOVICH
Buxoro tuman maktabgacha va maktab talimi bo‘lim mudiri

Annotatsiya: Maqolada tarix fanini o‘qitishda tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish zarurati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda metodik takomillashtirish yo‘llari ilmiy asosda yoritiladi. O‘quvchilarda tarixiy tafakkur, manbashunoslik ko‘nikmalari, tahliliy fikrlash va dalillash madaniyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar tizimli o‘rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajriba asosida takomillashgan metodlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: tarixiy manba, manbashunoslik, kompetensiya, tahlil usullari, tarixiy tafakkur, ta’lim metodikasi, interfaol metod, PBL, tarixni o‘qitish.

XXI asrda tarix ta’limi faktlarni yodlashga qaratilgan an’anaviy modeldan voz kechib, o‘quvchilarda tahliliy fikrlash, sabab–oqibatni anglash, dalil keltirish, manbaga asoslangan xulosa chiqarish kabi yuqori darajadagi kompetensiyalarni shakllantirishni talab qilmoqda. Tarixiy manbalar bilan ishlash — UNESCO va OECD ta’lim standartlarida tarix ta’limining asosiy ko‘nikmasi sifatida belgilangan.

O‘zbekistonning umumiy o‘rta ta’lim konsepsiyasi, davlat ta’lim standartlari, “Yangi O‘zbekiston — maktab ostonasidan” tamoyili asosida tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

1. Tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasining mazmuni

Mazkur kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Manbani aniqlash:
muallifi, yaratilgan davri, janri, maqsadi va tarixiy kontekstini belgilash.

2. Axborotni ajratib olish:
faktlar, dalillar, ijtimoiy-siyosiy mazmun, tarixiy voqelikka munosabat.

3.Solishtirish va baholash:
manbalar o‘rtasidagi farq, pozitsiyalar, sub’yektivlik darajasi.

4. Xulosa chiqarish:
tarixiy jarayonning mohiyati va ta’sirini tushuntirish.

5. Dalillangan fikr bildirish:
manbaga tayangan holda asosli javob berish.

Bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun zamonaviy metodlar zarur.

2. Tarixiy manba bilan ishlashga oid samarali metodlar

2.1. Muammoli ta’lim (Problem-based Learning — PBL)

Manbaga asoslangan muammoli savollar o‘quvchida chuqur tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Misol: “Amir Temurning Xalil Sultonga yozgan maktubi davrning siyosiy vaziyatini qanday aks ettiradi?”

2.2. Source-Based Learning (manba markazli ta’lim)

O‘quvchi asosiy bilimni o‘qituvchi emas, balki manbaning o‘zidan oladi.

Afzalligi: mustaqil fikrlash, dalillilik, ob’yektiv yondashuv.

2.3. “5 savol metodi”

Manbani tahlil qilishda eng ko‘p qo‘llaniladigan xalqaro metod:

Kim? Qachon? Qayerda? Nima uchun? Qanday?

2.4. “PEEL” tahlil modeli (Point–Evidence–Explain–Link)

O‘quvchi fikr bildiradi (Point), manbadan dalil keltiradi (Evidence), sharhlaydi (Explain), mavzu bilan bog‘laydi (Link).

2.5. “Solishtirish jadvali” metodi

Ikki yoki undan ortiq tarixiy manbalarni qiyoslab tahlil qilish:

— mazmun

— maqsad
— muallif pozitsiyasi
— tarixiy holat

2.6. Konseptual xarita (mind-map) asosida manba tahlili

Manbadagi asosiy g‘oyalarni vizual xarita orqali tuzish o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi.

2.7. Debat va tarixiy bahslar

Manbaga tayanib fikr bildirish orqali:
— dalillash madaniyati,
— nutq madaniyati,
— tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

2.8. AR/VR texnologiyalaridan foydalanish

Virtual muzeylar, 3D rekonstruksiyalar orqali manbaning tarixiy kontekstini aniq tasavvur qilish imkoniyati yaratiladi.

3. Metodikani takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

3.1. Darslik va qo‘llanmalarda manbashunoslik materiallarini kengaytirish**

Har bir mavzuda:
— birlamchi manba,
— xarita,
— tahlil savollari bo‘lishi kerak.

3.2. O‘qituvchilar malakasini oshirish

Tarixiy manbalar bilan ishlash bo‘yicha o‘qituvchilarga:
— treninglar,
— seminarlar,
— amaliy mashg‘ulotlar tashkil etilishi zarur.

3.3. Baholash mezonlarini modernizatsiya qilish

Baholash quyidagilarga asoslanishi kerak:
1. faktlarni to‘g‘ri aniqlash;
2. muallif pozitsiyasini tushunish;
3. tahliliy xulosa chiqarish;
4. manba va zamonaviy talqin o‘rtasida bog‘liqlik yaratish.

3.4. Raqamli resurslar bazasini yaratish

Milliy arxiv, qo‘lyozmalar, muzey kolleksiyalari uchun elektron ta’lim platformasini yaratish — metodikaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri.

Integrativ yondashuv. Tarix + adabiyot + geografiya + huquq fanlari bilan integratsiyalashgan darslar manba tahlilini samaraliroq qiladi.

Xulosa qilib aytganda Tarixiy manbalarni tahlil qilish kompetensiyasini rivojlantirish bugungi ta’lim tizimining asosiy maqsadlaridan biridir. Bu ko‘nikma o‘quvchilarning tarixiy tafakkuri, tanqidiy fikrlashi, dalillash madaniyati va ilmiy izlanish qobiliyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Takomillashgan metodika muammoli ta’lim, manba markazli o‘qitish, raqamli texnologiyalar, solishtirma tahlil, konseptual xaritalar va zamonaviy baholash mezonlariga tayanishi kerak.

Yurtimizda ta’lim islohotlari aynan manba bilan ishlay oladigan, tafakkuri keng, mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashga qaratilganligi ushbu metodika takomillashtirishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat ta’lim standartlari. — Toshkent, 2021.
2. Karimov B. Tarix o‘qitish metodikasi. — Toshkent: Fan, 2020.
3. Wineburg S. Historical Thinking and Other Unnatural Acts. Stanford University Press, 2001.
4. Seixas P., Morton T. The Big Six: Historical Thinking Concepts. Nelson Education, 2013.
5. Van Drie J., Van Boxtel C. “Historical reasoning in the classroom”. Educational Psychology Review, 2008.

6. UNESCO. World History Teaching Standards. Paris, 2019.

MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHISIDA IJTIMOIY-TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Saidova Oygul Husenovna 1 kurs magistr
Ahmadov Olimjon Shodmonovich Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi v,b professori p.f.d.(DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida ijtimoiy-tarixiy tafakkur kompetensiyasini shakllantirishning mazmuni, metodik asoslari, bosqichlari va innovatsion yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim, faol metodlar, tarixiy manbalar bilan ishlash, ijtimoiy tajriba va tarixiy ongni rivojlantirish tamoyillari asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tizimi, ijtimoiy-tarixiy, tafakkur, zamonaviy, makon konteksti, tarbiya, ong, vatanparvarlik, voqealar.

Zamonaviy ta’lim tizimi tarbiyachidan faqatgina pedagogik ko‘nikmalarni emas, balki ijtimoiy-madaniy, tarixiy va milliy qadriyatlarni anglash, ularga tayanib tarbiyaviy jarayonni tashkil qila olish malakasini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsida dastlabki ijtimoiy qarashlar shakllanadigan bosqich hisoblanganligi bois, tarbiyachining o‘zi yetarli ijtimoiy-tarixiy tafakkurga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-tarixiy tafakkur tushunchasi

Ijtimoiy-tarixiy tafakkur — bu shaxsning: tarixiy jarayonlar mazmunini anglay olishi, ijtimoiy hodisalarni vaqt va makon kontekstida talqin qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushunishi, tarixiy dalillar asosida xulosa chiqarishi kabi malakalar majmuasidir.

Bu kompetensiya tarbiyachining nafaqat bilimiga, balki fikrlash madaniyati va tarbiyaviy faoliyat sifatiga bevosita ta’sir etadi.

Tarbiyachida ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish zarurati

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarga dastlabki tarixiy tasavvur berish uchun

Bolalar avvalo oila, mahalla, milliy qadriyat va urf-odatlar haqida tasavvur hosil qiladi. Bu jarayon tarbiyachining tarixiy savodxonligiga tayanadi.

2. Tarixiy ong asosida vatanparvarlikni shakllantirish uchun

Tarbiyachi milliy tarix, buyuk ajdodlar, urf-odatlar haqida bolalarga to‘g‘ri, ishonchli va tarbiyaviy ma’lumot bera olishi zarur.

3. Zamonaviy kompetensiyalarni egallash uchun

Qonunlar, davlat ramzlari, jamiyat tuzilishi kabi ijtimoiy tushunchalar ham tarixiy ildizlarga ega.

Ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirishning tarkibiy qismlari

Tarixiy bilim – tarixiy faktlar, qadriyatlar, an’analar, shaxslar haqida ma’lumot.

Ijtimoiy bilim – jamiyat, oila, mahalla, davlat ramzlari, urf-odatlar haqida tushuncha.

Analitik ko‘nikma – oddiy tarixiy voqealar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushuntirish.

Tarbiyaviy kompetensiya – olingan bilimlarni 3–7 yoshli bolalarga mos tarzda yetkazish.

Madaniy muloqot kompetensiyasi – qadriyatlarni izohlash, turli ijtimoiy vaziyatlarda to‘g‘ri o‘zini tutish.

Tarbiyachida ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish bosqichlari

1-bosqich: Motivatsion-qadriyaviy tayyorgarlik

Tarixiy ongning ahamiyatini anglatish. Tarbiyachida milliy qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish. “Milliy o‘zlik”, “davlatchilik an’analari”, “mahalla institutining tarixi” kabi tushunchalar bilan tanishtirish.

2-bosqich: Nazariy-bilimiy tayyorgarlik. Maktabgacha ta’lim dasturidagi ijtimoiy-tarixiy mazmunni o‘rganish. Tarixiy manba, diqqatli kuzatish, evristik suhbat metodlari bilan ishlash.

3-bosqich: Amaliy-metodik tayyorgarlik. Tarixiy mini-syujetlar yaratish (xalq ertaklari, marosimlar, milliy bayramlar). “Rolli o‘yinlar”, “qiyosiy taqdimot”, “sahnali mashg‘ulotlar”dan foydalanish. Mahalla, muzey, kutubxona ekskursiyalari.

4-bosqich: Refleksiv-analitik baholash

Tarbiyachi o‘z faoliyatida tarixiy mazmunni qo‘llash darajasini baholaydi. Kuzatish varaqalari, baholash mezonlari, metodik monitoring qo‘llaniladi. Takomillashtirishning samarali metodlari

1. Sxematik tahlil (Diagramming Method) Tarixiy jarayonlarni sodda diagrammalar orqali tushuntirish

(masalan, “Navro‘z marosimi qanday bosqichlardan iborat?”). 2. Reallik modeli (Modeling Method)

Milliy marosimlar, qadimiy buyumlar, xalq o‘yinlarini modellashtirish. 3. Manba bilan ishlashning soddalashtirilgan shakli. Rasmlar, piktogrammalar, qiyosiy kartochkalar.

4. Integrativ yondashuv

Tarix + adabiyot (ertaklar),

Tarix + san’at (milliy naqshlar),

Tarix + geografiya (oila va mahalla hududi).

Kutilayotgan natijalar Tarbiyachida quyidagi kompetensiyalar shakllanadi:

milliy tarix va qadriyatlarni bolalarga yoshga mos tushuntira olish;

ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilish va izohlash;

bolalarda vatanparvarlik, madaniy ong, tarixiy xotirani rivojlantirish;

tarbiyaviy mashg‘ulotlarga tarixiy mazmunni integratsiya qilish;

madaniyatlararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lish.

Xulosa qilib aytganda Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisida ijtimoiy-tarixiy tafakkurni shakllantirish – zamonaviy pedagogikaning muhim talabi bo‘lib, u tarbiyaviy jarayonning mazmuni, sifatini va natijadorligini belgilaydi. Kompetensiyaga tayangan holda olib borilgan metodik tayyorgarlik bolalarda tarixiy ongning ilk bosqichini shakllantiradi, tarbiyachining esa pedagogik mahoratini yangi pog‘onaga ko‘taradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – T.: 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarda maktabgacha ta’limni rivojlantirish strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-138-son Farmoni. – Toshkent, 2022.
4. Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: MTTV, 2021.

O‘quv qo‘llanmalar va monografiyalar (milliy manbalar)

5. Yo‘ldoshev J. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
6. Qodirov A., Raxmonov H. Pedagogika (umumiy kurs). – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Hasanboeva O., Ashurova M. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi nashriyot, 2021.
8. To‘raeva F.R. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanish psixologiyasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2019.
9. Raximov A. Tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o‘rni. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.

MUNDARIJA

O.X. Xamidov. Buxoro: sharq svilizatsiyasining beshigi va tarixiy meros markazi 3

1-SHO‘BA. BUXORO ARXEOLOGIYASI, ETNOGRAFIYASI VA TOPONIMIKASI..... 5

Манзила Қурбонова, ЎЗБЕК МАДАНИЯТИДА ПАЛОВ БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНАЛАР5

Очилов Алишер Тўлис ўғли. БУХОРО ВОҲАСИНИНГ БРОНЗА ДАВРИ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ТАРИХИНИ ЁРИТИШДА ЗАМОНБОБО МАДАНИЯТИНИНГ ЎРНИ 7

Очилов Алишер Тўлис ўғли. БУХОРО ВОҲАСИДА ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИ ШАКЛЛАНИШИДА ИРРИГАЦИЯ ТИЗИМИНИНГ ЎРНИ (ПОЙКЕНТ МИСОЛИДА) .. 10

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi. “AVSTRALIYA O’ZBEKLAR JAMIYATI” TARIXIGA DOIR 11

Elmurodova Nilufar Baxtiyor qizi. BUXORIYLARNING SURIYA VA ISROILDAGI UYUSHMALARI TARIXIDAN (XX ASRNING 40-50-YILLARI) 13

Atoyeva Dilnoza Shofiddinovna. BUXORO VOHASINING ATROF-MUHIT MUAMMOLARI TARIXIY TALQINDA..... 15

Ochilova Marjona Botir qizi, Elova Dilnoza. VARAXSHANING ARXEOLOGIK O‘RGANILISHI..... 17

Atoyeva Oyshabonu, Nosirov Sh.O‘.BUXORO SHAHRINING TARIXIY LANDSHAFTI VA UNDAGI AYRIM MUAMMOLAR 20

2-SHO‘BA. BUXORO VOHASIDA DAVLATCHILIK ASOSLARI, SHAHARSOZLIK, MODDIY VA MA’NAVIY MADANIYAT MASALALARI 22

Jumaeva Nilufar Axmatovna. QUYI ZARAFSHON VOHASINING XO`JALIK AN`ANALARI TARIXIDAN (XIX ASR OXIRI-XX ASR BOSHLARI)..... 22

Нафиса Закировна Ҳаётова. ХХ АСРДА БУХОРО ШАҲРИДА ТРАНСПОРТ ТИЗИМИ ВА ЙЎЛ ИНФРАТУЗИЛМАСИ ШАКЛЛАНИШИ 25

Камола Орзиева Сайидмуродовна. ТРАНСФОРМАЦИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОЙ ЖИЗНИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ПОД ВЛИЯНИЕМ СОВЕТСКОЙ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XX ВЕКА)..... 27

Fattullayev Farrux Fazliddin o‘g‘li. BUXORONING ESKI SHAHAR QISMIDAGI ME’MORIY OBIDALAR TASNIFI..... 29

Jo’raboyev Azizbek Axmadjon o’g’li. BUXORO MODDIY MADANIYATI (O’ZBEKISTON MODDIY MADANIYATI TARIXI JURNALI ASOSIDA) 31

3-SHO‘BA. BUXORO TARIXI MANBASHUNOSLIGI VA TARIXSHUNOSLIGI 33

Ҳаитов Шадмон Аҳмадович. БУХОРО ВА ЎЗБЕКИСТОН ОСМОНИДА ҚАТНАГАН ИЛК САМАЛЁТЛАР ТАРИХИГА ДОИР (ХХ АСР ДАСТЛАБКИ ЎН ЙИЛЛИКЛАРИ) . 33

Ҳаитов Шодмон Аҳмадович. БУХОРОДА АВТОМОБИЛ ҚАТНОВИ ТАРИХИДАН (ХХ АСР БОШЛАРИ)..... 34

Haitov J.Sh. BXSR HUKUMATI YILLARIDA QISHLOQ XO‘JALIGI VA DEHQONCHILIK MADANIYATINING RIVOJLANI..... 36

Rahmonov Kamol Jamolovich. "BUXORO QIZIL MATBUOTINING QISQACHA TARIXI" TO'G'RISIDA MULOHAZALAR 38

Boltayev A’zam Xomidovich, Ochilov Shaxzod. BUXORODA TARIXIY O‘LKASHUNOSLIK SOHASI 40

Murodova Dilrabo Shomurodovna. BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVINING ZAMONAVIY FAOLIYATIDAGI RAQAMLASHTIRISH JARAYONI 42

Orziev Mahmud Zaynievich, Samadova Ruxshona Ramazon qizi. ERONDAGI 1905-1911 YILLARDA ROSSIYA-GERMANIYA ZIDDIYATLARINING KUCHAYIB BORISHI (“TURKISTON TO’PLAMI” MATERIALLARI ASOSIDA) 44

Латипов Жасур Лазиз ўғли, Эргашев Жаҳонгир Юнус ўғли. ИЛК ЎРТА АСРЛАР ДАВРИ РОМИТАН ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ТУРК ХОҚОНЛИГИ СИЁСИЙ ТАРИХИНИ ТАДҚИҚ ҚИЛИШДАГИ АҲАМИЯТИ 47
Naimov Ismat Nusratilloyevich. СУВ ТЕЖАШНИНГ БУХОРО ТАЖРИБАСИ: ТАРИХИЙ АМАЛИЁТ ВА НАТИЖА 49
Orziyev Mahmud Zayniyevich, Hamdavov Dilmurod Bobomurod o‘g‘li. MO‘G‘ULLAR ISTILOSI VA HUKUMRONLIGI DAVRIDA BUXORO VOHASIDAGI TURK-MO‘G‘UL QABILALARINING O‘RNASHUVI XUSUSIDA 53
Бобожонова Феруза Хаятовна. БУХОРО ВИЛОЯТИДА СОВЕТ МАКТАБИ ТАРИХИ 55
Мубинов Мухаммадали Акобирович. ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА АНГЛОЯЗЫЧНЫМИ ВОСТОКОВЕДАМИ (НА ОСНОВЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ОРИЕНТАЛИСТОВ) 56
Nosirov Sherzod O‘ktam o‘g‘li. TURKISTON DAVRIY MATBUOTI BUXORO AMIRLIGI TARIXINI YORITISH MANBASI 58
Abdishukurov Bobomurod Faxriddin o‘g‘li. O‘ZBEKISTONDA PEDAGOGIK KADRLAR TAYYORLASH MASALASI: BUXORO TARIXI MISOLIDA (1925-1991 YILLAR) 60
Латипов Жасур Лазиз ўғли, Сабирова Мадина Саъдулла қизи. БУХОРО АМИРЛИГИ ВА ХИВА ХОНЛИГИ ЎРТАСИДАГИ ҲАРБИЙ-СИЁСИЙ НИЗОЛАРНИНГ АҲОЛИ ҲАЁТИГА ТАЪСИРИ 63
Irgashov Xusniddin Nuridin o‘g‘li, Normatov Otabek Maxamatjonovich. BUXORO OKRUGIDA XX ASRNING 30-YILLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT XUSUSIDA MULOHAZALAR 65
Yuldashaliyeva O‘g‘iloy Maxmudjon qizi, Jumayeva Shoira Berdiyarovna. AN’ANAVIY SHARQ JAMIYATIDA AYOLLARNING MAQOMI: BUXORO AMIRLIGI MISOLIDA 70
Ikromov Nozim Ikromovich. XITOY YILNOMALARIDA TOXARISTON HAQIDAGI AYRIM MA’LUMOTLAR 72
To‘raeva Guli Baxriddinovna, Rasulov Muhammadmuso Jasur o‘g‘li. “XX ASR O‘RTA OSIYO TARIXIY-ILMIY MUHITIDA L. I. REMPEL’: TARJIMAI HOLI VA ASOSIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI” 74
Abbas Eghbal Mehran, Mohammad Reza Alam. GENEALOGY OF THE NAME BUKHARA IN HISTORICAL SOURCES 78
Abdurazzoqova Yulduz Munis qizi. BUXORO XONLIGI TARIXI AKS ETGAN SAFAVIYLAR DAVRIGA OID AYRIM MANBALAR XUSUSIDA 80
Nizamov Asqar Baxromovich. AFG’ONISTON MATBUOTI SAHIFALARIDA BUXORO AMIRLIGU TARIXIGA OID MA’LUMOTLAR XUSUSIDA 82
Astanova Nasiba Qudratovna, Orziyev Mahmud Zayniyevich. HOFIZ TANISH BUXORIYNING “ABDULLANOMA” ASARI VA UNING BUXORO TARIXINI O‘RGANISHDAGI AHAMIYATI 84
Jo‘rayev Isomiddin Ismoilovich. 1970-80-YILLARDA BUXORODA QISHLOQ XO‘JALIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNING AHVOLI XUSUSIDA 86
Xayriyev Javohirbek Oybek o‘g‘li. BUXURO SHAHRI GUZARLARI TIZIMI VA ULARNING NOMLANISHIDAGI TARIXIY O’ZGARISHLAR (XX ASRNING 30-YILLARI MISOLIDA) 88
Jurayeva Ferangiz Jamshidovna. BUXORO TARIXIGA BIR NAZAR 90
Bazarbayeva Shohsanam Muratovna. CHORVA KASALLIKLARI VA CHEGARA SIYOSATI: TURKISTON-BUXORO VETERINARIYA PUNKTLARINI TASHKIL ETISH REJALARI (XIX ASR OXIRI) 93
Teshayeva Yulduz Hakim qizi. BUXORO KIMYO MAKTABI RIVOJIGA AYOL OLIMALARNING QO‘SHGAN HISSASI. 96
Shohruz Sharipov. "XIX ASRDA AFG‘ONISTON VA ROSSIYA TURKISTONIDA CHEGARA SIYOSATINING SHAKLLANISHI VA GEOSIYOSIY OMILLARI" 97

Gadoyev Dadaxon Xayrulloyevich. XX ASRNING 30-YILLARIDAGI ATEISTIK SIYOSATNING BUXORO MASJIDLARIGA TA'SIRI 100
Sharipova Marjona Ravshan qizi, Utayeva Feruza Xolmamatovna. BUXORONING G'ARBIY YEVROPA DAVLATLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGI 103
Majidov Jo'rabek Jalilovich. XX ASR 50-80 YILLARIDA BUXORO TEMIR YO'LINING KADRLAR MASALASI 104
Ibrohimov Nozimjon Ixtiyorovich, O'rinboyeva Ro'zigul Amrullayevna. MANG'ITLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO AMIRLIGIDA HARBIY ISLOHOT 107
Rayimova Moxinabonu Rashidovna. BUXORO AMIRLIGIDA MAG`ITLAR HUKMRONLIGI 110
Qodirov Quvonch Bekmurodovich. BUXORODA POLITSIYA MIRSHABLARI XIZMATINING SHAKLLANISHI 112
Вахабов Азизжон Хамидович. ПОНЯТИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА, ЕГО МЕТОДЫ И ЗНАЧЕНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОГО ПОРТРЕТА ЭМИРА БУХАРЫ АБДУЛАХАДХАНА В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ 114
Гафурова Иродахон Мухтаровна. СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ БУХАРЫ В КОНЦЕ XVIII И НАЧАЛЕ XIX вв. 116
Хаётов Феруз Умиджонович. ИСТОРИОГРАФИЯ СТРОИТЕЛЬСТВА КОМПЛЕКСА КАЛОБОД 118
Fayziyev Abdusamad Abduxoliq o'g'li. BUYUK IPAK YO'LI ILK SAVDO MUNOSABATLARI TARIXIDA OT. 122
Boltayev Oxun Obid o'g'li. "NEMIS MUHOJIRLARINING TURKISTONDAGI HAYOTI: BIRINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (КНАУЭР Н.Х. «НЕМЦЫ ДРЕВНЕГО КРАЯ» MANBASI ASOSIDA)" 126
Rahmatilloyev Nusratillo Hikmatillo o'g'li. BUXORO AMIRLIGI TARIXIGA OID ASARLARDA AMIR MUZAFFAR SHAXSIYATIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR 128
Umedaxon.Sh.Soxibova. MADINADAGI HARAM HUDUDI: TARIXIY, DINIY VA MADANIY TAHLIL 129
Xayriyev Javohirbek Oybek o'g'li. "BUXORO PROLETARI" GAZETASI (1930-1938): TARIXIY MATBUOT, MAFKURAVIY DISKURS VA TARJIMONLAR FAOLIYATINING TAHLILI 132
Xayrullayev Umidjon Fayzullo o'g'li. BUXORO VILOYATIDA 1992-YILDAGI IJTIMOIY-IQTISODIY O'ZGARISHLAR 134
Hotamova Sevara Sulaymon qizi. AMIR NASRULLOHXON DAVRIDA BUXORO AMIRLIGI: DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. 135
Nasilloyev Sunnat Shavkat o'g'li. SOVET HUKUMATINING O'ZBEKISTON SSRDAGI 1941-1945 YILLARDA OLIB BORGAN ASPIRANTURA BOSQICHIGA OID SIYOSATI (BUXORO VILOYAT DAVLAT ARXIVI SAQLOVI HUJJATLARI MISOLIDA) 137
Nasilloyev Sunnat Shavkat o'g'li. O'ZBEKISTON SSRDA 1960-1980 YILLARDA QISHLOQ XO'JALIGI FANLARIDA ILMIY KADRLAR TAYYORLASH 140
Xamrayev Iskandar Murotjonovich. TURKISTONDA SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH VA SUG'ORISH SIYOSATINING IJOBIY VA SALBIY TOMONLARI 144
Buriyev Zavqiddin Toshpo'lat o'g'li. KASPIYORTI TEMIRYO'LI QURILISHIDA MAHALLIY AHOLINI ISHTIROKI 145
Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li. SOMONIYLAR SULOLASINING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI: TARIXIY JARAYON VA OMILLAR 147
Ahmadov Xurshid San`atovich. 1928-1929 – YILLARDA BUXORODA YANGI ALIFBO ISHLARINING AMALIY AHAMIYATI 152
Ro'ziyeva Hilola To'lqinjon qizi, Raxmonov Kamol Djamolovich. "KATTA TERROR" VA UNING BUXORO VILOYATIDAGI IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI 154
Qayumov Toshpo'lot Tohirovich, Raxmonov Kamol Djamolovich. BUXORO VA XORAZM XALQ VAKILLARI QURULTOYLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 155

Кўчаров Жамшид Кулназарович. CHO’QON CHINGIZ VALIXONOVNING BOBUR VA “BOBURNOMA” ASARI XUSUSIDAGI FIKR-MULOHAZALARI XUSUSIDA 158
Raximova Dilnoza Jamshidovna. BXSR TARIXIGA BIR NAZAR 160
Zayniddinova Shaxina Zahriddinovna. BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOT 162

4--SHO‘BA. BUXORO TASAVVUF TARIQATLARI MAKTABI; 165
Baltayeva Ma’mura. “BUXORO TASAVVUF TARIQATLARI MAKTABI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA MADANIY MEROS” 165
Latipov Mirshodbek Zayni o‘g‘li. BUXORO TASAVVUF MAKTABLARI: NAQSHBANDIYA, QODIRIYA VA KUBRAVIYA TARIQATLARINING TAQQOSIY TAHLILI 167
Mohichehra G’ulomova G’aniyevna. BUXORODA TASAVVUF TARIQATLARI VUJUDGA KELISHI TARIXIY DAVRI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR. 169

5-SHO‘BA. “BUXORIY”LARNING ILMIY, TARIXIY VA ADABIY MEROSI, ULARNING JAHON ILM-FAN VA MADANIYATIGA QO‘SHGAN HISSASI; .. 173
Yusupov Kobil Xakimboyevich, BUXORO HUDUDIDAN YETISHIB CHIQQAN HANAFIY MUHADDISLAR 173
Зафар Нажмиддинов. РАЗИЙЙ АД-ДИН АС-САРАХСИЙ ҲАЁТИ ВА АСАРЛАРИ ҲАҚИДА ИЛК МАЪЛУМОТЛАР 176
Ismailov G‘afurjon Xasanovich. TURKIYADAGI BUXOROLIK MASHOYIX AMIR AHMAD BUXORIY 179
Abduraximova Maftuna Maxammadjon qizi, Madraximov Zoxid Sharofovich. BUXORO TARIXIDA IMOM AL-BUXORIYNING O‘RNI 181

6- SHO‘BA. JAHON MADANIY MEROSI TARKIBIDA “BUXORODAGI MUQADDAS QADAMJOLAR, ZIYORATGOHLAR, AZIZ AVLIYOLAR ZIYORAT TURIZMI OBYEKTI” SIFATIDA O‘RGANILISHI 184
Boltayev.B.B. MUQADDAS QADAMJOLAR MUZEYLARI IBRAT NA’MUNASI 184

7-SHO‘BA. BUXORO SAN’ATI (MUSIQA, ME’MORCHILIK, HUNARMANDCHILIK, MINNATYURA, ZARDUZLIK, V.H.) VA MADANIYATI TARIXI; 187
Amonkeldi Axmadov. ADABIY HARAKATCHILIK: BUXORO ADABIY AN’ANASINING ILDIZLARI 187
Amonkeldi Axmadov. BUXORODA ADABIY HARAKATCHILIK (XIII-XX ASRLAR) 191
Ниязова Махсума Ильясовна. ПИСЬМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ОБ ЮВЕЛИРНЫХ УКРАШЕНИЯХ СРЕДНЕЙ АЗИИ 194
Utayeva Feruza Xolmamatovna. TO’QIMACHILIK SANOATINING TARIXIY ILDIZLARI 196
Кудратов Шухрат Ёдгорович. БУХОРО АМИРЛИГИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИКНИНГ АЙРИМ СОҲАЛАРИ ФАОЛИЯТИ ТЎҒРИСИДАГИ МУЛОҲАЗАЛАР. 198
Boltayev.B.B. O‘ZBEKISTON MUZEYLARNING INNOVATSION TARAQIYOTI OMILLARI 200
Шавкат Бобожонов, ШАКАР ГАНЖИ ВАЛИЙ – БУХОРО ҲОЛВАГАРЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ ПИРИ 202
Rahmatova Dildora Nizom qizi, Utayeva Feruza Xolmamatovna. BUXORODA YENGIL VA OG‘IR SANOATNING TARIXIY TARAQQIYOTI 205
Utayeva Feruza Xolmamatovna. Xolmatov Samandar Shovqiddin o‘g‘li. BUXORO ZARDO‘ZLIK FABRIKASI TARIXI 206

Abdullayeva Nargiza Abduhalimovna. SHAYBONIYLAR DAVRIDA BUXORODA ME'MORCHILIK 208
Дилдора Норова, БУХОРО ХАЛҚАРО ЗАРДЎЗЛИК ВА ЗАРГАРЛИК ФЕСТИВАЛИ ВА ҲУНАРМАНДЧИЛИК АНЪАНАЛАРИ. 211
Xalikova Nargiza Erkinovna. SO'G'D NUMIZMATIKASI BO'YICHA BUXORO DAVLAT MUZEYI FONDIDAN MATERIALLAR 213
Zaripova Sarvinoz Xusen qizi. SOVETLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT 214
Bo'stonova Zilola Bo'ston qizi. BUXORO VILOYATIDA TARIXIY-MADANIY TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI 217
Elmurodova Nigora Jobir qizi. BUXORO MADRASALARI VA ULARNING TA'LIM TIZIMI XIX ASR MANBALARIDA: YEVROPA VA ROSSIYA ELCHILARI QAYDNOMALARI ASOSIDA 219
G'afurova N.N. BUXORONING ME'MORIY MEROSI VA KULOLCHILIK AN'ANALARI: NODIR DEVONBEGI XONAQOSI MISOLIDA 222
Султонова Нигина Шералиевна. МУЗЕЙ - ОСНОВНОЕ ЗВЕНО В ПРОДВИЖЕНИИ НАШЕГО НАЦИОНАЛЬНОГО РЕМЕСЛЕННОГО НАСЛЕДИЯ 223
To'rayeva Nigina Baxodir qizi. BUXORO VILOYATIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR TAHLILI (XX ASRNING 50-80 YILLARI) 226
Baxtiyorov Behruz Bobirovich. ZANDANA QISHLOG'I HAQIDA 228
Mamasharifova Shahloxon Muxtorxon qizi. BUXORO MADRASALARI TARIXIDAN 232
Rustamova Shaxina O'ktam qizi. BUXORO ME'MORCHILIGI VA YODGORLIKLARI 234

8-SHO'BA. BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA ILMIY (MA'RIFATPARVARLAR, TARAQQIYPARVARLAR) MEROSINI O'RGANISH. 237

Temirov Farrux Umedovich. SADRIDDIN AYNIY PUBLITSISTIK IJODIDA VATANPARVARLIK, MAKTAB VA MAORIF MASALASI 237
O'rinova B.Z. MUSTAQILLIK - JADIDLAR VA JADID MATBUOTIDAGI DEMOKRATIK MILLIY G'OYALARNING AMALDAGI IFODASI 239
Alijonov Muslimbek Baxtiyorjon o'g'li. BUXOLIK JADID MUSO SAIDJON VA UNING "GO'RI AMIR" ASARI HAQIDA 242
Azimova K.K. JADID MAKTABLARIDA BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMI VA TARBIYA (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 245
Azimova K.K. USMON XO'JA PO'LATXO'JAYEVNING JADIDCHILIK HARAKATI VA YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASI BORASIDAGI ISHTIROKI 247
Tadjitdinov Vohid Komilovich. ITTIHOD VA TARAQQIY JAMIYATINING BUHORO JADIDLARI FAOLIYATIGA TA'SIRI 248
Ahmadova Lola Asror qizi. BUXORO MA'RIFATPARVARI SAID AHRORIY QARASHLARIDA OILA VA XOTIN-QIZLAR MASALASI 250
F.U.Temirov, Ro'ziyev Abduvali. BUXORO AMIRLIGI IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDA YOSH BUXOROLIKLARNING TUTGAN O'RNI 252
Shaxzod Yodgorov. BUXORO JADIDLARINING MA'RIFATPARVARLIK FAOLIYATI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI 255
Raxmatulloyev Umid Ashrafovich. BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA AYANCHLI TAQDIRI. 257
Hasanov Maxmudjon Husniddinovich, Raxmonov Kamol Djamolovich. MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING TA'LIMIY QARASHLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR 259
Eshmurotova Marjona Pulat qizi, O.A.Maxmudov. O'ZBEKISTONDA MADANIY HAYOT: BUXORO JADIDLARINING MA'RIFIY MEROSI (1941-1945 –YILLAR) 261
Jabborov Avazbek Aloviddin o'g'li, VADUD MAXMUDNING BOLALIK XOTIRALARI 264
Samadov G'olibjon Zaynidinovich. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA TOZALIK VA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING TASVIRI 266

Tilavova Shahnoza Salohitdinovna. BUXOROLIK JADIDLARNING XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY AHVOLI VA TA'LIMI HAQIDA QARASHLARI 271
Homidjonov Nodir Bahodir o'g'li, O.M.Normatov. XX ASR BOSHLARIDA BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY ISLOHOTLARDAGI O'RNI 273
Muxtorova Saodat Mustaqim qizi. MILLAT OYDINLARI: ABDURAUF FITRAT HAYOTI VA ILMIY MEROSI 275
Go'zal Halimova Hamza qizi. BUXORO JADIDLARINING IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATI VA ILMIY MEROSI 277

9-SHO'BA. BUXORO TARIXINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR (METODIK TAVSIYALAR, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR) 280
Utayeva Feruza Xolmamatovna. YOSHLARDA KASBIY KO'NIKMANI SHAKLLANTIRISHDA ZARDO'ZLIK, TO'QIMACHILIK, TIKUVCHILIK SANOATINING O'RNI 280
Sharipov Umidjon Olimovich, Raxmonov Kamol Djamolovich. TARIX TA'LIMI JARAYONIDA TALABALARNING NUTQ MAHORATINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR 281
Abdullayev Behruzbek Anvarovich, Raxmonov Kamol Djamolovich. IJODIY FIKRLASH VA TANQIDIY TAFAKKUR INTEGRATIVLIGI ASOSIDA BO'LAJAK TARIXCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI 284
Farmonov Murodjon Sunnatullayevich, Raxmonov Kamol Djamolovich. O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN MA'RUZA MASHG'ULOTIGA TAYYORGARLIK KO'RISH METODIKASIGA OID AYRIM TAVSIYALAR 286
Raufov Ixtiyor Suleymanovich. O'zbekistonda mustaqillik yillari neft va gaz sohasining rivojlanishi (Buxoro viloiyati misolida) 288
А.И.Тўраев. БУХОРО ВОҲАСИДА ЧОРВАЧИЛИК ВА У БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНА ВА УРФ-ОДАТЛАР 290
Уркия Аблаевна Утепбергенова, Аширбек Курбанович Муминов. ХОДЖА ХАСАН БУЛГАРИ В БУХАРЕ: СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ И УСТНЫХ ДАННЫХ ……292
Raximov Azizbek Normurodovich. BUXORO JADIDLARINING G'OYALARIDAN FOYDALANIB YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHNING AHAMIYATI ……..295
Rahimova Umidaxon Tursunaliyevna. BUXORO JADIDLARINING ILMIY ME'ROSI ……298
Sadullayev Shamshod Hojiqurbonovich. TARIXIY MANBALARNI TAHLIL QILISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH METODLARI …….300
Saidova Oygul Husenovna, Ahmadov Olimjon Shodmonovich. MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHISIDA IJTIMOIY-TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ……...302